



JAHON
TARIXI
— 11 —

G.A.HIDOVATOV

JAHON TARIXI

Eng yangi tarix

II qism (1945—2003-yillar)

**Umumta'lim maktablarining 11-sinf
o'quvchilari uchun darslik**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan*

**"SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2004**

T a q r i z c h i l a r:

XIDU politologiya kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori,
professor **R.F.Farmonov**

TDSHI Uzoq Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti kafedrasi
mudiri, tarix fanlari doktori, professor **T.Sattorov**

O'zbekiston Milliy Universiteti jahon tarixi kafedrasi mudiri,
dotsent **A.Tatibayev**

Toshkent shahar 69-o'rta maktab tarix o'qituvchisi **L.S.Bunin**

Toshkent shahar 255-maktabning oliv toifali tarix o'qituvchisi
N.Qurbanova

O'quv-metodik ishlchanma va ma'lumotlarni **V.A.Kostetskiy**
tayyorlagan

Hidoyatov G. A.

Jahon tarixi: Umumta'lim maktablarining 11-sinf
o'quvchilari uchun darslik. Eng yangi tarix. II qism
(1945—2003-y.). — T.: "Sharq", 2004.— 416 b.

BBK 63.3(0)6ya7

MUNDARIJA

Kirish	5
------------------	---

I b o b DUNYO "SOVUQ URUSH" DAVRIDA

1-§. "Sovuq urush"ning boshianishi	8
2-§. Yevropaning birlashuvi	15
3-§. Mustamlaka tizimining parchalanishi	21
4-§. «Kuch ishlatish» siyosatining yemirilishi	23
5-§. Xalqaro keskinlikning yumshashl	28
6-§. BMTning urushdan so'ng jahondagi roli	32

II b o b XX ASR IKKINCHI YARMIDA AQSH VA G'ARBIY YEVROPA MAMILAKATLARI

7-§. AQSH 50—90-yillarda	36
8-§. AQSHning 60—90-yillardagi ichki va tashqi siyosati.	44
9-§. Buyuk Britaniya 50—60-yillarda	59
10-§. Fransiya: "gollizm"ning qaror topishi	70
11-§. GPR: urushdan keyingi tiklanish	84
12-§. Italiya 50—90-yillarda	98
13-§. Ispaniya: jamiyatning demokratlashuvi	109
14-§. Portugaliya: demokratiyaga o'tish	116

III b o b SHARQIY YEVROPA VA BOLQON YARIM OROLI MAM- LAKATLARI IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG

15-§. Totalitar tuzumlarning qaror topishi	122
16-§. GDR 50—90-yillarda	129
17-§. Vengriya: totalitarizmni rad etish	135
18-§. Ruminiya: demokratiyaga o'tish	141
19-§. Albaniya: milliy tiklanish sari og'ir yo'l	147
20-§. Jugoslaviya: rivojlanisb yo'lining ziddiyatlari	151
21-§. Gretsiya: monarxiyadan demokratiyaga	160
22-§. Bolgariya 50—90-yillarda	165
23-§. Chexoslovakiya 50—90-yillarda	171
24-§. Polsha 50—90-yillarda	180
25-§. SSSR: totalitarizmdan demokratiyaga	191

IV б о б
URUSHDAN KEYINGI QARAMA-QARSHILIK.
OSIYO: MUSTAQILLIK DAVRI MUAMMOLARI

26-§. Turkiya: demokratiyaning murakkab yo‘li	207
27-§. Xitoy 50—90-yillarda	214
28-§. Vyetnam: ozodlikning og‘ir yo‘li	221
29-§. Ikkiga bo‘lingan Koreya	228
30-§. Indoneziya: diktaturating mag‘lubiyatl	238
31-§. Myanma (Birma) ittifoqi. Tailand qirolligi	244
32-§. Mongoliya: yangi jamiyat shakllanishi	248
33-§. Hindiston: demokratik davlat yo‘lida	250
34-§. Pokiston: rivojlanish ziddiyatlari	260
35-§. Afg'oniston: milliy fojea	267
36-§. Eron XX asrning ikkinchi yarmida	275
37-§. Saudiya Arabistoni: teokratiyadan ma'rifatli monarxiya tomon	284
38-§. Yaqin Sharq mamlakatlari. Arab-Isroll mojarosi .	291
39-§. Yapomiya: urushdan so‘nggi tiklanish	304
40-§. O‘ta Osiyo davlatlari	312

V б о б
LOTIN AMERIKASI: MUSTAQILLIK UCHUN
KURASHNING YANGI BOSQICHI

41-§. Urushdan keyingi davr Lotim Amerikasi	318
Kuba XX asr ikkinchi yarmida	320
Chili. Nikaragua. Venesuela	323

VI б о б
AFRIKA: OZODLIKNING QO‘LGA KIRITILISHI

42—43-§§. Shimoliy Afrika: ozodlik yo‘li	330
44-§. Tropik Afrikada mustamlakachilikning barham topishi	344
45-§. Janubiy Afrika: aparteidning tugatilishi	355

VII б о б
YANGI DEMOKRATIYA DAVRI

46-§. Umuminsoniy va ma’navly qadriyatlar ahamiyatining oshishi	363
---	-----

VIII б о б
XX ASR IKKINCHI YARMIDA FAN VA MADANIYAT

47-§. Fan va madaniyat arboblarining insonparvarlik, taraqqiyot va demokratiyaning qaror topishidagi roli	377
Jahon tarixi sanalarda	401
<i>Xulosa</i>	413

KIRISH

Ikkinci jahon urushi tugadi, hiroq insoniyat yangi muammolarga duch keldi. Ular asosida AQSh va SSSR o'rtasidagi siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlar yotardi. Ikkinci jahon urushidan so'ng ular qudratli davlat sifatida jahon siyosatiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. 1945-yildan 1991-yilgacha davom etgan o'zaro qarama-qarshilik misli ko'rilmagan qurottanish poygasiga olib keidi, nati-jada ommaviy qirg'in qilishning yangi turlari yaratildi.

G'oliblari bo'lmaydigan bunday raketa-yadroviy urushning bema'niligini umumiy tusliumish qarama-qarshi tomonlarni yangi jahon urushiga olib keluvchi yo'llardan chetlanishga undadi.

XX asrning ikkinchi yarmida ishiab chiqarish kuchlari behad o'sdi. Ilmiy-texnikaviy inqilob inson hayotining hamma tomonlariga ulkan ta'sir etuvchi beqiyos kashfiyotiarga olib keldi. Transport vositalari va aloqa vositalarining rivojlanishi barcha xalqlarmi yagona umuminsoniy hamjamiyatga birlashtirdi. **Jahon bamjamiyati, jahon jamoatchilik fikri** kabi tushunchalar odatiy jumlaga aylandi va **dunyoning bo'linmasligi, insoniyat birligi va uning xavfsizligi** kabi tushunchalar keng tarqaldi.

Jahon tarixidagi tub o'zgarishiar globallashuv jarayonining kuchli rivojlanishi bilan bog'liqki, uming asosiy belgilari ikki jahon urushiari orasida namoyon bo'la boshiadi. Ikkinci jahon urushidan so'ng globaliashuv jarayonini jahon ahamiyatiga ega ikki muhim omil — Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning tashkil etilishi va mustamlaka imperiyalarning inqirozi ta'minladi. BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari iqtisodiyot, madamiyat va ijtimoiy siyosat sohasida jahon miqyosida hamkorlikni kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Mustamlakachilikning bartaraf etilishi jahon bozori doiralarini kengaytirdi va xalqlar hamda qit'alar o'rtasidagi hamkorlik uchun ulkan imkoniyatlar ochdi.

Globallashuv jahon xo'jalik aloqalarini baynalmilashtirish sharoitlarida ishiab chiqarish kuchiarini rivojlanтирish, butun məsoniyatning madaniy va ijtimoiy darajasini ko'tarishda namoyon bo'ldi. Bu jarayon davlatlararo va davlatlar ustidan turuvchi birlashma hamda muassasalarini yaratish, xalqaro mehnat taqsimotimi chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va ilmiy kooperatsiyami rivojlanтирish bilan bog'liq keladi. Globallashuvning o'ziga xos belgisi transmilliy korporatsiyalarning (TMK) tezkor o'shida ko'rindi, ular butun jahon iqtisodiyotini o'z ta'sir doirasiga olgan.

Biroq globallashuv jarayoni ziddiyatil holda rivojlanmoqda, jamiyatning eski ijtimoiy-iqtisodiy modelining og'riqli buzilishlariga uchramoqda, ko'pgina mamlakatlarda o'tkir ijtimoiy mojarolarga olib kelmoqda.

Globallashuv faqat eng ko'p foyda olishga intiluvchi xalqaro kapital bilan o'z lagerlarida xo'jalik hayoti, ijtimoiy-huquqiy va siyosiy tizimni tartibga soluvchi davlatning milliy manfaatlari o'rtasida mojaroga olib keldi.

TMKning rivojlanishi mustaqil suveren davlatlarning barpo bo'lishida o'z aksini topgan boshqa obyektiv jahon jarayonining faolkashuviga olib keldi. BMT tashkil topgan 1945-yilda unga 51 davlat a'zo edi, hozir ular safi 186 dan ziyod. Bu davlatlar globallashuvning salbiy ta'siriga qarshl turishga intiladi va o'z milliy manfaatlari himoya qiladi. Ular o'z iqtisodiy va ijtimoiy rivojlamishi yo'lida qulay sharoitlar yaratish yo'lini izlaydi va xo'jalik hamda siyosiy mo'ljal bo'yicha mintaqaviy birlashmalarni yaratadi. Shu munosabat bilan mintaqaviy integratsiya jarayomi shakllanadi, bunda davlat guruhlari o'z an'analari, manfaatlari va geopolitik sharoitlariga muvofiq holda o'z rivojlanish yo'lini qaror toptirishga intilladi.

Shunday qilib, globallashuv, integratsiya va milliy suveremitet hozirgi zamонning yagona jahon jarayonidaagi tarkibiy qismlaridir.

I b o b

**DUNYO
“SOVUQ URUSH”
DAVRIDA**



1-§. “SOVUQ URUSH”NING BOSHLANISHI

Urushdan keyingi qarama-qarshilik 1945-yil 6 va 9-avgustda AQSH harbiy-havo kuchlari bombardimonchilarini Xiro-sima va Nagasaki nomli yapon shaharlariga atom bom-basi tashladi. Bu, bemisl qudratli yangi ommaviy qirg‘in quroli edi. Xirosimada 90 ming, Nagasakida esa 75 ming tinch aholi halok bo‘ldi. Ikkala shahar to‘liq vayron etildi, yuz minglab kishilar radioaktiv nurlanishga duchor bo‘ldi, nurlanish kasalligi ularni sekin va azobli o‘limga olib keldi. Bu, AQSHning urushdan so‘nggi dunyoga yakkahokimlikka da‘vosi edi. Mazkur voqeа “sovуq urush” boshlanishiga tutki bo‘ldi.

Rasman “sovуq urush”ning boshlanishi **1946-yil 5-martda** sobiq Angliya bosh vaziri U.Cherchillning Fultondagi amerika universitetida so‘zlagan nutqida e’lon qilindi. U.Cherchill “sharqiy kommunizm” bilan kurash uchun ingliz-amerika harbiy inttifoqini tashkil etishga chaqirdi. U urushdan so‘ng totalitarizm ta’siriga tushib qolgan Sharqiy Yevropani erkin demokratik G‘arbdan ajratib turuvchi “temir parda” haqida so‘zladи. SSSR bilan natsizmga qarshi birlashgan Yevropa endi SSSRning o‘ziga qarshi birlashdi.

“Sovуq urush” — Sharq va G‘arb mamlakatiariga nisbatan (1945—1991-yy.) qarama-qarshilik, bir-biriga dushmanlik, o‘zaro ishonchszilikni ifodalovchi bosqich.

Biroq Sovet xavfi oldidagi qo‘rquv soxta bo‘lib, asosga ega emas edi. Sovet Ittifoqi urush paytida ko‘p talafot ko‘rgan bo‘lib, yangi qarama-qarshilikka jur’at etmasdi. G‘arb davlatlarining hukmron doiralari bundan yaxshi xabardor edi. Buning ustiga 1949-yilgacha AQSH atom bombasiga monopol hukmron bo‘lib, uni qo’llash haqidagi birgina do‘q-po‘isaning o‘zi har qanday tajovuzkorlikni to‘xtatish uchun yetarli edi.

Gap bunda emas edi. G‘arb mamlakatlarining o‘zida aholi o‘zgarishlarni kutardi. Osiyo va Afrika siyosiy erkinliklar berilishini talab etmoqda edi. Cherchill aslida mavjud ahvolni saqlab qolishga chaqirdi.

Yadro quroli “sovуq urush” vositasi bo‘ldi. AQSH

uni ishlab chiqarish va bu sohadagi tadqiqotlar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish rejasini ishlab chiqdi. Bu reja 1946-yilda BMTga taqdim etildi va u istalgan mam-lakatda bunday tadqiqotlarni tekshirish huquqini ko'zda tutdi. SSSR bu rejani inkor qildi va 1949-yilda o'z atom bombasini ilk bor sinovdan o'tkazdi. Shundan boshlab "sovuj urush" yadroviy qurollanish poygasi darajasiga ko'tarildi.

**Yadroviy ustuvorlik
uchun kurash**

AQSH va SSSRdan tashqari atom qurolini boshqa mam-lakatlar ham yaratishga kirishdi, ular buning uchun moliyaviy va texnik imkoniyatga ega bo'lishdi. **1952-yilda** Angliya, **1960-yilda** — Fransiya, **1964-yilda** Xitoy o'z atom bombasini sinovdan o'tkazdi. **1974-yilda** Hindiston, **1999-yilda** Pokiston o'z atom bombalariga ega bo'ldi.

Yadro quroli takomillashib bordi. 60-yillarda endi taktik qurol turlari yaratila boshladи, ulardan odatdagilari bilan bir qatorda kichik miqyoslarda foydalanish mumkin edi. 1953-yilda SSSRda ilk marta vodorod bombasi yaratildi, u o'z vayronagarchilik kuchiga ko'ra atom va neytron bombasidan minglab marta kuchli edi.

Yadro quroli bilan bir qatorda ularni nishonga yetka-zib berish vositalari ham ishlab chiqildi. Jumladan, 1948-yili AQSH 20 km balandlikda 12 ming km uzoqlikka qadar ucha oladigan B-52 qit'alararo bombardimonchi samolyotga ega bo'ldi, u yetti yildan so'ng SSSRda ham yaratildi. 1957-yili Sovet Ittifoqida Tinch okeani akvatoriyasida 10 ming km.dan ziyodroq masofada nishonni aniq uruvchi qit'alararo ballistik raketa sinovdan o'tkazildi, bir yildan so'ng AQSHda ham shunday raketa yaratildi. Deyarli bir paytning o'zida AQSH va SSSRda uzoq masofaga suzuvchi atom suvosti kemalari yaratildi. Shu munosabat bilan raketaga qarshi mudofaa tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Ular SSSRda 1966-yilda, AQSHda 1974-yilda barpo etildi.

Qurollanish poygasi yildan-yilga tezlashib bordi. Yangidan-yangi mamlakat va qit'alar unga tortildi. 70-yillarning birinchi yarmida jahonda harbiy xarajatlar har yili 350 milliard dollarni, o'n yillik oxiriga kelib esa 400 milliard dollarni tashkil etdi, 80-yillarda insoniyat har yili qurollanish uchun 600 milliard dollarni sarf etdi.

Qurollanish poygasi dunyo xo'jaligi rivojlanishiga ulkan zarar yetkazdi, insoniyat salomatligiga zarar keltirdi. Har yili yuzlab yadro qurollari sinovdan o'tkazildi va yadroviy changlar barcha qit'alar bo'ylab atmosferaning yuqori qatlamlariga tarqaldi. Bu hol xavfli kasalliklarning tarqalishi va tuproqning buzilishiga olib keldi.

**"Trumen
doktrinasi"**

"Sovuq urush" rivojlanishi davrida G'arb davlatlari o'zlar bilan SSSR o'rtasida

qarama-qarshilikka olib keluvchi, xalqaro munosabatlar-da keskinlikni kuchaytiruvchi, ishonchszilik va shubha uyg'otuvchi chorralardan foydalanishdi. Bunday birinchi qadam 1947-yilda AQSH tomonidan ko'rildi, shu yili AQSH kongressi "**Trumen doktrinasi**" deb ataladigan hujjatni tasdiqladi. U kongress tomonidan 12-martda qabul qilindi va AQSH prezidentiga "qurolli kamchilik" tomonidan zabit etishga urinilayotgan yoki "tashqi bosim"ga qarshilik ko'rsatayotgan "erkin xalqlar"ga yordam ko'rsatishga imkon berdi. Kongress doktrinaga muvofiq Gretsya va Turkiyaga moddiy-moliyaviy va harbiy yordam ko'rsatdi.

Doktrina (lot. doctrina — ta'llimot) — davlatning ichki va tashqi siyosati yo'nalishini belgilovchi tub qarash va qoldalar tizimi.

Bu AQSH siyosatida xavfli burilish edi. Kongress qarori, mohiyatan, boshqa davlatlarning ichki ishlariga o'z xohishicha aralashish, o'z irodasini zo'r lab tiqishtirish va tartiblarini qaror toptirishni ko'zda tutar edi.

Garri Trumen (1884—1972) — demokratik partiyadan saylangan AQShning 33-prezidenti (1945—1953). U Xiroshima va Nagasakini bombardimon qillishga buyruq bergan, "sovuq urush"ning tashkilotchilaridan birlar, NATOni tashkil etish tashabbuskorilaridan birlar.

"Marshall rejasি"

1947-yil 5-iyunda AQSH davlat kotibi Jorj Marshall

Garvard universitetida so'zlagan nutqida G'arbiy Yevropani tiklash uchun moliyaviy yordam ko'rsatishni taklif qildi. Amerika hukmron doiralari iqtisodiyoti vay-

ron etilganligi va rivojlanishga mablag' yo'qligi bilan xarakterlanuvchi bu mintaqani xavfli vaziyatdan chiqarishga qaror qilishdi.

"Marshall rejasি" bo'yicha uni amalga oshirishda 16 ta Yevropa davlati ishtirok etadigan bo'ldi, amerika moliyaviy yordamini Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (YIHT) taqsimladi. 1948-yildan 1952-yilgacha bu tashkilot orqali G'arbiy Yevropa mamlakatlariiga 17 milliard dollar berildi. Bu mablag'lar mazkur mintaqada urushdan keyingi tiklanishda muhim rol o'ynadi. "Marshall rejasи" Yevropa mamlakatlari iqtisodiy tizimi tuzilmasini saqlashga imkon yaratdi.

AQSH Potsdam konferensiysi qarorlarini buzgan holda G'arbiy Germaniyada hukumat tuzish va unda pul islohotini o'tkazish haqida maxfiy muzokaralar o'tkazdi. AQSH va G'arbiy davlatlar Sovet Ittifoqining Germaniya hududidan barcha okkupatsiya qo'shinlarini olib chiqib ketishni ko'zda tutuvchi tinchlik shartnomasini tayyorlash va umumgerman organlarini tuzish haqidagi takliflarini rad etdi.

Bu hol Sovet qo'shinlari tomonidan Berlinga kirish yo'llarini qurshab olish va **1948-yilgi "Berlin inqirozi"**ga olib keldi. Butun yil mobaynida amerika samolyotlari sovet okkupatsiyasi hududida bo'lgan G'arbiy Berlin uchun zarur barcha narsalarni ta'minladi.



J. Marshall.

Shimoliy Atlantika shartnomasi

“Berlin inqirozi” amerika diplomatiyasiga Yevropada o‘z harbiy mavjudligini

kuchaytirish uchun muhim sabab bo‘ldi. 1949-yil 4-aprelda Washingtonda 12 davlat vakillari Shimoliy Atlantika shartnomasiga (NATO) imzo chekishdi. Bu davlatlar AQSH, Kanada, Belgiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Islandiya, Niderlandiya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Lyuksemburg edi. 1952-yilda shartnomaga Gretsiya va Turkiya, 1955-yilda G‘arbiy Germaniya qo‘sildi.

NATO — Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti —
1949-yil 4-aprelda o‘nta Yevropa davlatlari, AQSh va Kanada tomonidan tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoq, “sovug urush” davrida ular soni 16 ga yetdi. So‘nggi yillarda Vengriya, Polsha, Chexiya ham unga qo‘sildi.

AQSH tarixda birinchi marta Yevropa davlatlari bilan tinch paytda harbiy ittifoqqa kirdi. NATO rejasiga muvofiq, G‘arb davlatlari qurollanish poygasi va ortiqcha kuchlar bosimi ta’sirida charchatib, sovet tizimi parchalanishini tezlashtirishi lozim edi. Shimoliy Atlantika shartnomasi Sovet Ittifoqiga qarshi yo‘naltirilgan g‘arbiy harbiy-siyosiy blokning yaratilishini tugalladi.

NATO amalda Yevropa integratsiyasi yo‘lidagi ilk qadam bo‘ldi. Uning faoliyatni chegarasiz Yevropani yaratishga yo‘naltirildi. Milliy suverenitet eskirib qolgan tushuncha deb e’lon qilindi va u “atlantizm” bilan almashtirilishi, ya’ni g‘arb qadriyatlari va demokratiyasi ni muhofaza qilishning umumiy manfaatlariga bo‘ysundirilishi lozim edi.

Varshava shartnomasi. O‘IYKning tashkil topishi

Sovet Ittifoqi ham Sharqiy Yevropada harbiy-siyosiy blokning tashkil etilishiga olib keluvchi javob choralarini ko‘rdi. Bu o‘rinda urush o‘chog‘ini yoquvchi Amerika haqidagi mafkuraviy konsepsiylar ishga solindi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari g‘oyaviy-siyosiy ittifoqi dasturlari ishlab chiqildi. Biroq bu mamlakatlarni jipslashtirish qiyin bo‘ldi. Chunki ularning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi va siyosiy qarashlarida haddan ziyod farq mavjud edi.

G'arbiy Yevropa bilan doimo yaqin aloqada bo'lgan va o'zini G'arb xristian sivilizatsiyasining bir qismi sifatida ko'rgan xalqlar milliy psixologiyasi qudratli qo'shni bilan ittifoqni shakllantirish zaruriyatini qiyinchilik bilan qabul qildi.

1949-yilda Sharqiy Yevropa va Sovet Ittifoqi mamlakatlari o'rtaсидаги иқтисодиј муносабатлар ва интеграција жаронларини ривожлантirish учун давлатлар устидан турувчи орган — О'заро Иқтисодиј Ўрдам Кенгashi (О'ИҮК) ташкил etildi. Dastlab unga Albaniya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha va Sovet Ittifoqi kirdi. GDR — 1950, Mo'g'uliston — 1962, Kuba — 1972, Vyetnam — 1978-yilda unga a'zo bo'lib kirdi.

O'ИҮК — 1949-йilda sotsialistik blokka khruvchi mamlakatlarning iqtisodiy sa'y-harakatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish yo'lli bilan hosil qilingan hukumatlararo iqtisodiy tashkilot. 1991-yilda parchalanib ketdi.

G'arbiy Germaniyaning NATOga qabul qilinishi Sharqiy Yevropaning barcha mamlakatlari, ayniqsa, gitlerchilar tajovuzidan zarar ko'rgan davlatlarda xavotir uyg'otdi. Shu bois Sovet Ittifoqiga ularning rahbarlarini mazkur yurtlar xavfsizligini kafolatlay oladigan harbiy ittifoq tuzishga ishontirish qiyin bo'lmadi. 1955-yil 14-mayda Albaniya (1962-yilda shartnomada ishtirot etmay qo'ydi, 1968-yilda undan chiqqdi), Bolgariya, Chexoslovakiya, GDR, Vengriya, Polsha, Ruminiya va Sovet Ittifoqi vakillari Varshavada do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqidagi shartnomaga imzo qo'ydi. Varshava shartnomasi давлатлари улардан бирор тасига qurolli hujum bo'lgan holda o'zaro harbiy yordam ko'rsatishga kelishib olishdi.

Varshava shartnomasi — 1955-yil 14-mayda Bolgariya, Vengriya, GDR, Polsha, Ruminiya, SSSR, Chexoslovakiya va Albaniya o'rtaсида do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqidagi tuzilgan shartnomasi bo'lib, ishtirotchi davlatlar xavfsizligini ta'minlashni e'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Varshava shartnomasi tashkiloti (VSHT) NATOga qarama-qarshi ravishda tashkil etilgan. 1991-yilda faoliyatini tugatgan.

Varshava shartnomasi davlatlari Qurolli kuchlarning birlashgan qo'mondonligini tashkil etdi, uning shtabi Moskva shahrida bo'lgan. Varshava shartnomasi ilgarigi barcha ikkiyoqlama shartnomalarni almashtiruvchi yangi harbiy-siyosiy ittifoqqa aylandi. Endilikda dunyo ikki harbiy biokka parchalandi va "sovug urush" jahon miqyosiga yetdi.

Qisqacha mazmuni

- 1946-yil 5-mart — U.Cherchillning Fulton (AQSh) shahridagi nutgi, "sharqi kommunizm" bilan kurashish uchun ingliz-amerika ittifoqlini yaratishga da'vat
- 1947-yil 12-mart — AQSH kongressida "Trumen doktrinasi" tasdiqlandi. "Erkin xalqlar"ga yordam ko'rsatish (amalda — boshga davlatlar Ichkl ishianiga aralashish)
- 1948—1952-yillar — "Marshall rejası"ni amalga oshirish — G'arhiy Yevropa mamlakatlariga amerika moliyaviy yordami
- 1949-yil — SSSRda atom bombasi sinovi
- 1949-yil 4-aprel — 12 davlat Shimoily Atlantika shartnomasi (NATO)ga imzo chekdi
- 1949-yil — O'zaro iqtisodiy Yordam Kengasbi (O'IYK) Shargly Yevropa va SSSR mamlakatlari o'tasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun tashkil etildi
- 1953-yil SSSRda vodorod bombasining yaratilishi
- 1955-yil 14-may — mamlakatlardan biriga hujum qillnganda harbiy yordam ko'rsatish uchun Varshava shartnomasiga imzo chekildi
- 1966-yil — SSSRda, 1974-yilda — AQSHda raketaga qarshi mudofaa tizimlarining yaratilishi
- 70-yillar — qurollanish poygasiga har yili 350—400 milliard dollar, 80-yillarda — 600 milliard dollargacha sarflandi

Savollar

- ? 1. U.Cherchill 1946-yil 5-martda Fultonda so'zlagan nutqida ganday magsadni ko'zlagan edi?
2. "Sovug urush", "temir parda" tushunchalarining mohiyatini aniqlang?
3. AQSH va SSSR atom guroil sinovini gachon o'tkazi?

4. 50-yillardagi qurollanish poygasining asosiy bosqichlarini sanab o'ting.
5. "Trumen doktrinasi" AQSH va dunyoning boshqa mamlakatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Bunga qanday dalillar guvohlik beradi?
6. "Marshall rejasi" G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarixida qanday rol o'ynadi?
7. NATO va Varshava shartnomasi faoliyati maqsad va rejalarida qanday o'xshashlik va farqlar bor?

2-§. YEVROPANING BIRLASHUVI

**Yevropada urushdan
keyingi vaziyat**

Ikkinci jahon urushi tufayli Yevropada yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy inqiroz

jahon siyosatida Yevropa davlatlari rolining pasayishiga olib keldi. Bir paytlar jahon miqyosida yuqori mavqeli bo'lgan Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya ikki buyuk davlat oralig'ida qolib, 50-yillar oxirlarida oddiy "Yevropa" davlatlariga aylandi va to'liq mustaqil davlatlar bo'lmay qoldi. "Marshall rejasi", NATO amerika yadro quroli Yevropa siyosati va iqtisodiyoti rivojlanishida uzoq vaqt ustuvor rol o'ynashini anglatardi. Yevropa, xususan, Germaniya Sovet Ittifoqi va AQSH o'rtasidagi davomiy qarama-qarshiliklar maydoniga aylandi va ular taqqidiri bu ikki buyuk davlat munosabatlardagi keskinlik darajasiga bog'liq bo'lib qoldi.

Xalqaro munosabatiardagi bipolyar tizim — ikki buyuk davlat qarama-qarshilligiga asoslangan va ular tomonidan yaratilgan harbly-siyosly bloklar tizimidir.

Yevropa qit'asining asosiy muammosi Germaniya edi. Koreya urushi boshlanishi bilan AQSH nemis qurolli kuchlarini yaratish uchun faol harakatlar qildi. Amerikalik strateglarning fikricha, bu qurolli kuchlar amerikaliklar Uzoq Sharqda urush olib borayotgan paytda Yevropani muhofaza qilishlari lozim edi. Angliya Germaniyani qayta qurollantirish bo'yicha amerikaliklar loyihasini to'liq ma'qulladi. Biroq yangi variantning paydo bo'lishi istiqboli Fransiyani mutlaqo qoniqtirmasdi.

Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligi

Yevropa hamkorligi asosan iqtisodiy sohada mavjud bo'ldi. Bunday hamkorlik suverenitetni yo'qotishni

ko'zda tutmasdi. Aksincha, undan olingen foyda hukumat tomonidan xalq ehtiyojini qo'llab-quvvatlashi mumkin edi. Yevropa mamlakatlari rahbarlari o'tasida iqtisodiy cheklanishlardan voz kechibgina mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin, degan fikr ustuvor turdi. Fransiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman (1886—1963), GFR kansleri Konrad Adenauer (1876—1967), Italiya bosh vaziri Algido de Gasperi (1881—1954) va Belgiya bosh vaziri Pol Anri Spaak (1899—1972) kabilalar Yevropadagi bu yangi harakatda yetakchi siymolar bo'lishdi.



"Marshall rejasi" hayotda.

1950-yili R.Shuman G'arbiy Yevropada ko'mir va po'latni birlashgan holda ishlab chiqarishni yaratish taklifi bilan chiqdi. Fransiya, Italiya, G'arbiy Germaniya va Benilyuks (Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg) mamlakatlari Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YKPB)ni tashkil qildi. Uning faoliyati faqat bir soha bilangina bog'liq bo'lsa-da, biroq butun sanoat ishlab chiqarishi uchun muhim ahamiyatga ega edi. Yevropa ishlab chiqarishi yuksala boshladi. 1955-yilga kelib ko'mir ishlab chiqarish 23 foiz, temir va po'lat ishlab chiqarish qariyb 150 foizga o'sdi. Hamjamiyat bu mahsulotni ishlab chiqarishdan ham, G'arbiy Yevropa iqtisodiyoti umumiy o'sishidagi bevosita ulushidan ham rivojlanib

bordi. Uning yutug'i ko'p jihatdan muvofiqlashtirish va iqtisodiy integratsiyalash konsepsiysi tarafdorlari qarashlarini kuchaytirdi.

YKPB — Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi — 1951-yili Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'llib, bu mamlakatlar uchun ko'mir va po'lat umumiy bozorini yaratish va bojxona to'lovlari man etishni ko'zda tutgan.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining tashkil topishi

1956-yil Yevropa mamlakatlari uchun urushdan keyingi vogelikni qayta baholash yili bo'ldi. Mamlakatlar yo'l-boshchilari integratsiya jarayonini tezlashtirishga qaror qilishdi. 1957-yil YKPBga a'zo mamlakatlar **Rim protokollari** deb ataladigan hujjalarni imzolashdiki, bu hol **Yevropa iqtisodiy hamjamiyati** (YIH) yoki "**Umumiy bozor**"ga asos soldi. Bu hujjalarga imzo chekkan mamlakatlar 12 yil mobaynida bojxona to'siqlarini tugatish, umumiy soliqlarni o'rnatish, keyinchalik esa umuman yo'q qilish, ishchi kuchi erkin harakat qilishini ta'minlash majburiyatini olishdi, shuningdek, bir xil ijtimoiy kafolatlar va yagona ish haqi to'g'risida kelishib olishdi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)—“Umumiy bozor” — 1957-yilda tashkil etilgan bo'llib, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida savdoda barcha cheklanishlarni sekin-asta bar-taraf etish va bojxona siyosatini olib borishni ko'zda tutadi.

Rim protokollari imzolangan dastlabki yillar umidli natijalarini bera boshladи. 1968-yilga kelib "Umumiy bozor" mamlakatlari o'rtasida barcha bojxona soliqlari bartaraf etildi. Bu hol rejalashtirilgan muddatdan oldin-roq ro'y berdi.

Yevropa integratsiyasining siyosiy xususiyati

Umumiy siyosiy manfaatlar ikkala tomonni bir bitimga kelishga majbur etdi. 1958-yili Fransiya prezidenti bo'lgan general de Goll va 1949-yildan GFR kansleri

Yevropaning bundan keyingi birlashuvni Fransiya va Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlarga duch keldi.

bo'lib kelgan K.Adenauer murosaga kellshga qaror qillishdi. K.Adenauer Fransiyaga Yevropada siyosiy gegeomoniyaga erishishga, prezident de Goll esa SSSR bilan german masalasida hech qanday kelishuvlarga yo'l qo'ymaslikka yordam berishga majburiyat oldi.

1958-yil 14-sentabrda Fransiya prezidenti de Goll va kansler Adenauer muzokalarini natijasida mazkur mamlakatlar o'rtasidagi kellshmovchiliklarning tugagami e'lon qilingan qo'shma bayonotnomasi qabul qilindi.

Bonn va Parij ittifoqi Yevropa integratsiyasiga siyosiy tus berdi va Yevropaning bundan keyingi birlashishi yo'lidagi muhim to'siqlarmi olib tashladi. Keyingi 5 yll ichida bu ittifoq chuqurlashdi va Yevropa integratsiyasining muhim rag'batchisiga aylandi. To'g'ri, ular o'rtasida kellshmovchiliklar ham bo'ldi, biroq ikkala taraf ham ularga alohida urg'u bermay, har qanday qarama-qarshilikdan qochishga harakat qilishdi. Ayniqsa, ikki muammo — NATO va Angliya bilan munosbatlar muhim bo'ldi. De Goll Fransiyaning bu harbiy biokda ishtirok etishiga qat'iy qarshi bo'lgan va 1966-yil iyulida uning barcha tashkilotlaridan Parijm tark etishni talab qilgan. 1967-yilda NATOning shtab-kvartirasi o'zining barcha bo'linmalari bilan birga Bryusselga ko'chib o'tadi. Fransiya esa blokning harbly tuzilmalaridan chiqqanini e'lon qiladi. Fransiya G'arbiy Yevropa mamlakatlari orasida Amerika vasiyligidan ozod bo'lgan va o'z mustaqlli tashqi siyosatini yuritgan dastlabkisi bo'ldi.

Ayni paytda Fransiya YIHga yangi a'zolar oqimi kelishiga qarshilik ko'rsata olmadı. Uning qarshiligidagi qaramay, YIHga 1973-yil Angliya, Irlandiya va Daniya, 1981-yilda Gretsya, 1986-yilda Ispaniya va Portugaliya qabul qilindi.

Maastricht bitimlari

1991-yil dekabrda YIH integratsiyami chuqurlashtirishga yana bir muhim qadam qo'ydi. Hamjamiyatning 12 a'zosi golland shahri Maastrichtda yagona Yevropani yaratishni ko'zda tutuvchi **Maastricht bitimlari** deb atalluvchi hujjatlarni imzolashdi. Maastricht bitimlarida uch guruh shartnomalar — **yagona Yevropa valyutasi tashkil etish, Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish va Yevropa komissiyasini tasdiqlash** ko'zda tutildi.

YIH o‘z nomini Yevropa hamjamiyati (YH) deb o‘zgartirdi. YH mamlakatlari Yevropa siyosiy ittifoqi (Yevroittifoqi)ni yaratish yo‘li bilan tashqi siyosat va mudofaami muvofiqlashtirish hamda bu yo‘nalishda yagona asoslarmi ishlab chiqishmi mo‘ljal qilishdi. Kelgusida yagona tashqi va umumiy liarbiy siyosatni shakllantirish ko‘zda tutilgan Maastricht bitimlarining uchinchi guruhi Yevropa komissiyasini tuzishga tegishli. U Bryusselda ishlay boshlashi va YH mamlakatlari sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, qishloq xo‘jaligi va ekologiya sohalari siyosatini tartibga soluvchi muassasa bo‘lishi lozim edi. Yevropa komissiyasi davlat ustidan turuvchi hukumat boshqaruvi funksiyalariga ega bo‘la bordi va YHning barcha mamlakatlari unga o‘z vakolatlarini berishi lozim edi. Bu milliy suveren huquqlarni cheklash bo‘lardi, biroq YH mamlakatlari yo‘lboshchilari bu yo‘ldan yagona Yevropani mustahkamlash uchun borishdi.

YH bu orada yangi a‘zolar — Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya bilan to‘ldi. Endi uning tarkibida 15 davlat bor va bir necha davlat qabul qilinishini kutmoqda.

2002-yil I-yanvardan e’tiboran Maastricht bitimlariga muvofiq Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (Angliyadan tashqari) Yevropaning yangi pul birligi — “yevro” muomalaga kiritildi. 15 mamlakat xalqlari hech bir afsus-nadomatsiz o‘zlarining eski valyutalari — gulden, frank, marka, taler, shillinglari bilan xayrashishdi va yangisini qabul qilishdi.

Yevropa siyosiy ittifoqini yaratish sohasida muvafaqiyatlarga erishildi. NATOning 1998-yil Serbiyaga qarshi harbiy operatsiyasi Yevropa davlatlarining birgalidagi siyosatini ishiab chiqish jarayonini tezashtirdi. Shu bois, 1999-yil dekabrda Xelsinkidagi Yevropa Ittifoqi sammitida unga kiruvchi 15 G‘arbiy Yevropa davlatlari rahbarlari inqirozli joylarda tinchlikni saqlash uchun o‘z Yevropa qurolli kuchlarini yaratish haqida qaror qabul qildi, Yevroittifoq tashqi ishlar vazirlari kengashi qoshida harbiy masalalar va xavfsizlik bo‘yicha doimiy qo‘mita tashkil etildi, unga YH mamlakatlari bosh shtabiari rahbatlari kirgan.

Yevropa Kengashi

Yevropaning birlashish jarayoni boshqa yo‘nalishga ham

ega va Yevropa Kengashi bilan bog'liq. Mazkur hukumatlararo va xalqaro tashkilot nizomiga 1949-yil 5-mayda imzo chekildi va u 3-avgustdan kuchga kirdi. Dastavval unga G'arhiy Yevropaning 10 davlati kirdi, 1978-yildan uning ishtirokchilari 21 taga yetdi. 90-yillarda Sharqi Yevropaning barcha mamlakatlari unga a'zo bo'lib kirishdi. 1996-yilda Rossiya ham unga a'zo bo'lib kirdi. Hozirda Yevropa Kengashiga qariyb butun Yevropa kiradi (40 ga yaqin davlat).

Yevropa Kengashining oliv organlari Tashqi ishlar vazirlari qo'mitasi va Parlament assambleyasi bo'lib, ularga milliy parlamentlar o'z deputatlarini a'zolik badallarining proporsional miqdoriga mos sonda jo'nata-di. Parlament assambleyasi fraksiyasi milliy emas, balki siyosiy belgisiga ko'ra shakllanadi.

Yevropa Kengashi demokratiya va qonunchilik, shuningdek, inson huquqlarini rivojlantirish va himoya qilish uchun tashkil etildi. Vazirlar Qo'mitasi va Parlament assambleyasi davlatlar qabul qilgan majburiyatlarga rioya qilishni nazorat qila boshladи. Ular hukumatga doir qarorlarni qabul qilishga ham kirishdi va hatto qo'pol xatolar yo'l qo'yilsa, biror-bir davlatni tashkilotdan chiqarish masalasini qo'yishgacha bo'lgan huquqqa ega bo'ldi. Yevropa Kengashi rahbarlik organlari Strasburg (Fransiya) shahrida joylashgan.

Qisqacha mazmuni

- 1949-yil — Yevropa Kengashi tashkil topdi
- 50-yillar — Yevropa iqtisodiyoti va siyosati rivojlanishida AQShning asosly roil
- AQSh va SSSR ziddiyatlarining chuqurlashuvi
- Iqtisodiy hamkorlik sohasida Yevropa mamlakatlari ning birlashuvi (1950-yil — O'IYK, 1957-yil — YIH ("Umumly bozor")
- 1991-yil dekabr — Maastricht bitimlarining imzolanishi

Savollar

- ? 1. Yevropa davlatlari Yevropa Kengashi tuzishni qanday maqsadlarda taklif etishdi?
2. 50-yillarda Yevropa mamlakatlari hamkorligi qaysi sohalar-da amalga oshirilgan?

3. Yevropa mamiakatlari 50—60-yillarda igtisodiy integratsiya yo'lida ganday bosqichiarni bosib o'tdi?
4. Fransiyaning NATODan chiqishi sababi nimada deb hisoblaysiz?

3-§. MUSTAMLAKA TIZIMINING PARCHALANISHI

Milliy-ozodlik harakati va mustamlakachilik. ka qarshi harakat

Ikkinci jahon urushi tugashi bilan mustamlakalar va ular-da yashovchi aholi taqdiri jahon siyosatida muhim

muammolardan biriga aylandi. Bu mamlakatlardagi milliy-ozodlik harakati xususiy yon berishiar emas, balki to'liq ozodlik va suverenitet berish bilan o'lchanar edi. Yevropadagi ko'plab mustamlaka mulklari Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Belgiya, Italiya, Portugaliyaga to'g'ri kelardi. Ulardan birortasi ham mustamlakalaridan o'z ixtiyoricha ketish va xalqlarga ozodlikni berishni istamadi. Biroq ular bunga majbur edi.

1947-yilda mustamlakachilik tizimida yirik parchalanish yuz berdi — Angliya Hindistonga ozodlik berdi. Ilgarigi ingliz mustamlakasi o'rniga **Hindiston** va Pokiston nomli ikki mustaqil davlat paydo bo'ldi. 1948-yilda boshqa ingliz mustamlakasi — Birmaga ozodlik berildi. 1949-yilda Niderlandiya Indoneziya mustaqillagini tan olishga majbur bo'ldi.

Ayrim mustamlakalarda xalq o'z ozodligiga uzoq davom etgan va qonli kurashiar orqali erishgan. Fransiya mustamlakalari — Aljir va Vyetnamda shunday bo'ldi. Vyetnamda aholining Qarshilik ko'rsatish harakati — fransuz mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashi 1945-yildan 1954-yilgacha davom etdi va Denbenfu ostonasida Fransiya o'z qo'shinlarini mamlakatdan olib chiqib ketishga majbur bo'ldi. 1954-yildan 1962-yilgacha olib borilgan qaqshatg'ich urush natijasida Aljir xalqi hain o'z mustaqilligiga erishdi.

1949-yilda Xitoyda xalq inqilobi g'alaba qozondi va xalq hokimiyyati o'rnatildi.

Xitoy, Hindiston, Pokiston, Seylon (1972-yildan Shri Lanka) tashabbusi bilan Indoneziyaning Bandung shahrida Osiyo va Afrikaning 29 ta mustaqil davlati

ishtirok etgan konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya mustamlakachilik, irqiy kamsitish va segregatsiya siyosatini qoraladi hamda mustamlakachilikning tugatilishida katta rol o'yagan Bandung Bayonotnomasini qabul qildi.

Osiyo va Afrika xalqlariming mustamlakachilik tizimini to'liq tugatish uchun kurashi va ular talabining xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlamishi 1960-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasimng "Mustamlaka mamlakatlari va xalqlariga mustaqillik berish haqida bayonotnoma" qabul qilinishiga olib keldi. Irqchilik va aparteidni ham o'z ichiga oluvchi mustamlakachilikning barcha ko'rinishiarida davom etishi BMT Nizomiga mos kelmasligi e'lon qilindi.

Jahon siyosatida hal qiluvchi burilish ro'y berdi. Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqaro munosabatlarda mustaqil rol o'ynay boshiadi. Mustamlakachilikni bartaraf etish haqidagi 1960-yil bayonotnomasi qabul qilinigandan o'tgan o'ttiz yil mobaynida aholisi 80 million kishi bo'lgan 80 ga yaqin sobiq mustamlaka hududlari mustaqillikka erishdi va suveren a'zolar sifatida BMTga qabul qilindi.

**Sobiq mustamlaka
mamlakatlarini
"g'arblashtirish"
jarayoni**

Yevropa davlatlari mustamlakalarini yo'qotdi, biroq baribir iqtisodiy mavqeini saqlab qoldi. Transmilliy korporatsiyalar sohiq mustamlakalarda xomashyo manbalari va foydali qazilmalar ustidan hokimiyatni saqlab qoldi. Texnik ustunligi tufayli yirik Yevropa davlatlari bu mamlakatlarning tashqi savdosida ustunlik qilishda davom etdi. Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida ishiab chiqarilgan tayyor mahsulot va sobiq mustamlakadan olinadigan xomashyo narxlaridagi farq Yevropa mamlakatlariga ulkan foya keltirdi. Bu farq doimo oshib bordi. Yevropa rivojlanayotgan mamlakatlarda madaniy va texnologik ta'sirini ko'p jihatdan saqlab qolmoqda, ularga g'arbcha turmush tarzini singdiruvchi va g'arb olamining tarkibiy qismiga aylantiruvchi "g'arblashtirish" ("vesternizatsiya") jaramomini tezlashtirishga harakat qilmoqda.

Aym paytda g'arb mamlakatlari iqtisodiyoti ham ko'p jihatdan sobiq mustamlakalarga bog'liq bo'lib qoldi.

1973-yili neft ishiab chiqaruvchi afro-osiyo mamlakatlari neftga qo'ygan embargo (taqiq) Yevropa va AQSHda vahima va neft inqiroziga sabab bo'ldi.

Qisqacha mazmuni

- 1947-yil — Hindiston mustaqilligining e'lon qilinishi, suveren Hindiston va Pokistonning tashkil topishi
- 1948-yil — Birmaning, 1949-yil — Indoneziyaning tashkil topishi
- 1945—1954-yillar — Vyetnam xalqinlig fransuz mustamlakachilariga nisbatan Qarshilik ko'rsatish urushi
- 1954—1962-yillar — Aljir xalqining kurashi va mamlakat mustaqilligining e'lon qilinishi
- 1955-yil — mustamlakachilik, kamsitish va segregatsiyani qoralagan Bandung konferensiyasi (Indoneziya)
- 1960-yl 14-dekabr — BMT Bosh Assambleyasining mustamlaka mamlakatlari va xalqlariga mustaqillik berish haqidagi bayonnomasi
- Sobiq mustamlaka mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyatini "g'arblashtirish" jarayoni

Savollar

- ?
1. Mustamlaka tuzumi yemirilishining boshianishi qaysi davrga tegishli?
 2. Mustaqillik uchun kurashda milliy-ozodlik harakatining dastlabki yutuqlarini aniq miosollarda ko'rsatib bering.
 3. "Irgchilik", "aparteid", "mustamlakachilik", "segregatsiya" tushunchalarini ta'riflab bering.

4-§. "KUCH ISHLATISH" SIYOSATINING YEMIRILISHI

Koreya urushi **NATO** tashkil etilishi bilan **AQSH** dunyoda o'tkir inqirozli vaziyatlarni sun'iy ravishda yuzaga keltira boshladi, o'z ittifoqchilarini "kommunistik tajovuz" mavjudligiga ishontirish va ularni o'z tashqi siyosati doirasiga chuqurroq tortishga urindi.

1950-yil iyunda boshiangan Koreyadagi fuqarolik urushi bu boradagi ilk faoliyat maydomi bo'ldi. Harbiy harakatlar bu yerda 25-iyunda boshlandi, iyundayoq

Amerika flot va aviatsiyasi Janubiy Koreyaga yordamga keldi. AQSH BMTga Shimoliy Koreyaga qarshi chora ko'rish haqidagi iltimos bilan murojaat etdi, amerikalik diplomatlarning fikricha, u Janubiy Koreyaga qarshi tajovuz qildi. Shimoliy Koreya qo'shnlari hujumiga qarshi turish uchun Janubiy Koreyaga BMT kuchlarini jo'natish haqida Xavfsizlik Kuchlaridan rezolyutsiya olingach, AQSH BMT bayrog'i ostida urush olib bordi. Biroq Xitoyning urushga aralashishi amerika qo'shinini mag'lubiyatga olib keldi va ular avvalgi marraga qaytishga majbur bo'ldi. Koreya xalq demokratik respublikasi (KXDR) va Janubiy Koreya o'tasida 1953-yil 24-iyulda murosaga kelishildi. 38-parallel bo'yicha, ya'ni ilgarigi chegara chizig'i bo'ylab demarkatsiya chizig'i va demilitarizatsiyalashgan zona o'matildi.

Demarkatsiya — davlatlar o'rtaсидаги chegarani qonunchilik tartibida o'rnatish.

Demilitarizatsiyalashgan zona — xalqaro shartnoma yoki bitim bilan o'rnatilgan shunday hududki, unda harbiy-sanoat korxonalarini, istehkomlari qurish, belgilangan miqdordan ortiq qurolli kuchlar saqlash man etiladi.

Jeneva bitimi.
SEATOning
tashkil topishi

1954-yil aprel-iyunda Jenevada Hindixitoy yarimorolida tinchlikni o'rnatish haqida bitimni ishlab chiqqan konferensiya bo'lib o'tdi.

Jeneva bitimi Vyetnam, Laos va Kampuchiya xalqlariga mustaqillik berishni ko'zda tutdi, ular neytralitetini kafolatladi, ular hududiga chet el qo'shinini kiritish, harbiy bazalarni yaratish va yangi quroq-aslahalarni olib kirishni man etdi. Amerika hukumati Jeneva konferensiysi qarorlariga qarama-qarshi o'laroq, Janubiy Vyetnamga harbiy yordam ko'rsatish haqida qaror qabul qildi.

AQSH Janubi-sharqiy Osiyoda o'z pozitsiyasini kuchaytirishga intilib **1954-yil 8-sentabrda** Manilada Janubi-sharqiy Osiyo mudofaasi to'g'risidagi Shartnomani (SEATO) imzolashga muvaffaq bo'ldi. SEATOga AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Tailand va Filippin a'zo

bo'lib kirdi. Hindiston, Indoneziya, Birma va Seylon unda ishtirok etishdan bosh tortdi.

SEATO AQSHning harbiy-havo va harbiy-dengiz floti kuchlariga tayanar edi.

SEATO — Janubli-Sharqiy Oslyo shartnomasi tashkiloti (ingllz.) — milliy-ozodlik harakatlari bilan kurashish uchun tashkil etilgan harbiy-siyosiy guruh. U 1954-yil 8-sentabrda tashkil etilgan bo'lib, 1977-yil iyundan o'z faoliyatini to'xtatgan.

"Kuch nuqtai nazari dan" AQSH tutgan yo'Ining davom etishi

1953-yil avgustda Eronda milliy boyliklarning xorijiy kompaniyalar tomonidan talanishini himoya qilish siyosatini yurgizgan Mosaddiq hukumati ag'darib tashlandi. Bu esa Eronning harbiy ittifoqlarga birlashishiga yo'l ochib berdi.



N.Bulganin, D.Eyzenxauer, E.For va E.Iden.
1954-yil. Jeneva konferensiyasi.

Eronning amerikaparast bo'lgan yangi hukumati Turkiya, Pokiston va Iraq bilan birga AQSH boshchiligidagi hamda Buyuk Britaniya ishtirokida navbatdagi blok—Bog'dod paktini tuzishga rozi bo'ldi (1954-yil). Amerikaning turli pakt, ittifoq, blok va shartnomalar tar-

mog'i Tinch okeanidan tortib to O'rtayer dengizigacha bo'lgan butun Osiyoni qamrab oldi. Biroq AQSH siyosati Osiyo mamlakatlarining milliy-ozodlik harakatlari qarshiligiga duch keldi. Bu kuch milliy o'zlikni uyg'otdi, amerikaparastlikka qarshilik esa Osiyo milliy-ozodlik harakatidagi kuchli omillardan biri bo'lb qoldi.

1958-yil 14-iyulda yuz bergan inqilob natijasida Iraq respublika deb e'lon qilindi. Bag'dod pakti yo'qqa chiqdi. Kurash qo'shni Livanda ham kuchaydi. Bunga javoban esa 1958-yili Amerika hukumati Livanga, Angliya esa Iordaniyaga desant tushirdi.

Ingliz-amerika zo'ravonligi ko'pgina arab va boshqa mamlakatlar, hatto AQSHning ayrim tarafдорлари tomonidan keskin qoralandi. Shundan so'ng BMTning favqulodda sessiyasi chaqirilib AQSH va Angliya qo'shinlarining zudlik bilan Yaqin Sharqdan ohb chlqib ketilishl talab etildi. 1958-yil oktabr oxirida Amerikaning oxirgi dengiz piyodalari Livan hududini tark etishga majbur bo'ldilar. AQSHning Osiyodagi siyosati mag'lubiyatga uchradi.

Ayni paytda ushbu mintaqada Sovet Ittifoqi faol harakat boshlab yubordi. U Misr, Suriya, Iraq bilan mazkur mamlakatlar sanoati rivojlanishiga ko'maklashuvchi muhim bitimlar tuzdi. Sovet Ittifoqi qayd etilgan mahilakatlarni to'llq zamonaviy quroq-aslahaga bilan ta'minlashga yordam berdi. Ularning harbiy qo'shnular safida zamonaviy reaktiv samolyotlar, tanklar va artilleriya paydo bo'ldi. Amerika diplomatiyasining Yaqin Sharqdagi xatosi tufayli Sovet Ittifoqi bu yerda mustahkam mavqega ega bo'ldi.

Karib inqirozi 1959-yil 1-yanvarda Fidel Castro boshchiligidagi hukumat tasdiqlamishi AQSH va Kuba munosabatlarining yomonlashuviga otib keldi. Kubarning yangi rahbariyati Amerika diktatiga bo'ysumishdan bosh tortdi va AQSH uni ag'darib tashlashga tayyorgarlikni boshlab yubordi. Sovet Ittifoqi esa Kuba hukumatihi qo'llab-quvvatlab unga iqtisodiy va harbiy yordam ko'rsata bordi.

1961-yil yanvarda AQSH Kuba bilan diplomatik munosabatlarini uzib, unga qarshi iqtisodiy baykot e'lon qildi. Biroq bular bari Kuba rahbariyatiga ta'sir ko'rsatmadi. Chunki Sovet Ittifoqining yordami tufayli

AQSHning iqtisodiy sanksiyalari kutilgan natija bermadi. Shundan so'ng AQSH F.Kastro hukumatini ag'darib tashlashga kirishdi. MRB tomonidan ishlab chiqilgan rejaga ko'ra 1500 nafar kubalik muhojirlar orolning janubiy qirg'og'iga olib kelindi. Maqsad ular yordamida qo'zg'olon ko'tarish va xalqni hukumatga qarshi jalb etish edi. Biroq teskarisi ro'y berdi, ya'ni butun Kuba inqilobni himoya qilib chiqди. Hujum mag'lubiyatga uchradi. Uch kundan so'ng interventiarning bir qismi yo'q qilindi, yana bir qismi esa asirga olindi.

Bu mojarlo sababli Kuba rahbariyati Sovet Ittifoqiga yordam so'rab murojaat qildi. SSSR harbiy yordam ko'rsatib bu yerga o'rta masofada harakatlanuvchi 42 ta raketa ollb keldi. AQSH prezidenti U.Kennedi Kubadan raketalarini olib ketishni talab qilib, N.Xrushevga murojaat etdi. Bu talabning Sovet hukumati tomonidan rad etilishi tufayli AQSH 26-oktabrda Kuba qirg'oqlarini blokada qilishni e'lon qildi. 1962-yil 28-oktabrda Sovet Ittifoqi Kubadan o'z raketalarini olib ketishga rozi bo'ldi. Biroq Amerika tomoni Kubaga hujum qilmaslikka va SSSR bilan Turkiya chegarasidagi harhly bazasini tugatish majburiyatini oldi.

Qisqacha mazmuni

- 1950-yil iyun — Koreyada fuqarolar urushining boshlanisbi. AQSHning Janubiy Koreyaga yordami
- 1953-yil 27-iyul — KXDR va Januhiy Koreya o'rtasida yarash sulhinling imzolanishi, chegara chizig'inинг o'rnatilishi
- 1954-yil aprel-iyun — Laos va Kampuchiyaga mustaqillik berish to'g'risidagi Jeneva bitimining imzolanishi
- AQSH tomonidan Jeneva bitimining buzilishi — Janubiy Vyetnamga harbiy yordam ko'rsatilishi
- 1954-yil 8-sentabr — SEATOning tashkil etilishi — Janubi-Sharqiy Osiyo mudofaasi to'g'risidagi Sharthonmaning imzolanishi (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Tailand, Filippin)
- 1954-yil — AQSH rahbarilgida Bag'dod blokining (Eron, Turkiya, Pokiston va Iroq) tuzilishi va uning

- Iraq inqilobidan (1958-yil 14-iyul) so'ng tarqalib ketishi
- 1958-yil sentabr — AQSHning Livanga, Angliyaning lordaniyaga hujumi
 - 1958-yil oktabr — Amerika harbiy qo'shinining Livan hududidan olib chiqib ketilishi
 - 1961-yil yanvar — AQSH va Kuba diplomatik munosabatlarining buzilishi
 - 1962-yil 28-oktabr — Karib tangligining hal etilishi (AQSH Turklyadan, SSSR Kubadan raketalarini oilb chiqib ketdi)

Savollar

- ? 1. AQSHning Koreya va Hindistondagi urushida qatnashishi uning ushbu mintaqalarga ta'sir ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan, degan fikrga qo'shilasizmi?
2. 1954-yilgi Jeneva bitimi. Hindixitoyda tinchlik o'rnatishning qanday shartlari ko'rib chiqilgan edi?
3. SEATO bloki qanday maqsadda tuzilgan va unga qanday mamlakatlar a'zo bo'llib kligan?
4. Fikringizcha, Karib inqirozinling yuzaga kelishida qanday mamlakatlar (yoki mamlakat) ig'vogarlik qilishdi?

5-§. XALQARO KESKINLIKNING YUMSHASHI

**Hamkorlik
yo'llarini
qidirish**

1962-yildan keyin "sovuq urush" holatidan chiqish tendensiyasi yuzaga keldi. 1963-yil iyulida Moskva va

Vashington (bevosita Kreml va Oq uy) o'rtasida ushbu mamlakatlar rahbarlari har qanday paytda aloqa qilishi mumkin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri telefon limiyasi o'rnatildi. Bu bir-biriga bo'lgan ilk o'zaro ishonch edi. Shu yilning avgust oyida Moskvada g'arb davlatlari va Sovet Ittifoqi o'rtasida yadro qurolini atmosferada smashni taqiqlovchi shartnomaga tuzildi.

G'arb dunyosida boshqa muhim o'zgarishlar ham yuz berdi. Angliyada funt sterling devalvatsiyasi (pulning bekor qilinishi yoki qiymatini tushlrish) va molivayli tanglik uning xalqaro munosabatlardagi pozitsiyasining keskin kuchsizlanishiga olib keldi. Quronish poygasi va "sovuq urush"dagi ishtiroki uning rezervlarining juda kamayib ketishiga olib keldi. Angliya xorijdagi harbiy

bazalaridan voz kechishga va harhiy harakatlarni qisqartirishga majbur bo'ldi. Bu bazalarni Fransiya va AQSH egalladi.

Iqtisodiy muammolar AQSHni ham o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Harbiy majburiyatlar bo'yicha xarajatlar ichki bozorda oltin bahosining keskin oshishiga sabab bo'ldi. Oltin juda tez sotilib ketadigan bo'ldi va bu hol oltin zaxirasining kamayib ketishiga hamda dollarning oltin nisbatidagi standartidan voz kechishga olib keldi. Tanglikdan chiqib ollndi, biroq Amerika hukumatiga "sovuj urush"dagi raqobati juda qimmatga tushishi ayon bo'ldi.

Xalqaro munosabat-larda keskinlikni yumshatish jarayoni ning chuqurlashuvi

Karib tangligi "sovuj urush" xavfini ko'rsatdi. Sovet Ittifoqi va AQSH xalqaro tanglikni yumshatish yo'lini izlashga tushdi. 1968-yil

R.Nikson AQSH prezidenti etib saylangach, har ikki davlat o'rtasida madaniy aloqalar, delegatsiyalar almashuvi kengayib, ilmiy aloqalar va iqtisodiy munosabatlar faollasha bordi. 1969—1979-yillar oraliq'ida ular o'rtasidagi munosabatlarning ijobjiy tomonga o'zgarish jarayoni kuchaydi va u detant (fransuz. — yumshatish) deb nom oldi. R.Niksonning 1972-yil Moskvaga, L.I.Brejnevning 1973-yil AQSHga tashrifi qishloq xo'jaligi, savdo sohasida va yadro qurollarimi qisqartirish borasida hamkorlikning kuchayishiga olib keldi.

Yevropa xavfsizlik choralar bo'yicha Xelsinki bitimining imzolanishi detant jarayonining kulmimatsiyasi bo'ldi. **1975-yil 1-avgustda** Yevropadagi 35 davlat, AQSH va Kanada o'rtasida konferensiya akti imzolandi. U quyidagi uchta bitimni o'z ichiga olgan edi: ikki qarama-qarshi blok o'rtasidagi tasodifiy to'qnashuvlarni bartaraf etish usullari, iqtisodiy va texnik hamkorlik bo'yicha takliflar, xalqlar o'rtasida aloqalarni kengaytirish yo'llari.

Biroq keskinlikni yumshatish bu ikki davlat o'rtasidagi ta'sir doirasini kengaytirish uchun kurashni to'xtata olmadni. Bu holat yer shariming turli mintaqalarini qamrab oluvchi lokal darajaga o'zgardi. Qarshi kurashayotgan har ikki tomon diplomatiyasi raqib xatosidan foydalari, zarba bera bordi. Bir-birimng ittifoqchilarini parchalash-

ga, o‘zлari tomoniga og‘dirishga intildilar. Buning uchun iqtisodiy va harbiy yordam, muxolifat kuchlarni qo‘llab-quvvatiash, to‘ntarish va inqiloblarmi tashkil etish, qo‘zg‘olonchi tashkilotlarga yordam berish kabi har qanday vositalardan foydalanishga harakat qilindi.

1972-yili prezident R.Nikson rasmiy vizit bilan XXRga keldi va ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘matildi. Bu o‘z maqsadi yo‘lida Sovet Ittifoqi va Xitoy o‘rtasida kelishmovchilik tug‘dirish yo‘lidagi urishish edi. Ayni holat amerikalik diplomatlar qo‘liga zo‘ravonlik siyosatini amalga oshirish uchun muhim vositani berib qo‘ydi. Amerika kreditlari, savdo munosabatlarining rivojlanishi Xitoy tashqi siyosatini o‘zgartirish va uni jahon siyosatida AQSH bilan ittifoqchiga aylan-tirishi lozim edi. R.Nikson, J.Ford, J.Bush, R.Reygan kabi AQSH prezidentlari, shuningdek bir guruh senatorlar va biznesmenlarning ko‘p martalik Xitoyga tashrifi ham kutilgan natijani bermadi. Xitoy hech ham SSSR bilan ziddiyatga borishni istamadi. Bundan tashqari Xitoy-Amerika munosabatlaridagi eng to‘sinqinlik qlladigan narsa Tayvan masalasi edi. Xitoy rahbariyati Tayvanni o‘z mamlakati hududining ajralmas qismi deb hisoblar va ushbu muammoni hal etishni talab qilar edi. AQSH esa Tayvan hukumati bilan 1954—1998-yillarga mo‘ljallangan harbiy shartnomani imzolagan. Shu sababli Xitoy tonionining orolni qo‘shib olish to‘g‘risida-gi barcha so‘roviga rad javobi berib kelindi.

AQSH uchun qulay sherik — bu Fors ko‘rfazida “jandarm” roli berilgan Eron edi. Eron shohi ushbu mintaqadagi AQSH manfaatlarini himoya qilishni qizg‘in qo‘llab-quvvatladi. U Amerikadan ko‘plab quroslasha sotib olib o‘z armiyasini ta’mnladi. Qolaversa, Eron O‘rtta Osiyo mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega bo‘lib, kelajakda ushbu mintaqqa uchun kurashda ulkan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan.

**Jahonda kuchlarning
strategik muvozanati
uchun kurash**

Xalqaro munosabatlarda o‘z siyosiy ta’sirini kengaytirish hamda AQSHning ommaviy qirg‘in vositalari borasidagi

tobora o‘sib kelayotgan harbiy texnika ustunligini yengib o‘tlsh maqsadida Sovet hukumati 60-yillar o‘rtalarida o‘z qo‘shinini yangi harbiy texnika bilan qayta qurollan-

tirish dasturini qabul qildi. Bu avvalo yadroviy raketa qurollari nishatiga tegishli edi.

Mamlakatning barcha kuchdari harbiy strategik qurol turlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. 1985-yil AQSH va SSSR o'rtasida strategik jihatdan tenglikka erishildi. Agar 1965-yil yadro kallakkari soni bo'yicha nisbat 10:1 ni tashkil etgan bo'lsa, 1985-yilda u 11:10 ga teng bo'ldi. Aym paytda SSSR strategik hujum qurollari borasida ilgarilab olgan edi.

**"Sovuq urush"ning
tugashi** Jahondagi umumiy ahvol butunlay o'zgardi. Endilikda so'zsiz g'alaba qozonish

mumkin bo'lgan biror tomon ortiqcha ustunlikka ega emas edi. Urush har ikki tomon uchun bir-birini qirib tashlashni anglatardi. Ikki hukmron davlat o'rtasida raketa-yadro quollarini qisqartirish to'g'risida muzokalarlar boshlandi, chunki yangi sharoitda ular ilgarigi ahamiyatini yo'qotdi. **1987-yil** SSSR Prezidenti M.S.Gorbachevning AQSHga tashrifi chog'ida kichik va o'rtacha olislikdagi raketalarни yo'q qilish to'g'risida Shartnoma imzolandi. Ushbu Shartnomaga ko'ra Sovet tomoni 1572, amerikaliklar esa 599 raketani yo'q qildilar. Shuningdek, strategik hujum quollarini 50 foiz qisqartirish to'g'risidagi kelishuvga ham erishilganligini qayd etish lozim. Har ikki tomon qirg'in quollarini demontaj qilishga kirishdi. AQSH prezidenti J.Bush 1991-yil yanvarda Kongressga yo'llagan murojaatnomasida "sovuq urush" tugaganligini e'lon qildi. Bu to'g'rida yanada oldinroq, 1990-yil Londonga yig'ilgan NATO yetakchilari ma'lum qilgan edi.

Qisqacha mazmuni

- 1963-yil — SSSR va AQSH o'rtasida o'zaro ishonch tiklanishining boshianishi
- 1963-yil avgust — atmosferada yadro quroll sinovini taqiqlash
- Xalqaro munosabatlarda Angliya pozitsiyasining susaylshi
- 1968-yil — qarama-qarshilikdan muzokalarlarga o'tish jarayonining boshlanishlari
- 1972-yili — AQSH va XXR diplomatik munosabatlari ning o'rnatilishi

- 1973-yll — L.Brejnevning AQSHga tashrifi, iqtisodiy hamkorlik va yadro quroiarini qisqartirish to'g'risida-gi bitimning imzolanishi
- 1975-yil 21-iyul — Yevropada xavfsizlik choralarini va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi Xelsinki bitimiring imzolanishi
- 1985-yil — AQSH va SSSR harbiy kuchlarining strategik jihatdan muvozanatga kelishi
- 1987-yili — M.Gorbachevning AQSHga tashrifi — raketa-yadro qurollarini qisqartirish hamda kichik va o'rtacha ollslikdagi raketalarni yo'q qilish to'g'risida-gi shartnomalar imzolanishi
- 1991-yll — "sovuuq urush"ning tugashi

Savollar

- ? 1. Xalqaro munosabatlarda keskinlikning yumshash jarayoni boshlanganligi qanday faktlar orqali tasdiqlangan edi?
2. Keskinlikni yumshatish jarayonini chuqurlashtirish bo'yicha R.Nikson ma'muriyati tomonidan qanday amaliy qadamlar qo'yildi?
3. SSSR va AQSH harbiy kucblari o'rtaisdagi strategik muvozanatga qanday, qachon erishilgan?
4. Xalqaro keskinlikni yumshatishda Xelsinki bitimi qanday rol o'ynadi?

6-§. BMTNING URUSHDAN SO'NG JAHONDAGI ROLI

BMTning tashkil topishi Ikki yirik hukmron davlat o'rtaisdagi qurolli ziddiyatning oldimi olishda **Birlashgan Millatlar Tashkilotining** hissasi juda katta. BMT tashkil etilgan kundan boshlab dunyoda tinchlikni saqlash va xalqaro keskinlikni yumshatish borasida muhim vositachilik rolini o'ynab kelmoqda. Hozirda unga 186 mamlakat a'zo. BMT tashkilotlarida yadro xavfining oldini olishdan tortib ekologiya va madaniy aloqalar muammolarigacha bo'lgan yirik dunyoviy masalalar hal etiladi.

"Birlashgan millatlar" atamasi ilk bor 1942-yil 1-yanvardagi Vashington deklaratsiyasida paydo bo'ldi. Unga ko'ra SSSR, AQSH, Angliya, Xitoy va boshqa 22 davlat fashizmga qarshi kurashda bir-biri bilan hamkorlik qilish

hamda bir tomonlama sulh tuzish yoki umumiy dushman bilan kelishish majburiyatini olgan edi. Millatlar ligasi o'rnini bosish mumkin bo'lgan Xalqaro tashkilotni tashkil etish to'g'risidagi masala 1943-yil oktabrda tashqi ishlar vazirlarining Moskva konferensiyasida muhokama qilingan edi. Unda qabul qilingan deklaratsiyaga asosan 1944-yilgi Dumbarton — Oks (Vashington) konferensiyasida SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy vakillari mazkur tashkilot Nizomi to'g'risida muzokaralar olib bordilar. Konferensiyada qabul qilingan takliflar 1945-yil iyunda qabul qilingan va **1945-yil 24-oktabrdan** kuchga kirgan BMT Ustavining asosini tashkil etdi. 24-oktabr — butun jahonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilgan kun sifatida nishonlanadi.

U Millatlar ligasidan farqli ravishda amaliy kuchga ega bo'ldi va o'zi qabul qilgan qarorlarni bajarishga majbur qila olar edi. Kengashning doimiy a'zolari — Angliya, Fransiya, AQSH, SSSR va Xitoyning kelishuvi asosida qabul qilingan Xavfsizlik Kengashi qarori ushbu masalaga tegishli barcha mamlakatlar uchun bajarilishi majburiy bo'lib qoldi. Tashkilot tinchlik o'rnatuvchi maqomga ega qurolli kuchni (moviy kaskalar) tashkil etdi.

BMT faoliyatining yo'nalishi

ziddiyatlarni faqat tinch yo'l — muzokaralar orqali hal etishdan iborat. Nizolarni tinch hal etish tamoyili davlatlararo munosabatlarning eng obro'li xalqaro huquqiy asosi bo'lib qoldi. Falastindagi urushning to'xtatilishi (1947), Hindistonda Kashmir muammosining hal etilishi (1948), Indoneziya (1962) va Kiprda (1964) nizolarning bartaraf qilinishi, Yaqin Sharqda urush o'choqlarining to'xtatilishi (1956, 1967, 1973) BMT

BMT faoliyatining muhim yo'nalishi davlatlar va millatlar o'rtafigi nizo hamda



Nyu-York, BMT shtab-kvartirasi.

tomomidan tinchlik o'rnatish borasidagi eng katta yutuqlar sanaladi.

1960-yil 14-dekabrd BMT Bosh Assambleyasi mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi. Bu esa dunyo miqyosida mustamlakachilikni tugatish uchun zarur xalqaro-huquqiy baza yaratdi.

BMT yadro urushi xavfini kamaytirishda katta rol o'ynadi. 1981-yili BMT Bosh Assambleyasi "Yadro katastrofasining oldini olish to'g'risida" va 1983-yili—"Yadro urushini qoralash" haqida deklaratsiya qabul qildi. Unda qat'iy ravishda yadro urushidan xalos bo'lish g'oyasini targ'ib qilish muhokama qilindi. BMT pozitsiyasi AQSH va SSSR o'rtasida bir qator muhim bitimlar qabul qilinishiga sabab bo'ldi va yadro xavfidan uzoqlashishga yordam berdi.

1990—1999-yillar BMT va xalqaro huquq o'n yilligi davri, deb e'lon qillindi. Ilgari hukmronlik qilgan kuch huquqi o'rniga jahonda gumanizm va adolatga asoslangan huquq kuchi tamoyili o'rnatildi.

Qisqacha mazmumi


- Asosiy maqsad — yer yuzida tinchlik o'rnatish uchun kurash, davlatlar va millatlar o'rtasidagi nizo va janjailarni hal etish
- 186 davlat BMT tarkibiga kiradi
- 1945-yil iyun — BMT Nizoming qabul qiliishi va 1945-yil 24-oktabrda kuchga kirishi 24-oktobr — BMT kuni
- 1990—1999-yillar — BMT va Xalqaro huquq o'n yilligi
- 1992-yl 2-mart — O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lib kirishi

Savollar

- ? 1. BMT nimasi bilan Millatlar Ligasidan farqlanadi?
2. BMTning davlatlar o'rtasidagi nizo va janjallarni hal etish bo'yicha faoliyati yo'nalishlarini sanab bering.
3. Hozirgi vaqtida BMTning faoliyati to'g'risida nimalar bilasiz?
4. O'zbekistonda BMT bo'limi mavjudmi? Uning faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni tayyorlang.

II b o b

XX ASR IKKINCHI YARMIDA AQSH VA G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARI



7-§. AQSH 50—90-YILLARDA

AQSH uchun Ikkinchiji jahon urushi natijalari Ikkinchiji jahon urushida AQSH Yevropa singari katta yo'qotishlarni boshdan kechirmadi. To'rt yillik harbiy harakatlar davrida AQSh tomonidan 300 ming kishi halok bo'ldi. Ko'rilgan moddiy zarar — 1,2 mldr. dollarni tashkil etdi. Bu, urushga aloqador barcha mamlakatlar yo'qotishiming 0,4 foizi demakdir. Ayma paytda urush Amerika kompaniyalarining misli ko'rilmagan darajada boyishiga olib keldi. Sanoat ishlab chiqarishi ikki martadan ko'proq ko'paydi. Amerika biznesining sof foydasi 47 mldr. dollarni tashkil etdi, bundan tashqari boshqa niamlakatlarning AQSHdan olgan qarzi 41 mldr. dollarni tashkil etdi va amerikalik biznesmenlar bundan katta foiz miqdorida foyda ko'rdi. Amerika hukumatiga gitlerchllar Germaniyasining barcha oltin zaxirasi o'tdi. AQSHda saqlash uchun boshqa mamlakatlardan olib kelingan oltin miqdori butun jahondagi oltin zaxirasining 65 foizi ni tashkil etdi.

Dollar xalqaro to'lov va hisob-kitobiarda asosiy valyuta bo'lib qoldi, bu esa o'z navbatida dollar kursining ko'tarilishiga hamda uning butun dunyo bo'ylab tarqalishiga olib keldi. Harbiy buyurtmalar Amerika sanoati va flotining tez sur'atlarda o'sishiga sababchi bo'ldi. 1947-yil butun jahon sanoat ishiab chiqarishining 54 foizi AQSH hisobiga to'g'ri keldi. Dengiz flotining yuki urush davrida 5 baravar oshdi va eksport hajmi ham 5 marta ko'paydi. AQSH dunyodagi birinchi raqamli dengiz hukmroniga aylandi.

HSKning tashkili topishi Yadro qurolini ishiab chiqarish Amerika iqtisodining asosiy tarmog'i bo'lib qoldi. U o'z ishiga ko'plab zavod, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, universitetlarni qamrab oldi. Kompyuter texnikasining rivojlanishi, mashinasozlik, energetikaning jadal rivojlamishi ham atom ishiab chiqarisbi bilan bog'liq edi.

AQSHda harbiy biznesning rivojlanishi va urushdan keyingi qurollamish poygasi Amerikada **harbiy-sanoat kompleksi (HSK)**ning tashkil etilishiga sabab bo'ldi. U davlatning harbiy harakatlari to'xtovsiz o'sishi va imkon

qadar ko'p daromad olishdan manfaatdor bo'lgan hukmdor sinfning turli guruqlarini ifodalaydi. HSKning asosiy ko'mponentlarini qurol ishlab chiqaruvchi sanoat va harbiy korporatsiyalar, harbiy vazirliklar hamda bir qator davlat va siyosiy tashkilotlar tashkil etadi.

Harbiy-sanoat kompleksi (HSK) — harbiy mahsulot ishlab chiqaruvchi, harbiy kuchlar qurilishini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, yangi qurollanish tizimini tashkil etuvchi sanoat korxonalarini va bir qism davlat apparati birlashmasi.

HSK o'ziga xos "davlatdagi davlat" bo'lib qoldi. Umamlakat iqtisodida katta rol o'ynaydi. Chunki, o'z ixtiyoridagi katta mablag' iqtisodining davlat boshqaruvi muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

HSK yadrosi — yirik harbiy-sanoat korporatsiyalarini sanaladi. Ular qurol ishlab chiqarishni monopollashtirgan Pentagonning bosh pudratchisidir.

Pentagon (yunoncha so'z bo'lib — beshburchak degan ma'noni anglatadi) — AQSH harbiy muassasasi. U joylashgan bino beshburchak shakilda qurilgan.

AQSH siyosiy hayotida liberalizmning rolli

Tinch hayotga qaytgan amerika xalqi chuqur ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni kutayotgan va bu hol umamlakat erishgan ishlab chiqarish darajasiga mos hayot darajasini ta'minlar edi.

Shu bois F.Ruzvelting "Yangi yo'nalishi" uning o'limidan so'ng yo'q qilinmadi va aksincha keyinchalik rivojlantirildi. U Amerika jamoatchiligi ilg'or kuchlarning mafkurasiga aylandi.

Ushbu mafkuraning mohiyati mavjud jamiyatni islohlashtirishdan iborat edi. Uning amaliy mazmuniga quyidagi islohotlar kiritildi:

- umamlakatda ijtimoiy ta'minotning yagona umum-davlat tizimini tashkil etish;
- monopolianing iqtisodiy faoliyati va narx siyosati ustidan demokratik jamoatchilik nazoratini o'rnatish;
- haqiqiy demokratiyani kengaytirish, referendum o'tkazish, deputatlarni chaqirib olish;

— turli millat hamda irqqa mansub erkak va ayol-larning davlat strukturasi, siyosiy partiyalardagi vakillari soni tengligini belgilash;

— tekin tibbiy xizmat, arzon turarjoy, kam ta'minlangan oilalar nafaqasi, bolalar nafaqasi, maktablarda bepul nonushta tashkil etish xarajatlarini ko'paytirish, bepul o'rtta ta'lif darajasini ko'tarish uchun soliq orqali milliy daromadni keskin qayta taqsimlash.

Liberalizm demokratik partiya siyosatida o'z ifodasi ni topdi. Aynan prezident-demokratlar — F.Ruzvelt, G.Trumen, J.Kennedi, L.Jonson va B. Klintonlar davrida liberalizm konsepsiysi amalga oshirildi. Kennedi — Jonsonlarning “**umumiy farovonlik jamiyat**” nomi bilan ma'lum dasturi hozirgi Amerika ijtimoiy hayotida chuqur strukturaviy o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu dastur asosida birinchi marta nafaqat ishsizlarni, shuningdek, ishga yaroqsiz, kambag'al, ko'p oilali va mamlakatdagi nisbatan kam himoyalangan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash davlat tizimi yaratildi.

Liberalizm — insonning shaxsliy erkinligini himoya qiluv-chi va davlat imkon qadar fuqarolarning shaxsliy hayotiga kam aralashuvini targ'ib etuvchi mafkura.

Ammo Amerika liberalizmi ijtimoiy adolatni tasdiqlagan holda mamlakatning iqtisodiy rivojiga zarar keltirishi mumkin bo'lgan ma'lum bir chegaradan naryog'iga o'tmadni. Masalan, 70—80-yillarda ijtimoiy himoyalash xarajatlari iqtisodiy va texnik taraqqiyotni to'xtatib qoladigan miqdorga yetib, tadbirkorlik faolligi susaya boshlagach, liberallar o'z tamoyillari va g'oyaviy ta'lomitidan qayta boshladi. Liberalizm o'rniga **neoliberalizm** keldi.

Ushbu oqim ideologlari umumiy farog'at jamiyatini yaratish g'oyasidan voz kechib, “inson kapitalini ishlab chiqarish” masalasini ko'ndalang qo'ydi. Neoliberalizm dasturidagi ushu yangi tushunchaga ko'ra, xarajatlar kambag'allarga bepul tushlik va ishsizlarga nafaqa berish uchun emas, iqtisodning yangi strukturasida integratsiya uchun ishchi kuchini qayta tayyorlash tizimi rivojlani-shiga yo'naltirilishi lozim. Neoliberalizmning industrial siyosati kichik biznesni rag'batlantirish, an'anaviy tar-

moqlarni texnoiogik qayta tuzish, jahon bozorida raqobatbardosh tarmoqlar uchun imtiyozli soliq belgilashga qaratilgan edi.

Amerika konservativizmining xususiyatlari

AQSH siyosiy hayotida liberalizmning asosiy raqihi sifatida **konservativizm** ishtirok etadi. U respublikalar partiyasi g'oyasida va siyosatida o'z ifodasini topgan. Konservativizm kambag'allar foydasiga pul undirish uchun hech qanday sohq bilan chegaralanmagan xususiy tadbirdorlikning imkon qadar rivojlanishi tarafdori. Davlat — kambag'allar uchun xudoyixonha emas, —deya ta'kidlaydi ular g'oyasi va yetakchilari, —har bir kishi davlatdan sadaqa kutmasdan hayot kechirishi uchun mehnat qilib mablag' topmog'i kerak.

Konservatorlar aholining ma'lum qismini ijtimoiy himoyalash tarafdori. Biroq, ularning fikricha buning uchun imkon qadar kam mablag' ajratilib, haqiqatdan muhtojlarga qagima berilishi lozim.

Amerika konservativizmi va hberahzmi o'rtaida ularni dushman qilib qo'yadigan va ikkita siyosiy yoki ijtimoiy raqib lagerga ajratib qo'yishi mumkin bo'lgan keskin qarama-qarshilik yo'q. Ular o'rtaida mehnat taqsimotida o'ziga xoslik mavjud: liberalizm ijtimoiy barqarorlashtirish va tenglashtirish, konservativizm esa boylik to'plash vazifasimi o'tash taraidori.

AQSHda saylov tizimi mexamizmi aniq ishiaydi va shu bois ichki sharoitga bog'liq holda har ikki partiya hukumat tepasiga navbatma-navbat keiadi. AQSH prezidenti 26 yil davomida, ya'mi 1945—1952, 1960—1968, 1976—1980, 1992—1999-yillar demokratlardan saylangan. Qolgan 27 yil — 1952—1960, 1968—1976, 1980—1992-yillar esa konservatorlar, respublikachilar partiyasi vakillari ushbu lavozimga saylangan edi.

G.Trumenning ichki siyosati

1945-yil 12-aprelda R.D.Ruzvelt to'satdan vafot etgach, ushbu vazifaga sobiq vitse-prezident G.Trumen keldi.

Mamlakat ichki hayotida G.Trumen o'zidan oldingi prezident siyosatini davom ettirdi. Bundan tashqari aholini ijtimoiy himoyalash borasida u ilgarilab ketdi. G.Trumen kongress oldiga to'hq ish bilan bandlikni

ta'minlash, adolatli mehnat munosabatlarimi joriy etish, davlat uy-joylari qurilishi va xaroba kulbalarni yo'q qilişni o'z ichiga olgan ijtimoiy dasturni kuchaytirish bo'yicha takliflarni qo'ydi. "Yangi yo'nalish" dan farqli ravishda **G.Trumen dasturi** "adolatli yo'nalish" deya yuritila boshladi.

Ushbu dasturni amalga oshirish natijasida qonuniy ravishda eng kam ish haqi miqdori ko'paytirildi, davlat tomonidan ajratiladigan sug'urta nafaqalari oshdi, nafaqa ta'minoti tizimiga ilgari nafaqa olmagan qo'shimcha 10 mln. kishi jalb etildi. Aymiqsa, turar-joy qurilishi dasturi katta taassurot qoldirdi: bir necha yil ichida kam ta'minlangan oilalar uchun 800 ming yangi uy-joy qurildi.

Ushbu choralar Amerika xalqining xarid quvvatimi oshirib, arzon ommaviy iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan AQSH sanoati uchun ichki bozorni ta'minladi. Har bir oila avtomobil, sovutgich, kir yuvish mashinasi sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Kreditga tovar berish tizimi ommaviy talab bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish rivojini rag'batlantiruvchil xaridorlar faolligimi ta'mihladi. Mamlakatda hali dunyoning biror davlatida yo'q tovar — televizor paydo bo'ldi. AQSHda tijorat televide miyesi Ikkinchijiahon urushiga qadar paydo bo'lgan edi. Hozirda u ommavly voqeaga aylandi. Ommaviy telefonlashtirish boshiandi. Har bir amerikalik olla shaxsiy telefon o'rnatish va har qanday paytda dunyoning istalgan burchagi bilan bog'lanish imkoniga ega bo'ldi.

Xalqaro munosabatlar

Shu bilan birga G.Trumen va uning ma'muriyati Amerika tashqi siyosatida keskin burilish yasadilar. AQSHda doimiy ravishda mintaqaviy, mahalliy va global miyosda hujum operatsiyalari rejasi-m ishiaib chiqish bilan shug'ullanuvchi harhiy partiya tashkil topdi. U ham demokratik, ham respublikachilar partiyasida bir xil hal qiluvchlari ta'sir kuchiga ega bo'lib, uning ko'rsatmalariga, hatto, prezident va kongress bo'ysunishga majbur edi. Yaponiyada atom bombasining muvaffaqiyatlari qo'llamishi harhiy partiyada jangovarlik tashabbusi xurujini uyg'otdi. Amerika diplomatiyasi atom bilan shantaj qilib qo'rquituvchi atom diplomatiyasiga aylandi. "Trumen doktrinasi", "Marshall

rejasi”, NATO harbiy blokining tashkil etilishi Amerika tashqi siyosatini “kuch pozitsiyasi” dan yuritishning ketma-ket bosqichi edi.

Xitoy inqilobi va 1949-yil XXRning tashkil topishi Amerika strategiyasiga nisbatan katta zarba bo’ldi. AQSH Uzoq Sharqda Chan Kay-Shi o’rnatgan tartib tufayli muhim strategik suyanchni yo’qotdi.

AQSHning “tiyilib turish” siyosatining eng yuqori cho’qqisi Koreyadagi urush bo’ldi. Qo’shma Shtatlar bu urushda 142 ming kishini yo’qotdi. Bu mamlakatning butun Ikkinchiji jahon urushi davomida yo’qotgan kishilar sonining yarmi demakdir.

Nihoyat, 1949-yil sovet atom bombasining sinovdan o’tishi “kuch pozitsiyasi” dan siyosatni amalga oshirish umidini butkul yo’qqa chiqardi.



General Makartur va prezident Trumen. 1950-yil.

1953—1961-yillarda AQSHning ichki va tashqi siyosati

AQSHda konservativ kuchlarning faollashuvi va Koreyadagi mag’lubiyat ham Amerika siyosatini qayta ko’rib chiqishga olib kelmadidi. Aksincha, bu hol harbiy partiyaga asosiy siyosiy kuch sifatida qarashga undadi. 1952-yili prezidentlik saylovlarida respublikachilar par-

tiyasi taniqli amerikalik harbiy, AQSH va Angliyaning Yevropadagi birlashgan qurolli kuchlari sobiq bosh qo'mondoni, NATO qurolli kuchlarining bosh qo'mondoni, general Duayt Eyzenxauerni prezidentlik lavozimiga nomzod etib ko'rsatdi. D.Eyzenxauer ishonchli g'ala-bani qo'lg'a kiritdi.

Hukumat tepasiga respublikachilar ma'muriyati kelgan 1953—1961-yillarda prezident **D.Eyzenxauer** yetakchiligidagi ichki siyosatda o'zgacha fikr yurituvchi-larga qarshi yurish boshlandi. Bu kompaniyani respublikachi senator **Jozef Makkarti** (1908—1957) boshqargan edi. Senatda "amerikaparastlikka qarshi faoliyatni tek-shirish bo'yicha komissiya" tashkil etilib, u ilg'or fikrlovchi kishilarni ta'qib eta boshladи va AQSH Konstitutsiyasini buzgan holda ularga qamoq jazosi, jarma solish va ishdan haydash kabi hukmlar chiqara boshladi. **Makkartizm** mamlakatdagi har qanday o'zgacha fikrni amalda yo'q qilib, AQSHning demokratik an'analariga katta ma'naviy zarar yetkazdi.

1954-yili senat Makkartining xatti-harakatini qoralab chiqdi. Biroq uning siyosati ko'pincha siyosiy qotillik, o'zga maslakdagilarga qarshi terror qilish, ziyolilarni ta'qib etish va qora tanli aholini kamshitishda o'z tasdig'ini topdi.



Duayt Eyzenxauer

Makkartizm o'sha davrda AQSH siyosiy fikriga zid bo'lsa-da, umuman olganda u mamlakatning barcha siyosiy doiralarini qamrab g'oyani ifodalardi. Bu g'oya — Amerikaning eng qudratli davlat ekanligini ko'rsatishdan iborat edi. Shu bois Trumen hukumatining tashqi siyosiy arenadagi mag'lubiyati yanada kurashchan konservativ pozitsiyadan tanqid qilning edi. "Tiyilib turish" siyosati juda kuchsiz, sust, himoyalananuvchi va aynan shuming uchun muvaffaqiyatsizlikka uchragan siyosat sifatida baholandi. D.Eyzenxauer ma'muriyati "sovuq urush"ni keskin kuchaytirgan yangi, "yalpi qasos" doktrinasi bilan chiqdi. U SSSRga yadro zarbasi berish mumkinligimi ogohiantirishni anglatar edi.

Biroq AQSHning o'ta zo'r himoyalanganlik davri tugadi. **1953-yil 20-avgustda** Sovet Ittifoqida juda katta quvvatga ega vodorod bombasi, **1957-yil avgustda** esa 10 ming km radiusda harakatlanuvchi qit'alararo ballistik raketa sinovdan o'tkazildi. Endilikda raketalar AQSHning har qanday burchagiga vodorod bombasi bilan zarba berishi mumkin edi.

1957-yil 4-oktabrda Sovet Ittifoqi tomonidan birinchi sun'iy Yer yo'ldoshimining uchirilishi dunyo jamoatchiligi va amerikalik siyosatchilarda katta shovshuv uyg'otdi. SSSRning harbiy texnik va strategik jihatdan AQSHga yon bermasligi ma'lum bo'ldi. Uch oydan so'ng AQSH ham o'zining ilk Yerning sun'iy yo'ldoshini fazoga olib chiqdi.

Sovet Ittifoqi jahon miqyosida AQSHga qarshi targ'ibot kampaniyasini boshiab yubordi. Matbuot va ommaviy axborot vositalari, xalqaro jamoatchilik tashkilotlaridan foydalanilib, AQSH urush olovimi yoquvchi ekanligi targ'ib qilindi. AQSHning ayrim xatti-harakatlari sovet targ'ibotining bahosini tasdiqladi.

1960-yil 1-mayda SSSR hududi ustida razvedka maqsadida uchib o'tgan U-2 saniolyoti ushbu kampaniyaning kuliminatsiyasi bo'ldi. Samolyot urib tushirildi, uchuvchi **Garri Pauers** esa tirik qoldi va aslrga olin-di. Uning yonidan uchish rejasimi tasdiqlovchi xarita va hujjatlar topilgan. Amerika hukumati va shaxsan prezident D.Eyzenxauer samolyot odatlly mashq uchishi davomida adashib qolganligini ma'lum qildi. Biroq jahon jamoatchiligiga AQSH rahbariyatining bu uchishdan xabari bo'lganligi haqida ishonarli dalillar taqdini etildi.

AQSH prezidenti yolg'on gapirganlikda va xalqaro huquqni buzganlikda ayblandi.

1960-yil 16—19-mayda Parijda ikki buyuk davlat rahbarlari uchrashuvi bo'lishi kerak edi. Biroq D.Eyzenxauer uzr so'rashdan bosh tortdi va N.S.Xrushev Parijdan jo'nab ketdi. Yuqori doiradagi uchrashuv chipakka chiqdi. D. Eyzenxauerning siyosiy karyerasi nihoyasiga yetdi, respublikachilar partiyasi esa tashqi siyosatda mag'lubiyatga uchradi.

Qisqacha mazmuni

- AQSH Ikkinchı jahon urushida 300 ming kishini yo'qtdi, moddiy zarar miqdori 1,2 mlrd. dollarni tashkil etdi
- Dollar — xalqaro to'lov va hisob-kitoblardagi asosiy valyuta
- HSK (Harbiy-sanoat kompleksi)ning tashkil topishi
- Liberalizm jamiyatni isloh qilish dasturi (Kennedi — Jonson: "umumi farovonlik jamiyat"ni tashkil etish dasturi)
- Neoliberalizm g'oyasiga o'tish (kichik biznes rivojlanishi, raqobatbardosh tarmoqlar uchun imtiyozlar) konservatorlar siyosati — xususiy tadbirkorlik rivojlanishi
- Prezident G.Trumen (1945—1952)
- 1950—1953-yillar — Koreyadagi urush
- 1953—1961-yillar — prezident D.Eyzenxauer (reaksiyaning avj olishi, makkartizm, qurollanish poygasi).

8-§. AQSHNING 60—90-YILLARDAGI ICHKI VA TASHQI SIYOSATI

J. Kennedy. Islohot o'tkazishga urinish 1960-yil prezident saylovida demokratlar g'alabaga erishdi. Konservativchilar yetakchisi sobiq vitse-prezident R.Nikson (1913—1995) demokratik partiya vakili — 43 yoshli Jon Kennedidan mag'lubiyatga uchradi.

Kennedi Jon (1917—1963) — AQSHning demokratlar partiyasidan saylangan 35-prezidenti (1961—1963). Iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha bir qator muvaffaqiyatli chora-tadbirlar qabul qildi. Dallasda o'ldirilgan.

J.Kennedi ko'plab taniqli ziyolilar vakillarini ham-korlikka chaqirdi, ular orasida anchagina neoliberallar ham bor edi. Kennedy hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy dasturi asosida ichki bozorni kengaytirish harakatlarini ko'paytirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atini rag'battantirish g'oyasi yotar edi. Ushbu dastur doirasida prezident quyidagilarni taklif etdi: eng kam ish haqini oshirish, ishsizlik bo'yicha nafaqa berish muddatlarini uzaytirish, uy-joy qurilishini kengaytirish, ta'limg, sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash va malakali ishchi kadrlarni tayyorlash.



Jon Kennedy

Ushbu islohotlar katta xarajatlarni talab qilib, hukumat bunga soliqlarni ko'paytirish orqali erishishni mo'ljallagan edi. Islohotlarni amalga oshirishga urinish J.Kennedi bilan yirik korporatsiyalar o'rtaSIDA nizolarga

olib keldi. Prezident ularni o‘z mahsulotlari narxlarini oshirmaslikka majbur qildi. Bu bilan og‘ir sanoatning barcha tarmoqlarida narx o‘sishi to‘xtatib qolindi.

Demokratik partiya ichida parchalanish yuz berdi. Prezident islohoti atrofida keskin siyosiy kurash avj oldi. 1963-yil 22-noyabrda J.Kennedi Dallasda (Texas shtati) o‘ldirildi.

**L.Jonson. “Buyuk
jamiyat” tashkil etish
dasturi**

Texaslik boy neft sanoatchisi, vitse-prezident **Lindon Jonson** AQSHning 36-prezidenti etib saylandi. Uni katta biznes qo‘llab-quvvatladi, demokratik partiya esa unga yakdillik bilan ovoz berdi.

Yangi prezident Kennedy siyosatini davom ettirdi. Uning dasturi **“Buyuk jamiyat”** deb atalar edi. L.Jonson “kambag‘allik va irqiy adolatsizlikka barham berish”ga qaror qilganligini ma’lum qildi.

60-yillar o‘rtalari neoliberalizmning nisbatan faolashuv davriga aylandi. Ilk bor AQSHda ijtimoiy muam-molarni va kambag‘allikni bartaraf etishni kompleks hal etishga harakat boshlandi. F.Ruzvelt davridan buyon mamlakat ijtimoiy islohotlarning bunday jadalligini bilmagan edi. Kam daromadli fuqarolarga yordam berish dasturi qabul qilindi. Hukumat barcha bosqichdagiga ta’limni rivojlantirish, arzon turar-joy qurilishi, yosh-larga kasbiy ta’lim berishga yirik subsidiyalar ajratdi. 1965-yil iyulda qariyalar uchun tibbiy sug‘urta to‘g‘risida qonun qabul qilindi, kam daromadli oilalar imtiyozli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega bo‘ldi.

L.Jonson ma’muriyatining, ayniqsa, irqiy kamsitishga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlari katta ahamiyat kasb etdi. Bunda negrlarni ishga qabul qilish, ijaraga turar-joy berishda kamsitishga chek qo‘yish nazarda tutilgandi. Yangi prezident ma’muriyati fermer-larga yirik subsidiyalar berdi. 1968-yili hukumat ushbu maqsadlar uchun 3,5 mlrd. dollar ajratdi. Umuman olganda, hukumat barcha ijtimoiy chora-tadbirlarga 1964—1968-yillar davomida 10 mlrd. dollar ajratdi.

Jonson Lindon (1908—1973) — demokratik partiyadan saylangan AQSHning 36-prezidenti. Aynan uning davrida Shimoliy Yetnamga qarshi agressiya boshlangan edi.

**Xalqaro munosabatlar.
“Moslashuvchan javob
qaytarish” slyosati**

J.Kennedi va L.Jonson ma'-muriyati “moslashuvchan javob qaytarish” siyosatimi davom ettirdi. Bu siyosat har

qanday bo‘lishi mumkin bo‘lgan chaqiriqa javob qaytarishga qobilikni anglatar edi. Endilikda nafaqat katta, shuningdek, kichlik urushlarni ham nazarda tutish lozim edi. J.Kennedi davrida mamlakatda misli ko‘rilmagan darajada qurollamish poygasi avj oldi. AQSHning raketa-yadro aslahasi 60-yitlarda ilgarigi davrga qaraganda bir necha marta jadal suratda ko‘paydi.

1965-yil fevralda prezident L.Jonson Shimoliy Vyetnam shaharlarini bombardimon qilish haqida buyruq berdi. O’sha yilning mart oyida esa Vyetnamga 50 ming Amerika askarlari yuborildi. Uch yildan so‘ng esa harbiy harakatlar safida 550 ming AQSH armiyasi askarlari ishtirok etdi.

Vyetnam urushi — mamlakatga katta kulfat keltirdi. 1968-yil kuziga kelib AQSH Vyetnamda 30 ming kishi ni yo‘qotdi, 180 ming nafari yaralandi. Ijtimoiy islohot-larga pul ajratish keskin qisqarib ketdi. Fuqarolar erkinligiga hujum kuchaydi. Mamlakatda ijtimoiy va irqiy mazmundagi chiqishlar holatida urushga qarshi harakatlar kuchaydi. Vyetnamda Songmi qishioq‘i va uning 400 nafar aholisining qirib tashiamishi ushbu harakatlar yana-da avj olishiga sabab bo‘ldi.

Biroq bunga javob sifatida ilg‘or arbohlarga qarshi terror kuchaytirildi. **1968-yil aprelda** negrlarning fuqarolik huquqi uchun kurashuvchi doktor **Martin Lyuter King** o‘ldirildi. O’sha yilning iyun oyida esa Los-Anjelosda prezident Kennedimeng akasi Robert Kennedy o‘ldirib ketildi. U prezidentlikka o‘z nomzodini qo‘ygan edi. Mamlakatda o‘ta keskin siyosiy holat yuzaga keldi.

**Respublikachilar
boshqaruvi**

1968-yil saylovlarida unchallik katta bo‘lmagan farq bilan respublikachilar partiyasi g‘a-

laba qozondi. Prezidentlikka **R.Nikson** saylandi. Biroq demokratik partiya kongressning har ikki palatasida ko‘pchilik ovozni saqlab qoldi.



Vyetnamdagi Amerika kommandosi.

Nikson Richard (1913—1994) — AQSHning respublikachilar partiyasidan saylangan 37-prezidenti (1969—1974). “Uotergeytlar Ishi” munosabati bilan iste’foga chiqishga majbur bo’lgan.

Respublikachilar partiyasi Qo’shma Shtatlar chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglikka tushgan paytda hukumat tepasiga keldi. 1969-yil ikkinchi yarmida sanoat ishlab chiqarishi keskin kamayib, ishsizlar soni ko’payib ketdi. 1971-yil yanvariga kelib, mamlakatdagi ishsizlar soni 5 mln. kishini, ya’ni butun ishchi kuchining 6 foizini tashkil etdi. Aksiyalar qiymati to’xtovsiz tushib, inflyatsiya va narx-navo kuchayib ketdi.

Chuqur energetika inqirozi boshlandi. Yaqin Sharqda sharoit keskinlashgani bois neft qazib chiqaruvchi mamlakatlar AQSHga neft yetkazib berishni qisqartirdi. Bu, narx-navoning yangidan oshishi va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keldi.

Iqtisodiy inqiroz respublikachilarni ko’p jihatdan o’z qarashlarini qayta ko’rib chiqishga majbur etdi. Hukumat tepasiga kelgunicha R. Nikson davlatning boshqaruv vazifasi kuchsizlanishi va erkin tadbirkorlikning kuchayishi

zaruriyati haqida so'zlagan edi. Inqirozga duch kelgan respublikachilar partiyasi safida bo'linish yuz berdi: "erkin tadbirkorlik" tarafдорлari bilan bir qatorda yangi qanot — iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda davlat rolining oshishi dasturini ilgari surgan neokonservatorlar paydo bo'ldi. Bu qanotga prezident R.Niksonning o'zi boshchilik qildi. 1971-yil 15-avgustda u "**yangi iqtisodiy siyosat**"ga o'tishni e'lon qildi. Bu, iqtisodiyotga davlat aralashuvining o'sishi va erkin tadbirkorlikka qarshi cheklovchi choralarmi kiritishga yo'l qo'yadigan **neokonservativizmning** g'alabasini anglatar edi.

Narx va maoshlar muzlatib qo'yildi, davlat xarajatlari qisqartirildi, dollarni oltinga almashtirish vaqtincha to'xtatildi va AQSHga keltirilayotgan tovarlarga 10 foizli boj haqi kiritildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga bo'lgan ilgarigi cheklanishlar bartaraf etildi.

Bu choralar ahvolni yaxshilamadi. Inflyatsiya oshib bordi, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashdi. Yangi iqtisodiy siyosat boshi berk ko'chaga kirib qoldi. R.Nikson hukumati energetika muammolarini ham hal eta olmadidi.

Neokonservatorlar ijtimoiy sohada ko'pgina muvafqiyatlarga erishdilar. Inqirozli vaziyat va mehnatkashlarning o'z huquqlari uchun kurashi ijtimoiy sohada ustomonlik bilan siyosat yurishni talab etardi. R.Nikson ma'muriyatini besh yillik faoliyatida qarilik nafaqasi, shuningdek, mehnat qobiliyati yoki boquvchisini yo'qotishi munosabati bilan to'lanadigan nafaqalar miqdorini bir necha bor oshirdi. Bu toifa bo'yicha barcha to'lov turlari ushbu muddatda 45 foizga, ularni oluvchilar soni 30 mln. kishidan oshdi.

Davlat yordami tizimi



Martin Lyuter King.

ayniqsa keng rivojlandi. Kambag'allik darajasidan quyi daromadli oilalar davlatdan maxsus nafaqa olish huquqiga ega bo'ldiki, bu ularning xarid qobiliyatini oshirdi va ichki bozormi rag'batlantirdi. R.Nikson kambag'al odamlar muayyan oziq-ovqat turlarini bepul olishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat talonlari tizimining doirasi-hi kengaytirdi. 1969-yilda 3 mln., 1974-yilda 13 mln. kishi bu tizimni qamrab olgan edi. 1974-yilda eng kam ish haqi soatiga 1,6 dollardan 2,2 dollarga ko'paydi.

Shunday qilib, neokonservativizm ijtimoiy sug'urtami kengaytirish va davlat yordamini o'z ichiga oldi.

R.Niksonning tashqi siyosati Bu paytda mamlakatning ikkinchi jahon urushidan keyingi tashqi siyosati asosiga qurilgan bir qator muhim konsepsiyalari qayta ko'rib chiqildi.

1973-yil 27-yanvarda Parijda Vyetnamdag'i urushni to'xtatish haqida bitimga imzo chekildi. Amerika qo'shinlari mamlakatdan olib chiqildi. Bu urushda 58 ming amerikalik halok bo'ldi. Lotin Amerikasida AQSH har bir mamlakatning Kuba bilan munosabatlarini mustaqil yuritishi huquqini tan olishga majbur bo'ldi. Bu, AQSHning diplomatik blokada siyosatidagi ochiq-oydin adashish edi.

Sovet-Amerika munosabatlarda bu paytda muhini burilish yuz berdi. Moskvada ikkala tomon tinch-totuv yashash haqida kelishib olishdi. Boshqa bir qator bitimlar imzolandiki, ular o'zaro munosabatlarni nafaqat yaxshiladi, balki butun xalqaro iqlimni o'zgartirib yubordi.

1972-yil prezidentlik saylovlarda R.Nikson yana g'alaba qozondi. Saylovchilarning 60 foizi unga ovoz berishdi. Biroq kongress ikkala palatasidagi ko'pchilikni demokratlar tashkil etdi.

Saylovlar tugashi bilan AQSHda siyosiy janjallar boshiandi. Dastlabki janjal vitse-prezident S.Agnuning poraxo'rlikda ayblamishi bilan bog'liq bo'ldi. U shundan so'ng bu lavozimni tark etdi.

1973-yil **Uotergeyt ishi** bilan bog'liq siyosiy inqiroz boshlandi. 1972-yil 17-iyunda "Uotergeyt" mehmonxonasidagi demokratik partiya qarorgohida eshituvchi apparatlar o'rnatayotgan shaxslar guruhi ushiandi.

Prezident R.Nikson ham bu ishga aralashgani ma'lum bo'ldi.

"Uotergeyt janjali" va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzuvchi noqonuniy xatti-harakatlar, korrupsiyaga doir dalillar prezidentning iste'foga chiqishi uchun keng harakatlarni yuzaga keltirdi. 1974-yil 9-avgustda R.Nikson impichment (davlat lavozimidan majburiy cheklantirish) xavfi ostida iste'foga chiqdi.

AQSH vitse-prezidenti **Jerald Ford** yangi prezident bo'ldi. U ijtimoiy sohadagi byudjet xarajatlarini qisqartirishga chaqirdi. Bu neokonservativm konsepsiysi va Nikson kursidan jiddiy chekinish edi. Respublikachilar partiyasi o'z ta'sirini yo'qota bordi va demokratlarga o'z mavqeini bera boshladi.

Jerald Ford (1913-yilda tug'ilgan) — AQSHning Respublikachilar partiyasidan 38-prezidenti (1974—1977). 1973—1974-yillar — AQSh vitse-prezidenti.

J.Karter. "Yangi konservativm siyosati 1976-yil saylovlarda demokratik partiya vakili, bu payt-gacha siyosiy doiralarda noma'lum bo'lgan, Jorjiya shtatining sobiq gubernatori, fermer **J.Karter** g'alaba qozondi.

Jeyms Karter (1924-yilda tug'ilgan) — demokratik partiyadan AQSHning 39-prezidenti (1977—1981). "Butun dunyoda" inson huquqlarini himoya qllishni o'z siyosatining asosiy shiori qilib olgan.

Yangi hukumat harbiy xarajatlarni keskin oshirdi. 1980-yilda ular rekord darajaga, ya'ni 130 mlrd. dollarga o'sdi. Siyosiy doiralarda "**yangi konservativm**" deb nomlangan yangi qudratli harakat shakllandı. Davlatning ijtimoiy xarajatlarini qisqartirish va harbiy xarajatlarni oshirishga intilish uning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'ldi.

J.Karter asosiy sababi aynan harbiy xarajatlar bo'lgan inflyatsiya bilan kurash bahonasida oylik ish haqini oshirmaslik, ijtimoiy xarajatlarni qisqartirish va shu tariqa mehnatkashlar ommasi hisobiga "qat'iy iqtisodiyot" siyosatini olib borish dasturini amalga

oshirdi. Bu ishchilarning ommaviy noroziligiga olib keldi.

Mamlakatda fermerlik harakati jonlandi. Fermerlar qishloq xo'jalik mahsulotlariga narxlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tiklashni talab etishdi. Amerikaning tub aholisi bo'lgan hindular harakati faollashdi. 1978-yilda Vashingtonda hindularning qirilib ketishga mahkum etgan genotsid va irqiy ta'qiblarga qarshi umummilliy yurishi bo'ldi. Mamlakatda demokratik harakatning yangi ko'tarilishi boshlandi.

**J.Karterning tashqi
siyosati**

AQSH o'z tashqi siyosatida Misr va Isroil o'rtaida tinchlik sulhi tuzishni tiqishtirishga muvaffaqiyatsiz urindi. 1978-yil sentabrida Kemp-Devidda (AQSH) Misr prezidenti A.Sadat va Isroil bosh vaziri M.Begin o'rtaida imzolangan bitim butun arab dunyosida qoralandi. A.Sadatning o'ldirilishi bu jarya-yonga chek qo'ydi.

1979-yil noyabrdagi Eron Islom inqilobining g'alabasi AQSHni Yaqin Sharqdagi muhim strategik joylardan mahrum etdi.

AQSH va SSSR o'rtaсидаги муносабатлар жиддија ра-



Arizona shtatidagi hindular rezervatsiyasi.

vishda yomonlashdi. Sovet Ittifoqining Afg'onistonga bostirib kirishini ro'kach qilgan J.Karter hukumati Moskvadagi Olimpiya o'yinlarini boykot qildi, Sovet Ittifoqiga don va boshqa tovarlar yetkazib berishdan bosh tortdi, fan-texnika sohasida almashuvlarni chekladi.

Amerika xalqiga tashqi siyosatdagi ko'rinib turgan barbodliklar og'riqli ta'sir etdi. Mamlakatda neokonservatizmning iqtisodiy g'oyasi tez sur'atlarda rivojlana boshladi.

Reyganomika siyosati 1980-yil saylovlarida g'alaba qozongan **R.Reygan** neokonservatizm yo'boshchisi bo'ldi. U mamlakat tarixidagi eng keksa prezident edi, chunki u prezidentlik o'rindig'iga o'tirganda 70 yoshda bo'lган. Biroq shunga qaramay keksa yosh unga 1984-yilda ikkinchi marta bu lavozimga o'tirishga xalaqt bermadi.

Ronald Reygan (1911-yilda tug'ilgan) — AQSHning respublikachilar partiyasidan 40-prezident (1981—1989). R.Reygan ma'muriyati sovet-amerika munosabatlarini yaxshilash va xalqaro keskinlikni pasaytirishga imkon yaratdi.

R.Reygan ma'muriyatining iqtisodiy siyosati ("reyganomika" nomini olgan) yirik korporatsiyalar solig'ini kamaytirish va ularga katta imtiyozlar berish, ijtimoiy ehtiyojlarga byudjet xarajatlarini cheklash, inflayatsiyani yengishga yo'naltirilgan kredit-pul siyosatini ta'minlash yo'lidan bordi. "Reyganomika"ning markaziy masalasi harbiy ehtiyojlarga xarajatlarni oshirish edi. AQSHning harbiy xarajatlari 1980-yilda 134 milliard dollardan 1987-yilda 282 milliard dollarga qadar o'sdi. Ma'muriyat "yulduzli urushlar" dasturini amalga oshirishni e'lon qildi. Bunda kelajakdagi urushda asosiy harbiy harakatlar kosmik fazo va Oyda ro'y beradigan bo'ldi. Jamoatchilik fikrini aldaydigan bunday fantastik loyiha astronomik harbiy xarajatlarga olib keldi (1979-yilda — 40,2 milliard, 1983-yilda — 207 milliard, 1986-yilda — 221 milliard dollar).

R.Reygan ma'muriyatining iqtisodiy siyosati mamlakat sanoatining rivojlanishi va muhim tarmoqlarini

ilmiy-texnik jiliatdan jihozlashda muhim o'zgarishiarga olib keldi. Ular ishchi kuchi qo'llanmasdan ishiaydigan butun boshli fabrikalarni yaratishga yo'naltirilgan ishiab chiqarish, elektron avtomatlashtirish jarayonining boshlanishiga asos bo'ldi. 80-yillardagi amerika sanoatining asosini mashinasozlik majmui (metallni qayta ishiash, umumiy mashinasozlik, elektrotexnik mashinasozlik, transport mashinasozligi va asbobsozlik) tashkil etdi. 80-yillar oxirida dunyoning butun mashinasozlik ishlab chiqarishida AQSHning ulushi 34 foiz bo'lsa, ikkinchi o'rindagi Yaponiyaning ulushi 17 foizni tashkil etgan, xolos. Avtomobil sanoati tubdan rekonstruksiya qilindi. AQSH, mahsulotmi avtomatlashgan loyihalash tizimi va robototexnik kompiekslarni keng tatbiq etishdan foydalangan holda, avtomobillar ishiab chiqarish sohasidagi birinchilikni o'ziga qaytib oldi.

R.Reygan ma'muriyatining tashqi siyosati

R.Reygan ma'muriyatining tashqi siyosatida sof kuchlarni "sovuq urush"ga ilhomlantirishga intilish va

xalqaro munosabatlarda AQSH ustunligini tasdiqlash muhim o'rin tutdi. Bu ma'muriyatning konsepsiyasi shunday jaranglaydi: "Dunyo kuch — iqtisodiy, harbiy va strategik omil bilan qaror tópadi". Unga ko'ra, dunyoda AQSHga nisbatan dushmanlik ortib bormoqda va faqat harbiy qudrat hamda qat'iy xatti-harakatlargina xavfsizlikni ta'minlaydi. R.Reygan ma'muriyatining iik tashqi siyosiy harakati Grenadaga havo desanti tushirish va orolning qonuniy hukumatini yo'q qilish bo'ldi. U kongressning man etishi, BMT, shuningdek, Markaziy Amerika mamlakatlari qoralashiga qaramay, Nikaraguadagi reaksiyon kuchlarni qo'llab-quvvatladi. Amerika ma'muriyati ulkan harbiy xarajatlarni oqlash uchun xalqaro keskintikni oshirishga intillib, ochiqdan-ochiq tajovuzkorona xatti-harakatiarni amalga oshirdi.

Ayni paytda R.Reygan ma'muriyati Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarni biroz yaxshilashga intildi. 1986—1988-yillarda M.S.Gorbachev bilan oliy darajada bo'lib o'tgan uchrashuvlar sovet-amerika munosabatlarimi sozlash va xalqaro vaziyatni yaxshilashga imkon yaratdi.



M.Gorbachev, R.Reygan va vitse-prezident J.Bush BMTda.
1988-yil dekabr.

B.Klinton ma'muriyatining ichki va tashqi siyosati

yana g'alaba qozondi. tug'ilgan) prezident etib saylandi. AQSHda o'tkir ijtimoiy mojaro pishib yetildi. "Reyganomika" tor doiradagi biznesmenlarning boyishiga olib keldi va ayni paytda amerika jamiyatining xastaliklari, jumladan, qashshoqlikning aniqlanishiga imkon yaratdi. Zotan, 12,5 foiz amerikaliklar qashshoq ahvolda yashamoqda, qora tanli aholi orasida bu ko'rsatkich yana ham yuqori, 12 million amerikaliklar boshpanaga ega emas edi. Amerikaning 26 ta yirik shaharlari aholisi tezkor ravishda uy-joy berilishiga muhtoj bo'lib, 400 ming amerikalik giyohvand moddalarni iste'mol etishni man qilish haqidagi qonunni buzgani uchun qamoqxonada saqlandi. Giyohvandlik keng ijtimoiy hodisaga aylandi.

Yangi prezident yangi liberal aqidalarga muvofiq mazkur ijtimoiy xastaliklarni tugatishga va'da berdi. U o'zini "yangi demokrat" deb atadi, bu bilan Amerikani davolash uchun barcha demokratik vositalarni qo'llashga tayyorligini bildirdi. Biroq uning qashshoqlar foydasiga

J.Bush ma'muriyati to'rt yil hukmronlik qilgandan so'ng (1989—1993) 1992-yilda demokratik partiya saylovlarda

Uilyam Klinton (1946-yilda Uilyam Klinton (1946-yilda amerika jamiyatining xastaliklari, jumladan, qashshoqlikning aniqlanishiga imkon yaratdi. Zotan, 12,5 foiz amerikaliklar qashshoq ahvolda yashamoqda, qora tanli aholi orasida bu ko'rsatkich yana ham yuqori, 12 million amerikaliklar boshpanaga ega emas edi. Amerikaning 26 ta yirik shaharlari aholisi tezkor ravishda uy-joy berilishiga muhtoj bo'lib, 400 ming amerikalik giyohvand moddalarni iste'mol etishni man qilish haqidagi qonunni buzgani uchun qamoqxonada saqlandi. Giyohvandlik keng ijtimoiy hodisaga aylandi.



Bill Clinton.

daromadlarni "taqsimlash"ga urinishi kongressning ko'pchilik respublikachilari tomonidan rad etildi.

Respublikachilar uning barcha qonun loyihalarini barbod etishdi. Ayni paytda Senat to'g'ridan-to'g'ri prezident qarashlariga zid keluvchi qonunlarni qabul qildi. 1998-yilda Klintonning ijtimoiy siyosatiga zarar yetkazuvchi va avtomobil, yo'l, neft va aviatsiya kompaniyalariga ulkan subsidiyalar ajratuvchi bir qator qonunlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, kongress prezidentning Arkansasdagi gubernatorlik qilgan paytidagi moliyaviy operatsiyalar chog'ida yuz bergen bir qator suiste'molliklarni fosh etdi, siyosiy raqiblari esa uning shaxsiy hayoti bilan bog'liq janjaldan foydalanishdi. Senatda uni hokimiyatdan mahrum etish (**impichment**) uchun ikki ovoz yetmay qoldi, xolos.

Klintonning siyosati, bir tomondan, mayda tashabbuslarni tashkil etishdan iborat bo'ldiki, ulardan ko'pi mamlakatning ijtimoiy ahvoliga kam ta'sir etardi (jino-yatchilik bilan kurash, shtatlarda giyohvandlikka qarshi testdan o'tkazish, qamoqxonalarda ovqatlanish va munosabatlarni yaxshilash); boshqa tomondan — harbiy ehtiyojlarga xarajatlarni o'z ichiga oldi.

Biroq Klintonning ijtimoiy siyosati unga omma orasida obro' keltirdi va 1996-yilda u ikkinchi muddatga prezident etib saylandi.

Klinton ma'muriyatining tashqi siyosatida dunyoda yagona hokimlikka intilish ustuvorlik qildi. 1991-yili Sovet Ittifoqi tarqatilgandan so'ng jahon maydomida AQSHga qarama-qarshi turadigan raqib qolmadi. U BMT bilan bosh xalqaro tashkilot sifatida hisoblashmay qo'ydi. 1999-yilda Yugoslaviyaning bombardimon qilishi shundan guvohlik beradiki, AQSH jahon muammolarini o'z manfaatlariga muvofiq holda mustaqil hal etishga kirishdi. Butun g'arb olami AQSH atrofida birlashdiki, bu hol unga jahon siyosatida yanada ishonch bilan qadam taslashiga imkon yaratdi.

2000-yil prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasi g'alaba qozondi. AQSH sohiq prezidenti J.Bushning o'g'il **Jorj Bush (kichik)** prezident etib saylandi. Mamlakat ichki va tashqi siyosati o'zgarmadi. **2001-yil 11-sentabrda** AQSHda terroristik harakatlar amalga oshirildi. Natijada Nyu-Yorkdagи savdo markazi vayron qilindi va uch ming atrofida odam halok bo'ldi.

AQSH terroristik aktlarga javoban ularni amalga oshirishda ayblangan Al-Qaida terroristik tashkiloti va Afg'onistondagi Tolibonlarning pozitsiyalarini bombardimon qildish choralarini ko'rди. 2002-yildagi antiteroristik kompaniyasi AQSH harbiy byudjetini 120 milliard dollarga oshirish imkonini berdi. Mamlakatda iqtisodiy pasayish va ishsizlikning o'sishl boshiandi.

2003-yilda AQSH Iroqqa qarshi urush boshiadi. Amerikalik ekspertlarning taxmimicha Iroq hududida ommaviy qirg'in qurollari bor edi. 2003-yil mayda AQSH mamlakatga qo'shin kiritdi.

Tarixiy ma'lumot

AQSH PREZIDENTLARI

- 1945—1953 — G.Trumen
- 1953—1961 — D.Eyzenxauer
- 1961—1963 — J.Kennedi
- 1963—1969 — L.Jonson
- 1969—1974 — R.Nikson
- 1974—1977 — J.R.Ford
- 1977—1981 — J.Karter
- 1981—1989 — R.Reygan
- 1989—1993 — J.Bush
- 1993—2000 — B.Klinton
- 2000-yildan — J.Bush (kichik)

Qisqacha mazmuni

- 1961-yil — prezident J.Kennedi: ijtimoiy isiohotiar dasturi
- 1963-yll 22-noyabr — J.Kennedi Dallasda o'ldirildi (Texas shtati)
- 1963-yildan — prezident L.Jonson: "qashshoqilkni tugatish" va irqi kamsitishni bartaraf etish dasturi; qurollanish poygasining kuchayishi
- 1965-yil aprel — Vyetnamga qarshi tajovuz
- 1968-yil aprel — Martin Lyuter King o'ldirildi
- 1969—1974-yillar — prezident R.Nikson: iqtisodiy va siyosiy inqiroz, ishiab . chiqarishning pasayishi, narxlar va inflyatsiyaning oshishi
- SSSR bilan tinch-totuv yashash haqida shartnoma
- 1973-yil 27-yanvar — Vyetnamda urushning to'xtatilishi
- 1973-yil — "uotergeyt ishi"
- 1974-yil — prezident J.Ford: neokonservativm yo'ilning barham topishi
- 1977—1981-yillar — prezident J.Karter: ijtimoiy daromadlarning qisqarishi va harbiy sarflarning oshishi, norozillklarning o'sishi, SSSR bilan munosabatlarning yomoniashuvi
- 1981—1989-yillar — prezident R.Reygan: "reyganomiqa", "yuiduzlar urushi" dasturi, tashqi siyosatdagi barbodlikiar
- 1986-yil — SSSR bilan munosabatlarning yaxshilishi
- 1993—2000-yillar — B.Klinton prezidentilgi
- 2000-yildan — J.Bush (kichik) prezidentilgi
- 2001-yil — Nyu-York va Vashingtona terroristik hujum
- 2003-yil may — iroqqa qo'shin kiritilishi

Savollar

?

1. AQSHda ikkinchi jahon urushi yillarda sanoatning tezkor o'sishiga qanday omillar imkon yaratdi?
2. "Harbiy sanoat majmui" tushunchasiga ta'rif bering.
3. AQSHda 50-yilarda rivoj topgan liberalizm mafkurasining asosiy xususlyatlarini sanab o'ting.
4. AQSH demokratik partiyasining "umumi farovonlik jamiyat"ni barpo etish dasturi haqida nimalarni bilasiz? U qaysi jihatlari bilan "inson kapitalini takror ishlab chiqarish" dasturidan farqlanadi?
5. Liberallar va konservatorlar dasturlarining asosiy farqi nimada? Ularning dasturiy qoidalari mamlakat prezidentlari faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
6. Quyidagi atamalar mohiyatini tushuntiring: "mos ravishda

ta'sir ko'rsatish" siyosati, "uotergeyt ishi", "reyganomika", "neoliberalizm" (yangi liberalizm), "yulduzli urushlar".

Jadvalni to'ldiring

AQSH prezidenti	Boshqargan yillari	Qaysi partiyadan saylangan	Faoliyatining natijaları

9-§. BUYUK BRITANIYA 50—90-YILLARDA

Buyuk Britaniyaning urushdan keyingi iqtisodiyoti 1945-yil iyulda britaniyalik saylovchilar U.Cherchill boshchiligidagi konservatorlarni rad etib, leyboristlar partiysi uchun ovoz berishdi. Bosh vazir U.Cherchill o'mini **Klement Ettli** egalladi.

Klement Ettli (1888—1967) — Buyuk Britaniya bosh vaziri (1945—1951). U "sovuv urush" tashabbuskorlaridan bli bo'lgan.

Leyboristlar hukumati iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar olib bordi va "**farovonlik jamiyati**"ni barpo etish uchun shart-sharoitlar yaratdi: ko'mir sanoati, energetika, transport, fuqarolik aviatsiyasi, ingliz banki va po'lat quyish sanoati natsionalizatsiya qilindi. Hukumat millionlab inglizlarni arzon kvartiralar bilan ta'minlash uchun uy-joy dasturini qabul qildi.

Ijtimoiy ta'minot dasturi yangi hukumatning eng ommabop tashabbusi bo'ldi: u ishsizlarga yordam ko'rsatishni oshirish, keksalik bo'yicha nafaqa to'lash, bepul maktab tushliklari va qisman bepul tibbiy xizmatni ko'zda tutdi. Biroq dastur yetarli moddiy asosga ega emas edi, shu bois 1948-yildan uni amalga oshirish to'xtatib qo'yildi.

Angliyaning Ikkinchiji jahon urushidan keyingi iqtisodiy ahvoli izdan chiqqan edi. Bundan tashqari, harbiy xarajatlar uning moliyaviy ahvolini og'irlashtirdi. AQSH ingliz iqtisodiyotiga katta zarba berdi, bu bilan Angliyani Yevropa qit'asidagi o'z izmidan chiqmaydigan satellit

davlatga aylantirish va bir yo'la Uzoq Sharqdagi mustamlakalaridan siqib chiqarishni mo'ljalladi. 1945-yil avgustda AQSH mutlaqo kutllmaganda lend-hiz bo'yicha mahsulotlar yetkazib berishni to'xtatishini ma'lum qildi. Endilikda Angliya AQSH yetkazib beradigan barcha tovarlar uchun naqd pul bilan hsoohlashishi lozim edi, bunday pul mamlakatda topilmadi. Mamlakatning moliyaviy ishlari fojeaviy ahvolga keldi. AQSH sobiq ittifoqchisini saqlab qolisli uchun unga 1945-yili yirik zayom berdi. Buming evaziga Angliya Britan imperiyasi bozorining bojaxona ta'riflarini kamaytirishi lozim edi. Amerika korporatsiyalari o'zi uchun ingliz mustamlakalari va dominionlarida katta bozorga ega bo'ldi. Bu, ingliz mustamlaka imperiyasining tugashim tezlashtirdi.

Angliya "Trumen doktrinasi"ni amalga oshirish munosabatl bilan Bolqonda va Sharqiy O'rtayer dengizida o'z mavqeini yo'qotdi. U o'sha yili Hmdistonga ozodlik berishga majbur bo'ldi. Bularning hammasi iqtisodiyot inqirozga yuz tutgan paytda yuz berdi. Mamlakat eksportdan yetarli mahlag' ololmagani uchun import tovarlari uchun to'lay olmay qoldi. Bir paytlar eng barqaror hisoblangan ingliz valyutasi endilikda amerika dollariga tenglashishga majbur bo'ldi. 1949-yilda funt sterlingning qadrsizlanganligi e'lon qilindi. Ilgari 4 dollar bo'lgan uning kursi 2,80 doliarga tushib ketdi.

"Marshall rejasi"ni amalga oshirish Angliyaga yangi zayom ollsh imkonini berdi. Leyboristlar hukumati buni hayotga tatbiq etishga kirishdi. Angliya AQSH bilan "alohida munosabatlar"ga tayamib, Yevropa va Amerika o'rtasida xuddi bir vositachidek bo'lib qoldi.

"Marshall rejasi" bo'yicha 1948—1950-yillarda Angliya mahsulotlar va zayomlar hamda 3 milliard dollarga yaqin yordam oldi. Biroq bu uning iqtisodiy alivolini yaxshilamadi. Bundan tashqari, mazkur reja Angliyani AQSHga tobelinegi kuchaytirdi, amerika kapitalini mustamlaka mulklariga kirib kelishini yengillashtirdi, amerika konsernlari bilan raqobatdosh bo'lgan ingliz iqtisodiyoti tarmoqlariga zarar yetkazdi. "Marshall rejasi" surunkali davom etayotgan cliuqur moliyaviy inqirozga olib keldi. Bu rejadan bir yil o'tgach, 1949-yildayoq Angliya moliyaviy bankrotlik, ya'ni simish xavfi ostida qoldi.

1951-yili konservatorlar partiyasi hokimiyatga keldi va 1964-yilga qadar uni ushlab turdi. Bu paytda U.Cherchill (1951—1955), A.Iden (1955—1957) va G.Makmillan (1957—1964) bosh vazir lavozimida ishladilar.

Uinston Cherchill (1874—1965) — Buyuk Britaniya bosh vaziri (1940—1945, 1951—1955). U gitlerchilarga qarashli koaliitsiyani tashkil etish tashabbuskorlardan biri bo'lgan, yangi urushning oidini olish maqsadida BMTni mustahkam-lashga chaqirgan.

Antoni Iden (1894—1977) — Buyuk Britaniya bosh vaziri (1955—1957). U bir necha tashqi siyosiy ishlardagi muvaffaqiyatsizliklardan so'ng iste'foga chiqdi.

Garold Makmillan (1894—1986) — Buyuk Britaniya bosh vaziri (1957—1963). U qurollanishni kuchaytirish siyosatini olib bordi. .

Konservativ hukumat po'lat quyish sanoatini denatsionalizatsiya qildi, biroq "farovonlik jamiyati"ni barpo etish dasturini (bepul tibbiy xizmat, uy-joy qurilishi) amalga oshirishda davom etdi.

Ayni paytda Britaniya imperiyasi yemirilishda davom etmoqda edi. Ingliz hukmron doiralarining 1956-yilda Misrda o'z hukmronligini saqlab qolish va kuch bilan o'z talablariga bo'ysundirishga so'nggi urinishi to'liq barbod bo'ldi. Sovet Ittifoqi Misri himoya qilib chiqdi, 1956-yil dekabrda ingliz-fransuz qo'shinlari Misrdan olib chiqib ketildi.

Bu ingliz tashqi siyosatining butun mamlakat tarixidagi eng qaqshatqich muvaffaqiyatsizlikka uchrashi edi. Angliya Osiyoda o'z ta'sirini yo'qotdi va to'liq yakkalanib qoldi. Hatto AQSH ham uni qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdi.

Mamlakatning 70-yillaridagi iqtisodiyoti Jahon siyosatiga Angliya ta'sirining tanazzulga uchraishi 1964-yili hokimiyatga kelgan leyboristlar hukumatida ham davom etdi. Bosh vazir **Garold Wilson** mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilay olmadidi. Valyuta yana qadrsizlandi, Vilsonning Angliyani "Umumiy bozor"ga qabul qilinishiga urinishi

barbod bo'ldi, chunki Fransiya bunga qarshi chiqdi. 1970-yili konservator **Edvard Xit** bosh vazir bo'ldi. Uning eng yirik muvaffaqiyati Angliyaning 1973-yili "Umumiy bozor"ga qabul qilinishi bo'ldi. Biroq u tred-yunionlar bilan kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchradi va 1973/74-yillar qishida tog'-kon sanoatida inqiroz boshlandi.

Garold Vilson (1916-yilda tug'ilgan) — Buyuk Britaniya bosh vaziri (1964—1970, 1974—1976). Uning boshqaruvi chog'ida iqtisodiyot pasayishi va ishsizlik o'sishli qayd etilgan.

Edvard Xit (1916-yilda tug'ilgan) — Shimolly Irlandiya bilan munosabatlari keskinlashgan 1970—1974-yillarda Buyuk Britaniya bosh vaziri bo'lgan.

1974-yili leyboristlar partiyasi yana hokimiyatga keldi va Garold Vilson yana bosh vazir bo'ldi. U tred-yunionlar bilan munosabatlarni yaxshilashga va'da berdi. Bosh vazir oylik ish haqini bir qadar cheklash haqida bitimga erishishga muvaffaq bo'ldi, biroq 1976-yildagi ingliz pul birligi qadrining yana pasayishi bu urinishlarni puchga chiqardi. Vilson o'z ixtiyori bilan iste'foga chiqdi va



Irlandiya. Kurash davom etmoqda.

uning o‘rniga leyboristlar partiyasi yo‘lboshchisi **Jeyms Kellagan** keldi.

Millatning kelajagi va umuman iqtisodiy vaziyat noaniqligicha qoldi. Shotlandiya qirg‘oqlaridan uncha uzoq bo‘limgan Shimoliy dengizda yirik neft konlari ning topilishi bu borada umid uyg‘otdi. Ayni paytda Shimoliy Irlandiyada yangi yirik siyosiy muammo yuzaga keldi.

1921-yil shartnomasiga ko‘ra, Olster grafligi Buyuk Britaniya tarkibida qolib, keng miyosda o‘z-o‘zini boshqarishni saqlagandi. Biroq ko‘pchilikdan iborat protestantlar kamchilikdan iborat katoliklarni kamsitish uchun o‘z hokimiyatidan doimiy ravishda foydalanib keldi. **1968-yilda** katoliklarning o‘z fuqarolik huquqlari uchun harakati boshlandi. Irland respublikachilar qo‘smini birlashmalari Olsterning Irlandiya respublikasi bilan birlashishi uchun faol kurashni boshlab yubordi. O‘z navbatida protestant harbiy tashkilotlari ham qarab turmadi. Britaniya hukumati tartib o‘rnatish uchun qo‘smin yubordi. Biroq tez orada qo‘smin birlashmalari jangovar irlandlarning ikkala guruhi uchun nishonga aylandi. Qaqshatqich to‘qnashuvlarda yuzlab terroristlar va britan qo‘smini askarları halok bo‘ldi.

**Margaret Tetcher
davri**

Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli fojiali ravishda yomonlasha bordi. 1979-yili

Angliyada ishsizlar soni 1935-yildan buyon ilk marta 2 million kishiga yetdi, keyinги yili esa 3 milliondan oshdi. Ularning yarmi ishsizlik bo‘yicha nafaqa olmas edi. Tez o‘sib borayotgan inflyatsiya tufayli 1979-yili so‘nggi 20 yil ichida aholi turmush darajasi eng quyi nuqtaga yetdi.

Shu bois ham 1979-yilgi parlament saylovlariida konservatorlar g‘alaba qozongani bejiz emas edi. Hukumat boshlig‘i etib ilk bor ayol kishi — konserva-



Margaret Tetcher

torlarning yangi yo'lboshchisi **Margaret Tetcher** saylandi.

M.Tetcher o'zini qat'iyatli xarakter, mustahkam e'tiqod va aniq harakatlar dasturi egasi bo'lgan davlat arbobi sifatida namoyon etdi. Inglizlar uni "**temir xonim**" deb atashdi. U Angliya va dunyoda katta obro' qozondi va u boshchiligidagi konservatorlar partiyasi 1983-hamda 1987-yillar saylovlari da g'alaba qozondi. "Temir xonim" esa Angliya hukumatini ketma-ket o'n bir yil boshqardi. Bu paytni tarixchilar "Tetcher davri", uning dasturini esa "**tetcherizm**" deb atashdi.

M.Tetcher dasturi mamlakat hukmron doiralarining Angliyani dunyo miqyosida buyuk davlat sifatida tiklanishiga intilishini o'zida aks ettirdi. Dasturning mohiyati Britaniya orollarida ham, Yevropa va Amerikaning baracha mamlakatlarida ham tez o'sib borayotgan neokonservativ g'oyalarni ifoda etardi. Ichki siyosatda tetcherizmning asosi xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik ruhi va "mulkchilar demokratiyasi"ni rivojlantirishni o'z ichiga olardi. Dastur, shuningdek, davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini cheklash, ijtimoiy dasturlardan voz kechish yoki ularni eng kam darajaga tushirish; soliqlar va qat'iy iqtisod qilish hisobiga hamda xarajatlarni qisqartirish evaziga defitsitsiz byudjetga erishishni ko'zda tutdi.

Margaret Tetcher (1925-yili tug'ilgan) — Buyuk Britaniya bosh vaziri. Uning rahbarlik yillarida iqtisodiyotda barqaroriik va Angliyaning jahonda ta'sir doirasining o'sishi ro'y berdi. U "Olster muammosi"ni hal eta olmadi.

M.Tetcher dasturi shundan kelib chiqdiki, Angliya kuchli qo'shin va flotga ega bo'lishi hamda o'z yadro qurolini takomillashtirishi lozim. Tashqi siyosatda u AQSH bilan "alohida" ittifoqchilik munosabatlari va NATO bilan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarga rioya qilishni ustuvor deb hisobladi.

Tetcherga tashqi iqtisodiy maydonda dovrugli bir g'alaba zarur edi va u bunga erishdi. **1982-yil aprelda** u Argentinaning Folkland orollarini bosib olishga urinishiga qat'iy javob berdi. Bu joy ingliz orollaridan 13 ming km masofada bo'lsa ham tarixan argentinaliklar mulki

hisoblangan. Lekin Angliya ham unga teng darajada da'vogar edi. Bu orollar Angliya uchun na siyosiy, na iqtisodiy, na strategik jihatdan hech bir ahamiyatga ega bo'lmasa-da, hukmron doiralar Argentinaga "kuch ishlatalish" siyosatidan saboq berish va hoy herilgan dunyo miqyosidagi dengiz davlati shon-shuhuratimi o'zlariga qaytarib olishga qaror qilishdi.

Sarf-xarajatlar va kishilar hayoti bilan ham hisoblashmagan M.Tetcher orolga harbiy kemalar, dengiz piyodalari va aviatsiyami yubordi. Natijada, uch oylik janglardan so'ng, Angliya bu orollardagi mavqeini tikladi. Konservatorlar partiyasi ohro'-e'tiborining blr qadar o'sishiga erishdi.

Ichki siyosatda M.Tetcher ishsizlik bo'yicha nafaqalar va boshqa ijtimoiy dasturlarni qisqartirdi. Angliya ishchi sinfi bunga stachka, ya'mi ish tashiash harakatini kuchaytirish bilan javob berdi. Biroq Tetcher orqaga chekinmadni, faqat qattiqqo'l iqtisodiy choralar bilangina Angliyanı "Yevropaning kasal odami" ahvolidan qutqarish mumkin, degan fikrni bildirdi.

Hukumat ilgari natsionalizatsiya qilingan yoki davlat loyihalari bo'yicha qurilgan davlat sektoridagi korxonalarini xususiylashtirdi. Ko'plab neft va aviakosmik sanoat, shuningdek, havo transporti korxonalarini xususiy mulkdorlar qo'liga o'tdi. Davlat sektoridagi korxonalarning uchdan ikkisi xususiy mulkdorlar yoki xususiy lashtirilgan korxonalar jamoalariga o'tdi. Aym paytda, milliondan ortiq munitsipal kvartiralar sotildi va natijada mamlakat ahollsining 60 foizdan ziyodrog'i o'z uy-joyiga ega bo'ldi. Bu hoi inamlakatda mulkdorlarning ko'payishi va konservatorlar partiyasi ijtimoiy negizimining kengayishiga olib keldi.

M.Tetcher dasturining inuvaffaqiyatli amalga oshirilishida Shimoliy dengizda topilgan neft konlari asosidagi Angliya neft sanoatining rivojlanishi muhim bo'ldi. 1980-yilga kelib Angliya o'zming neft va gazga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirdi. 1981-yili neft qazib chiqarish 60 million tonnaga yetdi va Angliya umi jahon bozoriga olib chiqish imkomiga ham ega bo'ldi.

Neft sanoatining rivojlanishi ingliz hukumatiga ulkan valyuta tushumlarini berdi, bu yirik kapital britan sanoatini texnik qayta jihozlash, shuningdek, yangi sohalarni

rivojlantirayotgan va mehnat samaradorligi o'sishini rag'batlantirayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga sarflandi. Dastlabki yillarda sekin odimlayotgan "tetcherizm" endi sezilarli natijalar bera boshladi. 1982—1987-yillarda Angliyaning iqtisodiy o'sish sur'atlari G'arbiy Yevropada eng yuqori bo'ldi. Ishsizlar soni, inflyatsiya miqyoslari sekin qisqardi.

M.Tetcher Angliyaning Yevropadagi rahbarlik rolini qaytarishga urindi va YIHda qariyb barcha asosiy muammolar bo'yicha mustaqil pozitsiyada turdi. Xususan u Yevropada yagona pul birligini yaratishga keskin qarshi chiqdi. 1989-yili Strasburgdagi hamjamiyat mamlakatlari rahbarlari sammitida u mazkur mamlakatlardagi ishchilar qonunchiliginini unifikatsiyalash (bir xil-lashtirish)ga qarshi chiqdi va "Ishchilar asosiy huquqlari xartiyasi"ni qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdi.

Ayni paytda Angliyaning jadal iqtisodiy o'sishi va nisbiy farovonligi davri uzoq davom etmadni. 90-yillar boshlaridan oq iqtisodiy kon'yuktura yomonlashdi, byudjet yetishmovchiligi, inflyatsiya va ishsizlik kabi "eski kasallik"lar yana qaytdi. Mamlakatning 18 yoshdan yuqori bo'lgan, daromadidan qat'iy nazar barcha aholisiga to'laydigan yangi soliq ahvolni tuzatishga urinish bo'ldi. Bu tadbir ommaviy norozilik namoyishlariga sabab bo'ldi.

Olsterdagi ahvol keskinlashdi. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari sekinlashdi. "Tetcherizm davri" o'z imkoniyatlarini tugatgani ma'lum bo'ldi. Xususiy lashtirish va neft sanoati bilan bog'liq barcha zaxiralar ham tugal holga keldi.

1990-yil noyabrda M.Tetcher o'z ixtiyoriga ko'ra iste'foga chiqdi. U hukumatda kelgusi saylovgacha ishlab turishi mumkin edi. Biroq bu hol partiyani mag'lubiyatga olib kelardi. Estafetani konservatorlar partiyasining yangi yo'lboshchisi **Jon Meyor** qabul qildi.

**J. Meyjor. "Teng
imkoniyatlar
jamiyati"ni yaratishga
urinishlar**

U 1943-yilda tug'ilgan va M.Tetcher hukumatining eng yosh a'zosi edi. Jon Meyjor Angliya tarixida eng noan'anaviy hukumat boshlig'i bo'ldi. Uning ota-onalari juda kambag'al bo'lib, faqat noto'liq o'rta ma'lumot berishgan.

Jon Meyjor M.Tetcher siyosatini davom ettirdi. Uning dasturi jahon bozorida raqobatlasha olmaydigan sanoat tarmoqlarini xususiy lashtirish yo'lini davom ettirishni ko'zda tutdi. U ham Tetcher kabi infliyatsiyaga qarshi kurashni eng asosiy vazifa deb hisobladi, chunki infliyatsiyaning o'sishi ishsizlikning o'sishiga olib kelishi mumkin edi.

J.Meyjor ijtimoiy muammolarga alohida urg'u berdi. Hukumat dasturi har bir kishiga teng imkoniyatlar yaratish, tibbiy xizmat va xalq ta'limida islohotlar o'tkazishga yo'naltirildi.

Tashqi siyosatda J.Meyjor YIH bilan integratsiyaviy jarayonlarni kuchaytirish va AQSH bilan ittifoqchilik aloqalarini mustahkamlash yo'lini olib bordi. Angliya AQSHning Iroqdagagi urushini qo'llab-quvvatladi va Fors qo'lting'i rayoniga salmoqli harbiy qismlarni yubordi. Hukumat tepasiga kelgan J.Meyjor xalq o'rtasida norozilik uyg'otgan jon boshidan olinadigan soliqni bekor qildi



Toni Blair

va "britaniyaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy talablarini ko'proq qondirish tomoniga burilishni amalga oshirish"ga va'da berdi. 1992-yili parlament saylovlarida yana konservatorlar mutlaq ko'pchilik ovozni oldi. J.Meyjor bosh vazir lavozimida qoldi.

I997-yil saylovlarida konservatorlar mag'lubiyatga uchradi, leyboristlar parientdag'i 650 o'rindan 419 tasini egalladi.

90-yillar oxirida mamlakatdagi vaziyat

Yangi ingliz bosh vaziri, leyboristlar partiyasi yo'lboshchisi Tom Blerga o'tmishtdan og'ir meros qoldi. Shotlandiya va Uelsda mahalliy millatchilar g'alaba qozondi, ular o'z parlamentlarimi chaqirish huquqini qo'lga kiritdi. 1997 va 1998-yillarda bu viloyatlarda parlamentlarga saylovlar o'tkazildi. Ular ichki ishlar ustidan nazoratni o'z qo'liga oldi va muxtoriyat e'lon qildi. Bu Buyuk Britaniyaning parchalamishiga birlinchi qadam bo'ldi, leyboristlar hukumati esa uming oldini ololmadi. Iriand millatchilari ham ancha faollahishib qoldi.

Ingliz davlati va jamiyatimi qamrab olgan inqiroz ingliz monarxiyasini ham yemirdi. Zotan, uming ylliar mobaynida ingliz siyosiy va ijtimoiy hayotning mustahkam asosi bo'lib keldi. So'nggi yllardagi qirollik oilasi bilan bog'llq janjallar mamlakatda oddiy voqeа bo'lib qoldi. Qirollik hokimiyatiga birlik ramzi, ingliz xalqning axloqiy qadriyatları va tarixiy an'analari saqlovchisi sifatidagi ilgarigi ishonchga putur yetdi.

Bundan tashqari, qirollik hokimiyatining saqlanib turishi, uming marosim va sayohatlari, ko'p sonli qasr va saroylar ta'minoti, ularga xizmat ko'rsatish davlat xazinasiga qimmatga tushadi (5 million funt sterlingga qadar).

2001-yll iyunda umumxalq saylovlarida leyboristlar partiyasi yana g'alaba qozomib, parientda 413 o'rinni qo'lga kiritdi. Angliya AQSHning eng ishonchli ittifoqchisi bo'llib qoldi. 2001-yilda Afg'onistonda Tollbonlarga qarshi kurashda va 2003-yilda Iroq urushida ishtirok etdi.

Tarixiy ma'lumot

BUYUK BRITANIYANING BOSH VAZIRLARI

1945—1951 — K.Ettli
1951—1955 — U.Cherchill

1955—1957 — A.Iden
1957—1963 — G.Makmillan
1963—1964 — A.Duglas-Xyüm
1964—1970 — G.Vilson
1970—1974 — E.Xit
1974—1976 — G.Vilson
1976—1979 — D.Kallagen
1979—1990 — M.Tetcher
1990—1997 — J.Meyjor
1997-yildan — T.Bler

BUYUK BRITANIYA MONARXLARI

1936—1952 — Georg VI
1952-yildan — Yelizaveta II

Qisqacha mazmuni

- Ikkinchi jahon urushidan keyingi og'ir moliyaviy ahvol,
- 1945-yili iyul — bosh vazir K.Ettli davri (keng ijtimoiy islohotlar, mamlakat aholisi farovonligining oshishi)
- 1945-yil avgust — lend-liz bo'yicha AQSH yetkazib berayotgan tovarlarning to'xtatillshi
- 1948-yildan — iqtisodiy rivojlanishning pasayishi, funt sterlingning qadrsizlanishi
- "Marshali rejası" bo'yicha zayomlar — AQSHga tobelik
- 1949-yil — moliyaviy inqiroz
- 1956-yili dekabr — ingliz-fransuz qo'shinlarining Misrdan olib chiqilishi. Angliyaning xalqaro mayonda yakkalanib qolishi
- 1968-yil — Olster katoliklarining Irlandiya respublikasi blian birlashish harakati boshianishi
- 1973-yil — Angliyaning "Umumiy bozor"ga a'zo bo'lib kirishi
- 1979-yil — aholi turmush darajasining keskin pasa-yishi
- 1979—1990-yillar — M.Tetcher konservatorlar partiyasidan bosh vazir etib saylandi. Angliyaning jahon miqyosida buyuk daviat sifatida tiklanishga urinlshi, xususiy tadbirkorlikni qo'liab-quvvatlash
- 1982-yil aprel — Argentina bilan Folkland oroliari uchun g'olibona jang
- 1982—1987-yillar — iqtisodiy rivojlanish sur'atlari ning keskin oshishi
- 90-yillar boshiardan — iqtisodiy pasayish, inflyatslya, ishsizlikning o'sishi

- 1990-yil noyabr — M.Tetcherning iste'fosi
- Jon Meyjor — bosh vazir: xususiy lashtirish siyosatining davom ettirilishi, ijtimoiy muammolarning hal qilinishi
- Tashqi siyosatda integratsiya jarayonlarining kuchayishi
- 1997-yildan — T.Bler bosh vazir etib saylandi
- 2003-yil may — Iroqqa qo'shin kiritilishi

Savollar

- ?
1. Ikkinchchi jahon urushidan so'ng K.Etli boshchiligidagi leyboristlar partiyasi oldida qanday vazifalar turar edi?
 2. "Marshall rejasi" bo'yicha yordam olish Angliya iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
 3. Shimoliy Irlandiya muammosining mohiyati nimadan iborat?
 4. Mamlakatning 50—80-yillardagi iqtisodiy rivojlanishiga gisqacha ta'rif bering.
 5. J. Meyjor bosh vazir etib saylangach, mamlakat iqtisodiyoti va siyosatida qanday o'zgarishiar bo'ldi?

Jadvalni to'ldiring

Bosh vazir	Boshqaruv yillari	Faoliyatining yakunlari	
		Ichki siyosat	Tashqi siyosat

10-§. FRANSIYA: “GOLLIZM”NING QAROR TOPISHI

Fransiya Ikkinchchi jahon urushidan so'ng

Fransiya ozod etilgan 1944-yil kuzidan to To'rtinchl respublika konstitutsiyasi qabul qilingan 1946-yil kuzigacha bo'lgan muddatdagi siyosiy tuzumi tarixga Vaqtli rejim nomi bilan kirgan. Bu mamlakat tarixida uzoq davom etmagan, hiroq juda muhim davr bo'lganki, unda demokratik va antifashist kuchiar katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Urush natijasida fransuz iqtisodiyoti kuchsizlahib qoldi. Sanoatda ishlab chiqarish hajmi urushgacha

bo'lgan darajadan 38 foiz, qishloq xo'jaligida — 60 foiz-gacha pasaydi. Ko'plab zavodlar to'xtab qoldi, shaxtalar deyarli ishlamadi. Tashqi savdo qariyb yo'q darajada edi. Pul tizimi izdan chiqdi. Mamlakatda yonilg'i, xomashyo, oziq-ovqat, keng iste'mol mollari yetishmasligi yaqqol sezilib turdi. Narxlar jadal oshdi va urushdan oldingi darajadan 6 marta o'sdi. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun kartochka tizimi joriy etildi. "Qora bozor" va chayqovchilik gullab-yashnadi.

Siyosiy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Fransiya milliy manfaatlariiga xiyonat qilgan partiyalar siyosiy maydondan ketdi. So'l antifashist tashkilotlar uchun ro'shnolik kunlari keldi. Ayniqsa, Fransiya komunistik partiyasi (FKP) katta obro' qozondi. Uni "otib tashlanganlar partiyasi" deb nomlashdi, chunki gitlerchilar uning deyarli barcha yirik vakillarini otib tashlashgan edi. Bu partiya rahbarligida fransuz Qarshilik harakati amal qildi. 1945-yilda u mamlakatdagi eng yirik siyosiy partiyaga aylandi. Uning saflarida 900 ming a'zo bo'lgan.

Qarshilik harakatida ishtirok etgani va ishchilar harakati bilan aloqasi tufayli sotsialistik partiya o'z pozitsiyalarini mustahkamladi. "Tamoyillar bayonotnomasi"da (1946-yil) u mavjud tuzumni tugatish haqidagi o'z niyatini e'lon qildi. Urush yillarda sotsialistlar FKP bilan birligini bildirdi va 1944-yil dekabrida ikkala partiya Kelishuv qo'mitasini tuzishdi.

Urush paytida Yevropa mehnatkashlarini birlash-tiruvchi va saflarida 5,5 million kishi bo'lgan Umumiy mehnat konfederatsiyasi (UMK) tashkil etildi.

Fashistlar bilan hamkorlik qilgan partiyalar hukumat dekretlari bilan tarqatib yuborildi. Ular o'rniغا yangi partiyalar yuzaga keldi. Bu partiyalar orasida Xalq respublikachilar harakati (XRH) eng obro'lisi edi



General de Goll

(1944-yilda tuzilgan). Uning dasturida “inqilobni qonunlar yo‘li bilan” amalga oshirish, sanoatni qisman natsionalizatsiya qilish va iqtisodiyotga rahbarlikni davlatga berish ko‘zda tutiidi. Harakat ishchilarining ishlab chiqarishmi boshqarishdagi ishtirokini ko‘zda tutuvchi tizimni yaratishni rejalashtirdi. XRH tashqi siyosatda G‘arbiy Yevropa davlatlarimi birlashtirish konsepsiyasini ilgari surdi. Uning yo‘lboshchilari Amerika Qo‘shma Shtatlari namunasi bo‘yicha “Yevropa Qo‘shma Shtatlari”ni yaratishga chaqirdi.

Ushbu harakatning ommaviyligi birinchi galda general de Goll nomi bilan bog‘liq edi. “Kurashayotgan Fransiya” vatanparvarlik harakatining rahbari bo‘lgan bu msonning irodasi va siyosiy qarashiari urushdan keyingi Fransiya tarixiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi.

De Goll va “gollizm” muammolarlari

Sharl de Goll 1890-yil 22-noyabrda Lill shahrida eski dvoryan oilasida tug‘ildi. Uni yuksak qobilyatli kishi sifatida katohk va’zxonni yoki katta yozuvchi bo‘lish kelajagi kutardi. Biroq u butun umrini qo‘sish bilan bog‘ladi, bu esa umi keyinchalik siyosiy faohyat niaydoniga yetaklab keldi.

1940-yil iyunda Fransiya kapitulyatsiya qilingan kunda de Goll Bi-Bi-Si da chiqish qilib, fransuz qo‘sini fashist bosqinchilariga qarshi kurashni davom ettirishga da‘vat etdi. De Goll shu kumi zobitiik mansabini tugatdi va davlat arbobi sifatidagi hayotini boshladi. Uning fransiyami buyuk davlat sifatida tiklanishihi asosiy maqsad qilib qo‘yan siyosiy konsepsiysi “gollizm” nomini oldi. Uning mohiyatini to‘rt tushuncha: “millat”, “kuchli davlat”, “Fransianing ulug‘voriigi” va “ijtimoiy islohotlar”da ifodalash mumkin. Davlat, Sh. de Gollning fikricha, agar millatda hirlik bo‘lsa va hir maqsad atrofida jipslashsagina kuchli bo‘lishi mumkin. U respublika-demokratik an‘analardan yuz o‘girmadi, biroq davlat boshlig‘i, prezidentning kuchli hokimiyatini, uning umumxalq ovoz berish yo‘li bilan saylanishi va keng vakolatlarga ega bo‘lishini yoqlab chiqdi. Eng muhimmi, siyosiy masalalar bo‘yicha referendum o‘tkazishni lozim deb hisobiadi.

Sh. de Goll faoliyatining ahaniyati shunda ediki, u Fransiya hukmron doiralarining an‘anaviy qarashiaridan

yuqori tura oldi va ijtimoiy guruhlarga bo'linmasdan millatmi jipslashtirishga harakat qildi.

Shu munosabat bilan u hammaga teng imkomiyatlarni beruvchi ijtimoiy islohotlar o'tkazishni zarur deb hisobladi. U sanoatmi qisman natsionalizatsiya qilish, iqtisodiyot ustidan davlat nazoratini o'rmatish, ijtimoiy sug'urta tizimini kiritish va mehnat sharoitlarini yaxshilashni shunday islohotlar qatoriga kiritdi.

Tashqi siyosatda Sh. de Goll Yevropaning yagona lqtisodiy va siyosiy ittifoqqa birlashishining qat'iy va izchil tarafdori bo'ldi. U mazkur birlashish Fransiya rahbarligi ostida amalga oshishini ko'zda tutdi. 1944-yll martda urush hali qizg'in kechayotgan va ittifoqchilar Normandiyaga qo'shin tushirishga endi tayyorlanayotgan bir paytda u g'arb davlatlarining keng guruhiga Yevropada iqtisodiy asosda birlashish dasturini ilgari surdi. Bu blokka Germamianing qo'shilishi ham ko'zda tutildi, biroq SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari unda yo'q edi.

Sh. de Goll o'z o'rinda Elzas Lotaringiya temir va ko'miri, Rur ko'mirini qazib chiqarishni birlashtirish asosida Yevropa davlatlari hamjamiyatini yaratishga intilgan fransuz tadbirkorlari va siyosatchilari manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqdi. Bu orqali albatta, G'arbiy Yevropa qudratli jahon industrial markaziga aylanardi. Sh. de Goll fransuz burjuaziyasining ichki siyosatdagi yon berishiari va ijtimoiy ehtiyojlarga xarajat-larning oshishini qoplamoq uchun bu yo'lni tutdi.

Muvaqqat rejim davri Urushdan keyingi dastlabki
(1944—1946-yillar) vaqtli hukumatga Sh. de Goll rahbarlik qildi. Hukumat

tarkibiga antifashist partiya vakillari, Qarshilik harakatining faol ishtirokchilari, shu jumladan, komunistlar va sotsialistlar ham kirdi.

Vaqqli hukumat okkupatsiya yillarda fashistlar bilan hamkorlik qilgan kishilarni davlat apparatidan tozaladi. Peten va Laval boshchiligidagi barcha ministrlar davlatga xiyonat qilishda ayblamib, sud qillindi. Laval o'lim jazosiga hukm etildi. Peten esa avf qilindi. Unga o'lim jazosi umrbod qamoq bilan almashtirildi. Barcha reaktion tashkilotlar tarqatildi, ularning rahbarlari esa turli muddatlarga hukm qilindi.

Muvaqqat rejim davridagi asosiy voqealari mamlakat yangi konstitutsiyasi qabul qilinishi kerak bo'lgan Ta'sis majlisiga saylovlari bo'ldi. Saylov 1945-yil 21-sentabrda bo'lib o'tdi va unda Fransiya KP g'ohb chiqdi. FKP 5 million ovoz (umumiyoq ovozning 26 foizi) oshdi, jami 545 ta deputatlik mandatidan 152 tasiga ega bo'ldi. Ikkinchisi o'rinni 142 ta mandat bilan sotsialistlar egalladi, uchinchisi o'ringa esa 141 ta mandatga ega Xalq harakati vakillari chiqishdi. Sotsiahstlar va kommunistlar Ta'sis majlisida eng ko'pchilikni (294) tashkil etganda mamlakatda yangi siyosiy sharoit yuzaga keldi. De Goll premyer-ministr lavozimini egalladi. Hukumat tarkibiga kommunistlar, sotsialistlar va Xalq respublikasi harakati vakillari kirdi.

Biroq hukumatning bunday taqsimlanishi de Gollni qomiqtirmasdi. Shu bois 1946-yil yanvar oyida bo'lib o'tgan Ta'sis majlisida deputatlar harbiy xarajatlarni 20 foizga qisqartirishganda orada nizo chiqdi va general istefoga chiqdi. Bunday xatti-harakat bilan u o'zining shaxsini hildirib qo'yemoqchi bo'ldi. Biroq hech kim de Gol'dan hokimiyatga qaytib kelishimi so'ramadi va u 1958-yilgacha mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etmadidi.

Ayhi paytda Sh. de Gollning iste'foga chiqishi mamlakatdagi voqealar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ta'sis majlisi va hukumat mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy strukturasida keskin burilishni anglatuvchi hir qator ilg'or chora-tadbirlar qabul qildi. Barcha yirik banklar, elektr energetikasi va gaz sanoati davlat tasarrufiga o'tkazildi. Davlat mulkiga aylantirilgan korxonalarни boshqarishda hukumat vakillari, ishchi va xizmatchilar ham ishtirok eta boshiadi. 40 soatlik ish haftasi, ishchilar uchun 2 haftalik, xizmatchilar uchun 3 haftalik ta'til joriy qilindi. Ish haqi 80 foizga oshdi, yagona ijtimoiy sug'urta tizimi joriy qilindi. Mamlakat jamiyatni demokratlashtirish va mehnatkashlar turmushini yaxshilashda keskin burilish yasadi.

Muvaqqat rejim erishgan katta yutuqlardan biri sifatida mamlakatda demokratik tuzumni belgilab bergan yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi bo'ldi. Hukumat va parlamentni nazorat qiluvchi kuchli prezident hokimiyatini o'rnatish loyihasi rad etildi. Fransiya o'z tarixining yangi davriga kirdi.

To‘rtinchi respublika (1946—1958-yillar)

Hyani davlat apparati bilan yagona mexanizmga birlashtirildi. Yirk davlat sektori tashkil etildi, iqtisodni rejalashtirish va dasturlashi keng qo’llanilib To‘rtinchi respublika yashagunga qadar (1958) modernizatsiya va rekonstruksiyalashning ikkita rejasи qabul qilindi (1947—1954 va 1954—1957).

1948-yil sanoat ishiab chiqarish hajmi urushdan avvalgi darajadan ham oshdi. 1949-yili kartochka tizimi bekor qilindi, 1950-yilda esa qishioq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi ham urushdan avvalgi darajaga ko‘tarildi. 1950-yildan so‘ng Fransiyaning iqtisodiy ahvoli yaxshilandi. Bu borada “Marshall rejasи” muhim rol o‘ynadi. Urush oqibatlarini tugatish, ilmiy-texnik revolyutsiya, davlat buyurtmalari va kreditlar sanoat rivojlanishi sur’atining oshishiga katta yordam berdi. Ayniqsa, sanoatning yangi tarmoqlari — elektronika, kimyo, samolyotsozlik, avtomobilsozlik tez rivojlnana bordi. Natijada og‘lr sanoatning solishtirma hajmi ko‘paydi. 1958-yili mazkur soha mahsulotlari qiymati Fransiyadagi jami sanoat mahsulotlarining 2/3 qismi tashkil etgani shuning isbotidir. Og‘ir sanoatda jami sanoat ishchilarining 2/3 qismi xizmat qilardi.

Ma’lum muvaffaqiyatlarga erishgach, Fransiya hukumati xalqaro doirada o‘z o‘rnini mustahkamlashga qaror qildi. **1946-yil dekabrda** fransuz mustamlaka hukumati Vyetnamni Xo Shi Min rahbarilgida respublika deb e’lon qilgan vatanparvar kuchiarga qarshi urush boshiadi. Bu urush 8 yil davom etdi va **1954-yili** Fransiya mag‘lubiyati bilan yakunlandi. Vyetnamdagi kurash tinchimasdan turib Fransiya Jazoirda mustamlakachilik urushini boshiab yubordi. Bu eng qonli va beshafqat mustamlakachilik urushiaridan biri bo‘lib, baribir Fransiyaning yana bir bor mag‘lubiyati bilan yakun topdi. Fransiyaning anglyallk interventlar bilan Yaqin Sharqda Suvaysh kanali hududidagi yangi harhiy avanturasi ham yengildi. U buyuk davlat roli uchun zaiflik qildi. Endilikda Fransiya Yevropada o‘z pozitsiyasini mustahkamlash uchun ushbu mintaqadagi buyuk davlatlar bilan ittifoqchi bo‘lishga qaror qildi.

To‘rtinchi respublika davrida fransuz iqtisodi qayta tiklandi. Uning asosida monopo-

To‘rtinchi respublikaming butun siyosati Yevropani hir-lashtirish bilan bog‘liq edi.

1951-yil dekabrda Fransiya tashabbusi bilan Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi (YKPB) tashkil etildi. Bu Fransiya va Germaniya ko‘mir hamda po‘lat eritish sanoati hirlashuviga asos soldi. 1952-yili Parijda “Yevropa mudofaa uyushmasi” to‘g‘risidagi shartnomalar imzolandi va u Germamianing qayta quronanishiga olib keldi. 1955-yili may oyida Germaniya NATO tarkibiga kirdi. Bunga javob sifatida Sovet Ittifoqi 1944-yilgi sovet-fransuz shartnomasini bekor qildi.

Tasliqi siyosatdagi bunday o‘zgarishlar mamlakatda chuqur ijtimoiy va siyosiy mizolarni keltirib chiqardi. Siyosiy kurash umumiy sharoitning beqarorligiga sabab bo‘ldi, deb baholash mumkin. To‘rtinchi respublikaning 12 yillik mavjudligi davomida yigirma uchta hukumat almashdi.

Nihoyat, To‘rtinchi respublika xalq ishonchini yo‘qotdi. Isli tashiash harakati kuchaydi. 1956-yiigi ish tashiashiarda 982 ming kishi, 1957-yilgisida 2964 ming kishi ishtirot etdi.

1958-yil may oyida navbatdagi hukumat inqirozi ro‘y berdi. Parijda harbiy g‘alayon tayyorlanardi. Bu esa demokratik kuchlarning noroziligiga sabab bo‘ldi. 1958-yil 28-may kumi yuz minglab kishilar harbiy diktatura o‘rnatalishiga qarshi norozilik bildirib namoyishga chiqdilar. Mamlakatda tartibsizlik yuzaga kehib, hukumat faoliyati izdan chiqdi. Siyosiy tebranish xavfi oldidan **1958-yil 1-iyunda** Miiiy majis general de Gollni mamlakat premyer-ministri etib tayinladi. Generalning Fransiya uchun tarixiy ahamiyatga ega yangi siyosiy hayoti boshlandi.

Beshinchi respublika De Goll man'lakatning yangi konstitutsiyasimi taklif etdi. **1958-yil sentabrdagi** referendumda qatnashganlarning 79 foizi umi yoqlab ovoz berdi.

Yangi konstitutsiyaga ko‘ra prezident umumxalq ovozi bilan 7 yil muddatga saylanadigan bo‘ldi. Davlat rahbari shaxsan barcha ichki va tashqi siyosatni boshqaradi, premyer-ministr, ministrlar va barcha harbiy va fuqarolik rahbarlarimi tayinlaydi, turli dekret va far-moyishiarni imzolaydi, saylovdan bir yildan so‘ng har

qanday paytda Milliy majlisni tarqatib yuborish huquqiga ega.

Prezident Oliy bosh qo'mondon, Oliy Kengash va Milliy mudofaa qo'mitasi raisi sanaladi. U tashqi ishlar, ichki ishlar va mudofaa ministrlilari faoliyatiga ham rahbarlik qilar edi. Qonunlar va qarorlarning barcha loyihalari prezident kanselyariyasida ishlab chiqilardi. **1958-yil 21-dekabrda** general Sharl de Goll umumxalq ovozi bilan respublika prezidenti etib saylandi. Fransiyada Be-shinchisi respublika tarixi boshlandi. Sh. de Goll uchun saylovchilarning 75,5 foizi ovoz berdi. U xalq ishonchiga va favqulodda vakillikka ega bo'ldi.

Sh. de Goll Jazoir xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini tan oldi (1959-yil 19-sentabr). Bunga javoban Jazoirda fransuz mustamlaka qo'shinlari zabitlari g'alayoni boshlandi. Sh. de Goll zudlik bilan uni bostirish choralarini ko'rди.

1962-yil 18-martda Fransiya premyer-ministri Jorj Pompidu va Aljir milliy-ozodlik fronti rahbari Ben Bella Jeneva ko'li yaqinidagi Evian shahrida urushni to'xtatish va hukumatni aljir xalqi qo'liga topshirish shartlari to'g'risidagi Fransuz-Jazoir bitimini imzoladilar. Aljirda 8 yil davom etgan urush yakun topdi. 8 aprelda Fransiyada referendum bo'lib o'tdi va fransuz saylovchilarining 90 foizi **Evian bitimini** yoqlab ovoz berdi. 1962—1963-yillarda prezident de Goll va GFR kansleri K. Adenauer o'rtasida Parij va Bonnda to'rt marta uchrashuv bo'lib o'tdi. 1963-yil 22-mart kuni Fransiya va GFR o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolaniib, ikki davlat o'rtasida ittifoqchilikni tasdiqladi.

Shunday qilib, "tarixiy murosa"ga erishildi va tarixda ilk bor ushbu ikki davlat ittifoqchi bo'lib olishdi.



K. Adenauer va general de Goll.
Parij, 1963-yil.

1966-yil martda Fransiya NATO tarkibidan chiqib ketdi. 1968-yil avgustda Fransiya birinchi marta vodorod bombasini sinovdan o'tkazib, jahondagi yadro quroliga ega mamlakatlar safidan o'rin oldi.

De Gollning o'n yillik boshqaruv davrida Fransiya iqtisodi mustahkamlanib, uning xalqaro pozitsiyasi tiklandi. Fransuz frankining yangi kursi joriy etildi, yirik korxonalarga davlat kreditlari berildi. 1958-yildan 1964-yilgacha 500 ta yirik sanoat trestlarining daromadi 70 foizga o'sdi. Sanoatning yangi — kimyo, neft, harbiy aviatsiya, avtomobil, elektronika va elektrometallurgiya kabi tarmoqlari tez sur'atlarda rivojlana bordi.

Shu bilan birga inflyatsiyaga qarshi kurash va byudjet taqchilligini kamaytirish maqsadida hukumat soliqlarni ko'paytirib gaz, elektroenergiya, transport ta'riflarini oshirdi, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni esa kamaytirdi. Nominal ish haqi ushbu yillarda 32 foizga ko'paygani holda, narx-navo 42 foizga oshdi. Mamlakatda qishloq aholisi soni kamayib ketdi. Ko'pgina fermer xo'jaliklari italyan va ispan dehqonlari bilan raqobatga dosh berolmay xonavayron bo'ldi. Har yili qishloqlarni 150 mingtagacha kishi tark etib keta bordi.

De Goll hukumatining rejimi xalq ishonchini yo'qota



Parijdagi ommaviy chiqishlar. 1968-yil, may.

boshlagan edi. 1968-yildagi ommaviy chiqishlar uning o'n yillik boshqaruvining natijasi sifatida namoyon bo'ldi. Namoyish ishtirokchilari ta'lim tizimini qayta tuzish, ta'limga ajratiladigan mablag'ni oshirish, ta'lim uchun olinadigan haqni pasaytirish va stipendiya to'lashlarini talab qilib chiqishdi. G'alayon kuchayib politsiya va namoyishchilar to'qnashuviga olib keldi. 7-mayda Parij ko'chalarida 3 mingdan oshiq talaba yaralandi va hibsga olindi. Bunday xatti-harakat umumxalq ish tashlashga olib keldi va u to'rt hafta davom etdi. Bu esa mamlakat hayotini to'xtatib qo'ydi. Ish tashlashda 10 million kishi ishtirok etdi. 24-mayda ishchi va xizmatchilarga hukumatning agrar siyosatidan norozi dehqonlar qo'shildilar.

Bu voqealar de Goll o'rmatgan tartib va uning obro'yiga katta putur yetkazdi. 1969-yil aprelda u istefoga chiqdi va siyosatga boshqa qaytib kelmadи. Oradan bir yarim yil o'tgach, ya'ni 1970-yil 9-noyabrda 80 yoshida vafot etdi.

1969-yil iyunda Jorj Pompidu respublika prezidenti etib saylandi. U de Gollning siyosiy yo'lidan borayotgan sodiq safdoshi edi. J.Pompidu o'tkazgan qayta tashkil etish natijasida siyosiy partiylar soni kamaydi va "hukumat beqarorligi"ga chek qo'yildi.

1974-yil bahorida J.Pompidu vafot etdi.

O'ngchilar vakili **V.Jiskar d'Esten** va so'lchi-sotsialistlar partiyasining yetakchisi Fransua Mitteran o'rtasida prezident saylovi uchun kyrash boshlandi. Uncha ko'p bo'limgan farq bilan V. Jiskar d'Esten g'olib chiqdi. U **Jak Shirakni** premyer ministr qilib tayinladi.

1974-yilda boshqa g'arb davlatlari kabi Fransiyani ham iqtisodiy tanglik qamrab oldi. Ishlab chiqarish pasayib, ishsizlik, inflyatsiya



Fransua Mitteran.

kuchaydi. Jahon bozorida nefting narxi tushib ketdi, natijada mamlakatda yoqilg'i bahosi o'sib ketdi. Bu hol barcha sanoat mahsulotlarining narxi oshishiga olib keldi. Aholining ko'pini ishsiz va hech qanaqa nafaqa olmaydigan yoshlar tashkil etar edi.

Jiskar d'Esten liberalizm ruhidagi ijtimoiy islohotlar o'tkazishni zarus deb hisobladi. Bunga mehnat sharoitini yaxshilash, ayollar huquqini kengaytirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash kabi tadbirlar kirar edi. Sodiq gollchi J.Shirak ilgarigi yo'nalishdan voz kechishni rad etdi.

1981-yilgi prezident saylovida so'Ichilar vakili **F.Mitteran** g'olib chiqdi. U Milliy majlisni tarqatib yubordi va yangi saylovlarni tayinladi. Unda sotsialistlar ko'pchilik ovozga ega bo'ldi.

Yangi prezident va uning mahkamasi ilk faoliyatining birinchi yilda mehnatkashlar manfaatini ifodalovchi muhim islohotlar bilan tanildi. Ish haqi, ishsizlik uchun, ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqa miqdori oshirildi, qariyalik nafaqasi va stipendiyalar ko'paytirildi, yirik kapitalni soliqqa tortish kuchaytirildi. Ish haftasi 39 soatgacha qisqartirildi va besh yil davomida ish haftasini besh kunlikgacha olib kelish majburiyati olindi. Sotsialist Pyer Morua rahbarligidagi hukumat 36 ta bank va 9 ta sanoat guruhini (metallurgiya, elektronika, kimyo, aviasozlik, harbiy tarmoq va boshqa) natsionalizatsiya qilish va umummilliy organlar vakolatini qisqartirish hamda munitsipalitetlar huquqini kengaytirish yo'li bilan markazlashtirilmagan davlat boshqaruvi dasturini amalga oshirishga kirishdi. Bu 1936—1937-yillardagi Xalq sharoiti davridan buyongi eng chuqur islohotlar edi.

Mitteran Fransua (1916—1996)— Fransiya prezidenti (1981—1995). U bir qator tarmoqlarni natsionalizatsiyalashtirdi, muhim ijtimoiy islohotlarni o'tkazdi. Boshqaruv davrining oxirida iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli o'tkazilgan islohotlarni bekor qila boshladi.

Biroq bu islohotlar moliya va sanoat oligarxiyasining qattiq qarshiligiga duch keldi. Fransuz iqtisodi bunday xarajatlarni ko'tara olmasligi ham ma'lum bo'ldi. Byudjet taqchilligi xatarli darajaga yetdi. Hukumat islohotlarini to'xtatib "shafqatsiz iqtisod" siyosatini yurita boshladi.

Soliq va narx-navo ko'tarildi, bir qator korxonalar yopilib ketdi. Aholining xarid quvvati pasaydi, ishsizlar yana ko'paya boshladi. 1984-yildan F. Mitteranni "populizm" va omilsizligi uchun tanqid qilish kuchaydi. Irqi va milliy qarama-qarshilik paydo bo'la bordi. 1986-yilgi parlament saylovi ushbu kayfiyatni ifodaladi. Sotsialistlar endi ko'pchilik ovozni yo'qotgan edi. Bu borada J. Shirak boshchiligidagi Respublikachilar partiyasi va Jiskar d'Esten yetakchiligidagi Fransuz demokratiyasi ittifoqi (FDI) oldingi o'ringa chiqib oldi.

Prezident F. Mitteran kutilmagan yo'ldan borishga majbur bo'ldi. U.J. Shirakni hukumat boshlig'i etib tayinladi. So'l prezident va o'ng hukumat g'alati tarzda birlashib ketdi. J. Shirak natsionalizatsiya qilingan korxonalarni ilgarigi egalariga qaytarib bera boshladi, yirik kapitalga soliqni kamaytirdi, xorijiy ishchilar immigratsiyasini cheklab qo'ydi. Biroq ilgarigi holatga to'liq qaytishga F. Mitteran xalaqit berdi.

1988-yil maydagi prezident saylovida kurash asosan F. Mitteran va J. Shirak o'rtasida bo'lib o'tdi. F. Mitteran ko'pchilik ovoz bilan g'alaba qozondi. Ammo u endi ilgarigi sotsialistlar yetakchisi emas edi. U 72 yoshga yetgandi. Bundan tashqari F. Mitteran og'ir xasta bo'lib, o'z vazifasini bajarishga katta kuch talab qilardi.

Fransuz milliy majlisiga saylovda o'ng partiya vakilari ko'pchilik ovozga ega bo'lishdi. **1995-yil 7-mayda** prezident saylovi bo'lib o'tdi va unda golizm vakili **Jak Shirak** g'alaba qozondi.

Saylovoldi uchrashuvlarida u ishsizlik ko'payishini to'xtatish, ish haqini oshirish, soliqlarni qisqartirish, ijtimoiy zaruriyat nafaqalarini saqlab qolishga va'da berdi. Biroq bu va'dalarning birortasini ham bajarmadi. U tashabbuskori Fransiya bo'lgan yagona Yevropa to'g'risidagi majburiyatlarni bajarishi lozim edi. 1999-yilda Yevropa valyutasi tizimini ishlab chiqish rejalashtirildi va u hozirda amalga oshirilgan.

Shirak Jak (1932-yilda tug'ilgan) — Fransiya premyer-ministri (1974—1976, 1986—1988) va prezidenti (1995—1997). Iqtisodni ko'tarish bo'yicha ommaviy bo'limgan choralar qabul qildi va bu ishsizlar sonining ko'payishiga hamda birinchi holda zarur tovarlar narxining oshishiga olib keldi.

1997-yili J.Shirak kutilmaganda muddatidan oldim parlament saylovlari o'tkazilishini e'lon qildi. Uning fikricha, bunday qadam yagona Yevropa valyutasi tizimiga qo'shilish uchun barcha zarur choralarni ko'ra oladigan shunday parlamentni saylashga erishish boy berilmas siyosiy harakatdir. J.Shirak ayni parlament Fransiyaning barcha ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal etadi, uning Yevropa mintaqasida gegemon bo'lishiga ko'maklashadi va jahon siyosatiga ko'rsatadigan ta'sirini kuchaytiradi, deb hisohlar edi. Biroq J.Shirak yengildi. **1997-yil may** oyidagi saylovda sotsialistlar kommunistlar bilan birga parlamentda ko'pchilik ovozga ega bo'ldi. Sotsialistlar yetakchisi Lionel Jaspen premier-ministr bo'ldi. J.Shirak unga bo'ysunuvchi emas, aksincha muxolifat parlamentga ega bo'ldi. **2002-yilgi** saylovda sotsialistlar mag'luhiyatga uchradilar va Milliy majlisda ko'pchilik goilistlar qo'liga o'tdi. Shu yili J.Shirak ikkinchi marta prezident bo'lib saylandi.

Tarixiy ma'lumot

FRANSIYA BOSH VAZIRLARI VA PREZIDENTLARI

1945—1946	— Sh. de Goll
1947—1953	— Vinsent Oriol
1953—1958	— Rene Koti
1958—1969	— Sh. de Goll
1969—1974	— Jorj Pompidu
1974—1981	— Valeri Jiskar d'Esten
1981—1995	— Fransua Mitteran
1995—2002	— Jak Shirak
2002-yildan	— Jak Shirak

Qisqacha mazmuni

- Ikkincbi jahon urushidan keyin sanoat ishlab chiqarishining 38 foizgacha pasaylb ketishi, narx-navoning o'sishi, kartochka tizimi
- 1944—1946-yillar — Sh. de Goll rahbarligidagi Muvaqqat rejim
- 1946—1958-yillar — To'rtinchı respublika, Qarshilik ko'rsatish harakatida qatnashgan sotsialistik va kommunistik partiyalar ta'sirining kuchayishi
- 1951-yil — Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi YKPB tashkli etilishi

- 1946—1951-yillar — Vyetnamdagi urush
- 1956-yil — Yaqin Sharqdagi (Suvaysh kanali) harbiy avantyura
- 1957-yil — sanoat ishlab chiqarishi urushdan oidingi davrdan ikki baravar oshdi
- Shari de Goii va gollizm siyosati (Fransiya mavqeini tiklashga urinish, ijtimoiy isiohot o'tkazish)
- 1958-yil 1-iyun — Shari de Goll mamlakat premyer-ministri. Beshinichi respublika
- Sh. de Goll shaxsiy hokimiyat rejimining o'rnatilishl.
- 1962-yil 18-mart — Evian bitimi
- 1963-yil 22-mart — Fransiya va QFR o'rtasida hamkorlik qilish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi
- 1966-yil — Fransyaning NATQ tarkibidan chiqishi
- 1968-yil avgust — vodorod bombasini sinash
- 1968-yil — umumxalq ish tashlash
- 1969-yil aprel — Sh. de Gollning iste'foga chiqishi
- 1969-yil iyun — prezident J.Pompidu
- 1974-yil — prezident J.d'Ester
- 1981-yil — prezident F.Mitteran
- 1995-yil — prezident J.Shirak
- 1997-yil — premyer-ministr L.Jaspen
- 2002-yil — prezident J.Shirak

Savollar

- ?
1. Ikkinci jahon urushidan keyin mamlakat hukumati oldida qanday masalani hal etish vazifasi turgan edi va u qanday hal etildi?
 2. Siyosiy arbob va davlat rahbari sifatida Sh. de Gollga ta'rif bering.
 3. Sh. de Goll qanday voqealar sababli iste'foga chiqdi.
 4. Muvaqqat rejim davri To'rtinchı respublika davridan nimesi bilan farqlanadi?
 5. Nima uchun yangi konstitutsiyani qabul qilish va Beshinichi respublikani e'lon qilish kerak edi?
 6. Fikringizcha, Sh. de Gollning shaxsiy hokimiyat rejimi shaxsga slg'Inishdan nimesi bilan farqlanadi?

Jadvalni to'ldiring

Mamlakat prezidenti	Boshqaruv yillari	Vazifalar va ularni yechish yo'llari	Faoliyati natijalari

11-§. GFR: URUSHDAN KEYINGI TIKLANISH

Ikkinchiji jahon urushi-dan keyingi Germaniya

Ikkinchiji jahon urushida Germaniya mag'lubiyatga uchradidi. Fashist gazandalari sud qilindi va jazolandidi. Qrim va Potsdam konferensiyasiga muvofiq mamlakat okkupatsiya zonalariga bo'lindi. Har bir zonada ma'muriyatni okkupatsiya qo'shinlari bosh qoshqarardi.

Butun Germaniyaga tegishli masalalar esa to'rtta bosh qo'mondondan iborat Nazorat kengashining yakdil ovoz berish tamoyili asosida hal etilar edi. Mamlakat hududi va aholisining 1/3 qismi (sharqiy qismi) SSSR okkupatsiya qilgan zonada, 2/3 qismi esa AQSH, Angliya va Fransiya tomonidan okkupatsiya qilingan zonada qoldi. Germanianing g'arbiy qismi mamlakatning aholisi zich va sanoati rivojlangan qismi edi.

Germaniya iqtisodi qayta tashkil etila boshlandi, faqat ittifoqchilar yetkazib bergan oziq-ovqat mahsulotlarigina nemislarni ochlikdan saqlab qoldi. Yonilg'i yetishmas, elektrostansiyalar umuman ishlamas edi. O'n minglab odamlar uy-joyidan ayrıldi.

Lagerlar va qamoqxonalarda ezilgan antifashistlar uylariga kela boshladidi. Emigratsiyadagilar ham



Germaniya 1945-yil.

Germaniyani qayta tiklash va yangi demokratik davlat tashkil etishda faol qatnashish uchun vatanlariga qaytishdi.

1945-yil 11-iyunda Kommunistik partiya (GKP) yagona tinch va demokratik Germaniyani tiklash bora-sidagi maqsad hamda vazifalari manifestini e'lon qildi, 1946-yil bahorida esa o'z tuzilmasini tikiadi. Bir yildan so'ng ushbu partiyaning a'zosi 324 ming kishiga yetdi. Bu butun Germaniyadagi boshqa barcha partiyalar a'zolari soniga teng edi. Ular mahalliy boshqaruv organlari ishida faol ishtirok etib, kasaba uyushmalarida mustahkam o'rinn egalladi.

Ayni paytda Germaniya sotsial-demokratlar partiyasi (GSDP) ham jadal sur'atlarda tiklana bordi. 1945-yil mayda Gannoverda "Shumaxer byurosi" yuzaga keldi. Uni reyxstagning sobiq deputati **K.Shumaxer** (1895—1952) boshqarar edi. Byuro yangi dastur asosini yaratdi, unda energetika va tog'-kon sanoati tarmoqlari, yetakchi banklarni davlat ixtiyoriga o'tkazish, yirik yer egaligini cheklash, korxonalarda ishchi vakillarini kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgandi. Shu bilan birga GSDP g'oyalariga va burjua parlament tizimi tamoyillariga sodiq qolishini bildirdi.

Yirik nemis burjuaziyasining eski partiyalari obro'sizlanib yetarli darajada ijtimoiy bazaga ega emas edi. Biroq, Katolik markazining roli kuchaydi. Uning asosida 1945-yilda yangi partiya tuzilib, **Xristian demokratik ittifoqi** (XDI) deb yuritila boshladi. Uning muassislari katolik ruhoniylari, sanoatchilar, bankirlar, ziyolilar, xizmatchilar edi. Xristian demokratlar antifashist tarafdori ekanliklarini e'tirof etib, yangi Germaniyada umumiy farovonlikka erishish, monopoliyani bartaraf qilish, ishchilarga korxonalarini boshqarish imkoniyatini berishga va'da qildilar. Ularning dasturida bir qator sanoat tarmoqlarini "ijtimoiylashtirish" ko'zda



Konrad Adenauer.

tutilgan edi. Natijada ishchilar, ayniqsa, dindorlar tomonidan xristian-demokratlar qo'llab-quvvatlandi. Amerika okkupatsiya hukumatining talabi bilan partiya yetakchisi sifatida Kyolnning sobiq burgomistri **Konrad fon Adenauer** saylandi.

Ayni yilda partianing Bavariya filiali — **Xristian-sotsial ittifoqi** (XSI) ham tuzilib, u XDIga qaraganda ancha konservativ qarashga ega edi.

G'arbiy zonada burjua partiyalari ichida ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra ikkinchi o'ringa 1948-yilda tuzilgan **Ozod demokratik partiya** chiqib oldi. U xususiy mulkchilik va erkin raqobat tarafidori ekanligini ta'kidladi.

Adenauer Konrad (1876—1967) — GFRning federal kansleri (1949—1963). 1946—1966-yillarda XDI partiyasini boshqardi. Uning davrida GFR iqtisodi va harbiy qudrati tiklandi, mamlakat NATO tarkibiga kirdi.

Germaniya Federativ Respublikasining tashkil topishi

G'arb mamlakatlari boshdanoq Germaniyaning g'arbiy qismida alohida davlat tashkil etish bo'yicha kelingilan siyosatni olib borishdi. Rejaga ko'ra u g'arb dunyosining bir qismi va Yevropada Amerika siyosatining avangardi bo'lishi kerak edi. Germaniya bo'yicha Nazorat kengashining maslahatisiz 1946-yil dekabrda AQSH va Angliya o'z okkupatsiya zonalarini birlashtirdi. Bu paytda Nazorat kengashi amalda hech bir kuchga ega bo'lmay qoldi va Germaniyaning ikkiga bo'lingan hududiy qismlari turli yo'llar bilan rivojlana boshladи.

1948-yil iyundagi separat pul islohoti bu yo'ldagi hal qiluvchi qadam bo'ldi. Qadrsizlangan reyxsmarka o'mniga doychmarka joriy etildi, so'ngra narx-navo va ish haqi erkin qo'yib berildi.

Islohot tez orada ijobjiy natijalar bera boshladи: do'konlar peshtaxtasi tovarlarga to'la borib "qora bozor" yo'q bo'ldi. Ishlab chiqarish va qurilish jadal rivojlana boshladи, bozor iqtisodi shakllandi.

Islohotning keyingi bosqichida **Germaniya Federativ Respublikasi** deb nomlangan bo'lajak davlat konstitutsiyasini ishlab chiqish edi. **1949-yil 8-mayda** Ta'sis majlisi vazifasini o'ziga olgan parlament kengashi

G'arbiy Germaniya konstitutsiyasini ma'qulladi va u hozirgacha amalda qo'llanilib kelinmoqda.

Mamlakatda qonuniy hukumat ikki palatali parlamentga o'tdi. **Bundestag** umumxalq ovozi bilan to'rt yilga saylanadi, ikkinchi palata — Bundesrat mahalliy parlament tomonidan tayinlangan yer egalari (landtag)dan iborat. Har bir yer (land) keng avtonomiyanadan foydalanadi, o'z parlament va hukumatiga ega. Bundestag va landtaglar vakillarining qo'shma majlisida (Federal majlis) respublika prezidenti cheklangan vakolat bilan saylanadi. Saylovida g'alaba qozongan partiya yetakchisi federal kansler etib tayinlanadi va butun ijro hukumatini uyg'unlashtirib turadi. Aynan u hukumatni tashkil etadi va bundestag vakolati tuguchacha vazifasida qoladi. Konstitutsion sud agar konstitutsiyaga zid deb topsa, har qanday qonunni bekor qilishi mumkin. Bonn GFR poytaxti etib e'lon qilindi.

1949-yil avgustida bundestag saylovida XDI/XSI bloki g'olib chiqdi. K.Adenauer kansler etib saylandi va shu vazifada 1963-yilgacha ishladi. Bu yillar tarixga "Adenauer davri" degan nom bilan kirdi. Germaniya Federativ Respublikasi rasmiy ravishda **1949-yil 21-sentabrd**a e'lon qilindi.

Sovet zonasiga hududida **1949-yil 7-oktabrda** **Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR)** e'lon qilindi, G'arbiy Berlin uning poytaxti deb belgilandi.



Urushdan 15 yil o'tgach Germaniya shunday ko'rinishga ega edi.

Germamianing hunday parchalangan ko‘rinishi 40 yll davom etdi.

G‘arbiy Germamiya “sovuj urush” siyosatimi yuritishda niarkaziy o‘rinni egalladi. U juda ko‘plab Yevropa mamlakatlari bilan chegaradosh bo‘lib, Polsha, Chexoslovakiyaga nisbatan hududiy noroziligini bildirdi. Bunday siyosat uni g‘arbiy strateglar uchun “yaqin hamkor” sifatida ko‘rsatib qo‘ydi.

AQSHning barcha tashqi siyosat tadbirlarida — yagona Yevropani tashkil etish, “Marshall rejasi”ni amalga oshirish, “atlantik” jamiyatni barpo etish va Yevropa markazida mavjud tizimni saqlab qolish masalalarini hal etishda GFR markaziy o‘rinni egallab keldi.

AQSHning germaniyalik sanoatchilar va mollyachilar bilan eski aloqalari mavjud edi. Shuning uchun yirik german monopoliyachilari hamda konsermlarini tugatish bo‘yicha Yalta va Potsdamda qabul qllingan majburiyatlardan bajarilmay qoldi. Bir-ikki yildan keyin ular iqtisodda va AQSHning katta ko‘magida yana yuzaga keldi. Istilochi hukumat Germamiya iqtisodini va o‘z pozitsiyasini tiklashga kirishdi.

GFRning 50-yillardagi ichki va tashqi siyosati

Adenauer hukumati siyosatining asosiy yo‘nalishi G‘arbiy Germaniyani g‘arbiy hamjamiyat siyosiy va g‘arbiy

strukturasi bilan to‘liq va teng huquqli integratsiyalash, nemis iqtisodini tiklash va Germamiya monopoliyasi qudratimi ko‘rsatishdan iborat bo‘ldi. Doimiy “sovuj urush” sharoitida ushbu siyosatni amalga oshirish GFRning GDRni o‘ziga jalb etish, mamlakatni g‘arb mudofaa tizimining bosh tayanchiga aylantirish, Germaniyani qayta qurollantirish va oxir-oqibat umi qudratli davlatga aylantirish yuqori boshqaruv organlaringning uzoq yillarga mo‘ljallangan rejasi edi.

Shu bois GFR hukumati g‘arbiy davlatlarning mamlakatni G‘arbiy Yevropa mudofaa tizimiga kiritishga qaratilgan barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatladи.

1954-yil oktabrda imzolangan Parij bitimiga ko‘ra GFR NATO a‘zoligiga kirdi va mamlakatda 500 ming kishidan iborat armiya tashkil etildi. Harbiy sanoat qayta tiklandi. GFR tank, bronetransporter, suv osti kemalari va raketalar ishlab chiqara boshladi. Ushbu davr

mobaynida amalda AQSH va G'arb mamlakatlariming harbiy-siyosiy ittifoqchisi sifatidagi GFRning huquqiy shaklianishi bo'ldi. U Atlantika ittifoqining poydevori bo'lib qoldi va g'arb davlatlarining butun siyosatiga hal etuvchi ta'sir ko'rsata boshiadi.

Shu bilan bir qatorda mamlakat iqtisodi rivojlana bordi. GFRning "iqtisodiy mo'jizasi"da "Marshall rejası" asosiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu reja tizimiga G'arbly Germaniya 1948—1949-yillarda kiritilgan edi. Ushbu davr mobaynida GFR AQSHdan 1,4 milliard dollar miqdorida yordam oldi. Aynan shu mablag' Germaniya sanoatining tezlik bilan tiklanishida boshlang'ich mabiag' bo'lib xizmat qildi.

1949-yil oxirida GFR iqtisodi urushdan oldingi darajaga yetdi. 50-yillar birinchi yarmida sanoat mahsulotlarining yillik o'sishi 12,3 foizga ko'tarildi, 1960-yilga kelib sanoat ishiab chiqarish hajmi urushdan oldingi darajadan 2,5 marta oshib, tayyor mahsulot eksportining qiyosiy hajmi borasida Fransiyadan o'tib ketdi va Angliyaga tenglashdi.

G'arbiy Germaniya sanoati yangi texnologiya asosida rivojlana bordi, uhing barcha strukturalari qayta tuzildi, neft-kimyo, elektronika, sun'iy tola ishiab chiqarish kabi yangi tarmoqlar tashkil etildi. Ayniqsa, mashinasozlik, elektroenergetika, kimyo va po'lat quyish sanoati tez sur'atlarda rivojlana boshiadi. Nisbatan qoloq rayonlar rivojlanishi va sanoatlashtirish jarayomi kuchaydi.

Koreyadagi urush (1950—1953-yillar) tufayli Germamiya sanoatida ular uchun maqbul iqtisodiy sharoit yuzaga kelgan edi. Yuzaga kelgan yetishmovchilik tufayli jahon bozorida g'arbiy germaniyaliklarning mahsulotlari to'lib ketdi. Bunday vaziyat sanoatchilarga yangi buyurtmalarni keltirdi va yangi bozorlarni egallash muammosihi yengillashtirdi.

G'arbiy Germamiya iqtisodining jadal rivojlanishida davlat boshqaruvining o'z variantimi yaratishi katta ahamiyat kasb etdi.

"Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi" dasturi Mazkur dasturda tadbirkor-ming shaxsiy tashabbusi va davlat boshqaruvi elementlariga ega erkin raqobatchilik uyg'unlashuvi ko'zda tutil-gan edi. Qisman davlat boshqaruvi aralashuvidan asosiy maqsad — narx-navo tizimining me'yorida bo'lishini

qo'llab-quvvatlash, ayrim monopoliyalar suiiste'mollga yo'l qo'ymaslik, soliq olish, ijtimoiy xarajatlarga va iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlari rivoji uchun kreditlar hamda byudjetdan ajratilgan mabiag'lardan foydalamish bo'lgan.

50-yillarda "**ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi**" doktrinasi G'arbiy Germaniya iqtisodimi rivojlantirish manfaatlariga nisbatan to'liq mos keldi. Muhimi, erkin kapital, ichki va tashqi bozor hajmining mavjudligi, arzon ish kuchi massasi va davlat boshqaruvining cheklanganligi G'arbiy Germaniya iqtisodining muvafaqiyatli rivojlanishini ta'minladi.

Umumiy iqtisodly ko'tarilish qishloq xo'jalik holati va strukturasiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Uning asosiy xususiyati ishiab chiqarish sanoat uslublarini keng tatbiq etish edi. Shu asosda agrosanoat kompleksi tashkil etildi. Qishioq xo'jalik mahsulotlarining o'sishi mamlakatni o'zlarini ishiab chiqarayotgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'llq ta'minlash imkonini berdi.

50-yillar o'talariga kelib esa Germamiyada oziq-ovqat muammosi hal etilgan edi. Bundan tashqari, 50-yillar oxirida GFR eksportga oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqsa boshladи.

Qishioq xo'jalik ishlab chiqarishining yuksalishl "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi" dasturiga kiritildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini arzonlashtirish arzon ish kuchini berdi va G'arbiy Germaniya sanoatining raqobatbardoshligim kuchaytirdi.

Eksportning doimiy ravishda importga nishatan kuchayishi GFR hukumatiga qimmatli valyuta jamg'arish imkoniyatini berdi va bu borada u jahonda AQSHdan so'ng ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Nemis tovarlarining o'ta sifatlari ekanligi tufayli tashqi iqtisodiy ekspansiya kengaydi.

Kuchli iqtisodiy imkoniyat va mustahkam valyutaga suyangan holda G'arbiy Germaniya boshqaruvi rahbarlari Yevropa integratsiyasi tashabbusi bilan chiqdi. GFR **1958-yil yanvaridan** "Umumiy bozor" a'zosi bo'lib qoldi. Mamlakat industriyasi "Umumiy bozor" ishiab chiqarayotgan barcha mahsulotning 44 foizimi berar edi. Yevropa integratsiyasidagi ishtiroti nemis industriyasi rivojlanishiga yana bir kuchli turtki berdi.

"Umumiy bozor" tashkil etilgamidan uch yll o'tgach,

GFR unda yetakchi o'rinni egallab ulgurdi. Mamlakat industriyasi Yevropa iqtisodiy ittifoqi (YII) mamlakatlariiga sanoat asbob-uskunalarini, mashinasozlik mahsulotlari yetkazib bera boshiadi va ulardan yengil sanoat mahsulotlarini import qillshga kirishdi. XDI/XSI bioki o'zini xalq partiyasi deb e'lon qildi. Moslashuvchan ijtimoiy siyosat tufayli mazkur partiya jamoatchilik va siyosiy oqimlar e'tiborini qozondi. Ko'pgina mayda partiyalar XDI safiga qo'shilib ketdi.

"Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi" dasturi mehnatkashiarning moddiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan keng ijtimoiy tadbirlarni o'tkazishga mo'ljallangan edi. Yirik kapitalning misll ko'rilmagan darajada boyishi va muvaffaqiyatli konyuktura ushbu dasturni ta'minlash uchun moddiy imkoniyat yaratdi. 1950-yildan 1959-yilgacha ishchilarining ish haqi ko'payib, ish haftasi qisqartirildi, yillik ta'll qonumi mustahkamlandi. Narx-navo oshishiga mos ravishda qarilik nafaqasi va bolalar hamda ko'p bolali oilalarga beriladigan nafaqa oshib bordi.

Tanqis mahsulotlarni ishlab chiqarish har ikki-uch yilda bir necha marta ko'paydi. Bu hol mamlakatda yuqori bozor ehtiyojimi yuzaga keltirdi va mehnat unum-dorligi oshishini rag'batlantirib bordi. 1949-yildan 1954-yilgacha ish samaradorligi elekrotexnika sanoatida — 45 foiz (AQSHda 13 foiz), kimyo sanoatida — 57 foiz (AQSHda 27 foiz), mashinasozlikda — 32 foiz (AQSHda 14 foiz) va avtomobllsozlikda — 2 baravar (AQSHda 12 foiz) oshdi.

50-yillarda ishchilarni boshqaruv tizimiga jalb etish va mulkdorlar simfini kengaytirish maqsadida ularga korxonalarning arzon aksiyalarini — "xalq aksiyalari"ni sotishga to'g'ri keldi. 50-yillar davomida GFR ishlab chiqarish hajmi bo'yicha birin-ketin ko'pgina mamlakatlarni quvib o'ta boshladи, aholining turmush darajasi ancha ko'tarildi. Bular bari 1953, 1957 va 1961-yillardagi parlament saylovlarida XDI/XSIning muvaffaqiyat qozonishiga hamda federal kansleri K. Adenauerning yanada obro'si oshishiga sabab bo'ldi.

Xristian demokratlar GFRni nemis xalqining yagona qonuniy vakili deb hisobladi va shu bois GDRni "bosib olingan sovet zonasasi" deb yurita boshiadi. 1955-yilda GFR hukumati "**Xalshteyn doktrinasi**"ni e'lon qildi. Unga ko'ra GDR bilan diplomatik aloqa o'rmatgan

liar qanday davlatga nisbatan GFR o‘z diplomatik aloqalarihi to‘xtatadigan bo‘ldi. K.Adenauer SSSR bilan janjalga bormaslik uchun bu doktrinani faqat unga nisbatangina qo‘llamaslikni lozim topdi. 1955-yili K. Adenauer Moskvaga keldi va GFR—SSSR o‘rtasida diplomatik hamda savdo aloqalari o‘rnatildi. GFR tomonidan GDR mayjudligini doimiy ravishda nazarpisand qilmaslik va uning iqtisodini izdan chiqarishga intilishi sababli GDR hukumati 1961-yili “Berlin devori”ni qurdi. Bu devor to‘siz tizimi shaharning shariqy qismini g‘arbidan ajratib turardi. Shundan so‘ng ular o‘rtasidagi bordi-keldi alohida ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

**60-yillar boshi.
“Adenauer davri”ning
tugashi**

Monopoliya pozitsiyasini mustahkamlagan “Umumiy bozor” mehnatkashiarga katta zarba berdi. Arzon xorijiy ish kuchiming ko‘plab jalb etilishi nemis ishchilar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Boshlanib ketgan inflyatsiya barqaror iqtisodiy rivojlanishni to‘xtatib qo‘ydi. Mamlakatda ish tashiash boshlandi.

Xristian demokratlarning ma’naviy obro’si tushib ketdi. Bir qator XDI/XSI rahbarlarining millatchilikka aloqador janjalli o‘tmishi ochib tashlandi, shuningdek, uning yuqori doiradagi rahbarlari o‘rtasidagi korrupsiya fosh etildi. Molivaviy tovlamachilikka va siyosiy “o‘yin” larga aralashib qolgan XSI yetakchisi F.Shtraus 1963-yili mudofaa ministrligi lavozimidan iste’foga chiqishga majbur bo‘ldi.

1961-yilgi bundestag sayloviarida K.Adenauer siyosatiga misbatan norozilik kuchayganligi namoyon bo‘ldi. Uning partiyasi ko‘pchilik mandatni boy berdi. 1963-yil oktabrda 87 yoshli K.Adenauer iste’foga chiqdi. “Adenauer davri” tugadi.

“Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligi” konsepsiysi umumiy bozor sharoitida samarasiz bo‘lib chiqdi. Tashqi siyosat umumxalq muhokamasini keltirib chiqardi. Alazmada va millatchilarning tor doirasidan boshqa hech kim bu siyosatni yoqlab chiqmadi. 1966-yil kuzida XDI/XSI va Ozod demokratik partiya (ODP) koalitsiyasi parchalanib, ODP hukumat tarkibidan chiqib ketdi.

**Villi Brandt. Ichki va
tashqi siyosat
islohotlari**

1969-yilgi saylovlarida GSDP va ODP muvaffaqiyat qozondi hamda koalitsion hukumat tuzishga erishdi.

GFR tashkil etilgandan 20-yil o'tib, ilk bor sotsial-demokratlar vakili, fashizmga qarshi kurash harakatining faol arboblaridan biri **Villi Brandt** mamlakat federal kanslerligiga saylandi. U ichki va tashqi siyosatda chuqur islohotlarni boshlab yubordi.

Brandt VIII (1913-yilda tug'ilgan) (haqiqiy ismi-sharifi Gerbert Karl From) — GSDP raisi (1964—1987), GFRning federal kansleri (1969—1974). Uning davrida GFRning SSSR, PXR, GDR bilan iqtisodiy aloqasi tiklandi. GFR BMTga qabul qilindi.

Ish haqi va nafaqa oshirildi, korxonalarda tadbirkorlar o'zboshimchaligini cheklovchi ishlab chiqarish kengashlari tuzildi, kvartira to'lovlarining ma'lum chegarasi belgilandi. Kommunistik partiyaning legal faoliyati tiklandi.

Tashqi siyosatda ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. **"Yangi sharqiy siyosat"**ni ishlab chiqish V.Brandt nomi bilan bog'liq. U gitlerchilar agressiyasidan zarar ko'r gan Sharqiy Yevropa mamlakatlari, avvalo, Polsha, Chexoslovakija va SSSR bilan munosabatlarini yaxshilash lozim, deb hisobladи. 1970-yili SSSR bilan shartnomma imzolandi va, unga ko'ra, GFR mavjud chegaralarni buzmaslik majburiyatini oldi. Xuddi shunday shartnomalar Polsha va Chexoslovakija bilan ham imzolandi. GFR va GDR o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi Shartnomada har ikki nemis davlati bir-birining mustaqilligi va yaxlitligini tan olish hamda hurmat qilish majburiyati ko'rsatilgan edi.

Shartnomalar tizimi Yevropada yangi siyosiy muhit yaratdi va G'arb hamda Sharq o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanishiga ko'maklashdi. Juhon siyosatida kutilgan barqarorlik V.Brandtning "yangi sharq siyosati" bilan chuqurlashib ketdi. Mamlakat ichida bu siyosat g'arbiy germaniyalik o'ch oluvchilar va millatchilarga qattiq zarba berdi. XDI/XSI bloki bundestagdagi shartnomalar ratiifikatsiyasini chippakka chiqarishga urindi, biroq muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shartnomalar kuchga kirdi, "yangi

sharq siyosati” ko‘pchilik aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Bu GFR tarixidagi yangi burilish bo‘ldi. Mamlakat dunyo bilan sivilizatsiya asosida rivojlanish yo‘liga kirdi. 1972-yilgi saylovlarda V.Brandt hukumati xalq ishonchini qozondi. 1974-yil may oyida hukumat sotsial-demokrat **Gelmut Shmidt** (1918-yilda tug‘ilgan) boshqaruviga o‘tdi, vitse-kansler va tashqi ishlar ministri etib ODP rahbari Xans Ditrix Gensher saylandi. Hukumat almashuvi GFR siyosatida jiddiy o‘zgarishlarga olib kel-madi. V.Brandt GSDP raisi sifatida qoldi.

G. Kolning “yangi neokonservativm” siyosati

Ayni paytda 1980-yilning ikkinchi yarmidan iqtisodiy sur‘at pasayishi boshlanib, 1981—1982-yillarda bu hol iqtisodiy tanglikni keltirib chiqardi. Ishsizlar soni har qachongidan ham ko‘payib, 2,5 million kishiga yetdi. Inflyatsiya aholi xarid quvvatining pasayishiga olib keldi. Bu, 1982-yil kuzida boshqaruv koalitsiyasining parchalanishini keltirib chiqardi. ODP XDI/XSI bilan bitta blokka kirdi. G.Shmidt bundestagda ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadni va iste’foga chiqishga majbur bo‘ldi. XDIning yangi rahbari **Gelmut Kol** federal kansler lavozimiga ko‘tarildi.



Gelmut Kol.

XDI o‘zi uchun kerakli xulosalarni chiqardi. Germaniya muammosini kuch bilan hal etish usuli tanaz-zulga uchradi va partiyalar qadriyatlarni qaytadan baholashga tushdi. 1982-yili G.Kol tomonidan boshqari-loyotgan va “yangi neokonservativm” deb nom olgan siyosiy oqim kuchaydi. Uning mohiyati jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi davlat rolini mustahkamlash hamda kengaytirishni talab qilishdan iborat edi.

Kol Gelmut (1930-yilda tug'ilgan) — GFR federal-kans-lerl (1982—1998), 1973-yildan XDI raisi. Uning hukumat boshqaruvi davrida GDR va GFR birlashuvi ro'y berdi, sovet qo'shinlari GDR hududidan olib chiqib ketildi.

G.Kol GDR bilan yagona davlatga birlashish to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib bordi. 1989-yil kuzida Sharqi Yevropada kommunistlar rejimi qulagach, GDRdan GFRga ommaviy qochish boshlandi. Oktabr oxirida E.Xonneker rahbarligidagi hukumat iste'foga chiqdi va 1989-yil 9-noyabrda "Berlin devori" buzib tashlandi.



Berlin "devori"ning qulashi.

1990-yil 3-oktabrda yagona german davlati tashkil etilganligi e'lon qilindi. Gelmut Kol Germaniyadagi eng mashhur davlat arbobiga aylandi. 1990-yilgi bundestagdagi saylovlarda 60 million saylovchi (GFRdan — 48 million, sobiq GDRdan — 12 million) ishtirok etdi va XDI/XSI bloki 662 ovozdan 319 tasiga ega bo'ldi. ODP 79 ta o'rin oldi.

Birlashgan Germaniya oldida quyidagi vazifalar turar edi: sharqly yerlar iqtisodini ko'tarish, samarasiz korxonalarni samarador korxonalarga aylantirish, mamlakat sharqiy qismidagi blr qator sanoat tarmoqlarini tugatish bilan bog'liq holda bu joylarda yangi ishchi o'rinalimi ochish.

G.Kolning siyosati natijasida 1996—1997-yillarda soliq tushumlari rejadagidan 57 million dollar kam bo'ldi. Ishsizlar somi rekord darajaga yetib, katta yoshdag'i har o'ntadan biri ishsiz edi. Ayni paytda G.Kol 3,2 million ishchinimg ish haqi ikki yilga "muzlatib" qo'yishni rejalashtirilgan yangl rejami ilgari surdi. G.Kol boshqargan konservativ liberal koalitsiyada (XDI va ODP) darz paydo bo'ldi. Uning siyosati ikki partiya negizini — bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori ijtimoiy xarajatlarni saqlab qolish qoidasini buzdi. 1998-yil bundestag saylovlarida uming partiysi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Federal kanslerlikka GSDP yetakchisi **Gerd Shryoder** saylandi.

Yangi hukumat soliq islohotini o'tkazib, soliqlarni 52% dan 49% ga kamaytirdi. Ayni paytda korrupsiyada ayblangan XDS bilan bog'liq janjal yuz berdi. Shryoder yana g'alaba qozondi. Uming Iroqqa qarshi urushda ishtirok etishdan bosh tortishi Germaniyada keng mashhurlik va qo'llab-quvvatlashga olib keldi.

Qisqacha mazmumi

- Ikkinci jahon urushida fashizmning yengilishi Mamlakatning 4 ta — AQSH, Angliya, Fransiya, SSSR okkupatsiya zonasiga bo'linishi
- GKP, GSDP, XDS, ODP siyosiy partiyalari ta'sirining o'sishi
- 1946-yil dekabr — Bizoniya, 1948-yil — Trizoniyaning tashkil topishi
- 1948-yil iyuldan — mamlakat iqtisodini ko'tarishda

- "Marshall rejasi" bo'yicha g'arb davlatlarining yordamini.
- 1949-yil 21-sentabr — GFRning e'lon qilinishi. "Adenauer davri"ning boshianishi
 - 1949-yil 7-oktabr — GDRning e'lon qilinishi
 - 1954-yil oktabr — GFRning NATO tarkibiga kIrishi, harbiy sanoat rivojlanishi
 - 50-yillar — "ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jailgi" dasturining bajarillshi
 - 1958-yil yanvardan — GFR — Yil ("Umumiy bozor") a'zosi
 - 1961-yil — "Berlin devori"ning quriilshi
 - 1963-yil — "Adenauer davri"ning yakun topishi
 - 1969-yil — kansler Vliil Brandt: Ichki va tashqi siyosatdagi o'zgarish
 - 1974-yil may — kansler Gelmut Shmidt
 - 1981—1982-yillar — iqtisodiy o'sish sur'atining seklnlashuvi, iqtisodiy tanglik
 - 1982-yil — kansler Gelmut Kol: "yangi neokonservativizm" siyosati — jamlyat ijtimoiy-slyosly va iqtisodiy hayotida davlat rolining kuchayishi.
 - 1989-yil oktabr — E.Xonneker (GDR) hukumati istefoga chiqdi
 - 1989-yil 9-noyabr — "Berilin devori"ning qulashi
 - 1990-yil 3-oktabr — yagona Germaniyaning e'lon qilinishi
 - 1998-yil 27-sentabr — G.Kolning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi. Kansler — G.Shryoder
 - 2003-yil — G.Shryoderning bundestagga saylovlarda yana g'alabasi

Savollar

?

1. Siz nima deb o'ylaysiz, Germaniyani okkupatsiya zonasiga bo'lishning mugobil varianti bo'lganmid?
2. Germaniyaning ikkinchi jahon urushidagi mag'lubiyati qanday ogibatlarga olib keldi?
3. GFRning tashkil topishiga nimalar sabab bo'ldi? Nemis xalqi ikkita davlat tuzilishidan manfaatdor edimi?
4. GFR va GDR siyosati hamda davlat tuzilishining farqini sanab bering.
5. GFRni "Marshall rejasi" bo'yicha tiklash va rivojlantirishda AQSH yordami qanday rol o'ynadi?
6. "Ijtimoiy himoyalangan bozor xo'jailgi" dasturining mohiyatini tushuntirib bering.

Jadvalni to'ldiring

Asosiy voqealar	Sana	Natija	
		Ijobiy	Salbiy

12-Ş. ITALIYA 50—90-YILLARDA

Italiya Ikkinci jahon urushidan keyin

Fashistlar boshqaruvi va urush Italiya iqtisodiyoti va uning jahon maydonidagi ahvoliga ulkan zarar yetkazdi. Urush yiliarida 500 ming-ga yaqin odam halok bo'ldi va nom-nishonsiz yo'qoldi. 20 foiz sanoat korxonalari va 40 foiz temir yo'l hamda avtomobil yo'llari vayron etildi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi — 50 foizga, qishloq xo'jalik mahsulotlari — 40 foizga qisqardi. Ingliz va amerika bosqinchilik hukumatlari ishlab chiqqargan moddiy mahsulotlar rekvizitsiyasi Italiya iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. Buning ustiga inflyatsiya kuchaydi. Oziq-ovqat, turar joy yetishmasligi kuchli sezildi. 2 millionga yaqin kishi ishsiz qoldi.

Urush yiliaridayoq antifashist tashkilotlari joylardagi hokimiyat organlari bo'lgan milliy ozodlik qo'mitalarini tashkil etdi. Ular 1945-yil iyumida fashizmni tor-mor etish va uning oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan barcha siyosiy kuchlar vakillari kirgan hukumatni tuzishdi.

1947-yil 10-fevralda Parijda imzo chekilgan timchiik shartnomasiga ko'ra Italiya o'z mustamlakalarini yo'qotdi va anchagini miqdorda reparatsiyalarini (urush tovonlarini) to'lashi lozim edi.

23 yildan ziyod fashizm bilan kurashgan Italiya komunistik partiyasi (IKP) xalq ishonchini qozongan edi. Birgalikdagi kurash kommunistlar bilan Italiya sotsialisistik partiyasi ittifoqini mustahkamladi. 1946-yilda bu partiyalar o'rtaida birgalikda harakat qilish haqidagi bitim imzolandi.

1945-yil dekabrda IKP jamiyatdagi barcha qatlamlar ittifoqiga asoslangan "taraqqiyat parvar demokratiyani" o'rnatish dasturini ilgari surdi. Kommunistlar chuqr demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, respublika tuzumini e'lon qilish, Ta'sis majlisini chaqirish va yangi Konstitutsiyani qabul qilish zarur deb hisoblashdi. Ular sanoat va moliyaviy monopoliyalarni natsionalizatsiya qilish, ishlab chiqarish ustidan mehnatkashlar nazoratini o'rnatish, yirik yer mulkclarini tugatish va shu tariqa bo'shagan yerlarni yersiz dehqonlarga berishni talab qildilar.

Kommunistlar shuni ta'kidlashdiki, taraqqiyparvar demokratiya rivojining tugal maqsadi sotsializmdir, biroq Italiya kommunistlarining sotsializmi SSSR sotsializmidan tubdan farqlanardi. U insonparvarlikning demokratiya tamoyillariga asoslanar va proletariat diktaturasi o'zboshimchaligidan yiroq oliy darajadagi sivilizatsiyaviy jamiyatni ko'zda tutardi.

Italiya kommunistlarining yo'lboshchisi xalqaro ishchilar harakatining yirik arbobi



Palmiro Tolyatti.

Palmiro Tolyatti (1893–1964-yillar) edi.

Urushdan keyingi Italiyaning eng yirik burjua partiyalaridan biri 1944-yillarda tuzilgan katolik yo'nallishidagi Xristian-demokratik partiya edi. U jamiyatni mehnat va kapital bab-baravar foydali rol o'ynaydigan yagona organizm sifatida tasavvur etdi. Shuningdek, u oliy axloqiy qonun sifatidagi xristianlikni o'z mafkraviy asosi deb e'lon qildi. Partiya dasturi qisman agrar va sanoat islohotini o'tkazish, ishchilarning aksiyalarini sotib olish yo'li bilan korxonalarни boshqarishda ishtiroki, kooperativ qurilishining rivojlantirishni ko'zda tutdi.

XDP katolik cherkovi qo'llab-quvvatlanishidan foydalandi. U ibodatga keluvchilarni qabul qiluvchi ruhoniylar yordamida mamlakat aholisining salmoqli qismiga o'z ta'sirini o'tkazdi. **Alchido de Gasperi** XDPning muttasil yo'lboshchisi bo'lib keldi.

Italiyada ko'ppartiyaviy tizim tarkib topib, unda umummilliy va ko'plab mintaqaviy partiyalar amal qildi. Bu, partiyalar beqarorligi va tez-tez yuz beruvchi siyosiy inqirozlarga olib keldi.

Alchido de Gasperi (1881–1954) — XDPning 1944-yillardan ralsi. 1945–1953-yillar — hukumat boshlig'i. De Gasperi davrida Italiya NATOga kirdi (1949-y.).

Respublikaning e'lon qiiinishi

1946-yil 2-iyunda bir vaqtning o'zida referendum va Ta'sis majlisiga saylovlari bo'lib o'tdi. Referendumda 12,7 million kishi respublika uchun, 10,7 millioni — monarxiya uchun ovoz berdi. Italiya respublika deb e'lon qilindi, hiroq monarxiya o'rnatilishimi qo'llab-quvvatlovchilarining ko'p sonliligi mamlakatda konservativ kayfiyatli unsurlar katta kuch ekanligidan guvohlik berardi. Buni Ta'sis majlisiga saylovlari ham ko'rsatdi: XDP ko'pchilik o'rinni (8,1 million ovoz) oldi, 4,7 million — sotsialistiar va 4,3 million — kommunistlarga tegdi. Uchala partiya tuzgan bukumatga Alchido de Gasperi boshchilik qildi.

Hukumat bir qator muhim islohotlarni amalga oshirdi: ishiosiz yotgan zamindorlar yerlari kambag' al dehqonlarga herildi, oyhk ish haqimining ko'chma shkalasi kiritildi (u davriy ko'rib chiqqigan va turmush darajasi o'sishiga mos oshirilgan), mehnatkashiarmi korxona kasaba uyushmasi roziligidan ishdan bo'shatilishi man etildi.

1948-yil 1-yanvarda kuchga kirgan yangi konstitutsiyada so'z, matbuot, yig'ilishlar o'tkazish erkinligi, mehnat va unga yarasha adolatli to'lov, agrar islohot zaruriyati va ishchilarining korxona boshqaruvidagi ishtiroki huquqi e'lon etildi, siyosiy va dimy qarashlarga ko'ra kamsitish man etildi. Fashist tashkilotlari mavjud bo'lishi va faoliyati ham man etildi. Qirol oilasi a'zolaringa muhojirlikdan Itahyaga qaytishga ruxsat berilmadi. Maslahatchilar sudi va sud hokimiyatining to'liq mustaqilligi tamoyili kiritildi.

Konstitutsiyaga ko'ra, qonunchilik hokimiyati umumiy ovoz berish yo'li bilan 5 yilga saylanadigan va ikki palatadan — deputatlar palatasi va senatdan iborat bo'lgan parlamentga tegishli edi. Hukumatni deputatlar palatasida mutlaq va misbatan ko'pchilik ovoz olgan partiyalar yo'lboschchilaridan biri tuzadi; odatda u bir necha partiyalar vakillaridan iborat bo'ladi va parlament qo'llab-quvvatlab turguncha hukumatni boshqaradi. Respublika prezidenti ikkala palata qo'shma majlisida 7 yilga saylandi. Uming vakolatlari cheklangan bo'lib, amalda ijro hokimiyati Miminstrlar kengashiga taalluqli edi.

1948-yil aprelda parlament saylovlari bo'lib o'tdi.

ISP, IKP va boshqa so'l partiya hamda tashkilotlar 8 million ovoz yiqqan Xalq demokratik frontiga birlashdi. Biroq, XDP eng ko'p muvaffaqiyatga erishdi (12,7 million ovoz), u deputatlar palatasida mutlaq ko'pchilik o'rinni oldi va de Gasperi yakka partiyali hukumatni boshqardi. Italiya respublikasining tiklanishi davri tugadi. Bundan boshlab 1994-yilgacha XDP u yoki bu koalitsiyada, ko'pincha yakka holda mamlakat hukumatiga boshchilik qildi.

Partiyaning o'zida "doimiy" ministrlar, bosh ministrlar, "umrbod" senatorlar muqimi bo'lib oldi. Masalan, Julio Andreotti yetti marta bosh mimistr bo'lgan va bir umrlik senator edi. Sitsiliya mafiyasi bilan jmoyatkorona aloqasi necha martalab fosh etilgandan so'ng ham unga hech narsa bo'lmadi.

Italiyadagi "ko'rinmas hokimiyat"

Italiyada XDP qo'llarida bo'lgan "ko'rinmas hokimiyat" apparati yuzaga keldi, u xavfsizlik xizmati orqali yo'naltirildi, hokimiyat ustidan nazorat o'rnatdi va huquqni saqlash organlarini yo'liga soldi. U qonuniy saylangan hukumatdan ham katta hokimiyatga ega bo'ldi, chunki yuzaga kelgan ko'ppartiyaviy amaliyot tufayli hukumatiar kuchsiz edi va hokimiyat tepasida uzoq turmasdi. Respublika mavjud bo'lgan 45 yil mobaynida (1948—1993-yillar) 51 hukumat o'zgardi.

Hokimiyatning parallel tizimi, amaldagi ikkihokimiyatchilik Italiya saylov tizimi tomonidan va "sovurush"ning davomi mavjudligi bois kuchayib bordi. Saylov tizimi tufayli xristian demokratlar koalitsiya hukumatida yetakchi sherik bo'lish uchun doimo yetarli miqdorda ovoz olishga muvaffaq bo'lib keldi. Kommunistik xavf-xatardan ustalik bilan foydalamish Sitsiliya **kamorrasasi** (**mafiyasi**) bilan yaqimdan aloqa o'rnatish imkomini berdi. Jinoyatchi tashkilot bllan bu ittifoq davlat xavfsizligi tasavvuri bo'yicha oqlandi. Mafiya esa XDPga yondosh bo'lganining sababi komunistlar hokimiyat tepasiga kelib qolsa, uni tugatib yuborishidan qo'rqrar edi.

XDP, shuningdek, sotsialistik partiyaning mafiya bilan hamkorligi Italiyada demokratik institutlarning kuchsizlanishiga olib keldi.

1993-yil Rim prokuraturasi tomonidan mafianing oliv davlat arboblari bilan aloqasini aniqlash bo'yicha "**Toza qo'llar**" operatsiyasi o'tkazilganda "ko'rinmas hokimiyat" rahbari bosh ministr va senator Julio Andreottining o'zi ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu narsa ham aniqlandiki, Italiyadagi hokimiyatning barcha tuzilmalari jinoyatchi unsurlar bilan aloqador ekan. Neapolni boshqarish va uming iqtisodiyoti kontrabanda va davlat xazimasini talon-toroj qilish bilan qo'shib olib borilgan. Bu yerda korrupsiyada ayblangan 400 kishi, ko'pgina siyosiy arboblar, biznesmenlar, amaldorlar va mafiya a'zolari qamoqqa olinib, sudga berilgan. Palermoda ham shunday bo'ldi. Biroq barcha aybdorlar yengil jazo bilan qutulishdi.

Mamlakat iqtisodiyotining tiklanishi

Ichki siyosiy vaziyatdan unumli foydalamish va parlament hamda noparlament kurash usullaridan foydalanish XDPga ichki va tashqi siyosat bo'yicha barcha rejalarни amalgalash oshirishiga imkon berdi.

1948-yilda amalgalash oshirila boshiagan "Marshall rejasi" bo'yicha AQSH iqtisodiy yordam dasturi uch yll davom etdi, Itallya iqtisodiyoti rivojiga yordam berdi. Bu muddat ichida 1,3 milliard dollarlik amerika tovariari keltirildi, ularning ko'p qismidan yirik sanoat mahsulotlari ni modernizatsiyalash uchun foydalanildi. Ayrim korxonalarda "Marshall rejasi" amal qilgan yillarda qurilmalar to'liq yangllandи va ular jahon bozorida raqobatbardosh bo'la bordi.

50-yillar boshlari de Gasperi hukumati zamindorlar yerlarining blr qismini pul evaziga musodara qilishi mi o'z ichiga olgan agrar islohotni o'tkazdi. Chegaralanganligiga qaramay, islohot Itallya janubidagi yirik zamindorlar mavqeiga putur yetkazdi va janubiy viloyatlarda iqtisodiyotning jadal rivojiga zamin yaratdi.

Italiyaning NATOga a'zo bo'lib kirishi

De Gasperi hukumati yetakchi sanoat davlatlari bilan integratsiya yo'lidan bordi. **1949-yil aprelda** Itallya NATOga a'zo bo'lib kirdi. Bu butun mamlakatda keskin norozilik uyg'otdi.

Ayniqsa, NATO bilan shartnomaning 4 va 5-moddalari bunga sabab bo'ldi. 5-modda xavfsizlik uchun

jamoaviy mas'uliyatni ko'zda tutardi, ya'ni bir mamlakatga xavf-xatar tug'ilganda qolganlari unga yordam berishi lozim edi. 4-moddaga ko'ra xavfsizlikka xavf-xatar mamlakat ichidagi voqealar (ish tashlash, namoyish, ijtimoiy mojaro) tufayli yuz berishi va intervensiya (bosib ohsh) uchun sabab bo'lib xizmat qillshi mumkin. Biroq parlamentdagi ko'pchilik NATOGa kirish uchun ovoz berdi.

Shartnoma shartlariga ko'ra, Italiya hukumati mamlakat hududida Amerika harbiy bazalarimi barpo etishga ruxsat berardi. Sitsillyaning janubiy sohili, blr qator mayda orollar Amerika flotining O'rtaer dengizidagi tayanch nuqtasiga aylandi. Liverno porti Amerika qo'mondonligining to'liq ixtiyoriga berildi. Neapol, Verona, Florensiya va boshqa shaharlarda NATO turli bo'linmalarining shtablari joylashtirildi.

Biroq Italiya hukumatining natoparastlik siyosati unga qimmatga tushdi. 1953-yil 7-iyunda saylovlari bo'lib o'tdi. Shu yil aprelda qabul qilingan yangi saylov qonuniga ko'ra, 50 foizdan ziyod ovoz olgan partiyalar deputatlar palatasida uchdan ikki o'rinn oladigan bo'ldi. Hukumat partiyalari yetarli ovoz ololmadi va de Gasperi iste'foga chiqdi.

**50—60-yillarda
mamlakat
iqtisodiyoti**

Evropa iqtisodiy integrasiysi Italiya iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim rag'batlantiruvchisi bo'ldi.

50-yillar oxiridan Italiyada jadal iqtisodiy ko'tarilish boshlandi, mehnat mahsulorligi oshdi, mamlakatning rivojlangan davlatlar sanoat ishiab chiqarishidagi ulushi ko'paydi. Fan-texnika inqilobi keng quloch yozdi, metallurgiya, avtomobil va kimyo sanoatida modernizatsiyalash va avtomatlashdirish jarayomi kechdi, yuqori texnologiya bilan bog'liq yangi tarmoqlar paydo bo'ldi. U agrar-sanoat mamlakatidan sanoat-agrar mamlakatiga aylandi. 50—60-yillarda italyan sanoatining o'sish sur'atlari dunyoda eng yuqori bo'ldi (Yaponiyami hisobga olmaganda). Mamlakatning ichki yalpi mahsuloti bu yillarda 5,4 marta o'sdi.

Italiya sanoati rivojlamishiming farqli jihatni davlat sektorining yuqori darajadaligidir. Davlat sektori ulushiga 94 foiz eritilgan cho'yan, 95 foiz rangli metallar, 97 foiz

tabiiy qazlima gaz to‘g‘ri keldi. Sanoatni mollyalashtirish uchun JEPI yirik davlat birlashmasi tashkil etildi. Davlat moliya tashkilotlari orqali ko‘plab hissadorlik korxonalarini nazorat qiladi. Elektrenergetikasi, tog‘-kon, harbiy sanoat korxonalari, shuningdek, aloqa, temir yo‘l korxonalari davlat mulkiga kirgan edi.

Italiyada 60—80-yillardagi siyosiy hayot

Italiyaning 60—80-yillar siyosiy hayotidagi eng sezilarli hodisa IKP ta’sirining o‘sishi va XDP mavqeiming pasayishi bo‘ldi. 1958-yilgi parlament saylovlarida italyan kommunistlari 22 foiz ovoz oldi.

IKP rahbariyati doimo sotsializm qurilishi turli yo‘llari imkomiyatini ta’kidlab keldi va sovet metodimi zo‘rlab tiqishtirishga urimishiarni rad etdi. U turli mintaqaviy manfaatlar va xalqaro muammolarni baholashda turli yondashuvlar mavjud bo‘llshi mumkinligidan iborat politsentrizm tamoyilini himoya qildi.

1981-yili italyan kommunistlar “yevrokommunizm”ga asos bo‘lgan dasturni qabul qildi va umi G‘arbiy Yevropaning qariyb barcha kommunistik partiyalari qo‘llab-quvvatladi. U eng muhim zamonaviy masalalarda KPSS va Sovet Ittifoqi siyosatiga qarshi turdi va barcha demokratik kuchiar ittifoqini ko‘zda tutuvchi “yangi internatsionalizm”ni e’lon qildi.

XDPda tarkibiga communist va sotsialistlar vakillari kirishi mo‘ljallangan “so‘l markaz” hukumatini tuzishni ilgari surgan oqim paydo bo‘ldi. Bu oqimga 1963-yil dekabrda XDP kotibl **Aldo Moro** boshchilik qildi.

“So‘l markazchilar bloki” 1972-yilgacha mavjnd bo‘ldi. 1972-yili Italiyada XDPni mag‘lubiyatga olib kelgan yangi saylovlar bo‘lib o‘tdi. Uning yo‘lboshchisi J.Andreotti uch partiya — xristian-demokratik, sotsial demokratik va liberal partiyadan iborat, o‘ng markazchi deb nom olgan hukumatni shakllantirdi. Bu norozilik to‘lqinlari va hukumatga qarshi chiqishiarga sabab bo‘ldi.

Mamlakatda siyosiy inqiroz yetilib keldi. Ijtimoiy-siyosiy inqiroz Italiyada terrorchilik faollashuvi bilan chuqurlashib bordi. Talaba yoshiar, ishsizlar, shahar quyi qatlamlari, jamiyatga yot unsurlardan shakllangan so‘l guruhiar siyosiy partiyalar va ularning arboblariga qarshi

terrorni boshlab yubordi. Ular yirik siyosiy arboblarni o'ldirishni tashkil etuvchi "qizil brigadalar"ni tuzishdi.

Jamiyatga yot unsurlar — jamiyatdan tashqarida qolgan ishsiz, muqim yashash joyi va kasbi yo'q odamlar bo'lib, ularni terror va qonunsizlik oqimiga tortish oson.

Ayni paytda hokimiyatni qo'rqtish va siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga intilgan neofashist terroristik guruhlar faollashdi. Hokimiyatning terroristlar bilan kurashga yo'naltirilgan barcha urinishlari natijasiz qoldi: terroristlarning o'ngi ham, so'li ham zimdan ish ko'rib, adolatli suddan qutilib qoldi.

1976-yilgi parlament saylovlari IKPga yangi muvafaqiyat keltirdi. U 630 o'rinali parlamentda 34,4 foiz ovoz va 227 o'rinali oldi. Mamlakat jamoatchiligi endi kommunistlarni hukumatga kiritishni talab etdi, zero bu mamlakatda sharoitni barqarorlashtirish va milliy kelishuvni qaror toptirishning yagona yo'li bo'lib, usiz terrorchilik to'lqinini to'xtatib bo'lmasdi.

1978-yilning martida Aldo Moro IKP bilan bitim tuzdi, unga ko'ra komunist deputatlar agar hukumat ikkala partiyaga muvofiq keluvchi dasturga amal qilsa, uni qo'llab-quvvatlash majburiyatini olishdi.



Aldo Moroning o'ldirilishi.

Bu bitim tuzilgan 17-mart kuni “qizil brigada”ning terroristlar guruhi Rim markazida Aldo Moro avtomobilini egallab olib, o‘zini o‘g‘irlab ketishdi. Ular Aldo Moro evaziga qamoqdagagi o‘rtoqlarini ozod qilish talabini qo‘yishdi. XDP rahbariyati va italyan hukumati terrorchilar talabini bajarishni rad etdi. 1978-yil 9-mayda A.Moroning o‘qdan ilma-teshik bo‘lgan jasadi Rim markazida, XDP va IKP rahbar organlari joylashgan binolardan teng masofada turgan avtomobil yukxonasi dan topildi. Bu uning mazkur partiyalar o‘rtasidagi yaqinlashish va hamkorlik g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashi o‘limining chinakam sababi ekaniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora edi.

A.Moro o‘limidan so‘ng XDPda kommunistlar bilan hamkorlikning raqiblari ustunlik qildi. IKP parlament ko‘pchiligi tarkibidan chiqdi.

*Aldo Moro (1916—1978) — 1948-yildan 1978-yilgacha
Italian parlamenti deputati. 1963—1968-yillarda va 1974—
1976-yillarda Itallya bosh vaziri, 1969-yildan 1972-yil-
gacha tashqi ishlari vaziri ham bo‘lgan. Itallyanling eng
obro‘li siyosiy arboblaridan biri edi.*

Kurash davom etadi Aldo Moroning o‘limi mam-lakatda umumiyl g‘azab-nafrat uyg‘otdi. Mafiya va “qizil brigada”larga qarshi yalpi urush boshlandi. Sitsiliya va Neapoldagi jinoyatchi tashkilotlarning yuqori qism rahbarlari qamoqqa olindi.

Parlament deputatlari orasidagi korrupsiya bilan bog‘liq, umummilliy janjal saylov tizimini o‘zgartirish haqidagi talablarning ko‘tarilishiga olib keldi.

1993-yil avgustda italyan parlamenti va senat yangi saylov tizimi haqida qonun qabul qildi, unga ko‘ra parlamentdagi 75 foiz o‘rin saylov okruglarida eng ko‘p ovoz olgan nomzodlarga, qolgan 25 foiz — 4 foizli to‘sinqi yengib o‘tgan partiyalarga beriladigan bo‘ldi.

Biroq yangi tizim ham jamoatchilik nazorati va qo‘lida mustaqil ommaviy axborot vositalariga ega bo‘limgan kuchli muxolifat yo‘q sharoitda suiiste’ molliklardan kafolatlay olmasdi. Italiyada yangi saylov qonuni qabul qilingandan so‘ng boshlangan siyosiy kurash buni yorqin namoyon etdi.

**S.Berluskonining
hokimiyatga kelishl**

1994-yil martda Italiyada hokimiyat tepasiga bosh vazir **Silvio Berlusconi** boshchiligidagi hukumat keldi. U yirik italyan kompaniyalari ro'yxatida ikkinchi o'rinda turuvchi "Fininvest" sanoatmoliya korporatsiyasi egasi bo'lish bilan birga uch italyan xususiy televizion kompaniyalarini sotib oldi va davlat televide miyesining butun tizimi ustidan nazorat o'rnatdi.

Bu qudratli targ'ibiy mashina tufayli uning "Forsa, Italiya" (Olg'a, Italiya) partiyasi saylovlarda 21 foiz ovoz oldi. S.Beruskoni neofashistiar va Shimoliy Liga (mamlakat shimoqidagi separatistiar harakati) bilan koalitsiya-da yangi hukumat tuzdi.

S.Berluskonining Italiya jinoyatchilarini dunyosi bilan aloqasi hech kim uchun sir emas edi. Saylov kompaniyasi davrida uming mafiyaga qarshi chiqarilgan 1992-yilgi qonunni tugatishga bergen va'dasiga javoban mafiya boshliqlari ochiqdan-ochiq qo'llab-quvvatlashdi.

Hokimiyat tepasiga kelgan S.Berluskomni RAI davlat telekompaniyasi rahbariyatini almashtirdi, zotan ular mafianing jinoyatkorona faoliyatini fosh etish bilan shug'ullangan edi. U 1992-yil qonumimi man etish kompaniyasini boshladidi va korrupsiyada shubhalamish bo'yicha oldindan ushiashmi man etuvchi parlament qarori chiqishiga erishdi.

To'satdan yuz bergen kuchli janjal deputatlar palatasida hukumatga ishonchszilik votumiga ollb keldi. Bu demokratik kuchiarning kuchli g'alabasi edi.

R.Prodi. Muammolarni 1995-yil bo'fib o'tgan hal etishga urinishlar saylovlar natijasida **Romano Prodi** rahbarligidagi yangi hukumat yuzaga keldi, u dadil tajriba sifatida boshqaruvga eski kommunistlarni jalb etdi.

Yangi hukumat oldida ikki asosiy muammo turardi. Bularning dastlabkisi ulkan byudjet yetishmovchiligi edi (1995-yili 7,7 milliard dollar). Ikkinchisi mamlakat shimoqidagi (markazi 250 ming kishilik Treviso shahri) separatichilik harakati bo'ldi.

Yangi hukumat hokimiyatda bo'lgan olti yil mobaynida mamlakatda ko'p narsa o'zgarmadi. Poraxo'rlik va korrupsiyada ayblangan amaldorlarning birortasi ham jazolanmadidi. Ularning ko'pchiligi sud

tomonidan “aybsiz” deb topildi. Ishsizlar ko‘paydi, byudjet yetishmovchiligi ortdi. Romano Prodi o‘z maqsadiga erishdi— u 2001-yil YH Kengashi raisligiga saylandi. Mamlakatda 2001-yil iyulda umumiy parlament saylovlari o‘tkazildi. “Forsa, Italiya” partiyasi g‘alaba qozondi. S.Berlusconi o‘zining chalkash sud ishlariga qaramay, yana mamlakat bosh vaziri bo‘ldi.

Qisqacha mazmuni

- Ikkinci jahon urushi — mamlakat iqtisodiyoti va obro‘-e’tiboriga ulkan zarar
- Sanoat ishiab chiqarishi hajmi 50 foizga qolsqardi
- 1946-yil 2-iyun — Italiya Respublika deb e’lon qiliindi
- 1947-yil 10-fevral — Parij tinchlik shartnomasi: Italiya reparatsiyalarini to’laydi va o‘z mustamlakalarini beradi
- ISP, IKP (Palmiro Tolyatti) va XDP (Algido de Gasperi) ta’sirining kuchaylshi
- 1948-yil 1-yanvar — yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi
- 1948—1950-yillar — “Marshali rejası” yordamida iqtisodiyotning muvaffaqiyatlari tiklanishi
- 1950-yil aprel — Italiyaning NATO bloklga qo’shilishi
- 50—90-yillar — Italiya duriyoning yettita eng sanoati rivojlangan mamlakatlari safiga kirdi
- Iqtisodiyotning o‘ziga xosligi — davlat Ishtiroklning yuqori darajasi
- “Yevrokommunizm” korisepsiyasi
- 1993-yili avgust — yangi saylov tizimi haqidagi qonunning qabul qilinishi
- 1994-yil mart — S.Berlusconi bosh vazir
- 1995-yil — Romano Prodi boshchiligidagi hukumat
- 2001-yil — S.Berlusconi boshchiligidagi hukumat

Savollar

- ? 1. Ikkinci jahon urushi Italiya iqtisodiyotiga qay tariqa ta’sir etdi?
2. Mamlakat iqtisodiyotining tiklanishiga qaysi siyosiy kuchiar imkon yaratdi?
3. Italiyaning 1948-yil konstitutsiyasi bo‘yicha davlat tuzilishining o‘ziga xosligini sanab bering?
4. Nima deb o‘ylaysiz, Italiya nima uchun NATOga kirish haqidagi kelishuvga imzo chekdi? Bu mamiakat uchun ganday oqlbatlarga olib keldi?

5. Italiyada "yevrokommunizm" konsepsiysi mohiyati va amalga oshirish yo'llari nimada?
6. Quyidagi tushunchalar mohiyatini aniqlang: neofashizm, terrorchilik, "qizil brigadalar".

13-§. ISPANIYA: JAMIYATNING DEMOKRATLASHUVI

**Ispaniya Ikkinchı jahon
urushidan so'ng**

Ispamiyadagi fuqarolar urushi va frankistlar tuzumi g'alaba qozongach, mamlakatda

uzoq yillar fashistik diktatura qaror topdi. Siyosiy, qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati to'laligicha **F.Franko** qo'lida edi. U hukumat faoliyatini belgilashda, qonun va dekretlarni tasdiqlashda, harbiy va mansabdorlarni tayinlashda hech bir chegaralanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. U davlat boshlig'i, harbiy kuchiar bosh qo'mondomi va **Ispan falangalari** nomli yagona siyosiy partiyaning kaudimosi (dohiysi, fyureri) bo'lgan. Franko 1975-yllgacha tuzib kelingan barcha hukumatlarga boshchilik qilib keldi. Hatto, 1931-yil inqilobi tomonidan ag'darilgan qirol Alfonso XIIIning nabirasi Xuan Karlosning 1969-yilda davlat boshiig'inimg merosxo'ri etib tayinlanishi ham F.Frankoming mutlaq hokimiyatiga ta'sir etmadidi.

Frankizm Ispaniyada o'z tomoniga mehnatkashiarni tortish uchun bir qator ijtimoiy choralarни amalga oshirdi. Doimiy ishchilarni ishdan bo'shatish man etildi. Ijtimoiy sug'urtanining qiyosiy rivojlangan tizimi yaratildi. Mayda ijarachilarni yerdan haydash man etildi va ularga to'lanadigan renta hajmi ikki marta qisqartirildi. Ijaraga 1936-yllgacha berilgan uy-joylarga to'lov shundayligicha qoldi. Korxonalar to'xtab qolganda tadbirkorlar ishchilarni ishdan bo'shatmasligi uchun ularga dotatsiya to'landi. Kasaba uyushmasi tashkilotlari badallar tushumidan anchaghia mablag'larga ega bo'lishdiki, ularga ishchilar uchun kasalxonalar, sanaatoriylar, pansionatlar, dam olish uylari, sport va madamiy imshootlari qurildi.

Kasaba uyushmalariga ham iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha qarorlarni tayyorlash, ba'zan qabul qillshga ayrim huquqlar berildi. Ular korxona xo'jalik

faoliyatini muvofiqlashtirish va tashkil etish, ishiab chiqarishni yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarmi rag'batlantirish, narxlarni tartibga solish va mahsulotlarni taqsimlashda ishtirok etdi. Ular, shuningdek, mehnatkashiar va tadbirkorlar o'rtasidagi mehnat mojarolarini hal etish va xo'jalik faoliyati bo'yicha o'z fikrini aytish huquqini ham olishdi. Kasaba uyushmalarida ishchi va tadzhirkorlar teng ishtirok etishdi.

Sanoatni industria-lizatsiyalash va modernizatsiyalashtirish

Zamonaviy sanoatsiz rivojlangan davlatga aylanish mumkin emasligini tushungan holda frankizm mam-lakatni industriyalashtirish bo'yicha bir qator choralar qabul qildi. Davlat zamonaviy sanoatni bunyod etishda asosiy tashabbuskor va pudratchi bo'lib qoldi. Ajoyib iqlim sharoiti, boy tarix, an'ana, quvnoq hayotni seuvuchi iste'dodli xalq, musiqa, raqs, afsonalar Ispaniyam butun Yevropada eng yaxshi dam olish joyiga aylantirdi. Mamlakatda jami 5 million o'ringa ega ko'plab o'rtta va kichik oilaviy mehmonxonalar qurildi. Ular yil bo'yidam oluvchilar va sayyoohlar bilan to'lib-toshib turardi. Har yili faqatgina sayyoohlilik orqasidan Ispaniya 18 milliard dollar foyda olar edi. Frankizm ushbu mablag'mi sanoat rivojlanishiga sarfladi.

1941-yili tashkil etilgan Milliy sanoat instituti davlat nazorati ostida sanoat korxonalariga rahbarlikni amalga oshiruvchi aksionerlik kompamiyasi rolini o'ynar edi. 1959-yil davlatga jami sanoatning 18 foizi tegishli bo'lgan. Ayrim tarmoqlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori edi. Masalan, qora metallurgiyada bu 65 foizni, kimyoda 29 foizni tashkil etdi. Davlat xomashyo, yoqilg'i, energiyani taqsimlashni boshqardi, standartlarni belgilab, narx-navomi qayd etar, yangi korxonalar ochish, eskilarini modernizatsiyalashga ruxsat berar edi.

Shunga qaramay Ispaniya xalqi kambag'al, Yevropaning eng qoloq qismi bo'lib qolaverdi. Bu yerda Yevropadagi eng kam ish haqi, eng yuqori narx-navo va eng past hayot tarzi mavjnd edi. 40—50-yillarda mehnatkashiarning iqtisodiy masalalar bilan bog'liq ilk yirik namoyishlari bo'lib o'tdi. 60-yillar boshida bu

chiqishiar mazmuni o'zgarib qat'iy talablarga aylandi. Ular frankizm rejimiga qarshi siyosiy mahbuslarni ozod qilish, ish tashiash huquqi, yig'lnarga erkinlik berish, mustaqil kasaba uyushmasi tuzish kahi talablar bilan chiqdilar.

Frankizm asta-sekin katolik cherkovining ishonchini yo'qotdi. Katoliklar ochiqdan-ochiq frankizmni tanqid qilib demokratik erkinlikni tiklash to'g'risidagi muxolifat talablarini qo'llab-quvvatladi.

1974-yili ikkita muxolifat markaz yuzaga keldi. Bular — Ispaniya kommunistik partiyasi (IKP), Sotsialistik xalq partiyasi (SXP) kabilarni birlashtiruvchi Demokratik kengash hamda Ispaniya sotsialistik ishchi partiyasi (ISIP) rahbarligidagi Demokratik kelishuv markazlari edi. 1976-yilning martida ular Demokratik koordinatsiya blokiga birlashdi.

**Frankizmning
tugatilishi** Franko 1975-yil 20-noyabrda
 82 yoshida vafot etdi. **1975-
yil 22-noyabr** kuni davlat

rahbari bo'lgan Xuan Karlos Ispaniya qiroil deb e'lon qilindi hamda unga **Xuan Karlos I** deb nom berildi. Umamlakatda islohotlar o'tkazish zarurligi to'g'risida bayonot berdi. Ispaniya yangi taraqqiyot yo'liga kirdi. Hukumat mahkamasi rahbari etib o'zming liberal qarashlari bilan tanilgan **Adolfo Suares** (1932-yili tug'ilgan) tayinlandi. U demokratik islohotlar dasturini ishlab chiqdi. 1976-yil dekabrdagi referendumda siyosiy islohotlar to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun umumiy saylov huquqini belgilashni ko'rib chiqdi, xalq suvereniteti va siyosiy plyuralizm tamoyilini e'lon qildi, hukumatning eski frankocha strukturasini bekor qildi. Mamlakatda ikki palatali parlament tizimi (**bosh korteslar**) joriy etildi. Birinchi palata (deputatlar kongressi) umumiy ovoz berish orqali saylanib, ular soni 350 nafar etib belgilandi, ikkinchi palata (senat) misbatan cheklangan davrada saylandi va 208 kishini tashkil etdi. Qirol referendumga qonunlarni chiqarish, korteslarni tarqatib yuborish, premer-ministrni, senatning beshdan bir qismini tayinlash huquqiga ega bo'lди.

1977-yil iyunda birinchi saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovda qatnashgan asosiy siyosiy partiyalar — A.Suarez yetakchiligidagi Demokratik markaz ittifoqi (DMI),

“Xalq alyansi” (XA) o‘ng profrank partiyasi va IKP edi.

Saylovlar A. Suares partiyasiga muvaffaqiyat keltirdi va u yana hukumatga boshchilik qila boshiadi.

1978-yili Ispaniyada iqtisodiy tanglik yuzaga keldi. Inflyatsiya va ishsizlar soni ko‘payib Monklodagi hukumat rezidensiyasida hukumat bilan so‘l muxolifatchilar o‘rtasida bitim imzolandi. Unga ko‘ra hukumat qarilik va ishsizlik nafaqalarini oshirishga, soliq solishning adolatli tizimini joriy etish, so‘l partiyalar esa kasaba uyushmalari bilan birga yil davomida hukumat siyosatini qo‘llab-quvvatlashi, ish haqini haddan ziyod oshirishni talab etmaslik va ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarmaslik majburiyatlarini olishdi.

Xuddi shunday ruhdagi hamkorlik va kelishuv yangi konstitutsiya loyihasini muhokama qilishda ham namoyon bo‘ldi. Uzoq muhokamadan so‘ng korteslar tomonidan qabul qilingan konstitutsiya umumxalq referendumida ma‘qullandi.

Ushbu asosiy qonun ozodlik, adolat, tenglik va siyosiy plyuralizm kafolatlangan demokratik jamiyatni yaratishning asosiy maqsadlarini bayon etdi. Ispaniya parlament monarxiyasi deb e’lon qilindi, cherkov davlatdan ajratildi, biroq hukumat katolik cherkovi va boshqa konfessiyalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish majburiyatini oldi.

Yangi konstitutsiyada mamlakatning buzilmas yaxlitligi qayd etildi, ammo millatlarning keng avtonomiya va o‘z tillaridan foydalanish huquqi tan olindi. Provinsiyalarda o‘z parlamenti va hukumatlari tashkil etildi, biroq katolomiyaliklar hamda galisiyaliklarni shunday darajadagi avtonomiya qohiqtirsa-da, basklar uchun bu maqbul emas edi. Ular ichida ekstremistik ruhdagi guruhlar paydo bo‘lib mustaqil basklar davlatini tashkil etish, ispanlarga istilochi sifatida qarashhi targ‘ib eta boshiadi. Ekstremistlar terror yo‘liga o‘tgach mamlakatda beqarorlik boshiandi va demokratik tuzumga tahdid kuchayadi.

Ayni paytda basklar chiqishi ijohiy rol ham o‘ynadi. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritilib mamlakatdagi baracha 17 viloyat avtonomiya va o‘z hukumati hamda parlamentiga ega bo‘lish huquqini oldi.



Felipe Gonsales

**ISIPning hokimiyat
tepasiga kelishi.
Islohotlar natijalari**

1982-yil 28-oktabrdagi navbatdan tashqari parlament saylovlariida ISIP ishonchli g'abalani qo'lga kiritdi.

Sotsialistlar barcha saylovchilar ovozining 48 foiziga ega bo'ldi. Ularning rahbari **Felipe Gonsales** hukumat rahbari etib saylandi.

Sotsialistlar hokimiyat tepasiga kelgan vaqtida shartsharoit oson emas edi. Iqtisodning rivojlanish sur'ati 1,2 foizga tushib ketdi, inflyatsiya 16 foizga, ya'ni Yevropadagi eng yuqori darajalardan biriga yetdi. Ishsizlar 16,6 foizni, ya'ni 2,5 million kishini tashkil qilib, ijtimoiy keskinlik va jinoyat kuchayib ketdi. Tanglikdan qutilish uchun F.Gonsales barcha ispanlarni yagona maqsadga birlashtiruvchi "milliy g'oja"ni amalga oshirish dasturini ilgari surdi.

Sotsialistlarning birinchi islohotlari ijtimoiy sohaga tegishli edi. 40 soatlik ish haftasi, mehnat ta'tilini 30 kungacha uzaytirish, nafaqa yoshini 65 gacha belgilash to'g'risidagi qonun loyihalari qabul qilindi. Bir qator qonunlarda ishdan bo'shatilayotganlar yangi ish topguna qadar ish haqining 80 foizini to'lab turish ko'rib chiqildi. 1983—1986-yillarda jamiyat va oilaviy munasabatlarni demokratlashtirish, kundalik hayotda demokratik tamoyillarni mustahkamlashga qaratilgan qonunlar qabul qilindi.

Sotsialistlar tadbirkorlar uchun foydali bo'lgan bir

qator qonunlarni amalga oshirdi. “**Reindustrlashtirish**” rejasi qabul qilinib ijtimoiy islohotlar o’tkazilgandan so’ng darhol amalga oshirildi. Yuqori texnologiya asosidagi yangi sanoat tarmoqlariga o’z mablag’larimi qo’ygan tadbirkorlar uchun daromad solig’i miqdori 40 foiz qisqartirildi. Xuddi shuningdek, inflyatsiya bilan kurashish bo'yicha tadbirlar qabul qilindi: pul birligi devolvatsiyasi o’tkazildi, neft mahsulotlari narxi ko’tarildi, iqtisodning davlat sektori qisqartirildi va lsh haqlarini “muzlatib qo'yish” bo'yicha keskin yo'naliш olib borildi.

1988-yil o'rtalarida F.Gonsales hukumati bir qator yangi qonunlar va islohotlarmi taklif etdi. Ularda soliqlarni ko'tarish, benzin narximi oshirish, tadhirkor-larga subsidiyalar berish kabi masalalar ko'rib chiqilgan edi. Bu hol jamoatchilikning keskin noroziligiga sabab bo'ldi: 1988-yil I4-dekabrda umumiyl siyosiy ish tashlash bo'lib o'tdi va unda 8 million kishi qatnashdi. Gonsales muzokara va yon berish orqali vaziyatni yumshatishga erishsa-da, hukumatga nisbatan omma ishonchini saqlab qola olmadi. 1989-yilgi saylovlarda sotsialistik partiya jami 40 foiz ovoz oldi, omma baribir bir partiyali mahkama tashkil etishga erishdi.

Tashqi siyosatda sotsialistik partiya saylovdan oldingi bergen va'dalaridan qaytdi. Muxolifat davrida u mamlakatning NATOga kirishiga qarshi chiqqan edi. Hokimiyat tepasiga kelgach esa Ispaniyani ushbu paktga qo'shilishga jalb etdi (1986-yil). Aynan shu yili Ispaniya Yevropa Iqtisodiy Ittifoqiga (YII) qabul qilindi va bu hol uning iqtisodini modernizatsiyalash hamda Yevropa siyosatiga ta'sirining kuchaylshiga ko'mak berdi. 1991-yil dekabrda Ispaniya yagona Yevropani tashkil etish va yagona valyutani kiritish to'g'risidagi Maastricht bitimini imzoladi. Biroq mamlakatning yagona Yevropaga integrallashuvi katta qiyinchilik bilan kechdi. 1996-yil mayida sotsialistlar hukumati iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

Saylovlarda “Xalq alyansi” o'ng partiyasi g'olib chiqdi. Hukumat rahbarligiga **Xose Mariya Aznar** saylandi va u ham yagona Yevropaga integratsiyalashish siyosatini davom ettirdi. Yangi hukumat bir qator muvaffaqiyat-larga erishdi. Inflyatsiya 2,2 foizgacha pasaydi, iqtisod-

ning yillik o'sishi esa 3 foizni tashkil etdi. Biroq Ispaniya iqtisodining asosiy muammosi — ishsizlikni hal etishga qurbi yetmadi. 1997-yili ishsizlar 22 foizga yetib, amalda har besh kishidan biri ishsiz edi. Bu holat mamlakatda ijtimoiy va siyosiy tanglik chuqurlashuviga sabab bo'ldi.

X.M.Aznar boshchiligidagi "Xalq alyansi" partiyasi 2000-yilgi saylovda ko'pchilik ovoz olib o'zining mavqeini saqlab qoldi.

Qisqacha mazmuni

- Franko fashistik rejiminlnq o'rnatilishi
- Ijtimoiy islohotlarning o'tkazilishi, kasaba uyushmasi roilning oshishi, mamlakatni industdashtirish
- 60—70-yiliar — frankizm siyosatiga qarshi chiqish
- 1975-yil 20-noyabr — Frankoning vafot etishi
- Shahzoda Xuan Karlos — davlat boshlig'i, Vazirlar mahkamasi boshlig'i — Adolfo Suares
- 1976-yil dekabr — siyosiy islohot to'g'risidagi qonun
- 1978-yil — iqtisodiy tangilk
- 1978-yil — yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi, mamlakat parlament monarxiyasи deb e'lon qilindi
- basklarning mustaqil davlat tuzish to'g'risidagi talabi
- 1982-yil 28-oktabr — saylovlarda ISIPning g'alaba qozonishi, hukumat rahbari — Felipe Gonsales
- 1983—1986-yillar — mamlakatda demokratiyani mustahkamlashga qaratilgan qonunlar
- 1986-yil — NATO va YIlga qabul qilinishi
- 1991-yil — Maastricht bitimining imzolanishi
- 1996-yili — "Xalq alyansi" partiyasining saylovdagи g'alabasi, hukumat rahbari — X.M.Aznar
- 2000-yil — X.M.Aznarning saylovlardagi yangi g'alabasi

Savollar

- ?
1. F.Franko dikturasining o'rnatilishi mamlakatning 50—60-yillardagi iqtisodiy va siyosiy ahvoliga qanday ta'sir ko'rsatdi?
 2. F.Franko vafotidan so'ng mamlakatda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
 3. 1978-yil demokratik jamiyat qurish tarafdori bo'lgan konstitutsiyani qabul qilishga qanday siyosiy kuchlar sababchi bo'ldi?
 4. Mamlakat iqtisodining rivojanishida siz bugun qanday ob'ektiv qlyinchiliklarni sanab o'ta olasiz?

14-§. PORTUGALIYA: DEMOKRATIYAGA O'TISH

Fashistlar diktaturasining o'rnatilishi

Yevropa g'arbining chekkasidagi uncha katta bo'lma-gan mamlakat — Portugaliyada 1926-yilgi davlat to'ntarishi oqibatida o'rnatilgan fashistlar diktatusasi eng ko'p — 48 yil hukm surdi. Diktator **Antoniu Salazar** (1889—1970) uning o'miga kelgan **M.Kaetanu** kabi janubdag'i yirik yer egalari, qo'shin va uning generalitetlariga, tarmoq otgan yashirin politsiya va katolik cherkovi ierarxlarga suyanardi. Portugaliya xalqi Yevropadagi turmush darajasi eng past mamlakatda yashar edi. "Milliy ittifoq" fashistlar partiyasidan boshqa barcha partiylar faoliyati ta'qiqlandi. Davlat "korporativ" deb e'lon qilindi, bu bilan ishbilarmonlar va ishchilar go'yoki yagona, uyg'un butunlikni tashkil qilardi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng boshqa Yevropa davlatlari jadal rivojlanayotgan bir paytda Portugaliya yanada xarob bo'lib qoldi. Bu yerda sanoat asosini mayda va yarim kustar korxonalar tashkil qilar edi. Sanoat ishiab chiqarishi 10 yil davomida (1947—1956-yil) atigi 42 foizga o'sdi. Bu Yevropadagi eng past ko'rsatkich sanalardi. Mamlakat qishioq aholisining 70 foizi yerga ega bo'lmay, och-nahor kun ko'rib yashadi.

Afrikada Portugaliyaming Angola, Mozambik, Gvimeya-Bisau kabi mustamlakalari bo'lib, ular uzoq vaqt fashistik rejimhi saqlab turishning asosiy negizi bo'lib keldi. Arzon xomashyo, mustamlaka oziq-ovqat tovarlari davlatga ancha-muncha daromad keltirar va shuning hisobiga qo'shin, amaldorlar, foyda keltirmaydi-gan xo'jaliklar kun ko'rар edi.

Moliyaviy suyanchlardan biri — xorijiy kapital sanalardi. U asosan xalq xo'jaligi tarmoqlarida hukmronlik qilib, AQSH, Angliya va G'arbiy Germaniya kapitali ancha faollashdi. **1949-yil aprelda** Portugaliya NATOga a'zo bo'lib kirdi, uning Afrikadagi mustamlakalari ushbu paktning baza va aloqa tizimiga bog'landi. Ushbu hol Salazarning ham mamlakat ichida, ham xalqaro munosabatlardagi mavqeimi mustahkamladi. Salazar hukumati, shuningdek, Angliya va AQSHga

urush davrida Azor orollaridagi harbiy bazalardan foy-dalamish huquqimi tasdiqladi.

Mamlakatda antifashizm harakati NATO tarkibiga kиргач, mamlakatda repressiya boshlandi. Biroq ular qarshi harakatni kuchaytirdi va bu fashist diktatorasiga qarshi ommaviy harakatni yuzaga keltirdi. 50-yillar ikkinchi yarmida avj olgan antifashistik harakatda jamiyatning deyarli barcha qatlamlari ishtirok etdi. Armiya diktatura tayanchidan hukumatga qarshi kuchga aylandi.

1968-yil sentahrda falaj bo'lib qolgan Salazar hukumatni premer-mimistr **Marselo Kaetanuga** topshirishga majbur bo'ldi. Biroq bu hol vaziyatni o'zgartira olmadidi. O'rnatilgan tartib mamlakatni nazorat qila olmay qoldi. Qo'shinda ommaviy tartibsizlik boshiandi, bo'ysunmaslik, ish tashiash va xizmatdan qochish kuchaya bordi.

"Chinnigul ingilobi"ning g'alabasi **1974-yil 25-aprelda** quroili kuchiar harakati rahbarligida-gi qo'shin Lissabonga kirib keldi va hukumatdan iste'foga chiqishni talab qildi. Xalq ularni qo'llab-quvvatladi. Hokimiyat taslim bo'ldi. G'alayonchilar va shaharlklar o'z qurollari hamda kiyimlarini qizil chinniguijar bilan bezab oldilar. Qon to'kilmasdan yashin tezligidagi inqilob yuz berdi va u fashistlar diktaturasining mag'lubiyati bilan yakunlandi. Mazkur inqilob tarixga "**chinnigullar inqilobi**" nomi bilan kirdi.

To'ntarishdan so'ng hokimiyat diktaturaga qarshi qo'zg'olonchilar tashabbuskorlaridan biri general Spinola rahbarligidagi "**Milliy qutqarish xuntasi**" qo'liga o'tdi.

U 1974-yil 15-maydan 30-sentabrgacha mamlakat prezidenti bo'ldi. 1974-yil sentyabrda kichik to'ntarish oqibatida hokimiyat uning yaqin safdoshi general **Kosta Gomesh** qo'liga o'tdi. K.Gomesh 1974-yil sentabrdan 1976-yll iyulgacha mamlakat prezidenti bo'lib qoldi.

Harbiylar demokratik islohotlarni olib bordi. Mamlakatda asosiy siyosiy erkinliklar tiklandi, fashistlar hokimiyati atributlari tugatildi. Qamoqxonalardan siyosiy mahbuslar ozod qilindi. Barcha siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat berildi.

Mamlakatda fashizm tartibi ag'darilgach, sanoatning asosiy tarmoqlari davlat ixtiyoriga o'tkazildi. Portugaliya janubida agrar islohotlar boshlandi, bir qator korxonalarda ishchilar nazorati o'rnatildi, mehnatkashlar ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy talablarni qondirishga erishdi. Afrikadagi Portugaliyaming barcha mustamlakalariga (Gvineya-Bisau, Mozambik, Angola, Yashil Mis orollari va hokazo) mustaqillik berildi.

Mamlakatning yangi konstitutsiyasi

So'l kuchlarning katta g'alabalaridan biri 1976-yil aprelda qabul qilingan respublika konstitutsiyasi bo'ldi. Mazkur konstitutsiya barcha portugaliyaliklarga fuqarolik huquqi va demokratik erkinligini kafolatladi hamda mehnatkashlarning ijtimoiy himoya huquqini tasdiqladi. Konstitutsiya mamlakat miqyosida korxonalar va kasaba uyushmalarida ishchl komissiyalari bo'lishining qonuniyhgini tasdiqladi. Ommaviy tashkilotlarga mahailiy boshqaruvda ishtirok etish imkomiyati berildi. Respublika Majlisi deb yuritiluvchi bir palatali parlament tasdiqlandi.

1976-yil 25-aprelda Portugaliyada keyingi 50 yil davomida erkin demokratik saylovlar o'tkazildi. 1973-yilda tashkil etilgan sotsialistik partiya eng ko'p ovoz oldi. Uning yetakchisi **Mariu Soarish** (1924-yilda tug'ilgan) hukumatni tuzish huquqiga ega bo'ldi. Biroq ushbu partiya parlamentda unchalik ko'p o'ringa ega emas va mavqel ham mustahkam emas edi. Bundan tashqari mamlakatda hukumat va sotsialistik partiya ahvolini yanada og'lrlashtiruvchli iqtisodiy tanglik boshlandi. 1978-yili Mariu Soarish hukumati iste'fo berdi.

80—90-yillarda mamlakat siyosi hayoti

Portugahyada siyosiy beqarorlik davri boshlandi. Ikki yarim yil ichida hokimiyatda besh marta hukumat o'zgaridi. 1981-yildan o'ng markaziy koalitsiya hukumati mamlakatni boshqardi, 1983—1985-yiliarda sotsialistlar va sotsial-demokratlar koalitsiyasidan iborat hukumat tuzildi. 1987-yilgi parlament saylovlarida sotsial-demokratlar partiyasi g'alaba qozondi va uning kotibi **Anibal Kavacho Silva** (1939-yilda tug'ilgan) bos vazir etib saylandi.

O'ng kuchlar parchalanib, mamlakat taraqqiyotida

faol ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Qo'shin va zabitlar korpusi so'llarni qo'llab-quvvatladi. Agrar islohotlar natijasida yirik latifundistlar (yirik yer egalari) o'z mavqeini yo'qotdi. Yirik kapital esa endigina paydo bo'lmoqda edi. Parlamentdagi bunday vaziyat va so'l kuchlar hukmronligi Portugaliya siyosiy hayotlda turg'unlikni yuzaga keltirdi. Portugaliya "chinnigul inqilobi"ning o'tish davri so'l kuchlar foydasiga hal bo'ldi. 1987-yildan 1991-yilgacha sotsial-demokratlar partiyasi va mustaqil partiyalar vakillaridan iborat koalitsiya hukumatni boshqardi. 1991-yilдан boshlab esa sotsial-demokratlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi va liukumat tepasiga sotsalistlar partiyasi hamda mustaqil partiyalar koalitsiyasi keldi.

1986-yilda Portugaliya YII tarkibiga kirdi. YII talablariga muvofiq 1989-yil 1-iyundan parlament bir qator qonunlar qabul qildi. Unga ko'ra ilgari davlat ixtiyoriga berilgan sanoat korxonalari xususiy mulkchilikka o'tkazildi, shuningdek, bozor iqtisodiga keng yo'l ochib beruvchli iqtisodiy qonuhlarni liberallashtirdi.

Mamlakatda iqtisodiy o'sish boshlandi. Metallurgiya va elektrotexnika sanoati, mashinasozlik hamda neft-kimyo tarmoqlari rivojlana bordi.

Ayni paytda Portugallyada inflyatsiya 9 foiz atrofida, aholining turmush darajasi esa Yevropada eng past ko'rsatkichni tashkil qilar edi. Mamlakatda 500 ming ishsiz (aholi mehnatga qobiliyatli qismining 11 foizi) mavjud bo'lib, ulardan atigi 14 foizi ishsizlik nafaqasini olgan. Aholining 15—16 foizi savodsiz edi.

1996-yil yanvardagi prezidentlik saylovlarida Lissabon meri sotsialistik **Xorxe Sampayo** g'alaba qozondi. So'nggi portugal mustamlakasi tugatildi va Makao oroli Xitoya o'tdi. 2002-yilda parlament saylovlarida SDP yetakchisi **Xose Barosso** boshchiligidagi sotsial-demokratlar va Xalq partiyasidan tashkil topgan o'ng markazchi hukumat hokimiyatga keldi.

Qisqacha mazmuni

- Fashistlar diktaturasi (1926-yildan) 48 yil hukm surdi, iqtisodiy qoloqilk, mayda va yarim hunarmandchilik kuchaydi

- 1949-yil aprel — Portugaliya NATOga qabul qilindi sanoat ishiab chiqarishi — Yevropada eng past ko'rsatkich
- 50-yiliar — antifashistik harakat kuchayishi
- 1968-yil sentabr — Marseio Kaetenü boshchiligidagi hukumat
- 1974-yl 25-aprel — “chinnigullar inqilobi”: fashistlar diktaturasining ag'darilishi
- mamlakatda demokratik qayta o'zgarishiar, asosiy sanoat tarmoqiarini davlat ixtiyoriga o'tkazish, agrar isiohotlar
- 1976-yl aprel — mamlakat konstitutsiyasining qabul qilinishi
- 2002-yil — Xose Barosso boshchiligidagi sotslai-demokratlarning hokimiyatga kellshe.

Savollar

?


1. Portugaliya iqtisod, siyosat va jamlyat qurilishi sohasida 50-yillarda qanday masalalarini hal etishi lozim edi?
2. Jamiyatdagi qanday qatlamlar antifashistik harakatda ishtirok qildi va bu kurash qanday yakunlandi?
3. Sizning fikringizcha, Portugailyadagi fashistlar diktaturasi nima uchun 48 yil hukm surdi? Bunga qanday kuchlar sabab bo'ldi?
4. “Chinnigullar inqilobi” g'alabasi natijasida mamlakatda qanday demokratik o'zgarishlar amalga oshlrildi?

Jadvalni to'ldiring

Davr	Mamlakat rivojlanishining xususiyatlari	
	ichki siyosat	tashqi siyosat

III b o b

**SHARQIY YEVROPA
VA BOLQON YARIMOROLI
MAMLAKATLARI
IKKINCRI JAHON
URUSHIDAN SO'NG**



15-§. TOTALITAR TUZUMLARNING QAROR TQRISHI

Sharqiy Yevropa va Bolqon yarim oroli mamlakatlari — Yevropadagi eng qoloq mamlakatlardan biri Albaniyadan tortib dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan hiri — Chexoslovakiyagacha iqtisodiy hamda madamiy taraqqiyot borasida turli darajada edi. Ammo, bu mamlakatlarning barchasida “xalq demokratiyasi” deb nomlanuvchi blr xildagi siyosiy tizim o’rnatilgandi. Hokimiyat tepasiga kommunistik partiya keldi va sotsializm g’alabasim o’z faoliyatihing maqsadi deb belgiladi. Albaniya, Bolgariya, Ruminiya, Sharqiy Germahiya, Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Vengriya — shunday mamlakatlar sirasiga kirar edi.

**Xalq demokratiyasi
rejimi o’rnatilishining
bosqichlari**

Bu mamlakatlar o’zinimg yarim asrlik tarixi davomida xalq demokratiyasi tiklamishi, totalitar rejim o’rnatilishi, totalitarizmning yemirilishi va demokratiyaga o’tish bosqichiarini boshdan kechirdi.

1945—1948-yillarda ushbu mamlakatlarda ko’ppartiyali va siyosiy qarashlar plyuralizmiga ega xalq demokratik partiyasi boshchilik qildi. Kommuhistlar sotsial-demokrat partiyalar, dehqonlar tashkilotlari bilan hokimiyatni bo’lib olishdi, o’zgacha qarashlarga chidash va demokratik tamoyillarga hurmat bilan ajralib turuvchi platformami yaratdi. Shakl va mazmun jihatidan bunday tizim Ispaniyadagi fuqarolar urushi davrida yuzaga kelgan Xalq fronti rejimirni eslatar, Ispaniya respublikasini xalq demokratiyasi rejiminimg timsoli deb sanash mumkin bo’ldi.

Kelajakda u dunyo hamjamiyatida o’z o’miga ega yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum uchun asos bo’lishi mumkin edi. Biroq kommunistlar, avvalo sovetlar rahbariyati tazyiqi ostida totalitarizm yo’liga o’tib oldi. Turli bahonalar bilan diktatura sharoitida yashashmi istamagan muxolifatdagi partiyalar, tashkilotlar va siyosiy arboblarni bukumatdan siqib chiqarishdi. Bir-biriga o’xshash siyosiy mizolar kommunistik partiyalar g’alaba qozomishiga va totalitar rejim o’rnatilishiga olib keldi.

Islohotlar o'tkazilishi va ularning yo'nalishi

Ushbu mamlakatning keyingi rivoji sovet sotsializmi modeli va Sovet Ittifoqining qattiq nazorati ostida bo'ldi. Bu yagona loyiha asosidagi namunaviy ishlab chiqarishni eslatar edi. Kommunistik partiyalar "rahbar va boshqaruvchi kuch" bo'lib qoldi hamda Sovet Ittifoqi bosib o'tgan yo'lni ko'r-ko'rona takrorlay boshladи. To'g'ri, xuddi boshqalariga o'xhash ayrim partiyalar saqlanib qoldi, biroq bu kommunistlarning bir partiyalik diktaturasini miqoblash, go'yo plyuralizm borligini ko'rsatish uchun bahona edi.

O'tkazilgan namunaviy islohotlar bir xil iqtisodiy va siyosiy strukturani yuzaga keltirdi. Xususiy korxonalarни davlat ixtiyoriga o'tkazish yo'li bllan iqtisodda ulkan davlat sektori tashkil etildi. Davlat rejalashtirish apparati o'ta markazlashgan iqtisodiy siyosatni amalga oshira bordi. Xuddi Sovet Ittifoqida bo'lgani kabi keng ko'lamda sanoatlashtirish tadbirlari o'tkazildi.

Sharqiy Yevropa va Bolqon yarimoroli mamlakatlarning bir- lashuvi

Bunday qayta tashkil etish oqibatida sotsialistik lager deb nom olgan yagona blok yuzaga keldi. Undagi davlatlar aholisi 400 million kishini

tashkil qilar edi. Ikkinchi jahon urushigacha ushbu mamlakatlarning o'xhash tomonlari bo'lib, ko'p ukladli iqtisodga ega, xorijiy kapitalga bog'liq, pomeshchik yer egaligi bo'lgan va infrastrukturasi sust rivojlangan davlatlar edi.

Sovet Ittifoqi boshchiligidagi ushbu mamlakatlarning sotsialistik lagerga kirishi ularning jahon iqtisodi va siyosatidagi o'rnimi keskin o'zgartirib yubordi.

1949-yilda O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi tashkil etilib, u Sharqiy Yevropa va SSSRdagи integratsiyalashuv jarayonining asosiy boshqaruvchi organi bo'lib qoldi. Mazkur Kengash avvaliga savdo sohasida, so'ngra ishiab chiqarishda ko'p tomonlama hamkorlikka asos soldi. 50-yillar boshida Sovet Ittifoqi va sotsialistik lagerga mansub mamlakatlar o'rtasida uzoq muddatli iqtisodiy keli-shuv imzolandi. Aynan shu narsa g'arb mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarning huzilishiga va Sovet Ittifoqining ushbu mamlakatlar iqtisodidan ustun

bo‘lishiga olib keldi. Ular o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi va yaqinlashuvi harbiy-siyosiy ittifoqming tashkil topishiga sabab bo‘ldi. **1955-yil 14-mayda Varshavada** SSSR, Polsha, Chexoslovakiya, GDR, Vengriya, Rumimiya, Bolgariya, Albaniya o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi Shartnoma imzolandi.

Sotsialistik mamlakat-larning keyingi integratsiyalashuvi va uning natijalari

Sotsialistik lager mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligi ularning rivojlamishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular o‘z mahsulotlari uchun

Sovet Ittifoqi misolida katta bozorni topishdi. Bu yerda ularning deyarli barcha keng iste’mol mollari va qishioq xo‘jalik mahsulotlari sotdar edi. Import hisobiga ular SSSRdan temir rudasi, neft, paxta, rangli metall, gaz va elektroenergiya orqali o‘z ehtiyojini qondirdi.

1958—1962-yillarda sanoat ishiab chiqarishimingga yillik o‘sishi 11,5 foizni, 1962-yildan boshlab esa 8 foizni tashkil etdi. Rivojlangan Yevropa mamlakatlari esa bu ko‘rsatkich 4—5 foizdan oshmagan edi. 1950-yildan 1962-yilgacha ushbu mamlakatlarda yalpi mahsulot 5—6 barobar ko‘paydi. Ularning rivojlamish darajasi tenglasha bordi. Ayrim mamlakatlar (Boigariya, Rumimiya, Albaniya) agrar holatdan industrial-agrar rivojlanish yo‘liga o‘tib oldi.

Sotsialistik lager mamlakatlari iqtisodining rivojlanishida muvaffaqiyatlar ularning integratsiyalashuv jarayonini faollashtirdi. 1971-yill O‘TYK sotsialistik integratsiyalashuvni rivojlantirish va hamkorlikni takomillashtirishni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha kompleks dastur qabul qildi. Biroq, keyinchalik ma’lum bo‘ldiki, iqtisodning davlat boshqaruvi va totalltar rejim sharoitida integratsiyalashish mumkin emas edi.

Sotsialistik tuzum avtarkiya (zarur narsalarni chetdan olmasdan o‘zi yetkazishga asoslangan milliy xo‘jalik tizimi) tarafdori bo‘lib, bunda xo‘jalik yuritish tizimi biqiq holda qoladi va bozor iqtisodi uchun xos tabiiy integratsiya jarayonlarimi bo‘g‘ib qo‘yadi. Shu bois tez orada tizimning o‘zi ishdan chiqdi va bu mamlakatlarning rivojlanishi sustlashib ketdi. 80-yillar boshlarida butun sotsialistik tizim iqtisodi inqirozga uchradi va qayta bu

inqirozdan chiqib keta olmadi. Bu — sotsialistik tizimning talvasasi edi. SSSRdag'i iqtisodiy inqiroz ushbu jarayonni tezlashtirdi. Markazlashgan rejalashtirish va ma'muriy-buyruqbozlik uslublariga asoslangan iqtisodiy tizim inqirozga uchradi.

Sovet totalitarizmi bilan kurash

Sotsialistik tizim illatlari demokratiyani bo'g'ish orqali yanada bo'rtib ko'rina bordi.

Erkin fikrlovchilar mamlakatdan quvg'in qilindi, muxalifat chetga surib qo'yildi, norozilar tahqirlandi. Bir necha yil davomida totalitarizm ko'p yillik demokratiya an'analarini yo'q qildi. Butun tizim ustidan totalitar tizimi yurituvchi Moskva boshchilik qilar edi. Biroq bu tartibni sovet rahbariyati endi ushiab tura olmasligi ayon bo'ldi. Milliy uyg'omish, milliy o'zlikni anglash va miiliy manfaatlar proletar internatsionalizmning mavhum tamoyillaridan ustun keldi.

Birinchi bo'lib yugoslavlар g'alayon ko'tardi va 1948—1949-yiliarda Stalim bilan mojaroga borishdi. Yugoslaviya o'z yo'lidan borib kolxozlarni tarqatib yubordi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tugatildi. Yugoslaviya keng huquqli federativ davlat bo'lib oldi. Yugoslaviyadan so'ng GDRda g'alayon ko'tarildi.

1953-yil may oyida Berlinda yoshlar, ishchi va xizmatchilar ishtirokidagi tartibsizliklar boshlamib ketdi. Bu namoyishiar sovetlarning okkupatsiya qo'shinlari tomonidan bostirildi. **1956-yil oktabrda Polshadagi** Gdansk kemasozlik korxonasida norozilik chiqishlari boshdandi va bu Polsha birlashgan ishchilar partiyasi rahbariyatining al mashuviga olib keldi. Shu paytgacha repressiya qilimgan V.Gomulka yangi rahbar etib saylandi. **1956-yil oktabrda** vengerlar g'alayomi ko'tarildi. Xalq inqilohi tufayli saylangan yangi rahbar Imre Nadem sovet qo'shinlarining Vengriyadan olib chiqib ketilishini talab qillib chiqdi. 3—4-noyabrda sovet tanklari Budapeshtga kirib keldi va g'alayonni bostirdi. Hokimiyat tepasiga Yanosh Kadar rahbarligidagi hukumat keldi. **1968-yili Chexoslovakiya** kommunistik partiyasi xuddi shunday sovetlarning totalitar rejimi halqasini uzishsga urimib ko'rdi. Bu mashhur "Praga bahori" edi.

**Totalitar rejimning
kuchaylshi. "Breznev
doktrinasi"**

Sovet Ittifoqi kuch bilan sotsialistik tizimmi mustahkamlashga qaror qildi. Shu tariqa "Breznev doktrinasi"

ishlab chiqildi. Unga ko'ra Sovet Ittifoqi "qardoshlik baynalmilal yordam" niqohl ostida butun sotsialistik mamlakatlarning ichki ishiariga aralashish hamda shu orqali mazkur tizimdan chiqishga bo'lgan har qanday urinishni bostira boshladi. "Demokratiya"ni mustahkamlash bahonasida, aslida sotsialistik lager mamlakatlarida totalitar rejimni kuchaytirish maqsadida rahbariyatni almashtirish jarayoni boshlandi. Rumimiyada hokimiyat tepasiga N.Chaushesku, GDRda V.Ulbrixt o'rniga Erix Xonekkere keldi. Polshada general V.Yaruzelskiy prezident etib saylandi. Teodor Jivkov Bolgariya rahbari etib saylandi. Bu xildagi kadrlarni almashtirish nizolarning oldini olmadi, aksincha, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida totalitizmning tugashini tezlashtirdi. Yangi rahbarlar tobora xalqdan uzoqlasha bordi, ushbu mamlakatlarda terrorning yangi to'lqini boshlandi. Xalq xo'jaligi samaradorligining pasayib ketishi ijtimoiy tanglikni kuchaytirib yubordi. Oziq-ovqat va sanoat mollari bahosi oshib ketdi. Byudjet taqchilligi kuchayib, u xorijiy valyuta hisobiga qoplanar edi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari asta-sekin G'arbiy Yevropa banklaridan yirik qarzdor bo'la bordi. Bir qator mamlakatlarda totalitar iqtisodiy va siyosiy tuzum qayta o'zgartirila boshlandi.

80-yillarda SSSRda boshiangan iqtisodiy va siyosiy tanglik sotsialistik lagerdagi ahvolni og'irlashtirib qo'ydi. 1981-yildan SSSR sanoat ishlab chiqarishi pasaya boshladi. Shu yili birinchi marta butun iqtisod past ko'rsatkichiarga ega bo'ldi. Iqtisod va siyosatga Afg'oniston avantyurasi juda katta zarar keltirdi.

SSSRda qayta qurish Tizimni saqlab qolish uni qayta o'zgartirishni talab qilar edi. 1985-yil aprelda SSSRda "qayta qurish" deb nom olgan jarayon boshlandi. O'zini qudratli, yorqim kelajak g'oyasi atrofida mustahkam jipslashgan, ezilgan xalqlarga ko'mak beruvchi deb e'lon qilgan SSSR qayta qurish va oshkorali shamolining ilk nafasidanoq quladi.

Birinchi bo'lib milliy respublikalar qo'zg'aldi. Almati, Boku, Tbilisi, Vilnyusdagi xalq namoyishlari sotsialistik lagerdagи boshqa mamlakatlarga ko'chdi.

**Yevropada totalitar
rejimning
tugatilishi**

Sotsializm mamlakatlarida diktatorlik rejimini qachonlardir uning o'zini liukumat tepasiga keltirgan va asosiy

suyanch bo'lgan ishchilar va armiya ag'darib tashladi. Sotsializm g'oyasi bu mamlakatlarda to'liq rad etildi. **1989-yil 4-noyabrda Berlinda** 500 ming kishilik namoyish bo'lib o'tdi va u communistlar hokimiyatini tugatdi. Ruminiyada diktator Chaushesku va uning xotini otib tashlandi.

Sharqiy Yevropadagi boshqa mamlakatlar — Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Polsha, Bolgariya, Albaniya, Vengriyada — sotsializmni tugatish jarayoni nisbatan yengil kechdi. Bu mamlakatlar ichida turmush tarzi yaxshiroq hisoblangan Chexoslovakiya ikkita — Chexiya va Slovakiya davlatlariga bo'limib ketdi. Yugoslaviyada esa serb va xorvatlar, nasromiyalar va musulmonlar o'rtasida eski adovat avj oldi. Bolgariyada sobiq diktator T.Jivkov davlat jinoyatchisi sifatida jazoga tortildi, antiturk millatchiligi kuchaydi. Polshada an'anaviy antirus, Vengriyada ruminlarga qarshi millatchilik harakati avj oldi.

Sotsializm Sharqiy Yevropada yemirildi. Stalincha tizimni yaratishga uringan kommunistik partiyalar yana-da katta fojealarga sabab bo'ldi.

Biroq bu mamlakatlarda amalga oshirilgan hamma ishlarni salhly deb baholab bo'lmaydi. Ular moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmagan bo'lsa-da, chuqur islo-hotlarmi amalga oshirdi. Ihs sizlik tugatildi. Bepul sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi, keng xalq ommasining zamonaviy madaniyat va fan yutuqlarini egallashi ularni Yevropaning qoloq o'lkalaridan rivojlangan mamlakatlarga aylantirdi.

Jamiyat bozor iqtisodiga tayyor bo'lmaganligi tufayli bu mamlakatlarning ayrimlarida orqaga qaytish boshlandi. Xalq sotsializm davrida erishgan narsasini yo'qotishi istamas edi. Vengriya, Bolgariya va Polshada yangilangan kommunistik partiyalar erkin demokratik saylovlari natijasida hokimiyat tepasiga keldi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida navbatdagi siyosiy va ijtimoiy nizolar boshlandi. Bular bari sotsializmning ijtimoiy yutuqlari va g'arb demokratiyasining yuqori darajadagi iqtisodimi uyg'unlashtirgan jamiyat tizimining muqobil variantini izlab topish yo'lidagi urinishlar natijasi edi.

Qisqacha mazmuni

- Bir tipdagи xalq-demokratik siyosiy tizimning o'rnatilishi (Albaniya, Bolgariya, Ruminiya, GDR, Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslavia, Vengriya)
- 50 yili davomida uchta bosqich o'taldi:
 - xalq demokratiyasining tiklanishi
 - totalitar rejimning o'rnatilishi
 - totalitar rejimning yemirilishi va demokratiyaga o'tish
- Sharqiy Yevropa mamlakatlarining sovet sotsializmi modeli bo'yicha rivojlanishi
- 1949-yil — O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining tashkli etilishi
- 1955-yil 14-may — Varshava Shartnomasining tuzilishi (SSSR, Polsha, Chexoslovakiya, GDR, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Albaniya)
- 1958—1962-yillar — iqtisodiy rivojlanishdagi yutuqlar 80-yillar — sotsialistik mamlakatlar iqtisodida tanglik
- sotsialistik mamlakatlarda kadrlarni o'zgartirish
- 1989-yildan — totalitar rejimning barham topishi

Savollar

- ? 1. Sharqiy Yevropa va Bolgon yarimoroli mamlakatlarida fashizm tor-mor etilgach siyosiy ahvol qanday o'zgardi?
2. "Xalq demokratiyasi" tushunchasi mohiyatini aniqlang.
3. 50-yillarda Shargiy Yevropa mamlakatlarida islohotlar rivojlanishi gaysi yo'ldan bordi?
4. Shargiy Yevropa va Bolgon yarimoroli mamlakatlari integratsiyalashuvining asosiy bosqichiarini sanab bering.
5. Varshava Shartnomasi tashkiloti va O'YK qanday magsad-da tuzilgan edi?
6. "Totalitar rejim" tushunchasiga izoh bering.
7. 50—60-yillarda Shargiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishida mugobililik mavjud edim? Bu boradagi o'z variantingizni aytинг.
8. Har ganday mamlakatda totalitar rejim barham topadi, deb hisoblaysizmi?

16-§. GDR 50—90-YILLARDA

Fashizm tor-mor etil-gandan so'nggi Germaniya

Germamiya taslim bo'lgach, mamlakatning sharqiy viloyatlari — **Saksoniya, Turyingiya, Meklenburg** va

Brandenburg (hududi — 108 ming kv. km va aholisi 17 million kishi) SSSR zabit etilgan zonaga o'tdi. Berlin ham ushbu zonada qoldi, ammo Potsdam konferensiyasi qaroriga ko'ra u to'rt qismga bo'lindi, shundan uchta sl g'arb davlatlari nazoratida edi.

1945-yil iyun-iyul oxirida Sharqiy Germaniyada asosiy siyosiy partiyalar — Germamiya Kommunistik partiyasi (GKP), Germaniya sotsial-demokratik partiyasi (GSDP), Xristian Demokratik Ittifoqi (XDI) va Germamiya liberal-demokratik partiyasi (GLDP) shakllandi. GKP va GSDP 1946-yil aprelda Germamiya Sotsialistik Birlashgan partiyasi (GSBP) nomli yagona partiyaga birlashdi. Partiyaning asosiy maqsadi Germamiyada sotsializm qurish edi.

GDR tashkili etilganligining e'lon qiliishi

Germamiyadagi Sovet harbiy ma'muriyatining (GSHM) buyrug'iga ko'ra nemis monopoliyalari, harbiy jino-

yatchilar, fashist partiyalarining mulki ekspropriatsiya (mahrum) qilindi. Ustibu asosda daviat mulkinining poy-devori yaratildi. Mahalliy boshqaruv organlari tuzilib, bunda GSBP asosiy rol o'ynadi. 1947-yil dekabrda Berlinda I Nemis xalqi kongressi bo'lib o'tdi va unda Germamiyani birlashtirish fikri ilgari surildi. II Nemis xaiq kongressi 1948-yili harakatning ijroiya orgami sifatida Nemis xalq kengashini sayladi. 1949-yil may oyida III Nemis xalq kongressi konstitutsiya matnini ma'qul-ladi va bu urushdan keyingi Germamiya davlat qurilishining asosi bo'lishi lozim edi. 1949-yil 7-oktabrda Germamiya Demokratiya Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qllindi. Deyarli barcha rahbarlik lavozimlarini GSBP vakillari egalladi. Prezident etib Germaniyadagi inqilobiy harakat faxriysi — Vilgelm Pik saylandi: Otto Grotevol bosh vazir lavozimini egalladi: Nemis xalq kengashi muvaqqat Xalq palatasи (parlament)ga aylantirildi va u mamlakat konstitutsiyasini qabul qildi.

Konstitutsiya davlat hokimiyyati sifatida proletariat diktaturasini tasdiqladi. GDRda GSBPdan tashqari yana uchta partiya— XDI, Germanniya dehqonlar demokratik partiyasi (GDDP) va Milliy-demokratik partiya mavjud bo'lgan. Ularning ayrimlari rasmiyatchilik uchungina tuzilib, siyosatga hech bir ta'sir kuchi yo'q edi. Tez orada ular ham yo'q bo'lib ketdi. Siyosiy kurash davomida XDI va GDDP ham bo'g'ib qo'yildi va o'z faoliyatini to'xtatdilar. Shundan so'ng GDR Xalq partiyasiga saylovlar boshlanib, unda GSBP vakillari boshqaradigan Demokratik blok g'alaba qozondi.

Sotsializm qurilishi 1950-yil iyulida GSBP III s'ezdida iqtisodiy rivojlanish besh yillik rejasi ma'qullandi. Besh yillik davomida 79 ta korxona va 100 ta yangi korxona tiklandi. Rostok, Vismar, Shtralzund va Varnemyundagi kemasozlik korxonalar, ikkita yirik metallurgiya kombinatlari shular jumlasidan. Bunday ulkan qurilish 20—30-yillarda SSSRda olib borilgan edi. Biroq ko'p o'tmay GDRda bunday ko'lamdag'i qurilishiarni davom ettirish uchun mablag' yo'qligi ma'lum bo'ldi. Natijada ijtimoiy maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'larni qisqartirishga to'g'ri keldi. Mamlakatda oziq-ovqat kartochka bo'yicha taqsimlanar, ish haqi juda past darajada edi. Qishloqlarda boshlangan kooperativ harakat mamlakat xalq xo'jaligini xonavayron qildi.

GFRning iqtisodiy yutuqlari oldida GDR ahvoh inqirozli darajada edi. Respublikada g'ala-g'ovur boshlanib, **1953-yil 16—17-iyunda** ochiqdan-ochiq mavjud tuzumga qarshi namoyishga aylamb ketdi. Butun mamlakat bo'ylab namoyish bo'lib o'tdi, ish to'xtab qoldi. Katta shaharlarda do'konlarga o't qo'yildi va vayron qilindi. Namoyishchilarga qarshi qurol ishlatildi. Uch kundan so'ng g'alayon bostirildi va tartib o'rnatildi. Bu norozilik chiqishlari GFR ig'vegarlari tomonidan uyushtirilgan "fashistlar fitnasi" deb baholandi.

Shunga qaramay GDR rahbariyati yon berishga majbur bo'ldi: keng xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish ko'paydi, narx-navo biroz pasaytirildi, SSSR esa bundan buyon reparatsiya to'lovlardan voz kechdi. Shu bilan birga iqtisodning sotsialistik asoslarimi rivojlantirishmi tezlashtirishga kirishildi. 50-yllar davomida

sanoatni "sotsialishtirish" tadbirlari olib borildi va nati-jada xususiy kapital tugatilib, korxonalar natsionalizatsiya qilindi. Qishloqlarni yoppasiga koilektivlashtirish boshlandi. **1960-yil** tarixda "**qishloqda sotsialistik hahor**" deb nom oldi. Chunki shu yili erkin fermerlik tugatilib, uming o'rniga qishloq xo'jalik ishiab chiqarish kooperativlari paydo bo'lgan edi. Jami qishloq xo'jalik maydonlarining 84 foizi kooperativlar tomonidan qayta ishiandi.

Mamlakat iqtisodining rivojlanishi

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiy tanglikni yengib o'tildi va sifat o'zgarishlariga erishildi. 1960-yildan 1983-yilgacha sanoat yalpi mahsuloti 9,5 baravar ko'paydi. Ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega yangi sanoat tarmoqlari jadal sur'atlar bilan rivojlamb ketdi. Ular hissasiga jami tovarlarning 10 foizi to'g'ri kelar edi. Sanoatda kompleks avtomatlashtirish keng quloch yoydi. GDR ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahondagi sanoati rivojlangan o'nta mamlakat qatoriga qo'shildi.

Sanoat ishiab chiqarishi tez o'sishi bilan birga iqtisodagi davlat sektori ham shunchalik jadallik bilan ken-gaylb ketdi. 1972-yili sanoatni qayta tashkil etish natijasida yalpli sanoat ishlab chiqarishidagi davlat ulushi 83 dan 99 foizga o'sdi. Oqlbatda butun sanoat miqdor ko'rsatkichiga ishlay boshladi. Korxonalarning ko'pgina qismi foyda bermas va ular keltirgan zarar boshqa korxonalar hisobiga qoplanar edi. Sanoat ishlab chiqarishi og'ir sanoat hisobiga tez (23 yil davomida ishiab chiqarish 4 baravar) o'sdi, iste'mol buyumlari ishiab chiqarish esa atigi 2,5 baravar ko'paydi.

Ayni paytda qishloq xo'jalik o'ta darajada sust sur'atlar bilan rivojlanar edi.

Germanyaning bir-lashishi

1971-yil mayida GSBPning hirinchi kotibi etib **Erix Xonekker** saylandi. U mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni va aholining turmush dara-jasini yaxshilashga erishdi. Biroq, bu mamlakatning keyingi rivojiga ta'sir ko'rsata olmadi. Xalq demokratlashtirishni talab qilar edi. Mamlakat bo'ylab demokratik islohotlar, haqiqiy, erkin umumxalq saylovlarini olib borish talab qilingan namoyishiar bo'lib o'tdi.

Mamlakatdan aholining ommaviy sur'atda qochishi boshlandi. 1970—1980-yillar oralig'ida GDR aholisi deyarli bir million kishiga kamayib ketdi. Ularning bari GFRga qochib o'tishgan edi.

Xonekker Erix (1912—1995)— GDR Davlat kengashi raisi (1971—1989), GSBP MK bosh kotibi (1971—1989). 1989-yil oktabrda barcha lavozimlardan bo'shatilgan, dekabrda GSBP safidan o'chirildi.

GDR rahbariyati mamlakatni tashqi davlatlardan tikanli simlar bilan ajratib, chegarada shafqatsiz rejim o'matdi. Barcha qochoqlarni jinsi va yoshidan qat'iy nazar otib tashlashga buyruq berildi. Chegara postlari kuchaytirildi. Biroq, bu GDRdan ommaviy chiqib ketishning oldini ololmadni.

1989-yil 7-oktabrda GDR rahbariyati Germaniya tarixidagi birinchi sotsialistik davlatning 40 yilligini tan-tanali nishonlash uchun yig'ildi. Mamlakat bo'ylab esa E.Xonekkerning iste'foga chiqishini, Germaniyani birlashtirish va GSBP hukumatini tugatishni talab qilgan holda ommaviy namoyish boshlandi.

1989-yil 7—9-oktabr kunlari Berlin, Drezden, Leypsig va boshqa shaharlarda o'n minglab kishilar



Rossiya Germaniyadan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishni tugallamoqda.

mamlakatda tub o'zgarishni talab qilgan holda ko'chaga chiqdilar.

Politsiya tomonidan namoyishchilarni tarqatish natijasida 3 ming kishi bibsga ollndi. Biroq, bu mavjud tuzumga qarsbi harakatni to'xtata olmadidi. 1989-yil 4-novabrda Berlin ko'chalariga 500 mingdan ortiq kishi chiqdi.

1990-yil 18-martda ko'p partiyalik asosida o'tkazilgan saylovlardan XDI partiyasining g'alabasi bilan tugadi. Mazkur partiya 41 foiz, sotsial-demokratlar — 21 foiz, DIP (sobiq GSBP) — 16 foiz ovozga ega bo'ldi. XDI va sotsial-demokratlar vakillaridan iborat yangi koalltsiya hukumati tuzildi. Hukumat darhol Germamiyani birlashtirish haqidagi masalani ilgari surdi. GDR va SSSR o'rtaida Germaniya muammosini hal etish borasida muzokaralar boshlandi. **1990-yil 12-sentabrdan** GFR kansleri G. Koll va SSSR Prezidenti M. Gorbachev Germaniyaga misbatan o'z boshqaruv siyosatining tuga-ganligi to'g'risida Shartnomani imzoladilar. Bir vaqtning o'zida sovet qo'shinlarini 1994-yll oxirigacha Germaniyadan olib chiqib ketish masalasi hal etildi. **1990-yil 3-oktabrda** Germaniya birlashdi.

Mamlakat birlashuvining oqibatlari Bunday jadallik bilan birlashtish oqibatlari Germamiyaning har ikki qismi uchun og'ir kechdi. Sobiq GDRning barcha hududlari umumiyo sanoat yemirilishimi eslatuvchi deindustrializatsiya jarayoni yuz berdi. GDR iqtisodining butun tizimi zarar keltiradigan va raqobatga chidamsiz ekanligi ma'lum bo'ldi.

GFR hukumati tomonidan mamlakatning sharqiy hududi sanoati qo'llab-quvvatlangach ham ular ishiab chiqargan mahsulot hatto G'arbiy Germaniya bozorida o'z xaridorini topmadi. Aymi paytda Sharqiy Germamiya bozorlari GFR sanoatchilari tomonidan zabit etilgan edi.

GFR uchun eng jiddiy muammo mustahkam bozor asosida Sharqiy Germamiya sanoatini tiklash bo'ldi. Davlat buning uchun yiliga 150 milliard marka subsidiya ajratishga majbur bo'ldi. Yana bir muammo — ishsizlik bo'lib qoldi. Sharqiy Germamiyada mehnatga layoqatli 13 foiz aholi ishsiz edi.

Qisqacha mazmuni

- 1945-yil — Sharqiy Beriln sovet okkupatsiya zonasida, G'arbly Beriln — g'arb davlatlari nazorati ostida
- 1945-yil iyul — GKP, GSDP, XDI va GLDP partiyalarining tashkil topishi
- 1946-yil aprel — GKP va GSDP birlashdi va GSBD yuzaga keldi
- Germaniya monopoliyasi mulki natsionalizatsiya qilindi va davlat mulki ixtiyoriga o'tkazildi
- 1949-yil 7-oktabr — GDR tashkil topishining e'lon qilinishi. V.Pik — prezident
- 50-yiliar — iqtisodiy qiyinchiliklar, kartochka tizimlga o'tish, ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigari mablag'larning qisqartirilishi
- 60-yiliar — barcha sanoatning natsionalizatsiya qill nisi, qishloqdagagi yoppasliga kollektivlashtirish. Iqtisodiy tanglikdan chiqib ketildi
- 70-yillar — GDR ishlab chiqarish hajmi bo'yicha sanoati rivojlangan eng ilg'or o'nta mamlakat qatoriga kirdi va Yevropada beshinchi o'rinni egalladi
- 1971-yil may — mamlakat rahbari — Erik Xonekker. Iqtisodiy ahvolni yaxshilashga urinish. Demokratlashtirish talahi ostidagi namoyishlar.
- GFRga ommaviy qo'chib o'tish
- 1989-yili 7-oktabr — ommaviy mitinglar: Germaniyani birlashtirish va GSBD hukumatini tugatish talablari
- 1990-yili 18-mart — ko'p partiyalilik asosidagi saylovlar
- 1990-yll 3-oktabr — Germaniyaning birlashishi, GDR sanoatini tiklash muammosini hal etish

Savollar

?

1. Qanday voqealar sababli va qachon Germaniya ikkita davlatga bo'linib ketganligini eslang.
2. GDR tashkil topishi Germaniyaning sharqiy qismi iqtisodi rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
3. Germaniya qanday obyektiv va subyektiv sabablar tufayli yana birlashdi?
4. Birlashgan Germaniyada qanday asosiy muammolarni hal etish lozim?
5. Nima deb o'ylaysiz, 90-yillarda Germaniya rivojlanishining muqoblli varianti mavjud edimi?

17-§. VENGIYA: TOTALITARIZMNI RAD ETISR

**Respublika tashkil
topganligini e'lon
qillish**

1944-yil 2-dekabrda mamlakatdagi antifashistik demokratik kuchiar birlashgan Vengriya mustaqillik milliy

fronti (VMMF) tashkil qilindi. Unga Vengriya konimunistik partiyasi (VKP), Sotsial-demokratik partiya (SDP), Milliy dehqonlar partiyasi (MDP), Mayda qishioq xo'jaligi egalari partiyasi (MQXEP), Burjademokratik partiyasi (BDP) va kasaba uyushmalari kirdi.

Urush harakatlari davom etar ekan, antifashist kuchlar yangi Vengriya uchun kurash boshiadi. Ular fashizmni yo'qotish, milliy mustaqillikka erishish, xalq hokimiyatini qaror toptirish, antifeodal agrar islohotlarni amalga oshirishni o'z vazifalari deb e'lon qildi.

Bu partiyalar Muvaqqat hukumatni tuzdi. 1945-yil 20-yanvarda ularning vakillari Moskvada antifashistlar koalitsiyasi bilan yarashuv haqidagi bitimni imzoladi. 1945-yil martda Muvaqqat hukumat agrar islohot o'tkazdi. Unga ko'ra fashistlar bilan hamkorlik qillgan zamindorian yerlari musodara qilindi va dehqonlarga berildi. Yerlarning bir qismi davlat mulkiga o'tdi.

1945-yil kuzida parlamentga (Milliy majlis) saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlar shuni ko'rsatdiki, ahollning ko'pchiligi Mayda qishioq xo'jaligi egalari partiyasini yoqiadi. Ularga saylovchilarning 57 foizi ovoz berdi, ularning asosiy raqibiari bo'lgan kommunistlar atigi 16 foiz ovoz oldi. **1946-yil 1-fevralda** Vengriya respublika deb e'lon qilindi. Biroq mamlakatda sovet qo'shnilarining mavjudligi MQXEP o'z muvaffaqiyatini mustahkamlashiga imkon bermadi.

"Proletariat diktaturasi" o'rnatilishi

1946-yil dekabrda "demokratik davlat tuzumini ag'darish maqsadida fitna" aybi

bo'yicha MQXEP yo'lboschchilarning katta guruhi qamoqqa olindi. Partiya rahbarligiga kommunistlarga moyil kayfiyatli siyosiy arboblar tayinlandi.

1947-yil 31-avgustda yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Kommunistlar bor-yo'g'i 22 foiz ovoz oldi. Bu bir yil oldingidan ancha ko'p edi, biroq bir partiyali huku-

matmi tuzish uchun yetarli bo'lmadi. Kommunistlar endi uch partiya bilan (SDP, MQXEP, MDP) blokda qatnashib, unda yetakchl rol o'ynadi. 1947-yil noyabrdagi Davlat majlisi (venger parlamenti nomi) yirik banklarni natsionalizatsiya qildi. So'ngra o'rta va yirik sanoat korxonalari ham natsionalizatsiya qllindi. Qariyb butun iqtisodiyot davlat nazoratiga o'tdi. Boshqa sotsialistik mamlakatlardagi kabi, venger iqtisodiyotida ham boshqarishning zo'raki va rejali usullari ustuvor turdi.

1948-yil iyunda SDP va VKP birlashdi. Yangi partiya Vengriya mehnatkashlar partiyasi (VMP) deb atala boshladi. U mamlakatda o'z to'liq siyosiy hukmronligini "proletariat diktaturasi" shaklida qaror toptirdi. O'sha yili VMP mamlakatda sotsializm qurish haqida e'lon qildi. Yangi muddatdan oldingi saylovlар o'tkazldi, unda VMP 70 foiz ovoz va 70 foizdan ortiq deputat mandatini oldi.

**Totalitar rejimning
o'rnatilishi.
Qatag'onlar**

1949-yil 20-avgustda Davlat majlisi proletariat diktaturasini qonumiy mustahkamlagan niamlakat konstitutsiyasini

qabul qildi. Vengriya Xalq Respublikasi e'lon qilindi. Hokimiyat Davlat kengashl va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari timsolida mehnatkashlarga tegishli edi. Asosiy vositalar davlat va kooperativlarniki bo'lib, kooperativlar davlat korxonalaridan kam farq qilardi. Xususiy mulkka cheklangan miqdorda yo'l qo'yildi. Konstitutsiyaga muvofiq mehnatkashlarga keng ijtimoiy huquq va erkinliklar berildi.

1950-yil iyunda Vengriyada ilgarigi o'z-o'zimi boshqarish organlarini almashtirgan mahalliy kengashlar tuzildi. Vengriyada sovet tizimiga xos boshqaruv shakllari qaror topdi. Qishioq xo'jaligini jamoalashtirish o'tkazildi.

Venger kommunistlari ilk yutuqlardan va ularga erishish osonligidan ruhlangan holda mamlakatdagi muxolifatni tugatish va VMPning monopol hokimiyatli totalitar rejimini o'rnatishga qaror qilishdi. 1949-yil boshlarida respublikaga qarshi navbatdagi "fitna" fosh ettdi. Bu gal venger katoliklarining yetakchisi kardinal Mindsenti qatag'onlarga duchor bo'ldi. U Amerika

elchixonasiga qochib qutildi. Shu bilan birga katolik doiralar bilan bog'liq bo'lgan demokratik xalq partiyasi man etildi. Siyosiy yo'li kommunistlardan farqlanuvchi bir qator tashkilotlar ham man etildi. Stalincha nusxadagi "sotsializm"ni mamlakatda Matyash Rakoshi (1892—1971) amalga oshirdi. 1919-yili u Bela Kun boshqargan Vengriya sovet respublikasi hukumattida arzimas lavozimda ishiagan, so'ngra Sovet Ittifoqiga qochadi. U bu yerdan maxfiy ravishda yashirin ishga qaytadi, 1925-yil umrbod qamoq jazosi oladi. 1940-yil noyabrda sovet hukumati M.Rakoshi va boshqa kommunistlarni venger milliy bayroqlariga almashadi, bu bayroqlar rus qo'shini tomonidan Budapeshtdagagi 1848-yil inqiloblari bostirilgach, bir yildan so'ng tortib olingan edi. U 1945-yili Vengriyaga qaytib, 1958-yilgacha partianing birinchi kotibi bo'lib ishladi.

1948-yili Vengriya xo'jalikni tikladi va 1949-yili birinchi besh yillik rejami bajarishga kirishdi. VXR sanoati rivojlanishi 50-yillar boshiarida mamlakat tarixida misli ko'rilmagan sur'atlarda kechdi. Birinchi besh yillik davrida (1950—1954) 75 dan ziyod sanoat korxonalari qurildi, o'nlab yangi shaxta va konlar ishga tushirildi. Yangi sanoat tarmoqlari — asbobsozlik, avtomobilsozlik, kimyo, mashinasozlik va boshqalar yuzaga keldi. Yangi kanallar, yo'llar, sanoat tumanlari va shaharlari paydo bo'ldi. Milliy daromad 50 foizdan oshdi. Vengriya agrarsanoat o'lkadan sanoat-agrar mamlakatga aylandi, milliy daromadmi shakllantirishda sanoatning solishtirma miqyosi besh yilda 50 foizdan 64 foizgacha o'sdi.

Bu yillar mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ma'muriy-buyruqbozlik rahbarlik uslubi qaror topdi. Bu, tovarlar va xizmat ko'rsatish sifatining keskin oshib ketishiga olib keldi. Baynalmilallik bahonasida, milliy qadriyatlar zarariga Sovet Ittifoqi va jamoaviylik targ'ib qilindi. Mamlakatda sovetparast partiya byurokratiyasi o'matildiki, u vengerlarning milliy tuyg'ularini haqoratlardi.

**Budapeshtdagি
1956-yil qo'zg'oloni
va uning natijalari**

1956-yilning 25-oktabrida
Budapeshtda jamiyatni demokratizatsiyalashni talab etgan ommaviy talabalar namoyishi bo'ldi. Bu voqealik aksilinqilobiy isyon deb



Budapeshtdagagi qo'zg'olon. 1956-yil oktabr.

baholandı va politsiya namoyishchilarga o't ochdi. Ertasi kuni Budapeshtga sovet tanklari kiritildi. Biroq endi kech bo'lgandi. Kelgusi kuni namoyishlar yana takrorlandi. Mahalliy hokimiyat organları xalq g'azabi to'lqinida surib tashlandi.

Bosh vazir etib **Imre Nad** tayinlandi, VMP rahbarligiga **Yanosh Kadar** ko'tarildi. Biroq endi qo'zg'oloni to'xtatib bo'lmasdi, jazo organları, hukumat muassasaları yoqib yuborildi. Qo'zg'olon qishloqqa ko'chdi. Yanosh Kadar sovet qo'shinlarining Karpat ortidagi lageriga qochdi. I.Nad Varshava Shartnomasidan chiqilishini e'lon etib, Vengriyadan sovet qo'shinlari olib ketilishini talab qildi va mamlakat daxlsiz ekanini ma'lum qildi.

1956-yil 4-noyabrda sovet tanklari yana Budapeshtga kirib keldi. Y.Kadar Vengriya inqilobiy ishchi-dehqon hukumati tuzilishi haqida xabar berdi. VMP Vengriya sotsialistik ishchi partiyasiga (VSIP) aylantirildi. To'rt kun mobaynida vengerlarning qarshilik ko'rsatishi bostirildi. I.Nad qamoqqa olindi, davlatga xiyonat qilişda ayblandi va oliy jazoga hukm qilindi. U 1958-yil 17-iyunda qatl etildi.

Mamlakatni isloh etishga urinishlar

di. O'shanda iqtisodiyotni isloh qilish va ichki hayotni demokratizatsiyalash qadamlari qo'yildi. Islohot tovar-pul munosabatlardan ancha keng foydalanishni ko'zda tutdi. Kredit siyosati, xo'jalik hisob-kitobi, foyda kabi iqtisodiy omillar kuchaydi. Ijtimoiy ta'minot kengaydi.

Biroq, ayrim ijobiy natijalarga qaramay, iqtisodiyotni isloh etish undan kutilgan umidni oqlamadi. 1973—1974-yillarda uni amalga oshirish o'sha paytdagi rahbarlik bosimi ostida to'xtab qoldi. 80-yillar oxirlarigacha tub o'zgarishlarga kirishishga jur'at etmadi. **1988-yil mayda** VSIPda rahbarlik almashdi — Yanosh Kadar o'z o'mini **Karoy Grosuga** bo'shatib berdi.

Yangi rahbariyat siyosiy islohotga kirishdi. 1989-yil boshida VSIP o'zining monopoliyaligidan voz kechdi. Mamlakatda muxolifat siyosiy partiya va tashkilotlar tiklanishi boshlandi. Vengriyaning parlament demokratiyasiga o'tishi yuz berdi.

VSIP Vengriya sotsialistik partiyasiga (VSP) aylantirildi. Partiya rahbariyati bozor iqtisodiyoti, parlament demokratiyasi va mulkchilik shakllari xilma-xilligi yo'lidan borilishini bildirdi.

1990-yil bahorida parlament saylovlarida **Vengriya**



Vengerlar milliy mustaqillik uchun. 1956-yil oktabr.

demokratik forumi g'alaqa qozondi. U huquqiy davlatni barpo etish, demokratik o'z-o'zini boshqarish, zarar keltiradigan korxonalarni xususiylashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishni yoqlab chiqdi. Bu partiya yo'l-boshchisi Yojef Antall MQXEP va boshqa partiylar bilan birgalikda koalitsion hukumat tuzdi. Mamlakat prezidenti etib Erkin demokratlar ittifoqi raisi **Ariada Gensa** saylandi. Mamlakatdagi siyosiy ahvol barqarorlashdi. 1998-yilda Vengriya NATOGa a'zo bo'lib kirdi.

2002-yil mayda venger sotsialistlari saylovlarda g'alaqa qozondi va ular yetakchisi **Peter Medgiyesi** bosh vazir bo'ldi.

Qisqacha mazmumi

- 1945-yil 20-yanvar — Vengriya vaqtli hukumati antigitler koalitsiyasi davlatlari blian yarashuv haqlida bitim imzoladi
- 1945-yil oktabr — Vengriya Respublika deb e'lon qilindi
- 1947-yil noyabr — yirik banklar, korxonalar natsionalizatsiya qilindi
- 1948-yil iyun — mamlakatda Vengriya mehnatkashlar partiyasi siyosiy hukmronligi o'rnatilishi
- 1949-yil 20-avgust — mamlakat yangi konstitutsiyasi qabul qilindi, proletariat diktaturasi mustahkamlandi
- 1950-yil iyun — mahailiy kengashiar tuzlidi
- Qishioq xo'jaligining jamoalaashtirilishi
- Taniqli siyosiy arboblarga nisbatan qatag'on
- Matyash Rakashi — stalincha tipdag'i "sotsializm" qurilishi
- 50-yiliar — sanoat rivojlanishi sur'atlarining jadalashuvi, Vengriyaning agrar-sanoat mamlakatidan sanoat-agrar davlatga aylanishi
- 1956-yili — totalitar tuzuma qarshi qo'zg'olon
- 1989-yil yanvar — mamlakatning parlament demokratiyasiga o'tishi
- 2002-yil — sotsialistlar yetakchisi Peter Medgiyesi bosh vazir

Savollar

- ? 1. Vengriyada 1945-yilda o'tkazilgan islohotlarni sanang.
2. 50-yillarda mamlakatda islohotlarni o'tkazishda qaysi siyosiy kuchlar ishtirok etdi va bu islohotlar natijasida qanday ijtimoiy tuzum o'rnatildi?

- Budapeshtda 1956-yilgi qo'zg'olon sabablarini ayting va uning yakunlarini keltiring.
- Nima deb hisoblaysiz, nima uchun sotsializmning sovet modeli Vengriya aholisi hayotini yaxshilay oimadi va mamlakat aholisi birlashishiga imkon yaratdi?

18-§. RUMINIYA: DEMOKRATIYAGA O'TISH

Demokratik islohotlarni o'tkazish 1945-yil 6-martda Ruminiyada Xalq-demokratik fronti hukumati tuzildi. Taniqli

siyosiy arbob **Petru Groza** bosh vazir bo'ldi. Bu mamlakatdagi birinchi demokratik hukumat edi. Dehqonlar yerga ega ho'ldi, davlat apparati sobiq fashistlar, harbiy jinoyatchilar va reaksiyonerlardan tozalandi.

Biroq uning siyosati hokimiyatdan ajralishni istamagan sobiq rahbarlar qarshiligiga uchradi. Ular qirolik hokimiyati va qirol Mixay atrofiga jipslashdi va demokratik islohotlarni amalga oshirishga to'siq bo'ldi.

1946-yil noyabrda rumin parlamentiga umumiy va yashirin saylov huquqi asosida ilk saylovlar bo'ldi. Mamlakat demokratik kuchlari Demokratik partiylar blokiga (DPB) birlashdi va 80 foiz ovoz olib, g'alaba qozondi. Hukumatni yana Petru Groza boshqardi.

Bu Ruminiyada yangi demokratiyaning g'alabasi edi, uni xalqchil desa bo'lardi, chunki rumin xalqining ko'pchiligining irodasi unda o'z ifodasini topgan edi. Yangi hukumat darhol demokratik islohotlarni o'tkazishga kirishdi. Hukmron sinflar mulkchiligi, banklar natsionalizatslya qilindi, pul islohoti amalga oshirildi, monopol birlashmalar — kartel va trestlar tugatildi. Islohotlar mamlakat ahvolini ancha yaxshiladi.

Ruminiya Xalq Respublikasining qaror topishi

1947-yil 30-dekabrda Ruminiyaning so'nggi qiroli — Mixay o'ziming toj-taxtdan voz kechganini bildirdi. Ruminiya Xalq Respublikasi deb e'lon qilindi.

Biroq shu bilan xalqning demokratik o'zgarishlar davri tugadi. Ruminiya totalitar tuzum qaror topishi yo'liga o'tdi. Kommunistik partiya o'z asosiy raqiblarini siqib chiqardi, muxolifatni man etdi, axborot vositalariга yakka hokimlik o'matdi.

1948-yilning fevralida kommunistik va sotsial-demokratik partiya **George Georgiu Dej** rahbarligida Rumimiya ishchi partiyasiga (RIP) birlashdi. Petru Groza 1952-yilgacha bosh vazir o'mida qoldi, so'ngra iste'foga chiqdi.

1948-yilning aprelida Ruminiya yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Oliy Milliy majlis qonunchilik hokimiyatining oliy organi bo'ldi.

**50—60-yillarda
RXR iqtisodiyoti
rivojlantishi**

Mamlakatda butun sanoat natsionalizatsiya qillndi, unga rahbarlik qilish maqsadida 1951—1955-yillar respublika

iqtisodiyotini rivojlantirish uchun birinchi besh yillik reja tasdlqlandi. Bu yillarda 100 ta yirik korxona qurildi, 200 tasi kengaytirildi va qayta qurildi. Mamlakatni keng miqyosda elektroslashtirish boshiandi. Biroq sanoatni barpo etishdagi muvaffaqiyatlar rumin xalqi ahvoliga kam ta'sir ko'rsatdi. Davlat mulkchiligi monopoliyasi iste'mol mollari ishlab chiqarilishi rivojlamishini to'xtatib qo'ydi. Bozor munosabatlari to'liq tugatildi. 1954-yilgacha mamlakatda oziq-ovqatlarga kartochka tizimi saqlanib kelindi. 1952-ylgi pul islohoti zarur natijalarini bermadi, chunki erkin bozorning yo'qligi pulni uning haqiqiy vazifasidan mahrum etdi.

Totalitar iqtisodiyot ochiq-qoydin orqada qola boshlandi va RIP totalitar siyosiy tizimni shakkantirishga qaror qildi. **1952-yil sentabrda** qabul qilingan yangi konstitutsiya RPHI mamlakat siyosiy hayotida "rahbar kuch" deb e'lon qildi.

Georgiu-Dej shu yili Vazirlar Kengashi raisi bo'ldi.

Mamlakat davlat tuzilmasida mavqeim mustahkam-lagan G.Georgiu-Dej partiyada o'zining yakkahokimligini qaror toptirdi.

**G.Georgiu-Dej
diktaturasining
o'rnatilishi**

Bu maqomga erishgach, u sotsializm qurilishida "milliy tafovutlar" tarafdoi bo'lib chiqdi va N.Xrushevning

Stalin shaxsiga sig'inishni fosh etish bo'yicha faoliyatim qo'llab-quvvatladi. 1958-yilda u Ruminiyadan sovet qo'shinlarining olib chiqilishiga erishdi. To'llq erkinlikka erishgach, Ruminiya suverenitetini qaror toptirish bo'yicha mustaqil ishlarga kirishildi. O'IYK rejalariga

qarama-qarshi o'laroq, u Ruminiyani industrlashtirish rejasini ishlab chiqdi, bu sovet rahbariyati noroziligiga sabab bo'ldi.

1955-yilning dekabrida RIP mamlakat oldiga sotsialistik iqtisodiyotni barpo etish vazifasini qo'ydi. Og'ir sanoatni rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'ldi. Biroq buning uchun Ruminiyada poydevor yo'q edi. Ikkinchisi besh yillikda tarmoqqa barcha kapital mablag'larning 3/4 qismi yo'naltirildi. Qora va rangli metallar, og'ir mashinasozlik qayta qurildi.

**Georgiu-Dej George (1901—1965) — RXR Vazirlar
Kengashi raisi (1952—1955), RXR Davlat kengashi raisi
(1961—1965). 1961—1965-yillarda — mamlakat prezidenti.**

Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish yo'lidan borish 81 foiz barcha dehqon xo'jaliklarini birlashtirdi. 1962-yilda jamoalashtirish tugadi, do'konlarda esa asosiy oziq-ovqat mahsulotlari yo'q bo'ldi. Biroq partiya maqsadiga yetdi: mamlakatda xalqning "metin birligi"ga erishildi. 1965-yilning martida mamlakatda bo'lib o'tgan navbatdagi saylovlarda qariyb 100 foiz saylovchilar RIP rahbarligidagi Xalq demokratiyasi fronti nomzodlariga ovoz berdi. Shu yili partiya Ruminiya kommunistik partiyasi (RKP) deb qayta nomlandi.

N.Chaushesku shaxsiga sig'inish 1965-yili G.Georgiu-Dej va
fot etgach, diktatorlik roli
uning safdoshi **Nikolaye Chausheskuga** (1918—1989) o'tdi, u 1974-yili mamlakat prezidenti bo'lib va o'limigacha uni boshqardi.

N.Chaushesku shaxsiga sig'inish tarixda o'xshashiyo'q. U hokimiyatga o'zining butun urug'-aymog'ini olib keldi: qariyb 40 nafar eng yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimlarida ishladi. Uni "boquvchilarning eng donosi", "kelajakni oldindan ko'rvuchi" deb atashdi. Ruminiyaning 1965-yildan keyingi tarixi "Chaushevskuning oltin davri" deb nomlandi. U partiya, mamlakat va xalqni to'liq nazorat qildi. Mahalliy partiya tashkilotlari unga bevosita bo'ysundi, partiya va davlat lavozimlarini bir paytda egallash tamoyili RIP nomenklaturasining hokimiyatga monopoliyasini ta'minladi.

N.Chaushevskuning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi

qisqa muddatda mamlakatning sanoati rivojlangan davlatlardan ortda qolishini tugatishni ko'zda tutdi. Bu maqsadda tezkor industrializatsiyaga kirishildi: yirik neft-kimyo korxonalari barpo etildi, avtomobil va traktor ishiab chiqarish rivojlandi. Ruminiya xorijdan kreditga qurilma va texnologiyalar sotib oldi. Xalqaro banklar tomonidan mamlakat rivojlamishi uchun kreditga ajratgan qarzi 21 milliard dollarga yetdiki, Ruminiya buni to'lashga qurbi yetmay qoldi.

Ulkan inshootlar, qimmatbaho korxonalar, ba'zan hech kimga keraksiz binolar qurildi, aym paytda yengil va oziq-ovqat sanoati deyarli rivojlanmadidi. Bu hol ichki bozorda iste'mol tovarlarining o'tkir yetishmovchiligiga sabab bo'ldi. Jamoalashtirish tufayli qishloq xo'jaligidagi yuzaga kelgan mehnat mahsulotining pastligi, yem va o'g'itlar yetishmasligi aholining oziq-ovqatlarga ehtiyojni qondirishga imkon bermadi.

1989-yil inqilobliy voqealari va ularning yakunlari

N.Chaushesku 24 yil Ruminiya diktatori bo'ldi. Mamlakat vayrona bo'lish holatiga kelib qoldi. 80-yillar boshlari-

da iqtisodiyot o'ta og'ir ahvolda qoldi. Neft qazib chiqaruvchi mamlakatda benzin, mazut, kerosin, mashina moyiga o'tkir yetishmovchilik yuzaga keldi. Qarzlarни to'lash hisobiga chetdan keltirilgan eksport sanoat va oziq-ovqat tovarlari ichki bozormi inqirozga olib keldi. Mamlakatda uy-joy yetishmasligi o'tkir sezildi.

1989-yil dekabrning o'talarida Timishoar shahrida (Transilvaniya) "Chausheksu yo'qolsim!" shiori ostida ommaviy tartibsizliklar boshlandi. Chausheksu qo'shin yubordi, bu qo'shin politsiya va xavfsizlik organlari bilan birga namoyishchilarini tarqatdi. Norozilik to'lqini Buxarestga yetib bordi. **1989-yil 22-dekabrda** Buxarestning markaziy maydomi milliy bayroq ko'targan minglab kishilarga to'ldi. Namoyishchilar RKP MK binosini egallashdi. 25-dekabrda N.Chaushesku va uning xotimi Yelena mamlakatdan qochish chog'ida qamoqqa olindi va sud qarori bilan otib tashlandi. Chausheksuning "oltin davri" va Ruminiyadagi antikommunistik inqilob shu bilan tugadi.

Hokimiyat **Ion Iliyesku** (1930-yilda tug'ilgan) boshehiligidagi milliy qutqaruv frontiga (MQF) o'tdi.

Iliyesku RKP rahbariyatining sobiq a'zosi bo'lib, Chaushesku siyosatidan noroziligi tufayli ishdan chetlatilgan edi.

Mamlakatda g'ayritabliy inqilob yuz berdi: hammaning g'azabiga uchragan mustahid yo'q qilindiyu, uni yuzaga keltirgan tashkilot saqlamib qoldi. 1990-yilgi parlament saylovlarida MQF quyl palata va senatda mutlaq ko'pchilik o'rinni etib. Ruminiya prezidenti I. Iliyesku saylandi. Shu yil 13-iyunda namoyishchilar va politsiya o'rtasida to'qnashuv ro'y berdi. Bir qator hukumat binalari yoqib yuborildi. Hukumat tartibsizliklarni bostirish uchun viloyatdan 10 ming shaxtyorni chaqirdi, ular o'ta shafqatsizlik bilan harakat qilib, Chaushesku diktaturasi ag'darilgandan so'ng tiklangan milliy-liberal va milliy-saranistik partiyalar shtab-kvartiralari tor-mor etildi.

Biroq aholiming turmush darajasi pasaya bordi. Hukumatni qo'llab-quvvatlagan shaxtyorlar 1991-yil sentabrda yana Buxarestga kelishdi. Ularning hukumat bilan muzokarasi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, shaxtyorlar hukumat rezidensiyasi va telemarkazga hujum etishdi. Xavfsizlik kuchlari ularning ishg'ol etilishiga yo'l qo'ymadidi, biroq hukumat iste'soga chiqlishga majbur bo'ldi.

Mamlakatning bozor munosabatlariiga o'tishi

Ruminiyaning yangi rahbariyati katta kechikish bilan shuni tushundiki, iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatda islohot-

larsiz mumkin emas. 1991—1992-yiliarda bunday islohotlar boshlandi. Ularga ko'ra, davlat korxonalari hissadorlik korxonalariga aylantirildi. 1945-yildan so'ng musodara qilingan uy, kvartira, yerlar (10 gadan oshmag'an) ilgarigi egalariga qaytarildi yoki pul badali to'landi. Bu jarayonga narx oshishi, ishsizlik, ijtimoiy tanglik qo'shildi. **Muxolifat demokratik konvensiyaga** jipslashdi. Biroq so'l kuchdar ham bekor turmadi.

1991-yil 8-dekabrda Ruminiyada yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Mamlakatda ko'p partiyali tizim tasdiqlandi. 1996-yilda davlat tasarrufida bo'lgan barcha korxonalar xususiylashtirildi. O'sha yilning noyabrida o'tkazilgan saylovlarda kommunistlar o'zlarining barcha lavozimlaridan mahrum bo'lishdi. Biroq **2000-yilgi** saylovlarda **I. Iliyesku** yana prezident qilib saylandi.

Qisqacha mazmum

- 1945-yil 6-mart — G.Groza boshchiligidagi Xalq demokratik fronti hukumatining tuzilishi
- 1946-yil noyabr — parlamentga ilk saylovlar, demokratik saylovlar bloki g'abalasi
- Banklar va hukmon sinflar mulkchiligining natsionalizatsiya qilinishi, monopolistik birlashmalarning tugatilishi, pul islohoti o'tkazilishi
- 1947-yili 30-dekabr — mamlakat Ruminiya Xalq Respublikasi deb e'lon qilindi
- Totalitar tuzumning qaror topishi, muxolifat bilan kurash
- 1948-yil fevral — RKP va RSDPning Ruminiya ishchi partyasiga G.Georgiu-Dej boshchiligida birlashishi
- 1948-yil aprel — yangi konstitutsiya qabul qilinib, sanoat natsionalizatsiyasi, Gosplan tuzilishi
- 1951—1955-yiliar — iqtisodiyotni rivojlantirishning birinchi besh yillik rejası
- G.Georgiu-Dej yakkahokimligi
- 1958-yil — Ruminiyadan sovet qo'shnları olib chiqilishi
- 1961-yil — G.Georgiu-Dej — mamlakat prezidenti
- 1962-yil — jamoalaştırlıshın işləri təgallanishi. Uning salbiy oqlbatianı
- 1965-yil — G.Georgiu-Dej vafotidan so'ng diktatorlik roli Nikolae Chausheskuga o'tishi, u 1974-yıldan — mamlakat prezidenti
- Chaushesku shaxsiga sig'inish
- Mamlakatni tezkor industrılashtırısh
- 1989-yil — xalq qo'zg'oloni
- 1989-yil 25-dekabr — N.Chaushesku davlatga xiyonat qilgani uchun qatl etildi
- Milliy qutqaruv fronti (MQF) tuzildi
- Ion Iliyesku — Ruminiya prezidenti
- Iqtisodiy ahvolının yomonlashuvi, shaxtyorlarning norozilik chiqishi, hukumatni ag'darishga urinish
- 1991—1992-yiliar — islohotlarning o'tkazilishi, davlat mulkchiligining tugatilishi
- 1996-yili — mamlakat prezidenti etib liberal partiya yo'boshchisi I.Konstantinesku saylandı
- 2000-yil — I.Iliyesku president etib saylandı.

Savollar

- ?
1. Ruminiya hukumatiga urushdan so'ng qanday muammo-larni hal etish zarur bo'ldi va ular qay tarzda yechildi?

- Ruminiya respublika deb e'lon etilgandan keyin mamlakatda totalitar tuzum o'rnatila boshladi, degan fikrga qo'shilasizmi?
- Mamlakatning 50—60-yillardagi iqtisodiy rivojlanishi o'ziga xosliklarini sanab o'ting.
- Qanday deb hisoblaysiz, nima uchun Chaushesku shaxsiga sig'inish yuzaga keldi? Xalq qay tarzda bunga qarshi turishi mumkin edi?
- Chaushesku diktaturasi ag'darilgandan so'ng unga nisbatan hukumatning xatti-harakatlariga baho bering.
- Mamlakat bugungi kunda qanday muammolarni hal efishi lozim? Ruminiyaning bugungi kundagi ichki va tashqi siyosati haqida nimalarni bilasiz?

19-§. ALBANIYA: MILLIY TIKLANISI SARI OG'IR YO'L

Mamlakatning urush-dan keyingi iqtisodiy va siyosiy hayoti

Ikkinchи jahon urushidan so'ng qoloq qishioq xo'jallgi Albaniya iqtisodiyotining asosi bo'lib qoaverdi.

1946-yllgi agrar islohot davrida zamindor va quloglar yeri tortib ollnib, dehqonlarga berildi. Agrar islohot zamindorlarning iqtisodiy negiziga putur yetkazish va reaksiyon kuchlar ta'sirini kuchsizlantirdi.

1948-ylning noyabrida Albaniya kommunistik partiysi (AKP) mamlakatda sotsializm qurishni e'lon qildi. U **Alban mehnat partiyasi (AMP)** deb o'zgartirildi.

Ikki besh yillik rejalar bajarilishi chog'ida (1951—1955 va 1956—1960-yllar) Albaniya asosan texnik-iqtisodiy qoloqlikka barham berdi. U Durres portimi o'z harbiy-dengiz bazasiga aylantirish va shu yo'l bilan Adriatika dengizida nazorat o'rnatishni mo'ljallagan SSSRning strategik rejalarida muhilm o'rinn tutdi. Boshqa tomonдан, Albaniya Yugoslaviya bilan mojaroda umumiyy aksilyugoslav frontida janubiy qanot rolini o'ynashi lozim edi.

70—80-yillarda avtarkiya siyoasi

Sovet Ittifoqi yordami bilan dastlabki besh yilliklarda alban sanoatining o'zagi

barpo etildi: elektrostansiyalar, neftni qayta iskllovchi va shakar kombimatlari qurildi, toshko'mir, mis, temir-nikel va xrom konlari ochildi. 1956-yilga kelib Albaniya qoloq

agrар mamlakatdan agrар-sanoat mamlakatiga aylandи, 1960-yilda esa sanoat yalpi mahsuloti 1938-yilgi ko'rsat-kichilaridan 25 marta oshdi. Albaniyada sotsializm qurilishi sovet namunasi bo'yicha olib borildi. **Anvar Xo'ja** boshchiligidagi alban kommunistlari KPSS XX syezdi qarorlari va Stalin shaxsiga sig'inishni fosh etishga qarshi chiqdilar. SSSR bilan diplomatik aloqalar uzib qo'yildi. Albaniya O'ITYK va Varshava shartnomasi tashkilotidan chiqdi. So'ngra XXR unga moddiy va harbiy yordam bera boshladi. Biroq 1978-yili xalqaro siyosat masalalari bo'yicha kelishmovchiliklar tufayli bu ikki mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar ham to'xtadi.

Anvar Xo'ja (1908–1985) — Albaniya kommunistik partiyasini tashkil etgan (1941), to o'llimiga qadar uning dolimliyo'lboshchisi. Ikkinchil jahon urushi yillarda fashist bosqin-chilariga qarshi ozodlik harakati rahbari.

Albaniya biqqlikda qoldi. Ichki siyosatda o'z-o'zini ta'minlash, ya'ni avtarkiya yo'li bilan olib borildi. Bu siyosat Albaniyaning qoloqligini yanada mustahkamladi. Besh yillik rejalar barbod bo'ldi, oziq-ovqat va sanoat tovarlari kartochka bo'yicha taqsimlandi.

AMP rahbariyati mutlaq hokimlikni qo'lida saqlab, har qanday o'zgacha fikrlashni beshafqat bostirdi, xavfsizlik organlari butun aholi ustidan yalpi nazorat o'rnatdi. A.Xo'ja o'z hokimiyati davrida birgalikda partiyani tuzgan va fashistlarga qarshi kurashda ishtirok etgan kommunistlarning ko'pchiliginini ishdan chetlatgan yoki jismonan yo'q qilgan.

**R. Aliya. Davlat
siyosatidagi
o'zgarishlar**

A.Xo'ja vafotidan so'ng 1985-yilda AMP yo'lboshchisi etib **Ramiz Aliya** saylandi. U davr ruhiga muvofiq tizimga ba'zi tuzatishlar kiritdi, biroq uni to'liq saqlab qoldi. Yangi alban hukumati Sharqiy Yevropadagi o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lib, "**sotsialistik demokratiyani takomillashtirish**" yo'lini davom ettirishni bildirdi. Tashqi siyosatda eng ko'p o'zgarishlar ro'y berdi. SSSR, GFR bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi, o'zaro foydali asosda barcha Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlarni rivojlantirishga tay-

yorgarlik haqida bayonot berildi. 1988-yil fevralda Belgradda Albaniya Bolqon konferensiyasida Yugoslaviya, Bolgariya, Gretsiya, Ruminiya, Turkiya bilan birgalikda ishtirok etdi. Biroq markazlashgan va mafkuralashgan asosda yaratilgan iqtisodiy tizim nuray boshladi. Albaniyaning iqtisodiy ahvoli keskin yomonlashdi. 1989—1990-yillarda milliy daromad 13 foizga qisqardi. Ishsizlik o'sdi, narx-navo osha boshladi. Talabalar norozilik harakati kuchaydi, o'n minglab kishilar chet elga qochishga harakat qildi.

Ramiz Aliya (1925-yilda tug'ilgan) — Albaniya prezidenti (1991—1992), Albaniya mehnat partiyasi MK birinchi kotibi (1985—1991).

Mamlakatni isloh etishga urinishlar

AMP rahbariyati eski tizimni saqlab qolishning istiqbolsizligiga ishonch hosil qilgach, mamlakatda ko'ppartiyaviylikni joriy etish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, yangi iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarni tashkil etish ("chinakam sotsialistik jamiyat") haqida qaror qabul qildi. Mamlakatda talabalar, ziyorolar, dehqonlar va mayda hunarmandlar manfaatlarini aks ettiruvchi yangi — agrar, demokratik va respublikachilar partiyalari shakllana boshladi.

1991-yil martda Albaniyada ilk marta umumiyo ko'ppartiyaviy saylovlar bo'lib o'tib, unda AMP 65 foiz ovoz oldi. Mamlakat prezidenti etib R.Aliya saylandi. Parlament qo'shin, huquqni saqlash organlarini depolitizatsiya qildi va bozor munosabatlarini rivojlantirish hamda davlat mulkchiliginini xususiylashtirish dasturini ma'qulladi.

Islohotlar boshlandi, biroq AMP hokimiyatda qoldi. **1992-yili** Albaniyada yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Agrar partiya demokratik partiya bilan ittifoq tuzib, qishloq joylarda ko'pchilik ovoz oldi. Demokratik partiya parlamentda uchdan ikki qism o'rinni ishg'ol etdi. **1991-yil iyundan** Albaniya sotsialistik partiyasi (ASP) deb atala boshlagan AMP parlamentda kamchilikni tashkil etdi. Demokratlar partiyasi yo'lboshchisi **Sali Berishu** Albaniya prezidenti etib saylandi. Iqtisodiy hayoti sezilarli jonlandi. Yer xususiy qo'llarga o'tdi. 1995-yili

mamlakat yo'llarni ta'mirlash, suv va energetika tizimi-ni rivojlantirish uchun 350 million dollar yordam va xorijiy investitsiyalar ko'rinishida mablag' oldi. 1996-yil sanoat ishiab chiqarish o'sishi rekord raqam — 16 foizni tashkil etdi.

**Sotsialistlarning
hokimiyatga kelishi**

Berishu rejimida korrupsiya mislsiz miqyosga yetdi. Berishuning o'zi barcha radio va televizion stansiyalarni o'z qo'l ostiga oldi, sotsialist va sobiq kommunalistlar qatag'onga duchor etildi. Ularning yo'lboshchisi, sobiq bosh vazir Fato Nano korruptsiyada ayblandi va 12 yil qamoq jazosiga hukm etildi. Sotsialistik partiyaning boshqa a'zolari "genotsid haqidagi qonun"ga ko'ra davlat lavozimlarida 2002-yilgacha ishslash huquqidan mahrum etildi.

Berishu AQSH bilan yaqm̄ aloqalarni o'rnatdi, Kosovani Albaniyaga qo'shib olishga erishish uchun va'da berdi. AQSH bunga javoban Albaniyada zamona-viy harbiy-havo bazasini qurishga va'da berdi.

1997-yil martda Albaniya janublda sotsialistlar rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi. Tez orada u umumxalq miqyosiga yetdi. Qo'shin prezidentni himoya qilishdan voz kechdi, Berishu mamlakatdan qochdi. Fato Nano va uning izdoshlari qamoqdan ozod etildi va sotsialistlar hokimiyatga keldi.

Biroq, 1999-yll bahorida mamlakat Kosovada etnik mojarolarga jalb etildi, undan serblar etnik albanlarni quvib chiqara boshiadi, 440 ming kishi Albaniyaga qochib o'tdi. Mamlakat bosh vaziri etib sotsialist Ilir Meta saylandi. U mamlakat iqtisodiyotini yangilash, jinoyatchilikni tugatish, yuridik va soliq tizimini isloq qilishga urindi, biroq o'z siyosiy raqibiариминг qarshiligi-duch keldi va 2002-yil iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. 2002-yil iyundagi prezidentlik saylovlarida sobiq general Alfred Moisim g'alaba qozondi, umi sotsialistlar ham, demokratlar ham qo'llab-quvvatladi. Fato Nano mamlakat bosh vaziri bo'ldi. Qariyb 10-yil mobaynida Albaniya iqtisodiyoti turg'unlikni boshidan kechirdi. Aholining 25% ishsizlardir. Mamlakatda norozilik boshlandi.

Qisqacha mazmuni

- 1946-yli — agrar islohot
- Alban mehnat partiyasi: sotsializm qurilishi e'lon qilinishi
- Besh yillik rejalar (1951—1960-yiliar) — texnik-iqtisodiy qolqolikning tugatilishi.
- Albaniya — Bolqondagi stalinizm qo'riqxonasi; komunistlar yo'lboschchisi — A.Xo'ja
- O'LYK va VSHTdan chiqqlsh, SSSR bilan diplomatik munosabatlarning uzilishi, avtarkiya siyosati
- Iqtisodiy qlyinchiliklar (kartochka tizimi), o'zgacha tikrashning bostirilishi, totalitar nazorat
- 1985-yil — A.Xo'ja o'limidan so'ng AMT yo'lboschchisi R.Aliya "sotsialistik demokratiyanı takomillashtirish" yo'ldan boradı
- SSSR, GFR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlar tiklandi
- 1989—1990-yillar — iqtisodiy ahvolning yomonlashuv, talabalarning norozilik chiqqlishi
- Ko'ppartiyaviylik, bozor munosabatlarga o'tish
- 1991-yil mart — dastlabki ko'ppartiyaviy saylovlari
- 1992-yil — Sail Berishu mamlakat prezidenti etib saylandi
- Chet el kreditlari hisobiga iqtisodiy o'sishning tezlashishi;
- 1997-yili mart — xalq qo'zg'oloni, Berishuning chet elga qochisbi, hokimiyat boshida Fato Nano boschchiligidagi sotsialistlar
- 1999-yili — Kosovadagi etnik mojarolarda ishtirok etish
- 2002-yil — mamlakat prezidentligiga Alfred Moisiu saylandi.

Savollar

?

1. Albaniyaning 50—60-yillar iqtisodiyoti qanday rivojlandi?
2. Albaniya hukumatining avtarkiya siyosatiga o'tishini siz qanday tushuntirib berasiz? 70—80-yillarda mamlakatda yuzaga kelgan muammolarni hal etishning o'z yo'lini tasvirlab bering.
3. Albaniyada 90-yillarda qanday isiohotlar o'tkazildi? Ular o'z maqsadiga erishdilarmi?

20-§. YUGOSLAVIYA: RIVOJLANISH YO'LNING ZIDDİYATLARI

Ikkinchı jahon urushihing mamlakat uchun yakunları

AQSHda jami halok bo'iganlardan hani ko'p. Bosqinchilar ko'plab metallurgiya, kimyo, to'qimachilik sanoati korxonalarini yo'q qildi yoki ishdan chiqardi, ko'priklarni portlatdi, 223 shaxtani, barcha temir yo'llarni buzib tashladi yoki zarar yetkazdi.

Urush harakatlari hali davom etayotgan paytdayoq amiq bo'ldiki, Yugoslaviyada ilgarigi markazlashgan davlat tuzumiga qaytish bo'lishi mumkin emas. **1945-yilning aprel-mayida** Serhiya, Xorvatiya, Makedomiya, Chernogoriya, Bosniya va Gersogovina, Sloveniya hukumatni tuzildi. Yugoslaviyada yangi davlat apparati tashkil topdi. 1945-yil martda **Iosif Broz Tito** Belgradda Yugoslaviyani ozod etish milliy qo'mitasi vakillaridangina iborat hukumatni shakllantirdi.

Respublikaning e'lon qilinishi

Ta'sis skupshinasiga saylovlari komunistlar nazorati ostida o'tdi. **1945-yil 29-noyabrda** Ta'sis skupshinasini monarxiyami bekor qildi va **Yugoslaviyani Pederativ Xalq Respublikasi (YFXR)** deb e'lon qildi. 1946-yil 31-yanvarda Skupshlna yangi konstitutsiyami tasdiqladi. Yugoslaviya olti teng huquqli respublika — Serhiya, Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Chernogoriyani birlashtiruvchi federatsiya deb e'lon qilindi. Serbiya tarkibida muxtor o'lka Voyevodina va muxtor viloyat Kosovo-Motoxiya tashkil etildi.

O'z mavqeini mustahkmlagan kompartiya (YKP) muxolif siyosiy tashkilotiarni tugatdi. Londondagi muhojir hukumatning sohlq mudofaa vaziri Draje Mixaylovich gitierchilar bilan hanikorlik va harbiy jinoyatlarda ayblanib, otib tashlandi. Sloven kollaboratsionistlari (fashistlarga xizmat qilgan vatan xoinlari) yo'boshchisi Ruников taqdiri ham shunday bo'ldi. Shu tariqa mamlakatdagi siyosiy ahvol bar-qarorlashdi.

YFXR iqtisodiyotining rivojlanishi

1945-yil avgustdayoq agrar islohot o'tkazildi. Eng ko'p, ya'ni 25—35 ga yer egaligi belgilandi. Hamma yirik yer mulklari, shu jumladan, monastir, cherkov, bank yerlari to'lovsiz davlat yoki xususiy dehqon qo'liga o'tdi. Hammasi bo'lib 1,566 ming hektar yer musodara qilindi. Ularning yarmidan ko'pini dehqohlar, 270 ming hektar yerni davlat oldi. Agrar islohot natijasida zamindorlar yer mulklari tugatildi.

Iqtisodiy o'zgarishlarning keylning bosqichi sanoatdag'i xususiy mulkchilikni tugatish bo'ldi. Barcha xususiy korxonalar arzon sotib olish evaziga natsionalizatsiya qilindi. Natijada iqtisodiyotning sotsialistik sektor hukmron mavqega ega bo'ldi. Yirik va o'rta burjuaziya tugatildi.

Yugoslaviyada iqtisodiyotni rejali rivojlantirish tathiq etila boshiadi. 1946-yil fevralda ittifoq reja komissiyasi tashkil etildi, yillik va besh yillik rejalarga tayyorgarlik ko'rildi.

Yugoslaviyada iqtisodiy bunyodkorlik muvaffaqiyatli boshiandi. 1947-yilga ketib urushgacha bo'lgan darajaga keldi. 1947—1951-yillarda birinchi besh yillik reja amalga oshirildi. Uning asosiy vazifalari Yugoslaviyami industplash va elektrorashtirish, qoloq agrar davlatdan industrial-agrar mamlakatga aylantirish edi.

Yangi sanoat korxonalari, elektrostansiyalar, katta yo'llar qurila boshlandi, sanoatning yangi tarmoqlari, asosan og'ir sanoat barpo etildi. Qishloqda ommaviy jamoalashtirish siyosati olib borildi.

Madamiyat sohasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakatda ta'lim bepul bo'ldi; maktab cherkovdan ajratildi; yangi o'quv muassasalari yuzaga keldi; savod-sizlikni tugatishga kirishildi.

Iqtisodiy va madamiy rivojlamish rejalarining amalga oshirilishida Sovet Ittifoqi yordami katta rol o'ynadi. **1945-yil 11-aprelda** I.Broz Titoning Moskvaga tashrifi chog'ida do'stlik, o'zaro yordam va urushdan keyingi liamkorlik haqida shartnoma imzolandi.

SSSR va Yugoslaviya o'rtaсидаги мояролариниң сабаблари Biroq keyinchalik SSSR va Yugoslaviya o'rtaсидаги мунисабатлар бузилди ва секин-аста душманлик дарajasiga yetdi.

Mojaroning asosi ikki davlat siyosatidagi ulug'-davlatchilik tendensiyalari edi. Yugoslaviya rahbariyati Bolqon yarimorolida rahbarlik roliga da'vogarlik qildi. U Albaniya hududiga yugoslav aviapolkini joylashirishga urindi, so'ngra barcha Bolqon mamlakatlari kirishi lozim bo'lgan Bolqon federatsiyasini tuzish bo'yicha keng faoliyat ollb bordi. Yugoslavlya hukumatining ko'plab tashqi siyosiy tadbirlari sovet hukumati bilan kelishmay amalga oshirildi. Zero, Yugoslaviya va SSSR o'rtasida o'zaro manfaatlarni ifodalovchi barcha muhim xalqaro masalalar bo'yicha ikki tomonlama maslahatlar haqida protokollar imzolangan edi.

Bu hol Stalinning jig'iga tegdi. Uning shaxsiga sig'inish sharoitida ittifoqchilar siyosatidagi mustaqillikning bunday namoyon bo'lishi mavjud muammolarni sun'iy mushkullashtirish va yangllarining yuzaga kelishi-ga sabab bo'ldi. Yugoslaviyadan sanoat korxonalari va harbiy ohyektlar qurilishida yordam bergen sovet mutaxassislari chaqirib olindi. 1949-yilning o'talaridan SSSR Yugoslaviya bilan iqtisodiy aloqalarni qariyb to'xtatib qo'ydi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham shunday yo'l tutishdi.

Bunga javoban YKP rahbariyati SSSRga qarshi targ'ibot kompaniyasihi boshiab yubordi. KPSS marksizm-leninizmni taftish qilishga o'tish, gegemonlikda ayhlandi. Bu kompaniya YKP VI syezdida, partiya Yugoslaviya kommunistlari ittifoqi deb qayta nomlanganda yuqori nuqtasiga yetdi. 1953-yildan, Stalin vafotidan so'ng ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar tiklandi.

SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar bilan munosabatlarning uzillshi yugoslav iqtisodiyotiga og'ir ta'sir etdi. 50-yillar boshlarida Yugoslaviya iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. U kapital mablag'lar yetishmovchiligini boshdan kechirdi, ulkan qurilishiar to'xtab qoldi, malakali kadrlar yetishmadi.

**"O'z-o'zini boshqarish
sotsializmi" tamoyil-
larining tatbiq etilishi**

qaror qildi. Iqtisodiy va siyosiy boshqarishning yangi shakl, tuzilma va usullari ishlab chiqildiki, ular "o'z-

Bu sharoitlarda Yugoslaviya rahbariyati mamlakat iqtisodiy tuzilmasida tub o'zgarishlarmi amalga oshirishga

o'zini boshqarish sotsializmi" deb nomlandi. U bozor iqtisodiyotiga yaqm edi. Korxonalarga ishchl kengashlari rahbarlik qila boshiadiki, ular o'zlarini ishlab chiqarish rejalarini tuzishar, ularni amalga oshirishmi nazorat etar, mehnat intizomi haqida g'amxo'rlik qilar, korxonanining sof daromadini xodimlar o'rtasida taqsimlar edi. Zotan, davlat rejalari esa umumiyl prinsipial yo'naliishlarnigima belgllardi, xolos.

Joylarda o'z-o'zini boshqarish yo'lga qo'yildi. Mahalliy organlar demokratik asosda saylandi. Xalq qo'mitalari ikki palatadan iborat edi: biri butun aholi tomonidan, ikkinchisi — mahailly miqyosda ishlab chiqarish masalalarini hal etuvchi ishlab chiqaruvchi kuchlar vakillari tomonidan saylanardi. Kolxozlar tarqatib yuborildi. Erkin savdo-sotiq, yerni ijaraga olish, yollanma ishchl kuchidan foydalanishga ruxsat berildi. Aym paytda yerga egalik hajmi 10—15ga miqdorida kamayti-rildi, bu yirik yer egaligi o'sishlarning oldini olish uchun qilindi.

Partiya siyosiy va mafkuraviy ishlarmi o'zida qoldirib, mamlakatning iqtisodiy va davlat hayotidagi bevosita tashkilotchi hamda rahbarlik rolidan voz kechdi. **1953-yilning yanvarida** Konstitutsiyaviy qonun qabul qillindi, unga ko'ra YFXR ijtimoiy va siyosiy qurilishlagini o'zgarishlar "o'z-o'zini boshqarish sotsializmi"ga muvofiq olib borildi. Davlat hokimiyatining oliv organi Ittifoq xalq skupshlnasi bo'ldi. U ikki palata: Ittifoq vechesi va Ishiab chiqaruvchilar vechesidan iborat edi. **Ittifoq xalq skupshinasi I.Broz Titoni** mamlakat prezidenti va liukumat rahbari etib sayladi. YFXR totaltarizmdan voz kechdi.

50—60-yillarda mamlakat rivojlanishi yakunlari

O'zgarishiar mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir etdi. 50-yillar oxirlariga kelib sanoat ishlab chiqarishi hajmi urushgacha bo'lgan darajaga nisbatan 3 marta, qishioq xo'jalik mahsulotlari esa 40 foizza o'sdi. Elektr energiya ishlab chiqarish va neft qazib chiqarish oshdi. Canoatning elektrotexnika, kimyo, metallurgiya sohalari mahsuloti ulushi tez o'sdi. Aholi turmush darajasi o'sishi kuzatildi. Yugoslaviya sanoat mahsuloti jahon bozorida raqohatbardoshlikka erishdi.

1965-yilda Yugoslaviyada mamlakatni industriyashtirish tugadi. Sanoat va qurilish birligida milliy daromadning 55 foizimi berdi. Mashinasozlik sanoati keng rivojlandi, uming mahsulotlari jahon bozoriga chiqdi. 1962-yili Skopeda Bolqondagi eng yirik metallurgiya kombinatlari qurila boshladi.

1966—1970-yillardagi islohotlarga muvofiq dimor kursi o'zgartirildi, eksport va import bevosita korxonalarining o'zida, davlat tomonidan minimal nazorat etilgan hoida amalga oshirildi. Islohotlar korxonalar huquqining kengayishiga olib keldi. Korxonalar ishi jahon bozorida mahsulot sifati, rentabelligi, raqobatbar-doshiиги bo'yicha belgilandi. Yangi korxonalar yangi ilg'or texnologiyalar bo'yicha qurildi. Sanoat rivojlamishi sur'atlari 80-yillar boshlariga kelib susaydi, biroq yugoslav sanoat mahsulotining sifati oshdi va mamlakat Yevropadagi iqtisodiy munosabatlarda sezilarli rol o'ynadi.

Separatistik harakatning o'sishi Aymi paytda bozor xo'jaligining rivojlamishi va respublikalar huquqlarining kengayishl separatoristik harakatning o'sishiga olib keldi. 70-yillar boshlarida mamlakatdagi siyosiy ahvol murakkablashdi. Millatchilik kuchlari faollashdi. 1971-yilning kuzida Xorvatiyada yirik g'alayonlar yuzaga keldi. Ularning ishtirokchilari mustaqil davlat tuzilishini talab etdilar.

1974-yilning fevralda ittifoqdosh respublikalar huquqlarini cheklovchi mamlakat konstitutsiyasi qabul qilindi. Xorvatiya, Serbiya va Voyevodimada millatchilik harakatlari vakillari davlat organlari rahbarligidan chetlatildi.

1974-yilning mayida I.Broz Tito cheklanmagan muddatga mamlakat prezidenti etib saylandi.

Iqtisodiyotning pasayish sabablari Tez orada mamlakatda iqtisodiy qiyinchiliklar boshianadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari pasaydi, inflyatsiya, narx-navo o'sdi. 1 millionga yaqin yugoslavlар Yevropaga ish qidirib ketdi. Aholining turmush darajasi pasaydi, bozorni eng zarur tovarlar bilan ta'mimlashda uzillshlar boshlandi, ish tashlashlar ko'paydi.

Iqtisodiy qiyinchiliklarning asosiy sababi ulkan qarz-

dorlik edi. Mamlakatning g'arb mamlakatlariiga qarzdorligi 40 milliard dollarni tashkil etdi, Yugoslaviyada uni qoplash uchun manbalar yo'q edi.

Yugoslaviyadagi siyosiy vaziyat ko'p jihatdan prezident I.Broz Titoning shaxsiy obro'yi bilan bog'liq bo'ldi. U davlat va partiya rahbari, e'tirof etilgan xalq qahramoni, fashizm va totalitarizmga qarshi kurashchi, Qo'shilmaslik harakatining rahbari edi. Uning ta'siri mamlakatda ham, xalqaro darajada ham yuqori bo'lib keldi. U davlat va partiyani boshqarish tizginini o'z qo'lida 35 yil ushlab turdi. Tito **1980-yil 4-mayda** 88 yoshda vafot etib, o'zidan so'ng og'ir meros qoldirdi.

Broz Tito Iosif (1892–1980) — YFXR hukumati raisi (1946—1963), Yugoslaviya prezidenti (1953—1980). 1948-yildan mamlakatni rivojlantirishning o'z modelini ilgari surdi, SSSR yo'lidan voz kechdi. Qo'shilmaslik harakati yo'lboshchilaridan biri edi.

Iqtisodiy ahvol yomonlasha bordi. "O'z-o'zini boshqarish sotsializmi" amalda samarasiz bo'lib chiqdi. Titodan so'ng o'z kuchiga ishonib xalq xo'jaligini rivojlantirishga tuzatishlar kiritish bundan keyingi inqirozli hollarga olib keldi. Yangi rahbariyat yana yordam so'rashga majbur bo'ldi: 1983-yili Yugoslaviya Yevropa mamlakatlari va tijorat banklaridan 4 milliard dollardan ziyyod kredit oldi, avvalgi kreditlarni to'lash kechiktirildi. Yugoslaviya xalqaro kapitalga to'liq tobe bo'lib qoldi.

Yugoslaviyaning par- Biroq yangi kreditlar ahvolni
chalanishi. Fuqarolik o'zgartirmadi. 80-yillar oxi-
urushi va uning rida Yugoslaviya iqtisodiyoti
yakunlari yangi inqirozga duch keldi.

1991-yil iyunda Xorvatiya va Sloveniya o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi. Ular mustaqilligining g'arb mamlakatlari tomonidan tan olinishi o'sha yili **Makedoniya**, 1992-yil yanvarida **Bosniya** va **Gersogovina** mustaqillik e'lon qilishiga olib keldi.

Serbiya yagona yugoslav davlatini saqlash uchun kurashdi. Serbiya sotsialistik partiyasi (SSP) raisi **Slobodan Miloshevich** (1941-yilda tug'ilgan) 1989-yilning mayida Serbiya respublikasi prezidenti etib saylandi, shu yil dekabridagi saylovlari uning partiyasiga g'alaba

keltirdi. Partiya ulug' davlatchilik shovinizmi yo'iidan bordi, serb millati rahbarligi ostida yagona yugoslav davlatini saqlab qolishni maqsad qilib qo'ydi.

Belgraddan yuborilgan federal qurolli kuchiari Xorvatiyada yangi hukumatni ag'darishga urindi. Biroq qarshilikka uchradi. Aymi paytda Bosniya va Gersogovinada musulmonlar, serb-xristianlar va xorvatlar o'rtasida urush boshiandi. Xorvatiyadagi urush 5 oy davom etdi, uring oqibatida 5 ming kishi o'ldirildi va 500 ming kishi qochoqqa aylandi.

Yugoslaviyadagi bu voqealar yakuniga ko'ra, 10 ming kishi jazodan qochib Vengriyaga ketdi, o'n minglab kishilar G'arhiy Yevropa mamlakatlardan joy topdi. Urush mamlakatni vayron etdi, davlat parchalandi.

1991-yili alban aholisi ko'p bo'lgan Kosovo o'lkasi muxtoriyati bekor qilindi. Bu hol muxtoriyatni qaytarish uchun Kosovoda faol milliy harakatni uyg'otdi. **1992-yili Serhiya va Chernogoriya Yugoslaviya Ittifoq Respublikasini tashkil** etdi. Kosovodagi milliy harakat kuchaydi. Bunga javoban Yugoslaviya hukumati qatag'on choralarini ko'ra boshiadi.

G'arb davlatlari Kosovo hududida tinchlik o'rnatish uchun u yerga NATO qo'shinlarini olib kirishni talab qilib chiqdi. S.Miloshevich bunga rozi bo'Imadi va nati-jada **1999-yil martda** NATO Serbiyaga qarshi yirik harbiy-havo operatsiyalarini boshfab yubordi. Harbiy kuchlar ta'siridagina Yugoslaviya hukumati 1999-yilning sentabrida NATO qo'shinlarining Kosovoga olib kirlishiga rozi bo'ldi.

Prezident S.Miloshevich hokimiyat vakolatini qo'lga kiritish uchun 2000-yil sentabrda saylov o'tkazdi. Saylov natijaiari soxtalashtirilib, SSP g'alaba qozonganligi e'lon qilindi. G'azablangan xalq g'alayon ko'tardi. Bunday vaziyatdan foydalanib, hokimiyat tepasiga **V.Koshtunitsa** yetakchiligidagi Demokratik koalitsiya keldi. S.Miloshevich qamoqqa olihib, 2001-yil 28-iyunda sobiq Yugoslaviya ishi bo'yicha Gaaga Xalqaro tribunaliga topshirildi.

S.Miloshevich topshirilgandan so'ng, AQSH Yugoslaviyaga kredit berdi, BMT Xavfsizlik kengashi unga qarshi sanksiyani bekor qilди. 2002-yil martda Yugoslaviya Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasiga

aylantirildi. Demokratlarning hokimiyatga kelishi siyosat va iqtisodiy ahvolining yomonlashishi jarayonini to'xtata olmadi. 2003-yil inflyatsiya 42% ni tashkil etdi, ishsizlik 30% gacha oshdi. Demokratik islohotlar to'xtatib qo'yildi. 2003-yil saylovlarida V.Koshtunitsa boshchiligidagi demokratik koalitsiya yutqazdi.

Qisqacha mazmuni

- Ikkinchi jahon urushi yillaridagi katta yo'qotishlar (1 miliion 700 mingdan ortiq kishi halok bo'ldi), butun sanoat vayron qilindi
- 1945-yil 7-mart — Iosif Broz Tito yetakchilligidagi hukumat tuzildi
- 1945-yil 11-noyabr — mamlakat parlamentiga saylovlari
- 1945-yil 29-noyabr — monarxiyaning tugatiilshi va YFXRning e'lon qilinishi
- 1946-yil 31-yanvar — YFXR konstitutsiyasining qabul qilinishi; Serbiya, Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Chernogoriyadan iborat tarkibdagi federatsiyaning e'lon qilinishi
- 1946-yil fevral — Ittifoqdosh reja komissiyasining tashkil topishi
- Korxonalarни natsionalizatsiya qilish (sotib oilsh hisobiga), iqtisodda davlat sektorining hukmroniligi
- 1947—1951-yiliar — birinchi besh yiliik rejasining amalga oshiriilshi
- 1949-yil — SSSR va boshqa sotslailistik mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarning buzilishi
- 1953-yil — SSSR bilan diplomatik munosabatlarning tiklanishi
- "O'z-o'zini boshqaruvchi sotsializm" qurilishi — bozor munosabatlariga o'tish, boshqaruvning demokratik asoslari, totalitarizmdan voz kechish
- 50-yillar oxiri — yirik iqtisodiy muvaffaqiyatlar, aholi turmush darajasining o'slshi
- 1965-yil — mamlakatda sanoatlashtirishning yakunlanishi
- 1971-yil — mustaqil davlat (Xorvatiya) tuzish yo'lida- gi separatistik harakatning boshianishi
- 1974-yil — ittifoqdosh respublikalar huquqini cheklovchi mamlakat konstitutsiyasining qabul qilinishi
- Iqtisodiy qiyinchiliklar (katta tashqi qarzlar, inflyatsiya, narx-navoning o'slb ketishi, ishsizlik)

- 1980-yil 4-may — I.B.Tito vafot etdi
- 1983-yil — mamlakatning butunlay xorijiy sarmoyaga bog'liq bo'ilb qoilshi
- 1991-yil iyun — Xorvatlya, Sloveniya va Makedoniya o'zlarini mustaqil respublika deb e'lon qildi
- 1992-yil yanvar — Bosniya va Gersogovina mustaqil respublika deb e'lon qilindi
- Serbiya yagona davlatni saqlab qolish uchun kurash boshiadi (S.Miloshevich)
- Fuqarolar urushi
- Avtonomiya uchun Kosovodagi milliy harakat
- 1999-yil — NATO qo'shinlarining kiritilishi
- 2001-yil — S.Miloshevichning saylovdagi mag'lubiyati
- 2002-yil — Yugoslaviya Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasiga aylantirildi.

Savollar

- ? 1. Yugoslaviya uchun Ikkinci jahon urushi natijalari qanday yakun topdi?
2. Respublika e'lon qilingandan so'ng mamlakatda qanday siyosiy tuzum yuzaga keldi?
3. 50-yillarda mamlakat rivojlanishidagi qarama-qarshilikni ko'rsating.
4. Yugoslaviya hukumati tomonidan amalga oshirilgan "o'z-o'zini boshqaruvchi sotsializm" slyosatining mohiyatini izohlab bering?
5. 80-yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan sabablarni sanab bering?
6. Yugoslaviyadagi fuqarolar urushining oldini olish mumkin edimi? 90-yiliarda mamlakat rivojlanishi borasidagi o'z vari-antingizni aytib bering.

21-§. GRETSIYA: MONARXIYADAN DEMOKRATIYAGA

Gretsイヤdagи monarxiya tagdiri Ikkimchi jahon urushidan so'ng Gretsイヤ G'arb va Bolqon yarim oroli tizimida mudofaa tizimiga aylandi. Mamlakatda shu bilan bog'liq yuz bergen voqealar xalqaro ko'lamda tus oldi.

1946-yildagi plebissit (referendum) natijasida mamlakatda qirol Georg II boshchiligidagi monarxiya tizimi tasdiqlandi. 1947-yil aprelda Georg II vafot etdi, taxtga uning ukasi Pavel (1901—1964) o'tirdi va mamlakatni

o'n yetti yil boshqardi. Pavel vafotidan so'ng taxt vorisligi uning o'g'li, mamlakatda juda mashhur sanalgan Konstantin II ga o'tdi. 1967-yil 13-dekabrda polkovniklar diktaturasini yo'q qilishga qarshi muvaffaqiyatsiz urinishlardan so'ng u Italiyaga emigratsiyaga ketishga majbur bo'ldi. 1973-yil 1-iyunda polkovniklar umi o'zlarining hokimiyatiga qarshi isyon ko'tarishda aybladi va Gretsian respublika deb e'lon qildi. Polkovniklar hokimiysi tugattlgach, 1974-yil 8-dekabrda qirol Konstantinning konstitutsiyaviy mavqeini to'la-to'kis ahiqlash uchun Gretsiyada referendum o'tkazildi. 70 foiz greklar monarxiya tiklanishiga qarshi chiqdilar va mamlakat respublika deb e'lon qilindi.

Fugarolar urushi va uning natijalari

1946-yilda qirollik hokimiya
tingning tasdiqlanishi fuqarolar
urushining yangi bosqichidan

darak berdi. Gretsya kommunistik partiyasi fashizmga qarshi kurashgan sobiq partizan otryadlaridan 1946-yil oktabrida nisbatan kuchli Gretsya Demokratik armiyasini (EAM) tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Hukumat qo'shinlari janubiy rayonlarga surib qo'yildi. EAM hujumga o'tib, bir qator muvaffaqiyatlari operatsiyalarni amalga oshirganda Gretsya hukumatiga prezident Trumen ma'muriyati katta yordam ko'rsatdi (1947-yilgi "Trumen doktrinasi").

Ushbu dastur bo'yicha Gretsya 200 million dollar miqdorida qurol-yarog', oziq-ovqat, kiyim-kechak, asbob-uskuna oldi va o'z armiyasini eng zamонавиу qurollar bilan ta'minlash imkoniga ega bo'ldi. Afmada keng vakolat va harbiy maslahatchilarga ega Amerika missiyasi tashkil etildi. Aym paytda eng hal qiluvchi jang damlarida armiya Yugoslaviya madadidan mahrum bo'ldi. Chunki I.B.Tito va Stalin o'rtasida kelib chiqqan nizo tufayli Yugoslaviya Gretsya hukumatiga ko'rsata-yotgan yordamimi to'xtatib, o'z siyosatimi o'zgartirib yuborgan edi.

1949-yil 30-avgustda Demokratik armiyaning qurolli kuchlari Albaniya chegarasi yaqinidagi Grammos tog'larida qurshovga tushib qoldi va mag'lublyatga uchradi. Yetti haftadan so'ng armiya rahbariyati o't ochishni to'xtatganligini bildirdi va qolgan qo'shinlarim Albaniya hamda Bolgariyaga olib chiqib ketdi.

Gretsya xalqi uchun fuqarolar urushi juda qimmatga tushdi. Har ikki tomonidan 21 ming soldat va 5 ming fuqaro halok bo'ldi, 12 mingdan ortiq uy-joy vayron qilindi.

Mamlakat iqtisodiy militarizatsiyalash

Demokratik kuchlarning fuqarolar urushidagi mag'lubiyati Gretsiyada monarxiya tuzumimi mustahkamladi. Mamlakatda politsiya rejimi saqlamib qoldi va aymu damda fuqarolar urushi davridagi "favqulodda qonunlar" amal qilar edi. Minglab odamlar repressiyaga uchradi.

Biroq, monarxiya rejimi va uming qoidalarini saqlab qolish uchun bиргина fuqarolar urushidagi g'alaba yetarli emasligini tushungan boshqaruvchi doira mamlakatda parlament saylovlarimi o'tkazishga qaror qildi. Yangi hukumat rahbari sifatida marshal **Aleksandr Papagos** (1883—1955) saylandi. Fuqarolar urushi davrida u monarxistlar qurolli kuchlarimi boshqarib, davlat boshqaruv doirasining ishonchini qozondi. 1951-yili u armiyadagi barcha lavozimlardan ketib, yangi "Gretsya majlisи" partiyasini tuzdi va 1952-yil noyabrdagi parlament saylovida g'alaba qozondi. A.Papagos 1955-yilgacha mamlakat bosh vaziri bo'lib qoldi.

1952-yilda Gretsya NATO safiga kirdi. Ikki tomonlama Gretsya — Amerika shartnomasiga muvofiq 1953-yili Gretsiyaming barcha hududi, portlar, aerodrom, kommunikatsiya, omborlar AQSH nazorati ostiga o'tdi. A.Papagos Gretsiyami AQSH ittifoqchisiga aylantirib, Sharqiy O'rta Yer dengizidagi amerika siyosatining muhim bo'g'imi sifatida tashqi siyosatda tub burilish yasadi.

1955-yil oktabrda A.Papagos vafotidan so'ng qিrol **Konstantin Karamanlisni** bosh vazir etib taymladi. U qিrol va AQSHning katta ishonchiga sazovor bo'lgan edi. Amerika madadi tufayli K.Karamanlis iqtisodiy qiyimchiliklarmi yengib o'tishga erishdi. Amerika investitsiyasi tufayli metallurgiya, mashinasozlik, kemasozlik, kimyo va neftni qayta ishiash sanoat tarmog'i rivojlanib ketdi. Mamlakatni industriyashtirish boshlandi. Gretsiyaming "Umumiyo bozor"ga kirishi g'arb iqtisodi bilan aloqasini yanada mustahkamladi va investitsiyaming ko'payishiga yordam berdi. Gretsya agrar-

industrial mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylana bordi.

K.Karamanlis Gretsiyaning “sovuj urush”dagi ishtirokini kengaytirishga harakat qilganligi va Gretsiyada Amerika raketalari bazasi qurilishiga rozilik bildirgani jamoatchilikka ma'lum bo'lgach, u iste'foga ketishga majbur bo'ldi. 1963-yil noyabr va 1964-yil fevraldagi saylovlarda o'ng partiyalar mag'lubiyatga uchradi. Hokimiyat tepasiga **Georgios Papandreu** (1888—1968) boshchiligidagi markaz Ittifoqi huqumati keldi. Markaz Ittifoqi radikal demokratlar va sotsialistlardan tashkil topgan edi. Papandreuning bosh vazir etib tayinlanishi Gretsiya boshqaruv doirasida norozilik tug'dirdi. Bundan tashqari, G.Papandreu hukumati tomonidan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida demokratlashtirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi qirolning jig'iga tegdi va u 1965-yil iyulda G.Papandreuni bosh vazir lavozimidan olib tashladi.

Karamanlis Konstantinos (1907-yilda tug'ilgan) — Gretsiya prezidenti (1980—1985 va 1990—1995), bosh vazir (1955—1963 va 1974—1980). Milliy radikal ittifoqi o'ng partiyasi (1956—1967) va Yangi demokratiya partiyalarining asoschisi hamda rahbari (1974—1980).

1967-yilning aprelida Gretsiyada polkovnik G.Papadopoulos va S.Pattakos rahbarligidagi harbiy to'ntarish bo'lib o'tdi. Yana qamoqxonalar demokratik kayfiyatidagi kishilar bilan to'la bordi, muxolifat gazetalari va jurnallar taqiqlandi. Matbuot, teatr, kinoda qattiq senzura tayinlandi. Butun hukumat harbiy xunta qo'liga to'plangan edi. Aynan ular bosh vazir, vazirlarni tayinlar, qonunlarni tasdiqlar va parlamentni tayinlar yoki tarqata olar edi.

Qirol mamlakatdan quvib chiqarildi. 1973-yilda navbatdagi konstitutsiya qabul qilindi va unga ko'ra Gretsiya respublika deb e'lon qilindi. G.Papadopoulos o'zini-o'zi mamlakat prezidenti etib tayinladi. Gretsiya qamoqxonalaridagi kaltaklash va haqoratlash hatto chet mamlakatlarga ham ma'lum edi. Skandinaviya hukumatlari inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi sudiga murojaat qildi. 1974-yil

noyabrdan Afina universiteti talabalari g'alyon ko'tardi.

Polkovniklar rejimi-ning yemirilishi

Mamlakatda polkovniklar rejimi yo'q qilish harakati boshlandi. **1974-yilda** ahvolni hir oz yumshatish uchun G.Papadopoulos prezidentlik vakolatini general Gizikisga berdi. Biroq bu ham rejimni saqlab qola olmadi. Armiya polkovniklarni qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdi va ularning iste'foga chiqishi to'g'risida ultimatum qo'ydi. **1974-yil 23-iyulda** general Gizikis K.Karamanlisga hukumatni tarqatib yuborishni buyurdi. Polkovniklar rejiminig ashaddiy yigirma nafar yetakchisi sudga berildi. Papadopoulos va Pattakos o'lim jazosiga hukm qilindi, biroq u keyinchalik umrbod qamoq jazosi bilan almashtirildi.

1974-yilda o'tkazilgan referendum natijasida mamlakatda boshqaruvning respublika shakli joriy etildi. 1974-yilda K.Karamanlis liberal pozitsiyadagi **Yangi demokratiya** partiyasini, G.Papandreuming o'g'li Andreas Papandreou esa sotsialistik yo'nalishmi mo'ljallagan **Umumgrek sotsialistik harakati (PASOK)**ni tashkil etdi.

Yangi konstitutsiya bo'yicha birlinchi saylovlarda Karamanlis partiyasi g'olib chiqdi va hukumatni boshqara boshladi. **1981-yil yanvarda** K.Karamanlis mamlakat prezidenti etib saylandi, parlament saylovida esa A.Papandreuming PASOK partiyasi g'alaba qozondi. A.Papandreou hukumati demokratik ruhdagi bir qator demokratik islohotlarni amalga oshirdi. U Ikkinchi jahon urushi davridagi Qarshilik Harakatini tan oldi, grek siyosiy emigrantlari — fuqarolar urushi (1946—1949) qatnashchilarini o'z vataniga qaytarishga ruxsat berildi, ijtimoiy sohada va soliq siyosatida islohotlar o'tkazildi. Tashqi siyosat borasida qurollanish poygasiga, G'arhiy Yevropada Amerika yadro qurollarini joylashtirishga qarshi chiqib, tmchlilik yo'lini tanladi. Hukumat Bolqon yarimorolini yadrosiz zonaga, O'rtayer dengizi hududini esa tinchlik hamkorligi dengiziga aylantirish uchun faol kurash ohb bordi.

1989-yilgi parlament saylovlarida PASOK mag'luhiyatga uchradi va hukumat tepasiga Samis Sannettakis yetakchiligidagi **Yangi demokratiya** va kommunistlar

vakillaridan iborat Muvaqqat koalitsiya hukumati keldi. Partiya yetakchisi Konstantin Mitsotakis bosh vazir etib saylandi. 1993-yilgi saylovlarda PASOK g'alaba qozondi.

PASOK 10-yil mobaynida hokimiyatni nazorat qildi. Uning yetakchisi **Kostas Simitis** 1996-yildan bosh vazirdir. Mamlakatda ishsizlik yuqori darajada (11%), korrupsiya va terrorizm kuchaygan. Iqtisodiy munosabatlarda Gretsya YHda eng kambag'al mamlakatlaridan biri.

Qisqacha mazmuni

- 1946-yil — monarxiya boshqaruving tiklanishi; fuqarolar urushining boshiahishi, AQSH yordami
- 1949-yil — demokratik kuchiarning mag'lubiyati, monarxiya rejimining mustahkamlanishi
- 1952-yil — Gretsyaning NATOGa kirishi
- ElKga qabul qilinishi. Iqtisodiy o'sish, sanoat rivojlanishi, g'arhiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi
- Gretsya hududida Amerika harhiy bazalarining qurilishi
- 1964-yll fevral — Georgios Papandreu — bosh vazir
- 1967-yil aprel — harbiy to'ntarish
- 1973-yil — yangi konstitutsiya; Gretsya respublika deb e'lon qilindi; G.Papandreu — mamlakat prezidenti
- 1974-yil 23-iyul — mamlakatda harbiy rejimning qulashi, respublikaning e'lon qilinishi
- 1981-yil oktabr — A.Papandreu rahbarligidagi hukumat
- 1989-yil — demokratiyaning tiklanishi

Savollar

- ? 1. Sizningcha, 50-yillarda qanday siyosiy voqealar mamlakat iqtisodining rivojlanishiga imkon bermadi?
2. Gretsiyadagi fuqaroiar urushi sabablarini aylib bering.
3. Qanday siyosiy kuchlar uning boshlanishiga ta'sir ko'rsatdi?
4. Gretsya 50-yillarda qanday qilib AQSHga tobe bo'lib qoldi?
5. Mamlakatda respublika boshqaruvi tizimi e'lon qilingach qanday o'zgarishlar bo'ldi?
6. Gretsya hozirda demokratik yo'l bilan rivojlanmoqda, degan fikrga qo'shilasizmi? O'z fikringizni asoslang.

22-§. BOLGARIYA 50—90-YILLARDA

**Respublikaning e'lon
qilinishi**

G.Dimitrov 1945-yil noyabrdaga Bolgariyaga qaytib keldi va Xalq majlisi raisligiga saylandi. 1946-yilda u Bolgariya Vazirlar Kengashi raisi lavozimini egalladi.

1945-yil 18-noyabrdagi saylovlardan so'ng Xalq majlisi harbiy jinoyatchilar mulkini natsionalizatsiya qildi. Natijada 2300 ta sanoat korxonalari davlat ixtioriga o'tdi. **1946-yil mart oyida agrar islohot** o'tkazilib, unga ko'ra haydaladigan shaxsiy yer mulkini 20 hektardan oshirish cheklandi. Barcha ortiqcha yer davlat tomonidan oz miqdordagi to'lov hisobiga olib qo'yildi. Bu yerlar umuman yeri yo'q va kam yerga ega dehqonlar o'rtaida taqsimlandi. 1947-yilning oxirida 126 ming nafar dehqon yerga ega bo'ldi. Ular yangi hokimiyatning qishloqdagi ishonchli suyanchig'i bo'lib qoldi.

1946-yil 15-sentabrda Bolgariya **Xalq Respublikasi** deb e'lon qilindi. Yangi hukumatni G.Dimitrov boshqardi. Hukumatning pul islohoti va bir yo'la olinadigan soliq to'g'risidagi Qonuni tufayli yirik mulkdorlarning pul jamg'armalari olib qo'yildi va davlat ixtioriga o'tkazildi. **1947-yilning avgustida** Bolgariya dehqonchilik xalq ittifoqi (BDXI) faoliyati taqiqlandi va bu BKP dikturasiga yo'l ochib berdi. 1949-yil boshida boshqa partiyalar ham o'z faoliyatini to'xtatdi. 1947-yil dekabrda qabul qilingan qonunlar nafaqat yirik, shuningdek, o'rtahol kapital va ko'chmas mulk egalarini tugatdi.

Dimitrov Georgiy (1882—1949) — Bolgariya davlat arbobi. Nemis hokimiyati tomonidan reyxstagga o't qo'yishda ayblangan, ammo sudda o'z aybsizligini isbotlagach dunyoga tanildi. Ikkinci Jahan urushi yillarida Mamlakat frontiga rahbarlik qildi. 1946—1949-yillarda — Bolgariya Vazirlar Kengashi Raisi.

50—70-yillarda sotsializm qurilishi

1949-yilda G.Dimitrov vafotidan so'ng hukumatga Vasil Kolarov, u ham vafot etgach, 1950-yildan V.Chervenkov rahbarlik qildi.

Sotsializm qurilishi stalinchal yo'ldan olib borildi: besh yillik rejalar ishlab chiqildi, industrlashtirish boshlandi, qishloqda esa ommaviy kollektivlashtirish siyosati yurtildi. Sanoat rivojlanishiga juda katta mablag' sarflandi. 40-yillar oxiri—50-yillar boshida 700 dan ortiq sanoat korxonalari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika, qora va rangli metallurgiya kabi yangi sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Sanoat mahsulotlari hajmi 1955-yilda 1948-yilga qara-ganda ikki baravar, 1939-yildagidan esa 4 baravar ko'paydi.

Kolarov Vasili (1877–1950) — Buyuk Xalq majlisi raisi (1946–1950). 1949-yildan 1950-yilgacha — Bolgariya Xalq Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi.

1956-yilda Vazirlar Kengashi raisi lavozimini **Anton Yugov** egalladi. Biroq, hokimiyat amalda **Todor Jivkov** qo'lida edi. 1962-yilda u Yugov o'rmini egalladi va hukumat rahbari bo'lib qoldi. **1971-yil** iyuldan esa Bolgariya prezidentligiga saylandi.

Davlat sotsializmining totalitar rejimi Jivkov urug'-aymog'lari hukmronligi bilan yanada "kuchaydi". T. Jivkov o'z qo'liga ulkan hokimiyatni oldi. U, ham BKP Bosh kotibi, ham Davlat Kengashi raisi va mamlakat prezidenti edi. T. Jivkov **urug'-aymoqchilik — davlat sotsializmining** majruh simbiozini yaratdi. Chunki bunda davlat ishlari T. Jivkov oilasi va qarindosh-urug'lari manfaatiga xizmat qilar edi. Mamlakat yo'lboshchisining rahbarlik usullarini tanqid qilishga bo'lgan har qanday urinish qattiq jazolandи.

Ayni paytda industrlashtirish sur'ati kuchaydi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida o'sish boshlandi, texnik progress tezlashib, iqtisodning barcha tarmoqlari-da modernizatsiyalash olib borildi. 1970-yilning oxirida Bolgariya sanoatini boshqarish tizimi qayta tashkil etildi. Korxonalar huquqi va mustaqilligi kengaydi, korxonalar-da xo'jalik qo'mitalari tashkil etilib, ular Yugoslaviyadagi kabi ishlab chiqarish boshqaruvida ishtirokining organi bo'lib qoldi.

1970—1975-yillar davomida Bolgariyada sanoat mahsulotlari hajmi 55 foizga, milliy daromad 46 foizga

o'sdi. Bolgariya jahondagi sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rinni oldi. Bu yerda — Kozloduda mamlakatdagi energetik muammoni hal etuvchi birinchi atom elektrostansiyasi qurildi.

Ammo, tez orada endi bunday sur'atda o'sishga Bolgariyaning qurbi yetmasligi ma'lum bo'ldi. 1976—1980-yillar mobaynida sanoat mahsulotlari hajmi va milliy daromad atigi 33 foizga o'sdi. Inflyatsiya, ishsizlik kuchaydi, oylik deyarli to'liq "muzlatilgami" holda narxnavo keskin ko'tarilib ketdi. Ko'pgina qurilish obyektlari to'xtab qoldi, korxonalar yopildi. T.Jivkov siyosati bolgariya iqtisodini inqiroz yoqasiga olib keldi va mehnatkashlar turmush tarzi keskin pasayib ketdi. Mamlakatda muxolifat paydo bo'ldi. Islomga hujum boshlandi, musulmon urf-odatlari taqiqlab qo'yildi.

Partiya safida korrupsiya kuchaygan edi. T.Jivkov shaxsi mashhur partiya obro'sini tushirib yubordi. Bolgariya iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha sotsialistik mamlakatlar ichida birinchil, biroq rivojlangan Yevropa mamlakatlariga nisbatan oxirgi o'rinda edi.

Iqtisodni Isloh qiliishga urinish

1980-yil 1-yanvardan Bolgariya sanoatida sanoat korxonalarini boshqaruvini mar-

kazlashtirmaslik va liberallashtirishga yo'naltirilgan yangi iqtisodiy tizim joriy etildi. Yangi tizim bo'yicha rejalashtirish orgahlarining roli qisqartirildi va sanoat korxonalarining ish darajasi ko'rsatkichiari daromadlar bo'lib qoldi. Joriy etilgan yangi qoidaga ko'ra mahsulot sifati va ilmiy-texnik yangiliklar rag'battantirilar edi. Ish haqi miqdori korxona oladigan foydaga bog'liq bo'llib qoldi. Biroq, davlat korxona ishiariga haddan ziyod aralashar edi.

1986-yilda Bolgariyaning 2000-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish rejasi ishlab chiqildi. Uning mohiyati ilg'or fan va texnika yutuqlarini va zamonaviy ishiab chiqarish infrastruktururasini ttabbiq etgan holda sifatli yangi moddiy-texnik bazani yaratish edi. 2000-yilgacha milby daromadmi deyarli ikki baravar ko'paytirish mo'ljallandi. Bolgariya iqtisodining o'sha paytdagi ahvolini hisobga olgan holda aytish joizki, bu rejami amalga oshirish mumkin emas edi. Bundan maqsad bolgar xalqining ko'nglini ko'tarish va sovet tipi-

dagi sotsializm g'oyasining kuchiga ishonchni tiklashga urinish bo'lgan.

**Sotsializmni isloh
qilish siyosatining
barbob bo'llishi**

Bolgariya xalqi endi targ'ibot va'dalariga ishonmas va avvalo mamlakatni demokratlashtirishni talab qilar edi.

T. Jivkov yetilib kelayotgan "to'lqin"ning oldini olish maqsadida 1987-yilning yozida "**sotsializmning yangi modeli**"ni yaratishni e'lon qildi, partiya apparatlarining barcha hokimligini tugatish va demokratik islohotlar o'tkazilishiga va'da berdi. Biroq bu totalitar tuzumning yemirilishiga olib kelmadidi. Barcha hokimiyat avvalgidek Jivkov va uning qarindoshlari, oshna-og'aynilari qo'lida qolaverdi.

1989-yil yozda sharoit keskin og'irlashdi. T.Jivkov tomonidan e'lon qilingan "qayta qurish" kutilgan nati-jani bermadi. Tovar tanqisligi va inflyatsiya mavjud og'ir ahvolni yanada kuchaytirib yubordi. Mamlakatdan erkin chiqib ketish to'g'risidagi qonun musulmon va turkiy zabon aholining ommaviy ravishda Turkiyaga qochib o'tishiga sabab bo'ldi. Ular Bolgariya aholisining 15 foizini tashkil etib, asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar edi. Shunday qilib, sotsializm yemirilishi ma'lum bo'ldi. Partiyada parchalanish yuz berdi va 1989-yil 10-noyabrda T. Jivkovning iste'foga chiqqanligi, bir oydan so'ng esa bir partiyali siyosiy tizim tugatilganligi e'lon qilindi.

Jivkov Todor (1911-yilda tug'ilgan) — BXR Davlat ken-gashining raisi (1971—1989), BXR Vazirlar Kengashi raisi (1962—1971). 1989-yil dekabrda BKP safidan o'chirilgan.

Mamlakatda o'nlab siyosiy tashkilotlar tuzila boshladi, ilgari mavjud partiyalar faoliyati yangilandi. Bir qator partiya va tashkilotlar Demokratik kuchlar ittifoqiga (DKI) birlashdi.

T.Jivkov ustidan sud bo'lib o'tdi. U korrupsiya, xizmat mavqeini suiiste'mol qilganlikda ayblanib, uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi. 1996-yilda bu jazo uy qamog'iga almashtirildi.

1990-yilda BKP Bolgariya sotsialistik partiyasi (BSP) deb o'zgartirildi. U demokratiya va diktatura o'zara murosasizligini e'lon qildi.

1990-yilning oxirida BSP, BDXI, DKI vakillaridan iborat komissiya hukumati tashkil etildi va unga **Jelyu Jelev** rahbar etib saylandi. Davlat endi **Bolgariya Respublikasi** deb yuritila boshladi. Hukumat Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalariga muvofiq radikal islo-hotlarga kirishdi. Unda bozor iqtisodiga o'tish, narxnavoni liberallashtirish, ziyon keltiradigan korxonalarini tutatish ko'zda tutilgan edi.

1991-yil sentabrda yangi konstitutsiya qabul qilinishi bilan bog'liq holda yangi parlament saylovi o'tkazildi va unda DKI g'olib chiqdi.

Bolgariyada sotsializmni o'zgartirib, mamlakatni g'arb tizimiga yaqinlashtirish boshlandi. 1997-yilgi parlament saylovida o'ng biok — Demokratik kuchlar birlashmasi g'olib chiqdi. **1999-yilda** Bolgariya hukumati NATOGa kirishga tayyor ekanligini bildirdi.

Demokratik kuchlar Ittifoqi yetakchisi **Ivan Kostav** boshchilik qilgan koalitsion hukumat islohotlarni amalga oshirolmadi va korrupsiya bilan kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 2001-yil iyulda hukumat saylovlarda mag'lubiyatga uchradi. Hokimiyatga Bolgariya qiroli Simeon II tuzgan Milliy harakat hukumati keldi.

Qisqacha mazmumi

- 1945-yll noyabr — G.Dimitrovning Bolgariyaga qaytib keilshi
- 1945-yil 18-noyabr — harbiy jinoyatchilar mulkinining natsionalizatslya qilinishi (2300 ta korxona)
- Agrar islohot
- 1946-yil 15-sentabr — BXRning e'lon qillinishi
- 1947-yil — BKP dikturasining o'rnatilishi
- 1949-yil — G. Dimitrov vafot etdi, davlat rahbarligiga V.Kolarov, 1950-yildan V.Chervenkov keldi
- Sovet modejii bo'yicha sotsializm qurilishi
- 1955-yil — sanoat ishiab chiqarish hajmi 1939-yiiga nisbatan 4 marta ko'paydi
- 1956-yildan — Vazirlar Kengashi raisi — Anton Yugov, 1962-yildan Todor Jivkov
- 1971-yildan — T.Jivkov BXR prezidenti
- Urug'-aymoqchilik davlat sotsiaiizmining o'rnatilishi 70-yiliar — xalq xo'jaligining qayta tashkil etilishi: korxonalar huquqi va mustaqilligi kengaydi, sanoat va qishloq xo'jaligi o'sish sur'atining tezlashuvi

- 80-yiliar — iqtisodning pasayishi, inflyatsiya, ishsizlik, korrupsiyaning kuchayishi
- 1980-yili yanvar — sanoatga yangi iqtisodiy mexanizm olib kirildi — boshqaruvni markazlashtirishdan voz kechish, liberallashtirish
- 1987-yili — “sotsializmning yangi modeli” e’lon qilindi
- 1989-yil — “qayta qurish” chippakka chiqdi (inflyatsiya, tovar tanqisligi, ko’pchilik aholining chet elga ochib ketishi)
- 1989-yil 10-noyabr — T.Jivkovning iste’foga chiqishi Bir partiiali siyosiy tizimning tugatilishi
- 1990-yil — BKP rahbarligini rad etish
- 1990-yil — Jelyu Jelev rahbarligidagi koalitsiya hukumatining tuzilishi
- 1991-yil sentabr — yangi konstitutsiya qabul qilindi
- 2001-yil — Simeon II boshchiligidagi Milliy harakat hukumati hokimiyatga keldi

Savollar

- ? 1. Bolgariyada ikkinchi jahon urushi va respublika deb e’lon qilingandan so’ng qanday o’zgarishlar ro’y berdi?
2. Qanday hisoblaysiz, nima uchun “sotsializmning yangi modeli”ni e’lon qilish totaltar tizimni tugatishga olib keidi?
3. 60—70-yillarda T.Jivkov olib borgan siyosatning mohiyati nimada?
4. “Urug’-aymoqchilik davlat” tushunchasiga izoh bering.
5. T.Jivkov olib borgan siyosatning barbod bo’lishi muqarrar edi degan fikrga qo’shiiasizmi?

23-§. CHEXOSLOVAKIYA 50—90-YILLARDA

Iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlar

Fashistlar Germaniyasi tor-mor etilgandan keyin mamlakatga asosiy siyosiy kuchlar yo’lboshchilari — kommunistlar rahbari **K.Gotvald**, muhajirlar hukumati boshlig’i **E.Benesh**, koshitskiy hukumati bosh vaziri **Z.Firlingerlar** qaytishdi. Chexoslovakiya hududida katta janglar bo’limgani uchun mamlakat xo’jaligi vayron bo’lmadi. Biroq siyosiy jihatdan Chexiya va Slovakiya tarixan shakllangan yagona davlat bo’limgani uchun avvalboshldanoq ular o’rtasidagi raqobat mamlakatni bo’lib yubordi.

Milliy kengash E.Beneshni mamlakatning birinchi

prezidenti etib tayinladi. E.Benesh prezident lavozimidan voz kechishi yoki kommunistlar irodasini mo'minlik bilan bajarishdek ikki mushkul ishidan birini tanlashi lozim edi. U ikkinchisini tanladi. E.Benesh 1945-yil 19-mayda german va venger mulkdorlari, shuningdek, kolaboratsionistlarga tegishli zavod, yer mulklari, bank, sug'urta kompaniyalari va boshqa korxona hamda muassasalarini davlatga berish haqida dekret chiqardi.

1945-yil 21-iyunda german va venger mulkdorlari, shuningdek, fashistlar bilan hamkorlik qilganlarning yer, o'rmon, buyumlarimi bepul musodara qilish haqida dekret qabul qillindi. Uncha ko'p bo'limgan to'lov evaziga dehqonlar 13 dekabrga qadar yer olishi mumkin edi. Dehqonlarga, shuningdek, Chexoslovakiya hududidan ko'chirib yuborilgan nemislar yerlari ham berildi. Potsdam konferensiyasi qaroriga ko'ra, Chexoslovakiyadan Germaniyaga 2,5 million nemislar ko'chirildi, yerlari esa chek va slovaklarga bo'lib berildi. Shu yo'l bilan 303 mingdan ziyod dehqon xo'jaligi 1,2 million hektar yerga ega bo'ldi.

1945-yil 24-oktabrda E.Benesh yirik korxonalar, banklar va xususiy sug'urta kompaniyalarini natsionalitatsiya qilish haqidagi dekretga qo'l qo'yadi. Korxonalarda ishchi nazoratini amalga oshiruvchi ishchi kengashlari tashkil etildi.

1946-yil 26-may saylovlari CHKPga muvaffaqiyat keltirdi. **K.Gotvald** boshchiligidagi koalitsion hukumat tuzildi.

Milliy kengash, hukumat va milliy majlisda CHKP va burjua partiyalari o'tasida turli masalalar: agrar islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy rivojlanishning ikki yillik rejasи, "Marshall rejasи"ga qo'shilish bo'yicha o'tkir siyosiy kurash boshiandi.

Yangi konstitutsiyaning 1948-yill fevralda yangi konstitutsiyaming muhokama qillmishi burjuaziyanı bevaqt norozilikka undadi. Shu yil 20-fevral kuni burjuaziya partiyalari vakillari bo'lgan 12 vazir iste'foga chiqdi. Ular bu bilan K.Gotvald ko'pchilik qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'llib, u ham iste'foga chiqadi va shunda kabinet tarkibini qayta ko'rib chiqish mumkin bo'ladi, deb umid qilishdi.

Kommunistlar da'vati bilan 1948-yil 24-fevralda 2,5 million ishchi va xizmatchi bir soatli ogohiantiruvchil ish tashlash o'tkazdi. Xalq sabotajchi vazirlar qiyofasida urushdan oldingi g'arbparast Myunxen siyosatdonlari vakillarini ko'rdi va ularning hokimiyatga qaytishini xohlamadi. Qo'shin kommunistlar tarafida turdi. Burjua partiyalari "o'yinlari" harbod bo'ldi. 1948-yilming 25-fevralida prezident E. Benesh o'ng partiyalar vazirlari iste'fосини qabul qildi. Endi hukumat kommunistlar va so'l sotsial-demokratlardan iborat bo'ldi, ular CHKP qarashiari va siyosatini ma'qullar edi.

Qariyb barcha sanoat korxonalari va savdo firmalari natsionalizatsiya qilindi. Milliy kengash tarkibi yangilandi, unga endi faqat kommunistlar va uning tarafдорлари kirdi.

1948-yil 9-mayda Chexoslovakiyada sotsializm qurilishini e'lon qilgan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Yangi Konstitutsiya asosida 1948-yil 30-mayda mamlakatda saylovlar bo'lib o'tdi, unda kommunistlar va ularning ittifoqchilari uchun saylovchilarining 89 foizi ovoz herdi. 1948-yil 6-iyunda E. Benesh iste'foga chiqdi va mamlakat prezidenti etib **K. Gotvald** saylandi. 1948-yil iyunda CHKP va sotsial-demokratlar partiyasining yagona Chexoslovakiya kommunistik partiyasiga birlashuviro'y berdi. Kommunistlar 1949-yil mayda sotsializm asoslarini qurish dasturi va sotsalistik industrilashtirish rejasini qabul qildi.

**Mamlakatning kommunistlar diktaturasi
sharoitlarida rivojlanishi**

sanoat mahsuloti 93 foizga, mashinasozlik mahsuloti — 94 foizga o'sdi. 12 ta yangi elektrostansiya, yirik metalluriya korxonasi qurildi. Aholining turmush darajasi oshdi, oylik ish haqi o'sdi, kartochka tizimi tugatildi.

Aymay paytda mamlakatda partiyadagi o'zgacha fikrlovchilar va umuman mamlakatdagи muxoliflarni yo'qotish maqsadida qudratli qatag'on apparati yaratildi. Ommaviy qamoqlar, siyosiy tashkilotlar va davlat tashkilotida tozalashlar o'tkazildi. Kommunistlar mamlakatda qo'rquv va ishonchsizlik urug'ini sochdi.

1948-yilda mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning besh yillik rejasи (1948—1953) qabul qilindiki, u muvaffaqiyatli bajarildi. Bu davrda yalpi

K.Gotvaldning 1953-yil **martdag** vafotidan so'ng sobiq bosh vazir **A.Zapototskiy** (1884—1957) prezident bo'ldi, 1957-yilda uning o'miri **Antonin Novotniy** (1904—1975) egalladi.

60-yillarda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi

mablag'larini o'ta isrofgarlik bilan sarflashga olib keldi. Byudjet mablag'larining asosiy qismi iste'mol moilarimi ishlab chiqarish va xizmatiarni rivojlantirishga zarar keltirgan holda og'ir sanoatmi rivojlantirishga yo'naltirildi. O'ylanmay qilingan iqtisodiy siyosat og'ir oqibatlarga olib keldi. 1961—1963-yillarda mamlakatni og'ir iqtisodiy inqiroz chulg'ab oldi, u 1966-yilgacha davom etdi. Uchinchи besh yillikda (1961—1966) sanoatning rivojlanishi qariyb to'xtab qoldi, qishloq xo'jalik mahsul-dorligining o'sishi esa eng quyi darajada bo'ldi.

Davlat sotsializmining iqtisodiy tizimi iqtisodiy rivojlanishning obyektiv qonunlari bilan ziddiyatga kelib qoldi. Korxonalar samarasiz, mahsuloti raqobatga dosh berolmaydigan bo'lib qoldi. Sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham mehnat unumдорлиги pasaydi, ishlab chiqarish aloqalari intizomi buzildi.

Demokratik kuchlar kurashi va uning natijalari

1968-yil boshiarida mamlakatda talabalar norozilik chiqishiari boshiandi va islohotlar, demokratiyalashtirish va sotsializmni insonparvarlashtirish harakati boshiandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi olg'a surildi. Ishlab chiqarish ijtimoiy vositalarining bir qismini raqobat sharoitida bozor munosabatlari doirasida ishlaydigan "guruhiy birlashmalar" mulkchiligidagi berish ko'zda tutildi.

Partiyaning o'zida yangilarishiarni talab qiluvchi islohotchilar yo'nalishi paydo bo'ldi. 1968-yil yanvarda uning vakillari A.Novotniyning lavozimidan ketishiga erishdi. Partiyani kelib chiqishi slovak bo'lgan **Aleksandr Dubcek** (1921—1992) boshqardi. Yangi rahbariyat partiya va jamiyatda islohotlar o'tkazishga qat'iyatini bildirdi. Islohotlar asosida bozor xo'jaligi tamoyillari, parlament tizimi, matbuot va so'z erkinligi yotardi. 1968-yil aprelda ChKP harakatlar dasturini qabul qildi, unda sotsialistik jamiyatning yangi, ancha demokratik modeliga



Sovet qo'shinlarining Chexoslovakiyaga kiritilishi. Praga. 1968-yil avgust.

o'tishga qat'iylik ifodalandi. Partiyaning rahbarlik roli inkor etildi, xavfsizlik xizmati vazifasi cheklandi.

1968-yilgi "Praga bahori" voqealari

Bu jarayonlar sovet rahbari-yatining xotirjamligini buzdi, u CHKP dasturiga kapitalizmni tiklash niyati sifatida baho berdi. CHKP rahbariyatidan "antisotsialistik kuchlar"ga hujum boshlash, ular tashkilotlarini bostirish va senzurani tiklash talab etildi. CHKP rahbariyati bu talablarni rad etdi. **1968-yil 21-avgustga** o'tar kechasi bosh davlat — Varshava shartnomasi tashkiloti ishtirokchilari bo'lgan Bolgariya, GDR, Vengriya, Polsha, SSSR qo'shinlari Chexoslovakiya chegaralarini kesib o'tdi. A.Dubchek va hukumat hamda partiyaning bir qator a'zolari qamoqqa olindi va Moskvaga yuborildi.

Moskvada Dubchek bilan bo'lib o'tgan muzokaralar mamlakatdagi ahvolni yaxshilash va Chexoslovakiya hududida sovet qo'shinlarining vaqtinchalik bo'lishi sharoitlari haqidagi bitim imzolanishi bilan tugallandi.

Sovet qo'shinlari mavjudligiga tayangan islohot dushmanlari qarshi hujumga o'tdi. **1968-yil** boshida ishlab chiqilgan dasturdan faqat Chexoslovakiyani ikki teng huquqli — Chexiya va Slovakiyadan iborat federatsiyaga aylantirishga muvaffaq bo'lindi.

1969-yil aprelda A.Dubchek partiya yo'lboschichisi lavozimidan ollndi va o'rniغا **Gustav Gusak** bo'ldi. Yangi rahbariyat sotsializmning barcha islohotlaridan voz kechishini bildirdi. U mamlakatda va partiyada bar-qarorlik o'mnatiшning qat'iy yo'lini tanladi. 1968-yili "Praga bahori"ning yuz minglab faol ishtirokchilari lavozimlaridan bo'shatildi va haydaldi. Ayniqsa, ziyorlar ziyon-zahmat ko'rdi: ko'plab ilmiy xodimlar ishidan bo'shatildi va faqat jismoniy mehnat bilangina shug'ullanishga mahkum ettildi. Ko'ppartiyaviy tizim hali ham bor edi, biroq senzura muxolifatning ovožini o'chirishga majbur qildi.

1973-yil yanvarda Chexoslovakianing inson hu-quqlari haqidagi pakt hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengashning yakunlovchi aktini ratifikatsiyalashi munosabati bilan bir guruh madamiyat va fan, din arboblari, yozuvchi va shifokorlar vakillari respublika rahbariyatiga konstitutsiyaga rioya qilish, siyosiy mahbuslarni ozod qilish, sovet qo'shinlarini mamlakatdan ohb chiqib ketish haqidagi talab bilan murojaat etdi. Yangi muxolifat harakatining ishtirokchilari "Xartiya-77" nomini olgan guruhga birlashdi. Bu guruh qatag'onlarga duchor bo'ldi, biroq hokimiyat umi man etishga jur'at qilmadi. U juda katta xalqaro salmoqqa ega bo'ldi va yagona ochiqchasiga harakat qiluvchi muxolifat guruhi bo'lib qoldi.

Mamlakatning 70–80-yillardagi iqtisodiyoti rivojlanishi

Aymi paytda mamlakatning iqtisodiy ahvoli yldan-yilga yomonlashdi. 70-yillarning birinchi yarmida inqirozli 60-yillarga qaraganda blr qadar iqtisodiy o'sishga erishildi, biroq keyinchalik u sekinlashib qoldi. Iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish uchun fan-texnika inqilobi yutuqlaridan foydalamishga urimishlarga qaramay, 80-yillar hirinchi yarmida vaziyat yomonlashdi. Korxonalarini modernizatsiyalash jarayoni sekin bordi, ishiab chiqarilayotgan mahsulot sifati oshmadi, Chexoslovakiya o'z an'anaviy bozorihi yo'qota bordi.

1981-yilda ishiab chiqarish pasayishi ro'y berdi. Korxonalarining 20 foizi reja vazifalarini bajarolmay qoldi. Hukumat zararlarni qoplash va eski korxonalarini yangilash uchun mablag' topish uchun o'ta ommabop bo'lma-

gan chora-tadbirlarni qo'lladi. 1982-yil yanvari boshlarida iste'mol tovarlari narxlari keskin oshdi, oylik ish haqi "muzlatib" qo'yildi. Real oylikning pasayishi xarid tala-bining tushib ketishiga olib keldi va korxonalar omborida 400 million kron turadigan tovarlar yig'ilib qoldiki, bu mamlakatning yillik milliy daromadiga teng edi.

"Baxmal inqilobi"ning g'alabasi

Hatto, SSSRda boshlangan qayta qurish ham Chexoslovakija siyosatida hech

narsani o'zgartirmadi. U muxolifat bilan muloqotdan bosh tortdi. GDRda Xonekker tuzumining ag'darilishi voqealar rivojini tezlashtirdi.

1989-yil 17-noyabrda Pragada talabalar namoyishi qatnashchilari qattiq jazolandi. Bu hol Chexoslovakiyada "baxmal inqilobi"ning boshlanishiga turtki bo'ldi. Boshida uning ishtirokchilari tinch yo'l bilan harakat qilgan talabalar edi. Pragadagi eng yirik korxonalar ishchilari talabalarni qo'llab-quvvatlashdi. 18-noyabrda "Xartiya-77" tashabbusi bilan "Fuqarolik forumi" tuzildi. Uning rahbariyati tarkibiga 1968-yildan so'ng partiyadan chiqarilgan olimlar, madaniyat arboblari kirdi. Qisqa vaqt ichida Fuqarolik forumi inqilobning bosh shtabi sifatida CHKPni barcha pozitsiyalardan siqib chiqardi.

Federal parlament CHKP rahbarlik rolini tasdiqlovchi konstitutsiya moddasini man etdi. Davlat rahbariyatiga yangi odamlar keldi. Inson huquqlari uchun kurashning faol kurashchisi, "Xartiya-77" tashkilotchilaridan biri, Fuqarolik forumi yo'lboshchisi **Vatslav Gavel** (1936-yilda tug'ilgan) mamlakat prezidenti etib, Federal



Vatslav Gavel.

majlisiga raisi etib esa A.Dubcek saylandi. Yangi hukumatga turli partiyalar vakillari kirdi. Qisqa vaqtida Fuqarolik forumi mamlakatdagi eng ta'sirli siyosiy kuch-ga aylandi. 1990-yil iyunida Federal majlisiga saylovlarda Fuqarolik forumi ishonarli g'alaba qozondi. Ular 300 mandatdan 170 tasini qo'lg'a kiritdi.

Mustaqil davlatlar — Chexiya va Slovakiya- ning ta'sis etilishi

Davlat **Chexiya va Slovakiya Federativ Respublikasi** nomini oldi. Hukumat bozor iqtisodiyoti asoslarini yarata boshiadi. 1991-yil yanvardan narx-navo erkinlashtirildi, oqibatda ular oshib ketdi, biroq yil oxiriga kelib inflyatsiyani to'xtatish va narxlarni barqarorlashtirishga muvaffaq bo'lindi. Yoshi katta aholl xususiyashtirish kuponlari olishdi, ular korxonalar aksiyalarini olish huquqini berardi.

Biroq yangi respublika hukumati Slovakiyaning alohi-da respublika bo'lib ajralishi talabiga duch keldi. 1992-yilning iyulida Slovakiyada bo'lib o'tgan parlament saylovlarida "Demokratik Slovakiya uchun harakat" g'alaba qozondi. Uning yo'lboshchilar tashabbusi bilan **1992-yil iyulda** Slovakiya milliy kengashi (parlament) Slovakiya respublikasi suvereniteti haqidagi bayonotni qabul qildi. Ikki mamlakat yo'lboshchilar uchrashdi va Chexoslovakiyami bo'lish haqidagi bitimni ishiab chiqdi. **1993-yil 1-yanvardan** Chexiya va Slovakiya mustaqil davlatlar — Chexiya va Slovakiya respublikalariga aylandi.

Chexiya respublikasi o'z tovarlari yuqori sifatli bo'lgani tufayli Yevropada ham, boshqa qit'alarda ham keng bozorga ega bo'ldi. Xususiyashtirish o'tkazildi, mulklar esa ilgarigi egalariga qaytarildi. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshiigini ta'minlash uchun soliqlar qisqartirildi. Iqtisodiyot yaxshi sur'atlarda o'sdi, sanoat mahsulotining yillik o'sishi 5 foizni tashkil etdi. Shu munosabat bilan byudjet har yili ijobjiy saldo bilan bajarildi.

Mamlakat bo'lingandan keyim mehnatkashiar ommasi ahvoli boshqa sotsialistik mamlakatlarda bo'lganidek og'irlashmadidi. Ishsizlik 2,8 foiz — dunyoning industrial rivojlangan mamlakatlari orasida eng quyi darajada bo'ldi, oylik ish haqi ikki marta oshdi, inflyatsiya uchdan biriga pasaydi va atigi 8,5 foizhi tashkil etdi.

Slovakiya respublikasidagi vaziyat bir qadar boshqacha bo'ldi. U Yevropadagi eng mayda davlatlar-dan biri bo'lib, uning maydomi 49 ming kv. km., aholisi 5,5 million kishidan iborat. Butun mamlakatni sharqdan g'arbga qadar bir necha soatda kesib o'tish mumkin. Mamlakatda rivojlangan sanoat, xom ashyo va energetikaming yirik manbalari yo'q. Asosiy boylik — Dunay va tabiat, ular yuz minglab turistlarni o'ziga jalb etadi.

Bozor xo'jaligiga o'tish bu yerda tezkor bo'ldi va 1995-yilda xususiy sektor mahsulotlari umumiy sanoat mahsulotlarining 61 foizini tashkil etdi.

Chexiya bilan bo'lingandan so'ng Slovakiyada sanoat ishlab chiqarishi tushib ketdi. 1993-yili u 1989-yilgi darajasining 78 foizini tashkil etdi va faqat 1995-yilda 87 foizgacha ko'tarildi. Bunday holat iqtisodiyotning barcha sohalarida kuzatildi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish pasayishl faqat 1995-yilda to'xtatildi. Ishsizlik ulkan muammo bo'lib, 1995-yilning yanvarida eng yuqori nuqta — 15,2 foizgacha yetdi. Inflyatsiyaning o'sishi va real oylik ish haqining pasayishimi mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar belgilab berdi. **1998-yilda** Chexiya NATOGa a'zo bo'lib kirdi.

2002-yil parlament saylovlarida Chexiya sotsial-deinokratlar partiyasi Qalaba qozondi. Vladimir Spidla bosh vazir bo'ldi. 2003-yilda V.Gavel prezidentlik vakolati muddati tugashi tufayll iste'foga chiqdi.

Qisqacha mazmumi

- 1945-yil — E.Benesh mamlakatning birinchi prezidenti etib saylandi
- 1945-yil 19-may — davlatga xususiy mulkchiilkka tegishli korxona va muassasalarni berish haqidagi dekret
- 1945-yil 21-iyun — yerhi to'lovsiz musodara qilish va to'lov evaziga dehqohiarga bo'lib berish
- 1945-yil 24-oktabr — yirik korxonalar, banklarhi natsionalizatsiya qilish
- 1946-yil 26-may — K.Gotvald boshchiligidagi koalitsion hukumatni tuzish
- 1948-yil 25-fevral — sotsialist va kommuhistlardan iborat hukumathing shakllanishi
- Sanoatni natsionalizatsiya qilish, CHKP yakka hokimligi
- 1948-yil 9-may — mamlakat yangi konstitutsiyasi: sotsialzm qurilishihing e'lon qilinishi
- 1948-yil 6-iyun — K.Gotvald mamlakat prezidenti
- 1948—1953-yillar — iqtisodiy rivojlanish besh yillik rejasining muvaffaqiyatli bajarilishi.
- 1953-yil mart — K.Gotvald vafotl
- 1957-yil — Antonin Novotniy prezident
- Chexoslovakiyani sotsialistik mamlakatlar mashinasozlik markaziga aylantirish dasturi

- Talabalar norozilik chlqlishlari, demokratlashtirish uchun harakat
- 1968-yil — mamlakat prezidenti Aleksandr Dubchek, bozor munosabatlariiga o'tish, parlament tizimi, jamiyatni demokratiyalashtirish
- 1968-yil 21-avgust — Varshava Sharhnomasi tashkilotlari qo'shinining Chexoslovakiyaga klritiilshi
- 1969-yil aprel — partiyaga Gustav Gusak boshchiligi: islohotlardan yuz o'girish
- 70—80-yillar — mamlakat iqtisodiy ahvolining yomonlashuvi
- 1989-yil 17-noyabr — "baxmal inqilobi"ning boshlanishi, Fuqarolik forumining yuzaga kelishi
- "Mamlakat prezidenti Vatslav Gavel — Fuqaroilk forumi yo'boshchisi
- 1991-yil — narx-navoning erkinlashishi, xususiy lashtirish
- 1993-yll 1-yanvar — Chexiya va Slovakiya — mustaqil davlatlar
- 90-yillar — Chexiya iqtisodiyotining muvaffaqlyatlari rivojlanishi, Slovakiya iqtisodiyotidagi qiyinchiliklar
- 1998-yil - Chexiyaning NATO ga a'zo bo'lib kirishi
- 2003-yil - V.Gavelning iste'foga chiqishi

Savollar

?

1. Chexoslovakiyada ikkinchi jahon urushidan so'ng qanday iqtisodiy va siyosiy o'zgarislar o'tkazildi?
2. 40-yillar oxirida mamlakatda yakkapartiyaviylik o'rnatilishiga muqobillik bormidi?
3. Mamlakat hukumati tomonidan 50—60-yillarda iqtisodiy o'zgarishlarni o'tkazishda qanday xatolarga yo'i qo'yildi?
4. 1968-yilgi "Praga bahori" voqealariga baho bering. Chexoslovakiyaga qo'shin kiritilishini mamlakat ichki ishlariiga aralashish deb hisoblash mumkinmi?
5. Qanday hisoblaysiz, mamlakat hukumatiga iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish uchun nima choralarни ko'rish zarur edi?
6. "Baxmal inqilobi"ning boshianishi uchun qanday voqealar sabab bo'ldi? U nima bilan tugadi?
7. Chexiya va Slovakiya mustaqillikka erishgandan so'ng qanday muammolar yuzaga keldi?

24-§. POLSHA 50—90-YILLARDA

**Mamlakatdagi siyosiy
ahvol**

Ikklinchi jahon urushining tugashi Polshada siyosiy rivojlanishning yangi bosqichi

boshlanishiga olib keldi. Milliy birlik hukumatini Polsha milliy tiklanish qo'mitasi raisi **A.Osubka-Morovskiy** boshqardi, uning birinchi o'rinosari etib Polsha ishchi partiyasi (PIP) yo'lboshchilaridan biri **Vladislav Gomulka** (1905—1982), ikkinchi o'rinosari etib muhajirlikdagi bosh vazir S.Mikolaychik tayinlandi. Hukumat tarkibida boshqa siyosiy guruqlar vakillari ham bor edi. Mamlakatning reaksiyon-konservativ kuchlari S.Mikolaychik (1901—1966) va u 1945-yil avgustda tashkil etgan Polsha dehqonlar partiyasi, shuningdek, 1945-yil noyabrda tuzilgan katolik klerikallar doirasiga tayanuvchi Mehnat partiyasi atrofida birlasha boshladi. Polsha davlati mustaqilligining tiklanishiga intilgan vatanparvar kuchlar PIP atrofiga jamlandi.

PIPning muxolifat bilan kurashi va totalitar tuzumming o'rnatilishi

Parlamentda juda ko'pchiilikni tashkil etgan PIP S.Mikolaychik va uning tarafdarlari qarshiliginini ancha oson yengdi va o'z siyosatini qadamma-qadam amalga oshirdi. **1946-yil yanvarda** xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari natsionalizatsiya qilindi. Sanoatda band bo'lganlarning 75 foizi ishlaydigan 11 ming korxona davlat mulkchiligidagi o'tdi.

Urush paytidayoq davom etgan yer islohoti ham davom etdi. 1948-yilning oxirigacha kam yerli va yersiz dehqonlar qariyb 6 million hektar yerga ega bo'ldi. 747 ming yangi dehqon xo'jaligi yuzaga keldi, ularning ko'pi o'rtahol toifaga mansub edi. Islohotlar natijasida zamin-dorlar xo'jaliklari to'liq tugatildi.

PIP mamlakatda o'zi uchun ijtimoiy va siyosiy negiz yaratdi. 1948-yilda demokratik islohotlardan to'liq chekinish boshlandi.

1948-yil dekabrda Polsha sotsialistik partiyasi (PSP) PIP bilan birlashdi va yangi partiya — Polsha



Tavba-tazaru. Kansler V.Brandt Varshavadagi fashizm qurbanlari memoriali qoshida.

Birlashgan ishchi partiyasi (PBIP) tuzildi, u mamlakatda asosiy siyosiy kuch bo'ldi va yakkapartiyaviy diktaturani o'rnatdi. **Boleslav Berut** yangi partianing birinchi kotibi bo'ldi. U 1954-yilgacha mamlakat prezidenti va Vazirlar kengashi raisi edi. Olti yil mobaynida u sotsializm qurilishi sovet modelining e'tiqodli izdoshi sifatida mamlakatni yakka holda boshqardi.

Berut Boleslav (1892–1956) — 1948-yilda — PIP MK bosh kotibi, O'lka Xalq Radasi raisi (1944–1949), 1948–19542-yillarda — prezident va PXR Davlat kengashi raisi.

Tashqi siyosat

Polshada tanlash imkoniy yo'q edi. U sharqda va shimalda Sovet Ittifoqi bilan, janubda Chexoslovakiya bilan, g'arbda sovet qo'shinlari qismi joylashgan GDR bilan chegaradosh edi. Ayni paytda urush natijasida Polsha Sovet Ittifoqi tufayli Baltika dengizida keng dengizbo'yи zonasasi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi hamda dengiz davlati sifatida qaror topishida muhim rol o'ynagan Gdansk va Shotsin portlariga ega bo'ldi. Polsha, shuningdek, Potsdam konferensiyasi qaroriga ko'ra Germaniyadan tortib olingan g'arbiy yarmini ham oldi. Unga 2 million polyak ko'chirildi. Biroq urushdan keyingi dastlabki yillardayoq bu yerdan ko'chirilgan 6 million nemis G'arbiy Germaniyada aralash shaxslar ittifoqlarini tuzib, yerlarini qaytarishni talab qilib chiqishdi.

Shu bois ham Polsha tashqi siyosatda Sovet Ittifoqiga suyana boshladi. **1945-yil 20-aprelda** Moskvada do'stlik, o'zaro yordam va urushdan keyingi hamkorlik haqidagi Sovet-Polsha shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga Germaniya tomonidan bo'ladigan har qanday xavf-xatarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'zda tutdi. U 20 yil muddatga tuzildi va 1965-yili yana 20-yilga yangilangan shaklda tuzildi.

Polshaning mudofaa qobiliyatini oshirish uchun 1949-yil noyabrda sovet marshali **K.Rokossovskiy** (1896–1968) mamlakat mudofaa vaziri etib tayinlandi, u mazkur lavozimda 1956-yilgacha ishladi. 1949-yilda Polsha O'IYKga a'zo bo'lib kirdi. SSSR bilan iqtisodiy aloqalarni yaqindan o'rnatdi, zero mamlakat tashqi sav-

dosinging 70 foizi unga to'g'ri kelar edi. 1955-yilda Polsha Varshava Sharhnomasi tashkilotlariga a'zo bo'lib kirdi.

PXRning e'lom qillinishi 1952-yil 22-iyul — Polsha seymi PBIP taklif etgan yangi Konstitutsiyani ma'qulladi. Mamlakat Polsha Xalq Respublikasi deb e'lom qilindi. Konstitutsiya PBIPning rahbarlik roli va PXRning iqtisodiy asosi sifatida sotsialistik xo'jalik tizimini mustahkamladi.

1952-yill 26-oktabrda yangi Konstitutsiya asosida seymga saylovlar bo'lib o'tdi. 1951-ylldayoq Milliy front tuzilgan bo'lib, unga PBIP, Birlashgan dehqon partiyasi va yangilangan Demokratik partiya birlashdi va real hokimiyat kommunistlarga tegishli bo'ldi. Saylovlar Milliy birlik frontiga g'alaba keltirdi. Uming nomzodlari uchun 99 foiz saylovchilar ovoz berdi. Partiya diktarusining konstitutsiyaviy rasmiylashtirilish tugadi.

Mamlakatning 50—70-yillardagi iqtisodiyoti rivojlanishi

SSSR bilan yaqin iqtisodiy aloqalar agrar mamlakatdan industrial davlatga aylangan Polshaning yirik iqtisodiy muvaffaqiyatlariga imkon yaratdi. Polsha SSSRdan uzlucksiz energiya va xomashyo olib turdi. 1962-yilda Polsha energotizimi yagona "Mir" energotizimiga ulandi, 1964-yilda esa dunyoda eng yirik "Druja" neft quvuri ishlay boshladiki, uning nefti SSSRdan yuborib turildi va narxi jahon narxidan 30 foiz quyi qilib belgiliandi.

Sovet Ittifoqi Polsha sanoati mahsulotlarining asosiy iste'molchisi bo'ldi. Polsha ekskvatorlari, avtobuslari, kemalari, vagonlari, asbob-uskunalarini va ko'plab boshqa mahsulotlar shular jumlasidandir.

Bularning hammasi Polsha iqtisodiyotining tez rivojlanishini ta'minladi. Nisbatan qisqa muddatda u yuqori rivojlangan mamlakatga aylandi. Sanoatning an'anaviy tarmoqlari — ko'mir, to'qimachilik va oziq-ovqat sohalari niiodernizatsiya qilindi. Oltiylllik yillarida (1950—1955) yangi Guteda metallurgiya kombinati, Pulavaxra kimyo kombinati, Plotskda neft-kimyo kombinati, Gdanskda kemasozlik korxonasi va boshqa ko'plab yirik sanoat korxonalarini qurildi. Bu yiliarda mamlakat uchun yangi bo'lgan mashinasozlik, avtomo-

bilsozlik, elektrotexnika, kemasozlik tarmoqlari rivojlana boshiadi.

Mamlakatning sanoat ishiab chiqarishi 1950-yildan 1974-yilgacha 10 marta ko'paydi. Xalq xo'jaligi rivojlanishining yuqori sur'atlari milliy daromadning tezkor o'sishini ta'minladi: u 1950—1974-yillarda 5,4 marta o'sdi. Bu hol xalq xo'jaligiga ulkan kapital mablag'larni kiritish va xalqning moddiy va madaniy turmush tarzini ancha oshirish imkonini berdi. Savodsizlik tugatildi, bepul o'rta va oliy ta'lim hamda tibbiy xizmat yo'lga qo'yildi.

Bu yillarda jamiyatning ijtimoiy tuzllmasi ham o'zgardi. 1975-yil boshiariga kelib mamlakat aholisi 23 milliondan 33 millionga oshdi. Shahar aholisimning ulushi 35 dan 55 foizgacha o'sdi. Ishchilar soni oshdi, yangi ziyolilar paydo bo'ldi.

Xo'jalik qurilishidagi yutuqlar mehnatkashlar turmush darajasining oshishiga olib kelmadni. Polsha oziq-ovqat va turar joy yetishmovchiligini boshdan kechirdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi o'rtasida nomutanosiblik kuzatildi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi amalda rivojlanmadni.

1956-yilda mamlakatda siyosiy inqiroz boshlandi. Polsha xalqi siyosiy hayotni demokratlashtirish, so'z va yig'inlar o'tkazish erkinligi uchun kurashdi, mamlakatda ta'siri katta bo'lgan katolik cherkovini quvg'in qilishlarga qarshi chiqdi.

Demokratlashtirish uchun kurash

1956-yil 28—29-iyunda Polshada ishchilar ish tashiashi va talabalar namoyishl boshlandi. Politsiya va qo'shin bilan to'qnashuvlarda 53 kishi o'ldirildi. Namoyishchilar tarqatib yuborildi. Tashkilotchilar qanioqqa olindi.

PBIP rahbariyati yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish uchun partiya rahbarlik organlarida o'zgarish qildi. 1951-yilda barcha lavozimlardan olib tashiangan va qatag'onga uchragan **V.Gomulka** partiya yo'lboshchisi bo'ldi. Mashhur yo'lboshchilming qaytishi ma'lum muddatga mojaroni pasaytirib turdi. V.Gomulkaming siyosiy harakatlari asosan sotsializmning polyakcha modelini tadqiq etishga yo'naltirilgan edi. Biroq uning faoliyati faqat rejalashtirish usullarini yaxshilash, kolxozlarni tarqatish va barcha yerlarni dehqonlarga berish bilan

cheklandi, xolos. Korxonalarda cheklangan vakolatga ega ishchi kengashlari tuzildi. Mamlakat siyosiy hayoti-da hech narsa o'zgarmadi.

1970-yil 12-dekabrda oziq-ovqat tovarlari asosiy turlari narxlarining oshishi e'lon qilindi.

Gomulka Vladislav (1905–1982) — davlat va partiya arbobi, "sotsializmga o'tishning polshacha yo'lli" muallifi. PIP tashkilotchilaridan biri, Qarshilik harakati ishtirokchisi. 1956-yildan PBIP birinchi kotibi. U taklif etgan jamliyatni demokratiyalashtirish dasturi siyosiy va iqtisodiy inqilozga olib keldi. 1970-yilda iste'foga chiqdi.

Bu qaror Polshaning barcha port shaharlari — Gdansk, Gdin, Shotsin, Elblongda ishchilarning ommaviy chiqishlariga olib keldi. Ular muassasa va do'konlarni vayron eta boshlashdi. PBIPda yana rahbarlik o'zgardi. 1970-yil 20-dekabrda uning yo'lboshchisi etib **Edvard Gerek** (1913–2002) saylandi. Yangi rahbariyat ustuvor ijtimoiy vazifalar haqida so'zлади va narxlarning oshirilishini man etdi. Iqtisodiy ahvol bir qadar yaxshilandi, oylik ish haqi oshirildi, nafaqa, qo'shimchalar ko'paydi. Biroq bu hol vaqtinchalik edi.

Iqtisodiy muammolarni hal etishga urinishlar va ularning yakuni

Hukumat jadal industrial-lashtirish siyosatiga yana qaytdi. Polsha sotsialistik mamlakatlarga xos bo'lgan iqtisodiyotga ega edi: unda mehnat samaradorligi past bo'lib, barcha jamg'armalar zarar keltiradigan fabrika va zavodlar hamda ulkan boshqaruv apparatini ta'minlashga ketdi. O'IYK mamlakatning davlat xarakatlarini qoplash uchun yetarlicha mablag' ajrata olmas edi.

Polsha hukumati g'arb mamlakatlariiga kredit so'rab murojaat qildi. U yerdan qurilma va texnologiyalar sotib olindi. Biroq o'z mahsulotini jahon bozoriga eksport qilish yo'lli bilan kreditlarni qoplash mumkin degan mo'ljal o'zini oqlamadi — Polsha tovarlari raqobatga bardosh berolmas edi. 70-yillar oxiriga kelib, Polshaning tashqi qarzdorligi 23 milliard dollarni tashkil etdi.

1976-yil yozida oziq-ovqatlar narxini yana bir bor oshirish va shu yo'l bilan tashqi qarz foizlarining hech bo'lmasa bir qismini to'lashga urinish ish tashlash

harakatini yuzaga keltirdi va hukumatni o'z rejasidan voz kechishga majbur etdi. Ijtimoiy norozilik kuchaygan bir sharoitda muxolifat tuzilmalari shakllana boshladi. Ishchilarni himoya qilish qo'mitasi tuzildi. Rim-katolik cherkovi ulkan ta'sirga ega bo'ldi. 1978-yilda Rim papasi lavozimiga Krakov arxiyepiskopi **Karol Voytila** (u Ioann Pavel II nomini olgan) saylanishi bilan bu ta'sir keskin oshdi. Uning 1979-yil iyunda Polshaga tashrifi chog'ida PBIP siyosatini keskin tanqid qilishi muxolifatni kuchaytirdi va jamiyatda keskinlikning yangi bosqichiga sabab bo'ldi.

"Solidarnost" kasaba uyushmasi faollyati Iqtisodiy ahvolning bundan keyingi yomonlashuvi 1980-yilning iyul-avgustida Baltika sohillarida, ayniqsa Gdansk, Gdin, Shotsinda yangi ish tashlash to'lqinini yuzaga keltirdi. Gdansk verflarida (kemasozlik korxonalar) **"Solidarnost"** mustaqil kasaba uyushmasi paydo bo'ldi. Unga ish tashlash qo'mitasining rahbarlaridan biri, ishchi-elektrik **Lex Valensa** boshchilik qildi. Qisqa vaqtda "Solidarnost" ommaviy harakatta aylandi. Unda millionlab polyaklar, shu jumladan PBIP a'zolari ishtirok etdi. Bu harakat diktatura, Polsha suverenitetini cheklashga qarshi, sotsializm va partiya apparati zo'ravonligiga qarshi umummilliy norozilikni ifodaladi.

Valensa Lex (1943-yilda tug'ilgan) — jamoat va davlat arbobi. 1967—1987-yillarda Gdanskdagи kemasozlik zavodida elektrik bo'llib ishlagan. Mustaqil kasaba uyushmalari tashkilotchilaridan blri. 1980-yilning sentabridan "Solidarnost" ommaviy ijtimoiy harakatga boshchilik qilgan. 80-yillar oxirlariga qadar siyosiy muxolifatning eng faol arbolaridan biri. Huquqni himoya qilish faoliyatni uchun tinchlik bo'yicha Nobel mukofotli sovrindori.

Hukumat yon bosishlarga borishga majbur bo'ldi. Hukumatning "Solidarnost" yo'lboshchilari bilan kelishuvi senzurani yumshatish, ish haftasini qisqartirish, ommaviy-axborot vositalariga erkinlikni ta'minladi. Biroq bu kelishuvlar siyosiy inqiroz rivojini to'xtatmadı. Butun mamlakatni ish tashlashlar qamrab oldi. "Solidarnost" va boshqa muxolifat tashkilotlari tub iqtisodiy o'zgarishlar o'tkazish, PBIPning o'z rahbarlik roli-

dan voz kechishi va erkin saylovlari o'tkazishni talab etdilar. Bu harakat katolik cherkovi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

E.Gerek PBIP birinchi kотиhi lavozimidan chetlatildi, partyaning o'zida esa ta'sirli islohotchi qanot shaklandiki, u "Solidarnost" bilan kelishisliga yo'l topish zarur deb hisobladi. Partiyaming mamlakatdagi mavqeい kuchsizlandi. PBIP va "Solidarnost" o'rtasidagi mojarо kuchaydi, iqtisodiy ahvol esa ommaviy ish tashlashlar tufayli ishlab chiqarishning qisqarishi oqibatida fojaviy ahvolga kelib qoldi.

**V.Yaruzelskiy.
Muammoni hal etish
yo'llari**

Hosilning yaxshi bo'limganligi va oziq-ovqat bilan bog'liq holdagi ahvolning yomonlashuvi 1980—1981-

yilning qishida norozilik to'lqinini kuchaytirib yubordi. **1981-yilning fevralida** Polsha mudofaa vaziri, general **Voysex Yaruzelskiy** (1923-yilda tug'ilgan) bosh vazir etib tayinlandi. Biroq norozilik to'lqinlari pasaymadi: 1981-yilning iyulida Polsha shaharlarida nonning narximi kamaytirishni talab qilib chiqqan ayollarning ommaviy namoyishi bo'lib o'tdi. 1981-yilning sentabrida V.Yaruzelskiy PBIP MK birinchi kotibi etib saylandi. U Katovitsedagi ish tashlaganlarga qarshi ko'zidan yosh chiqaruvchi gazdan foydalanish uchun qo'shimlarga buyruq berdi. Shuningdek, u 1981-yil 14-dekabrda mamlakatda harhiy holat e'lon qildi. "Solidarnost"ning faoh-yati man etildi, uning yo'lboshchilari qamoqqa olindi.

Harbly holat kiritilishi bilan ish tashiash harakati to'xtab qoldi. 1982-yil yanvardan esa iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshiadi. Ularning asosida uch tamoyil—korxonalar mustaqiligi, o'z-o'zini boshqarishi va o'z-o'zini moliyaviy ta'minlashi turardi. Ishlab chiqarishhing pasayishi to'xtatildi, 1982-yilning yozidan boshlab esa hatto o'sish boshlandi. Biroq baribir sezilarli samaraga erishilmadi. 1983-yilning yozida harbiy holat bekor qilindi.

1988-yilda partiya siyosiy plyuralizmga o'tish haqida qaror qabul qildi. Muxolifatning ochiq faoliyatga haq-huquqi tan olindi, "Solidarnost" faoliyatiga ruxsat berildi, saylov tizimi o'zgartirildi va parlament islohoti o'tkazildi.

1989-yilning iyunida parlament quyi palatasi — seymga saylovlar bo'lib o'tdi. Barcha qarama-qarshi kuchlar kelishuviga muvofiq hal etildiki, 65 foiz o'r'in PBIP va uning ittifoqchilariga beriladi, qolgan 35 o'r'in uchun barcha siyosiy partiylar kurashadi, biroq ularni muxolifat egalladi. U yana ta'sis etilgan ikkinchi pala-ta — senatdagi barcha o'rirlarni ham oldi. Ikkala pala-tanining qo'shma majlisida respublika prezidenti etib V.Yaruzelskiy saylandi.

**Parlament
demokratiyasining
e'lon qilinishi. "Shok
terapiyasi"**

Hukumatni tasdiqlash masalasida PBIP ittifoqchilari — dehqonlar va demokratik partiya u bilan aloqani uzib, muxolifat tomoniga o'tdi.

PBIPning to'rt vaziri ishtirokida (25 tadan) koalitsion hukumat tuzildi, uni katoliklar doirasi vakili, o'tmishda "Solidarnost" ning maslahatchisi bo'lgan **Tadeush Mazovetskiy** boshqardi. PBIP real hokimiyatdan mahrum bo'ldi. Polsha parlament demokratiyasi yo'liga kirdi.

Yangi siyosiy va iqtisodiy tuzilmalarni shakllantirish jarayoni boshlandi. Mamlakat Polsha respublikasi deb nomlandi. Harbiy kuchlar xavfsizlik organlari va ichki ishlarda **departizatsiya** (partiyasizlik), **depolitizatsiya** (siyosatsizlik) va **deideologizatsiya** (mafkrurasizlik) amalga oshirildi. PBIP ko'ppartiyaviy tizimli va bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan parlament demokratiyasi taraf-dorligini bildirdi.

Yangi hukumatning iqtisodiyotni qayta qurish bo'yicha chora-tadbirlari rejali markazlashtirilgan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga tezkor o'tishni ko'zda tutdi va "**shok terapiyasi**" degan nomni oldi. Marx-navo ustidan nazorat qilish tugatildi, davlat mulkchiligini xususiyashtirish boshlandi. Bu hol bozorni barqaror-lashtirishga erishishga imkon berdi, Polsha pul birligi konvertizatsiya qilindi.

Yaruzelskiy Voysex (1923-yilda tug'ilgan) — qo'shin generali. 1965—1968-yillarda — Polsha qo'shinlari Bosh shtabl boshlig'i; 1968—1983-yillarda — PXR milliy mudofaa vaziri, 1981—1985-yillarda — PXR Vazirlar Kengashining raisi. 1989-yilning iyulidan 1990-yilning dekabrigacha Polsha prezidenti.

90-yillardagi mamlakatning muammolarni hal etish yo'llari

lardan oshib ketdi. G'arb yana kredit yordami berdi.

1990-yilning dekabrida umumiy ovoz berish yo'lli bilan mamlakat prezidenti etib Lex Valensa saylandi, biroq 1991-yilgi parlament saylovlarida partiyalardan birortasi ham ko'pchilik ovozni ololmadi. Yll mobayimda uchta hukumat o'zgardi. **1992-yilning iyulida Xanna Suxotskaya** "Milliy murosa" hukumatiga boshchilik qildi, bu hukumat davlatning xo'jallik faoliyatini cheklash, korxonalarни xususiyashtirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashni tezlatish yo'lidan bordi.

Turmush darajasining pasayishi, ommaviy ishsizlik, mehnat kishilarining ijtimoiy jihatdan kuchsiz himoyalanganligi yangi norozilik to'lqinini yuzaga keltirdi va mamlakatning ijtimoiy-siyosiy ahvolini murakkabiashtirdi.

Yangi hukumat davlatni boshqarishga tayyor emas edi. Ularda Polshami tiklash yoki uni rivojlantirishning biror-bir jiddiy dasturi yo'q edi.

PBIP Demokratik so'l ittifoqqaga aylantirildi, u 1994-yilgi seymga saylovlarda g'alaba qozondi. Dehqonlar partiyasi bilan birgalikda ular koalitsion hukumat tuzishdi. **1995-yil noyabrda** Polshada prezidentlik saylovları bo'llib o'tdi, bu saylovlar kommunistlar yo'boshchisi **Aleksandr Kvashnevskiy** g'alabasi bilan tugadi.

Mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha samarah kompaniya boshlandi. 1995-yilda yoq ishlab chiqarishning o'sishi 6 foizni tashkil etdi, Polshaga xorijiy investitsiyalar oqimi kuchaydi.

2000-yilda A.Kvashnevskiy saylovlarda yana g'olib chiqdi. Mamlakatda bozor munosabatlarni rivojlantirish, demokratiya, milliy suverenitetni mustahkamlash davom ettirilmoqda.

2001-yll sentabrda mamlakatda umumxalq saylovları bo'lib o'tdi. Demokratik so'l ittifoq hukumatni shakllantirish huquqini qo'lga kiritdi. "Solidarnost" mag'lubiyatga uchradi. 2002-yll yanvarida Polshaga Rossiya prezidenti V.Putin rasmiy tashrif bilan keldi. V.Putin va A.Kvashnevskiy o'rtaidagi uchrashuv ikki mamlakat o'rtaidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash

90-yillarda Polsha hukumati oldida turgan asosiy muammo tashqi qarzdorlik edi. Bu "qarzdorlik 50 milliard dol-

yo'lida birinchi qadam bo'ldi. Polsha NATOga kirgan 1999-yilda bu munosabatlar susayib qolgan edi.

Qisqacha mazmumi

- 1946-yil yanvar — xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlanini natsionalizatsiya qilish
- Zamindorlik xo'jaliklarining tugatilishi
- 1948-yil dekabr — PIP va PSPning birlashishi, PBIPning tashkii etilishi
- Mamlakat prezidenti — Boleslav Berut (1954-yilgacha), sotsialzm qurilishining sovet modeli tarafdoni
- 1949-yil — Polshaning O'IYKga kirishi
- 1955-yil — Polshaning Varshava Sharhonmasi tashkilotiga kirishi
- SSSR bilan iqtisodiy aloqalar ("Mir" tizimi— elektroenergyla, "Drujba" neft quvuri)
- 1950-yildan 1974-yilgacha — sanoat ishlab chiqarishi 10 marta oshdi, milliy daromad 5,4 marta o'sdi
- 1952-yil 22-iyul — yangi konstitutsiyaning qabul qilihishi. Polsha Xalq Respublikasining e'lon qilinishi
- 1956-yil iyul — Poznanda ishchi va talabalar norozilik chiqishiari
- V.Gomulka — PBIP yo'lboshchisi: sotsializmning Polsha modeli ishiab chiqilishi
- Partiya rahbari — E.Gerek
- G'arb mamlakatlaridan qarzlar
- 1976-yilning yozi — ish tashiash harakati
- 1980-yil — ishchilarning Gdansk, Gdin, Shotsindagi ish tashiashiani, "Soildarnost" kasaba uyushmasi — Lex Valensa
- 1981-yil fevral — harbiy holatning kiritilishi, "Soildarnost"ning man etilishi va uning yo'lboshchilarining qamoqqa olinishi
- 1982-yil yanvardan — iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi
- 1983-yil — harbiy holatning bekor qilinishi
- 1988-yil — demokratizatsiya jarayonining boshianishi (siyosiy plyuralizm)
- 1989-yil — mamlakat prezidenti — general V.Yaruzelskiy; iqtisodiyotni qayta qunish — "shok tereplyasi"
- 1990-yil dekabr — mamlakat prezidenti — Lex Valensa
- 1995-yil — prezident A.Kvashnevskiy: Iqtisodiyotning o'sishi, ahoil turmush darajasining oshishi, xorijiy investitsiyalar

- 1999-yil — mamlakatning NATOga a'zo bo'ilb kirishi.
- 2002-yil — Rossiya bilan aloqalar mustahkamlanishi

Savollar

- ? 1. Polshada 50-yillarda totalitar tuzumning o'rnatilishiga qanday voqealar imkon yaratdi?
2. Mamlakatda yakkipartiyavlylikning o'rnatilishida PBIP qanday rol o'ynadi?
3. Polsha hukumati tashqi siyosatni amalga oshirishda nima uchun SSSRga tayandi?
4. Polshada 50—60-yillarda qanday muammolar hal etildi?
5. Mamlakatning demokratizatsiya uchun kurashida o'zini ko'rsatgan eng yorqin siyosiy yo'lboschchlaridan qaysi biringi ko'rsata olasiz?
6. Polsha hukumati 80-yillar oxirida olib borgan "shok teraplyasi" siyosatining mohiyati nimada?
7. Mamlakat bizning kunlarda qanday muammolarini hal etishi lozim? PXR iqtisodiy muammolarini hal etish bo'yicha o'z variantingizni taklif eting.

25-§. SSSR: TOTALITARIZMDAN DEMOKRATIYAGA

SSSR harbiy g'alabasining bahosi Ikkinci jahon urushi tngadi. Tarixda eng uzoq va eng og'ir davom etgan uruslida sovet xalqi nafaqat o'z ozodiigi va mustaqilligini himoya qlla oldi, balki Yevropa va jahon sivilzatsiyasini fashistlar tutqunligidan saqlab qolish ishiga hal qiluvchli hissa ham qo'shdi.

Ma'muriyatçilik va majbur qilishga asoslangan davlat tuzumi favqulodda sharoitlarda samarall bo'lib chiqdi. Mamlakatda qat'iy intizom o'rnatildi. Transport uzluksiz ishiadi. Qo'shinlar oziq-ovqat bilan doimiy ta'minlandi. Xomashyo zavodlarga grafik bo'yicha yetkazib berildi. Biroq g'alabaning boshqa, achchiq tomoni ham bor edi. SSSRning harbiy talafoti 27 million kishini tashkil etdi, Germaniya 10 million kishisini yo'qotdi. G'olib va mag'lub yo'qotishlarining bunday nomuvofiqligi qo'mondonlikning xatolari, shuningdek sovet rahbariyatining millionlab kishilar hayotiga napisandlik bilan qarashi, talafotlarga qaramay g'alabaga intilish bilan izohianadi.

Okkupatsiya qilingan hududlardagi klshilarning ko'pchiligi Germaniyaga majburiy ishlarga olib kelindl,

front ortida va nemislar bosib olgan hududlarda ochlik va kasalliklardan millionlab kishilar halok bo'ldi. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, Sovet Ittifoqi Ikkinchini jahon urushi paytida 40 million kishisini yo'qotdi. Ularning ko'pchiligi 18 dan 55 yoshgacha bo'lgan kishilar, ya'hl ahollining eng asosiy ishiab chiqaruvchi kuchlari edi. Mamlakatdagi demografik imqiroz urushdan keyingi butun davr mobaynida chuqur sezildi.

Mamlakatning urush-dan keyingi davr iqtisodiyoti

Mamlakatning xalq xo'jaligiga ulkan zarar yetkazildi. Fashistlar vaqtincha bosib olin-gan viloyatlarni varvarlarcha

talashdi. Ular sovet qo'shinlari zarbasi ostida chekinayotib, "yondirilgan zamin" taktikasini qo'llashdi. Bosqinchilar 1710 shahar va qasaba, 70 dan ziyod qishloqni to'ilq vayron etdi va yoqib yubordi. 32 ming yirik va o'rta sanoat korxonalari, 65 ming km temir yo'l vayron etildi. Qisbloq xo'jaligiga ulkan zarar yetkazildi. Urush yillari SSSR o'z milliy boyligining 70 foizini yo'qotdi.

Rossiyaning g'arbiy rayonlari, Ukraina, Belorussiya va Kavkazda urush yillarda yer yaroqsiz holga keldi. Ishchi kuchi yetlshmas, texnika, o'g'itlar yo'q edi. 1947-yilda Rossiyaning qariyb barcha Yevropa qismida hosil bo'lindi. Qishioq ahohsi shaharlarga ish qidirib ketdi.

Sovet xalqi o'zgarishlar, davlat tuzumining yumshashini kutardi. Biroq Stalin tomonidan yaratilgan tuzum yanada qattiqlashib bordi, uming shaxsiga sig'inish turmush tarziga aylandi, markaziy byurokratik apparat siyosat, iqtisodiyot va madamiyatning barcha tomonlari ni nazorat ostiga oldi. Stalining shaxsiy hokimiyyati bar-qarorligicha qoldi. Tashqi siyosatda stalincha tuzum sovet qo'shinlari tomonidan ozod etilgan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida to'liq nazorat o'matishga in'tildi.

Qatag'oniar siyosati-ning davomi. Stalinning o'ilmi

1952—1953-yillarda Stalin tuzumi yangi qatag'onlar kompamiyasini boshladi. Barcha milliy respublikalarda

taniqh madahlyat arbollarini qamoqqa olish boshlandi. Moskvada 1953-yilning yanvarida Stalinga qarshi suiwasdda ayblangan bir guruh shifokorlar qamoqqa olimdi. Bularning hammasi 30-yillar senariysi bo'yicha amalga oshirildi. Biroq ommaviy terrorga tayyorgarlikning

1. YEVROPA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG



1945y. 4-11.II Qrim konferensiyasi va 1945y. 17.VII-2.VIII Potsdam konferensiyasi caroriga ko'ra Germaniya va Avstriya okkupatsiya zonalari:

- Angliya - SSSRga - Fransiya

Potsdam konferensiyasi caroriga bincan berilgan Germaniya hududi

- SSSRga - Polshaqa

(1950y. 6.VII da Poisha va GDR, 1964y. 12.VI da SSSR va GDR, 1970y. 12.VIII da SSSR va GFR, 1970y. 7.XII da Poisha va GFR o'tasida tuzilgan shartnomaga ko'ra tashiqlangan yangi chegaralar)

1945y. 29.VI daqgi SSSR va Chexoslovakiya o'tasida tuzilgan shartnomaga ko'ra USSR bilan qayta qo'shilgan Zakarpate Ukrainsi

1945y. 16.VIII da SSSR va Poisha o'tasida tuzilgan shartnomaga ko'ra Poishaga berilgan hudud

1947y. 10.II da Finlandiya bilan tuzilgan tinchlik shartnomasiga ko'ra SSSRga qaytarilgan Petsamo oblasti (Pechengi)

1947y. 10.II Parij shartnomasiga ko'ra Italiyadan ajratilan hudud

- Yugoslavia - Gretsiyaga

Triestvest erkin hududi (1954y. shinoligi qismi Triest shahri bilan birga Italiyaga, janubiy qismi Yugoslavia qo'shildi) 1949y. oxiridagi chegaralar berigan

Harbiy-siyosiy bioklar va integratsiyaviy yuushmalar ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar

NATO (Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti) 1949y. 4aprel, AQSh, Kanada 1955y. 14may Varshava shartnomasi tashkiloti


1949y. O'IZOK (O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi), Vietnam, Kuba, Mongoliya

YEIH (Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati), 1957y.

YEESA (Yevropa erkin savdo-sotiq assotsialiyasi), 1960y.

G'YEI (G'arbiy Yevropa Ittifoqi), 1955y.

2. LOTIN AMERIKASI XX ASR IKKINCHI YARMIDA



3. XX ASR IKKINCHI YARMIDA AFRIKA



4. XX ASR IKKINCHI YARMIDA SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI



Fugorolar urushlari va
to'qashuvlar
1945yilda sovet qo'shiniari
yapon bosqinchilaridan ozod
qilgan hudud
Xitoy Xalq ozodik armiyasining
1946-1949yillar fugorolar
urushi davridagi harakati

1979yilda Xitoy qo'shinarining
Veitnamga bostirib kirishti

Vietnam Demokratik Respublikasi
e'lch qilingan hudud

VDRga qarshi urush boshlanishi
(1945-1954) - fransuz qo'shinarining
kiritilishi

1954y. may oyida Vietnam Xalq
Armiyasi tomonidan Dernbentu
cal'asining olinishi
1954yilgi Jeneva bitimiga ko'rea
Veitnamning shimalyi va janubiy qismi
o'rasisidagi demarkatsiya chizig'i

Koreyadagi sovet va amerika qo'shinar
javobgarlik zonalarning chegaralovchi
chizig'i (1945y. avgust)

1946y. fransuz qo'shinarining Laosga
huumi va fransuzlar hukmronligining
o'rnatilishi

1954y. Jeneva bitimiga asosan fransuz
qo'shinarining Laosdan olib chiqib ketishi.
Laos siyosiy mustaqilligining xalqaro
miyosida tan olinishi

E'lch qilindi:

1949y. 1. X Xitoy Xalq Respublikasi

1975y. 2. IX Vietnam Demokratik Respublikasi

1948y. 9. IX Koreya Xalq Demokratik Respublikasi

1945y. 12. X Laos mustaqilligi

1975y. 2. XII Laos Xalq Demokratik Respublikasi

1948y. 15. VIII Koreya Respublikasi

Xaritada raqam bilan belgilangan:

- 1 - Koreya Xalq Demokratik Respublikasi
- 2 - Vietnam Sotsialistik Respublikasi
- 3 - Laos Xalq Demokratik Respublikasi
- 4 - Koreya Respublikasi
- 5 - Kambodja (Kampuchiya 1979-1989)

Mashtab 1: 50 000 000

1947yilgi Britaniya mustamikaları: Hindiston, Birma va Shri-Lanka chegaraları

1949y. Hindiston va Pokiston o'rjasida Kashmirda o'rnatalgan emaratsiya chiziq'i
Pokiston va Hindiston to'qashuvi davrida pokiston va hind qo'shini harakatining asosiy yo'naliishi (yillari ko'satilgan holda)

1971 1962y. Xitoy qo'shini harakatining asosiy yo'naliishi

1979y. Afg'onistonga sovet qo'shini bostirib kirishining asosiy yo'naliishi

Afg'on mujahid otryadlari harakatining asosiy yo'naliishi

Mujahidlarning Afg'oniston bian qo'shni davlatlar hududidaq yirish bazalari

1988y. Iraq qo'shini harakatining asosiy yo'naliishi

1982-1986yillarda Eron qo'shini harakatining asosiy yo'naliishi

1980-1988yillarda eron-iraq urushi davrida eron qo'shini harakatining Eron hududiga ichkarisiga ko'pros kirib borish chiziq'i

Kurdlar joylashgan rayonlar

Tamil harakatining faoliyat huddisi

1954yilda Hindiston bilan qo'shilgan sohib fransuz va portugal mustamikaları

Integratsiyaviy birlashmalar

"Islam konferensiyasi" tashkiloti (IKT), 1971y.

Markaziy Sharqmoma tashkiloti (SYENTO), 1955-1979yillar

Masstab 1: 43 000 000



5. XX ASR IKKINCHI YARMIDA O'RTA SHARQ VA JANUBIY OSIYO MAMLAKLATLARI

Hindiston bo'limi. 1947y. 15. VIII dominionlar ta'limi
Hindiston (Hind Ittifoqi)


Pokiston

1971y. 26. III da e'lon qilingan Bangladesh Xalq Respublikasi huddisi

1948y. 4. II da tashkil topgan va 1989y. 18. VI da Myanma Ittifoqi deb qayta o'zgartirilgan Birma mustaqil davlati (Birma Ittifoqi) huddisi



6. YAQIN SHARQ MAMLAKATLARI XX ASR IKKINCHI YARMIDA



7. YEVROPA 80 – 90 YILLAR OXIRIDA



Xaritada raqam bilan belgilangan:

- | | | | |
|----------------|----------------|---------------------------|---------------|
| 1 Estonia | 5 Slovakiya | 9 Sloveniya | 13 San-Marino |
| 2 Niderlandiya | 6 Moldaviya | 10 Xorvatiya | 14 Vatikan |
| 3 Belgiya | 7 Shveysarsiya | 11 Bosniya va Gersegovina | 15 Albaniya |
| 4 Lyuksemburg | 8 Lixtensteyn | 12 Yugoslaviya | 16 Makedoniya |




Yugoslaviya federatsiyasi chegaralari:

- 1990yilda
- 1993yilda
- Serb Yugoslaviya respublikalari mustaqiligi elon qilingan sanalar
- 1991yigi to'qnashuv paytida Yugoslaviya armiya qo'shimlarining Sloveniya chegarasiga surilishi
- 1991y, Xorvaliyedagi etnik to'qnashuv rayonlari
- Serb qishloqlaridan musulmonlar tomonidan o'tkazilgan etnik tozalashga javoban serb armiya o'qqa tutgan Bosniya shaharları

1995y. Bosniya va Gersegovina bo'yicha tinchlik shartnomasining hududu shartari

- [Legend items: grey square for Xorvaliyaga o'tgan hudud, grey rectangle for Serb zonası, grey square for Xorvalar tomonidan nazorat qilinadigan hudud, grey rectangle for Bosniya musulmonlari zonası]
- BMT qo'shnini harby kontingenching Bosniya va Gersegovinadagi joylashuvli Serb Krajina respublikasi kasiga carshi "Tofon" operatsiyasi borishda Xorvaliy armiyasi harakating asosiy vo'naisihi (1995y, avgust)
- 1995y. Bosniya va Gersegovinada xorvat-musulmon koalisiyasi qurolliguchilarining asosiy harakat vo'naisihi

8. MDH MAMLLAKATLARI





Stalinni dafn etish marosimi.

eng qizg'in paytida 1953-yilning 5-martida to'satdan Stalin vafot etdi.

Stalin (Jugashvili) Iosif Vissarionovich (1878–1953) — 1922-yilda bolsheviklar partiyasiga boshchilik qildi va mamlakatda ommaviy terrorga asoslangan totalitar tuzumi o'rnatdi. 1941—1945-yillarda — urush yillarda — Oliy bosh qo'mondon. Urush tugaganidan so'ng "sovuq urush" tamoyillarining qaror topishiga hissa qo'shgan.

Stalin yaratgan tizim bir kishining avtoritetiga asoslangani uchun birmuncha vaqt partiyada "jamoaviy rahbariyat" yuzaga keldi. Biroq tez orada partiyada hokimiyat uchun shafqatsiz kurash boshlanib ketdi. Stalining eng yaqin safdoshlaridan biri **Lavrentiy Beriya** (1899—1953) uning dastlabki qurbanini bo'ldi. U 1953-yilning iyunida qamoqqa olindi, dekabrda otib tashlandi. Georgiy Malenkov (1902—1988) Ministrlar Sovetining raisi bo'lib ikki yil ishladi.

N.S.Xrushev. Shaxsga sig'inishning fosh eti- Hokimiyat sekin-asta 1953-yilda KPSS MK bиринчи lishi. "Iliqlik" davri kotibi etib tayinlangan N.S.Xrushevga o'ta boshladidi.

1955-yilda u Malenkovni ishdan chetlatdi, uning o'mini Stalin davrida mas'ul lavozimlarda ishlagan **Nikolay**



N.S.Xrushev.

Bulganin (1895—1975) egalladi. Uch yil o'tgach N.Bulganin o'z navbatida bu lavozimdan olindi va Ministrlar Sovetining raisi etib N.Xrushevning o'zi tayinlandi. Shu bilan partiyadagi jamoaviy rahbarlik davri tugab, 1964-yilning kuzigacha davom etgan Xrushev davri boshlandi.

1956-yilda partianing XX syezdida Xrushev Stalin shaxsiga sig'inishni fosh etish bo'yicha maxfiy ma'ruza qildi. Unda Stalinni ommaviy qatag'onlarda va qonunchilikdan chekinishda aybladi. Bu hol partiya va sovet organlarining stalincha rahbariyat tarafдорлари — Molotov, Kogonovich, Malenkov, Voroshilovlardan ozod bo'lishga olib keldi. Ular "antipartiyaviy" guruh deb e'lon qilindi.

Xrushev davrida mamlakatning madaniy hayotida ayrim erkinliklarga yo'l qo'yildi, u "**iliqlik**" deb ataldi. Partiya senzurasi zanjirlaridan ozod bo'lgan adabiyot, teatr, kinoda yangilik kurtaklari tez o'sa boshladи. Bu davrda jahon madaniyatiga hissa bo'lib qo'shilgan muhim badiiy asarlar yaratildi. Biroq erkinlik (liberalizatsiya) muayyan chek-chegaraga ega bo'lib, ijodkor undan tashqariga chiqsa qattiq jazolanardi. B.Pasternakning "Doktor Jivago" romanining taqdiri ham shunday bo'ldi. Uning muallifi bu roman uchun

1958-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu hol partiya targ'ibotida keskin norozilik uyg'otdi. B.Pasternakni chiqishtirmaslik umrining oxirigacha davom etdi. 1962-yilda avangardchi rassomlar o'z asarlari ko'rgazmasini Moskvadagi Izmaylovsk bog'ida o'tkazishga ruxsat olishdi, biroq ko'rgazma endi ochilishi bilan buldozerlar olib kelinib, butun ekspozitsiya vayron qilindi. Shu yilning o'zidayoq N.Xrushevning ijodiy ziyoldar bilan keskin to'qnashuvi yuz berdi, o'shanda ijod erkinligini talab qilib chiqqan bir guruh shoirlar qoralandi, uzoq vaqt qatag'onga duchor etildi (E.Yevtushenko, R.Rojdestvenskiy, A.Voznesenskiy va boshqalar). Fikr va ijod erkinligi partiya aqidalariga zid kelmaydigan doiradagima ruxsat etildi.

Mamlakat iqtisodiyoti-ning isloh etilishi

Bu davrda iqtisodiyot sohasida ham ayrim yutuqlarga erishildi. Iqtisodiy tizimni markaziy boshqaruvdan voz kechilgan holda yuritishga urimshiar bo'ldi. Mamlakat xalq xo'jaligi soveti mamlakatni bir qancha iqtisodiy rayonlarga bo'ldi. Vazirliklar amalida tugatildi, markaziy reja komissiyasining roli yo'q darajaga kelib qoldi. Bu hol iqtisodiy o'sishning boshlamishiga turki bo'ldi. Po'lat, neft, elektroenergiya ishlab chiqarish oshdi. Sovet Ittifoqi qit'alararo ballistik raketa simovini o'tkazdi.

1957-yilda orbitaga hirinchi sun'iy Yer yo'idoshi chiqarildi.

1961-yilda esa fazogir **Y.A.Gagarin** dunyoda birinchi bo'lib ko'motga uchdi. Harbiy havo va suv osti floti takomillashtirildi. Armiya yangi turdag'i, jumladan, yadro quroliga ega bo'ldi.

Ammo sovet rahbariyati xalq iste'moli mollari ishiab chiqarishga ilgarigidek ikkinchi darajali masala deb qaradi. Iste'mol tovarlari yetishmas, sifati past, ular iste'molchilarning ehtiyoji va talabini qondirmas edi. Xizmat ko'rsatish sohasi deyarli rivojlanmadı. Mazkur yo'nalish bo'yicha Sovet Ittifoqi iqtisodi rivojlangan mamlakatlar ichida oxirgi o'rnlardan birida qolaverdi.

Qishloq xo'jaligini qayta tashkil qilish

Kolxoz tizimi SSSRda aholini boqish va sanoatni muhim xomashyo bilan ta'minlashga qodir emasligi ko'rindi. Kishilarning shaharga ko'chib

kelishini chegaralagan holda ular qishloqda majburan ushlab turildi. 50-yillar o‘rtalarida butun aholining 35 foizi qishloqlarda istiqomat qilar edi. Vaholanki, rivojlangan davlatlarda bu paytda fermerlar umumiy aholining 3—5 foizini tashkil qilgan. Mashina-traktor stansiyalari tugatildi. Jamoa xo‘jaliklari esa kengaytirildi. Qozog‘iston shimolidagi qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlari yuz minglab gektarga kengaydi, mamlakat bug‘doy yetishtirishni ko‘paytirdi. Biroq bir necha yildan so‘ng yangi yerlar eroziyaga uchradi, qoloq agrotexnika bu borada ishlab chiqarishning pasa-yishiga sabab bo‘ldi. Sovet Ittifoqi donni AQSHdan sotib olishga majbur bo‘ldi.

**Tashqi siyosatdagi
o‘zgarishlar**

Xrushev “tinch-totuv yashash” siyosatini olib borishini bildirdi. Bunda barcha xalqaro muammolarni faqat tinch yo‘l bilan hal etish ko‘zda tutilgan edi. Sovet Ittifoqi bu davrda xalqaro ahvolni yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘ra boshladи. BMT SSSRning tashabbusiga ko‘ra 1960-yilda mustamlakalardan voz kechish to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qildi va shundan so‘ng mustamlakachilik tizimi yemirila boshladи. Sovet davlati Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashini qo‘llab-quvvatladi. Hindiston, Indoneziya, Birma, Afg‘oniston bilan do‘slik aloqalari o‘rnatildi. Yugoslavia bilan munosabatlar yo‘lga qo‘yildi. Xrushev ko‘pgina xorijiy mamlakatlarga safar qildi. Xusan, 1958-yilgi Amerikaga qilgan safari Sovet Ittifoqining jahon miqyosidagi obro‘sini bir qadar ko‘tardi.

Xrushev Nikita Sergeyevich (1894—1971) — KPSS MK rahbari, SSSR Ministrlar Sovetining raisi (1958—1964). Stalin shaxsiga sig‘inish oqibatlarini fosh etish va unga chek qo‘yish jarayoniga boshchilik qildi. U davlat boshqaruvining ma‘murly-buyruqbozlik tizimini demokratik tizimga o‘zgartirishga harakat qilgan.

**L.I.Brejnev. Partiya
diktaturasining
tiklanishi**

60-yillar boshida mamlakatda Xrushev va uning siyosatidan norozilik kayfiyati uyg‘ondi. Urushdan keyin birinchi

marta narx-navo o'sa boshiadi. 1962-yilning kuzida mamlakatda non tanqisligi yuzaga keldi, odamlar qatorlashib nonga navbatga tura boshladi. Savdoga eng zarur tovarlar kelmay qo'ydi. Siyosiy va iqtisodiy ahvol chuqurlashuvi sababli 1964-yil 16-oktabrda MK plenumi N.Xrushevni egallab turgan barcha lavozimlaridan bo'shatish to'g'risida qaror qabul qildi. KPSS MK rahbarligiga SSSR Olly Soveti Prezidiumi raisi L.I.Brejnev, Ministrlar Soveti raisi lavozimiga esa A.N.Kosigin saylandi. "Xrushev davri" tugab "Brejnev davri" boshiandi va bu 18 yil davom etdi.

Yangi rahbariyat partiya apparati hokimiyatini tiklay boshladi. 1977-yilgi konstitutsiyada partiya "sovet jamiyatining rahbar va yetakchi kuchi" sifatida tasdiqlandi. Cheksiz hokimiyatga ega bo'lgan KPSS MK Bosh kotibi lavozimi belgilandi. Brejnev birinchi bo'lib ushbu lavozimni egalladi. Bu ayni paytda davlat rahbarligini ham anglatar edi. Partiya va davlat apparatining qo'shilib ketish jarayoni boshiandi, davlat partiya nazorati ostida qoldi. Partiya va mamlakatning yagona rahbarligi tasdiqlandi.

60—70-yillarda mamlakat iqtisodi

Brejnev rahbarligi davrida mamlakat iqtisodi bir joyda depsinib qoldi va iqtisodiy

rivojlarishning to'xtab qolish jarayoni kuchaydi. 60-yillar oxirida g'arbiy Sibirda topilgan neft-gaz komi tufayligina mamlakat 70-yillar boshida neft va gaz ishiab chiqarish bo'yicha jahondagi oldingi o'rnlardan biriga chiqib oldi. Bu narsa iqtisodning to'la-to'kis barbod bo'lish davrini uzaytirish imkonini berdi. Sovet Ittifoqi bu borada nafaqat yirik ishiab chiqaruvchi bo'ldi, shuningdek, neft va gazni eksport ham qila boshiadi. Buning evaziga Sovet Ittifoqi oziq-ovqat mahsulotlari va iste'mol moliarini sotib olar edi, lekin bu hol ishlab chiqarishni barbod qildi. 70-yillar oxirida ishiab chiqarish sur'ati sezilarli darajada tushib ketdi va 1980-yilda bu ko'rsatkich atigi 2 foizni tashkil etdi. Tugallanmagan qurilish obyektlari ko'payib ketdi.

Aymay paytda 4,5 million kishilik qo'shin xarajatlari ortib bordi. Yadro quroli takomillashtirildi, yangi samolyotlar, raketa, suv osti kemalari, ulkan okean harbiy kemalari qurilishi borasida ulkan loyihiilar amalgalashirildi. Harbiy sanoat ishiab chiqarishining o'sishi

mamlakatdagi umumiy iqtisodiy ahvolga ta'sir etmay qoimadi. Ulkan zavodlar, yuz minglab mutaxassislar, yuzlab laboratoriya va ilmiy-tadqiqot instituti harbiy ishlab chiqarish sohasiga ixtisoslashdi. Aynan shu soha bilan bog'liq bo'lgan butun bir shaharlar (Arzamas-16, aholisi 200 ming kishidan ortiq) paydo bo'ldi. Sanoat ishlab chiqarishida komotga asosiy e'tibor qaratildi. Yigirma yil davomida orbitaga mingdan ortiq sun'iy Yer yo'ldoshi uchirildi.

Agrar sektorda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishiab chiqarish kamaya bordi. Faqat paxtachilik bundan mustasno edi, xolos. Yangi qo'riq yerlar o'zini oqlamadi, 60-yillar oxirida don yetishtirish keskin tushib ketdi. Sovet Ittifoqi 1970-yildan boshlab har yili AQSHdan 20 million tonna don sotib olishga majbur bo'ldi. Chorvachilik sohasida ham samaradorlik pasaydi. 70-yillar oxirida mamlakatdagi ayrim rayonlarda oziq-ovqat tovarlari tanqisligi sezza bordi. Qishioqlarda 30-yillardagi kolxozsovxozi tizimi negizlari saqlanib qolgan edi. Buning ustiga joylarda partiya apparatining kuchayishi partiya tashkiloti vakolatining kengayishi qishloqdagi ishlab chiqaruvchilar huquqini battar chekladi.

70-yillarda SSSR tashqi siyosati

"Breznev davri"da tashqi siyosat buyuk davlatchilik ekspansionistik an'analari

kuchayishi bilan ajralib turdi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida sovetiar ta'siri kuchaydi. AQSHga nisbatan harbiy-slyosiy jihatdan qarshi turish borasida Sovet Ittifoqi o'z kuchini ko'rsata boshiadi. U Vyetnamni amerikaliklar intervensiyasiga qarshi kurashda qo'llab-quvvatladi. Vyetnamga harhiy maslahatchilar va quroq-yarog' jo'natddi. 1974-yilda AQSH qo'shinlari Vyetnamdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Sovet Ittifoqi Osiyodagi o'z harbiy va siyosiy ishtirokini kuchaytira bordi. Jumladan, Iroq hamda Suriyani Isroil agressiyasiga qarshi kurashda harbiy jillatdan qo'llab-quvvatlab turdi va bu bilan Yaqin Sharqdagi o'z ta'sirini kuchaytirdi. Afrika qit'asida Sovet Ittifoqi Angola, Mozambik va Efiopiyaning milliy-ozodlik kurashini qo'llab-quvvatladi. Real tashqi siyosat Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham olib borildi. Birlin-ketin Chili, Salvador, Panama, Nikaragua, Gvatemala amerikaliklar rejimi parchalana bordi. Ularning ko'pchiligidagi Sovet Ittifoqining hech

qanday aloqasi bo'lmasa-da, ayrim mamlakatlarni (Chili, Nikaragua) qo'llab-quvvatlab turdi.

Yevropada qo'shinlarning g'arhiy guruhi kuchaydi, Varshava Sharhnomasi Tashkiloti apparati takomillashtirildi. 70-ylliar oxirida Germaniya, Chexoslovakiya, Vengriya va Polshaga "yer-yer" tipidagi o'rtacha radiusda harakatlanuvchi 400 ta raketa joylashtirildi. Bu raketalar yadro kallakli (SS-20) bo'lib, NATO qo'shinlari joylashgan mintaqalar va G'arbiy Yevropaning yirik sanoat markazlariga qaratilgan edi.

Aymi paytda AQSH bilan munosabatiarni yaxshilash bo'yicha choralar ko'rildi. L.Brejnevning AQSH prezidentlari R.Nikson (SSSR va AQSHda), J.Ford (Vladivostokda), J.Karter (Venada) bilan uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Ularda yadro qurolini tarqatmaslik, yadro quroh (**OSV-1**, **OSV-2**) simovimi to'xtatish, ularni cheklash to'g'risidagi sharhnomalar imzolandi. Bular bari xalqaro ahvolni yumshatib, ikki yirik davlat o'rtasidagi qarama-qarshi kurashni kamaytirishga xizmat qildi.

Biroq 1979-yilda Sovet Ittifoqining Afg'onistonga bostirib kirishi yangi qarama-qarshilikni keltirib chiqardi. SSSRning bu harakatini AQSH mavjud kuchiar mutanosibligining buzilishi va Osiyo mintaqasida yangi platsdarmni egallah deb baholadi. Shu bois afg'on qarshilik ko'rsatish kuchlariga yordam bera boshladи. 1989-yilda xalqaro jamoatchilik tazyiqi ostida va mag'lubiyatga uchraganligi bois sovet qo'shinlari Afg'onistondan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

**Iqtisodiy inqiroz
sabablari**

Sovet Ittifoqi harbiy-texnik industriya jihatidan kuchli, ammo fuqaro iqtisodi borasi-

da qoloq mamlakat edi.

SSSRda mehnat ishlab chiqarishi o'rtacha rivojlangan davlatlarga qaraganda ham eng past darajada qolaverdi. Oziq-ovqat yetishmasligi doimiy kasallikka aylandi va SSSR uni xorijdan juda katta miqdorda sotib olar edi. 1970-yilda 700 million dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari sotib olingan bo'lsa, 1980-yilda bu xarajat 7 milliard dollarni tashkil etdi.

Buning ustiga 1982-yilda hosildorllk deyarli bo'lmadi. Reja bo'yicha kutilgan 236 million tonna don o'miga 170 million tonna hosil yig'ib olindi. Yuzaga kelgan tanqislik AQSHdan 20 million tonna don sotib olish

hisobiga to'ldirildi. Shunday holatda ham ayrim rayonlarda oziq-ovqat yetishmovchiligi sezilarli edi. Mamlakat iqtisodidagi isrofgarchilik va uni yaxshi bilmaslik oqibatida iqtisodiy o'sishda to'xtalish yuz bera boshladi. Shunday faktlardan biri Baykal-Amur magistrali (BAM) qurilishi edi. U Timch okeanga chiqadigan ikkinchi magistral yo'l bo'lib, uzunligi 4,300 kilometrdan iborat bo'lgan. Oxir-oqibat bunday qurilishning mamlakat iqtisodi uchun jiddiy ahamiyatga ega emasligi va unga sarflangan mablag'ni oqlamasligi ma'lum bo'ldi.

1977-yilgi Konstitutsiya va SSSRning milliy siyosati

Sovet davlatining soxta milliy siyosatiga ko'ra millatlarning o'z kelajagini o'zi belgilash va milliy respublikalar madamiyati hamda ishiab chiqarishini rivojlantirish prinsiplariga sodiq ekanligi ma'lum qilinsa-da, amalda tabiiy boyliklar markaz idoralari va undagi amaldorlar tomonidan talon-toroj hamda suiiste'mol qilindi. 1977-yilgi Konstitutsiya milliy respublikalar huquqini rasmiy chekladi va Markazga keng vakolatlar olib berdi.

Yangi Konstitutsiya sotsialistik federatsiya deb yuritiluvchi yangi tushuncha mohiyatimi qonumiylashtirdi, uning boshqa mazmundagi federatsiyadan farqli tomonlari ta'kidlandi. Uning mohiyati 70-moddada ochib berilgan bo'lib, SSSR "sovet xalqining yaxlit davlati" ekanligi ko'rsatib berildi. Respublikalarning SSSRdagi erkin chiqish huquqi saqlanib qoldi, ammo jumoyat kodeksida bunday huquqdan foydalarnishga chaqirish davlatga nisbatan jinoyat sifatida baholanar edi.

Aymay paytda respublikalarning siyosiy va iqtisodiy hayoti siyosiy tizim hanida jazolash organlari tomonidan qattiq nazorat qilib borildi. Konstitutsiya ittifoqdosh respublikalarga o'z asosiy qonunlariga ega bo'lishga ruxsat berdi, ammo u SSSR Konstitutsiyasiga mos bo'lishi shart bo'lgan.

Milliy respublikalar amalda mamlakatning viloyat darajasidagi ma'muriy-hududiy qismiga aylamib qoldi.

Mavjud rejingga qarshi kurash

1964-yili N.Xrushev lavozimidan olib tashlangach, sovet xalqi mamlakat ichki hayotida yirik o'zgarishiar yuz berishini, siyosiy hayotni liberallashtirish va siyosiy tizimni demokratlashtirishni kutgan edi. Biroq mamlakatda siyosiy nazorat kuchayti-

rildi va KGB (Davlat Xavfsizligi Komiteti) vakolati ken-gaytirildi. Bu hol mamlakatda ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish, inson huquqlariga rioya qilish, KGB vakolatini cheklash, ijod erkinligi berish, qurolli kuch-larni cheklash kabi talablar tarafdozlarining harakatini yuzaga keltirdi. Bunday g'oyalar ifodachilari "dissidentlar" deb atala boshladi. Ularning safida buyuk olimlar (akad. Andrey Saxarov), mashhur yozuvchilar (Aleksandr Soljenitsin), tarixchi, artist, bastakor, rassom, sportchi va hokazo sohadagi ilg'or fikrlovchi kishilar bor edi. Milliy respublikalarda bu harakat davlatning milliy siyosatini tanqid qilish va respublikalarga suverenitet berishni talab qilish bilan namoyon bo'ldi.

Dissidentlar (lotincha (dissidens) — muvofiq bo'limgan, boshqacha fikrlovchi) — davlat ichki va tashqi siyosatida davlat nuqtai nazarini yoqlamaydigan va mamlakatda hukmron g'oyaga qo'shilmaydigan fuqarolar.

Dissidentlarning chiqishiga javob sifatida ularning ko'pchiligi hibsga olindi hamda qamoqxona va lagerlarga jo'natildi, boshqa birlari esa mamlakatdan chiqarib yuborildi. Dissidentlarga turli haqoratomuz yorliqlar osila boshladi, ular ishdan bo'shatildi, asarlarini chop etish taqiqlab qo'yildi. Shundan so'ng mamlakatda "Samizdat" — adabiyotlarni yashirin nashr etish kuchaydi.

Dissidentlar jahon jamoatchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ularning asarlari xorijiy nashrlarda chop qilina boshladi. G'arb ommaviy axborot vositalarida Sovet Ittifoqi "xalqlar turmasi" nomini oldi. AQSH prezidenti R.Reygan esa sovet davlatini "yovuzlik imperiyasi" deya ta'riflagan edi.

Brejnev Leonid Illich (1906—1982) — SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi (1960—1964, 1977—1982). 1964-yildan 1982-yilgacha KPSS MK Bosh kotibi. Uning boshqaruvi davrida jamiyat ijtimoiy va ma'naviy hayotida, iqtisodda salbiy oqibatlarga olib kelgan tendensiyalar, konservativizm kuchaydi.

Qayta qurish va uning natijalari 1982-yilda L.Brejnev vafot etdi. Uning vorislari



M.S.Gorbachev.

Y.A.Andropov va K.U.Chernenkolar yosh jihatdan ancha qari va xasta bo'lganligi bois mamlakat siyosatiga faol ta'sir eta olmadi. (Y.Andropov — 1984-yilda, K.Chernenko — 1985-yilda vafot etdi). Mamlakat iqtisodi boshi berk ko'chaga kirib qolgan, ijtimoiy hayotda esa turg'unlik yuzaga kelgan edi. Axloqiy tanazzul belgilari namoyon bo'la bordi. Mamlakatda mehnat qilishga ishtiyoq susaygan, birbiriga ishonchhsizlik, ma'naviy tushkunlik mavjud edi. Mamlakat chuqur inqiroz

yoqasiga kelib qoldi.

1985-yilning martida partiya va davlat rahbarligiga **M.S.Gorbachev** saylandi. Uning tashabbusi bilan 1985-yilning aprelida yangi yo'nalish — qayta qurish strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur yo'nalish mohiyati o'ta markazlashgan buyruqbozlik tizimidan demokratik markazlashuv va o'z-o'zini boshqarish tizimini uyg'unlashtirish prinsiplariga o'tishdan iborat edi.

Qayta qurishning asosiy qoidalari 1987-yilgi iyul plenumida tasdiqlandi. Korxonalar mustaqilligini keskin kengaytirish, ularni to'liq xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalash tizimiga o'tkazish islohotning asosini tashkil qilar edi. Mehnat jamoalarining huquqlari kengaydi. Ular endi xo'jalikni yuritish samaradorligiga va mehnat natijalariga javob berishi lozim edi.

Oshkoraliq siyosati mamlakatda ijtimoiy va siyosiy fikrlash tarzini o'zgartirib yubordi. Partiyaning axborotga nisbatan monopoliyasi tugatildi.

Iqtisodiy sohada deyarli hech bir natijaga erishilmadi. Ishlab chiqarish pasayish jarayoni davom eta bordi, ijtimoiy ahvol keskin yomonlashdi, byudjetdan nafaqat ayrim korxonalar, hatto butun bir mintaqalar uchun ham mablag' ajratilmagan holatlar bo'ldi. Milliy respublikalarda Ittifoq tarkibidan chiqish tendensiyasi kuchaydi.

Gorbachev Mixail Sergeevich (1931-yilda tug'ilgan)—1985—1991-yillarda KPSS MK Bosh kotibi, 1990—1991-yillarda SSSR Prezidenti. SSSRda totalitar tizimni Isloh qilishga qaratilgan qayta qurish tashabbuskori. 1991-yil dekabridan — “Gorbachyev-fond” ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tadqiqotlar xalqaro fondi prezidenti. 1990-yilda unga Nobel mukofoti topshirilgan.

Sovet Ittifoqining parchalanib ketishidan cho'chigan partiya va davlat rahbariyati tartib o'rnatishda kuch ishlatish usullariga o'tdi. Almati, Vilnyus, Boku va Tbilisida harbiy kuch ishlatish tinch aholi o'rtasida ko'plab qurbanlarga sabab bo'ldi. Bu faqat SSSR xalqlarining to'liq suverenitetga erishishini kuchaytirdi, xolos.

Qisqacha mazmuni

- G'alaba “bahosi”: 40 million kishi qurban bo'ldi, 1710 ta shahar va qishloq vayron bo'ldi, 70 foiz milliy boylik yo'qotildi
- Repressiya siyosatining davom etishi
- 1953-yil 5-mart — I.Stalin vafot etdi, hokimiyat uchun kurash kuchaydi
- Partiyada “jamoaviy rahbarlik”
- 1953—1964-yillar — N.Xrushev partiya va davlat rahbari
- 1956-yil — Stalin shaxsining fosh etilishi
- “Iliqlik” — madaniy hayotda liberalizm siyosati
- Iqtisodni islohotlashtirishga urinish
- 1957-yil — birinchi sun'iy Yer yo'Idoshining uchirilishi
- 1961-yil — koinotga ilk bor fazo kemasida inson uchdi
- Qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish, qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi
- Tashqi siyosatda “tinch-totuv yashash” prinsipi
- 1964-yil 16-oktabr — L.I.Brejnev mamlakat rahbari
- Neft, gaz, xom ashyo eksporti
- Harbiy ishlab chiqarishning o'sishi, koinotga bog'liq ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi
- Qishloq xo'jaligida Ishlab chiqarishning pasayib ketishi, qishloqlar tanazzuli
- 1977-yilgi Konstitutsiya — Ittifoq hukumatining kuchayishi

- Buyuk davlatchillik ekspansionistik tendensiyalarning kuchayishi
- 1979-yil — Afg'onistonga bostirib kirish
- 80-yillar mehnat samaradorligining past darajasi. Turg'unlik
- Oziq-ovqat yetishmovchiligi, 1982-yll — hosil bo'lmadi
- Ulkan, ammo samarasiz rejalarini amalga oshirish (BAM qurilishi)
- 1982-yil — "Breznev davri"ning tugashi
- 1985-yil mart — M.S.Gorbachev — qayta qurish, oshkoraliq
- Xo'jalik hisobi va o'z-o'zini mollyalashga o'tish

Savollar

?

1. Ikkinci jahon urushida SSSR qanday moddiy va ma'naviy qurbaniar evaziga g'alabaga erishdi?
2. 40—50-yillarda mamlakatda qanday iqtisodiy muammolarni hal etish lozim edi?
3. Fikrlingizcha, Ikkinci jahon urushidan so'ng Stalin shaxsiya sig'inishdan voz kechish mumkin edimi? Mamiyatning urushdan keyingi rivojlanishi borasldagi o'z variantingizni aytинг.
4. N.S.Xrushev tomonidan 50—60-yillarda olib borilgan siyosat mohiyati nimadan lborat edi? Undagi qaramaqshilik nimalarda ko'rindi?
5. L.I.Breznev boshqaruvi yillarda partiya diktaturasi o'rnatalgan, degan fikrga qo'shilasizmi? Uning mazmunini so'zlab bering.
6. 70—80-yillarda SSSR tashqi siyosatiga qanday omiliar ta'sir etdi?
7. Qayta qurish siyosatining mohiyati nimalardan iborat? Mazkur siyosat ijobil natijalarga erishishi mumkin edimi? Agar shunday bo'lsa, buning uchun qanday shart-sharoit talab qilinad edi?

Jadvalni to'ldiring

Asosiy voqealar	Sana	Natija	
		ijobiy	salbiy

IV bob

OSIYO: MUSTAQILLIK DAYRI MUAMMOLARI



Oslyo Yer sharidagi eng yirik qit'a hisobianadi. U Tinch okeandan tortib Ural tog'larigacha, Shimoliy Muz okeanidan to janubdag'i Hind okeanigacha bo'lgan ulkan hududni egallaydi. Jahondagi tabiiy resurslar, foydali qazilmalarga eng boy qit'a ham — bu, Osiyodir. Bu yerda dunyodagi neft zaxirasining 60 foizi, kauchukning 60 foizi, qalayning 57 foizi qazib olinadi, qimmathaho daraxtlar o'sadi, subtropik poliz mahsulotlari va mevalarga o'ta boy. Aynan shu tufayli Osiyo qit'asi jahon iqtisodining boy markazi sanaladi.

XIX asr oxirida, ayrim mamlakatlarni hisobga olma-ganda, butun Osiyo mustamlaka zonasiga aylanib qolgan edi. Turkiya, Eron, Afg'oniston kahi bir necha davlat-largina o'z siyosiy mustaqilligini saqlab qola olsa-da, iqtisodiy jihatdan ular ham g'arb mamlakatlariga qaram holatga tushib qoldi. Har tomonlarma suverenitetni birgima Yaponiya saqlab qola olgan edi.

XX asr Osiyo qit'asini to'liq o'zgartirib yubordi. Bu davrda Ikkinci jahon urushida antigitler koalitsiyasi g'alaba qozondi, BMT tashkil topdi va uning tomonidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishi mustamlaka xalqlarning erkinlik, mustaqillik va suverenitetga erishishihi ta'minladi.

Osiyo xalqlarining taqdiri bir xil kechmadi. Mazkur qit'ada hozirda 48 ta mustaqil davlat mavjud.

Agar Yaponiya va Janubiy Koreyada burjua-parlament tuzumi qaror topgan bo'lsa, Malayziya, Tailand, Butan, Bruney, Nepal kabi mamlakatlarda cheklangan demokratik institutlarga ega avtoritar-monarxiya tizimi ko'rinishidagi siyosiy tuzum mavjud.

Xitoy, Vietnam, Mongoliya, Shimoliy Koreyada mustahkam sotsialistik struktura saqlanib qolgan va sanoat natsionalizatsiya qilingan, qishiq xo'jaligi jamoalaشتirilgan. Siyosiy strukturada kommunistik partiya monopoliyasi mavjud, ijtimoiy sohada aholimi ijtimoiy himoyalashning keng qamrovli institutlari tashkil qilingan (bepul ta'lim, tibbiy xizmat, aholi kambag'al qatlamini tekin uy-joy bilan ta'minlash, hammami ish bilan ta'minlash). Dinamik iqtisodiy rivojlarmish yetarli darajada emasligi — bu, ularning ojiz tomoni, kuchli tomoni esa — ijtimoly qatlamlar orasidagi tenghk va ish bilan ta'minlanganligidir.

Hindiston, Indoneziya, Bangladesh, Laos, Turkiya, Shri-Lanka, Iraq va Suriyada aralash iqtisod tashkil topdi, ya'mi bunda korxonalarga xususiy va davlat egaligiga rioya qilinadi. U butun jamiyat manfaatiga xizmat qiladi va aymiqsa mayda va o'rtta tadbirkorlar manfaatini himoyalaydi. Bu mamlakatlarda fuqarolar tinchligi va harqarorligini saqlash kafolati sifatida milliy va diniy an'analarni qat'iy muhofaza qlluvchi kuchli davlat hokimiyati tashkil topdi.

Sovet Ittifoqimning parchalamishi natijasida O'rta Osiyo davlatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston — "yangi demokratiya" mamlakatlari yuzaga keldi. Ular demokratik qayta qurish va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini yaratish yo'lini tanladi.

26-§. TURKIYA: DEMOKRATIYANING MURAKKAB YO'L

Urushdan keyingi davrda iqtisod muammolari

Ikkinci jahon urushi kamolchilar siyosatida keskin burlish yasadi. 1945-yilda hukumat zamindorlar va davlatdan yerlarni to'lov hlsohiga olib, dehqonlarga bo'lib berish to'g'risida qonun qabul qildi.

Ikkinci jahon urushidan so'ng Turkiya iqtisodi boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Iqtisodning davlat boshqaruvi siyosati o'z ahamiyatini yo'qotdi. Mamlakatda tartibsizlik boshlandi: shaharlarda ish tashlash, namoyishlar bo'lib o'tdi.

Turkiya AQSHdan harbiy yordam olib, NATOning o'ng qanotiga aylandi. Biroq bu mamlakatdagi iqtisodiy muammolarni hal qila olmadi. 1950-yilda ko'ppartiyali umumxalq saylovi bo'lib o'tdi. Unda **Adnan Menderes** boshchiligidagi Demokratik partiya g'olih chiqdi. Uning dasturi mamlakatda erkin tadbirkorlikka yo'l berish va davlat sektorimi to'liq tugatishni mo'ljallagan edi. A.Menderes bosh vazir etih saylandi.

Xorijiy monopoliyalar bir qator imtiyozlarga ega bo'ldi va turk sarmoyasini chetga surib qo'ya boshladи. Qurollamish xarajatlari ko'payib ketdi. Ichki va tashqi

qarz, shuningdek, inflyatsiya va narx-navo katta tezlikda ko'tarilib ketdi. Tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlarni qoplashga hech qanday mablag' bo'lmasdan, hukumat deyarli barcha oltin zaxirasini garovga qo'ydi.

Turkiya Amerika siyosatida muhim bo'g'in bo'llib qoldi. U Bog'dod paktini imzoladi. 1951-yilda Turkiya harbiy-siyosiy blok — SEATOga a'zo bo'lib kirdi. 1958-yilning yozida AQSHning Livandagi va Angliyaning Iordamiyadagi intervensiysi paytida Turkiya o'zining sodiq NATO ittifoqchisi ekanligini namoyish qildi. Ya'mi agar Suriya qo'shni mamlakatlarga yordamga keladigan bo'lsa, unga hujum qilishi mumkinligini bildirib, Turkiya o'z harbiy qo'shinlarini chegaraga olib kelib qo'ydi.

Menderes siyosati moliyaviy tanazzulga olib keldi. 1958-yilning avgustida Turkiya bankrotga uchraganligini bayon qildi. U kredillarni to'lay olmadi. Mamlakatning moliyaviy tanazzulga uchrashiga yuqori lavozimdag'i amaldorlarning davlat mablag'ini talon-toroj qilishi ham katta sabab bo'ldi.

G'arhiy Germahiya va AQSH Turkiyami bankrotdan saqlab qolishga harakat qilib, qo'shimcha kreditlari berdi. Biroq bu ham talon-toroj qilindi va iqtisodiy inqirozning oldini olish mumkin bo'lmay qoldi.

Mamlakat og'ir ahvolda qoldi. Aholining politsiya va qo'shinlar bilan to'qnashushi deyarli har kumi yuz berar edi. Mehnatkashlar manfaatini himoya qilib chiqqan "Vatan" partiyasi taqiqlandi. Qo'shinda dezertirlik boshlandi. Istanbul va Anqarada Milliy-ozodlik qo'mitasi bo'limi yuzaga keldi.

**60—80-yillarda
mamlakatning siyosiy
rivojlanishi**

Harbiylar mavjud tizimni saqlab qolishga harakat qilib, 1960-yilning mayida davlat to'ntarishini amalga oshirdi.

Menderes hibsga olindi va qatl etildi.

1961-yili harbiy rahbariyat mamlakatning yangi konstitutsiyasini taqdim etdi. 1965-yilda esa uning asosida saylov bo'lib o'tdi. Unda Adolat partiyasi g'olib chiqdi va A.Menderesning demokratiya partiyasi o'mini egalladi.

Yangi partiyaga **Sulaymon Demirel** rahbarlik qildi va bosh vazir lavozimini egalladi.

1971-yili Turkiyada yangi harbiy to'ntarish yuz berdi. Generallar tartib o'matishga qaror qilishdi va minglab

odamlar qamoqxonalarga jo'natildi. Hukumat bilan birga **Milliy Xavfsizlik Xizmati** tashkil etilib, unga general **Kenan Evren** rahbarlik qildi. Mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi. 1980-yil sentabrda yana bir bor to'ntarish yuz berdi. Barcha partiyalar tarqatib yuborildi. Ularning rahbarlariga 10 yil davomida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlab qo'yildi. Universitetlarda o'qituvchilar faoliyati nazorat qilina boshladи, matbuotda esa qattiq senzura o'rnatildi.

Biroq Yevropa Ittifoqining ta'siri tufayli harbiylar yon berishga majbur bo'ldi. Yangi Konstitutsiya qabul qilinib, unga ko'ra, Kenen Evren prezident lavozimida 7 yil muddatga qoladigan bo'ldi, siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat berildi. Mazkur yangi konstitutsiyaga muvofiq hukumat Turkiyaning Buyuk milliy majlisiga tegishli edi. Milliy majlis besh yil muddatga saylanadigan 450 deputatdan iborat bir palatali parlamentdan, ijroiya hukumat esa prezident va bosh vazir rahbarligidagi vazirlar kengashidan tashkil topdi.

Mamlakatda yangi partiyalar tuzildi. Yirik savdo va bank burjuaziysi manfaatlarini mashhur siyosiy arbob Turg'ut Ozal rahbarligidagi **Yatan partiyasi** himoya qildi. 1983-yilning iyunida tashkil topgan **To'g'ri yo'l** partiyasi o'rta va yirik sanoat hamda savdo burjuaziyasining bir qismi manfaatlarini ifodalar edi. Unga Sulaymon Demirel yetakchilik qildi. Shuningdek, N.Erbaqon yetakchiligidagi **Farovonlik partiyasi** tashkil etilib, u islom diniga e'tiqod qiluvchi ishchi, dehqon, mayda va o'rta burjuaziya, ziyolilarning bir qismi qarashlarini ifodalar edi. Irdal Inenyu boshchiligidagi Sotsial-demokratlar xalq partiyasi, Demokratik so'l partiyalar ham shu davrda tashkil topdi.

1983-yilda Konstitutsiya asosida saylov o'tkazildi va unda **Turg'ut Ozal** rahbarlik qiluvchi Vatan partiyasi g'alaba qozondi. U bosh vazir lavozimiga, 1989-yilda esa Turkiya prezidentligiga saylandi. T.Ozal mamlakat



Turg'ut Ozal

iqtisodini jadal o'stirish, erkin tadbirkorlikni rivojlan-tirish va bozor iqtisodini tashkil qilishga va'da berdi. Uning faoliyati davomida inflyatsiya yanada avj oldi.

1986-yilda xususiylashtirish to'g'risida qonun qabul qilingan edi, 1989-yilda birinchi marta davlat mulkini xususiy mulk uchun sotish jarayoni bo'lib o'tdi. Ammo xususiylashtirilayotgan korxonalar narxi juda yuqori edi va shu bois 1991-yilning oxirida davlat mulkining atigi 5 foizi xususiylashtirildi, xolos. Bu hol iqtisodning jadal rivojlanishiga bo'lgan umidni chippakka chiqardi va inflyatsiya hamda narx-navoning o'sishida ham namo-yon bo'ldi. Mamlakatda 5 million ishsiz bo'lib, 2 million ishsiz Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga pul ishlaga-ni chiqib ketgandi.

**Turg'ut Ozal (1927—1993) — Turkiyaning davlat arbobi.
1983—1989-yillarda — hukumat bosh vaziri. Ayni shu yillarda — Vatan partiyasi yetakchisi. 1989-yilning sentabriddan — 1993-yilgacha mamlakat prezidenti.**

Mamlakatda inflyatsiya rekord darajaga — 60 foizga yetdi. Ishsizlik bir maromda (11 foiz) saqlanib qolaverdi. Ko'pgina turk ishchilari Germaniyaga hech bir huquqsiz, faqat malakasiz ishlarga ketishdi.

1991-yil sentabrda mamlakatda yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Sulaymon Demirelning To'g'ri yo'l partiyasi 27 foiz ovoz oldi va Sotsial-demokratlar partiyasi bilan blokda hukumatni tashkil qilish huquqini egalladi. Tajribali siyosatchi **S.Demirel** bosh vazir etib tayinlandi. Islom davlatini tuzish uchun kurashuvchi Farovonlik partiyasi katta muvaffaqiyatga (17 foiz) erishdi. Mazkur partiya musulmon davlatlarining islom harbiy ittifoqini, umumiy islom bozorini tashkil qilish, umumiy islom valyutasini joriy etish va kapitallarga qo'yiladigan foiz (sudxo'rlik)ni yo'q qilishga chaqirdi. Ularning dasturida Turkiyaning NATOdan chiqib ketishi va jahonda yangicha tartib hamdaadolat o'matishi zarur bo'lgan islom NATOsini tashkil qilish g'oyasi ilgari surilgan edi.

1993-yil T.Ozal vafot etgandan so'ng parlament S. Demirelni prezidentlikka sayladi. U ham o'z navbatida bosh vazir lavozimiga To'g'ri yo'l partiyasi yetakchilaridan biri — **Tansu Chiller** nomzodini qo'ydi. Yangi hukumat uzoq turmadidi. 1995-yilda yangi saylovlar bo'lib

o'tdi. Unda Vatan partiyasi va To'g'ri yo'l partiyasi kam ovoz oldi (har biri 19 foizdan), ayni paytda Farovonlik partiyasi uchun berilgan ovozlar soni ortib bordi. N.Erbaqon To'g'ri yo'l partiyasi bilan koalitsiyada hukumatni tuzish vakolatiga ega bo'ldi.

Xorijiy davlatlarga har tomonlama bog'liq bo'lib qolishni yo'qotish va islomning jamiyat hayotidagi hukmronligiga chek qo'yishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan kamolchilar inqilobidan so'ng 75 yil o'tib ma'lum bo'ldiki, ular har ikki vazifani ham uddalay olishmadi.



Tansu Chiller

Demirel Sulaymon (1924-yilda tug'ilgan) — davlat va jamoat arbobi. 1965—1971-yillarda va 1991—1993-yillarda Turkiya hukumatining bosh vaziri bo'lgan. 1964—1980-yillarda Adolat partiyasi bosh kotibi, 1987-yildan boshlab — 1983-yilda tashkil topgan To'g'ri yo'lli partiyasi bosh kotibi. 1993-yildan — mamlakat prezidenti.

Turkiya 90-yillarda va XXI asr boshlarida Turkianing “vesternlash-tirish” (g'arblashish), ya'ni Yevropa modeli asosida jamiyat qurish siyosati barbod bo'ldi. Uning texnik-iqtisodiy qoloqligi bu yo'lagini asosiy g'ov bo'ldi.

Turkiya va G'arb davlatlari orasida iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi bosh to'siq — bu, davlat nazorati ostidagi markazlashgan iqtisod hukmronligi edi. Jami korxonalarining atigi 30 foizi foyda keltiradi, qolganlari davlat dotatsiyasi hisobiga kun ko'radi.

Mamlakat tashqi savdosining 50 foizi G'arbiy Yevropa va 7 foizi AQSH bilan olib boriladi. Turkiya xorijga 13 milliard dollarlik tovar chiqarib, 21 milliard dollarlik tovar olib keladi. Bunday savdo-sotiq faqat ziyor keltiradi. Mamlakat tashqi qarzinining o'sib ketishi buning natijasidir. 1995-yilda Turkianing tashqi qarzi



Sulaymon Demirel.

50 milliard dollarni tashkil etgan.

Sovet Ittifoqining par-chalanib ketishi Turkiyaning g'arb dunyosi va mazkur mamlakatlar o'rtasidagi yangi rolini belgilab berdi. Bu hol G'arbda sotilmayot-gan Turkiya tovarlari uchun bozorni yuzaga keltirdi. Turkiya birinchilardan bo'-lib O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo respublikalari mustaqilligini tan olgan va diplomatik munosabatlarni o'rnatgan davlat.

Yaponiya va AQSHning bir qator firmalari Turkiyada sovutgich va televizorlar ishlab chiqaruvchi zavodlar qura boshladilar. Ular bu tovarlarni O'rta Osiyo bozorlarida sotishga mo'ljallagan edi. Xorijiy firmalar turklar iqtisodiga sarmoyalarni investitsiya qila boshlashdi.

Turkiyada iqtisodiy islohotlar ish bermadi. Xorijiy zaymlar hisobiga ushlab turilgan moliyaviy struktura bar-bod bo'ldi. Mamlakatda ko'zda tutilmagan inflyatsiya boshlandi. Siyosiy inqiroz prezident S.Demirelning iste'-foga chiqishiga olib keldi. 2000-yilda **Ahmet Nejet Sezer** (1941-yilda tug'ilgan) prezident bo'ldi. Iqtisodiy inqirozning bosh sababchisi harbiy xarajatlarning kattali-gi edi.

1999-yilda parlament saylovlarida Bullent Edjevit boshchiligidagi uchpartiyali koalitsiya g'alaba qozondi. Mamlakatni iqtisodiy inqiroz qamrab oldi. Inflyatsiya 39% ni tashkil etdi. 2002-yil yozida Edjevit iste'foga chiqdi. Uning o'mini Tayip Erdogan — islom yo'nali-shidagi Taraqqiyot vaadolat partiyasi (TAP)ning yangi yetakchisi egalladi. Turkiya kurd separatistlari kucha-yishidan xavfsirab, Iroqqa qarshi urushda ishtirok etish-dan bosh tortdi. Erdogan Turkiyaning YHga kirish va Kipr masalasining hal etishga intilishi haqida ma'lum qildi.

Tarixiy ma'lumot

TURKIYA PREZIDENTLARI

1938—1950 — M.Ismet Inenju
1950—1960 — D.Bayar
1960—1966 — D.Gyursel
1966—1973 — D.Sunay
1973—1980 — F.Koruturk
1980—1989 — K.Evren
1989—1993 — T.Ozal
1993—2000 — S.Demirel
2000 yildan — A.N.Sezer

Qisqacha mazmumi

- Ikkinci jahon urushidan keyingi ahvol: Iqtisodiy qiyinchiliklar, inflyatsiya, ishsizlik. NATOGa qabul qilinish
- 1950-yil — ko'p partiyali umumxalq saylovleri; Demokratik partiya g'alabasi, bosh vazir — A.Menderes
- Bozor iqtisodiga o'tish, iqtisodga davlat ta'sirinlig kamayishi
- Ichki va tashqi qarzlar, inflyatslyaning o'sishi
- 1951-yil — SEATO harbiy bioklga qo'shilish
- 1960-yil — harbiy to'ntarish, Menderesning qatl etilishi
- 1961-yil — yangi konstitutsianing qabul qilinishi
- 1965-yil — erkin saylovlar. S.Demirel boshchiligidagi Adolat partiyasining g'alabasi
- 1971-yil — harbiy to'ntarish, repressiya
- 1980-yil — yangi harbiy to'ntarish. Barcha partiyalarining tarqatib yuborilishi, senzuraning joriy etilishi
- Yevropa Ittifoqi tazyiqi ostida yangi konstitutsianing qabul qilinishi; diktaturaning chekinishi
- 1983-yili — T.Ozal rahbarligidagi Vatan partiyasining saylovdagi g'alabasi. 1989-yildan T.Ozal — mamlakat prezidenti.
- T.Ozal boshqaruvi natijalari — inflyatslyaning yangi oqlmi
- 1991-yil — yangi saylovlar: S.Demirel g'alabasi (bosh vazir)
- 1993-yil — T.Ozal vafoti; S.Demirel — prezident
- 1995-yil — saylovlar, mamlakat rahbari — N.Erbaqon SSSR parchalanishi bilan bog'liq holda Turkiya rolling kuchayishi. Turkiya — O'rta Osiyo davlatlari bilan bog'lovchi bo'g'in
- 2000-yil — prezident Ahmet Sezer

Savollar

- ? 1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakat iqtisodida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
2. Turkiyaning NATOga kirishi qaysi davrga to'g'ri keladi va mamiyatning ushbu tashkilot bilan hamkorligi to'g'risida nimalar bilasiz?
3. Mamiyatning 70—80-yillardagi siyosiy rivojlanisbiga qisqacha ta'rif bering.
4. S.Demirel qanday qilib mamlakat iqtisodi muammolarini hal etishga urindi?
5. Fikringizcha, Turkiyaning "g'arblashtirish" siyosati nima uchun barbod bo'ldi?

27-§. ХИТОЙ 50—90-ЙИЛЛАРДА

**Xitoy Xalq
Respublikasi deb
e'lon qilinishi**

Ikkinchi jahon urushi tuga-gandan so'ng Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) va Gomindan partiyasi o'rtaida

kurash boshiandi.

1946-yil yozida Gomindan armiyasi XKP nazoratidagi Xitoy rayonlarida hujum operatsiyalarini boshlandi. Yangi fuqarolik urushi boshlandi. Ular ma'lum bir hududiarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Biroq **Xitoy Xalq ozodlik armiyasi (XXOA)** yirik mag'lubiyatni chetlab asosiy kuchlarini saqlab qola oldi. 1948-yil avgustdan vaziyat o'zgardi. XXOA qarshi hujumga o'tdi va Gomindan qo'shinlariga qaqqashatlari zarba berdi.

1949-yil sentabrda "Umumiy dastur" qabul qilindi va u 1954-yilgacha Xitoyda vaqtinchalik konstitutsiya vazifasini o'tadi. Unda xalq demokratiyasi tamoyillari hamda ishchilar sinfi va dehqonlar ittifoqi asosidagi **Xitoy Xalq Respublikasi** davlati tashkil etilganligi e'lon qilindi. Umumiy dastur Yevropa mamlakatlarimng Xitoydagi alohida huquq va imtiyozlarini bekor qildi.

1949-yil sentabr oyida XXOA askarlari Xitoy poytaxti Pekinga kirib keldi. 1949-yil 11-oktabrda XXR tashkil topganligi rasmiy e'lon qilindi. Inqilob g'alaba qozondi va Xitoyning mustamlakaga aylanishiga chek qo'yildi.

Xitoy o'sha paytda ishlab chiqarishi past agrar mamlakat hisoblanar, asosan xorijiy sarmoya hukmronlik qilar edi. Mamlakatda dunyodagi eng past iste'mol darajasini va ulkan ishsizlar armiyasi mavjud bo'lgan. Fabrika-

zavod korxonalarini umumiy ishlab chiqarishning arzimas qismini tashkil etib, ko'pgina korxonalar eng oddiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan edi. Qishloqlarda esa yarim natural xo'jaligi hukmronlik qilganligi qoloqliking bir sababi bo'lgan.

Inqilob natijalari

Xitoydagagi inqilob uning tashkilotchisi va rahbari Mao Szedun normiga “maoistik” inqilob deb yuritila boshlandi. Maoizmning o'ziga xos tomoni uning “kazarma kommunizmi” deb ta'riflangan siyosatida edi. Maoizm harbiy-byurokratik partiya guruhlari diktaturasini o'matib, barcha iqtisodiy va ijtimoiy qonunlarga teskari tuzumni barpo qildi. Rahbariyat o'zboshimchalik bilan qarorlar qabul qilar, ammo sodda, ommabop shiorlar orqasiga bekinishga usta edi.

Shu bilan birga yangi Xitoy qurilishining boshlan-g'ich bosqichida maoizm iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda ma'lum bir yutuqlarga erishdi. 1950-yilda yer islohoti o'tkazilib, 300 million yersiz va kam yerli dehqonlar 47,6 million hektar yerga hamda ishlab chiqarish vositalariga ega bo'ldi. Xitoydagagi feodal yer egaligi yo'q qilindi, zamindorlar esa sinf sifatida tugatildi. Bu Osiyodagi eng keskin agrar islohot bo'ldi. **1953-yilda** sanoat tiklandi, 1955-yilda esa xalq xo'jaligi birinchi besh yillik rejasini qabul qilindi. Unga ko'ra 694 ta yirik sanoat ob'ektlari qurilishi mo'ljallangan.



Mao Szedun

Sobiq xususiy korxonalar ularning egalari va davlatning qo'shma mulki bo'lib qoldi. Ular yuqori maosh to'lanadigan mutaxassislar holatiga o'tkazilib, yillik kapitalning 5 foizi to'lamish kerak edi. Ayrim korxonalar xususiy mulk sifatida saqlamib, davlat buyurtmalaridan mahrum qilindi, boshqa korxonalar asosida qo'shma korxonalar tashkil qillndi.

Birinchl besh yillik reja bajarilishi bilan sanoat yalpi mahsuloti ikki baravar, qishloq xo'jaligi esa 25 foizga ko'paydi. Xalqning turmush darajasi ko'tarildi. Ishchi va xizmatchilar ish haqi 30 foiz, dehqonlar daromadi 28 foiz oshdi. Xitoy uchun yangi sanoat tarmog'i yuzaga keldi.

Xalq yerga ega bo'ldi, xorijiy kapitalning hukmronligi tugatddi. Xitoy ozod va mustaqill mamlakatga aylandi.

**Tutilgan yo'Ining
o'zgarishi. "Katta
sakrash" dasturi**

1958-yilda yangi jamiyat qu-
rishga qaratilgan yo'naliш
o'zgardi. "Uch qizil bayroq"
shlori paydo bo'ldi. Bu iqtisadiy

qonunlarga xilof ravishda ilgarigi rejalarini jadallik bilan amalga oshirish, shuningdek, Xitoy dehqonlarini birlashtirishning yangi shaklini yaratishning avanturistik dasturidan iborat edi. Dastur umumiy holda "katta sakrash" deb nomlandi. Unga ko'ra to'rt yilda (1958—1962-yillar) sanoat ishilab chiqarishi 6,5 marta, qishloq xo'jaligi esa 2,5 baravar o'sishi lozim edi. Bu amaliy qiyamatdan ko'ra targ'ibotga mo'ljallangan aqlga sig'maydigan xayol edi.

Shunga qaramay Xitoy rahbariyati ushbu utopiyani amalga oshirishni boshladи. Qishloqlardagi sobiq qishloq xo'jalik kooperativlari **xalq kommunalariga** aylantirildi. Ularda ishilab chiqarish qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari, chorva, turar-joy, mevall daraxtlar umumiy bo'lib qoldi. Dehqonlardan tomorqalar tortib olindi. Har bir kommu-naga uyda domna pechlar qurish va unda po'lat eritish vazifasi topshirildi. Tez orada "katta sakrash" g'oyasl barbod bo'lgam ma'lum bo'ldi. Ikki yilda (1958—1960) xalq xo'jaligl 100 millard yuan zarar ko'rди. Faqat 1965-yildagina xalq xo'jaligini 1957-yil darajasiga ko'tarishga erishildi. Ammo Xitoy rahbariyati bu aybni xalq bo'yniga qo'yishga qaror qilldi.

**Madaniy inqilob va
uning natijalari**

**1966-yil avgustda "XKP
MKning ulug' proletar**

madaniy inqilobi to‘g‘risidagi qarori” qabul qilinib, unda mamlakatni kapitalistik yo‘ldan borishga undovchilar yanchib tashlashga chaqirilgan edi.

“Madaniy inqilob” natijasida 100 millionga yaqin kishi jabr ko‘rdi. Shahar ko‘chalarida “Inqilob” jangari qo‘sinchalaridan iborat “xunveybin”larning boshboshoqliliklari avj oldi. Kishilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chalar, uylardan ushlab qayta tarbiyalash maxsus lagerlariga jo‘natildi. Ular orasida taniqli olimlar, partiya arboblari, davlat muassasalari xizmatchilari, san‘at xodimlari ham bor edi. “Xunveybinlar” otryadlari maktab o‘quvchilari, talabalar, daydilar va hayotda ishi yurishmagan omadsizlardan tashkil topdi.

Xunveybinlar — turli partiya va jamoatchilik tashkilotlarini yanchish, hukumatga yoqmay qolgan shaxslarni jazolash uchun “madaniy inqilob” boshida — 1966-yilda shaharda ta’lim olayotgan yoshiardan tuzilgan otryadlar.

“Madaniy inqilob” Xitoyda yo‘lga qo‘yilayotgan xalq xo‘jaligini barbod qildi. U Xitoy uchun 500 milliard yuanga tushdi. 1966—1976-yillar “yo‘qotilgan o‘n yillik” bo‘lib qoldi. Bu davrda mamlakat iqtisodi jar yoqasiga borib qoldi. Ishchi va xizmatchilarning ish haqi 30 foizga, qishloqdagagi bir kunlik mehnat haqi 33 foizgacha pasaydi. Mamlakatda 200 million kishi doimiy to‘yib ovqat yemasdi, shaharlarda 20 million ishsiz mavjud edi.

1981-yilgi XKP qarorida qayd qilinganidek, bevosita Mao Szedun tashabbuskori bo‘lgan “madaniy inqilob” mamlakatni loyqalatib yubordi, partiya davlat va ko‘p millatli xalqqa jiddiy kulfatlar keltirdi.

Mao Szedun (1893—1976) — 1943 yildan Xitoy KP MK raisi, partiya asoschilaridan birl. 1954—1959-yiliarda XXR raisi. 1959-yildan uning shaxsiga sig‘inish boshlandi. 1966—76-yillarda mamlakat taraqqiyotiga ulkan zarar keltirgan “madaniy inqilob”ga boshchilik qildi.

Tutilgan yo‘ning yan-gitdan o‘zgarishi. 1976-yil sentabrda Mao Szedun vafot etdi. “Madaniy inqilob” faollari ta’qib qilina boshladи. Mao Szedunning xotini Szyan Sin va yana Siyosiy byuronining uch a‘zosi

(“to‘rtlik to‘dasi”) qamoqqa olindi. Ikki yil davomida “**madamiy inqilob**” oqibatiarini tugatish uchun kurash olib borildi va faqat **1978-yil dekabrda** XKP MKning III plenumida Xitoyni modernizatsiyalash to‘g‘risida qaror qabul qildi. Islohotlarni amalga oshirish boshlandi. Chet el sarmoyalari oqimini barqarotlashtirish uchun mamlakatning janubiy chekkalarida bir qator maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Tashqi noiqtisodiy sohada dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlik qilishga mo‘ljallangan “ochiq siyosat” olib borildi.

Dehqonlarga tomorqalar qaytarib berildi. Qishloq xo‘jaligi dehqonlarga yetishtirgan ortiqcha mahsulotini sotish huquqiji beruvchi xo‘jalik pudratiga o‘tdi.

“Direktiv rejalashtirish” tugatildi, barcha sanoat korxonalarini “mustaqil xo‘jalik tashkilotlari”ga aylantirildi. Mamlakatda xususiy bozor, tovar munosabatlari keng rivojiana boshladи, kichik xususiy va jamoa korxonalarini, kustar ustaxonalar, xususiy tadbirkorlar faoliyatiga ruxsat berildi.

Xitoy sotsialistik yo‘nalishidan voz kechmagan holda iqtisodiy qurilish borasida katta yutuqlarga erishdi. Umumiy yalpi ishlab chiqarish yiliga o‘rtacha 10 foiz, yalpi milliy mahsulot esa aholi jon boshiga hisobiaganda boshqa Osiyo mamlakatlariga qaraganda 4—5 marta tez ko‘payib bormoqda.

Xitoy qishloq xo‘jaligi hatto rivojlangan mamlakatlar miqyosi uchun ham misli ko‘rilmagan sur’atlarda — yiliga 7,4 foiz rivojlandi. Mamlakatning umumiy eksportida tayyor mahsulotlar ulushi 66 foizni tashkil etdi. Inflyatsiya deyarli nolga teng. Xitoy yuami dunyoda eng barqaror valyutalardan biri bo‘lib qoldi.

Xitoy yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishiab chiqardi. Mamlakatda o‘z atom quroli, qit’alararo raketalar, elektron asbob-uskunalar yaratildi.

1993-yildan to 2003-yilgacha XKP yetakchisi va XXR prezidenti **Szyan Szemin** bo‘ldi. 2003-ylidagi konstitutsiyaga muvofiq u iste’foga chiqdi va uning o‘rnini sobiq vitse-prezident **Xu Szin-tao** egalladi.

**Xalqaro
munosabatlar**

Xitoy BMT Xavfsizlik ken-gashining doimiy a‘zosi. Uning siyosati Osiyo qit’asida

tinchlikni saqlash bo'lib qoldi. Mamlakatda tinch-totuv yashashning besh tamoyill (pancha chila) ishlab chiqildi: 1) hududiy butunlik va suverenitetni o'zaro hurmat qilish; 2) hujum qilmaslik; 3) bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik; 4) tenglik va o'zaro foyda; 5) tinch-totuv yashash. Ilk marta XXR va Hindiston o'rtasidagi bitim (1954-yil aprei) preambulasida (kirish qismi) keltirilgan bo'lib, keyinchalik 1955-yıldagi Bandung konferensiyasida Osiyo xalqlari o'rtasidagi xalqaro munosabatlarga asos qilib olindi.

Mamlakatning hal etil-magan muammolari Ayni paytda Xitoy oldida katta muammoiar turibdi.

Eng asosiysl — milliy muammo. 93 foizni tashkil etuvchi — xonsilardan tashqari 16 millat vakillari mavjudki, ularning har biri 1 milliondan ziyodroq kishidan iborat. Eng ko'pi — Simszyan-Uyg'ur muxtor viloyatida yashovchi 10 millionga yaqin turkiy aholdir, shuningdek, Tibet tog' massivida yashovchl tibetlar hisoblanadi. Tibetliklar Xitoy hokimiyatini tan ollishdan bosh tortib, mustaqillik talab qilishdi. 1959-yilda xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi, u tor-mor etilgandan so'ng Tibetning diniy va dunyoviy rahbari — Dalaylama Hindistonga qochishga majbur bo'lди. Tibetda harbiy-nazorat tizimi tashkil etildiki, ular amalda boshqaruvni o'z qo'liga oldi, u 1965-yilda esa Tibet muxtor rayoniga aylantirildi.

Yana bir muammo — Tayvan oroli. 39 ming kv. km hududga ega bo'lgan bu katta orolda 20 million kishi yashaydi. 1949-yilda Xitoy inqlobi g'alaba qozongandan keyin bu yerda "Xitoy Respublikasi"ni e'lon qilgan gomindanlar qoldiqlari orolga qochib keldi. Shu paytdan boshlab AQSH va g'arb davlatlari "ikki Xitoy" siyosatini olib borib, Tayvan tuzumiga iqtisodiy va harbiy yordam ko'rsatib kelmoqda. Tayvan XXR viloyatlaridan biri sifatida e'lon qilingan, hiroq Tayvan hukumati bumi tan olishdan bosh tortmoqda. Tayvan — Osiyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri.

2000-yil martda Tayvan prezidentligiga bo'lib o'tgan saylovlar Gomindanning to'liq mag'lubiyati bilan tugadi, u oxirgi 50 yil ichida bu iavozimga monopoliyasini yo'qotdi. Hokimiyatga kelgan yangi prezident **Chen Shuy Byan** 1986-yilda tashkil etilgan demokratik

taraqqiyatni partiyasi yo'lboshchisi edi. U orolning to'liq suverenitetga erishajagini bildirgan.

Tayvan — Xitoy Janubli-sharqidagi hudud bo'lib, Tayvan oroli, Penkuledao arxipelagi va boshqa orollardan iborat. Qit'adan 142 kmlik bo'g'oz bilan ajratilgan. Asosly shahri — Taybey. Ma'muriyat rahbari — prezident. XXR va Tayvan mamlakatni birlashtirishning o'z dasturiarini ilgari surdi, biroq Jiddiy kelishmovchiliklar bu jarayonni tugatish imkonini bermadi.

Tarixiy ma'lumot

XXR RAISLARI

1954—1959	— Mao Szedun
1959—1968	— Lyu Shaotsi
1968—1970	— Dun Biu
1970—1976	— Dju De
1976—1983	— Y. Szyanin
1983—1988	— Lyu Sennyan
1988—1993	— Yan Shankun
1993—2003	— Szyan Szemin
2003-yildan	— Xu Szin-mao

Qisqacha mazmuni

- 1946-yilning yoshi — gomindanchilar qo'shinining ozod etilgan Xitoy rayonlariga hujumkor harakati boshlanishi
- 1948-yil avgust — XMOA Gomindan qo'shiniga qarshi hujumni boshladi.
- 1949-yil sentabr — Umumi dasturning qabul qilinishi; XMOA Pekinga kirdi.
- 1949-yil 1-oktabr — Xitoy Xalq Respublikasi deb e'lon qilindi.
- 1950-yil — yer islohoti
- 1955-yil — birinchi besh yillik rejasি qabul qilinishi
- 1958-yil — "uch qizil bayroq" yo'li — "katta sakrash"
- 1966-yil — "madaniy inqilob"ning amalga oshirilishi; xunveybinlarning zo'ravonligi; iqtisodiyot va madaniyatning inqirozi
- 1976-yil sentabr — Mao Szedunning vafoti; "madaniy inqilob" oqibatlarining tugatilishi
- 1978-yil — Xitoyni modernizatsiyalash dasturi: xorijiy kapitalning kirib kelishi, rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik

- XKP roli va ijtimoiy iqtisodiyot asoslarini saqlab qolgan holda bozor munosabatlariiga o'tish; iqtisodiy qurilishdagi muvaffaqiyatlar
- Xalqaro munosabatlarda — tinch-totuv yashash tamoyillariga rloya qilish.
- 1993-yil — XXR raisi Dzyan Szemin
- 2003-yil — Dzyan Szeminning iste'foga chiqishi

Savollar

?

1. Xitoyni ozod qilish va uni Xalq Respublikasi deb e'lon qilishga qanday voqealar sabab bo'ldi?
2. Mao Szedun qaror toptirgan "kazarma kommunizmi" siyosatining mohiyati nimada?
3. Nima deb hisoblaysiz, "uch qizil bayroq" siyosati Xitoyni inqirozdan chiqarishi mumkinmidi? Javobingizni asoslab bering.
4. Mamlakat rahbarlari 80—90-yillarda qanday siyosiy saboqlar chiqarishdi? Iqtisodiyot va siyosiy hayotda nimalar o'zgardi?
5. 90-yillardagi mamlakat iqtisodiy yutuqlarining asosiy mabbaini nimalarda ko'rasisiz?
6. Tibet va Tayvan oroli muammolarining mohiyati nimada? Ularni qanday sharoitiarda hal etish mumkin?

28-§. VYETNAM: OZODLIKNING OG'IR YO'LII

**Xalq inqilobining
g'alabasi**

Ikkinci jahon urushi milliy-ozodlik harakatining yangi ko'tarilishiga olib keldi.

1941-yilda Vyvetnamga yapon qo'shinlari bostirib kirdi va mamlakatni bosib oldi. Vishi hukumatini o'zida namoyon etuvchi fransuz mustamlaka ma'muriyati qarshilik ko'rsatmadi va bosqinchilar bilan hamkorlikka tayyorligini bildirdi. Shu bois Vyvetnam xalqining milliy-ozodlik kurashi bir paytning o'zida ham fransuz mustamlakachilari, ham yapon militaristlariga yo'naltirilgan milliy-vatanparvarlik urushi xususiyatini kasb etdi. Bu kurashda **Xo Shi Min** (1890—1969) vietnamliklarning milliy xarizmatik yo'lboshchisi sifatida mashhur bo'ldi.

Xarizmatik yo'lboshchi — izdoshlari ko'z o'ngida favqulodda sifatlar — donishmandlik, qahramonlik va "sivillyolik"ka (yunoncha "xarizma" — "ilohiy qobiliyat") asoslangan obro'-e'tiborli inson.

Yapomianing Ikkinchchi jahon urushida tor-mor etilishi 1945-yilgi avgust qo'zg'olomiga olib keldi. Xo Shi Min Vyvetnamning mustaqillik bayonotnomasi va Vyvetnam Demokratik Respublikasini e'lon qildi. Biroq fransuz mustamlakachilar mamlakat januhida bir qator diniy va milliy guruhiar vakillaridan o'z homiyligidagi hukumatni tuzdi. **1946-yilning yozida** Januhiy Vyvetnamda "muxtor respublika", shumingdek, tog'li xalqlar muxtoriyati e'lon qilindi.

1946-yil 19-dekabrda fransuz mustamlaka hokimiyati VDRga qarshi urush boshladi. Xo Shi Min da'vati bllan umumxalq ozodlik urushi boshiandi. Fransuz mustamlakachilar Saygonda o'z hukumatini tuzadi va mamlakat hukmdori etib Bao Day e'lon qilindi. 1949-yilning mayida bu liukumat "Vyvetnam davlati"ni barpo etishini e'lon qildi.

1954-yilning mayida VDR qurolli kuchiari Den Ben Fu rayonida fransuz qurolli kuchlarini tor-mor etdi. Vyvetnam xalqining g'alabasi Fransiyaning obro'-e'tiboriga og'ir siyosiy va psixologik zarba berdi. Bosh vazir lavozimiga ko'tarilgan P.Mendes Frans (1907—1982) urushni tinchlik sulhi bilan tugallashga va'da berdi. Biroq AQSHning aralashuvi vaziyatni yana murakkablashtirdi.

AQSHning Vyvetnamdagi urushga aralashuvi 1950-yilning boshlarida AQSH Bao Daya hukumatini tan oldi va bu tuzumga amerika harhiy va iqtisodiy yordamimi berish haqidagi bitimni imzoladi. Shu tariqa mamlakat 20 yil urush gir-dobiga tortildi. Deyarli bir paytning o'zida Sovet Ittifoqi, XXR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari Xo Shi Min hukumatini tan oldi.

Fransiyaning Vyvetnamdagi mag'lubiyati uning hukmron doiralarimi Xo Shi Min bilan muzokaralarga borishga majbur etdi. 1954-yilning 26-aprelida Jenevada SSSR, AQSH, XXR, Buyuk Britaniya, Fransiya tashqi ishlar vazirlarihing kengashi ochildi. 1954-yil 21-iyulda Jeneva bitimlari imzolandi. Vyvetnam hududi 17-parallelda vaqtinchalik demarkatsiya chlzig'i bo'yicha bo'lindi, lekin unga siyosiy chegara sifatida qaralmadi. Shimol tomonda VDR qurolli kuchlari, janubda — fransuz ittifoqi va baoday rejimi joylashdi. Bitimlar Vyvetnamga qo'shil ollb kirish, qurol-yarog' va harhiy materiallarni



N.Xrushev, Mao Szedun va Xo Shi Min. 1959-yil oktabr.

keltirish, harbiy bazalar qurishni man etardi. Vyetnamning birlashishi 1956-yilning iyulida umumiyl erkin saylovlari o'tkazilgandan so'ng amalga oshirilishi kerak edi. Harbiy mojaro siyosiy qarama-qarshilikka aylandi.

Xo Shi Min (1890—1969) — Vyetnam davlat va siyosiy arbobi. 1945-yil avgustdan 1946-yilning martigacha VDR Vaqtli hukumati raisi, 1946-yildan VDR prezidenti, ayni paytda bosh vaziri. 1951-yildan — Vyetnam mehnatkashlar partiyasi raisi.

AQSHning VDRga qarshi harbiy tajovuzi-ning boshlanishi

AQSH Jeneva konferensiysi qarorlaridan qoniqmadidi. 1954-yil sentabrda uning rahbarligi ostida SEATO — Yevropadagi NATOga o'xshash bo'lgan osiyocha tashkilot tuzildi.

Shartnoma garchi bu mamlakatlar qurolli kuchlarini integratsiya qilolmasa va yirik Osiyo davlatlarini jalb etolmasa ham, AQSH uni Osiyoda "jamoaviy" xavfsizlik haqidagi shartnoma deb tasavvur etdi.

1955-yilda fransuz hukumati qo'shnlarni janubdan olib chiga boshladi. Mamlakatda turli millatchi guruuhlar o'rtaasida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Bu hokimiyatsizlik davrida AQSH iqtisodiy va harbiy yordam berish tufayli mamlakat janubida faollasha boshlandi. Ular Vyetnam siyosiy arboblari orasida fransuzlar

bilan hamkorlik qilmagan **Ngo Din Demni** saylashdi. 1955-yilning oktabrida u Jeneva bitimi bo'yicha fransuz mulklariga tegishli hududlarda Vyetnam Respublikasi tuzilishini e'lon qildi. Shuningdek, u qayta tashkil qilin-gan hukumat o'zini Jeneva bitimlariga bog'liq deb hisoblamasligi va 1956-yilgi saylovlarini o'tkazmasligini bildirdi. Amerika hukumati uni qo'llab-quvvatladi. Demga cheklanmagan hokimiyat bergen favqulodda qarorlar qabul qilindi. U qishloqlardagi saylov organla-rini tugatdi va ularni o'z mansabdorlari bilan almashtir-di.

1960-yilda bu siyosat janubda muxolifatning tashkil topishiga olib keldi. Shu yiliyoq Milliy ozodlik fronti tuzildi, uning dasturiga Demning xalqqa qarshi tuzumi-ni ag'darish, mamlakatni birlashtirish, iqtisodiy o'zgarishlar va amerikaliklarni quvib chiqarish kirdi. Bu, mustamlakachilikka qarshi xalq inqilobining boshlanishi edi. Uning harbiy tashkiloti **Vet Kong** deb ataldi.

Vatanparvarlar mamlakat janubida kurash boshladi. Shimoliy Vyetnam uni qo'llab-quvvatladi. Ular bo'y sun-maslik siyosatini olib borishdi, joylarda o'z hokimiyat organlarini tashkil etishdi. Demga qarshi buddaviy ruhoniyat norozilik bildirib, iste'fosini talab qildi (Dem katolik edi). Qo'shinda ham norozilik chiqishlari bosh-



Ular o'z Vatani uchun jang qilishdi.

landi. Dem bunga qatag‘onlarni kuchaytirish bilan javob berdi.

Prezidentlar D.Eyzenxauer va J.Kennedi Demdan garchi islohotlar o‘tkazishni talab qilishgan bo‘lsa-da, uni qo‘llab-quvvatlashda davom etishdi. Shu munosabat bilan Amerika harbiy ishtiroki tezlashib ketdi. 1961-yilning boshida Janubiy Vyetnamda 600 nafar amerikalik qo‘sishin bo‘lgan, 1965-yilda ular soni 16 mingga yetdi.

Vyetnamdagi siyosiy vaziyat beqarorlashdi. **1963-yil 1-noyabrda** harbiy to‘ntarish natijasida Dem ag‘darildi. Yangi “yo‘lboshchi” lavozimiga **Nguen Van Tie** saylanadi, u Janubiy Vyetnamni 1966-yildan 1975-yilgacha boshqardi.

Ngo Din Dem (1901—1963) — Janubiy Vietnamning 1953—1963-yiliardagi prezidenti. Harbiy to‘ntarish natijasida uning hokimiyati ag‘darilib, o‘ldirilgan.

1964-yilning avgustida Tonkin bo‘g‘ozida amerikaliklar kemasiga hujum qilingandan so‘ng ular Shimoliy Vyetnamni bombardimon qila boshlashdi. 1965-yilning fevralidan bu muttasil hujumga aylanib, 1973-yilgacha davom etdi. Amerikaliklar “kuydirilgan yer” taktikasidan foydalanishdi. Yuzlab Vyetnam qishloqlari yoqib yubo-



Qo‘sishin va yangi xalq yagona. Saygonga hujum

rildi, o'n ming hektar yerlar yaroqsiz holga keldi, varvarlarcha bombardimon va napalm qo'llanishi natijasida minglab hektar o'rmonlar yo'q qilindi. Urush miqyosi kengaya bordi va AQSH Vyvetnamga 500 mingdan ziyod askarni olib kirdi.

1968-yilda Parijda Vyvetnamda urushni to'xtatish haqida muzokaralar bo'lib o'tdi va 1973-yilgi bitimga erishildi. AQSH to'liq mag'lubiyatga uchradi. Amerika qo'shinlarini chiqarish qochishga aylanib ketdi. 1975-yil 30-aprelda Shimoliy Vyvetnam qo'shinlari Saygonga kirdi.

Napalm — yopishqoq yonlig'i mahsuloti bo'lib, suyuq yonlig'iga (benzin, kerosin) organik kislotalarning alyuminlli tuzlaridan olingan kukun qo'shib tayyorlanadi. Nishonga otilegan ob'ektga yaxshi yopishadigan aralashma. Suv yok qorga tegishdan alangananib ketadi.

Vyvetnam urushidagi mag'lubiyat Amerika obro'-e'tiboriga ta'sir etdi. Amerikaning g'arbdagi yo'lboshchi rolini bajarishi imkoniyatining o'zi shubha ostida qoldi. Amerikaning Vyvetnamdag'i tajovvuzkorona urushi Yevropa mamlakatlarining birlashishi va iqtisodiy integratsiyasida hal qiluvchi burilish uchun eng muhim asos bo'ldi. Bu urush shu paytgacha Amerika ta'siri doirasida bo'lib kelgan Yevropa davlatlarini mustaqil siyosat olib borish va dunyo muammolarini mustaqil hal etishning yangi yo'llarini izlashga majbur etdi.

Yangi hayot qurilishi-
ning boshlanishi **1976-yil 25-aprelda** Vyvetnamda yagona Vyvetnamning Milliy majlisiga umumiy saylovlar bo'lib o'tdi. **1976-yil 2-iyulda** u Vyvetnamning birlashuvi va Vyvetnam Sotsialistik Respublikasi e'lon qilinishi haqida qonun qabul qildi. **1980-yil dekabrida** mamlakatning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi.

Vyvetnamda rivojlanish yo'li sifatida quyidagilar qaratmoqda:

1. Turli iqtisodiy hayot tarzlarining teng huquqliligi. Davlat bir xilda davlat, xususiy va kooperativ sektorini qo'llab-quvvatlaydi.

2. Qishloq xo'jaligi va ayniqsa, oziq-ovqat ekinlari yetishtirishni rivojlantirish. Qishloq xo'jaligida 16 ming kooperativ bor, ularga kirish ko'ngilli: dehqon undan

xohiagan paytda chiqishi mumkin. Minglab ishlab chiqarish brigadalari dengiz va daryo tarmoqlarida ishlab, abolini bu soha mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

3. Sanoat sohasida asosiy e'tibor qishioq xo'jaligimi ko'tarish va keng iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha zavodlar qurilishiga qaratildi.

4. Yonilg'i-energetika va transport tarmoqlari ob'ektlari qurildi.

1994-yil fevralda AQSH Vyvetnam bilan urush paytida kiritilgan savdo embargosini bekor qildi. 1995-yil iyulda AQSH bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Kommunistik partiya rahbariyatiga iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lidan boruvchi islohotchilar keldi. Xorijiy investisiyalar uchun eng qulay sharoitlar yaratildi. Ko'plab davlat korxonalari xususiylashtirildi. Mamlakat iqtisodiyoti tezkorlik bilan rivojlana boshladi. Vyvetnam Osiyodagi eng rivoj topgan mamlakatlardan biriga aylandi.

Vyvetnam Hindixitoy yarimorolida tinchlik va xavfsizlikni saqlashga yo'naltirilgan yo'lni olib bormoqda. Uni butun jahon hamjamiyati tan olgan, 123 davlat bilan diplomatik munosabat o'rnatgan. Faqat 1995-yilga kelibgina prezident B.Klinton Vyvetnam bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish miyatini bildirdi.

Qisqacha mazmuni

- Fransiya mustamlakachiligi
- 1945-yil 2-sentabr — VDR mustaqilligining e'lon qilinishi
- 1946-yil 19-dekabr — fransuz mustamlakachilarining VDRga qarshi urushi boshianishi: Saygonda Bao Day boshchiilgidagi hukumat tuzilishi
- 50-yilning boshiani — AQSH janubda Bao Day, SSSRning shimolida Xo Shi Min hukumatlarini tan oldi
- AQSHning janubga harbiy va iqtisodiy yordami
- 1954-yil — Fransyaning Vyvetnamdagi mag'luhiyati
- 1954-yil 21-iyul — Jeneva bitimi: Vyvetnam 17-paralelda demarkatslon chiziq bilan bo'ilindi
- 1954-yil sentabr — SEATO bloki tuzilishi
- 1955-yil — fransuz qo'shinlanining mamlakat janubidan olib chiqilishi
- 1955-yil oktabr — janubda Vyvetnam Respublikasi e'lon qilinishi: Ngo Din Dem

- 1960-yil — Vyvetnam Milliy-ozodlik fronti tuzilishi
- 1960- yil — Vet Kong harbiy tashkiloti boshchiligidagi mustamlakachilikka qarshi inqilob boshiandi
- 1963-yil 1-noyabr — harbiy to'ntarish; Dem ag'darildi va o'ldirildi; Janubiy Vyvetnam — Nguen Van Tie boshchiligidida (1966—1975)
- 1964-yil avgust — Tonkin voqeasi; Shimoliy Vyvetnamni bombardimon qilish boshiandi
- 1968—1973-yillar — urushni to'xtatish haqida Parijda muzokaralar
- 1973-yil — Vyvetnamdan Amerika qo'shirlari olib chiqila boshiadi
- 1975-yil 30-aprel — Saygonning ozod etilishi; urush tugashi
- 1976-yil 25-aprel — yagona Vyvetnam Milliy majlisiga umumiylay saylovlari
- 1976-yil 2-iyul — Vyvetnamning birlashishi; Vyvetnam Sotsialistik Respublikasi e'lon qilinishi.
- 1995-yil — AQSH bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi
- 2003-yil — Vyvetnam — Osiyoda eng rivojlangan mamlakatlardan biri

Savollar

- ? 1. Nima deb hisoblaysiz, mamlakatning ikki davlatga parchalanishini qanday sharoitlarda saqlab qolish mumkin edi?
2. Mamlakatning parchalanishida AQSH hukumati qanday rol o'yndi?
3. AQSH qurolli kuchiari Janubiy Vyvetnam hududida nima uchun saqlanib qololmadi?
4. Mamlakat birlashuvি qachon ro'y berdi? Birlashgan Vyvetnam oldida qanday muammolar yuzaga keldi?

29-§. IKKIGA BO'LINGAN KOREYA

**KXDR va Koreya
Respublikasining
yuzaga kelishi**

1945-yil 2-sentabrda Yaponianing tor-mor etilishi Shimoliy Koreyaning sovet, janubining amerikaliklar qo'

shinlari tomonidan bosib olinisliiga olib keldi. Ikki qo'shinni 38-parallel ajratib turdi, u bo'lajak ikki koreys davlati chegarasi bo'ldi. 1948-yilda ikki davlat: shimolda — Koreya Mehnat partiyasi rahbarligida Koreya Xalq demokratik respublikasi, janubda **Li Sin Man** boshchiligidida Koreya Respublikasi tashkil topdi.

Shimoliy Koreyada sotsializm qurilishini e'lon qilgan hokimiyat qaror topdi, Janubiy Koreyada burjua-demokratik parlament respublikasi saylandi.

Li Sin Man (1875–1965) — Janubiy Koreyaning 1948—1960 yillardagi prezidenti. Xalq qo'zg'oloni natijasida istefoga chiqishga majbur bo'ldi.

Koreyadagi urush Ikki davlat o'rtaida tez-tez chegara to'qnashuvlari bo'lib turdi va 1950-yilning iyunida Shimoliy Koreya qo'shing'lari 38-parallelni kesib o'tdi hamda Janubiy Koreya hududiga bostirib kirdi. Bu mojaroga AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Turkiya jalg etildi. Bular BMT bayrog'i ostida qatnashishdi.

General Makartura qo'mondonligidagi qo'shing'avvaliga Shimoliy Koreya qo'shini hujumini qaytardi, so'ngra ularni qariyb Manchjuriya chegaralarigacha chekinishga majbur etdi. 1950-yilning oxirlarida xitoylar Shimoliy Koreyani qo'llab-quvvatlash uchun qo'shing'yubordi, amerikaliklar esa chekinishga majbur bo'ldi. Oxir-oqibatda 38-parallel bo'yicha chegara tiklandi. Yarashuv **1953-yil 27-iyulda** XXR, KXDR va AQSH vakillari tomonidan imzolandi.



AQSHning Tinch okeandagi harakatlari.

Amerikaliklar urushda 142 ming kishidan ajradi, BMT qo'shinlari asosiy kontingenti 17 ming kishimi yo'qotdi.

Yarashuvga imzo chekilgandan so'ng Koreya yarimorolini birlashtirish muammosimi hal etish kerak bo'ldi. 1954-yilgi Jeneva konferensiyasi ijobiy natijalarni bermadidi. Shimoliy Koreya iqtisodiy kuchsiz edi. Hududi jihatidan u Janubiy Koreyadan katta bo'lsa ham, iqtisodiyoti og'ir holga kelgan, qariyb barcha elektr stansiyalari ish-dan chiqqan, shaharlari vayronagarchilikdan iborat edi. Baribir mamlakatni birlashtirish Shimoliy Koreya rahbariyatining asosiy siyosiy shioriga aylandi.

AQSH urush tugagandan so'ng Janubiy Koreyadan ketishga harakat qilmadi. Ular bu yerda harbiy infratuzilma, yo'llar va harbiy shaharchalar, portlar va yerosti yo'llari, harbiy qurol-aslaha omborlari bo'lgan qariyb 40 ming kishilik harbiy qismlarni saqlab turishdi.

Bunday sharoitda mamlakatning birlashishi uchun kurash Amerika qo'shinlarimi Koreya yarimorolidan quvib chiqarish kurashiga aylandi. Shimoliy Koreya rahbariyati birlashtirish bo'yicha yangidan-yangi takliflarni yil saym olg'a surib bordi. 1975-yilda BMT Bosh Assambleyasining 30-sessiyasi Janubiy Koreyada BMT bayrog'i ostida kiritilgan barcha xorijiy qo'shinlarni chiqarish, mamlakatni birlashtirish, iqtisodni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi rezolyutsiyani qabul qildi. Biroq AQSH, uning ittifoqchilari va Janubiy Koreya hokimiyati bu rezolyutsiyani inkor etdi.

Shimoliy Koreya Urush tugagandan so'ng Shimoliy Koreya mamlakatda sotsializm qurilishimi e'lon qildi. Sanoat korxonalari natsionalizatsiya qilindi (90 foizi). Urushdan keyingi iqtisodiy qurilishning bosh yo'h ustuvor tarzda og'ir sanoatni rivojlantirish va davlat rejalashtirilishi va nazorati qattiqqo'llik bilan amalga oshiriladigan "sotsia-histik" industrlashtirishni ko'zda tutdi.

Qishloq xo'jaligida barcha joylarda kooperativ xo'jaliklar joriy etildi. 1956-yilda ular qariyb 90 foiz dehqon xo'jaliklarini birlashtirdi. 1958-yilning avgustiga kelib, barcha dehqonlar kooperativlar a'zosi bo'ldi. Siyosiy rahbarlikni bir partiya — **Koreya Mehnat par-**

tiyasi (KMP) amalga oshirdi, tashqi va ichki siyosat esa “ulug’ dohiy” Kim Ir Sen qo‘lida jamlandi.

KXDR iqtisodiy qurilishda bir qator yutuqlarga erishdi. Qishloq xo‘jaligida o‘z-o‘zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlashga imkon beruvchi darajaga erishildi. Sanoatda elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, ko‘mir, tog‘-kon sanoati rivojlandi. Mamlakatda ko‘ptarmoqli mashinasozlik yaratildi.

Bularning hammasi 1970-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan Koreya Mehnat partiyasining V s’ezdida KXDR sotsialistik industrial davlatga aylandi, deb qayd etishga asos berdi. 1972-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada demokratik tamoyillar so‘zlarda qaror toptirilgan bo‘lsada, amalda bir partiya, bir shaxs diktaturasi qonunlashtirildi. 1980-yilning oktabrida chaqirilgan **KMP VI s’ezdi** 80-yillarda “sotsializm to‘liq g‘alaba qozongan va xalqning moddiy va madaniy turmush tarzi keskin ko‘tarilgan jamiyatga muvofiq keluvchi mustahkam moddiy-texnik bazani yaratish” vazifasini ilgari surdi.

Shimoliy Koreyada totalitar tuzum va “dohiy” Kim Ir Sen shaxsiga sig‘inish shakllandi va bu ayniqsa Shimoliy Koreya rahbariyati o‘z g‘alabasini e’lon qilgandan so‘ng kuchaydi. G‘alabaga erishishdagι asosiy xizmat buyuk “dohiy”niki qilib ko‘rsatildi.

KXDRning iqtisodiy o‘sishi tez bo‘lmasa ham barqaror va mustahkam edi. Yalpi milliy mahsulot o‘sishi yiliga 3—5 foizni tashkil etdi. Biroq Sovet Ittifoqining barham topishi va yordamning to‘xtatilishi uning iqtisodiyotiga katta zarar keltirdi. To‘liq bozor munosabatlariiga o‘tgan XXRdan ham yordam kelmay qoldi. 80-yillar oxirlaridan KXDR iqtisodiyotida og‘ir ahvol yuzaga keldi. 90-yillar boshlarida iqtisodiyotni haqiqiy inqiroz qamrab oldi. Ko‘plab sanoat korxonalarini buyurtmasiz qolib, ishni to‘xtatdi. Ishsizlik boshlandi, oziq-ovqat-larning surunkali yetishmasligi yuzaga keldi.

Kim Ir Sen (1912—1994) — 1948—1972-yillarda KXDR Vazirlar Mahkamasи Raisi. 1966 yидан — Koreya Mehnat partiyasi MK bosh kotibi. 1972—1994-yillarda — KXDR prezidenti. Mamlakatda “chuchxe” (o‘ziga xoslik) deb nornlangan o‘z g‘oyasi asosida o‘ziga xos jamiyatning yaratuvchisi sifatida hurmat qillinadi.

1994-yilda Kim Ir Sen vafot etdi, u mamlakatni 40 yil mobaynida boshqardi. Hukmron doiralar hokimiyat vorisiyligini saqlash uchun mamlakat prezidenti lavozimiga uning o‘g‘li **Kim Chen Irni** ko‘tardi.

Shimoliy Koreya hukumati iqtisodiy balansni ushlab turish uchun qurollanish poygasini rivojlantirdi va harbiy-sanoat kompleksini (HSK) yarata boshladi. Bu tadbir ikki yo‘nalish — o‘rtacha uzoqlikdagi raketalarini ishlab chiqarish va yadro qurolini yaratish borasidagi ishlar bo‘yicha amalga oshirildi. Mazkur ishlar Kim Ir Sen hayotligi chog‘idayoq boshlangan edi. 1993-yilning martida Shimoliy Koreya yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomadan chiqdi, 1999-yilda o‘rtacha uzoqlikdagi raketani simovdan o‘tkazdi. U Yaponiya hududi ustidan uchlib o‘tib nishonga yetdi.

Qurollanish poygasi va katta qo‘sish ta’minoti Shimoliy Koreyaga qimmatga tushidi. Iqtisodiy imqiroz kuchaydi. Haqiqiy ochlik boshlandi va xalqaro gumamtar tashkilotlar Shimoliy Koreyani ocliarchilik falokatidan qutqarisli uchun oziq-ovqat yordami bera boshiadi.

Janubiy Koreya 1948-yilda Koreya yarimoroli janubida Koreya

Respublikasi e’lon qilindi. Konstitutsiyaga muvofiq, u boshida prezident turgan parlament respublikasidir. Demokratik belgilarni mavjud bo‘lgan Konstitutsiya bo‘llshiga qaramay, AQSH qariyb 40 yil mobaynida bir partiyali diktatorlik tuzumini qo’llab-quvvatladi. Bu tuzum **Li Sin Mandan** (1960-yilning aprelida ag‘darilgan va o‘ldirilgan) **Pak Chjon Xiga** (1979-yil oktabrda o‘ldirilgan) o‘tdi. 1980—1987-yillarda prezidentlik lavozimini **Chon Du Xvan** egalladi.

1987-yilgi mamlakatni demokratlashtirishni talab qilgan talabalarning ommaviy chiqishlaridan so‘ng Chon Du Xvan yon berishlarga majbur bo‘ldi va 1987-yilning oktabrida o‘tkazilgan referendum yangi konstitutsiyani tasdiqladi. U parlament vakolatlarini kengaytirdi va prezident hokimiyatini chekladi. Konstitutsiya matbuot, so‘z erkinligi, kasaba uyushmaiarini tashkil etish va namoyish va yig‘inlar o‘tkazish huquqini e’lon qildi. Mamlakatda yangi partiyalarini siyosiy hayotga boshlovchi yangi siyosly vaziyat yuzaga keldi. Parlament saylovlarida (1988-yil aprel) ilk bor muxolifat kuchiar

g‘alaba qozonib, hukmron “Demokratik adolat partiysi”ni ko‘pchilik ovozdan mahrum etdi.

Biroq hukmron partiya prezidentlik o‘rnini saqlab qoldi. 1987-yilgi prezidentlik saylovlarida bor-yo‘g‘i 35 foiz ovoz olgan general **Ro De Vu** g‘alaba qozondi. Biroq, bu xalqqa qarshi tuzum hayotini uzaytirish edi, xolos. 1987-yilgi olimpiya o‘yinlari (Seul) hukumatga qarshi chiqishlar keskinligini bir qadar pasaytirdi, biroq o‘yinlar tugaganidan 6 kundan keym kurash yana kuchaydi. 1993-yilgi prezidentlik saylovlarida muxollifatdagi liberal demokratik partiya yo‘lboshchisi **Kim Yan Sam** hokimiyat tepasiga keldi. Ilgarigi rahbarlar faoliyati fosh etila boshlandi. Hatto, yuzaki tekshirish ilgarigi diktatorlar tuzimlarining yuqori darajada korrupsiyalashgani va shafqatsizligini ko‘rsatdi. Generallar Chon Du Xvan va Ro De Vu qamoqqa oliilib, sudga berildi. Ularni isyon, davlatga xiyonat qiliш va korrupsiyada ayhlashdi. Sud hukmi Janubiy Koreyada qariyb 45 yil mobaynida hukmronlik qilgan tuzumga siyosiy baho bo‘ldi.

Janubiy Koreya general **Pak Chjon Xi** rahbarligi davrida eng ko‘p yutuqlarga erishdi. Bu davrda zamonaviy siyosiy-iqtisodiy mexanizm shakllandı, rivojlamishning besh yllik rejaları va iqtisodiy o‘sishning asosiy ko‘rsatkichlarini ishlab chiquvchil reja komissiyasi tuzildi. Boshqaruv apparatida kuchli markazlashtirish o‘matildi. Mahally hokimiyat markaziy tashkilotlar ruxsatisiz, hatto, eng mayda mahally apparat mansabdorini tayinlamaydigan, bank krediti berolmaydigan yoki ortiqcha avtomobil ishiab chiqarolmaydigan bo‘ldi. Davlat markazlashgan bank apparatini yaratdi va bank kreditini ulkan zamonaviy kompaniyalar konglomeratini (choxellar) barpo etish uchun foydalandi. Bular orasida DEU, Samsung, Xunday, Lak-Goldstarlar eng yiriklari edi.

Janubiy Koreya rahbariyati iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bir tekis rivojlantirishga intilmadi. Mablag‘lar eng ustuvor sohalar — kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika, qurilish va boshqalarga qaratildi. Iqtisodiy rivojlamish strategiyasi o‘z ishiab chiqarishini rivojlantirish maqsadida tovarlar tayyorlash va xorijiy kapitalni izlab topish uchun tashqi bozorlarni egallashga

yo'naltlirildi. Natijada Janubiy Koreya dunyoda tashqi savdo hajmi bo'yicha dastlabki o'rnlardan biriga chiqdi.

Bu yillar davomida Janubiy Koreya jadal sur'atlarda rivojlandi. So'nggi 20 yil ichida sanoat o'sishining o'rtacha sur'ati yiliga 10 foizni tashkil etdi — bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichiardan biri. Barcha industrial rivojlanish to'rt yirik kompaniya: DEU, Xunday, Samsung va Lak-Goldstar hisobiga amalga oshdi. Ular butun eksportning yarmidan ko'prog'ini nazorat qilishdi.

Mamlakat iqtisodiyotining tezkor rivojlamishiga qaramay mehnatkashiarning moddiy ahvolini farovon deb bo'lmaydi.

70—80-yillar mobaynida Januhiy Koreyada yashovchi kambag'allar 17 dan 21 foizgacha oshdi, ya'mi mamlakatning har 5 kishisidan biri Yevropada qashshoq deb ataladigan sharoitlarda yashagan.

1980-yilning dekahrida Kvanchjuda ommaviy norozilik chiqishlari ro'y berdi. Prezident Chon Du Xvan uni alohida shafqatsizlik bilan bostirdi. 200 dan ziyod kishi o'ldirildi, (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ular soni 2 mingga yetgan). Muxolifat rahbarlari qamoqxonaga tashlandi va u yerda 1985-yilgacha saqlandi. O'sha kunlarda Seul va boshqa yirik shaharlarni turmush dara-jasini oshirish va mehnat sharoitlni yaxshilashni talab qilib chiqqan ommaviy namoyishlar qamrab oldi.

Ijtimoiy mojararo chuqurlashib, siyosiy mojaroga aylandi. Ommaviy chiqishiarda Koreya birlashuvini talah qilishiar muhim o'rinciga egallamoqda.

1996-yilning 26-dekabrida yirik konglomeratlar xohishiga peshvoz chiqqan Januhiy Koreya parlamenti kompaniyalarga xodimlarni ishdan bo'shatishmi yengillashtiruvchi qonunni qabul qildi. Korxonalarda og'ir sharoitlarni o'rmatgan, ishchilarni arzimas sabab bilan bo'shatishga imkon beruvchi qonunga qarshi yuz minglab ishchilar norozilik bildirdilar. Bunga javoban hokimiyat Koreya tred-yumionlar konfederatsiyasini man etdi. 1997-yilning yanvarida kasaba uyushmalar chaqirig'i bilan Seulda 15 ming ishchi ish tashiash e'lon qildi. Politsiya ularga qarshi ko'zni yoshiantiruvchi gazni qo'lladi.

1997-yilgi iqtisodiy inqiroz tufayli ishlab chiqarish

to'xtab qoldi, yuzlab fabrika va zavodlar bankrot bo'ldi. **Xalqaro valyuta fondi (XVF)** Janubiy Koreyani qutqarish bo'yicha operatsiyani boshlab, uning hukumatiga 47 milliard dollar kredit berdi. Bu pullar bankrotlashgan banklar aksiyalarini sotib olishga sarflandi. Biroq bu tadbir mavjud ahvolni yaxshilamadi. 1999-yilning avgustida kattaligi jihatidan ikkinchi o'rinda turadigan DEU trans-milliy kompaniyasi yo'q bo'lish darajasiga kelib qoldi. Uning umumiy qarzi 74 milliard dollarni tashkil etdi. Davlat uning 18 milliard dollarlik aksiyalarini sotib olib kompaniyani to'liq bankrotlikdan qutqardi.

Janubiy Koreya 40 ming kishilik amerika qo'shinini ta'minlashni o'z bo'yniga olganki, bu ham mamlakat uchun og'ir yukdir.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) — BMTning Ixtisoslashgan muassasasi. 1944-yilda mamlakatlar o'rtasida valyuta-moliyaviy munosabatlarni tartibga solish va kredit yordami ko'rsatish uchun tashkil qilingan. Fond boshqaruvi Washingtonda joylashgan.

Koreya birlashishi uchun kurash

Koreys xalqi ham Janubiy, ham Shimoliy Koreyada mamlakatning birlashishi tarafdori bo'lib chiqmoqda. Biroq KXDR rahbariyati german varianti bo'yicha birlashishga qarshi chiqdi. Hozirgi paytda ikki mamlakatning erkin muloqoti yo'lidagi to'siqlarni olib tashlash, ikkala davlatni bog'lab turuvchi umumiy organlarni tashkil etish, 38-parallel bo'lib yuborgan oilalarni birlashtirishga yordam berish muhim ahamiyatga ega.

Janubiy Koreya rahbarlari bu masalada boshqacha fikrga ega. Ular birlashishga qarshi emas, biroq uning oqibatlaridan cho'chishadi. Yarimorolni birlashtirish Janubiy Koreya hududidan Amerika qo'shinlarini olib chiqib ketishni anglatadi, bu qo'shinlar ahvoli beqaror bo'lgan mavjud tizimni saqlab qolishga kafolatdir.

Shu munosabat bilan Janubiy Koreya hokimiyyati milliy xavfsizlik bo'yicha qonun qabul qildi, unga ko'ra Shimoliy Koreyani har qanday ijobiy baholash yoki uni qo'llab-quvvatlab chiqish siyosiy jinoyat sanaladi va qonun bo'yicha jazolanadi. Kim Ir Sen dafn etilgan kuni

talabalar chiqishlarini bostirishga 25 ming politsiyachi tashiandi, ular Shimoliy Koreya yo'lboshchisiga har qanday moyillikning oldini olishga intildi.

1994-yil iyulda Panminchjonda Janubiy va Shimoliy Koreya vakillari uchrashdi. Bu mazkur tarzdagi dastlabki uchrashuv bo'lsa ham, taraflar Koreyaming ikkala qismini yaqinlashtirish ustida ishiashni davom ettirish va oxir-oqibatda uni birlashtirish bo'yicha umumiy istaklar bilan cheklanishdi.

Janubiy Koreyada so'nggi yillarda tezkor o'zgarishiar ro'y bermoqda. 1997-yilning dekabrida bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovlarida **Kim De Chjun** (1925-yilda tug'ilgan) g'alaba qozondi. Uning g'alabasi kutilmagan hol bo'ldi, chunki u o'zgacha fikrli kishi hisoblamib, uzoq vaqt hokimiyat ta'qibiga uchragandi. U mamlakatni birlashtirishning oshkor tarafdoi bo'lib keldi. Prezident tashabbusi bilan 2000-yilning iyunida Panminchjonda uning Shimoliy Koreya yo'lboshchisi Kim Chen Ir bilan uchrashuvi bo'ldi, unda ikkala yo'lboshchi bu davlatlarning yarashuvi va oxir-oqibatda bir davlatga birlashishi haqida kelishib olishdi. 2000 yilning oktabridagi Koreya yarimorolida barqarorlik va hamkorlikni o'rnatishga yo'l ochgan bu qadam uchun Kim De Chjunga 2000-yil tinchlik sohasidagi Nobel mukofoti berildi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya: o'zaro foydali hamkorlikning rivojlanishi

1992-yilda Koreya Respublikasi hukumati O'zbekiston mustaqilligini tanolishini e'lon qildi. 1993-yilda favqulodda va muxtor elchilar darajasida vakillik

almashimovi o'tkazildi. Keyimgi yillarda ikki davlat o'rtasida tinchlik va o'zaro foydall sherklik asosida amaliy aloqalar rivojlandi. 1995-yilning fevralida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Koreya Respublikasiga tashrifi amalga oshdi. Prezidentimiz ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Koreyaming oliy ordeni — katta Mugunxva ordeni bilan mukofotlandi. Ular orasida ikkala mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash haqida bayonot va qishloq xo'jaligi, telekommunikatsiyalar, radioeshitirishlar, ta'lim va sayyohlik sohasida hukumatlar o'rtasida o'zaro tushumish haqida memorandum muhim

ahamiyatga ega bo'ldi. Janubiy Koreya kompaniyalari O'zbekistonga 80 million dollar investitsiya kiritdi. O'zbekistonda Samsung, Lak-Goldstar va DEU kabi kompaniyalar faol ish yuritmoqda. 1996-yilda DEU hamkorligida Asakada avtomobilsozlik zavodi qurildi va o'z mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.

Qisqacha mazmumi

- 1948-yil — ikki davlat tashkil etildi: shimoilda — KXDR, janubida — Janubiy Koreya
- 1950—1953-yillar — Koreya janubi va shimoli o'rtaqidagi urush
- 1953-yil 27-iyul — yarashuvga kelishilishi va 38-paralel bo'yicha chegaranining tiklanishi

SHIMOLIY KOREYA (KXDR)

- Sotsializm qurillshi, sanoatning natsionalizatslya qilinishi, davlat tomonidan rejalahtirish, qishioq xo'jailgini industrlashtirish va kooperativlash
- 1958-yil avgust — qishioq xo'jaligini kooperativashning tugashi
- Birpartiyaviylik — Koreya Mehnat partiyasi (Kim Ir Sen). Totalitarizm, "dohiy" shaxsiga sig'inish 80-yiliar oxiridan — iqtisodiyotda inqiroz
- 1994-yil — Klm Ir Sen vafoti: prezident — Kim Chen Ir
- HSK tuzilishi, iqtisodiy inqirozning kuchayishi

JANUBIY KOREYA (KOREYA RESPUBLIKASI)

- 1948-yil — parlament respublikasi.
- Li Sin Manning AQSH qo'llagan diktatorilk tuzumi
- 1960—1979-yillar — Pak Chjon Xi: iqtisodiy yutuqlar, turmush darajasining o'sishi
- 1980—1987-yillar — prezident Chon Du Xvan: diktatorlik tuzumi
- 1987-yl — yangi konstitutsiya qabul qilinishi: prezident hokimiyati qisqardi, so'z, matbuot, namoyishlar erkinilgi, ko'ppartiyaviylik e'lon qilindi
- 1997-yil dekabr — prezident Kim De Chjun
- 1987—1993-yillar — prezident Ro De Vu: xalqqa qarshi siyosat

1993-yil — prezident Kim Yan Sam — liberal-demokratik partiya yo'lboshchisi
Tashqi savdo hajmi bo'yicha dunyoda dastlabki o'rinnlardan biri (DEU, Samsung, Lak-Goldstar)
Quyi turmush tarzi, ijtimoiy mojarolar, mamlakatni birlashtirish uchun harakat
Ijtimoiy keskinlikning kuchayishi
1997-yil — iqtisodiy inqiroz

Savollar

- ? 1. Koreyaning ikki davlatga bo'llnishiga qanday voqealar sabab bo'ldi?
2. 50—60-yillarda Shimoliy Koreya rivojlanishiga qisqacha ta'rif bering.
3. Kim Ir Sen shaxsiga sig'inish haqida nima bllasiz? U qanday oqibatlarga olib keldi?
4. Janubiy Koreya hukumati tomonidan qanday xatoiarga yo'l qo'yildi va ular qanday oqibatlarga olib keldi?
5. Bugungi kunda ikkala mamlakat qanday muammolarni hal etishi lozim?
6. Nima deb o'ylaysiz, mamlakat qanday sharoitiarda birlashishi mumkin?
7. Janubiy Koreya va O'zbekiston hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?

30-\$. INDONEZIYA: DIKTATURANING MAG'LUBIYATI

Mustaqillikka erishish Yaponianing Ikkinchi jahon urushidagi mag'luhiyati hamda Xirosima va Nagasaki shaharlariiga atom bom-balari tashlanishi yapon qo'shinlarining Indoneziyada kapitulyatsiya (taslim) qilinishiga olib keldi. Bu sharoitda Milliy partiya raisi **Sukarno** mamlakat mustaqilligini e'lon qildi. U mustaqillikning besh tamoyill: millatparvarlik, baynalmilallik, demokratiya, ijtimoiyadolat, xudoga e'tiqodni olg'a surdi. 1945-yil 4-sentabrda Sukarno boshchiligidagi birinchi liukumat tuzildi, mamlakatning barcha tumanlariga hukumatning dastlabki vakillari jo'natildi va yangi hokimiyat joylarda xalq tomonidan tan olindi.

Biroq yangi davlat tashkil etilgan dastlabki kunlardan jiddiy sinovlarga uchradi. 1947-yil iyulda gollandlarning Indoneziyaga qarshi bosqinchiligi boshlandi. Bos-

qinchilar mamlakatning asosiy strategik joylarini egalladi. Faqat BMTning aralashuvigina golland hukmronligi tiklanishining oldini oldi. Bosqinchilik hokimiyatni mustamlaka davlatlar bilan fitna uyuşhtirish orqali egalla-moqchi bo'lgan ichki reaksiyaning faollashuviga olib keldi. Gollandlar bostirib kirgandan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan Mashumi partiyasi konservativ kuchlar saqlanib qolishiga ishonib xalqqa qarshi siyosat yuritdi.



Sukarno

Indoneziya tarixida ilk bor bo'lib o'tgan parlamentga demokratik saylovlari o'tkir siyosiy kurashlarda o'sdi. Milliy partiya g'alaba qozondi.

Sukarno boshchiligidagi yangi hukumat mamlakat suverenitetini mustahkamlash yo'lidan bordi. Mamlakatning Gollandiyaga beradigan "qarzi" bekor qilindi, Shimoliy Suradagi nest konlari natsionalizatsiya qilindi. Hukumatning dasturiga xalqni oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta'minlash, shuningdek, mamlakat xavfsizligini ta'minlash kirdi. Dastur "adolatli va gullab-yashnagan jamiyat" qurishni e'lon qildi.

Mamlakatdagi reaksiyon kuchlar sharoitni beqaror-lashtirish uchun har qanday narsadan foydalandi. Sukarnoga suiqasd uyushtirildi. Sumatra va Sulavesida qurolli isyon ko'tarildi. Bunga javoban hukumat barcha golland korxona va plantatsiyalarini natsionalizatsiya qildi, golland vakolatxonalarini yopdi va ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lмаган gollandlarni mamlakatdan chiqarib yubordi. Tabiiy boyliklarni ishlab chiqishga konsessiyalari (ruxsatnomalar) bekor qilindi, ingliz kauchuk plantatsiyalari natsionalizatsiya etildi. Bu islo-hotlar mamlakatning barcha boyliklarini Indoneziya xalqining qo'liga berdi.

Indoneziya rahbariyati mamlakat suverenitetini mus-

tahkamlashda ulkan yutuqlarga erishdi. Prezident Sukarnoning obro‘-e’tibori xalqaro maydonda ham, mamlakatda ham yuqori bo‘ldi. **1965-yil 30-sentabrda** kommunistparast zabitlar guruhi davlat to‘ntarishini amalga oshirdi, ular bu bilan o‘z siyosiy raqiblarini yo‘qotish va mamlakatda Suxartoning shaxsiy diktaturosin o‘matmoqchi bo‘lishadi. Biroq ularning urinislari amalga oshmadi. Sukarno o‘limidan bir oz avval hokimiyatdan chetlatildi.

Sukarno (1901—1970) — Indoneziya milliy partiyasi asoschilaridan biri, uzoq vaqt Niderland mustamlaka hukmronligiga qarshi kurashda ishtiroki uchun qamoq va surgunlarda bo‘lgan. 1945—1967-yillarda — Indoneziya prezidenti. Irqiy kansitish va segregatsiya siyosatiga qarshi mustamlakachilik bilan kurashgan.

**General Suxarto
diktaturasi** General Suxarto mamlakat prezidenti bo‘ldi. Mamlakatda harbiy diktatura o‘matildi. Yangi konstitutsiya bo‘yicha, davlat rahbari — prezident bo‘lib, Vazirlar Kengashini boshqaradi va Oliy bosh qo‘mondon, Oliy hokimiyat organi — Xalq maslahat kongressi tomonidan 15 yilda bir bor saylanadigan bo‘ldi. Parlamentdagi 500 o‘rindan 100 tasi qo‘sishin vakillariga ajratildi. Yana 299 o‘rinni qo‘sishin yordamidan foydalanuvchi amaldor guruuhlar tashkiloti oldi. Shunday qilib parlamentdagi juda ko‘plab o‘rinlar qo‘sishin vakillariga tegishli edi.

Suxarto (1921-yilda tug‘llgan) — 1963-yildan quruqlik kuchlari qo‘mondoni. 1968—1998-yillar — Indoneziyaning prezidenti.

Mamlakatda siyosiy barqarorlik yuzaga keldi va bu 70-yillar boshlarida kuzatilgan iqtisodiy yuksalishning asosiy sharoiti edi. Indoneziya xalqining mehnatsevarligi mamlakatga yog‘ilib kelgan zamонавиу texnologiyalar bilan ajoyib ravishda uyg‘unlashdi. Mamlakatda keng iste’mol tovarlari — poyafzal, to‘qimachilik, jinsi matolari dunyodagi mashhur firmalar darajasida tayyorlandi. “Toyota”, “Ford”, “Mersedes” avtomobilari, shuningdek, mahalliy “Kiljang” jipi yig‘ildi. Bandungdagi

yirik aviazavodda zamonaviy vertolyot va samolyotlar yig'ildi.

Mamlakat dunyodagi yirik siqlgan tabiiy gaz ishiab chiqaruvchi, shuningdek, neft ishiab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlatga aylandi. Bu ulkan daromad olish va ularni yuqori texnologiyali tarmoqlar infratuzilmalarini rivojlantirishga sarflash uchun imkon yaratdi. Siyosiy barqarorlik, xorijiy mablag'larning kafolatlanganligi, bozor iqtisodiyotining to'llq erkinligi Indoneziyani xorijiy kapitalning yirik tushumlari bilan ta'mihladi. Atigi to'rt yll davomida, 1990—1994-yillarda Indoneziya iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy kapital mablag'lar 35 milliard dollarni tashkil etdi, bu avvalgi 20 yillik mahlag'laridan ikki marta ko'p edi.

Gullab-yashnashning oxiri va diktatura

Qariyb 30 yillik iqtisodiy gullab-yashnashdan so'ng 1997-yilda mamlakatda moliyaviy o'pirilish yuz berdiki, bu hoi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy inqirozga olib keldi. 1997—1998-yillardagi inqiroz natijasida mamlakat o'nlab yillar orqaga itqlшиб tashlandi. Ishlab chiqarish darajas 20 foizga tushib ketdi, 70 foiz korxonalar bankrot bo'ldi va yoplldi. Neft eksporti 37 foizga tushib qoldi. 170 million kishilik aholidan 20 millioni ishsiz qoldi, 50 foiz aholi rasmiy kambag'allik darajasidan past hayot kechirmoqda. Har yili mamlakatdan qariyb 20 milliard dollar tashqariga ollb chiqib ketilmoqda, tashqi qarzlar esa **1998-yilning o'rtalariga** kelib 138 milliard dollarni tashkil etdi.

Indoneziyada globallashuv jarayonimeng ma'lum va mashhur mexanizmlaridan biri ishladi: avvaliga iqtisodiyotni yuksaltirish, soxta gullab-yashnashni yuzaga keltirish, so'ngra mamlakatni vayron qillish va asoratga tushiradigan hamda undan ham battar vayron qiladigan kreditlar berish. Kreditlar berish mamlakatga eng kuchli ta'sir etish vositasiga aylandi, toki u iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishiar o'tkazsin va unga xorijiy kapitallar kirib kelishi yengillashsim. 1998-yllming oxirida Xalqaro valyuta fondi Indoneziyaga 43 milliard dollar kredit ajratdi. Buning evaziga mamlakat hukumati fond talab qilgan bir qator chora-tadbirlarni o'tkazdi, ya'ni banklar soni qisqardi, bir qator davlat korxonalari xususiylashti-ridi.

1998-yilning iyunidagi talabalar namoyishidan boshlangan norozilik to'lqini prezident Suxartoni iste'foga olib keldi. Biroq bu iste'fo mamlakatda hech narsani o'zgartirmadi. Davlat apparatida korrupsiya gullab-yashnadi, qo'shin o'z zo'ravonligini saqlab qoldi, siyosiy barqarorlik yo'q edi, inflyatsiya va narxlar jadal oshib bordi.

1998-yilning noyabrida Xalq maslahat kongressining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib, unda Indoneziyaning (uchinch) prezidenti etib **Baxarutdin Habibiy** — ilgarigi tuzum merosxo'ri saylandi. Mamlakatda namoyishiar boshiandi. Namoyishchilar tezroq umumiylay saylovlari o'tkazilishi, Suxarto faoliyatini tekshirish, qo'shinni mamlakat siyosiy hayotidan bartaraf etishni talab qildi.

Hokimiyat yangi yon berishiarga majbur bo'ldi. **1999-yilning oktabrida** mamlakatda umumiylay saylovlari o'tkazildi, ularda musulmon diniy partiyasi "Naxdatul Ulamo" yo'boshchisi **Abdurahmon Vohid** g'alaba qozondi, u mo'tadil islohotlar, milliy yarashuv tarafdoni bo'lib chiqdi.

Mamlakat jahon kapitali uchun ochildi, transmilliy korporatsiyalar hukmronligini qaror toptirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratdi. Biroq bu ahvolni yaxshilamadi. Inflyatsiya 1999-yilda 20 foizni tashkil etdi, iqtisodiyotning o'sishi nolga teng bo'ldi. Mamlakatda qimmatchilik kuchaydi, ijtimoiy va siyosiy manzaralarni yuzaga keltirdi.

Indoneziyada ko'porolli davlatning parchalamish jarayoni boshiandi. Indoneziya arxipelagining uch ming orollaridan eng yirikrog'i Timor bo'lib, uming sharqiy qismida 660 ming kishi yashaydi. Qariyb chorak asrlik kurash natijasida **Sharqiy Timor** jahon hamjamiyati yordamida mustaqillikka erishdi. Arxipelagning boshqa oroli — mamlakatda ishlab chiqariladigan siqiq gazning uchidan biri, ulkan neft, kofe, turli minerallar joylashgan Achaxeda ham shunga o'xhash voqealar yuz berdi.

Xalq noroziligimning yana yangi to'lqini yuzaga keldi. Indoneziyaliklar yana ko'chalarga chiqishdi, namoyishlar bosimi ostida **2000-yil avgustda** Abdurahmon Vohid Milliy Assambleya talabiga ko'ra muxolifat yo'l-boshchisi, Sukarnoming qizi **Megavati Sukarnopuri** bilan hokimiyatni birga boshqarishga rozilik berdi. Vohid oxir-oqibatda iste'foga chiqdi va Sukarnoputi mamlakat prezidenti bo'ldi.

INDONEZIYA PREZIDENTLARI

1945—1967 — Sukarno
1968—1998 — Suxarto
1998—1999 — B.Habibiy
1999—2000 — A.Vohid
2001 yildan — Sukarnopuri

Qisqacha mazmuni

- 1945-yil — mamlakat mustaqiligining e'lon qilinishi
- 1947-yil — Goliandiya bosqinchiligining boshianishi
- BMT aralashuvi, Milliy partiyaning Sukarno boshchiligidagi saylovlarda g'alaba qozonishi
- Neft korxonalarini natsionalizatsiya qillish, Gollandiya qarzidan voz kechish
- "Adolatli va gullab-yashnayotgan jamiyat" qurish dasturi
- Sumatra va Sulovesi orollaridagi quroili qo'zg'olollar. Gollandiya kompaniyalari xususiy mulkini natsionalizatsiya qillish
- 1965-yili 30-sentabr — shaxsan Sukarno diktaturasini o'rnatish maqsadidagi muvaffaqlyatsiz harbiy to'ntarish
- General Suxarto boshchiligidagi harbiy diktatura
- 70-yillar — iqtisodiy yuksallish
- 70—90-yillar — bozor iqtisodi, chet el investitsiyasi, siyosiy barqarorlik
- 90-yillar oxiri — iqtisodiy inqiroz
- 1998-yil noyabr — B.Habibiy — mamlakatning uchinchi prezidenti: siyosiy va ijtimoiy beqarorlik
- 1999-yil oktabr — umumxalq saylovi va musulmon dinliy partiyasining g'alabasi (A.Vohid)
- Davlat parchalanishi jarayonining boshianishi: Sharqiy Timor, Achexa
- 2001-yil — prezident Sukarnopuri

Savollar

?

1. Qachon va qanday voqeadan so'ng mamlakat mustaqilligi e'lon qilindi?
2. Sukarno faoliyati haqida nimalar bilasiz? Uning boshqaruv yillari nimasi bilan ajralib turadi?
3. General Suxarto qanday qilib mamlakatdagi murakkab muammolarni hal etishni uddalab oldi?
4. Fikringizcha, Suxarto mamlakatda iqtisodiy tanglikni yuzaga keltirgan qaysi xatolarga yo'l qo'ydi?

31-§. MYANMA (BIRMA) ITTIFOQI. TAILAND QIROLLIGI

Myanma, yoki **Myanma Ittifoqi** (1988-yil iyulgacha — Birma) — Hind okeaniga chiqish yo'liga ega bo'lgan Janubi-Sharqiy Osiyoning qadimgi budda mamlakati. U mazkur ittifoqdagi eng yirik davlat sanaladi. Myanmada 135 millatga mansub 45 million kishi yashaydi, ularning 69 foizini barmanlar tashkil qildi. XIX asrda Myanma Britaniya mustamlakasiga aylandi. 1942-yilda esa Yaponiya tomonidan bosib olindi. 1945-yilda yapon bosqimchilari ittifoqchi qo'shinlari bilan birga mamlakatdan quvib chiqarildi.

Angliya hukumati bilan muzokaralar natijasida **1948-yil 4-yanvarda** Birma mustaqilligi e'lon qillndi. Mamlakatning birinchi bosh vaziri sifatida **U Nu** saylandi. Ammo 1962-yil martda ushbu lavozimni partizan harakati rahbarlaridan biri general Ne Vin egalladi. U parlamentni tarqatib yubordi va "**Birma Ittifoqi Sotsialistik Respublikasi**"ni e'lon qildi. Sotsialistik jamiyat qurilishi 1988-yilgacha davom etdi, chunki bu davrga kelib talabalar namoyishi va umumxalq ish tashlashi generalmi iste'foga chiqishga majbur qildi. Hokimiyat general So Maungo boshchiligidagi boshqa bir harbiy guruh qo'liga o'tdi. Davlat qonunchiligi tartibini tiklash bo'yicha Kengash rahbar organ bo'lib qoldi va ko'ppartiyalik tizimimi tasdiqladi. **1988-yildan Myanma Ittifoqi** deb yuritila boshiandi. Yangi rahbariyat qoloqlikdan chiqish va turmush darajasini ko'tarish maqsadida bozor iqtisodiga o'tishni boshiadi. 90-yillar oxirida mamlakatdagi ahvol biroz yaxshilandi. Yalpi milliy mahsulotning (YMM) yillik o'sishi 8 foizni tashkil etdi. 1997-yil iyulda Myanma ASEAN* a'zoligiga qabul qilindi.

Ammo yangi hokimiyat mamlakat iqtisodiy yuksalishi, erkinhk va tinchiigimi ta'minlay olmadи. Harbiylar rejimiga qarshi partizanlar urushi davom etdi. 1990-yilda Myanmada birinchi marta erkin umumxalq saylovları

* ASEAN — Janubi-Sharqiy Osiyo millatlari Assotsiatsiyasi. 1967-yilda tashkil topgan. Tarkibiga Brunej (1984-yil), Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin kiradi.

bo'lib o'tdi va unda mavjnd rejimga qarshi bo'lgan — Demokratiya uchun milliy liga g'olib chiqdi. Biroq general So Maung hokimiyatni topshirishdan bosh tortdi.

Rivojlanishning sotsialistik yo'li Myanmadagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal eta olmadi. Demokratiya o'rmini diktatura egalladi, muxolifat tarqatib yuborildi va chet elga — Tailandga ketishga majbur bo'ldi. Demokratiya uchun kurashuvchi milliy ligaming 40 vakili qamoqqa olindi. Generallar 14 yildan beri demokratiyani tiklash lozimligini bildirishadi, ammo ayni paytda hokimiyatni muxolifat bilan bo'lib olishni xohiamayotir.

Tarixiy ma'lumot

MYANMA BOSH VAZIRLARI

1952—1957 — Ba U
1957—1962 — U Vin Maung
1974—1981 — U Ne Vin
1981—1988 — U Seyn Lin
1988—1992 — U So Maung
1992 yildan — U Tan Shve

Qisqacha mazmumi

- 1948-yil — Birmaning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi
- 1962—1988-yillar — general Ne Vin diktaturasi
- 1988-yil — diktaturaning ag'darilishi va demokratik prinsiplarning tikanishi
- 1990-yil — birinchi urumumxalq va erkin saylovlarining o'tkazilishi: demokratiya uchun milliy liga g'alabasi
- General So Maung diktaturasining saqlahib qolishi
- 1992-yil — U Tan Shve

Savollar

- ?
1. Birma qaysi yilda mustaqil deb e'lon qilindi?
 2. Myanma hukumati bugun qanday muammolarni hal etmoqda?
 3. Myanma Ittifoqi davlati qanday sharoitda demokratik yo'ldan borib rivojlanishi mumkin?

TAILAND QIROLLIGI

Janubi-Sharqiy Osiyoda muhim strategik sharoitga ega bo‘lgan Tailand qirolligi bevosita Myanma bilan chegaradosh. Aholining asosiy qismini (50 foiz) tayslar tashkil etib, buddizmga e’tiqod qiladi. Ular XIII asrda-yoq o‘z davlatini tuzgan edilar. 1939-yilgacha u Snam Qirolligi (hukmdor sulola nomidan olingan) deb atalgan. Davlat Hindixitoydagi Britaniya va Fransiyaga qarashli hududlar o‘rtasidagi bufer zona sifatida o‘z mustaqilligini saqlab keldi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishida Tailand Yaponiya tomonidan bosib olingan edi. 1944-yil milliyozodlik harakati natijasida hukumat ag‘darib tashlandi. Urushdan keyingi davrda mamlakatda AQSH ta’siri kuchaydi. 1946-yildan 1957-yilgacha mamlakatni amalda marshal Pibunsongran boshqardi. U Yaponiya okkupatsiyasi davrida yaponlar bilan urushdan keyin esa AQSH bilan hamkorlik qilgan. 1954-yilda Tailand SEATOga a’zo bo‘lib kirdi. Tailand harbiy kuchlarining bir qismi AQSHning Hindixitoydagi harbiy operatsiyalarda ishtirok etdi.

Pibunsongram (1898—1964) — Tailandning 1938—1941-yillar va 1948—1957-yillardagi bosh vaziri. 1947-yildan 1973-yilgacha hukm surgan harbiy diktatura rejimi tashkilotchisi.

Hukumatning amerikaparastlik siyosati Hindixitoy yarimorolini izolyatsiyaga olib keldi va mamlakat ichkarisida norozilikka sabab bo‘ldi. AQSH uni o‘zgartirdi va 1973-yilgacha demokratik erkinlikni bo‘g‘ib tashlovchi ochiqdan-ochiq harbiy rejim hukm surdi. 1973-yilning oktabrida ommaviy namoyish va g‘alayon tufayli harbiy rejim ag‘darib tashlandi. Hukumat tepasiga muvaqqat fuqarolik hukumati keldi va Ta’sis majlisini chaqirdi. 1974-yil oktabrda demokratik konstitutsiya qabul qilindi. 1975-yil yanvarda birinchi demokratik saylovlar o‘tkazildi va unda demokratik partiyalar koalitsiyasi g‘alaba qozondi hamda koalitsiya hukumati tuzildi. Mazkur hukumat eng avvalo mamlakatdan amerika qo‘sishnlarini chiqarib yuborish va

AQSH harbiy bazalarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Mamlakat demokratik rivojlanish yo‘liga o‘tdi. Biroq inqilobiy kuchlarning qo‘shti Laso va Kampuchiyadagi g‘alabasi hamda Kampuchiyada Vyetnam harbiy kuchlarining paydo bo‘llshi hukumatga qarshi harakatning faolashuviga olib keldi. Harbiylar o‘sib kelayotgan inqilohiy harakatni bostirish uchun yana hokimiyatni o‘z qo‘llari ga olishga qaror qildi. 1981-yildan 1991-yilgacha Tailandda galma-galdan fuqarolik va harbiy hukumat hokimiyatni boshqardi. **1991-yil fevralda** navbatdagi harbiy to‘ntarish harbiy diktaturaning o‘matilishiga olib keldi.

Siyosiy beqarorlik mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta to‘siq bo‘ldi. Qirolik hukumati va harhiy rejim mamlakatga xorijiy kompamiyalarning kirib kelishiga yordam berdi.

Mamlakat kauchuk va qalayga boy, shuningdek, bu yerda marganets, surma va temir konlari mavjud. Tailand ko‘p miqdorda paxta, sholl, kanop va makka-joxori yetishtiradi. AQSH, Yaponiya, Angliya va Germaniya uning asosiy savdo sheriklaridir.

Hozirgi Tailand iqtisodiy o‘sish bo‘yicha jahondagi oldingi o‘rnlardan birini egailaydi. Ayniqsa, yuqori rivojlanish sur’atimi sanoatda kuzatish mumkin. 1998-yilda bu ko‘rsatkich 15 foizni tashkil etdi. Xorijiy kapital va yangi texnologiya bazasida jadal sur’atlar bilan elektronika va elektrotexnika, shuningdek, neftni qayta ishiash, kimyo va avtomobilarni yig‘ish sanoati rivojlanmoqda. Yalpi miliy mahsulotdagi sanoat ulushi 40 foizdan ko‘proqm tashkil etadi.

Shu bilan birga **1997-yilda** boshqa Osiyo mamlakatlarida bo‘lgani kahi Tailandda moliyaviy tanglik yuzaga kelgan edi. O‘n yillik iqtisodiy o‘sishni ta’minlamagan eksport 1996-yildan pasayib ketdi. Mamlakat byudjetida ulkan tanqislik yuzaga keldi. Ko‘plab tadbirkorlar va banklar bankrot deb e’lon qilindi. Barcha darajadagi amaldorlar o‘rtasida avj olgan korrupsiya mavjud sharoitni yanada chuqurlashtirdi. Aholining turmush darajasi dunyodagi eng past o‘rnlardan birini egailaydi.

Ijtimoiy inqiroz siyosiy kurashning kuchayishiga olib keldi. 2001-yil saylovlarida “Taylor, taylarni seving” par-

tiyasi g‘alaba qozondi, ular “Taylar xartiyasi” va “Yangi intilishlar partiyasi” bilan koalitsiya tuzdi. Mamlakat barcha kommunikatsiyalari egasi **Taksin Shinavatra** hukumatga boshchilik qlldi. Mustaqillikka erishlgandan keyingi barcha yillarda davlatni qirol Bumibol Adulyadej boshqardi.

Qisqacha mazmuni

- 1946—1957-yillar — marshail Pibunsongram diktarasi
- 1954-yil — Tailandning SEATO safiga kirishi
- 1957—1973-yillar — hokimiyat tepasida harbiy diktatura
- 1974-yil — fuqarolik hukumati, Ta’sis majlisning chaqirilishi
- 1975-yil — demokratik saylovlarning o’tkazillshi; mamiyat siyosiy hayotini liberallashtirish
- Siyosiy beqarorlik; ko’plab xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi
- 90-yillar — iqtisodning yuqori sur’atda rivojlanishi
- 1997-yil — moliyaviy tangilk
- 2001-yil— Taksin Shinavatra hukumatga bosh bo’ldi.

Savollar

- ? 1. Ikkinci jahon urushi boshlanishida qaysi davlat Tailand qirolligini bosib oigan edi?
2. Hukumatning amerikaparastlik siyosati 60—70-yillarda qanday oqibatiarni keltirib chiqardi?
3. 90-yillarda Tailand iqtisodining jadal rivojlanishi sabablarini ayтиб bering?
4. Mamiyat hukumati nima uchun yuqori darajadagi iqtisodiy rivojlanishni saqиab qola olмади?

32-§. MONGOLIYA: YANGI JAMIYAT SHAKLLANISHI

Mongoliya — dunyodagi hudud jihatidan katta, ammo aholl somi eng kam mamlakatlardan biri. Keng cho’l, Gobi sahrosi, keskin o’zgaruvchan iqlim bu yerda ishlab chiqarish rivojlanishiga ancha to’sqinlik qiladi. Mamlakatning asosiy boyligi chorva sanalib, Mongoliya ularning soni jihatidan dunyoda birinchi o’rinda turadi. **1921-yilda** Mongoliya xalq-inqilobiy partiyasi (**MXIP**) inqilob natijasida xalq hokimiyatini o’rnatdi, va sotsia-

lizm qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. 1924-yilda **Mongoliya Xalq Respublikasi (MXR)** tashkil topganligi e’lon qilindi.

Yangi davlat tashkil topgan vaqtidan boshlab to 1992-yllgacha Mongoliya Sovet Ittifoqi hilan mustahkam alo-qada bo‘ldi. Natsionalizatsiyalashtirish, industrlashtirish va kollektivlashtirish MXRning asosiy yo‘nalish maqsadi edi. **1962-yilda** Mongoliyaning O‘IYKga kirishi mamlakatni keng ko‘lamda industrlashtirishga olib keldi. Rangli metallar qazib olish bo‘yicha ulkan korxonalar qurildi. Barcha tashqi savdosi Sovet Ittifoqi bilan bog‘liq bo‘lib eksportning 94 foizi, importning 97 foizi shu ikki mamlakat o‘rtasida amalga oshirilgan.

SSSRdagи qayta qurish Mongoliyadagi shart-sharoitni keskin o‘zgartirib yubordi. MXIP hokimiyat monopoliyasi yo‘qqa chiqди. **1990-yilda** hirinchi marta ko‘ppartiyali demokratik saylovlar bo‘lib o‘tdi va unda MXIP g‘alaba qozondi. **1992-yil 12-fevralda** Mongoliyada yangi konstitutsiya qabul qilindi va unga ko‘ra ko‘p ukladli iqtisod, xususiy mulkchilik va ko‘ppartiyalilik e’lon qilindi.

Mongoliyaning jahon bozoridan ajralib qolganligi mamlakat iqtisodiy ahvoliga keskin ta’sir qildi. Rossiyyadagi iqtisodiy tanglik ayni paytda Mongoliya iqtisodini inqirozga olib keldi. Ko‘pgina korxonalar o‘n yillardan buyon ishlamaydi. 1991-yildan boshlab Mongoliyada 10 mingdan ortiq xususiy korxonalar yuzaga keldi. Ularning ko‘pchiligi Rossiya, Xitoy va Mongoliyada vositachilik faoliyatini yurituvchi mayda savdo kompaniyalarini sanaladi.

Bular bari siyosiy ahvolning keskinlashuviga olib keldi. **1996-yil iyunda** bo‘lib o‘tgan saylovlarda Demokratik Ittifoq g‘olib chiqdi. Mazkur Ittifoq chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borishni va’da bergen edi. Yangi hukumat noishiab chiqarish maqsadlari uchun davlat xarajatlarini qisqartirdi, o‘zini oqlanaydigan banklarni yopdi, kommunal xizmati haqini oshirdi, xorijiy investitsiyalar kelishi jarayonini osonlashtirdi. Keng ko‘lamda xususiylashtirish e’lon qilindi. 1997-yil aprelda Xalq xurali sessiyasida barcha savdo bojlari va tariflarini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Mongoliya dunyodagi savdo bojlari yo‘q yagona mamlakat bo‘lib qoldi.

1999-yil dekabrda Moskvaga bosh vazir rahbarligida-gi mongol delegatsiyasi keldi va iqtisodiy hamkorlik bo'yicha bitimlarni imzoladi.

Rossiyaning ta'siri oshlb bordi. 2001-yil mayda — MXIP saylovlarda g'alaba qozonib, xalq xuralida 76 o'rindan 72 tasini egalladi. 2001-yil saylovlarida hani MXIP vakili Natsayjin Bagabandi g'alaba qozondi. Kommunistlar hokimiyatga qaytdi. Biroq, ular endi demokratiya, islohotlar va bozor iqtisodiyoti tarafдорлari bo'lib maydonga chiqdi. Bosh vazir **Nambarin Enkbayar** mamlakatda tub o'zgarishlar uchun izchil kurash olib bormoqda.

Qisqacha mazmuni

- Natsionalizatsiya gilish, industrlashtirish va kollektivlashtirish bo'yicha yo'nailshiar
- 1962-yil — O'YKga a'zo bo'ldi
- 1992-yil 12-fevral — yangi konstitutsiya gabul gilinishi; ko'p ukladli iqtisod, xususiy mulkchilik, ko'ppartiyaviyilik
- 1996-yilgi saylovlari: Demokratik Ittifog g'alabasi: davlat mulkini xususiy lashtirish, savdo bojlarning bekor gilinishi
- Yangi Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi
- 1997-yil — barcha savdo bojlari bekor gilinishi
- 2001-yil — MXIP ning Xalq xuraliga saylovlarda g'alabasi

Savollar

- ? 1. Sobiq SSSRdagi qayta qurish Mongoliya rivojlanishiga qay yo'sinda ta'sir ko'rsatdi?
2. Mamlakatning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi to'g'risida nimaiaq bilasiz?

33- §§. HINDISTON: DEMOKRATIK DAVLAT YO'LIDA

Ikkinchchi jahon urushi-dan so'ng Hindiston Ikkinchchi jahon urushi Britaniya kolomai imperiyasining batamom keraksiz ekanligini ko'rsatdi. Yapomiya osongima Singapur, Malayziya, Birmami egallab Hindiston bilan chegara

hududiga yetib keldi. Yaponianing Ikkinchiji jahon urushidagi mag'lubiyatigina mavjud tizimni saqlab qoldi, biroq orqaga yo'l yo'q edi.

Imperiyada milliy-ozodlik harakati kuchayib bordi. Kurash oldida Hindiston borar edi. Harbiy flot dengizchilarining g'alayoni mazkur kurash kulminasiyasi bo'ldi. G'alayon 1946-yil 19-fevralda Bombeydagi "Talvar" kreyserida boshlandi. Dengizchilar harbiy-dengiz bazasini egal-lab oldi, hind soldatlari ularga qarshi o't ochishdan bosh tortdi, qo'zg'olonchilarni harbiy uchuvchilar qo'llab-quvvatladilar. Bombey bir kechada barrikadalarga to'lib ketdi, ommaviy namoyish va ish tashlash boshlandi.

Qo'zg'olon ayovsiz bostirildi. Birgina Bombeyda ushbu kunlari 300 kishi o'ldirildi, 15 ming nafari yaralandi, yuzlab qo'zg'olon ishtirokchilari qamoqqa olindi. Biroq Britan hukmronligi tangligi ko'rinish qoldi. Armiya hukumatga bo'ysunishdan bosh tortib, xalqni qo'llab-quvvatladidi. Bundan tashqari, qo'zg'olon diniy oqimlar, millatlar va turli siyosiy qarashga ega kishilarning mustamlakachilikka qarshi kurashda maqsadi yakdil bo'lishini ko'rsatdi.

1947-yil 20-fevralda Angliya bosh vaziri Ettli Hindiston to'g'risidagi yangi deklaratsiya bilan chiqdi. **1947-yil iyunda** Hindiston vitse-qiroli lord Mauntbetten "Hindiston hokimiyatini topshirish to'g'risida"gi aktni e'lon qildi. Unga ko'ra mamlakat hindlar davlati — **Hindiston** va musulmon davlati — **Pokistonga** bo'lindi. Mamlakatning ikkiga bo'linish jarayonida siyosiy nizolar va hind-musulmonlar qirg'ini (Bengaliya, Panjobda) bo'lib o'tdi. Natijada Panjob va Bengaliya iqtisodiga ulkan iqtisodiy zarar yetkazildi. Provinsiyalardan ommaviy qochish oqibatida dalalarga ekin ekilmadi, sanoat korxonalarini ishlamay qoldi. Ishsiz va uy-joysiz



Jawaharlal Nehru.

qochoqlar Hindiston va Pokiston ko'chalarini to'ldirgan edi.

1947-yil 15-avgustda mamlakatni ikkita davlatga bo'llsh jarayoni tugatildi. Dehiidagi Qizil fort uzra Hindiston bosh vaziri **Javoharlal Neru** bayroq ko'tardi. Hindiston ozod bo'ldi.

Buton yil davomida va 1948 yilming boshida Hindistondagi kabi Pokistonda ham himdlar hamda musulmonlar o'rtaida qonli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. O'zaro nizoning kulminatsiyasi sifatida Hind milliy kongressi yetakchisi — **Maxatma Gandining** o'ldirilishi qayd etildi.

1950-yil yanvarda Hindistonda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko'ra mamlakat **suveren demokratik respublika** deb e'lon qilindi va yig'in qilish, namoyish o'tkazish, e'tlqod erkinligi kabi asosiy inson huquqlarini kafolatladi, umumxalq saylov huquqi joriy etildi. Tabaqaga ko'ra ajratish bekor qilindi, qulchilik va boshqa majburiy mehnat turlari bekor qilindi. Biroq yangi Hindiston yetakchilari mamlakat suverenitetligini mustahkamlash va uning gullab-yashnashi yo'lida hind xalqini jipslashtira olmadi. Hind xalqi kongressida (HXK) parchalamish holati yuzaga kelib qolgan edi.

**Hindistondagi
iqtisodiy holat**

Mustaqillik e'lon qilingach, barcha sanoat to'liq yoki qisman xorijiy kapital nazorati

ostiga o'tdi.

Hind milliy burjuaziyasimeng zaifligini hisobga olgan holda Javoharlal Neru boshchiligidagi hukumat iqtisodda xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashi lozim bo'lgan davlat sektorimi tashkil etishga kirishdi. Davlat sektoriga ilgari mglizlarga qarashli bo'lgan aviatsiya, kemasozlik kompamiyalari, temir yo'l, shumingdek, davlat nazorati ostidagi korxonalar ham o'tdi. Chet el kapitali og'ir sanoat tarmog'iga jalb etildi. Bunday yo'nalishdagи inistrashtirish sanoat ishlab chiqarish o'sishiga yordam berdi. Uming hajmi mustaqillik yillarda uch baravar oshdi. Aymiqsa, og'ir industriya va energetika sohasi tez sur'atlarda o'sa boshladi. Yalpi milliy mahsulotdagi davlat sektori 20 foizni tashkil etdi. Hindiston 1990-yilda 170 milliard kvt/soyat elektroenergiya, 12 million tonna po'lat, 30 million tonna neft ishiab chiqardi. Alyumimiy ishiab chiqarish tez o'sa boshiadi.

Avtomobil va avtobus, radiopriyomnik, televizor, fotoapparat kabi sanoat mollari ishiab chiqarish tezkor sur'atlarda rivojlana boshiadi. Hindiston traktor ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatlar safidan o'rin oldi.

Biroq mamlakatda agrar islohot o'tkazilmadi. 20 foizdan ko'proq qishioq aholisi umuman o'z yeriga ega emas, 50 foizdan ko'prog'ida esa atigi 2 gektargacha yer mavjud. Bu hol hind xalqining ko'pchiligi qashshoqlikdan ham quyi chegarada yashashni anglatadi. Yersizlik ishsizlikni keltirib chiqaradi. Hozirgi Hindistonda ishsizlar somi 30 million kishini tashkil qiladi. Aholiming 50 foizi savodsiz.

Kashmir masalasi Hindiston va Pokiston o'rta sidagi janjal sababchisi bo'immoqda. Bundan tashqari **Kashmir** Hindiston ichki nizolarimng manbaiga aylamib qoldi. Yana bir yirik muammolardan biri — **Panjob** masalasidir. Uming xalqi Hindistondan ajrahb alohida — Xallston davlatini qurishni talab qilmoqda.

Mustaqillik uchun kurash oldida Hindiston Milliy kongressi bo'ldi. Ishchilar sinfi va dehqonlarning mustaqil chiqishiari ham asosiy rol o'ynadi. 1937—1939-yillarda tashkil etilgan umumhind kasaba uyushmalari kongressi ishchilar harakatini samarali kuchga aylantira oldi.

1938-yilda tashkil etilgan umumhind dehqonlar ittifofi qagrular inqilobni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'ydi.

Hindistonning mustaqillikka erishishida Milliy kongress asosiy kuch vazifasini o'tadi. HMKning yetakchi rahbari sifatida **J.Neru** oilasi tan olingen edi. U Hindistonning birinchi bosh vaziri bo'ldi va konstitutsiya J.Neru rahbarligida ishiab chiqildi. U o'limigacha, ya'mi 1964-yilgacha ana shu vazifada ishiadi.

1964-yil 2-iyunda uning izdoshi **L.B.Shastri** Hindiston bosh vaziri lavozimimi egalladi. Ammo u 1966-yil 11-yanvarda Pokiston prezidenti Ayyub Xon bilan hind-pokiston urushini to'xtatish haqidagi bitimga erishgach Toshkentda to'satdan vafot etdi. HMK rahbariyatining qaroriga ko'ra bosh vazir lavozimiga uming qizi **Indira Gandhi** nomzodi qo'yildi.

Indira Gandhi.
Mamlakatni modernizatsiyalash

Bu davrda Hindiston modernizatsiyalash va zamonaviy sivilizatsiyaga moslashtirish tarafdoi bo'lgan



Indira Gandhi

HMK siyosiy arboblari bilan Morarji Dasay yetakchiligidagi HMKning boshqa bir guruhi o'rtasida o'zaro kurash bordi. Hindistonning taraqqiyot yo'liga chiqish davri ko'proq aynan I.Gandi nomi bilan bog'liq.

1971-yil mart oyida bo'lib o'tgan umumxalq saylovlari bosh vazirga g'alaba keltirdi. 1971-yil dekabrda Pokiston armiyasi mamlakat sharqida mag'lubiyatga uchradi. Bu hol Sharqiyan Bengaliyaning Pokistondan ajralib mustaqil Bangladesh davlati sifatida

tashkil topishiga olib keldi. G'arbda ham Pokiston qo'shinlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi va mag'lub bo'ldi. Pokiston ustidan qozonilgan g'alaba hamda urushdan keyin olib borilgan muvaffaqiyatli muzokaralar I.Gandi obro'-e'tiborini kuchaytirdi.

Ichki siyosatda I.Gandi hukumati bir qator omma-bop bo'lmanan siyosatni yuritdi. Bu hol xalqda unga qarshi kayfiyat uyg'otdi va siyosiy muxolifatchilar pozitsiyasini kuchaytirdi. Mazkur siyosatlardan biri butun Hindistonda davlat tili sifatida hind tilini qabul qilishga urinish bo'ldi. Bu esa ayrim shtatlar milliy huquqini kamsitishni anglatar edi. Aynan bu hol Panjobda separatistlar harakatini yuzaga keltirdi va sikxlardan iborat aholining alohida Xaliston, shuningdek, Tamilnand (Madras), Kashmir, Uttar-Pradesh va Bixarda kabi alohida davlat tuzish harakatini yuzaga keltirdi.

Hukumat obro'-e'tiborini tushirib yuborgan choratadbirlardan biri, bu — tug'ilish ustidan nazarat o'rnatish bo'ldi. Tug'ilishni sun'iy kamaytirishni targ'ib qilish mamlakatda umumiylorozilikni keltirib chiqardi. Xalq tomonidan bu shaxsiy hayotga tahdid, an'anaviy va diniy urf-odatlarni buzish deb baholandi. I.Gandining xalq turmush tarzini yaxshilash va uni demografik inqirozdan qutqarishga mo'ljallagan choralarini teskari natija berdi.

Shu bilan birga HMK rahbariyati ichida lavozimni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga berilish holatlari qayd etildi. Partiyada boshqaruvning avtokratik shakllari paydo bo'lgan edi.

1975-yil iyunda I.Gandi siyosatiga qarshi bo'lgan minglab kishilar hibsga olindi, matbuotda senzura paydo bo'ldi. Iyulda ko'pchilik siyosiy partiyalar taqiqlandi va parlament I.Gandining favqulodda vakolatini tasdiqladi. Muxolifat partiyalar Morarji Desaya yetakchiligidagi Janata partiyasiga birlashdi. Mamlakat fuqarolar urushi yoqasiga borib qoldi.

1976-yildagi umumxalq saylovlardida I.Gandi mag'lubiyatga uchradi. Barcha okruglar bo'yicha Janata partiyasi vakillari g'alaba qozondi.

1978-yil dekabrda I.Gandi parlament imtiyozlarini suiiste'mol qilganligi uchun hibsga olindi. U qamoqda atigi bir hafta bo'ldi va shuning o'zi mamlakatdagi ilgarigi obro'-e'tiborini tiklash uchun yetarli bo'ldi. Bundan tashqari M.Desaya hukumati mamlakatda barqarorlikni tiklash va inflyatsiyani qisqartirishga qodir emasligi ma'lum bo'ldi.

Indira Gandhi (1917–1984) — 1964-yildan boshlab turli vazirlik lavozimlarida ishlagan. 1966-yildan 1977-yilgacha va 1980–1984-yillarda — Hindiston Bosh vaziri. Milliyozodlik harakati ishtirokchisi. HMK yetakchilaridan biri. 1978-yil yanvardan — HMK raisi. Terrorchilar tomonidan o'idirilgan.

Separatizmga qarshi kurash

1980-yil yanvarida Indira Gandhi va HMK yana hokimiyatga qaytdi. Hukumat qisqa vaqt ichida mamlakatda tartib o'rnatdi, biroq oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan narx-navoni to'xtatib qola olmadidi. Davlat yaxlitligiga raxna soluvchi etnik separatizmnинг kuchayishi asosiy muammo bo'lib qolaverdi.

1983-yilda Assomda etnik va diniy negizga asoslangan ommaviy g'alayonlar bo'lib o'tdi. Panjobda sikxlar terrorizmi hukm surib, etnik va diniy to'qnashuvlar davom etdi.

Panjobning mamlakatdan ajralib chiqishi Hin-

distonning markaziy qismida katta oziq-ovqat muammosimi keltirib chiqardi. Bundan tashqari Nangaladagi yirik elektrostansiya mamlakat shimolly qismidagi elektr energiyasining yarmini berar edi.

Fuqarolar urushining oldimi olish uchun **1984-yil 5-iyunda** I.Gandi sikxlarning Amritsardagi o'chog'i—Oltin ibodatxonani shturm bllan bosib olishga buyruq berdi.

Sikxlar bunga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Oltin ibodatxonona uchun jangda 300 kishi halok bo'ldi. Federal qo'shinlari aym vaqtning o'zida yana 37 ta boshqa ibodatxonalarini egalladi. Shundan so'ng sikxlarning separatistik harakati butun mamlakatni egallab oldi. **1984-yil 31-oktabrda** sikxlarga mansub tan soqchi I.Gandiga uch marta o'q uzib o'ldirdi.

Sikxlar ayovsiz jazolandı: minglab sikxlar o'ldirildi, 50 mingdan ko'prog'i boshqa shtatlarga qochib ketdi. I.Gandi o'rmini uning o'g'li **Rajiv Gandhi** (1944—1991) egalladi. U mamlakat birligi yo'lidagi o'z onasimning kurashini davom ettirdi.

I.Gandi o'llmidan so'ng boshlangan repressiya sikxlar qarshiligini kuchaytirib yubordi. Rajiv Gandhi sikxlar terrorizmini yo'q qilishga kirishdi va 1987-yil may oyida Panjobning markaziy hukumatga bo'yusunishi to'g'risida (shtat maqomiga ega avtonom huquqlarni bekor qilish) qaror qabul qildi. **1988-yil may oyida** yana Oltin ibodatxonaga hujum boshlandi va minglab odamlar halok bo'ldi.

Hind parlamenti R.Gandining iste'foga chiqishini talab qilishga majbur bo'ldi. 1989-yil boshida parlament umi siyosatni tushunmaslikda va korrupsiyada ayblab ishonchszlik bildirdi. Biroq HMK umi partiya yetakchisi lavozimida saqlab qoldi va 1991-yil may oyidagi saylovda nomzodini qayta qo'yishdi. Ammo aymi saylov qizg'in pallada — 21-may kumi u o'ldirildi.

N.Rao. Tub o'zgarishlar o'tkazilishi Saylovda yana HMK g'alaba qozondi va bu safar **Narashimha Rao** boshchiligidagi hukumatni tuzishdi. Unga og'ir meros qolgan edi. Mamlakatni dimiy-etnik mizolar yemirdi. G'alayonlar Uttar-Pradesh, Assam, Bixar, Jammu va Kashmirliga ham o'tdi. Assamda 1993 va 1994-yillardagi etnik g'ala-

yonlarda minglab kishilar o'lib ketdi. 1993-yil may oyida ro'y bergen zo'ravonlik butun Bombay va Kalkuttani larzaga soldi. Bu yerda bomba portlashi oqibatida 300 kishi halok bo'ldi va 120 kishl yaralandi. Mazkur mud-hish voqeaga 1992-yilda XVI asrga mansub musulmon masjidining buzib tashianishl sabab bo'ldi.

Kashmirdagi to'polonlar ham bundan kam emas edi. Hind hukumatining bu yerda to'g'ridan-to'g'ri boshqaruva rejimini joriy etishi keskin norozitikni va Kashmirlga mustaqillik berish talabini keltirib chiqardi. Natijada Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik yuzaga keldi hamda Pokiston bilan qo'shilish tarafdori bo'lган musulmon separatistlari harakati kuchaydi.

N.Rao hind iqtisodida tub o'zgarishlar o'tkazishga harakat qildi. U denatsionalizatsiya jarayonini boshladи. Ko'pgina zarar keltiradigan fabrika va zavodlar yopildi.

N.Rao infliyatsiyani to'xtatish, sanoatga sarmoya qo'yishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligl mahsulotlari yetishtirishmi kuchaytirishga erishdi. Sanoat ishlab chtqarish hajmi ko'paydi. 1994—1995-yillarda bu sohadagi o'sish 10 foizni, yalpi milliy mahsulotning yilik o'sishi 5 foizni tashkil etdi.

**Jangovar Induizm
millatchiligining faol-
lashuvi**

1996-yil boshida HMK yuqori rahbariyatidagi kor-rupsiya va aymish holatlari ochib tashlandi. 30 ta yirik

siyosatchi poraxo'rlikda ayblamib, jinoiy javobgarlikka tortildi. Hatto bosh vazir ham tergovga tortildi.

Hindistonda hind birligiga rahna soluvchi katta dushman — jangovar induizm millatchiligi paydo bo'ldi. Uning amaldagi timsoli Hindistondagi mashhur siyosiy shaxslardan biri **Atal Bexari Vajpai** yetakchiligidagi **Bxarati Janata partiyasi** (BJP) edi.

Yangi partiya mamlakatda to'liq induizm hukmronligini o'rnatish va musulmonlarni siyosat hamda iqtisodidan siqib chlqarishga chaqirdi. BJPga o'xshash partiyalar Hindistonning deyarli barcha burchaklarida paydo bo'la bordi. U aymiqsa markazi Bombay shahri bo'lган Maxarashtra shtatida kuchli faoliyat yurgizdi. Bu yerda hlind iqtisodining muhim tarmoqlari va mamlakatdagi eng yirik port joylashgan. Bombay hind to'qimachilik,

mashinasozlik, metalni qayta ishslash sanoati markazi sanaladi. Mazkur viloyat Hindistonning atom elektr stansiyasi hisobiga elektroenergiya bilan to‘liq ta‘minlangan yagona hududi sanaladi.

Shtat hukumatini Shiv Sen partiyasi boshqaradi. Uning rahbarlari mamlakat nomini Hinduston deb o‘zgartirishni talab etishgan. Ularning taklifiga ko‘ra Bombaya yangi — **Mumbay** nomi berilgan.

R.Gandi o‘limidan so‘ng Hindiston ichki siyosatida-gi ahvol o‘ta murakkablashdi, Panjobdagagi separatistlar va ekstremistlar harakati faollahdi. Diniy-etnik va mazhablararo to‘qnashuvlar kuchaydi, bir qator yetakchl partiyalarda fraksiyalar kurashi keskinlashdi. Muxolifat partiylar faoliyati ham tiklana boshladi.

1998-yil fevraldagi parlament saylovlardida Bxarati Janata partiyasi va uning yetakchisi Atal Bexari Vajpai 19-mart kumi bosh vazir etib saylandi. Oktabr oyidagi saylovlarda Vajpai rahbarligidagi siyosiy alyans g‘alaba qozondi va BJPning yetakchi partiya sifatidagi ahamiyatini mustahkamladi. Hukumat tepasiga millatchilar kuchlarining kelshi Pokiston bilan aloqalarni qaytadan ziddiyatga olib keldi. 1999-yil may—iyunda Pokiston bilan chegaradosh Kashmirda ikki mamlakat qo‘sinchalar o‘rtasida keyingi o‘n yillikdagi eng og‘ir to‘qnashuv yuz berdi. Shu yilning aprel oyida Hindiston Rajastonda bir necha bor yadro quroli sinovini o‘tkazdi. Bunga javoban Pokiston ham o‘z yadro qurolini bir necha marta simovdan o‘tkazdi. Ikki davlat o‘rtasidagi janjal yangi bosqicha ko‘tarildi.

I997-yil iyulda Hindistonda muhim voqeа yuz berdi. K.R.Narayanan mamlakat prezidenti etib saylandi. U Hindistondagi eng quyi shudra mazhabi vakili bo‘lib shu paytgacha birorta yuqori davlat lavozimida ishiamagan. Bu hol mamlakatda mazhablar o‘rtasidagi munosabatlarning ijobiyo‘lga qo‘yilishiga umid bildirar edi. 2002-yilda mamlakat prezidenti etib D.A.Kalam saylandi.

2004-yil yanvarda Islomobodda Hindiston bosh vaziri Vadjpai va Pokiston prezidenti uchrashdi, ular ikki mamlakat o‘rtasidagi mojaroni timch yo‘l bilan hal etishga intilishlarini namoyon etishdi.

Tarixiy ma'lumot

Hindiston bosh vazirlari

1947—1964 — J.Neru
1964—1966 — L.B.Shastri
1966—1977 — I.Gandi
1977—1979 — M.Desai
1979—1980 — G.Singx
1980—1984 — I.Gandi
1984—1989 — R.Gandi
1989—1991 — V.P.Singx
1991—1998 — P.V.Narasimxa Rao
1998 yildan — Atal Bexari Vajpai

Qisqacha mazmumi

- 40-yiliar — mliliy-ozodlik harakatining kuchayishi
- 1947-yil 20-fevral — Hindistonga mustaqililik berish to'g'risidagi muzokaralar boshiahishi
- 1947-yil iyun — mamlakatning ikki davlat — Hindiston va Pokistonga bo'linishi
- 1947-yili 15-avgust — Hindiston Respublikasining e'lon qilihishi. Javoharlal Neru — birinchi bosh vazir
- Hindlar va musulmonlar o'rtasidagi to'qnashuv; Maxatma Gandining o'Idirilishi
- 1950-yili yanvar — yangi konstitutsiyaning qabul qilihishi: asosiy inson huquqlari kafolati, mazhabga ko'ra kamsitilish bekor qilihishi, umumiy saylov huquqining kiritillshi
- Iqtisodiy qiyinchiliklar, xorijiy sarmoyalarga bog'liqlik. Iqtisod asosi — davlat mulkchiligi; sanoat ishiab chiqarishi rivojlanishi
- 1964-yil — L.B.Shastri — bosh vazir
- 1966-yil — I.Gandi — bosh vazir: mamlakathi modernizatsyalash uchun kurash
- 1971-yili dekabr — Pokiston armiyasining parchalishi, Bangladesh davlatining tashkll topishi (Sharqiy Bengalija hududi)
- Ichki siyosat xususiyatlari: davlat (hind) tilidi joriy qilihga urihish, tug'ilish ustidan nazorat o'rnatish
- 1975-yili iyun — repressiya, siyosiy partiyalarining taqiqlanishi; parlament I.Gandining favqulodda vakolatini tasdiqladi
- 1976-yil — bosh vazir Morarjiy Desay; inflyatsiya, separatistik harakat
- 1980-yil — saylovlarda HMKning g'alabasi: bosh vazir — I.Gandi

- 1983-yil — etnik va diniy negizdagi ommaviy g'alyonlar
- 1984-yil — Armitsaroydagi sikxiarning dargohi — Oltin ibodatxonaning bosib oilnishlari
- 1984-yil oktabr — I.Gandining o'ldirilishi
- Bosh vazir Rajiv Gandhi: ilgarigi siyosatning davom etishi
- 1991-yil — bosh vazir Narasimha Rao; mamlakatda — gi tub o'zgarishlar
- 1996-yil — jangovar indaizm millatchiligining faoliashuvi
- 1999-yil aprel — yadro bombasi sinovi
- 2004-yil — Hindiston va Pokiston rahbarlarining mojaroni tinch yo'l bilan hal etish uchun uchrashuvi

Savollar

- ? 1. Hindiston mustaqilligining e'lon qilinishi gaysi davrga to'g'ri keladi?
2. Nima uchun va ganday belgilarga ko'ra mamlakat ikkita davlatga bo'linib ketdi?
3. 1950-yili Konstitutsiya qabul qilingan mamlakatda qanday o'zgarishiar ro'y berdi?
4. Hindistonning 50—60-yillardagi rivojlanishiga ta'rif bering.
5. Mamlakatda qanday masalalar hozirgacha hal etilmagan?
6. I.Gandi faoliyatidagi asosly qarama-garshilik nimadan iborat?
7. R.Gandi I.Gandining qanday xatolarini takrorladi? Siz mamlakatdagi siloxlar masalasini qanday hal etgan bo'iar edingiz?
8. Mamlakat siyosiy yetakchilaridan qaysi biri sizningcha nisbatan kuchli slyosatchi bo'lgan? Nima uchun?

34-§. POKISTON: RIVOJLANISH ZIDDIYATLARI

Pokiston davlati Hindistonning ikki mamlakatga bo'linib ketishi oqibatida **1947-yil 15-avgustda** tashkil topdi. 1971-yil dekabrgacha Pokiston tarkibiga Sharqiy Bengaliya ham kirar edi. So'ng milliy-ozodlik harakati natijasida uning tarkibidan chiqdi va yangi **Bangladesh** davlati paydo bo'ldi.

Kashmir muammosi **1947-yil** Hindistonning ikkiga bo'linishi oqibatida har ikki tomon Kashmir masalasiga nisbatan o'z noroziligini bildirdi. Pokiston bu hududda musulmon aholisi istiqomat qilishini sabab qilib ko'rsatса, Hindiston tomoni bu yerni qadimdan induizm

maxaraji boshqarishi va Kashmir, meros huquqiga ko'ra, uming mulki ekanligiga da'vo qildi. 1947-yil iyul oxirida maxaraja Hindiston tarkibida qolishimi e'lon qildi. Bu esa Kashmirda ommaviy to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Mazkur muammoni hal etish BMT Xavfsizlik Kengashiga havola qilindi va u 1949-yil 1-yanvardan o't ochishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qildi. Ikkinchi bir qarorda esa har ikki tomon qo'shinlarining Kashmirdan ollb chiqilishi va uning kelajagini belgilash uchun BMT nazorati ostida referendum o'tkazish zarurligi ta'kidlanidi. Biroq Hindiston ushbu rezolyutsiyani qabul qilishdan bosh tortdi. 1954-yil may oyida hindlar hukumati Jammi va Kashmirni shtat sifatida "Hindistonga qo'shib olish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Hindiston mustaqillikka erishgandan so'ng hozirgi vaqtgacha Kashmir Hindiston va Pokiston qarama-qarshiligi markazi bo'lib kelmoqda.

40—50-yillarda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi

foizini qishioq xo'jaligi va mineral xomashyo tashkil etar edi. Mamlakat sanoati sodda texnika bilan jihozlangan, xom ashyo qazib olish va qayta ishiash bo'yicha uncha katta bo'limgan korxonalardan iborat edi, xolos. Sanoat tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab asosan import hisobiga qondirilgan.

Pokiston iqtisodida chet el monopoliyasi hukmronlik qilar va choy plantatsiyalari, tuz hamda ko'mir konlari, neft konlarining ko'pchiligi ularga qarashli edi. Angliya firmalari va banklari mamlakatning savdo hamda moliya tizimining muhim tarmoqlarini nazorat qilib turdi.

Mamlakatidagi siyosiy ahvol beqaror edi. **1947-yilda** hukumatga Musulmon llgasining kellshi bilan uning rahbariyati milliy iqtisod zarari hisobiga o'z pozitsiyalarini mustahkamlash va shaxsan boyish uchun foydalandi.

Pokiston iqtisodidagi asosiy masala — agrar masala hal etilmadi. 1950—1952-yiliarda qonunchilik yirik pomeshik yer egaligini qisman chekladi, ammo bu dehqonlarga hech nima bermadi.

Sanoat sohasida ham sezollarli siljish sezilmadi. Bir qator yengil sanoat tarmoqlari tashkil etilsa ham bu mil-

Pokistonga asosan qishloq xo'jaligidan iborat qoloq iqtisodiyot meros bo'lib qoldi. Pokiston eksportining 90

liy iqtisod umumiy rivojlanishiga aytarli ta'sir ko'rsata olmadi. Xorijiy davlatlar milliy burjuaziya rivojlanishiga to'sqinlik qilib, mamlakatdagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Chet el sarmoyasi faqat harbiy-havo va harbiy-dengiz bazalari inshootlariga, strategik yo'llar qurilishi va qurol-aslaha sotib olishga sarflanar edi.

Pokiston rahbariyati AQSH bilan hamkorlik qillshga yaqinlashib 1950—1952-yillarda qurol-yarog' sotib olish to'g'risida bir qator bitimlar tuzdi. **1954-yil sentabrda** Pokiston SEATOga kirdi, 1955-yil iyulda esa arab mamlakatlaridagi milliy-ozodlik harakatiga qarshi yo'naltirilgan Bag'dod paktini imzoladi.

Pokiston kuchli armiya tashkil qilishga juda katta mablag' sarflagan holda sog'liqmi saqlash, maorif, ijtimoiy ta'minotga uncha e'tibor qaratmadni.

Musulmon ligasi asta-sekin mamlakatdagi o'z mavqeini yo'qota boshiadi. Undan bir qator dehqonlar, mayda va o'rta burjuaziya, ziyolilar qatlami yuz o'girdi. 1949—1950-yillarda demokratik qayta o'zgarishiar dasaturini va tashqi siyosatni neytrallashtirish talabini ilgari surgan muxolifat partiyalar ("Ozod Pokiston" partiyasi, demokratik partiyalar va hokazo) norozilik bildira boshladi.

**1959-yilgi harbiy
to'ntarish. General
Ayyub Xon diktaturasi**

O'z mag'lubiyatini sezgan Pokiston rahbariyati tub o'zgarishiar yasash o'rmiga mamlakatda harbiy to'ntarishni amalga oshirdi va general Ayyub Xon diktaturasi o'rnatildi. Mamlakatda harbiy holat e'lon qillndi, konstitutsiya bekor qilindi, qonunchilik organlari va hukumat tarqatib yuborildi, siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlandi. Namoyish va mitinglarda ishtirot etganlik uchun o'lim jazosi belgilandi.

Biroq 1969-yil mart oyida siyosiy tanglik kuchaygan bir sharoitda prezident Ayyub Xon iste'foga chiqishga majbur bo'ldi va hokimiyatni armiya qo'mondoni general Yahyoxonga topshirdi. Ammo u ham fuqarolar urushi holatiga olib kelgan nizolarni bartaraf qila olmadi. Sharqiy Pokistonda milliy-ozodlik harakati boshiandi va 1971-yil dekabrda Pokiston hamda Hindiston o'rtasida qurolli to'qnashuv kelib chiqdi. Bu nizo pokistonliklar armiyasining kapitulyatsiyasi bilan yakunlandi.

**Harbiy diktaturaning
qulashi**

**Bxutto rahbarligidagi Pokiston xalq partiyasining ke-
lishiga sabab bo'ldi.**

Mamlakatda yetakchi sanoat tarmoqlari, bank va sug'urta kompaniyalari natsionalizatsiya qilindi, agrar islohot o'tkazildi. 1976-yilda Pokiston va Hindiston o'rtaida diplomatik aloqalar tiklandi. **1972-yilda** Pokiston SEATO tarkibidan chiqdi, **1974-yilda** esa Bangladeshni tan oldi.

Bxutto Zulfiqor Alixon (1928—1979) — 1967-yilda
Pokiston xalq partiyasiga asos soldi. 1971—1973-yillarda — davlat va hukumat rahbari, 1973—1977-yillarda — bosh vazir. 1977-yilda mamlakat harbiy ma'muriyatini tomonidan hibsga olingan, davlatga xiyonat qillishda ayblanib, 1979-yilda qatl qilingan.

**1977-yilgi harbiy
to'ntarish**

1974-yilda qabul qilingan yangi konstitutsiyaga muvofiq 1977-yilda Milliy majlisga umumxalq saylovlari bo'lib o'tdi va unda PXP g'alaba qozondi. Biroq muxolifat partiyalar ushbu saylov nati-jalarini tan olmadi. Mamlakatda siyosiy inqiroz boshlandi.

1977-yil 5-iyulda navbatdagi harbiy to'ntarish yuz berdi va hokimiyat general **Ziyoulhaq** (1924—1988) qo'liga o'tdi. Yangi ma'muriyat konstitutsiyani bekor qildi, parlamentni tarqatib yubordi va PXP tarafдорлари ni ta'qib qila boshladi. Z.Bxutto qatl qilindi.

1979-yilda barcha siyosiy partiyalar faoliyati taqiq-landi. Harbiy rejim ichki siyosat asosiga jamiyat hayotini har tomonlama islomlashtirishni kiritdi.

Qo'shni Afg'onistondagi sovet qo'shinlarining kiritiliishi bilan bog'liq voqealar AQSH rejasiga ko'ra Pokistonning harbiy platsdarmi sifatidagi ahamiyatini oshirdi. Pokistonda qochoqlar uchun lager tashkil etildi va u afg'on jangarilari uchun tayanch bazasiga aylandi. Aynan shuning uchun AQSH Pokistonga 4 milliard dollar atrofida moddiy yordam ko'rsatdi. Biroq bu harbiy rejim qulashini vaqtincha kechiktirdi, xolos.

Qimmatchilik va ishsizlik, asosiy inson huquqlari va erkinlikning bo‘g‘ilishi natijasida xalqning hukumatga nisbatan noroziligini kuchaytirdi. Ko‘pchilik muxolifat partiyalar demokratiyani tiklash va umumxalq parlament saylovlari o‘tkazishni talab qilib chiqdi.

**Benazir Bxutto
boshqaruvi**

Mamlakatdagi demokratlash-tirish jarayoni voqeani tezlashtirib yubordi. **1988-yil**

17-avgust kuni general Ziyoulhaq aviatsiya falokatida halok bo‘ldi va senat raisi **G‘ulom Ishoq Xon** prezidentlik lavozimini egalladi. **1988-yil 16-noyabrda** umumxalq parlament saylovlari bo‘lib o‘tdi. Asosiy kurash PXP va



Benazir Bxutto.

Pokiston musulmon ligasi o‘rtasida bordi. Unda PXP g‘alaba qozondi va Z.Bxuttoning qizi — **Benazir Bxutto** o‘z otasi partiyasiga yetakchilik qilgan holda bosh vazilikka saylandi.

Siyosiy tajribaning yo‘qligi sababli B. Bxutto hukumat mamlakat siyosatida bir qator jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘ydi, ichki qarama-qarshiliklar kuchayib ketdi. Bundan muxolifat kuchlar foydalanib mamlakat prezidentiga ta’sir o‘tkazdi va B.Bxuttoni korupsiyada ayplashdi. B.Bxutto o‘z lavozimidan chetlatildi. Ammo mamlakatda barqarorlik qaror topmadni. Karochida ommavii tartibsizliklar kuchayib politsiya ularga qarshi

qurol ishlatdi. Islomoboddan Peshavorgacha oraliqdagi harbiy lagerlarda joylashgan besh million afg'on nazorat ostidan chiqib Pokistonning iqtisodiga yanada katta zarar keltirdi. Mamlakat prezidenti Legari 1993-yil **oktabrda** qayta saylov o'tkazishga majbur bo'ldi va B.Bxutto yana g'alaba qozondi.

Oradan to'rt yil o'tmay ilgarigi holat takrorlandi. B.Bxutto korrupsiya ayblamib bosh vazir lavozimidan chetlatildi. U hibsga olinib jamoatchilik tazyiqi sababli bir yildan so'ng ozodlikka chiqarildi. 1997-yil 3-fevralda Pokistonda yangi umumxalq saylovi o'tkazildi. Unda Navoz Sharif yetakchiligidagi Pokiston muslimmon ligasi g'alaba qozondi va u bosh vazir lavozimiga saylandi.

Bxutto Benazir (1953-yilda tug'ilgan) — Z.Bxuttoning qizi. 1985-yildan Pokiston xalq partiyasi hamraisi. 1988—1990 va 1993—1997-yillarda — mamlakat bosh vaziri.

**Navoz Sharif
boshqaruvi**

Pokistonning tashqi qarzi ko'payib ketdi. Hindiston bilan bo'lgan quronish poygasi yangi xarajatlarni keltirib chiqardi.

Mamlakat siyosiy hayotida yana vakuum paydo bo'ldi. Biror bir partiya xalqqa aniq tub o'zgarishlar das-turini taqdim eta olmadi. B.Bxutto yetakchiligidagi Pokiston xalq partiyasi va N.Sharif rahbarligidagi Pokiston muslimmonlar ligasining bir-birlarini korrupsiya va ma'naviy ayniganlikda ayblashi odatiy holga aylandi.

Ular faqatgina Kashmir masalasidagina bir fikrda edilar. Har ikki partiya antihind targ'iboti va urushni davom ettirishga chaqirishda bir-biridan o'tib tushar edi.

**1999-yilgi harbiy
to'ntarish**

byudjetidagi taqchillik deyarli 8 foizni tashkil etdi.

1999-yil mayda Pokiston yadro sinovini o'tkazdi. Bu ham mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlamadi, ammio harbiy pozitsiyasini kuchaytirdi. Ular mavjud sharoitdan foydalanishga va yana hukumatni o'z qo'liga olishga qaror qildi.

Endilikda Afg'oniston bilan bog'liq kaltabin siyosat uchun javob berish payti keldi.

Harbiy xarajatlar Pokiston iqtisodi uchun katta kulfat keltirdi. Mamlakat doimiy

1999-yil 3-oktahrdə Pokiston armiyasi generali **Perviz Musharraf** harbiy to'ntarishni amalga oshirdi va N.Sharif o'rniiga bosh vazir etib saylandi. Biroq xalqaro ahvolning o'zgarishi va mamlakatning tanglikdagi iqtisodi P.Musharrafini Pokistonda demokratiyani tiklash to'g'risida gapirishga majbur qildi. U, shuningdek, Kashmirda Hindistonga qarshi harbiy harakatlarni "deeskalatsiya" qilish va buzilgan iqtisodni tiklash zarurligini ta'kidladi.

2002-yil apreldagi referendumda prezident Musharraf vakolatlari 5 yilga uzaytirildi.

Qisqacha mazmuni

- 1947-yll 15-avgust — davlatning tashkil topishi
Kashmir — Hindiston va Pokiston qarama-qarshiil-gning markazi
- 40—50-yillar — qoloq iqtisod, chet el monopoliyasi hukmronligi
- 1950—1952-yillar — qishioq xo'jalligidagi islohotlar: cheklangan zamindor yer egaligi
- AQSH yordami
- 1954-yll — SEATO tarkibiga kirishi
- 1959-yil — harbiy to'ntarish, general Ayyub Xon diktatursining o'rnatilishi, konstitutsianing bekor qilinishi, repressiya
- 1969-yil — Ayyub Xon iste'fosi, prezident — general Yahyoxon
- 1971-yil — Pokiston va Hindiston o'rtasidagi harbiy nizo
- Pokiston xalq partiyasining hukumat tepasiga kelishl; prezident — Zulfiqor Alixon Bxutto
- Iqtisodiy tub o'zgarishiar, sanoat yetakchi tarmoqlarini natsionalizatsiya qilish, agrar islohot
- 1974-yil — yangi konstitutsianing qabul qillnishi
- 1976-yil — Hindiston bilan diplomatik aloqalarning tiklanishi
- 1977-yil — harbiy to'ntarish; prezident — general Ziyoulhaq; parlamentning tarqatib yuborilisbi, repressiya, Islomlashtirish siyosati; afg'on jangarilari uchun tayanch bazasining tashkil etilisbi
- 1988-yil — Ziyoulhaqning o'limi; prezident — G'ulom Is'hoq Xon
- 1988-yil 16-noyabr — umumxalq saylovları; bosh vazir — Benazir Bxutto
- 1997-yil 3-fevral — N.Sharif yetakchiligidagi

- Pokiston musulmon ligasining hokimiyat tepasiga kelishi
- 1999-yil may — Pokistonda yadro bombasi sinovi o'tkazildi
 - 1999-yil 3-oktabr — harbiy to'ntarish
 - 2002-yil — P.Musharrafning prezidentlik vakolati 5 yilga uzaytirilishi.

Savollar

- ? 1. Pokiston davlati qachon va qanday voqealar bilan bog'lig holda tashkil etildi?
2. Kashmir muammosi mohiyati nimaiardan iborat?
3. 40—60-yillarda mamlakat iqtisodi va siyosati taraqqiyotining xususlyatlarni sanab o'ting.
4. 1977-yilgi harbiy to'ntarishdan so'ng mamlakatda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
5. Nima uchun B.Bxutto mavjud muammolarni hal eta olmadi?
6. Mamlakatning bugungi ichki va tashqi siyosati borasida mamlakat rivojlanishi qarama-qarshiligidini mlsollar bilan ko'rsatib bering.

35-§. AFG'ONISTON: MILLIY FOJEA

Afg'oniston hududining katta qismini Hindiqush va Himolay tog' massivlari va Pomirning bir qismi tashkil etadi. Foydali qazilmalar deyarli yo'q htsobi. Mamlakatda 20 million kishi istiqomat qiladi. Shuning 60 foizini tub aholi — pushtunlar, 15 foizini afg'on Turkistoni deh ataluvchi shimoliy hududda yashovchi o'zbeklar va yana shuncha qismini Tojikistonga qo'shni Badaxshonda istiqomat qiluvechi tojiklar tashkil qiladi. Afg'onistonda jami 20 dan ortiq millat vakillari yashaydi.

Bu yerda yagona ichki bozor yo'q, ularning ko'p qismi turli hududlarga sochilib ketgan va qo'shni davlatlar bilan aloqa qiladi. Afg'oniston beshta davlat — Pokiston, Eron, Tojikiston, O'zbekiston va Turkmaniston bilan chegaradosh. Chegara bo'ylab ushbu davlatlarga aloqador etnik guruh vakillari yashaydi.

1933-yilda Afg'oniston shohi Nodirshoh o'limidan so'ng, uning o'g'li **Zohirshoh** mamlakatning yangi yetakchisi deb e'lon qilindi. Uning 40 yillik boshqaruvi davrida mamlakatda deyarli hech qanday o'zgarish yuz

bermadi. Shu davrda jami 300 ta sanoat korxonasi (shundan 140 tasi Sovet Ittifoqi yordamida) qurildi. Afg'oniston dunyoda hayot darajasi eng past qoloq davlat bo'lib qolaverdi.

**Afg'onistonning
respublika deb e'lon
qilinishi**

1973-yil 17-iyulda mam-lakatda harbiy to'ntarish yuz berdi va monarxiya ag'darilib Afg'oniston respublika deb e'lon qilindi. Zohirshohning ukasi **Muhammad Doud** Afg'oniston bosh vaziri deb e'lon qilindi. Yangi rejim eski tartibga ko'nikkan ruhoniylar, yirik zamindorlar, davlat amaldorlarining noroziligini keltirib chiqardi.

Doud Muhammad (1908—1978) — 1973-yildan 1977-yil fevralgacha Afg'oniston davlat rahbari va bosh vazirlari. 1977-yil fevraldan 1978-yil aprelgacha mamlakat prezidenti. Harbiy to'ntarish natijasida ag'darib tashlangan.

Boshqa tomondan, yangi tuzum keng xalq ommasini ham faollikka chaqirdi. **Afg'oniston xalq-demokratik partiyasi (AXDP)** xalqqa qarshi tuzum bilan kurashayotgan vatanparvar kuchlarga boschchilik qildi, u 1965-yilda tuzildi.

Hukmron tuzum tarafdarlari islom ekstremistlari tashkilotlari bilan yaqindan aloqada bo'ldi. Ular orasida fanatik "**musulmon birodarlar**", shuningdek, Afg'onistonning asosiy aholisi — pushtunlarning juda ko'pchili-gini o'zida namoyon etuvchi ismoiliylar eng faollari edi. O'z mazhabi qoidasiga ko'ra har bir ismoiliy umrida bir marta odam o'ldirishdan iborat "jasorat"ni amalga oshirishi lozim bo'lgan.

Bunday diniy ekstremistik tashkilotlardan foydalan-gan Doud tuzumi o'z mavjudligini bir qadar uzaytirdi, biroq bu hol uni tugal halokatdan saqlab qola olmadidi.

Afg'onistonda ikki muxolifat oqimlar yuzaga keldi: ulardan biri bo'lgan islomiy oqim shahar kambag'allari va dindor dehqonlar hisobiga keng ijtimoiy negizga ega edi.

Ikkinci muxolifatning asosiy qismini harbiylar, demokratik kayfiyatdagagi ziyorilar, uncha ko'p bo'lmagan ishchi va davlat xizmatchilari qatlami tashkil etdi. Uni "Yo'qolsin zo'ravonlik" va "Yashasin demokratiya"

shiorlarimi ko'tarib chiqqan AXDP hoshqardi. Partiyaning xalq ommasi bilan keng aloqalari yo'q edi. Biroq avvalhoshidan partiyada ikki guruh — Nur Muhammad Tarakiy boshchiligidagi **Xalq** va Babrak Karmal boshchiligidagi **Parcham** (bayroq) partiyalari o'rtaida ziddiyatlar yuzaga keldi va u dushmanlikka aylandi.

Doud AXDPga qarshi asosiy zarbani berishga qaror qildi. **1978-yil 25-aprelda** uning buyrug'i bilan partiyaning barcha rahbarlari qamoqqa olindi. Bu voqeа tuzumga qarshi norozilik chiqishiariming boshlamishiga signal bo'ldi. **1978-yil 27-aprelda** mamlakat HHK (Harbiy Havo Kuchiari) qo'mondomi polkovnik Abdul Qodir boshchiligidagi Afg'oniston harbiy kuchlarining inqilobiy kengashi Kohul ko'chalariga doimiy qo'shining bir necha batalonlarini ohb chiqdi, prezidentlik saroyini egalladi va Doud hukumati ag'darilgamini e'lon qildi. Prezidentlik saroyi uchun bo'lган janglarda uning yaqim safdoshiari qatorida Muhammad Doud va uning akasi Sardor Nasim o'ldirildi. Afg'on taqvimi ho'yicha bu voqeа 1357-yil 7-savrida (1978-yil 30-aprel) ro'y berdi va u tarixga "Savr inqilobi" nomi bilan kirdi.

O'sha kumi **Afg'oniston Demokratik Respublikasi** (ADR) e'lon qilindi, Inqilobiy kengash va hukumat tuzildi. **N.M.Tarakiy** bosh vazir, B.Karmal esa uning o'rribosari bo'ldi. A.Qodir milliy mudofaa vaziri lavozimini egalladi. Yangi hukumat demokratik yer islohotlari loyihasini ishlab chiqdi. Yangi maktablar, turar joylar va ijtimoiy binolar qurilishi boshiandi. Sobiq qiroq oilasining a'zolari, prezident Doudga tegishli barcha ko'chmas mulk va boshqa narsalar musodara etildi.

Yangi hokimiyat islohotlari demokratik o'zgarishlarga qarshi chiqqan siyosiy doiralarming qaqqhatqich qarshiligiga uchradi, zero ular yangi hokimiyat imtiyozlardan mahrum etadi deb cho'chishdi. Diniy ekstremistlar ADR rabbariyatini islomdan chekinishda aybiab, barcha muslimonlarni ularga qarshi kurashga chaqirdi. Ular targ'iboti ta'siri ostida yuz minglab afg'onlar Pokistonga qochdi. Chet eidan qurol-yarog' olgan qurolli guruuhlar shakllana boshiadi. Ularning tarkibimi "mujohid" (e'tiqod uchun kurashchi) nomini olgan muslimon birodarlari va ismolliylar tashkil etdi.

Ayni paytda AXDP rahbariyatining o‘zida hokimiyat uchun keskin kurash boshlanib ketdi. **1978-yil 17-avgustda** hukumat respublikaga qarshi fitna fosh etilganini e’lon qildi. Parchamning ayrim yo‘lboshchilar, shuningdek, B.Karmal ham qamoqqa olindi. U shundan keyinroq Pragaga elchi qilib yuborildi. Abdul Qodir va boshqa taniqli ijtimoiy-siyosiy arboblar ham qamoqqa olindi.

Inqilobiy Kengashdagi kurashdan foydalangan N.Tarakiyning sobiq o‘rinbosari **Hafizulla Amin** hokimiyatga yorib kirdi. 1979-yilning martida u bosh vazir lavozimini egalladi. O’sha yilning sentabrida H.Amin N.Tarakiyni zo‘rlik bilan chetlatib, so‘ngra esa o‘ldirib, AXDP MK bosh kotibi va Inqilobiy kengash raisi lavozimlarini egalladi. Shu bilan Savr inqilobi tugadi.

AXDP rahbariyati tor-mor etildi. Uning a’zolaridan ko‘pchiligi jismonan yo‘q qilindi. Mamlakatda terror va zo‘ravonlik tuzumi o‘matildi.

Qatag‘onlar Kobul tuzumiga qarshi kurashni kuchaytirishga imkon yaratdi. Muxolifatdagi unsurlar vaziyatdan unumli foydalandi. Savr inqilobiga qarshi chlqqahlarning ko‘pchiligi (B.Rabboniy, G.Hikmatyor, S.Mudjadaddiy) hail Zohirshoh va Doud hukmronligi yillaridayoq Afg‘omistondan muhojirotga ketgan edi. Ular Pokiston, Saudiya Arabistomi va Misrda qo‘nim topishdi.

1979-yil oxirlariga kelib qurolli muxolifat guruhlari Afg‘onistondagi 26 viloyatdan 18 tasida mavjud edi. Inqilohiy kengash davlat ustidan nazoratini yo‘qotdi. Mujohidlar guruhiarining xatti-harakatlari mamlakatga katta zarar yetkazdi, barcha demokratik o‘zgarishlar barham topdi.

H.Amin isyonchilarga qarshi amalga oshirgan choratadbirlari yoki tayyorlanmagan yoki ishonchksiz bo‘llb chiqdi. Dekabr boshlariga kelib hukumat faqat Kobul va bir necha shaharlarnigma nazorat etdi, xolos.

**Sovet qo‘shinlerining
kiritilishi** Sovet Ittifoqi boshidanoq Afg‘onistondagi inqilobni qo‘llab-quvvatladi. U SSSR-ning global siyosatidagi muhim bo‘g‘in edi. Shu bois sovet rahbariyati qaltis qadam qo‘yishga qaror qildi. 1979-yil 25-dekabrda afg‘on askarlari kiyimini kiygan

KGBning “Alfa” bo‘linmasi prezidentlik saroyini ishg‘ol etdi va H.Amin o‘ldirildi. Shu kumi B.Karmal ADR prezidenti lavozimiga o‘tirdi, u bundan bir necha kun avval Kobulga maxfiy ravishda qaytgan edi.

B.Karmal sovet rahbariyatiga Afg‘onistonga qo‘sishin kiritish iltimosi bilan murojaat qildi, bu qo‘sinchilar oидимдан tayyorlab qo‘yilgan bo‘lib, 28-dekabrda chegarani kesib o‘tdi. Bir necha kun mobaynida Kobulga 50 ming askar va zabitlar yuborildi, yanvarning oxiriga borib esa ular soni 85 mingdan oshdi. Bu hol vaziyatni o‘zgartirib yubordi: inqilohiy tuzumga qarshi kurash vatanparvarlik milliy-ozodlik urushiga aylanib ketdi.

AQSH SSSRning Afg‘onistonda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashiga yo‘l qo‘ya olmas edi va ular Pokistonni sovet tajovuzini qaytarish uchun o‘ziga xos platsdarmga aylantirdi. Pokiston hududida afg‘on jangarilari uchun lagerlar qurildi, AQSH ularga eng zamonaviy quroilarni berdi. “Stingerlar” — samolyotlar bilan kurashda qo‘llaniluvchil yengil raketalar Sovet Ittifoqini osmondagи ustunlikdan mahrum etdi. Urush cho‘zilib ketdi.

Urush yakunlari Afg‘omistonda davom etgan 10 yillik urush mamlakat iqtisodiyotiga ulkan zarar yetkazdi. Yuzlab qishloqlar, 2 ming maktab vayron etildi, o‘nlab elektrostansiyalar buzib tashlandi, o‘nlab sanoat korxonalari faoliyatini to‘xtab qoldi.

5 million afg‘on, ya’mi mamlakat aholisining qariyb choragi qo‘sni Pokiston hududiga, 1,5 millioni Eronga qochib ketdi. Bu yerda yosh afg‘onlardan mujohidlar guruhiari tuzildi, ular amerikalik mutaxassislar tomonidan zamonaviy qurollarni ishiatishga o‘rgatildi.

1989-yilda Sovet Ittifoqi urushni bundan keyin davom ettirishning foydasizligini tushumb yetib, o‘z qo‘sinchilarini Afg‘omiston hududidan olib chiqib ketdi. Mamlakatda yangi vaziyat yuzaga keldi. Kobulda B.Karmalning o‘rniga kelgan **Najibullo** inqilobi sovet-parast tuzumi saqlanib qoldi. Mujohidlar o‘z hukumati tuzish, unda **Sibxatulla Mujadaddiy** mamlakat prezidenti etib tayinlandi.

Afg‘on o‘tish hukumati urushni Jalolobodni egallash va u yerda qaror topish bilan tugahamoqchi bo‘ldi. Biroq

ular bunga faqat 1992-yildagina muvaffaq bo'lishdi va inqilobiy tuzum qoldiqlari qarshiligini yengib, poytaxtni egallashdi. Najibulla BMT vakolatxonasiga yashirindi.

Asosiy dushman tugatilgandan so'ng mujohidlar orasida kelishmovchiliklar boshlandi. Kobulni dala qo'mondoni **Ahmad Shoh Ma'sud** nazorat qildi. Uning raqibi general **Rashid Do'stum** o'z qo'mondonligi ostida 40 ming militsioner-ko'ngilii askarlarga ega edi. 1992-yilda **Burhoniddin Rabboniy** president etib saylandi, u yangi konstitutsiyami qabul qilish uchun Ta'sis majlisini chaqirishga da'vat etildi.

Tolibonlar harakati Mamlakatda hokimiylatsizlik boshlandi. Do'stum (o'zbeklar), Ahmad Shoh Ma'sud (tojiklar) va Hikmatyor (pushtunlar) etnik lagerlari o'rtasidagi kurash o'zaro (ichki) urushlarga aylanib ketdiki, unda 5 ming kisbi halok bo'ldi, Kobul esa to'liq vayron etildi. Tojiklarning vakili bo'lgan Rabboniy prezidentlik lavozimini bo'shatib berish yoki Ta'sis majlisini chaqirishdan voz kechdi. Hikmatyor norozilik belgisi sifatida bukumat tarkibidan chiqdi va mamlakat bosh vazirsiz qoldi. Asosiy mojaro Rabboniy va Pokiston yordamidan foydalangan Hikmatyor o'rtasida ro'y berdi. Afg'onistonning siyosiy maydonida yangi kuch — o'zi haqida **1994-yilning noyabridayoq** ma'lum qilgan tolibiar paydo bo'ldi. Ularning dasturi bir-biriga dushman guruahlarni qurolsizlantirish va tugatish hamda izchil islam hukmronligini o'rnatishni ko'zda tutdi. Ular Pokistondagi harbiy tay-yorgarlikni o'tadi va eng zamona niy qurol-yarog'ga ega bo'ldi. Tolibiar rahbari **Mulla Umar** izchil **ismoiliylik** va **vahhobiylirk** vakili bo'ldi. Uning maslahatchilarini orasida Saudiya Arabistonining yetakchlari ruhomiyatlari bor bo'lib, harbiy maslahatcbisi esa xalqaro terrorchi **Usoma bin Loden** edi.

1995-yilning yanvarida ular Kobulga hujum boshladilar. Mamlakat vayron etildi, hamma joyda ocharchilik boshlandi, shu bois poytaxtmi egallash qiyimchilik tug'dirmadi. Tohblarga qarshl muxolifat kuchlari parchalamib ketdi. Prezident Rabboniy Badaxshonga qochdi, bu yerda Ahmad Shoh Ma'sudning asosiy kuchlari joylashgan edi. General Do'stum o'z qismilari bilan shimalga yo'l oldi va Hiro, Balx, Mozori Sharifni o'z tayanch punktlariga aylantirdi. Hikmatyor o'z taraf-

lari bilan Jalolobodni egalladi, bu bilan mag'lublyatga uchrab qolsa, Pokistonga qochishni mo'ljalladi.

1996-yil oktabrda toliblar Kobulni egaliadi. Afg'onistonning sobiq prezidenti Najibullo qatl etildi. Toliblar "xalq dushmani" yoki o'zgacha fikrlovchi deb hisoblaganlardan ommaviy o'ch olishni boshladı. Vahhoblylik tamoyillariga muvofiq ayollarga o'qish va ishiash man etildi. Ular ko'chada ochiq yuz bilan yura olmasdi. Dunyoviy maktablar yopildi, faqat diniylarigina ishladi, hammaning namozga borishi majburiy qillb qo'yildi. Kobulda zo'ravonlik odatiy tusga kirdi.

Toliblar o'z raqiblarining tarqoqligi va tushkunligidan foydalandi. **1997-yilning iyulida** ular ikki yo'nalishda — Hirotdan Mozori Sharif, Kohuldan Bog'lon va Toluqon tomon hujum boshladı. Do'stumming xalq ko'ngillilaridan bir qismi sotqinlik qilib, toliblar tomoniga o'tdi. Toliblarning diniy targ'iboti ham muhim rol o'ynadi. Ahmad Shoh Ma'sud o'z qo'shinini hal qlluvchi jangdan olib chiqdi. Afg'onistonda biron-bir taraf g'alahaga erisha olmaydigan vaziyat yuzaga keldi. Millionlab kishilar mamlakatdan tashqariga qochib ketdi, qolganlari esa tirikchilik uchun kurash olib bordi.

Toliblarning shimoliy viloyatlarni bosib olishi ulami mamlakatlarning 90 foiz hududi ustidan nazorat qilishiغا olib keldi. Afg'oniston uzra islom fundamentalizmi va mamlakatning terroristik markazga aylamishi xavfi paydo bo'ldi. Toliblar tuzumining o'zi terroristik edi. Ular odamlarni televizor ko'rgami, radio tinglagani uchun ham, shariat me'yorlarini buzgani uchun ham qatl etdilar. Ayollarga o'qish va ishiash man etildi, erkaklarga soqol qo'yish majburiy bo'ldi, musiqa, raqs va konsertlar taqiqlandi. Tarix toliblar tuzumidan ham g'ayriinsomy tuzumni ko'rmagan desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

**O'zbekistonning
Afg'oniston muammo-iariga munosabati**

1993-yilning martida O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karinov BMTga maktub orqali qilgan murojaatida

mojaroni cheklash va hal etish, xususan, Afg'onistonga qurol-yarog' olib kirishga embargo kiritish ho'yicha aniq takliflarni olg'a surdi. 1998-yilda uming taklifi bllan Toshkentda "6+2" formulasi bo'yicha (Eron, Pokiston, Turkmeniston, O'zhekiston, Xitoy, Tojikiston, shuningdek, Rossiya va AQSH) uchrashuv o'tkazildi, unda

Afg'onistonning qarama-qarshi turgan kuchlari vakillari ishtirok etdi. U'chrashuvda mamlakatga quro'l-yarog' olib kirishni to'xtatish g'oyasi ma'quliandi.

Ma'naviy ilhomchi va amaldagi rahbar arab millioneri Usoma bin Loden bo'ldi. U Keniya va Ugandadagi Amerika elchixonalariga misbatan terroristik aktlar, Saudiya Arahistoridagi amerika qo'shimi kazarmalariga hujumlar tashkilotchisi edi. Oxirisida o'nlab amerikalik askarlar halok bo'ldi. Shuningdek, u 34 amerikalik dengizchi halok bo'lgan "Koul" kreyseriga hujumda ayblanadi.

AQSH Usoma bin Lodenni tutib berishni talab qildi. Toliblar rahbariyatining bundan bosh tortishi 1998-yilning 26-avgustida Kobulga Amerika qanotli raketalari hujumiga olib keldi. BMT 1999-yilning 14-noyabrida Afg'onistonga qarshi sanksiya kiritib, oziq-ovqat yordamidan mahrum etdi. Bunga javoban toliblar o'z tuzummi dushmanlariga qarshi qatag'onlarni kuchaytirdi. Ular Shimoliy ittifoq qo'shnlari qo'mondoniga misbatan terroristik aktni amalga oshirdilar va umi o'ldirdilar. Bomiyon viloyatida 15 asrdan buyon mavjud bo'lgan Buddha haykali vahshiyarcha portlatib yuborildi.

Amerika hokimiyatining ta'kidlashicha, Nyu-Yorkda 2001-yil 11-sentabrda Savdo markazi bimosiga amalga oshirilgan hujum Usoma bin Loden tomonidan amalga oshirilgan, prezident Bush bunga nisbatan antiterroristik urushni e'lon qildi. 2001-yil 7-oktabrda Amerika va Britaniya samolyotlari Afg'onistondagi jangovar mishonlarni bombardimon qildi. Terroristlarni tayyorlagan baracha lagerlar tor-mor etildi. Toliblarning barcha bazalari vayron qilindi, ularning asosiy qo'shin qismlari tog'larga va Pokistonga qochdi. Afg'onistonda 2002-yil yanvarda mamlakatda qayta tiklash ishiarimi boshiagan qonumi y hokimiyat qaror topdi. Mamlakatni qayta tiklash dasturi jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilindi. **Hamid Karzay** hukumat boshlig'i etib saylandi.

2004-yil yanvarda afg'on qabilalarining Katta jirg'asi yangi davlat konstitutsiyasini qabul qildi. Mamlakat demokratik jamiyat qurish yo'lini boshiadi. O'zbekistoning yordami tufayli Xayraton (Termiz) — Mozori Sharif birinchi temir yo'li qurilmoqda. O'zbek quruvchilari Afg'oniston shimolidagi barcha ko'priklarni tikladi.

Qisqacha mazmuni

- 1933—1973-yillar — Zohirshoh taxtga chiqdi
- Iqtisodiy qiyinchiliklar, turmush darajasining pastligi
- 1973-yll 17-iyul — monarxiyaning ag'darilishi; Afg'onistonning respublika deb e'lon qilinishi; Muhammad Doud — bosh vazir
- 1978-yil aprel — inqliob, hokimiyat uchun o'zaro urush: N.M.Tarakiy, H.Amin, B.Karmal
- 1979-yil dekabr — sovet qo'shinlarining kiritilishi; milliy-ozodlik urushining boshianishi
- AQSHning Afg'onistonga yordami
- 1989-ysi — sovet qo'shinlarining mamlakatdan olib chiqilishi
- O'zaro etnik urushiar
- Toliblar harakati. Kurashning avj olishi
- 2002-ysi — hukumat boshlig'i Hamid Karzay
- 2004-ysi — mamlakat konstitutsiyasining qabul qilinishi

Savollar

?

1. Afg'onistondagi 1978-yil aprel inqllobining mohiyati nima-da? Mamlakatda bu voqealardan so'ng qanday o'zgarish-iar ro'y berdi?
2. Sobiq SSSR hukumati Afg'onistonning 80-yillardagi tarixi-da qanday rol o'ynadi?
3. SSSRdagi qanday voqeaiar munosabati bilan Afg'oniston dan qo'shinni olib chiqib ketishga qaror qabul qilindi?
4. Fuqarolik urushi Afg'oniston iqtisodiyoti uchun qanday oqibatlarni olib keldi?
5. Mamlakatning ichki ishiariga tashqaridan aralashiimaganda uning rivojlanishining qanday muqobil yo'llari mavjud edi?
6. Toliblar harakatini tasvirlab bering. Ular Afg'oniston xalqini o'zida namoyon etadi va uning mustaqilligi uchun kurash olib bordi deb hisoblash mumkinmi?

36-§. ERON XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA

**1945-yil inqilobi va
uning tor-mor
etilishi**

**1945-yil yozida demokratik
kuchlar Eron Ozarbayjomi va
Shimoliy Kurdistonda radikal
o'zgarishlar o'tkaza boshladi.**

Biroq ularning “Eron inqilobi” sifatida ma'lum bo'lgan xatti-harakatlariga zarba berildi. 1941-yilda tuzilgan xalq partiyasi (Tude) tor-mor etildi. Sovet-Eron shartnomasi (1941-yil) asosida kiritilgan sovet qo'shnulari Eronдан olib chiqib ketildi.

Bu mamlakatda shoh **Muhammad Rizo Pahlaviy** (1919—1980) va uning atrofidagi reaksiyon kuchlarning to'liq hukmronligi qaror topishiga olib keldi. Biroq shoh tuzumiga qarshi kurash davom etdi. Demokratik kuchlar uni iqtisodiy sohaga tatbiq qildi. 1951-yilda butun mamlakatda Angliya—Eron neft kompaniyasi (AENK) bilan tuzilgan bitimni tugatish talab qilingan namoyish va norozilik chiqishlari avj oldi. Neft konlarida ish tashlashlar ko'paydi. Butun mamlakatda ish tashlagan neftchilar bilan hamkorlik harakati keng quloch yoydi.

Mosoddiq va AENKnii natsionalizatsiya qilish Bosh vazir Mosoddiq barcha neft konlari va neft haydovchi zavodlarning natsionalizatsiya qilinishini e'lon qildi. Angliya BMT Xavfsizlik Kengashiga arz qildi, u "Eron nefti" haqidagi masalani inglizlar bilan birga AQSH vakillari ham ishtirok etadigan xalqaro kompaniya qo'liga berish haqida qaror chiqardi. Mosoddiq bu qarorni rad etib, Eron nefti faqat eronliklarning milliy boyligi ekanini bildirdi.

Angliya Eronga iqtisodiy blokada uyuشتirdi. Bunga javoban Eron hukumati Angliya bilan diplomatik munosabatlarni uzdi.

Eronga umumxalq harakati keng quloch yoydi, unda keng xalq ommasi, milliy burjuaziya, ziyorilar, mansabdorlar va, hatto, hukmron yuqori tabaqa vakillari yagona front bo'lib qatnashdi.

Angliya AQSH yordamidan foydalangan reaksiyon doiralar Mosoddiqnı inqilobga hamkorlikda ayblab, ig'vegarlik chiqishlarini boshladı. 1953-yilning 19-avgustida Tehronda davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Mosoddiq va uning kabinetı a'zolari qamoqqa olinib, sudga berildi. Shoh bosh vazir lavozimiga o'tmishda gitlerchilar bilan yaqin aloqada bo'lган, davlat to'ntarishiga rahbarlik qilgan general Zohidiyni tayinladi. Barcha siyosiy tashkilotlar va taraqqiyat parvar gazetalar tor-mor etildi, mamlakat bo'ylab ommaviy qamoqqa olishlar amalga oshirildi.

Mosoddiq Muhammad (1881—1967) — 1951—1953-yillarda Eron bosh vaziri. Mustaqil tashqi siyosat olib borish tarafdiri bo'lган. Eron neft sanoatini natsionalizatsiya qilish jarayonini boshqargan. Harbiy to'ntarish natijasida ag'darilgan.

**Shoh Muhammad Rizo
Pahlaviyning “oq
inqilobi”**

AENK mulkini boshqarish uchun Xalqaro neft konsorsiumi tashkil etildi, unda AQSH va Angliya vakillari

bosh rol o‘ynadi. Konsorsium AENKnинг avvalgi barcha huquqlarini 1994-yilgacha bo‘lgan muddatgacha oldi. O‘rtadagi bltim Eronning neft boyliklarini natsionalizatsiya qilishni man etar va ularni xorijiy neft monopoliyalariga yana qaytarib berar edi.

Yangi neft konsorsiumi Eron neft boyliklari ekspluatatsiyasini kuchaytirdi: agar 1950-yilda 32 million tonna neft qazib olingan bo‘lsa, 1961-yilda bu ko‘rsatkich 57 million tonnagacha oshdi. Ishlab chiqarish o‘sib bordi. Shoh neft konsessiyalarini Italiya, Kanada va Amerika neft kompamiyalariga bera hoshladi. Neft eksporti Eronga ulkan daromad keltirdi. 70-yillar o‘rtalarida bu daromad 20 milliard dollardan oshdi.

Shoh shuni tushunardiki, Eron uchun iqtisodiyotni rivojlantirish, madamiyatni ko‘tarish, aholining turmush darajasimi yaxshilashdan iborat bo‘lgan tub modernizatsiyani amalga oshirish zarur. U 1963-yilda “**oq inqilob**” g‘oyasi yoki, uning o‘zi keyinchalik aytgamidek, “**shoh va xalq inqilobi**” mi hayotga tatbiq eta boshiadi. U yirik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma’muriy islohotlarni amalga oshirdi. Eronda sanoatning yangi tarmoqlari — metallurgiya, mashinasozlik, neft-kimyo, gaz va alyuminiy sohalari paydo bo‘ldi. Milliy kemasozlik va aviatsiya sanoatiga tamal toshi qo‘yildi, atom energetikasini yaratishning dastlabki odimlari tashlandi. Eron tezkor ravishda agrar mamlakatdan industrial-agrar davlatga aylana hoshladi. Aym paytda mamlakat g‘arb olamining bir qismi sifatida namoyon bo‘la bordi.

Biroq iqtisodiy o‘sish xalqning ahvolini yaxshilamadi, faqat bir hovuch tijoratchilar va korrupsiya botqog‘iga botgan amaldorlarnigina boyitdi, xolos. Shoh tuzumining agrar siyosatida ham maqsadlarga erishilmadi. Yarim feodal munosabatlarning tugatilishi, hissadorlik qishioq xo‘jalik kompaniyalarining yaratilishi, agro-sanoat jamiyatlarining tuzilishi xo‘jaliklarni yiriklashtirib, dehqonlarni daromaddan mahrum etdi. Ular o‘z yerlarini yangi qishloq qulolqlariga sotib, shaharlarga qochlb bordi va proletariat, shahar kambag‘allari, mayda do‘konchilar saflarini to‘ldirdi hamda bo‘lg‘usi islom inqilobi guruhalinini shakllantirdi.

Shoh islohotlari, uning g'arb davlatlari bilan aloqasi, mamlakatga g'arb madaniyatining kirib kelishi tufayli milliy qadriyatlarning buzilishi xalq tomonidan norozilikka sabab bo'ldi. Xalq noroziliklari bilan kurashish uchun shoh maxfiy politsiyani (SAVAK) tashkil etdi. Uning devorlari ortida 380 ming eronliklar yo'q qilindi. Mamlakatda haqiqiy inqilob yetildi. Unga rahbarlikni mutaassib shialarga tayangan shia mazhabi ruhoniyatni o'z bo'yninga oldi.

Pahlavi — Eronda 1925—1979-yillarda hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi — Rizoshoh Pahlavi. Uning vorisi — Muhammad Rizo Pahlavi — “oq Inqilob”ning tashkilotchisi, uning natijasida sanoati yuqori rivojlangan mamlakatlardan biriga aylangan. Mamlakatda diktatorlik tuzumini o'rnatgan. 1979-yilgi Inqilob chog'ida ag'darilgan.

Erondag'i islom inqilobi

1978-yilning sentabri boshla- rida Eronning qariyb barcha shaharlarida ommaviy namo-

yishlar bo'lib o'tdi. Tehron va boshqa 11 yirik shaharlarda harbiy holat joriy etildi. Noyabr boshlarida shohga qarshi norozilik chiqishlari yangi kuchga kirdi. 5 noyabrda butun Tehronni yong'inlar qoplab oldi. Shu kunlarda shohni faqat uncha katta bo'limgan harbiy guruh va SAVAKgina qo'llab-quvvatlab turgani ma'lum bo'ldi.

Butun Eronni namoyishlar, ish tashlashlar qamrab oldi. Prezident Karter shohni AQSHga ta'tilga kelishga taklif etdi. 1979-yilning 16-yanvarida shoh Eronni umrbod tark etdi.

Erondag'i barcha norozilik chiqishlariga shialar yo'lboshchisi **Oyatullo Humayniy** rahbarlik qildi. U mamlakatni “chet elliq kofirlar”ning buzg'unchi ta'siriga yo'l ochib bergen shoh islohotlariga qarshi va'z qildi. 1964-yilda mamlakatdan quvib chiqarilgandan so'ng uning shaxsiy o'chi ham yo'q emas edi.

1979-yil 11-fevralda Tehronda umumiyo qurolli yo'zg'olon boshlandi. U shoh jo'nab ketgandan so'ng omma ustidan nazoratini yo'qotgan diniy doiralar buyrug'i va ishtirokisiz boshlandi. Yo'zg'oltonni so'l kuchlar yo'lboshchilar — Tude partiyasi qoldiqlari va Eronda respublika tuzumini qaror toptirishga intilgan turli partiyalar vakillari ko'tardi. 12-fevralda qo'z-

g'olonchilar tomoniga harbiy qismlar ham o'tdi. Inqilob g'alaba qozondi. Biroq qo'zg'olonchilar kуrash olib borayotgan vaqtda shia yo'lбoshchilari nafaqat shohga, balki so'l kuchlarga ham qarshi bo'lgan hukumatni shakllantirdi. **1979-yil 15-fevralda** Tehronga Oyatullo Humayniy yetib keldi, u "islom inqilobi"ning yo'lбoshchisi deb e'lon qilindi.

U o'zini islom podshohligini o'matish uchun yuborilgan 12-imom (maddi) deb e'lon qildi. Ruhoniyat hokimiyat organlarini to'liq o'ziga bo'y sundirdi. Mamlakatda siyosiy hayot, ijtimoy va oilaviy munosabatlar, ta'lif va boshqarishni islomlashtirish dasturi amalga oshirila boshladi.

1979-yil 1-apreldan boshlab
Islom madaniy inqilobi mamlakat Eron **Islom Respublikasi** rasmiy nomini

oldi. Shu yili yangi konstitutsiya qabul qilindi. **1980-yilda** prezidentlikka va **Islom kengashi majlisiga** ilk saylovlar bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakatning oliy siyosiy va ruhoniy rahbari hokimiyatning barcha organlari faoliyatini nazorat etuvchi va Eronning umrbod hamda yakkayu yagona hukmdori bo'lgan Oyatullo Humayniy edi.

1980-yilning sentabrida Eron va Iroq o'rtasida urush boshlandi. U 8 yil davom etdi va Eronga qariyb 350 milliard dollarga tushdi. 700 ming eronlik halok bo'ldi. Milliy kamsonli aholi bilan munosabatlar keskinlashdi: kurdlar, turkmanlar, belujlar va boshqa xalqlar o'zi uchun milliy muxtoriyat talab etib chiqdi.

Ichki muxolifatni bostirish uchun, Humayniy "islom madaniy inqilobi"ni boshlash haqida dekret qabul qildi. Muassasalarda islom bosh kiyimini kiyish, ayollarning chodra o'rashi majburiy qilib qo'yildi. Mamlakatdagi barcha oliy o'quv yurtlarining islomlashtirilgani e'lon qilindi.



Oyatullo Humayniy.

Biroq tez orada shia rahbariyati orasida nizolar boshlandi, bu hol butun ruhoniyatning parchalanishi va Humayniyga qarshi chiqishga olib keldi. Mamlakatning birinchi prezidenti Banisadr tezda Oyatullo yaqinlarining ekstremizmiga qarshi chiqdi va go'yoki "muxolifatdagi prezident" bo'lib qoldi. Tez orada u mamlakatni tark etishga majbur bo'ldi.

Shia rahbariyati muxolifatga qarshi mislsiz qatag'onlarni amalga oshirdi. 1982-yilning yozidan boshlab osib o'ldirish orqali qatl etishlar boshlandi. (1982-yilda — 15 ming, 1983-yilda — 25 ming, 1984-yilda — 30 ming kishi). Hatto, homilador ayollar va kichik yoshdag'i bolalar ham islam inqilobi kurashchilarining qurbanlariga aylandi. Shia yo'lboshchilari 1978—1979-yillar inqilobining yetakchi kuchi bo'lgan va Humayniyning Eronga qaytishini ta'minlagan Tude partiyasini qariyb yo'q qilib tashladi.

Humaynly Ruhollo Musavyi (1898—1989)—1964-yilda
Erondan hukumatga qarshi faoliyati uchun chiqarib yuborilgan. 1974-yilning fevralida qaytib kelib, shoh tuzumini ag'darib tashlagan va islam respublikasini e'lon qilishga olib kelgan inqilobni boshqargan. 1979-yildan 1989-yilgacha — Eron Islom Respublikasi rahbari va Oyatullo (shialarning oly ruhoniyl unvonil).

Biroq, xalqaro munosabatlardagi chorasiz vaziyat va mamlakat iqtisodiyotida o'pirilishlarning boshlanishi uning yo'lboshchilarini ichki va tashqi siyosatda o'zgarishlarga olib borishga majbur etdi. 1987-yilning iyunida Humayniy Islom respublikachilar partiyasini (IRP) tarqatib yubordi, bu partiya ruhoniyatning tayanchi edi. 1989-yili Humayniy vafotidan so'ng Eron prezidenti etib Hoshimiy-Rafsanjoniy saylandi. U liberal qarashlarga



A.A.Hoshimiy-Rafsanjony.

ega kishi sifatida iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy hayotni erkinlashtirish yo'lini olib bordi.

Eron katta qiyinchiliklarga uchradi. Aholining tezkor o'sishi oziq-ovqat ekinlarini ishlab chiqarishdan o'zib ketdi. Mehnatga layoqatli aholining 15 foizi ishsiz edi. 1986-yildan keyingi neft narxlarining pasayishi ham sezildi.

Hoshimly-Rafsanjony Ali Akbar (1934-yilda tug'ilgan) — 1979—1980-yillarda Islom inqilobiy kengashi tarkibiga kirgan, 1980 yildan — Islom kengashi raisi, 1981-yildan Oliy mudofaa kengashi tarkibiga kirgan. 1989—1997-yillarda — Eron prezidenti.

Eron uchun so'nggi yillardagi eng asosiy masala besh yillik rejani (1995—2000 yillar) amalga oshirish bo'yicha loyihalarini rivojlantirishga kreditlar olish bo'ldi. G'arb investorlari yordamida yirik neft majmualari, metallurgiya kombinatlari qurila boshladi, avtomobil sanoati modernizatsiya qilinmoqda. Eron o'z atom elektrostan-siyasini qurishga intilmoqda. Biroq xalqaro noqulay ahvol bu rejalarni amalga oshirishga asosiy to'siq bo'ldi. AQSH ma'muriyati Eronni terrorizm markazlaridan biri deb e'lon qildi va unga nisbatan qattiqqo'llik yo'lini tannadi. AQSH Eron bilan savdo-sotiqqa embargo kiritdi, boshqa G'arb mamlakatlari esa AQSH bosimi ostida Eronga ilg'or texnologiyalarni keltirishni man etuvchi sanksiyalar kiritishdi.

Erkinlashtirish yo'lida

Hotamiy g'alaba qozondi, u shia ruhoniyatining yangi avlodи vakili sifatida maydonga chiqdi.

U o'zining saylovoldi chiqishlarida ijtimoiy adolat, fuqarolik huquqlari va qonun ustuvorligini hurmat qilishni yoqlab chiqdi, yoshlarni siyosatga keng jalb qilish, milliy boyliklarni ancha adolatli taqsimlash masalalarini ko'tarib chiqdi.

Hotamiy saylovchilarning ko'pchilik ovozini oldi va parlament tomonidan ma'qullandi.

Iqtisodiyotning ahvoli islohotlarning markaziy masalasi edi. Mamlakatning asosiy boyligi bo'lgan neft

1997-yilning avgustida Eron-da yangi prezident saylovlari bo'lib o'tdi. 54 yoshli ruhoniyo
yo'lboshchisi **Muhammad**

qazib chiqarish inqilobdan keyingi yillarda ikki marta kamaydi, aholi esa 40 foizga o'sdi. Iqtisodiy ishiab chiqarish sur'atlari real ifodalanganda atigi 1 foizga o'sdi, zotan 40 foiz ishchi kuchi ishiab chiqarish faoliyati bilan ta'minlanmadi.

Tashqi siyosatda Hotamiy AQSH va G'arbiy Yevropa bilan munosabatlarda keskinlikni pasaytirishga intildi. Eron rahbariyati Rossiya bilan hamkorlikni faol olib bormoqda, u kimyo sanoati, atom energetikasini rivojlantirishga yordam bermoqda, shuningdek, qo'shinni modernizatsiya qilish uchun zamonaviy qurol-yarog yetkazib bermoqda.

So'nggi paytda Eron O'rta Osiyo respublikalari — Turkmariston, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga intilmoqda. 1996-yilda Mashhad (Eron) va Saraks (Turkmaniston) o'rtasida temir yo'l qurilishi tugallandi, bu yo'l mazkur respublikalarni Fors qo'llitig'iga olib chiqdi.

Eron 2020-yilga borib, 7 ming km ni tashkil etuvchi o'z temir yo'llarining umumiy uzunligini Fors qo'llitig'Idagi Bender-Abbos bandargohiga tomon marshrutmi 900 km qisqartiruvchi Mashhad va Bafkom oralig'ida yangi yo'l qurish, shuningdek, O'rta Osiyo temir yo'l tarmog'imi Afg'onistonni chetlab o'tib, Pokiston va Hindiston bilan bog'laydigan Zohidondan Karmanagacha bo'lgan boshqa yo'lni qurish orqali uch marta oshirishni rejalashtirgan.

2002-yil sentabrda O'zbekiston va Eron o'rtasida iqtisodiy, madamiy va siyosiy sohalarda hamkorlikni kengaytirishi hamda mintaqada barqarorlikni oshirishi lozim bo'lgan muhim bitim tuzildi.

Qisqacha mazmuni

- Eron shohi — Muhammad Rizo Pahiaviy
- 1941-yil oktabr — Eron Xalq partiyasining (Tude) tuzilishi, demokratik kuchlarning faollahuvi
- 1945-yil — "Eron inqilobi"ning tor-mor etilishi; shoh hukmronligi va reaksiya kuchianining o'rnatilishi
- 1951-yil — neft konlari va neft haydovchi zavodlarining natsionalizatsiya qilinishi; Eronning iqtisodiy blokada qilinishi
- 1953-yil 19-avgust — davlat to'ntarishi. Bosh vazir Mosoddiqning qamoqqa olinishi, mamlakat rahbari

- general Zohidiy: gatag'onlar, gamoqga oilshiar, siyosiy partiyalarning man etiilshi
- Xalgaro neft konsorsiumi: mamlakat neft boyligl ekspluatatsiyasining kuchayishi
 - 1963-yil — "Oq ingilob" ("shoh va xalg ingilobi"): ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar; miliy sanoat, atom energetikasiga asos solindi
 - Xalq hayotining past darajasi
 - maxfiy politsiya (SAVAK) tashkil etilishi; gatag'onlarning kuchayishi
 - 1978-yil sentabr — ommaviy shohga garshi chigishlar
 - Shohning AQSHga gochishi; ingilobi harakat yo'lboshchisi — Oyatulio Humayniy
 - 1979-yil 11-fevral — Tehrondagi umumiyl quroili go'zg'olon
 - 1979-yll 15-fevral — Oyatulio Humayniyning Tehronga keilshi
 - Siyosiy hayot, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarning islomiashtirilishi
 - 1979-yil 1-aprel — mamlakat nomining Eron Islom Respublikasi deb o'zgartirilishi
 - 1980-yil sentabr — Eron va Iroq o'rtaсидаги urushning boshianishi (1988-yilgacha)
 - "islom madaniy ingilobi" boshianishi hagidagi dekretning e'lon qilinishi
 - 1982—1984-yillar — o'zgacha fikrlovchilarga qarshi gatag'onlar
 - 1989-yil — Eron prezidenti — Hoshimi-Rafsanjoniy igtisodiy islohotlarning o'tkazilishi, bozor munosabatlariga gaytish, ijtimoiy hayotni erkinlashtirish
 - AQSH va G'arb mamlakatlari tomonidan Eronga qarshi igtisodiy sankslyalar
 - 1997-yil — Eron prezidenti — Muhammad Hotamiy
 - 2002-yil — O'zbekiston bilan hamkorlik shartnomasi tuzillshi

Savollar

?

1. Erondag 1945-yil yozi voqealarini ta'riflab bering. Ular mamlakatda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
2. Muhammad Rizo Pahlaviy "oq inqilob"ning mohiyati nima-da?
3. Nima uchun eronliklar shoh Pahlaviyning islohotlarini qo'llab-quvvatlashmadи?
4. Mamlakatning 1979-yligi "islom inqilobi"dan keyingi rivojlanishining o'ziga xosliklarini sanab bering.
5. Bugungi kunda Eron hukumati qanday muammolarni hal etishi lozim? Mamlakat rahbariyati olib borayotgan siyosating asosiy ziddiyatlarini nimalarda ko'rasiz?

37-§. SAUDIYA ARABISTONI: TEOKRATIYADAN MA'RIFATLI MONARXIYA TOMON

Saudiya Arabistonи eng yirik davlatlardan biridir. Uning hududining 90 foizini qumlik, sahro qoplagan, bu sahro qa'rida katta neft zahiralari mavjud.

1925-yilda **Ibn Saud** nomi bilan mashhur bo'lgan, bednинlarning aslzoda saudiylar qabilasidan kelib chiqqan, vahhobiylik g'oyalari tarafdori amir Abdul Aziz ibn Abdul Rahmon musulmonlarning muqaddas shaharlari — Makka va Madinani o'z ichiga olgan Hijoz davlatini egalladi va arab xalqlarining ruhoniy yo'lboshchisiga aylandi.

Ibn Saud va vahhobiylik

Islom o'zining vahhobiylik shakli, "chin islom" me'yollariga qaytish va jo'n ravishda hammani tenglashtirishga da'vati bilan mamlakatda yagona ommaviy mafkuraga aylandi, arablarning yagona davlatda yagona millatga birlashishi esa asosiy siyosiy shior sifatida maydonga keldi. Ibn Saud ruhoniy yo'lboshchi — vahhobiylar bilan hamkorlikda bedum-larni tashkil etishning yangi shaklini yaratdi, ularni o'troq hayot tarziga o'tkazdi va **ixvonlarga** (birodarlik) birlashtirdi. Ixvonlar o'zaro urush va xundan (qonga qon olish) voz kechib, Ibn Saudga sadoqatlari haqida jamoaviy qasam ichishadi, uning hokimiyatini qon-qardoshlik va qabilaviy majburiyatlardan yuqori qo'yishadi.

Ixonlarda "kofirlar", ya'ni xristianlar, yahudiylar, shuningdek vahhobiylarning diniy va axloqiy tamoyilla-rini rad etgan musulmonlarga misbatan murosasizlik ruhi singdirilgan edi. Ular Ibn Saudning Arabistonni birlashtirish va islohotlarni o'tkazish kurashida zarbdor kuch bo'lib qoldi. 20-yillarda ularning qo'llab-quvvat-lasni tufayli Ibn Saud Arabiston yarimorollda mutlaq monarxiya shaklidagi yagona davlat — Saudiya Arabistonini barpo etdi.

Mamlakatda yagona soliq joriy etildi, karvon yo'llarida o'g'irlik va qaroqchilik tugatildi. Shariat qonunlari ga ko'ra sud amalga oshirildi.

Mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi

Mamlakatning iqtisodiy ko'tarilishi 1933-yildan boshlandi, bu paytda "Standart Oyl kompani of Kaliforniya"

nornli Amerika kompaniyasi Fors qo'ltig'i sohilidagi katta hududda neft izlash va qidirib topishga konsessiya (ruxsat) oldi. 1935-yilda kompaniya bu joydan neft topdi. O'sha yili "**Neft qazib chiqarish bo'yicha arab-amerika kompaniyasi**" (ARAMKO) tashkil etildi, 1939-yildan dunyodagi eng boy va serdaromad neft konlarini sanoat asosida ishlab chiqish boshlandi. Saudiya Arabistonni jahoning globallashtirish jarayoniga qo'shildi.

ARAMKO — arab-amerika neft kompaniyasi (ingl. Arabian-American Oil Company) — 1933-yilda AQSHning eng yirik neft kompaniyalari tomonidan Saudiya Arabistonni neft konlarini o'zlashtirish uchun tashkil etilgan. 1973-yildan Saudiya Arabistonni hukumati uning aksiyalarini astasekin sotib ola boshladi va 1980-yildan ARAMKOning yagona egasi bo'ldi.

50-yillarda mamlakat neft mahsulotlari ishlab chiqarishning dunyo markazlaridan biriga aylandi. Neft konlari mavjud rayonlarda zamonaviy sanoat ishlab chiqarilishi barpo etildi, yangi infratuzulma rivojlandi, yo'llar yotqizildi, shaharlar o'sdi.

Amerika neft kompaniyalari daromadlaridan olingan ajratmalar hisobiga hukumat 1945 yilda — 5 million, 1948 yilda — 50 million, 1952 yilda — 212 million dollar foyda oldi. Biroq daromadlarning ko'p qismi eng avvalo qirol oilasi ehtiyojlariga sarflandi. Bu hol Ibn Saudning 1953—1962-yillarda hukmronlik qilgan merosxo'ri qirol Saud davrida ham o'zgarmadi.

Monarxiya chet el qarzlariga botdi, chunki ko'pincha xarajatlar neft sotishdan kelgan daromadlardan ortib ketardi. Davlat mansabdorlari oylab maosh ololmas; poraxo'rlik gullab-yashnagan edi. Mamlakatda quidorlik saqlanib qolgandi.

Ibn Saud (1880—1953) — Saudiya Arabistonining 1932—1953-yillardagi qirolli. Arabistonni birlashtirishni "sof islam" g'oyalariga qaytish shiori ostida olib bordi. Yagona Saudiya Arabistonni asoschisi, monarxiya boshqarish shakli va shariat qonunlari ustuvorligini o'rnatdi.

Pishib yetilgan islohotlar

Qirol oilasi va shayxlarning zeb-ziynatga burkangan



Madinadagi Muhammad masjidi.

hayoti, oliv davlat lavozimidagi shaxslarning suiiste'-molchiliklari zohidona vahhobiylar me'yorlariga zid keldi va ommaviy norozilik uyg'otdi. Bu hol qirollik

yaqim-atrofidagilari orasida ham tarqaldi. Ular **Milliy-ozodlik frontini** tashkil etishib, quyidagi talablar dasturi ni ilgari surishdi: mamlakatni ARAMKO hukmronligidan ozod etish, milliy sanoatni rivojlantirish, qullikni tugatish, savodsizlik bilan kurashish, monarxiya doirasida demokratik va konstitutsiyaviy boshqarishni o'matish.

Biroq 1962-yilning sentabrida qo'shni Shimoliy Yamanda bo'lib o'tgan monarxiyaga qarshi inqilob qirol Saudga ham eng jiddiy ogohiantirish bo'ldi. U yerda ag'darilgan monarxiya yerlari va saroylari musodara etilib, barcha fuqarolarning tengligi e'lon qilindi. 1962-yilning 26-sentabrida Yaman Arab Respublikasi tashkil etildi. Prezident Abdulla as-Salalom imzolagan bayonetida Arabiston yarimorolida barcha qirol va amirlar hokimiysi ag'darilishi zarurligi va bu yerda yagona Arahiston Respublikasi tashkil etilishi haqida gaprildi. Misr va Suriya Yaman inqilobini qo'llab-quvvatladi. Bu yurtga zamonaviy qo'shinmi shakllantirish va yangi iqtisodiyotni barpo etish uchun 6 ming sovet mutaxassislari yetib keldi.

Saudiylar inqilobning kengayishi va uning g'oyalari ning tarqalishiga yo'l qo'ymaslikka qaror qilishdi. Ular Shimoliy Yaman hududida qo'zg'olon uyuştirishdi. Bu yerda boshlanib ketgan fuqarolar urushi 1970-yilning apreli gacha davom etdi.

Feysalning islohotlari

Inqilob ro'y berishidan qo'rquv hissi qirol Saudni mamlakatda modernizatsiyalash va liberalizatsiyalashni

boshiashga majbur etdi. 1962-yilning oktabrida u liberal-demokratik qarashiari bilan ajralib turuvchi akasi Feysalni mamlakatning keng vakolatli bosh vaziri etib tayinladi, Feysal islohotlarni AQSH yordamida amalga oshirishga kirishdi. Feysalning o'n yilga mo'ljallangan modernizatsiyalash dasturi mamlakatda ayni paytda monarxiyani mustahkamlash bilan birgalikda kuchli iqtisodiy bazani yaratishga yo'naltirilgan edi.

Saud islohotlarni amalga oshirish yo'lida asosiy to'siq edi. **1964-yilning 1-noyabrida** Saud ruhoniy musulmon yo'lboshchilar bosimi ostida taxtdan voz kechdi va **Feysal** Saudiya Arahistonining yangi qiroli deb e'lon qilindi.

Feysal milliy neft sanoatini barpo etishga intila bordi.



Feysal

ARAMKO bilan bir qatorda "Petramin" davlat neft kompaniyasini tashkil etdi. U Amerika kompaniyalari boshqaruvchilaridan bosh boshqarmani Dahranga (Saudiya Arabiston) ko'chirishga, 1982-yilda 51 foiz neft konsessiyalari ishtiroki ni davlat ixtiyoriga berish va 1999-yilda kompaniyani davlat mulkchiligidagi to'liq o'tkazishga rozilik olishga erishdi.

Milliy kapitalni rivojlan-
tirish va xorijiy investit-
siyalarni jalb etish uchun

eng qulay sharoitlar yaratildi. 70-yillar o'rtalarida Saudiya Arabistonida 10 ga yaqin milliy banklar mavjud bo'lib, ular orasida eng yirigi jahon "Musulmon rivojlanish banki" edi. Ma'lumki, Qur'on ribo, ya'ni kreditlar bo'yicha foiz olishni mehnatsiz daromad sifatida man etadi. Feysal Qur'onning bu muhim qoidasiga ham yo'l topdi. Banklar qarz foizlarini to'lamaydigan va olmaydi-
gan, faqat vositachilik (komission) haqini oladigan bo'ldi.

Bu yangiliiklar tufayli "**Petramin**" ko'p tarmoqli konsernga aylandi, u zamonaviy iqtisodiyotni barpo etdi, mayda mulkdorlar, ko'p sonli milliy tadbirkorlar, menejerlar, davlat mansabdorlari, kompyuter texnikasi bo'yicha mutaxassislarini shakllantirdi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, uy-joy va sanoat qurilishiga yordam ko'rsatish davlat jamg'armalari tashkil etildi.

Albatta, bu islohotlardan qিrol oilasi eng ko'p foyda ko'rdi, uning a'zolari tadbirkorlik bilan faol shug'ullanadi, qariyb barcha banklar, vazirliklar va iqtisodiyot tarmoqlarida rahbarlik o'rinalarini egallashdi. Ayni paytda Feysal oddiy odamlar ahvolini yaxshilash haqida ham qayg'urdi. U mehnat qilish huquqini kafolatlagan va mamlakatda yangi ijtimoiy siyosatni boshlab bergan farmonlar chiqardi. Ilg'or mehnat qonunchiligi kiritildi, ishchilar uchun arzon uy-joylar qurildi va yuqori ish haqi kafolatlandi.

Feysal bepul tibbiy xizmat ko'rsatish va fuqarolarni dori-darmon bilan ta'minlagan holda ularni xorijda davolash dasturini amalga oshirdi. Mamlakatda bepul o'rta ta'lif joriy etildi.

Qirol Feysal faoliyatining gultoji deb **1973-yildagi** kompensatsiya evaziga ARAMKOning natsionalizatsiya qilinishini ko'rsatish mumkin, biroq barcha rabbarlik lavozimlari, imtiyoz va foydalar amerikaliklar o'zlarida qolgan edi. Qirol Feysal amalga oshirgan modernizatsiya mamlakatni mustahkamladi. Biroq bunday ishlar uning o'z umrini kafolatlay olmadi. **1975-yil 25-martda** u o'z saroyida jiyani tomonidan o'ldirildi.

Biroq globallashuv bilan chambarchas bog'liq bo'lgan modernizatsiya jarayoni to'xtab qolmadi. Feysaldan keyin hokimiyatga kelgan qirol Hamd (1975—1982) va qirol Fahd (1982-yildan) bu ishlarni davom ettirishidi.

Saudiya Arabistonini va AQSH Neft Saudiya Arabistonini iqtisodiyotining asosi hisoblana-di. U 92 foiz davlat daroniad-

larini, 98 foiz eksport qiyinlatimi va 90 foiz mamlakat yalpi milliy mahsulotini beradi. 1995-yilda Saudiya Arabistomi qariyb 50 milliard dollarlik neftni chetga chiqardi va 30 milliard dollarlik tovarlarni, asosan mashinalar, oziq-ovqat, to'qimachilik, uy-ro'zg'or mollari, kimyo mahsulotlari, kiyim-kechaklarni keltirdi. Mamlakat iqtisodiyoti neftdan oladigan barcha foydalarni o'zlashtira olmaydi. Shu bois, ularning bir qismi xorijiy bank va korxonalarga kiritilmoqda. Bu, Saudiya Arabistoni jahon iqtisodiyoti rivojlanishida muhim rol o'yнaydi, degamidir. Saudiya Arabistoni tashqi siyosati asosan AQSH bilan hamkorlikka asoslandi.

Saudiya Arabistonini va arab mamlakatlari 1973-yildan boshlab Saudiya Arabistoni har yili o'z hyud-jetining 10 foizini 54 musulmon davlatlariga mohiyaviy yordamga ajratadiki, mamlakat bu mahlag'larga qo'shimcha yordam bilan birga dunyoda islom mavqeini mustahkamlash uchun dimiy adabiyotlar eksportim tashkil qiladi.

Arab-isroiil mojarosida Saudiya Arabistoni ikki-yoqlama pozitsiyaga ega. U falastinliklarning Isroiilga qarshi kurashida moddiy yordam ko'rsatadi, shuningdek, Yaqin Sharq mojarosi qatnashchilari — Misr, Suriya va Iordaniyaga ham yordam beradi, ayni paytda AQSH

bilan arab-isroil mojarosini hal etishda hamkorlik qiladi, amerika diplomatlarimi vositachi sifatida jalb etishga arab davlatlari roziligini olishga erishgan. Bu sa'y-harakat-larning natijasi 1978-yilning sentabrida AQSH prezidenti J.Karter vositachiligidagi Isroil va Misr o'rtasida erishilgan hamda 1979-yilning 26-martida Vashingtonda imzolangan Kemp-devid bitimida yaqqol ko'rindi.

Kemp-devid bitimi Yaqim Sharq mojarosida biror-bir ijobjiy siljishlarga olib kelmadi, biroq u AQSHning arab-isroil munosabatlari rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Bundan tashqari, bitimdan keyin yuz bergan voqealar shumi ko'rsatdiki, mazkur bitim arab davlatlarini "mo'tadillar", ya'mi Isroil hilan bitimga borishga tayyorlar (Saudiya Arabistonni, Misr, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari) va "murosasizlar"ga (Suriya, Iroq, Aljir, Liviya) parchalanishiga olib keldi. Bu parchalamish 1990-yilda Iroqqa qarshi "qo'ltiqdag'i urush"da "mo'tadillar" AQSH tomonida faol ishtirok etganida juda yaqqol namoyon bo'ldi. Misr Amerika qo'shinlari-ga yordamga 36 ming askar yubordi, Saudiya Arabistonni o'z hududiga amerika qo'shinlarini joylashtirdi, Iordaniya va Amirliklar sukul saqladi.

1996-yil boshida qিrol Faxd valiahd shahzoda Abdullaga hokimiyatni topshirdi. Neftga jahon narxlari pasayishi tufayli uni sotishdan olinadigan daromadlar 40% ga tushib ketdi. Mamlakatda iqtisodiy tushkunlik boshlandi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng Saudiya Arabistonni va AQSH o'rtasidagi munosabatlar yomonlashdi. 15 terrorchi Saudiya Arabistonni fuqarolari bo'lib chiqdi. Oliy diniy arboblar islom ekstremizmi va terrorizmni qo'llab-quvvatladilar. Mamlakat ikki guruhga — AQSH yo'nallishidagi tarafдорлар va ularning raqiblariga bo'linib ketdi, ular o'rtasida keskin kurash davom etmoqda.

Qisqacha mazmuni

- Saudiya Arabistonida vahhobiylilik
- Arab-amerika kompaniyasining (ARAMKO) tashkil etilishi
- Yamanda monarxiyaga qarshi inqilob va uning Saudiya Arabistonidagi sharoitga ta'siri

- Qirol Feysal isiohotiari: milliy kapitaining rivojlanishi va chet el investitsiyaiarining kirib kelishi
- ijtimoiy o'zgarishiar dasturi
- 1973-yil — ARAMKOning natsionalizatsiya qilinishi
- Saudiya Arabiston va AQSH: sherikchilik sharoitlaridagi hamkorlik
- Saudiya Arabiston va arab mamlakatlari; mamlakatning arab-isroli mojarosldagi pozitsiyasi

Savollar

- ? 1. Vahhobiylit diniy harakatini tavsiflab bering. Bu harakatning qanday xususiyatlari Saudiya Arabistonida yaqqol namoyon bo'ldi?
2. Mamlakat jahon iqtisodiyotiga gay tarzda muvaffaqiyatli integratsiyaga kirishdi?
3. Mamlakatda islohotlar o'tkazilgariidan keyin qirol Feysalda qanday o'zgarishlar ro'y berdi? Bu o'zgarishlar xalqning ahvoliga qariday ta'sir etdi?
4. Mamlakatning hozirgi xalqaro ahvoli, uning Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlariiga xarakteristika bering.

38-§. YAQIN SHARQ MAMLAKATLARI. ARAB-ISROIL MOJAROSI

Yaqin Sharqda surunkali kasallikka aylangan arab-isroil mojarosi arab davlatlari va Isroilning urushdan keyingi tarixdagi eng uzoq va beshafqat qaramaqshiligidagi yaqqol namoyon bo'ldi. Bu mojaro butun Yaqin Sharqda tinchlik va hamkorlikni qaror toptirish yo'llda doimiy to'siq bo'lib keldi.

**Isroil davlatining
tashkili etilishi**

ulkan ummonida kichik bir orolcha bo'lib, birlashgan arab qurolli kuchlari bilan to'rt marta urushdi (1948—1949-yillar, 1956-yll, 1967-yll, 1973-yil), 1982-yilda Livan hududiga falastinlik qochoqlar lagerini tugatish maqsadida hostirib kirdi.

Angliyaming o'z ta'sirimi arab olamida kuchaytirishga intilishi (Suvaysh kanaliga kirish huquqi va ulkan neft zaxiralari bilan bog'liq istiqbollar) uning oldiga strategik ahamiyatga ega ikki vazifam: o'ziga sadoqat bilan xizmat

Isroil — Suriya, Livan, Iroq, Quvayt, Saudiya Arabiston, Jordaniya kabi arab davlatlari

qiladigan yangi davlatni barpo etish, arab davlatlariga (boshqarish huquqiga) mandat olish vazifasini qo'ydi.

Versal tinchlik konferensiyasida Angliya Falastinga mandatga erishdi va bu yerda yahudiy davlatini tashkil eta boshladi. Falastinda uncha katta bo'limgan jamoadan (salkam 100 kishi) iborat yahudiy aholisi 1942-yilga kelib 500 ming kishini tashkil etdi. Urush tugagandan so'ng yahudiylar oqimi har yili 100 ming kishini tashkil etdi. 1947-yilda Angliya Falastinni yahudiylar va arablar yashaydigan ikki qismga bo'lishni taklif etdi. Arablar bu rejani rad qildi, yahudiylar uni o'z davlatchiliklariga bo'lgan huquqlarini tan olish sifatida qabul qildi. **1947-yil 29-noyabrda** BMT Falastinni bo'lish haqida qaror chiqardi. Bu, birinchi arab-isroil urushining boshlanishi edi. Yahudiylarda yaxshi tayyorlangan qo'shin mavjud bo'lib, unda ikkinchi jahon urushi faxriylari asosiy rolni o'ynadi. Ular AQSH va Angliya tomonidan yaxshi qurollantirilgan edi. Bu qo'shin hatto tegishli bo'limgan yerlarga ham hujum qildi va bosib oldi. **1948-yil 14-mayda** sionistlar yo'lboshchisi **Ben Gurion** Tel-Avivda mustaqil Isroil davlatini e'lon qildi. Besh arab davlatlari o'z qo'shinlarini Isroilga qarshi yuborishdi, biroq mag'lubiyatga uchrashdi. Isroilda bu urush "mustaqillik uchun urush" deb nomlandi. Yahudiylar falastinlik arablarni o'z yerlaridan ommaviy tarzda quvib chiqara boshladi. 500 ming falastinlik qo'shin Livanga qochib ketdi. Misr, Suriya, Livan va Iordaniya o'z mag'lubiyatini tan olib, tinchlikka kelishishga majbur bo'ldi va faqat Iroqqina Isroilni davlat sifatida hech qachon tan olmadidi. Shundan buyon Falastin masalasi Yaqin Sharqning eng asosiy muammosiga aylandi.

Sionizm (Quddus yaqinidagi Sion tog'i nomidan olin-gan) — 1897-yilda yuzaga kelgan va dunyodagi barcha yahudiylarni Falastinga ko'chirish hamda u yerda yahudiy davlatini tashkil etish maqsadini e'lon qilgan harakat.

Isroil yaxshi o'rgatilgan va qurol-yarog'ga ega qo'shini bo'lgan rivojlangan davlatga aylandi. Yahudiy muhojirlari bilan birqalikda Falastinga kapital va texnologiyalar oqimi kirib keldi. U Falastin iqtisodiyotini zamонавиъи bozor munosabatlari yo'liga soldi.

1947—1948-yiliar urushidagi g' alabidan so'ng Isroil aksiyalari jahon siyosiy maydonida keskin oshib ketdi. Jahon yahudiy tashkilotlaridan, ayniqsa AQSHdan katta moliyaviy yordamlar keldi. Isroil iqtisodiyotning rivojlamishida 1 milliard dollarni tashkil etgan german reparatsiyalari (tovonlari) katta ahamiyatga ega bo'ldi. AQSH sanoatning asosiy tarmog'i — brilliant ishlab chiqarishga yordam berdi. AQSH Janubiy Afrikadan Isroilga mayda olmos parchalari yetkazib berdi va Isroil brilliantlar sotiladigan asosiy bozorga aylandi.

Isroil iqtisodida quroq ishlab chiqarish katta o'rinni egallaydi. Quroq-yarog' sotish mamlakat jami eksportining 40 foizini egallaydi.

Arab xalqlarining par-chalanish sabablari

Isroilni o'rab turgan barcha arab davlatlari juda qoloq, iqtisodiy kambag'al edi.

Ularning hammasi Usmonli turk imperiyasining bo'laklari bo'lib Birinchi jahon urushidan so'ng Fransiya va Angliya mandatlari bilan idora qilinadigan hududlarga aylandi.

Turk hukmronligiga qarshi kurashib va Turkiyani yakson qilishda Antanta mamlakatlariga yordam bergan holda ular suverenitetga erishishni mo'ljallagan edi. Arablarining vaqtı-vaqtı bilan ozodlik uchun oilb borgan kurashi mustamlakachilar tomonidan ayovsiz bostirildi. Ular Yaqm Sharq va Arabiston yarimorolida hukmronlik uchun yuz yillardan buyon kurashib kelayotgan musulmon sulolalar o'rtasida taxt uchun kurashni avj oldirdi. Iordaniya va Iroqda mustamlakachilar taxtga hoshimiylar sulolasi vakilimi ko'tardi. Iroqda turli davrlarda Feysal I (1921—1933), G'oziy (1933—1939) va Feysal II (1939—1958) hukmdorlik qilishdi. Feysal II 1958-yil inqilobidan so'ng taxtdan ag'darildi. Iordaniyani Abdulloh (1921—1946), shoh Abdulloh (1946—1951), Talal (1951—1952) va 1952-yildan shoh Husayn boshqardi.

Hoshimiylar va saudiylar yirik davlatlar, birinchi galda Angliya yordamiga suyanib, sulolalararo kurashlarga berilgan, Falastin arab xalqi to'g'risida deyarli qayg'urmas edilar. Bu kurash faqat Livanni chetiab o'tsada, yigirmaga yaqm diniy jamoaga bo'lingan holda o'z muammolari mavjud edi: 1943-yilda Livanda joriy

etilgan konfessional tizim bo'yicha davlat rahbari (prezident) nasroniy-maronitlar bo'lishi, parlament raisi musulmon shia, bosh vazir esa musulmon sunniy mazhabidan saylanishi lozim.

**1956-yilgi Suvaysh
Inqirozi va uning
oqlbatlari**

Ikkinchiji jahon urushidan so'ng Yaqin Sharq neft tufayli muhim strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Bu

yerda butun jahondagi neft zaxirasining 50 foizi to'plangan. Mazkur zaxira deyarli yerning yuza qismida joylashgan Arab neft skvajinalari juda qudratli: Saudiya Arabistonida bitta skvajina bir kunda 675 tonna neft yetkazib bera oladi.

Neft olinadigan rayonlardan O'rtayer dengizi qirg'oqlariga neft quvurlari yotqizilgan bo'lib, ular kechayu kunduz O'rtayer dengizi portlaridagi tankerlarga neft tortib beradi. Jahonda neft qazib olish bo'yicha birinchi o'rinda Saudiya Arabistoni, so'ng Quvayt, Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Iraq turadi.

AQSH G'arbiy Yevropadagi suyuq yonilg'i bozorining 30 foizini nazorat qiladi va bu g'arb mamlakatlari energetika balansining 51 foizini tashkil qiladi. Ayni sharoit AQSHga kuchli siyosiy va iqtisodiy ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Ular Saudiya Arabistonida amerika monopoliyasi manfaatlarni mustahkam himoyalovchi kuchli harbiy-havo bazasini yaratishdi.

Arab-isroil mojarosi AQSH manfaatlari doirasida dunyo muammosiga aylandi, Isroil esa g'arb mamlakatlarining ushbu mintaqadagi asosiy tayanchi bo'lib qoldi.

Isroil 1956-yilda Misrdagi agressiyada faol qatnashdi va jahondagi kuchli qo'shinlardan biriga ega ekanligini isbotladi. Uning



Suvaysh kanalidagi tanglik.
1956-yil noyabr.

tank diviziysi uch kunda yo'ldagi Misrning barcha baza, aerodromlarini yakson qilib, Suvaysh kanaligacha yetib bordi.

Sovet Ittifoqining aralashuvi tufayli agressorlar hujumni to'xtatib, bosib olingan hududlardan chekinishga majbur bo'ldi. Misr mag'lubiyatga uchrasa-da, Sovet Ittifoqidek kuchli ittifoqdoshga ega bo'ldi. Sovet Ittifoqi esa jahon siyosatida muhim platsdarmni egalladi va Yaqin Sharqdagi biror masala uningsiz hal etilmaydigan holga keldi. 1958-yilda imzolangan sovet-misr shartnomasi asosida Misrga qishloq xo'jaligini tiklashda texnik yordam ko'rsatildi, asbob-uskuna sotib olish uchun kredit berildi va bir qator muhim tarmoqlarni rivojlan-tirish rejalarini amalga oshirish uchun hamkorlik qilish mo'ljallangan edi. Sovet Ittifoqi Misrga zamonaviy armiya tuzish va uni eng zamonaviy qurol-yarog' bilan ta'minlashga yordam berdi. Ko'pgina misr zobitlari sovet harbiy bilim yurtlarida o'qib bitirishdi. Sovet Ittifoqida amalda yangi xil samolyotlar uchun arablarning yozgi tarkibi tuzilgan edi.

Ingliz—fransuz—isroil agressiyasi jahon siyosatida og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi. Yaqin Sharqda g'arb mamlakatlari va AQSHga nisbatan dushmanlik kayfiyati paydo bo'ldi. Angliya va Fransiya natijada Suvaysh kanalidagi alohida huquqlaridan ayrıldi. Suriya Masuladan o'z hududi orqali O'rtayer dengizi qirg'oqlariiga boradigan neft quvurini portlatib yubordi va g'arbda neft tangligi yuzaga keldi. Misrda Angliya va Fransiyaning barcha mulki natsionalizatsiya qilindi.

Sovet Ittifoqi arab xalqlari kurashini ma'naviy jihat-dan qo'llab-quvvatlab, Isroil bilan diplomatik aloqalari ni uzdi.

Suvaysh kanali — Suvaysh bo'yini orqali (Misr hududi-da) qazilgan bo'lib, Qizil dengiz va O'rtayer dengizini bir-lashtirib turadi. Uzunligi 161 km. Suvaysh shahri nomidan olingan. 1869-yilda ochilgan. 1880-yilidan kanal Ingliz-fransuz kompaniyalari orqali amalga oshirildi. 1956-yilda natsionalizatsiya qilingan va Misr mulkiga o'tgan.

Suvaysh kanali zonasidagi agressiya arablar kurashini kuchaytirib yubordi. 1958-yil 14-iyulda Bag'dodda har-

biy to'ntarish yuz berdi. Natijada monarxiya ag'darilib, Respublika deb e'lon qilindi. Angliyaning sobiq ittifoq-doshi Nuri Said o'ldirildi. Iroq Bag'dod paktidan chiqdi va o'z hududidagi barcha chet el bazalarini tugatib, Sovet Ittifoqi bilan do'stona munosabatlarni rivojlantira boshladi. Qo'shni Suriya mamlakatida muhim voqealari sodir bo'ldi. 1963-yilning martida bu yerda hukumat tepasiga Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi (ASUP) keldi. Uning rahbarlari asosan harbiylardan iborat edi. Mazkur partiya barcha arab xalqlarini kurashda birdamlikka chaqiruvchi dasturiy hujjat qabul qildi. Suriyada yirik sanoat korxonalarini, banklar va sug'urta kompaniyalari natsionalizatsiya qilindi, agrar islohot o'tkazildi.

Arab mamlakatlarida iqtisod, maorif, fan va umuman barcha hayot jabhalarida tub o'zgarishlarsiz maqsadga erishib bo'lmasligini tushunishdi. Iordaniya va G'azo mintaqasida 500 ming falastinliklar ular uchun maxsus ochilgan maktablarga qatnay boshladi. Yoshlar SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari oliy o'quv yurtlariga o'qishga jo'natildi. SSSRdagi harbiy bilim yurtida bo'lg'usi arab tankchilar, artilleriyachilar va uchuvchilari ta'lim ola boshladi. 1964-yilda Livan hududida Falastin Ozodlik tashkiloti (FOT) tashkil qilindi.

Falastin Ozodlik tashkiloti (FOT) — 1964-yilda tashkil topgan. Falastin qarshilik harakatining ko'pgina tashkilotlarini birlashtiradi. 1969-yildan Yosir Arofat FOT raisi etib saylanadi.

**1967-yil iyundagi
"olti kunlik" urush**

Isroil va g'arb davlatlari arab mamlakatlarida ro'y berayotgan voqealarni kuzatib turdi va uning keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatishga qaror qildi. Isroil 10 yil yangi urushga tayyorlandi. U o'ta zamonaviy qurollarga ega edi. AQSH tomonidan ko'rsatilgan harbiy yordam ulkan armiya tuzishga imkon berdi.

1967-yil 5-iyunda Isroil qo'shinlari Iordaniya, Suriya, Misrga zarba berdi, Isroil aviatsiyasi esa Iroq harbiy bazalarini bombardimon qildi. Misr qo'shinlari fronti bo'lib tashlandi va 5 kun ichida Sinay yarimoroloni kesib o'tib yana Suvaysh kanaliga chiqib oldi hamda o'sha kuniyoq Quddusni egalladi. 6 kun ichida Isroil

harbiy harakat natijasida o‘z hududidan uch barobar ko‘p joyni bosib oldi. Endi arabiar bilan “kuch nuqtai nazaridan” gaplashib olish mumkin edi. Isroil hukumati agar Isroil davlati tan olingen taqdirdagina bosib olingen hududlarni qaytarib berish shartini qo‘ydi. Aymi paytda isroilliklar matbuotida xavfsizlik kafolatlangan chegarani tashkil qilish to‘g‘risida, ya‘mi bosib olingen arab mamlakatlari hududi, shuningdek, qadimgi Iudeiya va Isroilning tarixiy chegaralari haqida fikr-mulohazalar paydo bo‘la bordi.

Arabiar uchun ushbu “olti kunlik urush” (1967-ylliyundagi Isroil agressiyadan so‘ng shunday nomlana boshlandi) ular tarixidagi eng jiddiy mag‘lublyat edi. 200 ming arab Iordamiyaming g‘arbiy qirg‘oqlarimi tark etdi. 100 ming nafar suriyalik Isroil va Suriyami ajratib turuvchi Golon tepaliklaridagi turar joylarini tashlab ketdi, 300 mingta misrlik esa Simay yarimorolldan qochib ketishga majbur bo‘ldi.

**Arab mamlakatlari
birligining
shakllanishi**

Arab mamlakatlarida siyosiy hamjihatlik shakllana boshiasi va Isroilga misbatan umumiyoq pozitsiyani ishlab chiqdi.

1967-yilning avgustida Sudan poytaxti — **Xartumda** arab mamlakatlari rahbarlari uchrashib, “uchta yo‘q” deb nomlanuvchi umumiy platformani qabul qildi: ya‘mi, Isroil bilan muzokaraga bormaslik; umi tan olmaslik; u bilan bir tomonlama timchlik sulhini tuzmaslik.

Bu shartlar agar Isroil Falastin xalqining o‘z taqdirlini o‘zi belgilash huquqini tan olsa va uning hududidan o‘z qo‘sishinlarini olib chiqib ketgan taqdirdagima bekor qilinishi mumkin edi. Xartum shahrida Quvayt va Saudiya Arabistoni eng boy arab mamlakatlari sifatida Misr va Iordamiyaning urushdagi zararini qoplash hamda ularga kelajakda ham mollyaviy yordam berish majburiyatini oldi. Isroil “sovujurush”da G‘arbning asosiy quroliga aylandi: u deyarli o‘n yil davomida sovet harbiy mutaxassislari tomonidan yaratilgan uchta arab davlati qo‘sishinlarini yakson qildi. Sovet Ittifoqi tomonidan o‘n yil davomida Misr va Suriyaga yetkazib berilgan deyarli barcha texnika Isroil tomonidan qo‘lga kiritildi.

G‘arb davlatlari Isroilga ko‘rsatadigan yordamini kuchaytirdi. 1969-yildan 1979-yilgacha — o‘n yil davo-

mida Isroil turli manbalardan zayom yoki xayriya shaklida 20 milliard dollar miqdorida yordam oldi. U Falastindan arablarni quvib chiqarish kompamiyasini boshlab yubordi. Quddus Isroil davlatining poytaxti deb e'lon qilindi. Vaholanki, u musulmonlar uchun ham, provaslov xristianlar va katoliklar uchun ham birday muqaddas shahar sanalardi. Yangi bosib olingan joylarga ommaviy ravishda yahudiylar ko'chib kela boshladи. Faqat bir yil ichlda Golan tepaliklarida 38 ta, G'azo mintaqasida 11 ta yahudiy aholi punktlari qurildi. Yahudiylar turar joylari aymiqsa, Simay yarimoroli va Iordaniyaning g'arbiy qirg'oqlarida qurildi.

**Arab davlatlarining
mustahkamlahishi.
1973-yilgi urush**

Ayni paytda arab dunyosida katta o'zgarishlar yuz berdi. Suriya va Iroqda hukumat tepasiga Xartum deklarat-

siyasini hayotga tadbiq etish uchun yangi rahbarlar keldi. 1970-yildan harbiy-havo kuchlarining sobiq zobiti Hafiz Asad Suriya prezidenti etib, Iroqda esa bronetank qo'shinlarining sobiq zobiti Hasan al-Bakir davlat rahbarligiga saylandi. Har ikki davlat 1972-yilda Sovet Ittifoqi bilan do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Falastin qarshiligi harakati ham kuchaydi. FOTda Yosir Arafat qo'mondonligidagi 15 mingga yaqin yaxshi harbiy tayyorgarlikka ega jangchilar yig'ildi.

Ayni paytda arab dunyosi katta judolikka uchradi: 1970-yilda ozodlik uchun kurashchi Misr prezidenti Kamol Abdul Nosir vafot etdi. Uning o'mini sobiq vitse-prezident Anvar Sadat egalladi.

Arab mamlakatlari harbiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi va endi ularning rahbarlari 1967-yilda boy berilgan yerlarni qaytarib olish uchun harbiy harakatlarni boshlashga qaror qildi. **1973-yil 6-oktabrda** Suriya va Misr qo'shinlari Isroilga hujum boshladilar. Iordaniya urushda ishtirok etmadi, ammo Marokash qo'shinlari misrliklar armiyasi safida turib o'zlarini ko'rsata olishdi.

Urush **1973-yil 23-oktabrda** tugadi. Isroil birinchil marta mag'lub bo'ldi. AQSH, SSSR, Misr, Isroil va Suriya ishtirok etgan Jeneva Xalqaro konferensiyasida ushbu mamlakatlar qurolli kuchlarini BMTning tmchiik o'rnatuvchi kuchlari bilan ajratib qo'yish haqida qaror qabul qilindi. Bu arablarning ilk g'alabasi bo'idl.

Sharoit o'zgardi, Isroil zaxirasi tugadi, mamlakatda agressiv tashqi siyosatga qarshi keng muxolifat doirasi paydo bo'ldi.

1979-yilgi Kemp-devid bitimi

Shu bilan hirga arab xalqlarining ma'naviy va jismomiy kuchi o'sdi. Ular zamona viy

sovet qurollari va harbly mutaxassislari yordamida urush olib borishni o'r ganib olgan edi. FOT obro'-e'tibori kuchaydi. 1974-yil oktabrda arab mamlakatlari rahbarlari yig'ilishida FOT Falastindagi arab xalqlarining yagona vakili sifatida tan olindi. Oradan bir oy o'tgach, Y.Arofat BMT Bosh Assambleyasini sessiyasida so'zga chiqdi. Unda ikkita tarixiy qaror qabul qilindi. Bu qaror mohiyati FOTga BMTdagi nazoratchi maqomimi berish va Falastin arab xalqlarining mustaqilligini hamda ularni o'z tarixiy yerlariga qaytish huquqini tasdiqlashdan iborat edi. Jahan jamhamiyati falastin xalqi tarafida turib Isroilni agressor sifatida qoraladi.

Isroilning jahon maydonidagi obro'sini saqlab qolish maqsadida AQSH va g'arb davlatlari uni arab mamlakatlari bilan yarashtirish bo'yicha diplomatik kompaniyani boshiab yubordi. Ular bu o'rinda o'zining g'arparastlik qarashiari bilan tamilgan Misr prezidenti A. Sadatdan foydalanishdi. Ushbu davrda AQSH Misrga Isroil bilan yarashtirishga harakat qilishi uchun avans sifatida bir qator yordam ko'rsata boshiadi. Masalan, 1967-yildan buyon katta ziyan ko'rganligi uchun yopib qo'yilgan Suvaysh kanalini tozalashga ko'mak berdi. Sinay yarimoroli qisman bo'shatib qo'yildi. Misr mamlakat energetikasi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi Abu Rudada neft konlariga ega bo'ldi.

A.Sadat Isroil bilan muzokaraga kirishdi va 1979-yil 26-martda Kemp Devidda (AQSH) o'zaro bitim imzolandi. Unga ko'ra Isroil 1982-yil apreligacha Simay yarimorolidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketish inajburiyatini oldi. Shundan so'ng Misr va Isroil diplomatik aloqalarni o'rnatishi, AQSH esa har ikki mamlakatga iqtisodiy yordam ko'rsatadigan bo'ldi.

Arablar A.Sadatning bu xoinligimi kechirmadi. 1981-yil 6-oktabrda Qohiradagi harbiy parad paytida u o' idirildi. Iordan daryosining chap qirg'og'ida va G'azo inintaqasida falastinliklar g'alayomi boshlamib ketdi va bu

10 yil davomida tinmadi. Suriya va Iroq ham yangi qurolli to'qnashuvga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

**Arab davlatlari
o'rtaqidagi
parchalanish**

Lekin endilikda Saudiya Arabiston, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Omon kabi boy arab davlatlari

qurolli to'qnashuvlarda ishtirok etishni xohlamas edi. Ular yarashuv yo'lini tanlashdi: g'arb mamlakatlariga o'z sarmoyalarini kiritib, neft savdosidan katta daromad ola boshladi va shu bois tavakkal qilishni xohlamas edi.

Isroilga qarshi kurash tashabbusini 1979-yilda Iroq prezidentligiga saylangan Saddam Husayn o'z bo'yniga oldi — 1990-yilga kelib u ulkan qo'shinga ega edi. Iroq o'z harbiy xarajatlarini Quvayt hisobidan qoplash yo'lini o'ylab, uning hududiga kirib ehtiyyotsizlik qildi. AQSH esa bundan foydalanib, "Cho'ljadi to'fon" deb nomlangan harbiy operatsiyani boshlab yubordi. Iroq qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Iroq rejimining batamom tugatilishidan Sovet Ittifoqi saqlab qoldi. Birorta arab davlati Iroqni himoya qilib chiqmadi. Saudiya Arabiston va Quvayt esa hatto AQSHning harbiy xarajatlarini saxiy-larcha qopladи. Ulardan olingan pullar (20 milliard dollar) Isroilga berildi. Arab davlatlari birligi shu tariqa yemirildi.



Ona zamindagi ilk qadamlar: Y.Arafat Falastin tuprog'ida.

1991-yilda AQSH tashbusiga ko'ra, FOT va Isroil o'rtasida Yaqin Sharq muammosini hal etish shartlari to'g'risidagi jadal muzokaralar jarayoni boshlandi. 1993-yil 13-sentabrda Washingtonda prezident B.Klinton yordami asosida Y.Arofat va Isroil bosh vaziri Is'hoq Rabin (1928—1995) o'rtasida o'zaro bitim (Tamoyillar deklaratsiyasi) imzolandi. Unga ko'ra Isroil qo'shinlarining G'azo va Ierixon mintaqasidan olib chiqib ketilishi hamda u yerda milliy Falastin ma'muriyati tashkil etish ko'zda tutilgan edi.

1994-yil 13-mayda Isroil qo'shinlarini Ierixondan (Iordaniyaning g'arbiy qirg'og'i) va 18-mayda G'azo mintaqasidan olib chiqib ketdi. FOT va Isroil yarashuvi uchun birinchi qadamlar qo'yildi. 1994-yil 25-iyulda Washingtonda Iordaniya va Isroil urushining tugaganligi to'g'risida Deklaratsiya imzolandi.

1994-yil oktabrda FOT va Isroil rahbarlarining Yaqin Sharq muammosini hal etishdagi xizmati tan olinib, Yosir Arofat, Shimon Peres va Is'hoq Rabinga tinchlik o'rnatishdagi xizmatlari uchun Nobel mukofoti berildi.

90-yillarda Isroilidagi ichki siyosiy kurashlar 1994-yil oktabrda Iordaniya va Isroil o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi va ushbu davlatlar o'rtasidagi 46 yil davom etgan urushga chek qo'yildi. Falastin rahbarlari bilan tinchlik shartnomasining imzolanishi Isroil ichki siyosatida kurashni kuchaytirib yubordi.

1994-yilda G'azo mintaqasi va Ierixon rayonida Falastin avtonomiyasining tashkil qilinishi Isroilda ikkitashiy siyosiy lagerni vujudga keltirdi. I.Rabin yetakchiligidagi Mehnat partiyasi shartnomaning barcha bandlarini so'zsiz bajarish tarafidori edi. **Binyamin Netaniyaxu** (1947-yilda tug'ilgan) rahbarligidagi **Likud milliy partiysi** esa Isroilning shartnomada qayd etilgan hududlar-



Is'hoq Rabin.

dan, hatto Suriyaga tegishli Golani tepaligidan qo'shin-larni olib chiqib ketganligidan norozi bo'lishdi.

Bu ikki partiya qarama-qarshiligi kuchaygandan kuchayib bordi. **1995-yil 4-noyabrda** Tel-Avivda bosh vazir I.Rahin o'ldirildi. Bu hol Falastin bilan tlnch munosabatlar jarayoniga tahdid solish bilan teng edi.

Mehnat partiyasiga endi tajribali siyosiy va davlat arbobi **Shimon Peres** (1923-yilda tug'ilgan) boshchilik qila boshladi. 1996-yilgi saylovlarda B.Netaniyaxu bir oz ustunlik bilan g'alaba qozondi.

B.Netamiyaxu hukumat tepasida ko'p turmadi. Unga qarshi sud ishlari tashkil qilindi, tovlamachilikda ayhian-di. 1999-yil sentabrida iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

1999-yil oktabrdagi saylovlarda Mehnat partiyasi yetakchiligidagi koalitsiya g'alaba qozondi. Isroil qo'shini Bosh shtabining sohiq boshiig'i **Yohud Barak** bosh vazir etib saylandi. Bitimga ko'zda utilgan hududlarni falastinliklarga berishga bo'lgan ilk harakat yahudiy aholi bilan to'qnashuvga olib keldi.

2001-yil fevralda hukumatga falastinliklarga nisbatan qat'iy pozitsiyasi bilan ma'lum bo'lgan **Ariel Sharon** keldi. 2001-yil mayida u Isroilning yangi bosh vaziri bo'ldi. U milliy birlik hukumatini tuzdi va tashqi ishlar vaziri lavozimiga Shimon Peresni taklif qildi. A.Sharon falastinliklarga qarshı qattiq holatni tutdi. Yangi qurolli konfliktlar avjiga oldi.

2002-yil dekabrda Yaqim Sharq jarayonining asosiy ishtirokchilari (AQSH, Rossiya, BMT va YHga kiruvchi mamlakatlar) Vashingtondagi konferensiyada AQSH taklif etgan va "**yo'l xaritasi**" deb nomlangan Yaqim Sharq inqirozini bartaraf etish rejasini qabul qildi. Uming mohiyati 2005-yilga qadar Falastin davlatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Isroil bunga javoban bo'lg'usni davlat atrofida Iordan daryosi g'arhiy qirg'og'ida "xavfsizlik devori"ni barpo etishlmi bildirdi. Uning balandligi 8 m va uzunligi 650 km qilib belgllangan. Jahon jamoatchiligi va BMT Xavfsizhk kengashi Isroilning xatti-harakatini "noqonuniy anneksiya" ("anneksiya" - "bosib olish") sifatida qoraladi. 2004-yil Isroilda ikkala tonion uchun yuzlab qurbanlar bo'lgan yangi xunrezliklar bilan boshlandi.

Qisqacha mazmum

- 1947-yil 29-noyabr — Faiastinni yahudiylar va arabiar qismiga bo'lish to'g'risidagi BMT rezoiyut-siyasi
- 1948-yil 14-may — isroil daviatining e'ion qilinishi.
- Isroil — kuchli qo'shinga ega rivojlangan davlat
- Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yaqin Sharq strategik ahamiyatining oshishi: neft — asosiy boyilk; Suvaysh kanailga yaqinilgi
- 1956-yil — Suvaysh kanali zonasida qo'shma ingliz-franko-isroil agressiyasi
- Soviet Ittifoqining arab-isroil to'qshanuvidagi roil
- 1964-yil — FOTning tashkil etilishi
- 1967-yil iyun — "olti kunlik urush"; arablar mag'lubiyati
- Arab mamlakatlari siyosiy birilgining shakllanishi
- 1970-yil — Jamol Abdul Nosir o'ilmi; Misr prezidenti Anvar Sadat
- 1973-yil oktabr — uchinchchi arab-isroil urushi. Arabiarning birinchi g'alabasi
- 1979-yil 26-mart — 1981-yil 6-oktabr — Kempdevid bitimi. Anvar Sadathing o'ldirilishi
- Iroqning Quvaytdagi agressiyasi. "Cho'idagi to'fon" operatsiyasi. iroqning tor-mor bo'ilshi
- 1991—1994-yillar — arab-isroil munosabatlarini boshqarish jarayonining faollahsuvi: urushning tugasbi
- 2002-yil — bosh vazir A.Sharon
- 2002-yil — Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etish rejasи — "yo'l xaritasi"ning qabui qilinishi

Savollar

?

1. isroil davlati tiklanishining bosqichiarini aytib bering. Uning rivojlanishidagi qarama-qarshiliklar nimalardan iborat?
2. 1956-yildagi Suvaysh inqirozi sabablari nimalardan iborat edi? Bu Isroil uchun qanday oqibatlarni keltirib chiqardi?
3. 1967-yil iyundagi "olti kunlik urush" nima bilan yakun topdi? Isroil harblyalarining harakatini mustaqillik uchun kurash deb baholash mumkinmi?
4. 1979-yilda Kemp Devidda qanday qaror qabul qilindi? Nima uchun mazkur qarorlar arab sharqida tinchlik o'rnatishga olib kelmadи.
5. "Cho'idagi to'fon" harbiy operatsiyasida qaysi davlatlar

- ishtirok etdi? Ushbu mamiakatlarning qurolli aralashuvi o'zini qanchalik oqlay oldi?
6. Isroiil davlati muammolarini hal etishga katta hissa qo'shgan siyosiy arboblardan qaysi birini alohida ajratib ko'rsata olasiz?

39-§. YAPONIYA: URUSHDAN KEYINGI TIKLANISH

Ikkinci jahon urushidagi mag'lubiyat va so'zsiz taslim bo'lish haqidagi kapitulyatsiya Yaponiyani larzaga soldi. Yaponianing yengimas davlat va uning imperatorining ilohiy kelib chiqishi haqidagi afsonalar ruhida tarbiyalangan xalq buni milliy sharmandalik deb qabul qildi. Ayni paytda yaponlar mag'lubiyatni tan olib, o'zlariga xos tashkilotchilik va tartib bilan okkupatsion hukumatga bo'yundilar.

**General Makartur
islohotlari**

Xalq jamiyatda islohotlar va demokratik qayta qurishlar amalga oshishini kutar edi.

AQSHning Yaponiyadagi okkupatsion qo'shinlari qo'mondoni general Makartur qo'lida cheklanmagan hokimiyat to'plangandi. Oktabr boshida demokratik qayta qurish boshlandi. General Makartur taklifiga ko'ra siyosiy mahbuslar ozod qilindi, yashirin politsiya tugatildi. Ayollar tengligi bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazildi, kasaba uyushmalar huquqi kengaytirildi, xalq ta'limi to'liq qayta o'zgartirildi.

Makartur Duglas (1880—1964) — 1944-yildan AQSH qo'shini generali. Ikkinci jahon urushi davrida (1941—1942-yil) AQSHning Uzoq Sharqdagi qurolli kuchiari qo'mondoni va Tinch okean janubi-g'arbiy qismidagi ittifoqchilar qo'shinlari bosh qo'mondoni. 1945-yildan Yaponiyadagi okkupatsion qo'shinlar qo'mondoni bo'lgan. 1950—1951-yillarda Koreyadagi Amerika va Janubiy Koreya qurolli kuchiari operatsiyalariga rahbarlik qilgan.

AQSH Yaponiyada o'z namunasi bo'yicha zamnaviy iqtisodiy tizim yaratishga harakat qildi. Ya'ni antitrest qonunlar qo'llanilishi lozim bo'lib, bunday

qoida XX asr boshida AQSHda joriy etilgan, Dzaybatsu tarqatib yuborilgandi. 21 ta bank yopildi. Monopolistlar, militaristlar, shuningdek, yirik feodaliar — yer egalari xalq dushmani deb e'lon qilindi. Ko'pgima harbiy va siyosiy jinoyatchilar hibsga olindi hamda qatl qillindi.

1947-yilda qabul qilingan konstitutsiya asosida demokratik huquq va erkinliklar, urushni rad etish, o'z qurolli kuchlarini taqiqlash e'lon qilindi. Shu bilan birga imperator millat rahbari, uning birligining ramzi bo'lib qoldi.

Agressiv siyosat olib borgan partiyalar tarqatib yuborildi. Urushdan so'nggi Yapomiyada davlat siyosatini belgilab bergen yangi — progressiv, liberal va sotsialistik partiyalar tashkil topdi. Urushdan keyingi davrda ko'p vaqtlar hukumat tepasida liberal (1955-yildan liberal-demokratik) partiya turdi.

1946-yilgi parlament saylovlarida liberal partiya g'alaba qozondi. General Makartur tashabbusi bilan parlament 1946-yilda agrar islohotlar to'g'risida qonun qabul qildi. Unga ko'ra hukumat pomeshchiklardan yer sotib olib, uni dehqonlarga sota boshladi. Yer islohoti dehqonlar foydasiga yerni qayta taqsimlashga olib keldi. Yagona pul solig'i asosiy soliq bo'lib qoldi. Endilikda dehqonlar o'zlarini yetishtirgan mahsulotga o'z bilganicha xo'jayinlik qilishi mumkin bo'lib qoldi.

Agrar islohot Yapomiyada inqilob yasadi. Qishloq xo'jaligida jadal sur'atlarda kimyoviy o'g'itlar, gidropniklar, shuningdek, kichik dala-yerlarga mo'ljallangan minitraktor hamda boshqa texnikalardan foydalana boshlandi.

**Yaponiya va
AQSHning harbiy-
siyosiy ittifoqi**

AQSH bilan bir qator shartnomalar tuzilishi munosabati bilan Yaponiyadagi ahvol keskin o'zgardi. 1951-yili

San-Fransiskoda "Xavfsizlik to'g'risida shartnoma" imzolandi. Unda ikki mamlakat o'rtaсидаги harbiy-siyosiy ittifoq rasmiylashtirildi.

Shartnoma Yapomiyada ushbu mamlakat "suveremitetimi ta'minlaydigan AQSH qurolli kuchiarini ushiab turish"ni nazarda tutar edi. Mazkur shartnoma mamlakatda amerika harbiylarining bo'lishini abadiylashtirib qo'ydi va yapon qurolli kuchiarini tashkil etishga yo'l bermadi.

1952-yilgi amerika-yapon shartnomasiga ko'ra barcha harhiy bazalar AQSH qurolli kuchlariga qaraydigan va ularni ushiab turganligi uchun Yaponiyaga har yili 150 million dollar to'laydigan bo'ldi. Amerika amalda Yapomiyaning barcha hududimi nazorat qilish huquqini qo'liga kiritdi. **1953-yilda** tuzilgan do'stlik, savdo va dengiz kemalari qatnovi to'g'risidagi Amerika-Yapon shartnomasi har ikki mamlakat fuqarolari hamda kom-pamiyalariga bir-birlarining hududlarida tijorat faoliyatini borasida teng huquqqa ega bo'lish imkoniyatini berdi. O'zaro yordam va mudofaami ta'minlash to'g'risidagi **1954-yilgi** bitim yapon sanoati uchun ochilgan amerika bozoridagi iqtisodiy chora-tadbirlarga sarmoya kiritish kafolatini o'z ichiga olgan edi. Nihoyat, 1960-yilgi "O'zaro hamkorlik va xavfsizlikka kafolat" to'g'risidagi shartnomasi bu ikki mamlakatning harhiy-siyosly ittifoqini rasmiylashtirishni yakunladi va Yapomiyani AQSHning Uzoq Sharqdagi kenja sheregiga aylantirdi deyish mumkin.

Mazkur shartnomaga ko'ra, Amerika harhiy xizmatchilari yapon yurisdiksiyasi nazoratidan chiqarildi va soliq hamda bojxona tekshiruvidan ozod qilindi.

1 million aholi yashaydigan Okinava oroli AQSHning Tinch okean havzasidagi doimiy harhiy-havo kuchlari bazasi bo'lib qoldi. Amerika bombardimonchilari aynan shu yerdan Vyetnam, Laos, Kampuchiya shahar va qishioqlariga bomba tashlash uchun uchar edi.

Yapomiya bilan harbiy-slyosiy ittifoq tuzgan AQSH uni Sovet Ittifoqiga qarshi qayray boshladi. Amerika senati 1951-yilgi Yalta shartnomasini ratifikatsiya qilib, uning Yaponiyaga tegishli banflarini shubha ostiga ola boshiadi. Ma'lumki, mazkur shartnomada Kurill orollari va Janubiy Saxalim Sovet Ittifoqiga berilganligi qayd qilingan edi. Shundan beri Kurill tizmasiga kiruvchi Xabomai, Shikatan, Iturup va Kunashir orollari SSSR va Yapomiya o'rtaqidagi doimiy qarama-qarshilik manbaiga aylandi.

50—70-yillarda Iqtisodiy yuksalish

Shu hilan birga yapon-amerika shartnomasi tuzilishi 50-yillarda Yapomiya iqtisodimini rivojlantirishning negizi bo'lib qoldi. Yapomiya Amerika bozoriga kirish imkoniyatini oldi. AQSH bozori o'ziga xos qat'iy qoidalarga ega: bu yerga keltiriladigan tovarlar

eng yuqori sifatli, zamon talablariga javob beradigan va raqobatbardosh bo'lishi lozim. Yapomiya sanoati o'zini ko'rsata oldi. Hozirda amerika importining 20 foizini yapon tovarlari tashkil qiladi va boshqa birorta mamlakat amerika bozorida Yapomiya bilan raqobat qila olmaydi. Har yili Yaponiya Amerika bozoriga 100 milliard dollar-dan ortiq miqdorda tovar yetkazib beradi.

Amerika bozoriga shunchalik keng kirib borganligi uchun 50-yillarning ikkinchi yarmida yapon industriyasini ommaviy ravishda qayta jihozlash boshlandi. Qirq yil ichida Yaponiyada ishlab chiqarishni strukturaviy qayta o'zgartirish yakunlandi. Ilmiy-texnika inqilobi yuz berdi. Sanoatning barcha tarmog'l qayta jihozlandi, dunyodagi eng ilg'or texnologiya va ilmiy yutuqlar tatbiq etildi.

1955—1970-yillar ichida yapon iqtisodiga 15 ming-dan ortiq yangi texnika patenti va htsenziyasi joriy qilindi. Mehnat resurslarimi o'zgartirishdagi siljishlar va "nou-xau"ning ommaviy import qilinishi yapon iqtisodining tezlik bilan oldinga chiqib olishidagi texnologlya bazasini ta'minladi.

Harbiy ehtiyojlarga xarajatlar (yalpi milliy mahsulotning 1 foizi) sarflanmasligi sababli Yapomiya butun ishlab chiqarishdagi kuchini sanoatning yangi texnologik va ilmiy sohalariga yo'naltirish imkoniga ega bo'ldi. Ular ichida avtomobilsozlik sanoati muhim o'rinn egallaydi. 1960—1980-yillarda yengil avtomobil ishiab chiqarish 33 baravar o'sdi. Ayni paytda mashinasozlik, radioelektronika, EHM ishlab chiqarish, avtomatlashtirish vositalari, aloqa sohasini jihozlash tarmoqlarida ishlab chiqarish yuqori sur'atlarda o'sib bordi.

Avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha Yapomiya 1980-yilda jahonda birinchi o'ringa chiqib, AQSHhi quvib o'tishga erishdi. Yapomiya robot texnikasi, maishiy texnika va optika, rangli televizor, videotexnika va radio-priyomniklar, magnitofon va konditsionerlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchl o'rinni egallab kelmoqda. Aymiqsa, raqamli dasturiy boshqaruva va avtomatlashtirilgan tizlmga ega stanoklar, shuningdek, robot-manipulyatorlar ishlab chiqarish juda tez o'sa boshladi. Mamlakat iqtisodimeng zamonaviy shart-sharoitlarga moslashishida davlat boshqaruvi muhim rol

o'ynaydi. Norentabelli tarmoqlarni qisqartirish va modernizatsiyalashtirish, nisbatan raqobatbardosh korxonalarini tanlab olish uning strategik yo'nalishini tashkil etdi. Shuningdek, davlat korxonalarining qo'shilishini, nisbatan katta va rentabelli korxonalarini yiriklashtirishni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rdi.

Sanoat ishlab chiqarishi jadal o'sib borishi bilan birga 60-yillar oxirida qayta tiklangan monopoliyalar pozitsiyasi kuchaydi. Dzaybatsular yana Yaponiyaning eng kuchli xo'jayiniga aylandi. Mitsui, Mitsibusi va Sumitomo — "katta uchlik" deb nomlanuvchi eski guruh yetakchilik qila boshladi. Biroq, 60-yillarda Rudzi, Dinti, Sanva deb ataluvchi yosh moliyaviy oligarxiya guruhi paydo bo'ldi. "Katta uchlik" bilan bir qatorda ular yapon iqtisodida yetakchi kuchga aylanishi. Yaponiya jahondagi eng boy yettita davlat ("yettilik") qatoridan joy oldi.

Dzaybatsu (yaponcha — moliyaviy guruh) — Yaponiyadagi sanoat va moliyaviy monopoliyalarini anglatish uchun ishlatliladigan atama.

Albatta, mamlakat iqtisodining bunchalik tez o'sishida asosiy sababchi — yapon xalqi. Yaponlarning mehnatsevarligi, sabr-qanoatli ekanligi, chidamliligi, tartibligi "yapon mo'jizasi"ning asosini tashkil qildi.

"Millat korporatsiyasi"ning shakllanishi

Albatta, mamlakat iqtisodining bunchalik tez o'sishida asosiy sababchi — yapon xalqi. Yaponlarning mehnatsevarligi, sabr-qanoatli ekanligi, chidamliligi, tartibligi "yapon mo'jizasi"ning asosini tashkil qildi.

Yaponiyada "**millat korporatsiyasi**" shakllandi. U "Japan Inkorporeyshn" deb atalib

Yaponiyaning dunyo miqyosidagi obro'si va ishlab chiqarish darajasini ko'tarish maqsadida butun yaponlarni, ishchi va tadbirkorlarni yagona xo'jalik hamda madaniy oilaga birlashtirib turadi.

Mazkur tizimga ko'ra, xizmatchi va kompaniya o'zaro kontrakt tuzadi va shu bo'yicha firma xizmatchini ishga layoqatsiz bo'lgunga qadar doimiy ravishda ish bilan ta'minlaydi. Xizmatchi esa bunga javoban tartibli, itoatli va barcha qiyinchiliklarni ko'tarish majburiyatini oladi. Aynan shu narsa jamiyat qurilishi uyg'unligi va barqarorligining yaponcha modeli sanaladi.

Ammo bu model daromadlarni taqsimlashda adolatsiz. 1975-yildan 1985-yilgacha ishchi va xizmatchilar-

ning ishlab chiqarish samaradorligi 65 foizga oshdi, ularning ish haqi esa 11 foizga oshirildi, xolos.

Yapon usulida, agarda mayda o'rta korxonalar asosiy rol o'ynamasa, ishiab chiqarish muhimroq sanaladi. Kichik korxonalar past mehnat samaradorligiga ega. Ishchilar somi ko'p bo'hshiga qaramay, (7,5 million kishi) ular mamlakat yalpi milliy mahsuloti (YMM)-ning 51 foizini ishiab chiqaradi. Mazkur ishchilarning ish haqi past. Odatda ular yirik korxonalar ishchilari oladigan haqming yarmini oladi.

Shunday qilib, korporativ yapon tizimi amalda adolatsiz bo'llib chiqdi. Yaponiyada hayot taqozosiga ko'ra yollangan va o'zлari yaratayotgan ulkan boylikning arzimas ulushini oluvchi ishchilar va xizmatchilar soni 42 million kishini tashkil qildi. Aymi paytda Mitsubishi, Mitsui, Toyota, Nissanmotor, Xitachi, Kawasaki, Matsesiga kabi gigant korporatsiyalar milliardlab foyda ko'rmoqda.

90-yillardagi iqtisodiy va siyosly tanglik

Mana o'ttiz yildan buyon har yili bahorda yapon ishchilari Yaponiya kasaba uyushmalari

bosh kengashi (SOXE) rahbarligida turmush tarzimi ko'tarish, ish va yashash sharoitini yaxshilash uchun "bahorgi hujum" o'tkazadilar. Yapon monopoliyalari esa yon berib, har yill ish haqini Yevropa va Amerikadagiga yaqin miqdorda oshirishga majbur bo'ladi.

1990-yildan boshlab mamlakat iqtisodida turg'unlik alomatlari paydo bo'la boshladi. 1990-yildan sanoat ishlab chiqarishning yillik o'sishi 5 foizdan 1 foizga tushdi. 1990-yildan Tokio birlajarida sarosima boshlandi, kompaniyalar aksiyalari narxi tushib ketdi. Butun dunyoda yapon iqtisodiga ishonch susaydi. Buning natijasida esa juda ko'p minglab ishchi va xizmatchilar ishdan bo'shatildi yoki majburiy ta'tilga chiqarib yuborildi.

Bu voqealar keyingi 20 yilda jabon iqtisodida yuz bergen holatlarning aks-sadosi bo'ldi. Uzoq vaqt davomida yapon iqtisodi dinamizmi eksportning importdan doimiy oshib borishi hisobiga ro'y berdi.

1980-yilgacha Yaponiya tashqi savdoda passiv balansga ega bo'ldi, ya'mi tovar ko'proq chiqarilmagan, aksincha olib kelingan. 1981-yildagina u faol balansga erishdi. 1985-yilga kelib esa faol balans juda tez o'sib,

yapon monopoliyasini boyitishning asosiy manbaiga aylandi.

Oxirgi paytlarda yapon iqtisodida aniq tanglik belgilari ko'rina bordi. 1983-yildan 1994-ylgacha 100 ming-dan ortiq firma, ya'mi sanoat korxonalarining to'rtadan biri bankrotga uchradi. **1999-yilda** bank tizimi tanazzul chegarasiga kelib qoldi. Moliya tizimini saqlab qolish uchun bir qator banklar birlashishga va gigant korporativ guruhiar tuzishga majbur bo'ldi. Bu ikki marta kattalashtirilgan dzaybatsumi eslatar edi. Ular endilikda **keyretsu** (korporativ guruh) deb nom oldi. Ularning biringchisi Mitsubishi guruhi bo'lib qoldi.

Iqtisodiy tanglik siyosiy tanglikni keltirib chiqardi. 1955-yildan Yaponiya liberal-demokratik partiyasi (YLDP) siyosiy hayotda yetakchilik qila boshladi. Butun hukumat tarkibi tom ma'noda ushbu partiya a'zolaridan iborat bo'lar yoki 1993—1994-yillardagi kabi uning yetakchilari koalitsiya hukumatini boshqarar edi.

Bunday yakka hokimiyat natijasida partiya nazoratmi yo'qotdi va o'zlarini hamma narsaga haqli deb hisoblay boshiadi. Bular tufayli partiya rahbarlari o'rtasida korrupsiya va poraxo'riik, davlat mulkini talon-toroj qilish hamda tovlamachilik oddiy holga aylanib qoldi. Bu boradagi ilk katta shov-shuv 1989-yilda YLDP yetakchilarining yirik kompaniyalar tomonidan sotib olinishi bo'ldi. Bu xildagi janjallar butun mamlakatni 90-yillar davomida larzaga solib turdi. **2000-yil 25-iyunda** mamlakatda yangi saylovlar o'tkazildi. YLDP parlamentda ko'pchilik ovozni yo'qotdi, ammo boshqa ikki partiya bilan koalitsiyada hukumat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Partiya yetakchisi **Mori** bosh vazir etib saylandi.

Biroq tez orada Morining o'zi ham korrupsiya bilan bog'liq janjalga aralashib qoldi. Shu bois u partiya yetakchiligidan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Mamlakatda yangi parlament saylovlarini bo'llib o'tdi. YLDP biroz o'z mavqeini tiklab oldi va populistik islohotchi **Junichiro Koizumi** Yaponiyaning navbatdagi bosh vaziri etib saylandi.

Bu Yaponiyada so'nggi 13-yilda bosh vazirning o'n birinchi marta almashtirilishi edi. Hukumatning bunday tez-tez o'zgarishiga siyosiy barqarorlik va iqtisodiy pasayishda aks etdi. Y.Koizumi va'da qilgan iqtisodiy

islohotlar barbod bo'ldi. Iqtisodiy o'sish—yiliga 1% ni — dunyo bo'yicha eng past ko'rsatkichni tashkil etdi. 2004-yil yanvarda konstitutsiyaga xilof holda Yaponiya Iroqqa koalitsiya kuchlariga yordam uchun o'z harbiy kontingentini jo'natdi.

Qisqacha mazmuni

- Ikkinchi jahon urusbildagi mag'lubiyat va uning oqibatlari
- General Makartur — okkupatsion qo'shinlar qo'mondoni
- Demokratik qayta o'zgarishlar: siyosiy mahbuslarning ozod etilishi, ayollar emanipatsiyasi, yashirin poiltsiya tugatilishi, dzaybatsularning tarqatib yuborilishi, harbiy jinoyatchilarning jazolanishi
- 1964-yili — agrar islohot — hukumat tomonidan pomeshchiklardan yerlarning sotib olinisbi va dehqonlarga sotilishi: yagona pul solig'ining kiritilishi
- 1947-yil — Yaponiya konstitutslyasi — huquq va erkinliklar e'lon qilinishi, urushni rad etish, o'z qurolli kuchiarini taqlqlash: imperator — millat rahbari
- 1951-yil — AQSH bilan xavfsizlik haqida shartnoma — harbiy-siyosiy ittifoqni rasmiylashtirish: Okinava oroli — AQSH harbiy-havo bazasi
- 1951-yildan — SSSRga nisbatan Kuril orollarini (Xabomai, Shikotan, Kunashir, Iturup) qaytarish haqidagi hududiy taablarning ligari surilishi
- 50—70-yillar — sanoatni ommaviy modernizatsiyalash, yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi Yaponiya — dunyodagi eng yetakchi yettita mamlakatdan biri
- 1990-yillar — iqtisodiy pasayish, siyosiy tanglik, AQSH iqtisodiga bog'liqlik
- 2001-yil — premyer-ministr Junichiro Koizumi
- 2004-yil — Iroqqa koalitslya kuchiariga yordam uchun harbiy kontingentning jo'natilishi

Savollar

- ?
1. Yaponyaning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroti mamlakat uchun qanday oqibatlarni keltirib chiqardi?
 2. 1947-yilda konstitutsiya qabul qilingach, mamlakatda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
 3. Fikringizcha, Yaponiya va AQSHning 50—70-yillardagi hamkorligi qanchalik o'zaro foydali bo'ldi?

4. Yaponiya iqtisodining tez tikkalishi va rivojlanishining asosiy manbai nimalarda edi?
5. "Millat korporatsiyasi" tushunchasiga izoh bering.
6. 90-yillarda mamlakatda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy tanglik sabablarini sanab o'ting.

40-§. O'RТА OSIYO DAVLATLARI

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanib ketgach, sobiq O'rta Osiyo respublikalari o'mida beshta mustaqil davlat paydo bo'ldi — **Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston**. Ular bari jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi va 1992-yilda BMT safiga qabul qilindi.

Sovet hokimiyati davrida (1917—1991) ushbu respublikalar hududida Osiyodagi bosliqa mamlakatlardagidan farq qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar yuz berdi. Bu yerda ishlab chiqarish vositalari xususiy mulkchiligi tugatildi va amalda butun iqtisod hamda savdo davlat mulki ixtiyoriga o'tkazildi. Qishloq xo'jaligida yakkashaxs xo'jaligi yo'q qilindi va hamma dehqonlar kolxozlarga birlashtirildi. O'rta Osiyo xalqlari uzoq yillar Osyo mamlakatlaridan uzoqlashib, tashqi dunyodan ajralib qoldi. Barcha tashqi aloqalar Moskvada markaziy hukumat tomonidan belgilanar va umumiy reja bo'yicha amalga oshirilar edi. Iqtisodiy rivojlanish ham Moskvada ishlab chiqqiladigan umumiy reja asosida yuritilgan. Foydali qazilmalarni qidirib topish va qazib olish ham shu yo'sinda olib borildi, mahalliy xalqlar manfaatiga ikkinchi darajali masala deb qaraldi.

Sotsialistik deb nomlangan bunday ishlab chiqarish usull jamiatning ijtimoiy tarkibini belgilab berdi. Bunda faqat uchta ijtimoiy guruh saqlanib qoldi, ya'ni — ishchilar, xizmatchilar va sovxozi-kolxoz dehqonlari. Savdo, tadblrkorlar qatlami yo'q bo'ldi, barcha xo'jalik boshqaruvi davlat qo'liga o'tdi. Bu hol shaxsiy manfaatlarni yo'q qildi va oldingi o'ringa faqat davlat manfaatlari chiqdi.

Shu bilan birga davlat ijtimoiy dasturi aholiming madaniy va ijtimoiy ta'minoti yuksalishini ta'minladi. O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlar borasida Osiyodagi boshqa davlatlardan anchia o'zib

ketdi. Ushbu respublikalar hududida katta ishlab chiqarish kuchlari yig'ildi. Bu kuch kambag'allik va ochlikni yengib o'tishga yordam berdi. Yetishib chiqqan milliy mutaxassis kadrlar kuchli intellektual bazani tashkil etdi.

O'rta Osiyo davlatlari oldida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotni demokratlashtirish vazifasi turar edi. Amalda bu iqtisodni tubdan o'zgartirish, sanoat va agrar sektorda xususiy mulkchilikni yaratish jamiyat ijtimoiy strukturasini to'liq o'zgartirish, mulkdorlar, tadbirkorlar va tijoratchilar sinfini shakllantirishni anglatar edi. Shuning uchun totalitarizmdan yangi, demokratik strukturaga o'tishni ta'minlaydigan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Oldinda iqtisodni yuqori darajaga ko'tarish vazifasi turar va bu jahon bozorida raqobat qila oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi sohalar — bank hisob-kitoblari, valyuta operatsiyalari, monetar iqtisod va tashqi iqtisodiy siyosat qonunlarini o'zlashtirishni ta'minlashi lozim edi.

**O'zbekiston
Respublikasi**

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston rahbari **Islom Karimov** respublikaning Sovet Ittifoqi

tarkibidan chiqqanligini e'lon qildi. O'zbekiston suveren davlatga aylandi.

1992-yil 8-dekabrda mustaqil respublikaning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. U zamonaviy demokratik jamiyatning barcha talablariga javob bera olishi isbotlandi. Yangi Konstitutsiya fuqarolarga barcha asosiy huquqlar va erkinliklarni kafolatladi. Turli millat vakillariga teng huquq berildi, milliy manfaatlarni kamsitishning har qanday ko'rinishi qonun bilan jazolanadi. Ushbu asosiy qonun asosida **1994-yil** va **1999-yilda** ko'ppartiyaviylik asosida **Oliy Majlisga** saylovlari o'tkazildi. 1992-yil va 1999-yilda muqobililik asosida respublika prezidentligiga saylovlari bo'lib o'tdi hamda unda Islom Karimov g'alaba qozondi.

Karimov Islom Abdug'aniyevich (1938-yilda tug'ilgan) — 1983-yildan taniqii davlat arbobi: Moliya vaziri, Ministrlar Soveti raisi o'rinosari va Davlat Reja qo'mitasi raisi. 1990-yildan — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining raisi.

Konstitutsiya asosiy huquqiy me'yorlar va qonun ustuvorligimi belgiladi. Hokimiyat uchta tarmoqqa bo'limdi — qonunchilik, ijro etuvchl va sud.

Mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar:

- makroiqtisodiyotda tub strukturaviy qayta o'zgar-tirishlar olib borish imkonini beruvchi demokratik bozor islohotlari;

- siyosiy, iqtisodiy va davlat qurilishi sohasini libe-rallashtirish hamda fuqarolik jamiyatni shakllantirish;

- jamiyatni ma'naviy yangilash va o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat hamda xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi erkin shaxsmi shakllantirish;

- zamonaviy jahon iqtisodiyoti va siyosati borasida chuqur bilinga ega yangicha dunyoqarashli kadrlarni tayyorlash;

- iqtisodda tarmoq va korxonalarini moderniza-tsiyalash hamda texnik qayta ta'minlash, eksportga mo'ljallangan va import o'rmini beruvchi ishiab chiqarishni shakllantirishga yo'naltirilgan strukturaviy tub o'zgarishlar;

- jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, millatlararo hamda fuqarolar totuvligini ta'minlash.

Respublika rivojlanishining ushbu asosiy yo'nalishlari "o'zbek modeli" deb nom olgan muhim tamoyillardir. Iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirila-yotganligi iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish imkonini berdi. 1996-yildan O'zbekistonda iqtisodiy o'sish boshlandi. Shu yill yalpi milliy mahsulot 1,6 foiz, 1997-yilda — 5,2 foiz, 1998-yilda — 4,4 foiz, 1999-yilda esa 4,5 foizga ko'paydi.

Bunday muvaffaqiyatga neft, gaz, oltin qazib olish, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, elektronika, elektro-texnika va neft-kimyo kabi yuqori texnologiyali tarmoqlar tufayll erishildi. Albatta, bu borada davlatning qo'llab-quvvatlashi katta rol o'ynadi.

Mamlakat iqtisodiy hayotida xususiy sektor muhim ahamiyatga ega bo'la bordi. Hozirda mazkur sektor kichik va o'rta biznes hisobiga sanoat ishlab chiqarishi-ning 65 foizini tashkil etmoqda.

O'zbekiston neft mahsulotlari va g'alla mustaqilligiga erishdi. Agar ilgari respublika ehtiyoji uchun zarur neft-

ning 72 foizi chetdan keltirilgan bo‘lsa, endilikda eksport qilinmoqda.

Mustaqillik yillarda o‘nlab yangi yirik ishiab chiqarish obyektlari ishga tushirildi va yuzlab turdag'i yangi sanoat mahsulotlari ishiab chiqarishga erishildi. Zamonaviy yengil avtomashinalar, avtobuslar ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalar buniyod etildi va bu O‘zbekistonni jahondagi o‘z avtosanoatiga ega 30 ta mamlakatiar qatoriga qo‘shti.

O‘zbekiston qisqa vaqt ichida kelajakka yo‘l ochdi. Ayni paytda respublika o‘ziga xos yo‘lni tanladi. Bozor iqtisodini samarali yuksaltirish, xalq turmush tarzimi doimiy va bosqichma-bosqich ko‘tarish, kam ta’milan-
gan, ko‘p bolali oilalarga zarur bo‘lgan yordamni ko‘rsatish kabl e’tiborli yo‘nalishiar respublikaming Oslyodagi boshqa respublikalardan farqli tomonini ko‘rsatib turidi.

Savodlilik darajasi mamlakatda 100 foizga yetdi. Aymaytida respublika hukumati **1997-yilda** Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qildi, bu yosh avlodga yanada yuqori darajadagi ta’lim va tarhiya berish imkomini beradi.

Sanoat sohasidagi strukturaviy siljishlar ta’minlandi va aholini ijtimoiy himoyalash bazasi kengaytirildi. Qayta ishiash sanoatidagi ko‘pgina korxonalar rivojlamishi iqtisodiy samara berishdan tashqari, yuqori texnologik malakali yangi ish joylari shaklida ijtimoiy samara ham beradi. Mustaqillik davrida sanoatda 200 mingdan ortiq ish joylari tashkil etildi.

Respublika eksportida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Chetga chiqariladigan tovarlar ro‘yxatiga neft mahsulotlari, avtomobil, samolyot, murakkab maishiy elektronika buyumlari qo‘yildi, asbob-uskunalar ulushi ko‘paydi. Eksport strukturasini shakllantirish strategiyasi O‘zbekiston davlat suvereniteti manfaatlari obro‘-e’tiboriga, iqtisod strukturasini mamlakatning tabiiy-iqtisodiy quvvatim hisobga olgan holda dunyodagi rivojlangan davlatlar strukturasiga yaqinlashtirishga mo‘ljallangan.

BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida prezident I.Karimov Toshkent Osiyo xavfsizligi, hamkorlik va ravnaqi muammolari bo‘yicha BMTning doimiy faoliyat yurituvchisi seminarini tashkil qilishni taklif etdi. Respublika Qo‘silmaslik harakati, Islom konferensiyasi

tashkiloti va boshqa obro'li xalqaro tashkilotlar faoliyatiga o'z hissasini qo'shmaqda.

O'zbekistonni jahiondagi 125 mamlakat tan olgan. Respublika bilan 84 mamlakat o'rtaida diplomatik aloqalar o'rnatilgan. Ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama, ko'p tomonlama aloqalar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, iqtisodiy, ilmiy va madamiy hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolangan.

O'zbekiston AQSHning strategik sherigi sifatida Afg'onistondagi aksilterrorchilik kompaniyasini qo'llab-quvvatladi. 2002-yil martda prezident I.Karimovning AQSHga rasmiy tashrifi ikkala davlatning yaqinlashishiga xizmat qildi.

Qisqacha mazmumi

- O'rta Osiyo mustaqil daviatiarining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanish natijalari
- O'zbekiston Respublikasi suverenitetligi yutuqlari
- O'zbekiston taraqqiyotidagi ustuvor yo'nalishlar ("o'zbek modell")
- Mustaqil O'zbekistondagi asosiy siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy qayta o'zgarishlar
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosda tan ollnishi

Savollar

- ? 1. O'rta Osiyo hududida qachon va qanday musataqil davlatlar tashkil topdi?
2. O'rta Osiyo respublikalarida mustaqillik elon qilinganidan keyin ganday o'zgarishlar yuz berdi?
3. O'rta Osiyo davlatlari oldida mustaqillikning dastlabki yillarda qanday muammolar turardi?
4. O'zbekistonda mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nallishlari qaysilar?
5. "O'zbek modell" tamoyillining mohiyati nimada?
6. I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sesslyasida ganday muammolarni ko'tardı?

V b o b

**LOTIN AMERIKASI:
MUSTAQILLIK UCHUN KURASHNING
YANGI BOSQICHI**



41-§. URUSHDAN KEYINGI DAVR LOTIN AMERIKASI

Iqtisodiyotning rivojlanishi

Ikkinchı jahon urushi Lotim Amerikasida Yevropa davlatlari mavqeining kuchsizla-

rishiga olib keldi. Qit'a mamlakatlarining tashqi savdosi ko'p jiliatdan Germaniyaga to'g'ri keldi va u bilan alo-qalarning uzillshi eng muhim bozorlar va savdo sherigini yo'qotishni anglatar edi. AQSH yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirdi, u an'anaviy tarzda nemislar ta'siri ostida bo'lgan barcha mamlakatlarni egalladi. Aym paytda, fashizmga qarshi kurash muvaffaqiyatli rivojlana borgani sari Lotin Amerikasi tovarlariga ehtiyoj oshdi va 1945-yilda qit'a iqtisodiyotini keskin o'sishga olib keldi. Birinchi navbatda bevosita qishloq xo'jaligi sohalari: to'qimachilik, teri oshlash, shakar ishlab chiqarish bilan bog'liq tarmoqlar rivojlandi. Biroq bir qator mamlakatlarda sement va elektr energiyasi ishiab chiqarish kabi yangi tarmoqlar paydo bo'ldi; Argentina, Braziliya, Meksika va Chilida metallurgiya sanoati yo'lga qo'yildi; Braziliyada industrlashtirish yiliga 1 million tonna po'lat ishiab chiqarish quvvatiga ega ulkan metallurgiya kombinati, shuningdek aviatsiya motorlarini tayyorlovchi yirik zavod qurilishi bilan tugallandi.

AQSH urush yillarda Lotin Amerikasi iqtisodiyoti va siyosatiga katta ta'sir etishga muvaffaq bo'ldi. U qit'adan o'z raqobatchilarini siqib chiqarib, Lotin Amerikasi mamlakatlariga noteng iqtisodiy va siyosiy bitimlarni zo'r lab tiqishtirdi, o'z harbiy hukmronligini qaror toptirdi. Urush yiliarida AQSH bu joyda 92 ta barbly-havo va harbiy-dengiz bazalarini barpo etdi.

300 dan ortiq turli yo'naliishdagi amerika kompaniyalari qit'a iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini ekspluatatsiya qildi. AQSH 80 foizdan ziyod mis, marganets, oitingugurt, grafit, 70 foiz — boksit va temirrudasi, 65 foiz rux, qalay qazib olish va ishlab chiqarishni nazorat qildi.

Lotin Amerikasi xorijiy kapital importi bo'yicha dunyodagi asosiy mintaqaga aylandi. Bunda AQSH birinchi o'rinda turdi. U qariyb 100 milliard dollarni bu qit'a iqtisodiyotiga kirtdiki, mazkur mahlag' boshqa mamlakatlar kapital mabiag'larining birgalikda olim-

ganidan 20 niarta ortiq edi. Ushbu omil qit'a mamlakatlarida bozor iqtisodiyoti rivojlamishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi va aym paytda uning bирyoqlama rivojlanishi hamda hududiy parchalamishiga imkon yaratdi. Xorijiy monopoliyalar bu mamlakatlardan ulkan foyda va cheksiz boyliklarni olib chiqib ketdi, biroq xalq ahvolini yaxshilashga yordam bermadi.

Aholi daromadlari dunyodagi eng quyi darajada qoldi, uning 60 foizi savodsiz bo'lib, tibbiy xizmatga mehnatkashlarning qurbi yetmasdi. Odamlar katta shaharlar chetidagi faqirona kulbalarda yashadi.

Bu qit'adagi mamlakatlar orasida 1,8 million kishilik aholisi va 71 ming kv km maydonga ega bo'lgan Panama alohida mavqega ega bo'ldi. U Atlantika va Tmch okeanlari o'rtasidagi tor bo'yimi egallaydi. 1903-yilda AQSH kanal qazish uchun Panama bo'yimi hududining bir qismini muddatsiz foydalanishga sotib oladi. Kanal **1920-yil 12-iyunda** ishga tushdi. Uning uzunligi 81 km bo'ldi. U Amerika qit'asiga xizmat qiluvchi dengiz yo'li uzunligini uch marta qisqartirdi va AQSHga katta iqtisodiy foyda keltirdi. AQSH floti Atlantika va Tmch okeami sohillarini birlashtiruvchi qisqa dengiz yo'liga ega bo'ldi va Yevropa davlatlari portlariga yaqin yo'lmi qo'lg'a kiritdi. Har yili kanal orqali 15 mingga qadar kemalar o'tadi va 125 million tonnaga qadar yuk tashiladi. 1977-yilda Panama va AQSH o'rtaida bitim tuzildi, unga ko'ra kanalning amerika zonasini tugatildi va 2000-yil fevralida kanal Panamaning to'liq nazoratiga o'tdi.

Mustaqillik va suverenitet uchun kurash Urushdan so'ng Lotin Amerikasi mamlakatlarining mustaqillik va suverenitet uchun kurashining yangi bosqichi boshiandi. Mamlakatni demokratizatsiyalash va Amerikaning o'z amrimi o'tkazishini tugatishni talab etgan yangi vatanparvarlik tashkilotlarining paydo bo'lishi qit'adagi siyosiy iqlimni ancha o'zgartirdi.

Bunga javoban o'z imtlyozlaridan ajratilishimi istagan konservativ kuchiarning qarshi hujumi boshlandi. **1947-yil sentabrda** AQSH bosimi ostida o'zaro yordam haqida Amerikalararo shartnomasi imzolandi, unga ko'ra AQSH hokimiyat tepasida turgan tuzumlarni qo'llab-quvvatlash, qurolli kuchiarni standartlashtirishni

o'tkazish, Lotin Amerikasi mamlakatlarini qayta qurollantirishni moliyalashtirish majburiyatini oldi, ya'ni amalda qit'ada AQSHning harbiy diktaturasini o'rnatish haqida gap bordi.

50-yillar o'rtalarida qit'aning bir qator mamlakatlarida: Venesuelada — 1950-yilda, Chilida — 1954-yilda mavjud tuzumga qarshi ishchilarning kuchli namoyishlari bo'lib o'tdi. Gvatemala (1951) va Boliviya (1952) da xalq inqiloblari boshlandi.

1952-yil noyabrda Santyagoda (Chili) Boliviya ishchi markazi, Chili yagona kasaba markazi va Argentina kasaba uyushmalarining demokratiyalashtirish va mustaqillik uchun harakati vakillari qo'shma deklaratsiyani imzolashdi, bu deklaratsiyada xorijiy kompaniyalar zo'ravonligiga qarshi kurash va suverentitetni qaror topdirish hamda ilg'or islohotlarni o'tkazishda birdamlikka chaqirildi.

50-yillar ikkinchi yarmida bir qator diktatorlik tuzumlari tugatildi. 1956-yilda xalq noroziliklari bosimi ostida Peru diktatori general Ordiya siyosiy maydonдан ketishga majbur bo'ldi. 1957-yilda Kolumbiyada Roxas Pinilya harbiy-diktatorlik tuzumi barham topdi, 1958-yilning boshlarida esa xalq qo'zg'aloni darajasiga ko'tarilgan umummilliy ish tashlashi Peres Ximenes dikturasini tugatdi.

50-yillar oxirlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida yangi inqilobiyo ko'tarilish boshlandi.

KUBA XX ASR IKKINCHI YARMIDA

Kuba inqilobining g'abalasi	1959-yilning Fidel Castro, uning ukasi Raul Castro, Ernesto Che	1-yanvarida
--	---	-------------

Gevara va Kamilla Senfuegos qo'mondonligidagi milliy vatanparvarlik kuchlari Gavanaga kirib borib, Kubani AQSHning tamaki plantatsiyasiga aylantirgan general R.F.Batistaning amerikaparast tuzumini ag'dardi.

Che Gevara Ernesto (1928—1967) — 1956-yilgi Kuba inqilobining faol qatnashchisi. Kuba Milliy banki prezidenti va Milliy sanoat vaziri lavozimlarini egallagan. 1966—1967-yillarda Boliviyada partizanlar harakatiga rahbarlik qilgan, bu yerda asirga olingan va o'idrlilgan.

Mamlakat hukumatiga **Fidel Kastro** boshchilik qildi. Hukumatning birinchi katta tadbiri yirik zamindor xo'jaliklarini bartaraf etgan agrar islohot bo'ldi. Qisqa davrda aholining turmush darajasi ko'p marta oshdi, mamlakatda bepul tibbiy xizmat amalga oshirildi va o'n yildan so'ng Kuba aholisining barchasi savodli bo'lgan birinchi Lotin Amerikasi mamlakati bo'ldi.



Fidel Kastro Rus.

Kastro Rus Fidel (1926-yilda tug'ilgan) — Kuba davlat arbobi, 1959—1976-yillarda bosh vazir, 1976-yilda — Kuba Davlat Kengashi va Vazirlar Kengashi raisi. Mustaqillik uchun harakatni tashkil etgan va boshqargan. 1959-yilning 1-yanvaridan mamlakat hukumatini boshqaradi.

Shakarqamish yetishtirish rekord darajasiga yetdi (8 million tonna) va bu hukumatga iqtisodiy o'zgarishlarni boshlashga imkon berdi. 20 yil ichida elektroenergiya ishlab chiqarish 5 marta oshdi, metallurgiya, mashinasozlik kabi sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Kuba avtobuslar, radio va televizorlar ishlab chiqarib, kemasozlikni ham rivojlantira boshladи.

AQSHning hukmron doiralari inqilobni iqtisodiy jazolar orqali bo'g'ib tashlashga urindi, ular amerika kompaniyalariga Kubadan shakar sotib olishni man etishdi, unga neft va oziq-ovqat sotishni taqiqlashdi. **1961-yilda** AQSH Kuba bilan diplomatik munosabatlarni uzdi va qurolli bostirib kirishni tashkil etdi. **1962-yilning oktabrida** orol yirik harbiy-dengiz kuchlari, harbiy-havo, dengiz piyodalari, parashyutchilar, strategik aviatsiya birlashmalari yordamida to'liq o'rab olindi. Dunyo termoyadro urushi yoqasiga kelib qoldi. Bu davr "**Karib inqirozi**" nomini oldi. Diplomatik muzokaralar natijasida kelishuvga erishildi. Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti tizimining yaratilishi mam-

lakatning iqtisodiy rivojlanishiga ancha zarar keltirdi. Amalda xususiy sektor yo'q qillindi va bozor munosabatlari asoslari yemirildi. Bu xalq ommasining ahvoliga ta'sir etmay qolmadi.

Mamlakatda oziq-ovqat va eng zarur buyumlar yetishmovchiligi sezildi, me'yorlangan ta'minot kiritildi, tashqi qarz oshdi.

1993-yilda kubaliklarga xususiy korxona ochish va chet el valyutasimi sotib olishga ruxsat berildi. Iqtisodiyotning turistik sohasiga chet el mahlag'i faol jalb etila boshladi. 2002-yil iyundagi referendumda kubaliklarning 99% konstitutsiyaga sotsialistik tizim "daxlsiz" deb e'lon qilinishini kiritish uchun ovoz berishdi. Kuba iqtisodiyoti tez sur'atlarda rivojlanmoqda.

Lotin Amerikasidagi ijtimoiy-siyosiy harakat	Kuba Lotin Amerikasidagi inqilohiy o'zgarishiar jaramoming faqat boshl bo'ldi. Panamada 1968-yilning
---	--

oktabrida general O.Torrixos Errero boshchiligidagi vatanparvarlik kayfiyatidagi harbiylar hokimiyat tepasiga keldi. Bu joyda agrar va soliq islohotlari o'tkazildi. Qariyb bir paytda **Peruda** davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatga vatanparvarlik kayfiyatidagi harbiylar keldi. Ular xorijiy monopoliyalar qo'lida bo'lgan neft kohlari va ayrim tog'-kon korxonalarini natsionalizatsiya qillshdi.

60-yillarda oxirida Lotin Amerikasi ijtimoiy-siyosiy harakatida yangi xususiyatlar yuzaga keldi. Bu xususiyatlar mavjud tuzumlarini ag'darish va hokimiyatni egallashga yo'naltirilgan faoliyatga ega bo'lgan avvalgi siyosiy koalitsiyalardan farqlanuvchi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar vazifalarini o'z oldiga qo'ygan keng koallitsiyalarni yaratishda namoyon bo'ldi.

Bunday koalitsiyalar Chilida 1969-yilda, Urugvayda 1971-yilda va Kolumbiyada 1972-yilda tashkil etildi. Venesuelada ham 1970-yilda "Yangi kuch" nomli koalitsiya tashkil qilindi. Lotin Amerikasida kurashning yangi bosqichi boshlandi. Uning rivojlanishi uchun qulay xalqaro sharoitlar yuzaga keldi. AQSHda noroziliklar, shuningdek, amerika hindularining teng huquq uchun harakati bilan bog'liq siyosiy inqiroz boshlandi.

CHILI. NIKARAGUA. VENESUELA

Chilida xalq birligi koali- tsiyasining g'alabasi

**1970-yilning 4-sentab-
rida** Chili prezidentligi-
ga saylovlarda Xalq

birligi koalitsiyasidan nomzod sosialistik partiyaning sobiq yo'lboshchisi **Salvador Alyende** g'alaba qozondi. Uning hukumati amerika monopoliyalari va mahalliy oligarxiya hukmronligini tugatish, Chilining milliy suverentitetini mustahkamlash va mehnatkashlar ahvolini yaxshilashga yo'naltirilgan radikal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni o'tkazdi.

Xalq birligi koalitsiyasida sotsialistik va kommunistik partiyalar eng asosiy rol o'ynab, mamlakatning barcha tabiiy boyliklarini natsionalizatsiya qildi. Xorijiy banklar ustidan nazorat o'rnatdi. AQSH harbiy-havo kuchlarning bazasi nazorat ostiga olindi. Oylik ish haqi, nafaqalar oshirildi va qashshoq oilalarga nafaqa 100 foizza oshirildi. Ijtimoiy ta'minot, turar-joy qurilishi, sog'liqni saqlash va ta'limga davlat ajratmalari oshdi.

S.Alyende hukumati- ning ag'darilishi

Qit'ada inqilobiy jarayonning bundan keyingi rivojlanishini to'xtatish uchun AQSH

Alyende hukumatini ag'darish bo'yicha operatsiya o'tkazdi. 1973-yil 11-sentabrdagi harbiy to'ntarish general Pinochet va inqilobdan qo'rqib ketgan yirik monopoliya vakillari tomonidan amalga oshirildi. Prezidentlik saroyini zabit etish chog'ida S.Alyende o'ldirildi.

To'ntarishdan so'ng mamlakatda fashistcha tipdagi tuzum o'rnatildi. Hokimiyatga kelgan harbiy qo'mita barcha fuqarolik erkinliklarini man etdi. Milliy kongressni tarqatib yubordi va partiyalarni qonundan tash-qarida deb e'lon qildi. S.Alyende hukumatining barcha iqtisodiy yutuqlari yo'q qilindi va mamlakat o'z iqtisodiy-siyosiy va sotsial rivojlanishida o'nlab yil orqaga itqitib tashlandi.

**Alyende Salvador (1908–1973) — Chili prezidenti
(1970–1973). Chili sotsialistik partiyasi tashkilotchilaridan
biri. 1973-yilgi harbiy to'ntarish paytida o'ldirilgan.**

1980-yilda harbiy xunta yangi konstitutsiyani qabul qildi. General Pinochet mamlakat prezidenti etib tasdiq-

landi, biroq xunta yetti yil davomida mamlakatda siyosiy hokimiyat haqida plebissit (umumxalq ovoziga qo'yish) o'tkazish majburiyatini oldi. 1988-yil 5-oktabrdagi plebissitda chililiklar diktatorga qarshi 56 foiz ovoz berishdi.

1989-yilning dekabrida Chilida barcha muxolifatdagi siyosiy partiylar (markscha partiyalardan tashqari) ishtirokida umumxalq saylovlari bo'ldi. Xristian demokratlar vakili Patrisio Elvin g'alaba qozondi. **1993-yilda** Chili prezidenti etib Demokratiya uchun koalitsiya vakili **Eduardo Frey** saylandi.

Biroq Pinochet boshchiligidagi generallar diktaturasi 1997-yilgacha saqlamib qoldi. Harbiylar o'zlarini konstitutsiyaning kafolati deb e'lon qilishdi. Mamlakatda siyosiy hokimiyatni nazorat etuvchi Milliy xavfsizlik kengashimi tuzishdi. Pinochet bu davr mobaynida qo'shinga boshchilik qildi va mamlakat diktatori bo'lib qoldi. U daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan umrbod senatorlikka tayinlangandan so'nggma bu vazifalardan ketdi.

1998-yilda Angliyaga davolanishga kelgan Pinochet uni diktatura davrida bir necha yuz ispanning o'limida ayblagan ispan prokuraturasi talabi bilan qamoqqa olin-di va 16 oy mobaynida uy qamog'ida saqlandi. Faqat 2000-yilning 3-martida ingliz sudi uming keksa yoshimi hisobga olib, Chiliga jo'natishga ruxsat berdi.

Angliyada Pinochetning taqdiri haqida bahslar bo'layotgan bir paytda Chilining o'zida sotsialistik partiya hokimiyatga keldi. **2000-yilning martida** mamlakat prezidenti etib chililiklarni birlashishga chaqirgan S. Alyendening safdoshi **Rikardo Lagos Eskobar** saylandi.

Nikaraguadagi ingilob-ning g'alabasi 1978-yilda aka-uka Samoslar tuzumi hukmronlik qilgan Nikaraguada xorijiy kom-

paniyalar zo'ravonligiga qarshi chiqqan turli partiya va tashkilotlar kirgan muxolifat tashkil etildi. **1978—1979-yillarda** mamlakatni Sandimochilar milliy ozodlik fronti (SMOF) rahbarligidagi partizanlar harakati qamrab oldi. Reaksiyon tuzum ag'darildi. Hokimiyat tepasiga SMOF keldi.

Yangi hokimiyat uch tamoyil: siyosiy fikrlar xilmalligi, aralash iqtisodiyot va qo'shilmaslik siyosatiga asoslanganadolatli jamiyatni qurishni o'z maqsadi deb e'lon qildi. Samoslarning barcha mulki davlat ixtiyoriga

o'tkazildi, xususiy banklar, tog'-kon sanoati, tashqi savdo natsionalizatsiya qilindi. Sandinochilar xalq qo'shini mamlakat qurolli kuchlarining asosi bo'ldi. Agrar islohot, qishloq xo'jalik kooperatorlari haqida qonun qabul qilindi. **1984-yilning 4-noyabrida** Nikaraguada ilk bor ko'ppartiyaviylik asosida demokratik saylovlar bo'lib o'tdi. Mamlakat prezidenti etib SMOF va uning qurolli kuchlari qo'mondoni **Daniel Ortega** saylandi.

Ortega Saavedra Daniel (1945-yilda tug'ilgan) — 1965-yildan SMOF tarkibiga kirgan, 1981-yildan — unga boshchilik qilgan, 1985—1990-yillarda — Nikaragua prezidenti.

Uning tashabbusi bilan 1988-yilning iyunida mamlakatning barcha siyosiy kuchlari o'rtasida qurolli kurashni to'xtatish haqida bitimga erishildi. Shundan so'ng AQSH "kontras", ya'ni sandinochilarga qarshi qurolli kurash olib borganlarni qo'llab-quvvatlashini to'xtajagini e'lon qildi.

1990-yilning fevralida Nikaraguada umumxalq demokratik saylovleri bo'lib o'tdi. Prezident **Violetto Chamorro** boshchiligidagi o'ng muxolifat hukumati hokimiyat tepasiga keldi. Sandinochilarning bir qismi saylovlar natijasini tan olishdan voz kechdi va mamlakat fuqarolar urushi yoqasiga borib qoldi. Biroq D.Ortega o'z siyosiy mag'lubiyatini tan oldi va o'zining yaqin paytlardagi muxoliflarining hokimiyatga kelishiga rozi bo'ldi. V.Chamorro mamlakatda tinchlik va barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo'ldi.

Liberal partianing o'n yillik boshqaruvi hech qanday ijobjiy o'zgarishlar keltirmadi. Aholining ishtiyoqi tezda so'ndi. Tadbirkorlar islohotlar yo'qligidan hafsalasi pir bo'ldi. Nikaragua g'arbiy yarimshardagi eng kambag'al mamlakat bo'lib qoldi.

2000-yil 6-noyabrdagi mamlakat poytaxti Managua meri lavozimiga sandist etakchilaridan biri saylandi. Bu liberal partianing birinchi mag'lubiyati edi. Biroq, 2001-yil noyabrdagi prezidentlik saylovlarida nomzod Enrike Bolanos g'alaba qozondi.

**Venesueia.
Demokratik inqilob**

Venesuela dunyodagi eng boy neft qazib chiqaruvchi mamlakatlardan biri. 1947-

yilda bu o'lkada ilk bor erkin ko'ppartiyaviy prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi. Biroq harbiy to'ntarish nati-jasida mamlakatda general **Ximenes** diktaturasi qaror topdi. Mamlakatda muayyan muddat ikki partiya — sotsial-demokratik va sotsial-xristian partiyasi hukmronligiga asoslangan barqarorlik o'rnatildi, biroq harbiylar siyosiy hayotni nazorat ostida ushladi.

90-yillar boshlarida jahon bozorida neft narxlari keskin pasaydi. Mamlakatda inflyatsiya 30 foizga ko'tarilib ketdi, turmush darajasi keskin pasaydi. Ayni paytda kompaniyalar daromadi pasaymadi va korrupsiya avj oldi.

Bu sharoitlarda yosh zabitlar maxfiy-inqilobiy tashkiloti — **Inqilobiy bolivarcha harakat—200 (IBH—200)** shakllandiki, Ugo Chaves mazkur harakat yo'boshchisi bo'ldi. S.Bolivar ularning sajda qiladigan kishisi edi.

Bolivar Simon (1783—1830) — Lotin Amerikasining eng mashhur qahramoni. Ispan mustamlakachilariga qarshi milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qilgan. Venesuela, Kolumbiya, Panama, Ekvador, Peru va Boliviyaning ispanlar zulmidan ozod etilishini uning nomi bilan bog'lashadi. B.Simon sharafiga Boliviya uning nomi berilgan, u bu mamlakatda 1825-yildan prezident bo'lgan. 1913-yilda Venesuela Milliy kongressi uni Xaloskor (Liberator) deb e'lon qildi.

IBH—200 ning faollashuviga Karakasda davlat ijtimoiy nafaqalarini qisqartirishga qarshi stixiyali isyon turtki bo'lib xizmat qildi. Uni bostirish minglab kishi-larning halok bo'lishiga olib keldi.

1992-yilning 4-fevralida Ugo Chaves qo'mondonligidagi qo'shin qismlari Karakas ko'chalari bo'y lab marsh yurishini boshladidi. Ular hukumat iste'fosi va Prezidentning lavozimdan olinishi, korrupsiyaga aralash-magan kishilardan harbiy-fuqarolik xuntasini tashkil etish, yangi konstitutsiyani qabul qilish uchun kons-titutsiyaviy Assambleyani chaqirishni talab etishdi. Biroq xalq ularni qo'llab-quvvatlamadi.

Natijada harbiy isyon yo'boshchilari qo'lga olindi va qamoqxonaga tashlandi. Bu yerda ular o'z taktikalarini ko'rib chiqishdi va kurashning zo'rlik ishlatilmaydigan shakllariga o'tish haqidagi xulosaga kelishdi. **1997-yilda** ular katta siyosatga qaytishdi va qisqa muddatda ulkan

yutuqlarga erishishdi. Ular yaratgan partiya Beshinchı respublika harakati deb nomlandi. Uming dasturiy maqsadi “Bolivarcha respublika”ni tashkil etish edi. Partiya atrofida so'l va so'l markazchi partiyalar ittifoqi — **Vatanparvarlik qutbi** yuzaga keldi. U 1998-yilgi parlament saylovlarida g'alaba qozondi. 1999-yilgi prezidentlik saylovlarida esa Ugo Chaves g'alaba qozondi. U plebissit o'tkazish yo'li bilan prezident bo'lgach, mamlakatning yangi konstitutsiyasini tasdiqladi. Yangi parlamentga saylovlarda vatanparvarlik qutbi 90 foiz ovoz oldi. **2000-yilning 1-yanvaridan** mamlakat yangi nom bilan **Venesuela Bolivarcha Respublikasi** deb ataldi.

Ugo Chaves dasturi mamlakatni qashshoqlik va korrupsiyadan ozod etishni ko'zda tutdi. Xalqaro siyosatda yangi Venesuela dunyoni demokratik asosda qayta qurish va Lotim Amerikasi davlatlari Konfederatsiyasini tashkil etish tarafdori bo'lib chiqmoqda. Shu tariqa Venesuelada qon to'kishiarsiz demokratik inqilob ro'y berdi.

Biroq, bu hol neft eksporti daromadlarining katta qismi hisobiga shohona yashashga ko'mkkanlarmi qoniqtira olmasdi. 2000-yil dekabrda yirik tadbirkorlar va profsoyuz namoyondalari U.Chavesni ag'darib tashlash maqsadida umumxalq ish tashlashini uyuشتirdi. U bir necha oy davom etdi va 2002-yil aprelda avjiga chiqib, qurolli qo'zg'olonlar ro'y berdi. Ommaviy harakatni qo'shin qo'llab-quvvatladi. U.Chaves qamoqqa olinib, harbiy lagerga jo'natildi. O'tish davri hukumatini tuzish haqida muzokaralar boshiandi.

Endi ko'chaga xalq chiqdi. Xalq chiqishlari davlatga qarshi kuchiarni chekinishga majbur etdi. U.Chaves hokimiyatga qaytdi. Xalq uning neft daromadlarini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlash yo'lini ma'qulladl. Qariyb butun Lotim Amerikasi U.Chavesni qo'llab-quvvatladi.

Qisqacha mazmuni

- Lotiri Amerikasi mamlakatlarida urushdan keyingi davrda Yevropa davlatlari pozitsiyasining kuchsizlanishi
- AQSHning qit'a iqtisodiyoti va slyosatiga ta'siri, amerika kompaniyalari monopoliyasi
- Xorijiy kapital eksporti — bozor iqtisodiyotini rivojlanishni ta'minlash

- 50-yillar — demokratik kuchlarning erkinlik va suverenitet uchun harakati; Peru, Kolumbiya, Venesuelada diktatorilk tuzumlarining tugatilishi

Kuba respublikasi

- 1959-yili 1-yanvar — Kubada amerikaparast R.Batista tuzumining ag'darilishi

Chili

- 1970-yil 4-sentabr — Chiilda Xalq birligl koailtsiyasining g'alabasi — S.Alyende
- 1973-yil 11-sentabr — S.Alyende hukumatining ag'darilishi. Hokimiyat tepasida — general Pinochet
- 1980-yil — Chiilda yangi konstitutsianing qabul qilinishi
- 1997-yil — Pinochet umrbod senator etib tayinlandi.
- 2000-yil mart — Chili prezidenti — sotsialist R. L. Eskobar

Nikaragua

- 1979-yil — Samoslar diktatorilk tuzumining ag'danlishi
- 1984-yil 4-noyabrdan — president Daniel Ortega
- 1988-yil — Nikaraguada qurolli kurashni to'xtatish haqidagi bitim
- 1990-yil — Nikaragua prezidenti V.Chamorro

Venesuela

- 1977-yil — Venesuelada general XImenes diktaturasining o'rnatilishi
- 1992-yil 4-fevral — muvaffaqiyatsizlikka uchragan harbiy isyon (Ugo Chaves)
- 1998-yil — parlament saylovlariida vatanparvarlik qutbining g'alabasi
- 1999-yil — Venesuela prezidenti Ugo Chaves
- 2000-yil 1-yanvar — Venesuela Boilvarcha Respublikasining tashkil topishi

Savollar

- ? 1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiyoti qanday o'zgardi?
2. F.Kastro tomonidan mustaqillik o'rnatilgandan so'ng islohotlarni o'tkazish jarayonida qanday xatoliklarga yo'i qo'yildi?
3. Siz nima deb hisoblaysiz, nega S.Alyende harbiy to'ntarishning oldini ololmadi?
4. Lotin Amerikasi xalqlari bugungi kunda qanday muammo-larni hal etishi lozim?

VI b o b

**AFRIKA:
OZODLIKNING QO'LGA
KIRITILISHI**



42—43-§§. SHIMOLIY AFRIKA: OZODLIK YO'LI MISR

Respublikaning e'lion qilinishi

Urush tugagandan so'ng Angliya Misrga yangi bitimni tizishtirishga urindi, unga ko'ra ingлизлар бу yerda o'z harbiy bazalarini saqlab qolar va "favqulodda holatlarda" qo'shin kiritish huquqiga ega bo'lar edi. Qirol Foruq va uning qo'g'irchoq hukumati bu bitimni imzoladi. Mamlakatda qirol va uning hukumati xoinligiga qarshi namoyishlar to'lgini keng yoyildi.



J.A.Nosir Afrika davlatlari
bosliqlari kengashida.

1953-yilning iyunida Misrda respublika e'lion qilindi. Ingлизлар mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. 1956-yilning iyunida yangi konstitutsiya qabul qilindi, unga ko'ra Misr demokratik respublika, arab xalqi esa arab millatining bir qismi deb e'lion qilindi. Jamol Abdul Nosir 1956-yilda Misrning birinchi prezidenti bo'ldi.

Suvaysh kanalining natsionalizatsiya qilinishi

o'z manfaatlariga tahdid deb baholab, Misrga qarshi iqtisodiy jazo va harbiy tahdid kompaniyasini boshlab yubordi. Bular ta'sir etmagach, ular ochiq tajovuzkorlikka o'tishdi. 1956-yilning 30-oktabrida Misrga qarshi

Bu bitimni imzolagan Sidqiyposha hukumati istefoga chiqishga majbur bo'ldi. Qirol xalq ishonchi va qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'ldi. 1952-yilning 23-iyulida Jamol Abdul Nosir rahbarligidagi "Erkin zobitlar" vatanparvarlik kayfiyatidagi harbiylar guruhi qirol va hukumatni ag'dardi. Misrda milliy-vatanparvarlik inqilobi ro'y berdi.

1956-yilning iyulida Suvaysh kanalini natsionalizatsiya qilish haqidagi qonun e'lion qilindi. G'arb davlatlari buni

1956-yilning iyulida Suvaysh kanalini natsionalizatsiya qilish haqidagi qonun e'lion qilindi. G'arb davlatlari buni

ingliz-fransuz-isroil birlashgan harbiy tajovuzkor yurishi boshlandi. Sovet Ittifoqining Misrni kuch bilan qo'llab-quvvatlashga tayyorgarligi haqidagi bayonoti tajovuzkorlarni chekinishga majbur etdi. Bu Misr inqilobining ikkinchi muhim g'alabasi edi. Dehqonlar yerga mult huquqini qo'lga kiritgan agrar islohot amalga oshirildi. SSSR bilan texnik hamkorlikda Nilda Asvon to'g'oni qurildi, u elektr energiya ishlab chiqarishni ikki barobar oshirish, paxta va oziq-ovqat ekinlari maydonlarini ancha kengaytirish imkonini berdi.

Nosir Jamol Abdul (1918–1970) — Misrning 1956-yil-dan prezidenti, Arab sotsialistik ittifoqining asoschisi va 1963-yildan birinchi raisi. 1952-yilning 23-iyulida harbiy to'ntarishni tayyorlagan va tashkil etgan "Ozod zabitlar" tashkiloti asoschisi va rahbari.

**Ichki va tashqi
siyosatdagi
o'zgarishlar**

Jamol Abdul Nosirning 1970-yildagi o'limi Misrning ichki va tashqi siyosatida tub o'zgarishlarga olib keldi.

Mamlakatning yangi rahbariyati g'arparastlik siyosatini amalga oshira boshladi va Isroil oldida taslimchilik yo'liga o'tdi. Prezident **Anvar Sadat** g'arb davlatlari, birinchi navbatda Amerikaning xususiy kapitalini keng tatbiq eta boshladi. Iqtisodiyotga Xalqaro valyuta jamg'armasi mablag'larini investitsiya sifatida jalg etishga urinish 1977-yilda ommaviy noroziliklarga olib keldi, chunki davlat korxonalari uchun subsidiyalarni qisqartirish, milliy valyuta kursini o'zgartirish va foiz stavkalarini erkinlashtirishni dastlabki shart sifatida talab etdi.

1979-yilda Misr AQSH rahnamoligida separat (bir tomonlama) isroil-misr tinchlik shartnomasini imzoladi. Arab mamlakatlari bu bitim uchun A.Sadatni kechira olmadi, Misr bilan diplomatik munosabatlarni uzdi va mamlakat "Islom konferensiysi tashkiloti"dan (IKT) chiqarildi. **1981-yilning 6-oktabrida** A.Sadat musulmon diniy tashkilotiga tegishli bir guruh harbiylar tomonidan o'ldirildi.

"Islom konferensiyasi tashkiloti" — xalqaro hukumatlararo tashkilot. Rabatda musulmon mamlakatlari davlat va hukumatlari rahbarlari konferensiyasida tashkil etilgan. Diniy mushtaraklik asosida 44 musulmon davlatlari, shuningdek, FOTni birlashtirdi. IKT qoshida Islom rivojlanish banki mavjud. 1975-yildan IKTga BMT kuzatuvchisi maqomi berilgan.

80—90-yillardagi ichki va tashqi siyosat

1981-yil 14-oktabrda Misr prezidenti etib vitse-prezident **Husni Muborak** (1928-yilda tug'ilgan) saylandi. U asosan o'zidan avvalgi prezident siyosatini davom ettirdi. Kemp-devid bitimlarini imzolaganidan so'ng Misr 10 yil mobaynida AQSHdan 20 milliard dollar qarz oldi, shundan 12 milliard dollari qo'shinni qayta qurollantirishga sarfladi.

Biroq neft va paxtaga jahon narxlarining tushib ketishi Misr iqtisodiyotini chuqur inqirozga olib keldi, "sovuj urush"ning tugashi Misrning xalqaro munosabatlardagi ahamiyatini pasaytirdi. 80-yillar oxiri — 90-yillar boshlarida ro'y bergan jahondagi iqtisodiy pasayish Misrni arab mamlakatlari, Afrika va Sharqiy Evropadagi an'anaviy bozorlardidan mahrum bo'lishga olib keldi. Mamlakatda 60 milliard dollarlik ulkan tashqi qarz yuzaga keldi. Ular bo'yicha Misr har yili 10 milliard dollar foizlarni to'laydi. Mamlakat importi 12, eksporti 4,5 milliard dollarni tashkil etadiki, bu yillik balans kamomadi 4,5 milliard dollarni anglatadi demakdir. Qarzning bir qismini hukumat sayyohlik va Fors qo'lltig'iga ishga jo'nagan misrliklarning pul tushumi hisobiga qoplaydi. Iqtisodiy ahvol yildan-yilga yomonlashmoqda. Narxlar har yili o'rtacha 12—15 foizga o'smoqda.

H.Muborak Misrning arab dunyosida yakkalanib qolishini bartaraf etishga muvaffaq bo'lди, biroq mamlakatni arab millatining tan olingen yetakchisi pozitsiyasini tiklab bo'lmadi. 1983-yilda Iordaniya bilan, 1988-yilda — Aljir, 1989-yilda — Suriya bilan diplomatik munosabatlar tiklandi. 1984-yilda IKT Misrni tashkilotga a'zoligini tikladi.

H.Muborak A.Sadatning faqat AQSH bilan hamkor-

lik qilishni mo'ljallagan bir tomonlama siyosatidan uzoqlashdi va Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarga muhim ahamiyat berdi. 1988-yilda iqtisodiy, savdo va fan-texnika hamkorligi haqida sovet-misr bitimi imzolandi.

Islom fundamentallizmining faollashuvi

Misr boshidan kechirgan iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar islom fundamentalizmimning tiklamishiga olib keldi, u A.Sadat o'ldirilgandan so'ng qatag'onlar natijasida o'z ta'sirim yo'qotgandi. Bunga 39 ming kishilik Misr harbiy kontingentining AQSH tomonida "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasida ishtirok etishi uchun jo'natilishi ham yana bir sabab bo'ldi.

1991-yildan so'ng mamlakatda islom fundamentalistlarining uch guruhi — **Islom guruhi, Islom jihodi va Musulmon birodarlari** mavjud bo'ldi. Islom terrorchiligi faollashdi. H.Muborakka bir necha bor (1993, 1995 va 1999-yillarda) suiqasd amalga oshirildi. Aym paytda fundamentalistlar kurashning yangi shakllarini o'zlashtira boshiashdi. Ular kasaba uyushmalarida rahbarlikni egalashdi, ochlik, ish tashiashlari va kompyuter tarmoqlarida buzilishiarni tashkil etishdi.

Hukumat ommaviy qatag'onlar bilan javob berdi. Terrorchilikka qarshi operatsiyalar natijasida dimy guruhiarning 60 vakili o'ldirildi, 1996-yilda harbiy sudlar islom fundamentalistlariga tegishlilikda shubhalanilgan 48 kishimi dor ostiga jo'natди. Bu hol ularning o'z taktikasini o'zgartirishga majbur etdi. **1996-yilda** Islom guruhi yangi siyosiy partiya — Markaz Partiyasini tashkil etdi, u terrorizmdan voz kechish va kurashning tinch usullariga o'tishni e'lon qildi. Musulmon birodarlari ham unga qo'shildi. Faqat Islom jihodi ilgarigi usullaridan voz kechmadi.

Markaz partiyasi va Musulmon birodarlari konstitutsiyaviy islohotlar, mamlakatning barcha siyosiy kuchiari ishtirokidagi muloqot, adolatli qonunlarni tashdiqlash, turli ijtimoiy guruhiar o'rtaсидagi tengsizliklarni qisqartirish va ishsizlikni tugatishni talab qiladi.

Joriy konstitutsiyaga muvofiq (**1971-yilda**) prezident avval hokimiyatning oliy qonunchilik organi — Milliy majlis tomonidan saylanadi, uning 40 foiz deputatlarini

o'zi tayinlaydi, so'ngra nomzodi xalq referendumi tomonidan tasdiqlanadi. H.Muborak mamlakat rahbari etib to'rt marta (1981, 1987, 1994 va 1999-yillar) saylangan.

Tarixiy ma'lumot

MISR HUKMDORLARI

qirollar

1922—1936 — Ahmad Faud I
1936—1952 — Faruq
1952—1953 — Ahmad Faud II

prezidentlar

1953—1954 — M.Najib
1954—1970 — J.A.Nosir
1970—1981 — A.Sadat
1981-yildan — H.Muborak

Qisqacha mazmuni

- 1952-yil 23-iyul — Jamol Abdul Nosir rahbarligidagi miiyii vatanparvarlik inqilobi
- 1953-yil iyun — Misr respubiika deb e'lon qilindi
- 1956-yil — Misrning birinchi prezidenti — J.A.Nosir
- 1956-yil iyul — Suvaysh kanallning natsionalizatsiya qilinishi
- 1956-yil 30-oktabr — Misrga qarshi muvaffaqiyatsiz ingiiz-fransuz-isroii tajovuzkoriigi
- Agrar islohot: yerlarni dehqonlarga berish
- 1970-yıldan — president Anvar Sadat — g'arb-parastlik siyosati
- 1981-yil — A.Sadatning o'Idirilishi
- 1981-yil 14-oktabr — prezident Husni Muborak: arab dunyosida siyosiy yakkalanishga qarshi
- 80-yiliar oxiri — 90-yillar boshi — iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklar; islam fundamentalizmi ta'sirining o'sishi
- 1996-yil — islamchilarining tinch kurash vositalariga o'tishi
- 1999-yil — H.Muborakning yangi prezidentlik mudatiga saylanishi

JAZOIR

Mustaqillik uchun kurash

XIX asr o'rtalaridan Jazoir fransuz mustamlakasi edi. U iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda Fransiyadagi siyosiy hayotni radikallashtirish jarayonlari bilan yaqindan bog'liq bo'lib, bu hol mustaqillik uchun kurashishga burilishni oldindan belgilab berdi.

1954-yilning apreldida Jazoirda birlik va harakatlar inqlobiy qo'mitasi tuzildi, keyinchalik u Milliy Ozodlik Frontiga (MOF) aylantirildi. Uning chaqirig'i bilan 1954-yilning 1-noyabrida Jazoirning janubi-sharqida umummilliy inqlobga o'sib o'tgan quroll qo'zg'olon boshiandi. MOF dasturi Jazoir mustaqilligi uchun kurash, demokratik respublika tuzish, agrar islohotni amalga oshirish, ishiab chiqarish asosiy vositalarini natsionalizatsiya qilishni ko'zda tutdi. 1958-yilda MOF negizida **Jazoir respublikasi muvaqqat hukumati** tuzildi.

Fransuz mustamlaka hukumati aljirlik vatanparvarlarga qarshi ulkan qo'shin va qatag'on apparatini ishga soldi. Mustaqillik uchun kurashda 1 million aljirlik halok bo'ldi (9 million aholidan) va 2 millionga yaqin kishilar qamoqxonalarga tashlandi. Jahon jamoatchiligi fransuz hukumatining xatti-harakatlarini qoraladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari Aljir respublikasi Vaqtli hukumati ni tan oldi.

Evian bitimlari. AXDR e'lom qilinishi

1962-yilning 18-martida Evian shahrida jazoir-fransuz munosabatlarini belgilab beruvchi bitimlar imzolandi. Jazoir mustaqil deb e'lom qilindi va **Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi** deb nomlandi. MOF yo'boshchisi **Ahmad bin Bella** hukumatga boshchilik qildi.

Evian bitimlaridan keyin ayrim yevropalik mustamlakachilar mamlakatni tark etdi, boshqalari esa hukumatga ochiqchasiga qarshilik ko'rsatish yo'liga o'tdi. Bunga javoban respublika rahbariyati joylarda korxonalar ishlarini yo'lga qo'yish uchun o'z-o'zini boshqarish qo'mitalarini tashkil etdi. Tez orada Bin Bella hukumati mulkdorlar tashlab ketgan sanoat korxonalarini va yerlarni natsionalizatsiya qilish haqida dekret chiqardi.

1963-yilning oktabrida fransuz mustamlakachilariga

tegishli bo‘lgan barcha yerlar o‘z-o‘zini boshqarish qo‘mitalariga berilishi, yerlarni dehqonlar o‘rtasida taqsimlanishi ko‘zda tutilgan yangi dekretlar qabul qilindi.

MOF boshqaruvi 1965-yilda MOF rahbariyatida Bin Bella boshchiligidagi mo‘tadil siyosiy yo‘l va mudofaa vaziri polkovnik Xuari Bumeden (1925—1978) boshchiligidagi keskin totalitar yo‘l tarafдорлари o‘rtasida bo‘linish yuz berdi. 1965-yilning 19-iyunida to‘ntarish natijasida Bin Bella MOF yo‘lboshchisi va prezidentlik lavozimlaridan olib tashlandi, **X.Bumeden** esa o‘zini Inqilobiy Kengash prezidenti deb e’lon qildi.

Bin Bella Ahmad Muhammad (1916-yilda tug‘ilgan)—MOF yo‘lboshchisi, Jazoir respublikasi prezidenti (1962—1965). Harbiy to‘ntarish natijasida ag‘darilgan. 1979-yilda Fransiyaga chiqarib yuborilgan. 1990-yilda Jazoirga qaytgan va siyosiy faoliyatini tiklagan, Demokratik Jazoir uchun harakatini tashkil etgan.

X.Bumeden 1976-yilgacha Jazoirda hukmronlik qildi, shu yili prezident etib saylandi. U xuddi Liviyadagi kabi zohidona islom sotsializmi tarafdori edi. Uning vafotidan so‘ng 1978-yilda MOF raisi **Benjedid Shadli** uning o‘rnini egalladi va X.Bumeden tuzumining keskin xususiyatini yumshatishga intildi. U Fransiya bilan yaqin aloqalar o‘rnatdi, 1981-yilda esa Tehrondagi amerikalik garovga olinganlarni ozod etishda vositachilik qildi.

1984-yilda B.Shadli yana mamlakat prezidenti etib saylandi, biroq MOFning ahvoliga putur yetdi. Neftga nisbatan jahon narxlarining pasayishi ommaviy bo‘lma-gan choralarни ko‘rishga majbur etdi, bu hol esa aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi. Mamlakatning ikki asosiy shahri — Jazoir va Oranda 1988-yilning oktabrida islom fundamentalistlarining isyonи yuzaga keldi. Bu kunlarda 150 dan ziyod kishi halok bo‘ldi. Faqat B.Shadlining ijtimoiy va siyosiy islohotlarni o‘tkazishga bo‘lgan va dasigina hukumatga qarshi harakatning kuchayib ketishini to‘xtatdi.

**Islom fundamentalistlarining faollashuvi.
Fuqarolar urushi**

1989-yilda prezidentlik hoki-niyatini kuchaytiruvchi yangi konstitutsiya qabul qilindi. MOF hukumatga monopoliyan voz kechdi. Muxolifatdagi partiyalar va islom

fundamentalistlarining faoliyatiga yo'l ochildi. 1989-yilda tuzilgan Islom milliy qutqarish fronti mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarda g'alaba qozondi. U va MOF o'rtasida qarama-qarshilik davri boshlandi.

1991-yilning noyabrida Jazoirda umumxalq parlament saylovlari bo'lib o'tib, unda yana islom fundamentalistlari g'alaba qozondi. Qo'shin saylov natijalarini tan olishdan bosh tortdi. Bunga norozilik belgisi sifatida B.Shadli iste'foga chiqди. Uning o'mini **Muhammad Budiar** egalladi, biroq 1992-yilning 1-iyunida u islom fundamentalistlari tomonidan o'ldirildi, 2-iyunda esa qo'shin **Ali Karini** prezident deb e'lon qildi. Bu Jazoirda butun 90-yillar mobaynida davom etgan fuqarolar urushining boshlamishi edi.

1999-yil aprelda qo'shin yordamida hokimiyatga **Abdul-Aziz Buteflika** keldi. Biroq, mamlakatda timchlik va barqarorlikka erishilmadi. Qo'shin rahbariyati davlatni boshqarishda o'z vakolatlarini kengaytirishni talab qildi. Buteflika qotillik va terrorizmga aralashmagan islom jangarilariga amnistiya e'lon qildi. Shu yo'l bilan milliy kelishuvga umid qildi. 2001-yilda terroristik hurujlarning yangi to'lqini boshiandi. Kabiliya viloyatida yashovchi berber qabilalari ham hukumatga qarshi kurashga kirdi. Aljirda fuqarolik urushi davom etmoqda. Uning rahbarlari mamlakatda xalqaro vositachilar kirishini istamaydi.

Qisqacha mazmumi

- XIX asr o'rtalaridan — fransuz mustamlakasi
- 1954-yil 1-noyabr — qurolli qo'zg'olon inqilobga aylandi
- 1958-yil — Jazoir respublikasi Vaqtil hukumati tashkil topdi.
- 1962-yil 18-mart — Evian bitimlari — Jazoir mustaqil davlat deb e'lon qilindi (AXDR). Hukumat rahbari Ahmad bin Bella
- Yevropalik mustamlakachilarning qochishi, hukumatga qarshiilk ko'rsatishi, natsionalizatsiya
- 1963-yil — yerlar o'z-o'zini boshqarish qo'mitalariga berildi va dehqonlar o'rtasida taqsimlandi.
- 1965-yil — to'ntarish; X.Bumeden — Inqilobiy Kengash prezidenti, islom sotsializmi tarafdon
- 1978—1992-yillar — prezident B. Shadli: ilgarigi tuzumni yumshatish

- 1989-yil — yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi: prezidentlik hokimiyatining kuchsizlanishi; islam fundamentalistlarining faollashuvi
- 90-yillar — MOF va Islom milliy qutqarish fronti o'rtaida qorolli qarama-qarshilik

LIVIYA

Mustamlakachilik bilan kurash

Birinchi jahon urushi arafasida Liviya Italiya tomonidan bosib olindi. Ikkinci jahon urushidan so'ng mamlakatni ingliz va fransuz mustamlakachi-lari boshqardi. **1951-yilda** hokimiyatni qonuniylashtirish uchun mustamlakachilar eng qadimgi musulmon mazhabi — sanusitlar vakilini **Idris I** nomi bilan Liviya qiroli deb e'lon qildi, u mustamlakachilarning ashaddiy tarafdoriga aylandi. 1953-yilda u Anghyaga Liviya huddida harbiy bazalarni joylashtirish huquqini berdi, 1954-yilda esa bunday bitim AQSH bilan ham imzolandi. Liviya ingliz-amerika harbiy platsdarmiga aylandi, u Afrikada mustamlakachilik saqlanishining kafolati bo'lishi lozim edi.

Liviya Arab Respublikasining e'lon qilinishi

Idris 1 ning g'arbparastlik siyosati norozilik uyg'otdi va 1969-yilning 1-sentabrida **Muammar Kaddafiy** boshchiligidagi zabitlar guruhi harbiy to'ntarish qildi va monarxiya tuzumini ag'dardi. Mamlakat **Liviya Arab Respublikasi** deb nomlandi.

Yangi respublika rahbariyati suveremitetga erishish va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishiarni amalga oshirishda qat'iyligini bayon etdi. 1970-yilning martida Angliya o'z harbiy bazalarini ko'chirishga majbur bo'ldi, iyunda esa AQSH ham shunday yo'l tutdi.

M. Kaddafiy. Respublikaning e'lon qilinishi

Hokimiyatning oliy organi deb Umumiy xalq kongressi (UXK) e'lon qilindi. M.Kaddafiy unga boshchilik qildi. Respublika **Xalq Liviya Arab Jamoxiriysi (xalq hokimiyati)** deb nomlandi. M.Kaddafiy "1-sentabr inqilobi yo'boshchisi" deb e'lon qilindi va Liviya respublikasining yakkashaxs boshlig'i bo'ldi.

Kaddafiy Muammar (1942-yilda tug'ilgan) — 1969-yilning 1-sentabridan 1977-yilning martigacha — Inqilobiy qo'mondonlik kengashi raisi, 1970—1972-yillarda — bosh vazir, 1977-yildan — Liviya Arab Jamoxiriyasi boshlig'i.

50-yillar ikkinchi yarmida Liviyada yirik neft konlari ochildi, neft qazib chiqarish iqtisodiyotning asosiga aylandi va mamlakat milliy daromadining tezkor oshishiga imkon yaratdi. Liviyada neft qazib chiqarish ruxsatiga ega barcha xorijiy kompaniyalar to'liq yoki qisman (51 foizga) natsionalizatsiya qilindi. Davlat mamlakatda neft mahsulotlarini sotish va taqsimlashni o'z qo'liga oldi. Shuningdek, milliy neft-kimyo sanoati va neftni olib chiqib ketish uchun o'z tanker floti tashkil etildi.

Respublika rahbariyati aralash tipdag'i iqtisodiyotni shakllantirdi. Unda qudratli davlat sektori barpo etildi, bunga neft, neft-kimyo sanoatidan tashqari banklar, sug'urta kompaniyalari va yirik davlat qishloq xo'jalik birlashmalari, transport, tashqi savdo qurilish kompaniyalari kirdi. 1978-yilning sentabrida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar, ularda band bo'lган ishchi va xizmatchilar qo'liga o'tdi. Ular o'z korxonalarini saylanadigan xalq qo'mitalari orqali boshqarishga kirishdi.

Mamlakatda kooperativ harakat va individual tadbirkorlikni rivojlantirish rag'batlantirildi, odamlarni ekspluatatsiya qilish xususiyatiga ega bo'lmanan istalgan xo'jalik faoliyatiga ruxsat berildi. Tadbirkorlar suiiste-molchiliklarini cheklash uchun Respublika hukumati majburiy eng kam oylikni oshirdi, kvartira haqini kamaytirdi, tibbiy xizmat, maktab va universitetlarda o'qitish bepul bo'ldi. Ilg'or daromad solig'i kiritildi.



Muammar Kaddafiy.

Imkomiyat jihatidan dunyodagi eng boy mamlakatlar-
dan biridir. Har yill mamlakatda 110 million tonna neft
qazib olinadi. Germamiya, Fransiya va Italiyaga eksport
qilinadi. Neft sotishdan tushgan tushum 10 milliard dol-
larga yaqin mahlag'ni tashkil etadi.

**Mamlakatning yangi
mafkarasi** Liviya rahbariyati asosida
arab millatchiligi va islom
bo'lgan **islom sotsializmi** deb

nomlangan o'z mafkurasini ishiab chiqdi. Liviyada shari-
at huquqlari hukmon va musulmon qonunlari bajarilishi
ustidan qat'iy kuzatiladi.

Liviya rahbariyati boshqaruvning respublika shakllari
va parlament demokratiyasini rad etadi. Ko'zbo'-
yamachilik, umumxalq saylovleri esa maynavozchilik
sifatida baholanadi. Buning o'mniga urug'chilik-qabilaviy
demokratiya va xalq hokimiyati olg'a suriladi. Iqtisodiy
tizimning tagzamini teng taqsimotga asoslangan sotsia-
lizmdir. Uning mohiyati lishlab chiqarilgan mahsulotni
taqsimlash ustida boradi: har bir kishi bir xil ulushni
olishi kerak, iste'mol qilishda o'z-o'zini cheklashga
erishishi lozim.

Liviya jamoxiriyanining iqtisodiy konsepsiysi oylik
ish haqini man etish, natural almashinuvga qaytishni
ko'zda tutadi. Foyda olish iqtisodiyotni rag'batlantiradi,
biroq u haddan ortiq shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga
emas, balki butun jamiyat ehtiyojlari yo'lida foydalam-
lishi lozim. Sekin-asta mehnat barcha jamiyat a'zolari
ehtiyojlarini qondirish yo'lida foydani tugatishga olib
kelishi lozim.

Bu ko'p jihatdan xomxayol va konservativ dastur na
ijtimoiy, na iqtisodiy muammolarini hal eta olmas edi.
U milliy tadbirkorlar tashabbuslarini to'xtatib qolib,
Liviyaning ulkan potensial imkoniyatlarini ro'yobga
chiqarishni qiyinlashtirdi.

**Liviyaning tashqi
siyoati** 1986-yllning 15-aprelida
Amerika bombardimonchilari
M.Kaddafiyning Tripolidagi

qarorgohiga bomba zARBalarini berdi. U mo'jiza tufayli
o'limdan omon qoldi.

AQSH Liviyani Isroiilning asosiy dushmani sifatida
tugatishmi miyat qilgandi. Kaddafiy Y.Arofat bosh-
chiligidagi FOTni qo'llab-quvvatlab keldi, unga jangchi-
lar ta'minoti uchun yirik mablag'lar ajratdi, Tripolida

FOT rezidensiyalardan biri joylashgan. U Isroilning A.Sadat bilan bitimini keskin qoraladi. 1978-yilda Liviya-Misr chegarasida yuzaga kelgan murakkab ahvol ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq uzishgacha borib yetdi.

Liviya Arab davlatlari ligasi, neft eksportchilari tashkiloti (OPEK), Qo'shilmaslik harakati, 1989-yilning fevralidan — Arab Mag'ribi ittifoqi a'zosidir. Shu bols u tashqi siyosatda xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanishi-ga ishonadi. Ayni paytda bir qator yirik g'arb davlatlari Liviya neftining uzlusiz yetkazb berilishidan manfaat-dor va bu ham mamlakat xavfsizligining kafolatidir.

Qishioq xo'jalik ishiab chiqarishi rivojlanmaganligi sababli neftdan keladigan dollarning ko'p qismi oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga ketadi. Qishioq xo'jaligida mamlakat aholisining 16 foizigina mashg'ul, xolos. Iste'mol buyumlari, transport, yengil avtomobil-lar, samolyot, quro'l-aslahani Liviya sotib olishga majbur. Neftdan tushadigan katta pul miqdorining ancha qismi nolshiyab chiqarish xarajatlariga ketadi va shu bois ilmiy-texnika rivojlanishi hamda iqtisod o'sishi mexanizmini yaratmagan.

1988-yil 21-dekabrda Lokerbi nomli shotland qishioq'i ustida 259 yo'lovchisi bo'lgan Boing-247 samolyoti portlatildi. Liviya razvedkasining ikki xodimi-ga shubha tushdi, biroq Kaddafiy ularni xalqaro sud qo'liga topshirishdan bosh tortdi. Liviya xalqaro yakkalanib qoldi. 1992-yilda BMT Liviyaga qarshi savdo sanksiyalarini va aviatsiya aloqasiga taqiqlashlar kiritdi. Liviya iqtisodiyotida xaos boshlandi. Inflyatsiya qariyb 20% ga yetdi, aholining 30% esa ishsiz qoldi. Kaddafiy shubha qilinayotganlarmi berishga majbur bo'ldi. Sanksiyalar olib tashlandi va Yevropa kapitali yana Liviyaga kirib keldi. Liviya aviaterrorizm qurbanlari uchun kompensatsiya to'lashga rozi bo'ldi.

Qisqacha mazmuni

- XX asr boshi — Italiya mustamlakasi
- Urushdan keyin — Angliya va Fransiya mustamlakasi
- 1953-yil — Angliya, 1954-yil AQSH harbiy bazalari-ning joylashtirilishi
- 1969-yil 1-sentabr — Muammar Kaddafiy

- boshchiligidagi harbiy to'ntarish, monarxiyaning ag'darilishi, Liviya Arab Respublikasi deb e'lon qilindi
- Mamlakatda xalq hokimiysi o'rnatildi
 - Mamlakat rahbari — M.Kaddatiy, mamlakat Liviya Xalq Arab Jamoxiriysi deb qayta tashkil topdi
 - 50-yiliar — yirik neft konlarining topilishi
 - Barcha xorijiy kompaniyalarning natsionalizatsiya qilinishi
 - 1987-yl noyabr — kooperativchilik harakatining rivojlanisbi, aholi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarining kengayishi (bepul ta'lif va tibbiy xizmat ko'rsatish) Ideologiya — islom sotsializmi; shariat hukmronligi
 - Respublika boshqaruvi shakli va parlament demokratiyasidan voz kechish, iqtisodda — tenglashtiruvchi sotsializm
 - 1986-yil 15-aprel — Isrolining asosiy dushmani sifatida M.Kaddafiy shtab-kvartirasining bombardimon qilinishi

TUNIS

Tunis 1956-yilda mustaqillikka erishdi. 1957-yil iyulda monarxiya o'rnatildi va Tunis respublika deb e'lon qilindi. Faqat **1963-yil oktabrda** Fransiya o'z harbiydengiz bazasini Bizertidan ko'chirdi va Tunis to'liq suveren bo'lib oldi.

Tunis g'arbparastlik qarashlarini yoqlovchi yagona arab mamlakati. 1969 va 1975-yillarda mamlakat hukumi YII bilan bitim tuzgan. Tunis, shuningdek, Arab davlatlari ligasi va 1989-yilda tashkil topgan Arab Mag'ribi Ittifoqi a'zosi sanaladi.

Mustaqillikka erishgach, hokimiyatga mustamlaka davrida tashkil topgan **Sotsialistik dastur** (dastur arabchada — konstitutsiya) partiyasi (SDP) keldi. Uning vakili **Xabib Burg'ib** mustaqil Tunisning birinchi prezidenti etib saylandi. Mamlakat hukumatining ichki siyosati "**sotsializmi dasturi**" doktrinası bo'lib qoldi. U iqtisodning davlat, kooperativ va xususiy sektorini birlashtirish hamda aholl barcha qatlamlarini birlashtiruvchi "sotsializm pakti" deb nom olgan doirada millat birligini mustahkamlashni ko'zda tutadi.

Burg'ib Xabib ibn Ali (1903–1995) — Tunisning 1957-yildan 1987-yilgacha prezidenti. 1934-yildan Sotsialistik dastur partiyasini boshqargan. Mo'tadil sotsialistik Islohotlar tarafdori.

Sotsialistik dasturga muvofiq 1969-yilda ilgari fransuz mustamlakachilari va xususiy zamindorlariga tegishli davlat yerlari sotila boshlandi (xususiy lashtirildi). Tunisda mustaqil respublika tayanchi — mayda va o'rta yer egalari paydo bo'ldi. 60-yillar o'rtalarida Tunis hukumati hukumat sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qildi, biroq shu bilan birga 1974-yilda milliy burjuaziya va chet el sarmoyadorlariga muhim imtiyozlar va kafolatlar berildi.

Shunday bo'lsa-da, "ijtimoiy pakt" amalga oshmadi. Og'ir ijtimoiy muammolar xalq va hukumat qarama-qarshiligini keltirib chiqardi. Ayniqsa, 1970-yilda keskin iqtisodiy siyosat yurgizgan yirik moliyachi **Xodi Nuira** bosh vazir etib saylangach, mamlakat ichki siyosati o'ta keskinlashdi.

1978-yilning yanvarida kasaba uyushmalari yirik ish tashlashlar o'tkazdi va bu bostirildi. Bu yangi siyosiy kuchlarni keltirib chiqardi. 1981-yilda Islom oqimi harakati tashkil etildi va tez orada partiya (IOP) nomini oldi.

1980-yilning fevralida Xodi Nuira vafot etgach, yangi bosh vazir **Muhammad Mazali** (1924-yilda tug'ilgan) liberal islohotlar bilan ahvolni o'nglashga urindi, biroq bu yetarli naf bermadi. 1981-yilda SDP siyosiy plyuralizm tamoyilini e'lon qildi va noyabrda ko'ppartiyali demokratik saylovlar o'tkazildi. Hukumat ochiq kurashda g'alaba qozonsa-da, islom fundamentalistlari yana dinga qarshi ommaviy chiqishlarni boshlab yubordi.

Harbiylar mamlakat siyosiy hayotini o'z nazorati ostiga olishga qaror qildi. M.Mazali bosh vazir lavozimidan ketishga majbur bo'ldi va uning o'rnini general **Ben Ali** (1926-yilda tug'ilgan) egalladi. **1987-yil 7-noyabrda** u Burgibuni yengib, mamlakat prezidentligiga saylandi. Ben Ali xalqaro majburiyatlarga sodiqligini bildirdi va siyosiy plyuralizm asosida yo'nalish olib borish hamda demokratiyanı mustahkamlashga va'da berdi. 1988-yildan boshlab Demokratik konstitutsiyaviy bir-

lashuv deb atala boshlagan partiya prezident siyosatini qo'llab-quvvatladi.

Shu yili mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi, u demokratik tamoyillar asosida tuzilgan edi. Barcha siyosiy partiyalar rahbarlari mamlakat rivojlamishining asosiy yo'naliishlari bilan kelishuv to'g'risida Milliy paktri imzoladi. 1993-yilda barcha siyosiy partiyalar ishtirokida parlament saylovlari o'tkazildi. Biroq, hukumat rejasini amalga oshirish islom fundamental guruhlari qarshiligi tufayli murakkahlashmoqda.

1999-yil oktahrda prezidentlik saylovlarida Ben Ali g'alaba qildi. Siyosiy barqarorlik iqtisodiy ahvolni yaxshilashga imkon yaratdi. Tunis chet el kapitali uchun e'tiborni tortadigan yurtga aylandi. U Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya bilan yaqm iqtisodiy aloqalarni o'rnatdi.

Qisqacha mazmumi

- 1957-yil — Tunis respublika deb e'lon qilindi
- Tunisning asosly siyosati — "dastur sotsializmi" doktrinasi
- 1981-yil — Islom oqimi harakati
- 1987-yil — hokimiyat tepasida harbiylar (general Ben Ali)

Savollar

- ? 1. Misr qaysi yili va qanday qilib mustamiakachilik zulmidan ozod bo'ldi?
2. Milliy-vatanparvarlik oqimidan so'ng mamiyatda nima o'zgardi?
3. Mamlakat ichki siyosatida A.Sadat tomonidan qanday xatoga yo'i qo'yildi?
4. Misrdagi quroilli qo'zg'oion nima uchun mag'lubiyatga uchradi?
5. Evian kelishuvi to'g'risida nimalar bilasiz? Mazkur kelishuv Jazoir uchun qanday oqibatlarni keltirib chiqardi?
6. Liviya Arab respublikasi mustaqlligi qay yo'sinda amaiga oshirildi?
7. M. Kaddafi qanday islohotlarni amalga oshirdi va e'lon qilingan jamoxiriya siyosatining mohiyati nimalardan iborat edi?

44-§. TROPIK AFRIKADA MUSTAMLAKAGRILIKNING BARHAM TOPISRI

Mustamlakachilik tuzu- 1957-yil 6-martda inglizlar
mining tugatilishi mustamlakasi sanalmish Oltim qirg'oz Afrikaming mustaqil **Gana** davlatiga aylandi. **1958-yil 28-sentabrda** **Gvineya** ham mustaqillikka erishdi. Tropik Afrikada mustamlakachilik tuzumi yemirilish davri boshiandi. 1960-yilning oxiriga kelib, Afrika hududida mustamlaka mamlakat deyarll qolmadi. Shu yilning o'zida Yevropa davlatlarining sobiq 17 ta mustamlakasi mustaqillikka erishdi. 60-yillar oxiriga kelib esa butun Afrika ozodlikka chiqdi.

Mustamlakachillkning qisqa vaqt ichida tugatilishida urushdan keyin butun dunyoda yuz bergen o'zgarishlar katta ahamiyat kasb etdi. Irqchilikni targ'ib etgan va hoshqa xalqlarni asoratga solish siyosatini yurgizgan gitlerchilar Germamiyasi mag'lub bo'lgach, mustamlakachilik yangi ma'naviy qadriyatlarga butunlay yot narsa bo'lib qoldi.

Shimoliy Afrikada yuz bergen jarayonlar katta siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi. Mustamlakachilar harbiy bazalar ko'rinishidagi tayanch nuqtalariga ega va Afrika qit'asining har qanday chekkasiga zarba berish imkomiyatini beruvchi Suvaysh kanalini nazorat qilgan davrda mustaqillik uchun kurash katta qarshitlkka duch keldi. Biroq, milhy-vatanparvarlik kuchiari muvaffaqiyatlari mustamlakachilarini murosaga kelishga va o'z sobiq mustamlakachilariga mustaqillik berishga majbur qildi.

Bu joylardan keta turib, g'arb davlatlari hokimiyatga o'z vakillarini qoldirib ketishga urimishdi. Shu hois suverenitetni tasdiqlash jarayomi fojiali tus oldi. Ba'zi holllarda esa cho'zilib ketgan urushlarga olib keldi.

KONGO (ZAIR)

Milliy-ozodlik haraka- Kongo 1908-yildan Belgiya
tining rivojlanishi mustamlakasiga aylandi va o'ttiz yil davomida Belgiya qiroli Leopoldning shaxsiy mulki ho'ilh qoldi. Mamlakat mis va fil suyagiga boy edi va Yevropa mustamlakachi-

lari bu boyliklarga erishish uchun kam mehnat sarflab, ayovsiz ekspluatatsiya qilishga harakat qilar edi. Yarim asr davomida (1908—1958-yil) Kongo aholisi 30 million kishidan 15 milliongacha qisqarib ketdi. Uning xalqi hlr necha bor mustamlakachilarga qarshi chiqdi, biroq ular bari uyushmagan, tarqoq holda edi. Mamlakat aholisi ko‘p sonli qabila va etnik guruhiidan iborat bo‘lib, turli tillarda so‘zlashar, bir-biridan alohida yashab, ba’zan o‘zaro urushib ham qolar edi.

Birinchi va Ikkinci jahon urushi oralig‘ida Kongo yirik Yevropa va Amerika monopoliyalari kapital sarflaydigan hududga aylandi. Chet el kompaniyalari bu yerda konlar, plantatsiyalar, xomashyoni qayta ishiash korxonalarini tashkil etib, temir yo‘l va elektr stansiyalari barpo qilishdi. Kongodan katta miqdorda olmos, oltin, mis, qalay, kobolt, ruh olib ketilar edi. Mahilakatda xom ashyomi boshiang‘ich qayta ishiash, transport vositalarini ta’mirlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo‘yicha katta, alohida korxonalar yuzaga keldi. Kongoda shahar aholisi tez ko‘paya bordi. Ma’muriy boshqaruvda ishlovchi mahailiy xizmatchilar soni oshdi, hatto o‘z ziyorilar qatlami yuzaga keldi.

Yirik shaharlarda bir-biridan keskin farq qiluvchi “oq kvartaliar” va hatto oddiy qulayliklarga ham ega bo‘lmagan kulbalar paydo bo‘ldi. Irqiy kamsitish, inson huquqlarining cheklanganligi, maktab, tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining yo‘qligi tub aholi hayotini o‘ta nochor, og‘ir ahvolga solib qo‘ydi.

**P.Lumumba.
Mustaqillikning e’lon
qilinishi**

Urushdan so‘ng Kongoda kuchli milliy-ozodlik harakati quloch yoydi. 1960-yil 30-iyunda Kongo mustaqilligi

e’lon qilindi. Mamlakat bosh vaziri sifatida 1958-yilda tuzilgan Milliy harakat partiyasi rahbari Patris Lumumba saylandi. Biroq Kongoning turli rayonlarida tuzilgan ko‘plab boshqa partiyalar ham hokimiyatga da‘vogar edilar. Mustamlakachilar madadiga tayangan partiyalar qatorida Leopoldvilda M.Chombe rahbarligidagi Milliy taraqqiyot partiyasi va Kongoning eng boy provinsiyasi — Katangadagi Kanakat partiyasini sanab o‘tish mumkin.

Lumumba Patris (1925—1960) — 1960-yil iyulidan mustaqil Kongo (hozirgi Zair)ning birlinchi bosh vaziri. Mustaqillik berilishini talab qilgan. Kongo Milliy harakati partiyasi asoschisi. 1960-yil sentabrda o'ldiriigan.

Kongo mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng bir necha kun o'tgach, M.Chombe Katanga mustaqillikka erishganligini bildirdi. Olmos koni topilgan Kasaidada esa mustamlakachilarining yana bir vorisi A.Kolonji qo'g'irchoq hukumatini tuzib, uni mustaqil deb e'lon qildi. 1960-yil sentyabrda Leopoldvilda polkovnik Mobutu rahbarligida harbiy to'ntarish yuz berdi. P.Lumumba va uning barcha safdoshlari vahshiyona o'ldirildi. Bu voqeа butun mamlakatni larzaga soldi va sharqiyl provinsiyalar aholisi qo'zg'olonchilik harakatini boshlab yubordi. Unga P.Lumumba o'rribbosari Antuan Gizenga yetakchilik qildi. 1962—1964-yillar davomida mamlakatda amalda ikki hokimiyatchilik hukm surdi. G'arb davlatlari yordami bilan u bartaraf etildi va M.Chombe bosh vazir etib tayinlandi. Ammo 1965-yil noyabrda general Mobutu boshchiligidagi harbiylar davlat to'ntarishini amalga oshirdi. Chombe mamlakatdan qochdi va **Mobutu** o'zini Kongo prezidenti deb e'lon qildi.



Mobutu rejimi himoyachilari.



Laurent Kabila

Mobutu Sese Seko Kuku Ngbendu Va za Banga (1972-yilgacha — Jozef Dezire Mobutu) (1930—1998) — 1961-yildan armiya bosh qo'mondoni. 1967-yilda Zair partiyasi — Xalq inqilob harakatini tuzgan. 1965-yildan — Zair prezidenti. Mamlakatda diktatorlik rejimini o'rnatdi. 1997-yilda g'alayonchilar tomonidan hukumatdan chetlashtirildi.

Zairning Respublika deb e'lon qilinishi

Mamlakat yangicha — **Zair** deb nom oldi. Biroq iqtisodda ilgarigidek g'arb manopoliyasi hukmronlik qilar va mamlakatning butun boyligi chet elga jo'natilar edi. Zair jahonda olmos qazib chiqarish (butun dunyodagi olmosning 60 foizi), mis va kobalt ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turadi, shuningdek, g'arba katta miqdorda rux va kumush, manganets va uran yetkazib beradi.

1984-yilda Zair yangi konstitutsiya qabul qildi. Mamlakat respublika deb e'lon qilindi. Davlatni prezident boshqaradi, u ayni paytda ijroiya hukumat rahbari va qurolli kuchlar bosh qo'mondoni. **1984-yilgi** prezident saylovida Mobuti 7 yil muddatga mamlakat prezidenti etib saylandi va shu vaqt ichida marshal unvoniga ega bo'ldi. Xalqaro monopoliya Zairda mustahkam o'mashib oldi.

1991-yilning avgustida Mobutuning prezidentlik muddati tugadi va u o‘z vakolatini hayotining oxirigacha cho‘zish uchun umummliliy konferensiya chaqirdi. Konferensiyada yangi konstitutsiya loyihasini ishiab chiqdi. Aymi paytda u hukumatni istefoga chiqardi. Natijada mamlakatda ommaviy tartibsizliklar boshiamib, u fuqarolar urushini keltirib chiqardi. Muxolisat kuchiar **31-oktabrda** P.Lumumbaning izdoshi **Laurent Kabila** rahbarligidagi yangi hukumatni tuzdi.

Kongodagi (1997-yildan Kongo Demokratik Respublikasi) fuqarolar urushi yetti yilga cho‘zildi. Afrikadagi barcha qo‘sni davlatlar Mobutu rejimiga qarshi kurashda qo‘zg‘olonchilarga ko‘mak bera boshia-di. 1998-yilda M.Kabila boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar qo‘sini Kongo poytaxti Kinshasaga kirib bordi. Mobutu mamlakatdan qochib ketdi.

Biroq, Kongoda tinchlik uzoq davom etmadi. 1998-yil avgustda tutsi qabilasi qo‘zg‘olonchilar Ruanda va Uganda qo‘sini yordamida L.Kabilaga qarshi harbiy yurishiarni boshiadi. Unga yordamga kelgan Angola, Namibiya va Zimbabve qo‘sini qo‘zg‘olonchilarni tor-mor etishdi. 1999-yilda Zimbabve poytaxti Lusakada mojaroga tortilgan olti davlat o‘rtasida urushni to‘xtatish haqida bitim imzolandi. Biroq, qarama-qarshi tomonlar ortida turgan kuchlar oson yon berishni istashmadni.

2001-yil yanvarda L.Kabila o‘ldirildi. Uning o‘rnimi birodarkushlik urushini to‘xtatishni istagan o‘g‘li Jozef egaliadi. 2002-yil iyulda Kongo va Ruanda prezidentiari bitim imzoladi. Ruanda sharqiy Kongodan 35 ming kishilik qo‘sini olib chiqish, Kongo esa Ruandaga xavf soluvchi qo‘zg‘olonchilarni qurolsizlantirish majburiyatini oldi. 2002-yil sentabrda bu shartnomani Uganda ham imzoladi. To‘rt yillik fuqarolik urushi davomida mamlakatda 2,5 million kishining yostig‘i quridi. Unda 7 chet el qo‘sini va ko‘p sonli qo‘zg‘olonchi guruhiari ishtirok etdi. Bu qo‘zg‘olonchilar tez-tez urushning haqiqiy maqsadlarini tushunmay, bir-birlari bilan urush qilardi. Vaziyat ichki etnik mojarolar tufayli ham murakkablashdi. Kongo juda boy resurslari bilan jahonda aholi jon boshiga daromad jihatidan eng kambag‘al davlatdir.

Qisqacha mazmum

- 1908-yildan — Belgiya mustamlakasi
- Mustamlakachilar tomonidan tabiiy resurslar va aholining ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi
- 1960-yil 30-iyun — Kongo mustaqililgi e'lon qilindi, bosh vazir — P.Lumumba
- 1960-yil sentabr — polkovnik Mobutu yetakchiligidagi harbiy to'ntarish
- Mamlakat sharqiy provinsiyalaridagi g'alayonchilar harakati
- Davlat to'ntarishi, mamlakat rahbari — Mobutu
- Chet el monopolyalari hukmronligi
- 1984-yil — Zair respublikaga deb e'lon qilindi
- Prezident — marshal Mobutu. Chet el monopoilyasiya qaramlik
- 1991-yil — 31-oktabrdagi muxollatchillar harakati, davlat rahbari — L.Kabila
- 1991—1998-yillar — fuqarolar urushi
- L.Kabila yetakchiligidagi go'zg'olonchilar g'alabasi

ANGOLA. MOZAMBIK

Mustamlakachilik reji-mining oqibatlari Angola, Mozambik, Portugal
Gvineyasi, Yashil Burun, San-Tome va Prinsipl orol-

lari besh yuz yil davomida portugallar mustamlakasida bo'lib keldi. Ular qul savdosidan ko'p zarar ko'rdi. Iqtisodiy rivojlamish o'ta past, aholi esa ayovsiz ekspluatatsiya qilinar edi.

Portugaliya mustamlakalari hududida afrikaliklar tur-mushii ibridoiy, quzdorlik darajasida edi. Afrikalikni bemalol sotib olish yoki sotish mumkin bo'lgan. Portugal mustamlakachilarini Januhiy Afrika Respublikasi (JAR) konlari xo'jayinlariga "tirik tovar" sotib katta foyda ko'rар edi.

Tub aholining turmush darajasi, sog'liqni saqlash va ta'lim sharoiti dunyodagi eng oxirgi o'rnlardan birimi egallardi. Aholining 99 foizi savodsiz edi.

Afrikaliklar ochiq siyosiy partiylar va kasaba uyushmalari tashkil etish imkoniga ega bo'lmagan. Hatto, o'z matbuoti ham yo'q edi. Qat'iy senzura, keng yoyilgan harbiy diktatura, hibsga olishlar, shiuhhali kishilarni

konslagerlarga jo‘natish — bular bari portugal mustamlakachilariga “jimjit zona” yaratishdek g‘amgin shuhrat keltirdi.

1932-yilgi Portugaliyada yuz bergen harbiy to‘ntarish natijasida hukumat tepasiga diktator **Salozar** keldi. U mustamlaka o‘lkalarni ezish hisobiga hukmronlik qila boshladi. 1924, 1925 va 1939-yillarda ham Angolada stixiyali g‘alayonlar bo‘lib o‘tgan edi. Mustaqillik uchun kurashdagi haqiqiy yuksalish Ikkinchiji jahon urushidan so‘ng boshlandi.

Angola ozodligi xalq harakati (AOXX) kurashi

1956-yilda Angola poytaxti Luandada angola madaniyat arboblarining bir guruhi taniqli shoir va publitsist

Agostinyu Neto rahbarligida **Angola ozodligi xalq harakati** partiyasini tashkil etdi. U o‘z murojaatnomasi-da Angola mustaqilligi uchun kurashga chaqirdi.

AOXHdan so‘ng ikkinchi yirik partiya — Angola aholisi ittifoqi tashkil qilindi. Ular ham Angola ozodligi uchun intilsa-da, g‘arparastlik yo‘nalishidagi g‘oyalarga moyil edi. Portugaliya hokimiyyati vatanparvarlik harakati yetakchilarini terror qilishga o‘tdi.

Respublikaning e’lon qillishi

1961-yil 4—6-fevralda Ango-la poytaxtida qurolli qo‘z-g‘olon boshlandi. Bir qator

janglar natijasida Angola vatanparvarlari mamlakat shariqi va janubi-sharqidagi keng hududni ozod qilishdi. 1974-yilda Salozar diktaturasi tugatilgach, mamlakatning yangi hukumati konstitutsiyaviy qonunni chop qildi. Unga ko‘ra Angolaning o‘z kelajagini o‘zi belgilash huquqi va mustaqilligi rasmiy qayd etildi.

1975-yil 11-noyabrdi Angola xalq respublikasi deb e’lon qilindi va **Agostinyu Neto** prezident etib saylandi.

Neto Agostinyu (1922—1979) — Angolianing 1975—1979-yillardagi prezidenti, 1977-yildan MPLA — mehnat partiyasi raisi. 1962-yildan 1977-yilgacha mamlakatni ozod qilish xalq harakatiga yetakchiilik qilgan. Taniqli Afrika shoiri.

Janubiy Afrika Respublikasi yosh respublikaga qarshi urush boshladi va mag‘lubiyatga uchradi. O’shanda JAR yordamida Namibiyada qo‘nim topgan UNITA tashkil

qilindi va fuqarolar urushini boshiadi. Angolaga kubalik ko'ngillilar yordamga keldi va UNITAni yakson qllishda katta rol o'ynadi. 1989-yilda ikki tomonlama kelishuvga erishildi. Unga muvofiq JARning barcha qurolli kuchiari Angoladan olib chiqib ketildi.

1992-yilda ko'ppartiyaviylik asosida demokratik saylovlar o'tkazildi va unda AOXH g'alaba qozondi. Uning yetakchisi **Eduardo dush Santush** mamlakat prezidentligiga saylandi.

Bu xlidagi saylov natijalaridan norozi bo'lgan UNITA rahbarlari yana qurolli kurashni boshibab yubordi.

1993-yilda AQSH hukumati Angola hukumatimi angol xalqining yagona vakili sifatida tan oidi va ular bilan diplomatik aloqa o'rnatdi. UNITA yangi muzokaralar olib borishga majbur bo'ldi. **1994-yilda** Zambiya poytaxti Lusakada protokol imzolandi va unga ko'ra UNITA qurolli kurashni to'xtatish majburiyatini oldi. Angolaning shimaliy hududiga BMT nazoratchilari kiritildi. Jahon banklari Angolaga 1 milliard dollar miqdorida moliyaviy yordam ko'rsatishini e'lon qildi.

1998-yil sentabrda UNITA 1997-yilda imzolangan o't ochishni to'xtatish haqidagi navbatdagi bitimni buzdi va qurolli kuchiarni tarqatishidan bosh tortdi. Angola yana fuqarolik urushga tortildi. Bunda 4 million kishi (aholining uchdan biri) talofat ko'rdi, 2 million kishi mamlakatdan qochdi.

2002-yil 22-fevralda hukumat qo'shinlari UNITA yetakchisi **Savimbini** yo'q qilishdi va uning qurolli kuchiarni taslim bo'lishdi. 4-aprelda Angolada 30 yillik urush tugagani haqida e'lon qilindi. O'zaro ichki urushiar mamlakatni xarob qildi. Aholining yarmidan ortig'i ish-siz, aholi jon boshiga daromad — dunyoda eng kam darajalardan biri.

**Mozambik Xalq
respublikasining e'lon
gilinishi**

Portugaliyaning yana bir sobiq mustamlakasi bo'lgan Mozambik deyarli Angola bosib o'tgan yo'lni qaytarib

ozodlikka erishgan. Ozodlik uchun qurolli kurash **1964-yilda Xaloskorlik fronti** (FRELIMO) yetakchiligidagi boshiandi. Vatanparvarlar mamlakat hududining katta qismimi nazorat qilar edi. Portugaliyada Salozar hukumatining ag'darilishi Mozambikka o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berdi va 1975-yil 25-iyunda uning mus-

taqlilikka erishganligi e'lon qilindi. Yangi davlat **Mozambik Xalq Respublikasi** deb atala boshlandi.

Prezident **Samora Mashel** 1976-yil fevralda mamlakatda tub o'zgarishlar amalga oshirilishini bildirdi. Bu o'zgarishlar markazida portugal ishbilarmonlari qo'lidagi xususiy korxonalarini natsionalizatsiya qilish turar edi. Mamlakat poytaxti Moputu deb qayta nomlandi.

Ayni voqealar butun mamlakat iqtisodini ushlab turgan portugal mustamlakachllar bilan janjalni keltirib chiqardi. Mozambikda fuqarolar urushi boshlandi.

Mamlakat aholisining 20 foizini tashkil etgan portugallar jangari otryadlari — “remanos”lar tuza boshladи va ular soni 10 ming kishigacha yetdi. JARda o'z bazalari ni tashkil qilgan remanoslar Mozambik hududiga doimiy reydar uyushtirib turdi.

1986-yil 19-oktabrda Samora Mashel aviatsiya halokatiga uchrab halok bo'ldi. Tashqi ishlar vaziri **Joakimo Chissano** (1940-yilda tng'ilgan) uming o'mini egalladi. 1990-yilda u JAR bilan harbiy otryadlarning Mozambik hududiga hujumlarini to'xtatish to'g'risidagi bitimni imzolashga erishdi. Bir vaqtning o'zida Rimda oq tanli ko'chmanchilar bilan muzokaralar olib borildi va 1992-yilda fuqarolar urushini to'xtatish to'g'risidagi bitimni imzolash bilan yakun topdi.

Mozambikda iqtisodiy va siyosiy hayotni liberal-lashtirishga qaratilgan islohotlarni o'tkazish boshlandi. Xususiy mulkning bir qismi ilgarigi egalariga qaytarildi. Bu esa mamlakatda fuqarolar va millatlararo timchlik o'matilishiga yordam berdi. JARDagi o'zgarishlar, xususan, N.Mandelaning prezidentlikka saylanishi Mozambik uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

1994-yil noyabrda mamlakatda demokratik ko'pparitiyaviylik saylovlari o'tkazildi. Bu saylov prezident Joakimo Chissanoga g'alaba keltirdi.

1995-yil noyabrda Mozambik Britamiya millatlar ittifojining a'zosi bo'ldi. 2002-yilda J.Chissano prezidentlikka uchinchi marta saylovda qatnashishdan bosh tortdi. 2004-yilda mamlakat yangi prezidenti **Armando Guebuzuni** sayladi. O'tkazilgan islohotlar va g'arb mamlakatlarining katta yordamiga qaramay, Mozambik aholi jon boshiga daromadlar bo'yicha dunyodagi eng kam-bag'al mamlakatlardan biri, 21% aholi ishsiz. 70% — savodsiz.

Qisqacha mazmumi

- Afrikadagi portugal mustamlakalarining ahvoli: qul savdosi, dunyodagi eng past hayot darajasi
- Portugailyada Salozarning fashistlar rejimi (1932-yildan)
- 1956-yil — Angolada Agostinyu Neto rahbarligidagi AOXH partiyasi hamda g'arbparastlikka moyil Angola ahoisi ittifoqining tashkil topishi
- 1961-yil 4—6 fevral qurolli qo'zg'oloni, Angola shariqy hududlning qisman ozod qilinishi
- 1974-yil — Portugailyada Salozar diktaturasining ag'darilishi
- 1975-yil 11-noyabr — Angola xalq respublikasi deb e'lon qilindi, prezident — Agostinyu Neto
- 1989-yil — JAR qo'shinlari Angoladan olib chiqildi
- 1964-yll — Mozambikda ozodlik harakatining boshianishi — Xaloskorlik fronti (FRELIMO)
- 1975-yil 25-iyun — Mozambik mustaqililgining e'lon qilinishi

NAMIBIYA

Namibiyadagi ozodlik harakati

1915-yilda Namibiya Janubiy Amerika qo'shinlari tomonidan bosib olindi. 1920-

yilda esa JAR boshqaruvi ixtiyoriga berilgan edi.

JARning ushbu hududni BMT himoyasiga berishdan bosh tortishi va bu yerda irqchilik tartibini o'rnatishga urinishi qo'zg'olonga olib keldi. Namibiya olmosga boy hudud edi. Shu bois g'arb davlatlari janubiy afrikaliklarning bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatish harakatini qo'llab-quvvatladi. Biroq Angolaning ozodlik uchun kurashdagi g'alabasi namibiyaliklarmi liam qo'llariga quroq olishga undadi. Namibiyadagi ozodlik harakatiga **Janubi-G'arbiy Afrika Xalq tashkiloti (SVAPO)** rahbarlik qildi. Mazkur tashkilot 1966-yildan 7 yil davomida istilochilarga qarshi kurash ollb bordi. 1978-yilda BMT xavfsizlik Kengashi Namibiyadan JAR qo'shinlarimeng ollb chiqib ketilishi talab qilingan rezolyutsiya qabul qildi va SVAPOni "Namibiya xalqimeng yagona haqiqiy vakili" deb tan oldi. BMT Xavfsizlik kengashi, shuningdek, mamlakatda umum-xalq saylovi o'tkazishga qaror qildi. Biroq ushbu qarorni amalga oshirish uchun yana o'n yil vaqt o'tdi.

1989-yildagina JAR Namibiya hududidan o‘z qo‘sishlarini olib chiqib ketishga rozi bo‘ldi.

1991-yilda o‘tkazilgan saylovlar SVAPOga g‘alaba keltirdi.

Uning yo‘lboshchisi **Sem Nuomo** mustaqil mamlakat prezidenti etib saylandi. Biroq, erkin rivojlanish yo‘li murakkab kechdi. 2001-yil yanvarda Zambezi daryosiga yagona olib boradigan joy — Kaprivi tor yo‘lida yashovchi qabilaning separatistlar harakati bilan mojaro chiqdi.

* * *

Tropik Afrikaning Nigeriya, Gabon, Chad, Ruanda, Senegal, Mali, Gambiya, Zimbabve, Zambiya kabi mamlakatlarida hokimiyatning mahalliy xalq vakillari qo‘liga o‘tishi konstitutsiya doirasida amalga oshirildi. Sobiq mustamlakachilar hokimiyatni u yoki bu darajadagi mo‘tadil siyosiy tashkilotlar qo‘liga topshirishga urinishdi.

Ushbu davlatlarning ko‘pchilik qismi iqtisodiy rivojlanmagan, asosiy boyligi esa biror-bir qishloq xo‘jalik o‘simligi sanaladi, madaniyat — rivojlanish darajasi o‘ta past. Ularning “mustaqilligi” va “suverenitetli”gi rasmiy jihatdan tan olingen xolos, amalda esa ko‘p jihatdan sobiq mustamlakachilariga bog‘liq. Sobiq istilochilar hozirda ham bu yerda harbiy bazalariga ega va ichki hamda tashqi siyosatni nazorat qilib turadi.



Tropik Afrikadagi ko‘chmanchi qabilalar hayoti.

Bu mamlakatlarda tez-tez hukumat almashuvi, harbiy to'ntarishlar bo'lib turadi. Odatda, bunday voqealar ortida o'z manfaatlari yo'lida rahbariyatni almashtirib turuvchi sohiq mustamlakachilar turadi.

Qisqacha mazmum

- 1915-yil — JAR okkupatsiyasi
- 1966-yil — Namibiyan ozod qilish uchun Janubiy G'arbiy Afrika xalq tashkiloti boshchiligidagi (SVAPO) qurolli kurashning boshlanishi
- BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan Namibiya bo'yicha rezolyutsiya qabul qilinishi
- 1989-yil — JAR qo'shinlarining olib chiqib ketilishi
- 1991-yil — umumxalq saylovlari: SVAPO g'alabasi: mustaqlilikning e'lon qilinishi

Savollar

- ? 1. Tropik Afrikada mustamlakachilik tizimi qanday qilib tugatildi?
2. P.Lumumba Kongo (Zair) mustaqilligini e'lon qilishda qanday rol o'ynadi?
3. Angoladagi mustamlakachilik rejimi qanday oqlbatlarga olib keldi?
4. Namibiyaning ozodlik harakatiga qanday tashkilot boshchilik qildi?

45-§. JANUBIY AFRIKA: APARTEIDNING TUGATILISHI

JARdag'i siyosiy aparteid

qora tanli negrlar tashkil qillar edi.

Oq tanlilarning mafkuraviy asosi irqchilik va irqiy kamsitishdan iborat bo'lgan. Shaharlarda asosan yevropaliklar yashashi lozimligi ta'kidlab turilar edi.

Irqchilikning kuchayishi, mehnatkashiarning irqiy belgilariga ko'ra ajratilishi, oq va qora tanlilarni bir-blriga gij-gijlash davlat ichki siyosatining asosiy mohiyatini anglatar edi. 1924-yilda qabul qilingan "oq tanli bo'lma-gan aholl va sivilizatsiyalashgan mehnat" to'g'risidagi qonun afrikaliklarni malaka yoki qisman malaka talab

Afrikadagi oxirgi mustamlaka Januhiy Afrika Respublikasi bo'lib, aholining 85 foizini

qilinadigan ishlarga qo'yishni taqipladi. Afrikaliklar saylov huquqlaridan mahrum qilingan edi.

Bunday siyosat urushdan keyin yanada kuchaydi. U **aparteid** bilan "boyidi". Bu so'z JARning rasmiy tili — afrikaans tilida "ajratilgan" degan ma'noni anglatadi. Yangi atamani krita turib, JARning davlat arboblari har bir irq ikkinchisidan alohida yashashi, o'z hayot tarzi va rivojlanish yo'liga ega bo'lishi zarurligi Bibliyada qayd etilganligini ta'kidlashar edi. Qon tozaligini saqlab qolish davlat siyosati darajasiga olib chiqildi.

Aparteid siyosati JARning tub aholisiga nisbatan ayovsiz munosabatda bo'lish va zanjilarning oq tanlilar istagiga nisbatan qarshiligidini sindirishda qo'l keldi.

1950-yilda qabul qilingan "**guruuhlar bo'yicha joylarga o'rashish**" to'g'risidagi qonun aparteid tizimining eng shafqatsiz harakati bo'lib qoldi. Mazkur qonunga ko'ra yevropaliklar butun mamlakat hududining 87 foiz, afrikaliklar esa atigi 13 foiz maydoniga o'mashib yashashi lozim edi. Afrikaliklar uchun ajratilgan joylarda irqchilik rejimi tufayli 10 ta qo'g'irchoq "milliy davlat" — bantustanlar tashkil topdi. Ulardan to'rttasi (Transkey, Boputatsvana, Vena, Siskey) hatto "mustaqil" deb e'lon qilindi.

Bantustanlarda hokimiyat qabila boshliqlariga tegishli bo'lib, ular yevropalik amaldorlarga tobe edi.

Bantustanlar — milliy-ozodlik kurashini sustlashtirish uchun qabila belgisiga ko'ra aholini tarqoq holda joyiashtirish maqsadida JAR hududida irqchilar hukumati tomonidan barpo etilgan soxta davlatlar.

Ayni paytda "o'z-o'zini boshqarish"ga ruxsat bergen holda qonun rezervatsiyalardan tashqarida istiqomat qilayotgan afrikaliklar uchun qolgan huquqlarni bekor qildi. Qonun sanoat rayonlarida yashayotgan va zavod, fabrika hamda shaxtalarda ishlovchi ikki million afrikaliklarga qarshi qaratilgan edi. Ular mazkur rayonlarda vaqtinchalik istiqomat qiluvchi fuqaro holatiga tushib qolishdi va har qanday paytda o'z rezervatsiyalariga majburan jo'natib yuborilishi mumkin edi. Bundan tashqari belgilangan vakillar — qabila boshliqlari foydasiga ishchilar maoshining bir qismini olib qolar va ularning yurish-turishini kuzatib turgan.

Bu rejim g'arb dunyosining bir qismi edi. JAR jahon bozoriga butun dunyodagi jami qazib chiqarilayotgan oltinning yarmidan ko'pini, olmosning 30 foizini hamda g'arb atom sanoatining asosi bo'l mish uranning 25 foizi-mi yetkazib berar edi. Shuning uchun g'arb mamlakatlari ushbu davlatni siyosiy, harbiy va iqtisodiy mustahkam-lash uchun katta mabiag' sarflay boshiadi.

**50—80-yillarda
JARning rivojlanishi**

Urushdan keyim JAR dunyo-dagi eng rivojlangan mam-lakatlar qatoridan joy oldi.

Metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat va harbiy sanoat yuqori texnik darajada ishlay boshiadi.

Shimoliy Afrika boy berilgach, JAR Tropik Afrikada milliy-ozodlik harakatiga qarshi kurashda g'arb daviat-larining eng ishonchii ittifoqchisiga aylandi. JAR qo'shinlari noqonumi ravishda Namibiyani bosib oldi, bir necha marta Angola va Mozambik hududlariga bostirib kirdi, boshqa qo'shni afrika davlatlarini bir-biri-ga qarama-qarshi qo'yish uchun turli harbiy ig'vogarlikni keltirib chiqardi. Ingliz-fransuz-isroil Misrga qarshi kompaniyasi davrida JAR o'z soldatlarini va harbiy-havo kuchiarini jo'natishga tayyor turgan edi.

1984-yilda niamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra oq tanlilar hokimiyatini saqlab qolishni kafolatlovchi uch palatali parlament (oq tanlilar, afrikaliklar va hindular uchun) tuzildi. Davlatni prezident boshqarar va vazirlar mahkamasiga ham rahbarlik qlladigan bo'ldi.

**Iraqchillik va aparteldga
qarshi kurash**

Janubiy Afrikaning tub aholisi mustamlakachilarga qarshi uzoq yillar kurash ollb

bordi. Birinchi yirik to'qnashuv 1946-yilning avgustida Randa konlarida ro'y berdi. Bir hafta davomida 100 ming konchi ish haqi borasidagi kamsitilish yo'q qilinishini talab qilib namoyish o'tkazdilar. Chunki afrikalik ishchi yevropalik ishchiga qaraganda bir xil mehnat uchun 50 baravar kam haq olar edi.

Ishchilar namoyishi o'qqa tutildi. Yirik shaharlarda afrikaliklar tmtuv qilindi. Kompartiya va kasaba uyushmalar rahbarlari hibsga olindi. Kurashni esa to'xtatib bo'lmasdi.

Aparteid — tub Afrika ahollisiga nisbatan JARda olib borilgan irqly diskriminatsiya va segregatsiya siyosati. Bu siyosat tub afrikaliklarni fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish, ularni alohida kvartallarga joylashtirish, bir hudud-dari ikkinchisiga erkin o'tishni cheklash va hokazo kamsitishiardan iborat.

Teng huquqli hayot uchun kurashda Afrika Milliy Kongressi (AMK) afrikaliklarning haqiqiy yetakchisiga aylandi. 50-yillarda AMK a'zosi 100 ming kishigacha yetdi. U kichik-kichik yon bosishlarni talab qiluvchi tashkilotdan irqchilik rejimini butkul tugatish uchun kurashuvchi kuchli siyosiy tashkilotga aylandi. U Janubiy Afrika milliy kongressi bilan yaqin aloqa bog'ladi. Mazkur kongress M.Gandi tomonidan shu yerda istiqomat qiluvchi hindularning vakili sifatida tashkil qilingan edi. 1950-yil 26-iyunda ular birinchi marta irqiy kamsitilishga qarshi birgalikda norozilik namoyishini o'tkazdi. Shundan beri shu sana milliy norozilik bildirilgan kun sifatida nishonlanib kelinadi.

1955-yil 26-iyunda Ioxannesburgda Milliy kongress chaqirildi va unda mamlakatning barcha chekkalaridan 3 mingdan ziyod delegat ishtirot etdi. Kongress ozodlik Xartiyasini qabul qildi. Unda Janubiy Afrikada barcha millat guruhlari va barcha aholi uchun teng huquqlar joriy etilgan demokratik davlat tuzish dasturi ilgari surilgan edi.

60-yillar boshida JARdagi ahvol birdan keskinlashdi. 1960-yilning martida politsiya Ioxannesburg va Keyptaun shaharlari chekkasida tinch namoyishchilarini o'qqa tutdi. Yuzlab namoyishchilar o'ldirildi. Terrorning yangi to'lqini yetilib kelayotgan edi. 20 mingdan ortiq kishi hibsga olindi, AMK taqiqlab qo'yildi.

BMT Bosh Assambleyasi barcha davlatlarga JAR bilan diplomatik aloqalarni uzishga, ushbu mamlakat tovarlarini, birinchi galda neft va quroq-yarog'ni boykot qilishga chaqirdi. Shuningdek, har qanday madaniy va sport sohalari bo'yicha aloqalar ham taqiplandi.

Bu chora-tadbirlar samarasiz bo'lib chiqdi. Chunki g'arb davlatlari BMT qarorini nazar-pisand qilmasdan irqchilar bilan iqtisodiy aloqalarni davom ettiraverdi. Yashirin shaklda bo'lsa-da, JARga quroq-yarog' yetkazib berish to'xtamadi.

**Nelson Mandela.
Islohotlar o'tkazilishi**

Jazolar va terror natija bermadi, JAR rahbar doi-radagilari rejimni bir oz yumshatishga majbur bo'ldi. 1989-yil sentabrdagi parlament saylovlarida aparteidga qarshi kurashuvchi R.V.de Klerk rahbarligidagi Milliy partiya g'alaba qozondi.

1990-yili fevralda de Klerk 30 yil davomida taqiqlangan AMK faoliyatiga ruxsat berdi. AMK yetakchisi **Nelson Mandela** 27 yillik qamoqdan so'ng ozodlikka chiqди. 1991-yilda u AMK prezidentligiga saylandi. Mamlakatda 1986-yilda joriy qilingan favqulodda holat bekor qilindi. Boshqaruvchi Milliy partiya o'z safiga baracha irq vakillarini qabul qilishga ruxsat berdi. Biroq aparteidning tugatilishi og'ir kechdi, mahalliy aholi o'rtasida janjal bo'lib o'tdi. Yevropaliklarning qora tanlilar bilan teng huquqli bo'lishiga ko'nikishi qiyin kechdi. Ular o'rtasida bir necha marta qurolli to'qnashuv bo'lib o'tdi.

Mandela Nelson (1918-yilda tug'ilgan) — JAR ozodlik harakatining faol arbobi, aparteidga qarshi kurashchi. 1964-yilda umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan. 1991-yilda ozod qilindi. 1994-yildan JAR prezidenti.

1992-yil avgustda AMK demokratik islohotlarni o'tkazishdagi sustkashlikka qarshi ommaviy norozilik aksiyalarini o'tkazishni boshladi. Faqat qora tanli aholining ommaviy chiqishlari va mustaqillikka erishgan qo'shni afrika mamlakatlari tazyiqi ostidagina 1993-yilning mayida Ioxannesburgdagi ko'ptomonlama muzokaralar orqali hamma irq vakillari uchun teng huquqli asosda parlament saylovlarini o'tkazishga kelishib olindi.

1994-yil 26-aprelda bo'lib o'tgan saylovlarda AMK ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi va N.Mandela qora tanlilar ichida JARning



F.V.de Klerk va N.Mandela.
Apartheidning barham topishi.

birinchi prezidenti etib saylandi. U hukumat tarkibiga aparteid davrida ajratib ko'rsatilgan to'rtta irq vakillarini kiritdi. Afrikada mustamlakachilik, irqchilik va aparteid davri barham topdi. JAR demokratik islohotlar yo'liga o'tib oldi.

1993-yilda N.Mandela va F.V.de Klerkga timchlik o'matish borasidagi xizmatlari uchun Nobel mukofoti berildi.

1993-yili de Klerk va Nelson Mandela o'rtasida muzokalarlar bo'lib o'tdi, yangi demokratik konstitutsiyaming asosiy prinsiplari to'g'risida bitimga erishildi. Bantustanlar tugatildi va 9 provinsiyadan tarkib topishi zarur bo'lgan umummihiy davlat tizimi tarkibiga qo'shib olindi. 26—29-aprelda mamlakat tarixida ilk bora yalpi yashirin saylov bo'lib o'tdi. Nelson Mandelaning Afrika Milliy kongressi partiyasi 62,7% ovoz bilan ishonchii g'alaba qozondi, aymi mahalda oq tanli millatchilarining Liberal partiyasi esa atigi 20,4% ovoz oldi, xolos. Yangi bir kuch ham maydonga chiqqan edi. Qora tanli aholining manfaatlarini ifoda etuvchi tag'm bir partiya — Zuluslar provinsiyasidan Inketa Ozodligi partiyasi 10,5% ovoz olgan edi. Qora tanli aholi orasida bo'linish ro'y berdi. Inketa Zuluslar provinsiyasida viloyat bukumatida ko'pchilikka ega bo'ldi va saylov yakunlanganidan keyinoq markaziy hukumat va zuluslar o'rtasida shiddatli janglar boshiamib ketdi. Hamma voqealar Kongodagi senariy bo'yicha ro'y berdi, endi oq tanli millatchilar zuluslarni qo'llab-quvvatlashdi.

1996-yil 10-dekabrda yangi parlament mamlakatning aparteid hamda u bilan bog'liq bo'lgan rasmiy hujjatlarni bekor qilgan va tugatib tashlagan birinchi konstitutsiyasini qabul qildi. Barcha fuqarolar qonun oldida tengligi e'lon qilindi. 1999-yil 2-iyundagi saylovda Afrika Milliy kongressi tag'm ishonarli g'alaba qozondi. Nelson Mandelaning safdoshi Janubiy Afrika Respublikasi vitse-prezidenti va Afrika Milliy kongressi yo'lboshchisi **Tabo Mbeku** Prezident etib saylandi — u mamlakatning butun xalq tomonidan saylangan birinchi prezidentidir.

Biroq ana shu saylovlar markaziy hukumat siyosatini barbod etishga kirishgan Liberal partiya (LP) va Yangi Milliy partiya (YMP) siyosida muxolifat kuchlarining faollashuviga signal bo'ldi. Liberal partiya aholisining ko'pchilagini oq tanlilar tashkil etadigan va mamlakat-

ning asosiy iqtisodiy kuchlari joylashgan g'arbiy kaplar provinsiyalarini nazorat qilmoqda. Bularning barchasi niamlakatning istiqboldagi keskin ijtimoiy va siyosiy mojarolaridan dalolat berayotir.

Ommaviyligi va prezidentlikka qayta saylamish imkoniyati bo'lsa ham, N.Mandela iste'foga chiqdi. 1999-yil 2-iyunda uning yaqm̄ safdoshi, vitse-prezident va AMK yetakchisi **Tabo Mbeki** JAR prezidenti etib saylandi. Mamlakatda og'ir iqtisodiy ahvol mavjud. Aholiming 30% ishsiz, turmush darajasi o'smayapti, qariyb yarim aholi savodsiz. OITSning keng tarqaganligi jiddiy muammo bo'lib, hukumat unga qarshi davlat miqyosida kurash olib bormoqda. Mamlakatning hozirgi rasmiy nomi — Janubiy Afrika Respublikasi.


Qisqacha mazmuni

- JAR — irqchiilk va irqiy diskriminatsiya, aparteid
- 1946-yil — irqiy kamsitishga qarshi birinchi chlqlishlar
- 1950-yil — guruhlar bo'yicha ajratib joylashtirish to'g'risidagi qonun
- qabila boshilqlari rahbarligidagi bantustanlar "mustaqilligi"
- JARda mustamlakachilik tuzumi eng uzoq — 1992-yilgacha saqlanib qoldi
- 1955-yil — ozodilk Partiyasining qabul qilinishi
- 1960-yil — tinch namoyishchilarning o'qqa tutilishi
- 1989-yil — hukumat tepasiga milliy partiyaning kelishi (de Kierk) — JAR tarixida tub burilishning boshlanishi
- 1990-yil — AMK faoliyatini taqiqlashning bekor qilinishi
- 1991-yil — N.Mandelaning AMK prezidenti etib saylanishi
- 1994-yil 26-aprel — AMKning saylovdagi g'alabasi, N.Mandela — prezident

Savollar

- ? 1. Janubiy Afrikada hukmronlik qilgan aparteid siyosatning mohiyati nimalardan iborat?
2. Irqchilik, irqiy diskriminatsiya, aparteid, bandustanlar kabi tushunchalarni izohlab bering.
3. 50—80-yillarda JAR rivojlanishining alohida xususlyatlarini ayтиб bering.
4. JARda aparteid qanday qilib tugatildi?
5. JAR qora va qizll tanli aholi huquqlari uchun kurashda N.Mandela qanday roi o'ynadi?

VII b o b
YANGI DEMOKRATIYA DAVRI



46-§. UMUMINSONIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR AHAMIYATINING OSHISHI

XX asrning so‘nggi o‘n yilida dunyoda davlatlar va xalqlar o‘rtasida yangi munosabatlar yuzaga keldiki, u yangi demokratiya davri deb atala boshlandi. Yangi davrning asosiy qirralari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

1. Tabiiy va kishilik zaxiralarini ekspluatatsiya qilish maqsadida xalqlarni zo‘rlab bo‘ysundirish shaklidagi **mustamlakachilik tizimi** to‘liq tugatildi. JARda 1993-yilda aparteid rejimi tugatildi va butun Afrika dekolatizatsiya jarayonimi tugatdi. 90-yillard oxirida Gonkong va Makao XXR bilan birlashdi.

2. Jahon arenasida yangi mustaqil **suveren davlatlar** paydo bo‘ldi. Agar 80-yillard oxirida dunyoda 145 ta mustaqil davlat bo‘lgan bo‘lsa, 1991-yilga kelib ular soni 191 taga yetdi. Yangi davlatlar asosan 1991-yilda SSSR parchalangandan so‘ng paydo bo‘ldi. Ular orasida Ukraina, Qozog‘iston, O‘zbekiston kabi yirik davatlarni sanab o‘tish mumkin. Boshqa bir guruhdagi davlatlar Yugoslaviya parchalangach yuzaga keldi (Bosniya va Gersegovma, Slovemiya, Xorvatiya, Makedoniya). Chexoslovakiyada ikkita davlat — Chexiya va Slovakiya paydo bo‘ldi.

3. Dunyo siyosiy va iqtisodiy hayotida Osiyo qit’asi mamlakatlari ahamiyati oshib bordi. Ular ulkan tabiiy va kishilik zaxiralari boy va muhim strategik hamda geopolitik holatga ega. Ushbu mamlakatlarning jahon kondensiyasi rivojlanishiga ta’siri yildan-yilga oshib bormoqda. Ular jahon taraqqiyoti tajribasiga o‘z modellari qadriyatlari, norma, ma’naviyatini, axloq-odobini kirimmoqda va hozirda biror-bir dunyoviy muammo ularning faol ishtirokisiz hal etilmaydi.

4. Yangi davrda demokratik rivojlanish qadriyatlari, tamoyil va normalari yanada umiversal hamda global tus olmoqda. Aymi paytda demokratiya va taraqqiyotga intilishning o‘z modelini yaratish kuchaymoqda.

Yangi ozod suveren davlatlar tashkil topishl natijasida turli madaniyat va sivilizatsiyalar muloqoti jarayoni kuchaymoqda. Milliy ma’naviy qadriyatlар va an'analar mustahkamlanishi bilan bir qatorda umum-insomiy ma’naviy qadriyatlар (ozodlik, insonparvarlik, taraqqiyot,

demokratiya, vatanparvarlik, inson huquqlari) ahamiyati oshib bormoqda. Umumdunyoviy tendenslyalar butun jahon madaniy makon shakllanishiga va dunyo miqyosida yagona insoniy mushtaraklik yuzaga kelishiga yordam beradi. Bunday sharoitda yangi demokratiya umumdemokratik asos bilan bir qatorda aniq tarixiy individual mazmun kasb etadi va zamonaviy jahon taraqqiyotining yetakchi kuchiga aylandi.

Jahon miqyosida yangi demokratiyanı o'rnatish, uning asosiy mezon va tamoyillarini shakllantirish oson ish emas. Yangilik va eskilik o'rtasidagi kurash, avlodlar orasidagi nizo, progressiv demokratik kuchlarni jips-lashtirishning qiyinligi, ayrim davlatlarning o'z g'arazl maqsadlari yo'lida progressiv tendensiyalardan foydalanishl yangi demokratiyanı o'rnatish yo'lidagi katta to'slq sanaladi.

**Rossiya 90-yillarda:
demokratiyaning
o'rnatilishi**

M.S.Gorbachev tomonidan 1985-yilda boshlangan qayta qurish qarama-qarshi xarakterga ega edi. Qayta qurish-

dan maqsad tizimning mohlyatini o'zgartirish emas, isloh qilish edi. Shu bilan birga **oshkoralik** va siyosiy **plyuralizm**, yangi fuqaro aholisi — kooperativchilik harakati ishtirokchilarining paydo bo'lisl uni boshlang'ich maqsad sari uloqtirib yubordi. KPSS rahbariyatida yangi kuchlar paydo bo'ldiki, ular kuchli norozilik chilqlishlaridan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qildilar. Ularning maqsadi partiya hokimiyatidagi monopohyani sindirib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va sotsial qurilishini o'zgartirish edi. Bunga partianing Moskva qo'mitasi kotibi **B.Yelsin** rahbarlik qildi. Davlatdagagi demokratik harakat kuchsiz va norasmiy, partiya va tashkilotning yagona dasturiga ega bo'lniagandi. Ammo partiya rahbariyatidagi yemirilish unga yangi kuch bag'ishiadi. KPSS obro'e'tibori yo'qolib, parchalana boshladi.

Partiya rahbariyati o'z siyosatida eski uslubini — demokratik harakatlarni kuch bilan bostirish, siyosiy muxolifat kuchlarni chetga surib chiqarish yo'liga o'tdi. KPSS MKning 1987-yil oktabr plenumida B.Yelsin o'z ma'ruzasida M.Gorbachev yuritayotgan siyosat noizchil, chala ekanligini keskin tanqid qildi. Buning uchun u o'z lavozimidan chetlashtirildi. Siyosiy byuro a'zoligidan

chiqarib yuborildi. 1989-yilda demokratik kuchlar yordamida B.Yelsin SSSR xalq deputati etib saylandi.

1990-yil 17-martda Litva Oliy Soveti Litva davlati mustaqilligini tiklash to‘g‘risida qonun, may oyida esa davlat suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qildi. Boltiqbo‘yi respublikalari SSSR tarkibidan chiqib ketdi.

1990-yilning mayida Rossiya Federatsiyasi xalq deputatlariga saylovlari

bo‘lib o‘tdi. Birinchi syezdda uch ovoz ortiq bilan B.Yelsin Oliy Sovet raisi etib saylandi. **1990-yil 12-iyunda** Rossiya Federatsiyasi davlat suverenitetligi e’lon qilindi. Bu paytda SSSR amalda faqat rasmiy jihatdangina mavjud edi. SSSRning birinchi prezidenti etib e’lon qilingan M.Gorbachev hokimiyat vakolatini yo‘qotgan edi.

1991-yil mayda Rossiya Federatsiyasining prezidenti lavozimi ta’sis etildi va umumxalq saylovda B.Yelsin g‘alaba qozongan va RF prezidenti etib e’lon qilindi. 1991-yil avgustda kommunistlar hokimiyatini saqlab qolish, eski tuzumga qaytish, SSSR parchalanishi jarayonining oldini olishga qaratilgan davlat to‘ntarishiga urinish bo‘ldi. Favqulodda holat bo‘yicha davlat komiteti (GKChP) tuzildi. Unga partiya MK rahbarlari, mудо-фаа, ichki va tashqi ishlar ministrlilari kirgan edi. M.Gorbachev Qrimda uy qamog‘ida deb e’lon qilindi, Moskvaga qo‘sish kiritildi.

Bunga javoban Moskvada Rossiya Federatsiyasi hukumat uyi oldida ko‘pming kishilik namoyish bo‘lib o‘tdi. B.Yelsin demokratiya uchun kurashga boshchilik qildi. Harbiy bo‘linmalar xalqqa qarshi o‘t ochishdan bosh tortdi va putch amalga oshmadni. 29-avgustda Rossiya parlamenti KPSS faoliyatini man etdi. SSSR hukumati iste’foga chiqdi. Milliy respublikalar 1991-yil avgusti va sentyabrida birin-ketin o‘z suverenitetlari va Sovet Ittifoqi tarkibidan chiqishlarini e’lon qilishdi.



Boris Yelsin.

Yelsin Boris Nikolayevich (1931-yilda tug'ilgan) — 1968-yildan partiya ishida. 1987-yilda M.Gorbachevga qarshı tanqidiy chiqishlari munosabati bilan barcha mansablardan olingen. 1989-yilda demokratik harakatni qo'llab-quvvatlashi tufayli SSSR xalq deputatligiga saylangan. 1990-yilda KPSSdan chiqqan. 1990—1991-yillarda — RSFSR Olly Soveti raisi, 1991-yilning iyunidan to 1999-yilning dekabrigacha Rossiya Federatsiyasi Prezidenti.

1991-yil 8-dekabrda Belovej pushasida (Belorussiya) Rossiya, Ukraina va Belorus rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini (MDH) tuzish haqida qaror qabul qildi. O'sha yilning 21-dekabrida bu bitimni SSSRning boshqa to'qqiz sobiq respublikasi imzoladi. (Litva, Latviya, Estoniya bunga qo'shilmadi.) 25-dekabrda SSSR Prezidenti M.Gorbachev iste'foga chiqdi. SSSR rasman o'z mavjudligini tugatdi. Rossiyada demokratiya davri boshlandi.

Demokratlar eski ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni buzishga faol kirishdilar va demokratiya hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirish yo'lidan bordilar.

1992-yilning yanvarida iqtisodiyotda **narx-navoni erkinlashtirish** va **xususiy lashtirish** dasturi e'lon qilindi. Narx-navo keskin oshdi, ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlar kamaydi.

Rossiya Federatsiyasidagi iqtisodiy islohotlarning asosi ishlab chiqarish korxonalarini ommaviy xususiy lashtirish edi. Sovet Ittifoqida sanoat korxonalarining katta qismi daromadsiz, zarar keltirib ishlayotgani uchun qoloq asbob-uskunalarga ega bo'lganidan maxsus korxonalarни sotib olishni istovchilar kam bo'ldi va ular arzimas narxga sotildi. Mamlakatda shosha-pisha korxonalarни sotib olib asbob-uskunalar va xomashyonini tashib ketish, ko'plab moddiy boyliklarni xorijga arzimas narxga sotish jarayoni boshlandi. Ko'plab korxonalar mablag', xomashyo yetishmasligidan yopildi, son-sanoqsiz ishchilar ishsiz qolishdi. Bu to's-to'polonda Rossiya tadbirkorlarining asosiy qismini tashkil etgan, "yangi ruslar" deb atalgan o'n minglab chayqovchilar boylik orttirdi. Foydaga qolgan pullar iqtisodiyotni rivojlantirishga emas, balki shaxsiy boyishga xizmat qildi.

Rossiyada iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni "Buyuk jinoi inqilob" nomini oldi. Ko'pgina "yangi ruslar" o'zlarining noqonumiyligi orttirgan daromadlarini bo'linib kelgan ulkan mafiya tizimining ijtimoiy asosiga aylantirdilar. Siyosiy arboblar, tadbirkorlar, bo'y sunmas tijoratchilarni o'ldirish Rossiyada oddiy hodisaga aylandi.

Mamlakatda iqtisodiyot asoslarining yemirilish jarayoni bordi. Real sektorga hivestitslyalar 90-yillarda 5 marta qisqardi. Korrupsiya misli ko'rilmagan miqyoslarga yetdi. Boshqaruvning samarasizligi barcha darajalarda jamiyatni rivojlantirishning tormizi bo'ldi. Neft va energetikadan tashqari sanoatdagi mehnat samaradorligi AQSHdagidan 5 marta past edi. Raqobatbardosh mahsulotlarni ishiab chiqarish keskin kamaydi.

Rossiyada 1992-yilda boshiangan erkin islohotlar mag'lubiyatga uchradi. Sovet davridan keyingi yillarda Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning biror-bir dasturi bajarilmadi.

Islohoflar natijasida ishiab chiqarish vositalariga yuz foizli davlat mulkchiligiga ega bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'tmish davrda qoldi. Turmush darajasi keskin pasaydi. Sotsializmni qayta tiklash kayfiyatlar kommunistik partiyaning tiklanishiga olib keldi. U Rossiya Federatsiyasi Kommunistik partiyasi (RFKP) deb nomlandi.

Aymay paytda Rossiyadagi iqtisodiy islohotlar mulkchilar sinfining tug'illshiga olib keldi, ular bozor iqtisodiyotning barpo etilishi va g'arb tipidagi demokratiyaning tarkib topishiga yo'naltirilgan islohotlarning davom etishi tarafdlari bo'lib chiqishdi.

Oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy moddiy hayotning uch asosi bo'lib, salomatlik holati esa jamiyat yangilamishi darajasining asosiy ko'rsatkichidir. Bu sohalarda Rossiyada o'tgan o'n yillikda ijtimoiy o'zgarishlar bo'ldi. Aholining katta qismi to'yib ovqat yemaslikdan qiyalmadi. Maishiy turmush va ijtimoiy farovonlikka oid buyumlar doirasi kengaydi. Kundalik turmushda foydalaniladigan predmetlar soni oshdi.

Turar joy qurilishi sohasida, ayniqsa, katta siljishlar kuzatildi. Rossiyada 1991—2000-yillar ichida 1945—1990-yillar oraliq'idagi ulkan davrdagidan ham ko'proq uy-joy qurildi.

Odamlar bepul yoki arzimas narxlarda millionlab

yangi yer uchastkalarini olishdi, 1999-yilda mamlakatda 40 million yer mulki egalari bor edi. Endilikda kishilar ancha keng-mo'l va shinam uy-joylar qurishga o'rgandi. Bu yangi yer mulk egalari 1991-yildan so'ng hosil bo'lgan yangi Rossiya hokimiyatining asosiy tayanchini tashkil etdi.

Yangi hokimiyat amalda chegaralarini ochdi va xorijga chiqishni soddalashtirdi. Har yili (ishga, ta'tilga, xususiy safarga, sayyoqlik yo'llanmalari bilan) 10 millionga yaqin kishi o'z mablag'lari hisobiga xorija chiqadi. Rossiyada "madaniy ishiab chiqarish" kuchaydi. Matbaa mahsulotlari ishiab chiqarish eng ilg'or mamlakatlar darajasiga yetdi. Ta'limning mavqeい oshdi. Oliy o'quv yurtlari soni 1990-yill 502 tadan 1997-yilda 880 taga, talabalar soni 2,9 milliondan 3,2 million kishiga yetdi.

Rossiyada murakkab vaziyat yuzaga keldi. Katta avlod orqaga, 1985-yilgacha bo'lgan davrga qaytgisi kelardi. Biroq yosh avlod yangi hokimiyatni qo'llab-quvvatladi. Rossiya Federatsiyasida 1992—1999-yillarda avj olgan siyosiy kurash, asosan, ijtimoiy kurashni emas, balki avlodlar qarama-qarshiligini aks ettirdi.

Rossiya tarixida hirinchi marta siyosiy kurash parlament usullarida olib borildi. Rossiya Federatsiyasi Oliy Sovetida ko'pchilik kommunistlar tarafiga o'tdi, komunistlar xususiylashtirish, erkinlashtirish va bundan keyingi demokratiyalashtirishga qarshi chiqdilar. Prezident B.N.Yelsin boshchiligidagi islohotchilar kamchilikda qolishdi, ularda jamlangan tashkilot bo'lindi. So'llarda ham (kommunistlar), o'nglarda ham (islohotchilar) muayyan dastur yo'q edi. So'llarning xulqatvori tobora tajovuzkorona, parlamentga mos bo'lma-gan qiyofaga kirdi. Ular o'z kuchimi his etgan holda Yelsinning ushbu tuzumini tezroq bartaraf etish va yana yagona partiya — Kommunistik partiya zug'umiga qaytishga intildilar. Kommunistlar kuchini his etgan ayrim islohotchilar ularga qo'shildilar.

B.Yelsinning yaqinginada safdoshi bo'lib kelgan spiker R.Xasbulatov boshchiligidagi Oliy Sovet prezidentga qarshi ochiq kompamiyani boshiab yubordi.

Kommunistlar yo'boshchilari **1993-yilning 28-martida** prezident mamlakatni boshqarishga qodir emas

degan asos bilan uni prezentlik lavozimidan olib tashlash, ya'ni impichment haqidagi masalam qo'ydi. Biroq impichment yetarli miqdorda ovoz olmadi va so'l muxolifat hirinchi ochiq mag'lubiyatga uchradi.

1993-yilning 25-aprelida prezidentga ishonch haqida umumxalq referendumi o'tkazildi, Rossiya ko'pchilik ovoz b'ilan unga ishonch bildiradi. 1993-yilning 21-sentabrida B.Yelsin Oliy Sovetni tarqatib yubordi va yangi saylovlarni tayyorladi. Bunga javoban parlament uni ishdan tushirilgan deb e'lon qildi. Prezidentga qarshi kuchlar Oq uy hinosida jamlandi va barrikada to'siqlarini qo'ydi. Ular umumxalq qo'zg'oloni va fuqarolar urushidan umid qilishgan edi. Biroq ularni hech kim qo'llamadi.

1993-yilning 3-oktabrida ular Ostankinodagi telemarkazni egallashga harakat qilishdi. Otishmada dastlabki qurbanlar paydo bo'lди. Bunga javoban B.Yelsin farmoyishi bilan Oq uyni zabit etishga kirishildi. Deputatlar taslim bo'lди. Bu voqealar chog'ida 140 ga yaqin kishi halok bo'lди.

1993-yilning 12-dekabrida yangi konstitutsiyani ma'qullagan referendum o'tkazildi. Mamlakatda kuchli prezident hokimiyati qaror topdi. Qonunchilik hokimiyatl ikki palata — deputatlar har besh yilda to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish orqali saylanadigan **Davlat Dumasi** va viloyatlar vakillaridan iborat **Federatsiya Sovetidan** iborat bo'lди. Barcha hokimiyat organlari saylanadigan bo'lди.

1996-yilgi prezidentlik saylovlarida yana B.Yelsin g'alaba qozondi. Rossiyaliklar nafaqat B.Yelsin uchun, balki kommunistlarga qarshi va o'tmishtga qaytmaslik uchun ovoz berishdi. 1999-yil martda Dumada yana impichment haqidagi masala qo'yildi va B.Yelsin qonunchilik yo'li bilan hokimiyatdan chetlashtirishdan qutullishga muvaffaq bo'lди.

1999-ylg' dekabrida Rossiya Federatsiyasida mamlakatda siyosiy ahvolni tuhdan o'zgartirgan Davlat Dumasiga yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Kommunistlar mavqeい pasaydi, prezident yo'lining tarafдори bo'lган "Yedinstvo" ijtimoiy-siyosiy birlashmasi katta g'alaba qozondi. B.Yelsin tarafдори bo'lган o'ng partiyalar ham muvaffaqiyatga erishdi. Dumada ilk marta qonun

yaratuvchilik ishlari uchun me'yordagi sharoit yuzaga keldi. 1999-yilning 31-dekabrida B.Yelsin iste'foga chiqishini e'lon qildi va o'z o'rniga Federal xavfsizlik xizmatining (FXX) sobiq raisi V.Putin tayinlanishini bildirdi. **2000-yilning 26-martida** Muqobil saylovlar natijasida **V.Putin** Rossiya prezidenti etib saylandi.

**Rossiyaning 90-yillar
oxiridagi iqtisodiy
rivojlanishi**

1999-yil Rossiyada iqtisodiy ko'tarilish boshlandi. 1999-yilda IYM (ichki yalpi mahsulot) o'sishl 2 foizni, sanoat

mehsulotining umumiy hajmi o'sishi 8 foizni tashkil etdi.

Mamlakatga ulkan valyutami jalg etishga yordam bergen faol tashqi savdo balansi Rossiya iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'ldi. 1999-yilda Rossiya xorijga 78 milliard dollarlik tovarlarni chiqardi va 32 miilliard dollarlik mehsulotlarni olib kirdi, demak, 46 milliard sof foyda oldiki, bu iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiyalarni ta'minladi. Tashqi savdo aylanmasi geografiyasida muhim o'zgarishiar ro'y berdi. 1999-yilda Rossiyaning G'arbiy Yevropa va Amerika bilan savdo-sotig'i o'sdi va MDH mamlakatlari bilan savdo-sotiq ulushi kamaydi. Rossiyaning MDHga eksporti bu davrda 19 foizga kamaydi, MDH mamlakatlaridan import esa 25 foizga tushib ketdi.

Rossiyaning 90-yillar — Sovet Ittifoqining parchalanishi tufayli tashqi siyosati Rossiya ulug' davlat maqomini yo'qotmadi. U yadro quroli, qudratli harbiy havo kuchlari va harbiy-dengiz flotiga ega. U o'z harbiysiyoziy va harbiy-strategik pozitsiyalarini saqlagan bo'lsa ham, ta'siri va obro'si pasaygan. U BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lib qoldi va sobiq Sovet Ittifoqi davridan mustahkamlanib qolgan barcha muhim o'rinnarni saqlab qoldi.

AQSH B.Yelsinda Rossiyada demokratik islohotlarning ishonchli kafolatini ko'rdi va uni qo'llab-quvvatlandi. U bir qator Rossiya tovarlari uchun o'z bozorini ochib berdi va bu bilan Rossiya iqtisodiyotining to'liq inqirozga uchramay qolishiga yordam berdi.

Rossiyaning G'arbiy Yevropa bilan munosabatlari yaxshilandi. 1994-yilning 31-avgustida Rossiya Germaniyadan o'z qo'shinlarini olib chiqlshni tugatdi. Bu Yevropadagi vaziyatni o'zgartirdi. Germaniya o'z

an'anaviy poytaxti — Berlinni qaytarib olib, eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Garchi Germaniyada amerika, fransuz, ingliz qo'shnulari hali-hanuz qolayotgan bo'lsa-da, u shunga qaramay o'z suverenitetini tikiadi va endilikda jahon siyosatida Fransiya va Angliya bilan teng holda ishtirok etishi mumkin.

Rossiya tashqi siyosatidagi muhim yo'nalishiardan biri uch davlat — Rossiya, Xitoy va Hindiston ittifoqi g'oyasidirki, u Hind okeani va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikning ishonchli kafolati bo'lishi mumkin.

1999-yil Rossiyaming AQSH va NATO bilan munosabatiari uchun og'ir sinovlar ylli bo'ldi. AQSH va NATO Serbiyadan Kosovoni ajratib olishga urinishi Serbiyaning qarshiligiga uchradi, uni Rossiya qo'llab-quvvatladi. Rossiyaning fikrini hisobga olmaslikka urinish va Kosovo bo'yicha biryoqlaina qaror qabul qilish Rossiyaning diplomatik faolligini kuchaytirdi, u Serbiya va Kosovoda bombardimonlarni to'xtatishga muvaffaq bo'ldi. Bosniya va Gersegovinada jamlangan Rossiya tank brigadasi kutilmagan zarba bilan Kosovo-Prishtinoda xalqaro aeroport bilan hirgalikda muhim aholi yashaydigan joyni egalladi va u yerda o'z nazoratimi o'rnatdi. Bu xatti-harakat bilan Rossiya Bolqondagi o'z pozitsiyalarini mustahkamlashda muhim yutuqqa erishdi.

Belorus-Rossiya munosabatlari ham muvaffaqiyatli rivojlandi va Belorus rahbariyatl Rossiya va Belorus Ittifoq davlatini tuzish haqidagi bitimga erishdi, bu bitim ikkala davlatlar parlamentlari tomonidan tasdiqlandi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yilning 8-dekabrida Minskda Belorussiya, Rossiya va Ukraina rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini (MDH) tuzish haqidagi Bitimni imzoladi. Unda SSSR chuqur inqiroz va parchalamish sharoitlarida o'z mavjudligini tugatgani qayd etildi va siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intillsh haqida bayonot berildi. 1991-yil 21-dekabrda bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmamiston va O'zbekiston qo'shildilar. Ular Almatida MDHning maqsad va tamoyillari haqidagi Bayonotnomamni Rossiya, Ukraina

va Belorussiya bilan birgalikda imzoladi. 1993-yilda MDHga Gruziya qo'shildi. Shu yili MDH Nizomi qabul qilindi, u davlatlarning birgalikdagi faoliyati sohalarini ko'zda tutdi. Bu sohalar inson huquqlari va erkinliklarni ta'minlash, tashqi siyosat faoliyatini muvo-fiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish, transport va aloqa tizimini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik, aholi sog'lig'ini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish, emmigratsiya va ijtimoiy-siyosiy masalalar, uyushgan jinoyatchilik bilan kurash, tashqi chegaralarni mudofaa va muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni o'z ichiga oldi.

MDH organlari tashkil etildi. Ular ichida eng muhimlari Davlat boshliqlari soveti, Hukumat boshliqlari soveti, Tashqi ishlar vazirlari soveti, Davlatlararo iqtisodiy sovet, Parlamentlararo assambleya (markazi Sankt-Peterburgda). MDHning doimiy ijroiya organi Muvofiqlashtiruvchi-maslahat qo'mitasi bo'lib, tezkor faoliyatni amalga oshiradi.

MDH mavjud bo'lган muddat mobaynida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda biron-bir jiddiy siljishiarga erishmadı. 1200 ga yaqm hujjatlar, qarorlar qabul qilindi, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash rejalari ko'zda tutildi, biroq ulardan yuzdan ziyodrog'i bajarildi, xolos. Qorabog' va Abxaziya, Sevastopol va Qora dengiz floti muammolari hal etilmadi. Davlatlar o'rtaida o'zaro da'volar yuzaga keldiki, ular bu davlatlarni bir-biridan uzoqlashtirdi. Umuman, MDH davlatlarni biron-bir umumiy maslak asosida birlashtira olmadi va ularning har biri o'z muammolarini o'z kuchiga suyamb hal qildi.

MDH mamlakatlarining asosiy muammosi 1989-yilda boshlangan iqtisodiy pasayish edi.

MDH 12 mamlakatidan to'qqiztasida yalpi milliy mahsulot (YMM) ishlab chiqarish o'n yil mobaynida 40 foizdan ziyodroqqa tushib ketdi. Gruziya, Ukraina va Moldovada eng qlyim ahvol yuzaga keldi.

MDH mamlakatlari jahon moliya tashkilotlari va iqtisodiy islohotlar bo'yicha xalqaro ekspertlarning baracha tamoyllarini bajarishdi. Ular davlat korxonalarini xususiyashtirdi, barcha rahbar va rejalashtiruvchli muassasalarini bartaraf etib, **iqtisodiy tuzumni qayta tuzil-**

malashni amalga oshirdi, narx-navo va savdoni erkinlashtirishdi, bank tizimini isloq qilishdi.

Barpo etilgan bozor iqtisodiyoti bu davlatlarga qimmatga tushdi, biroq olingan samara salbiy bo'ldi. Faqat O'zbekistongina iqtisodiyotning butkul inqirozidan qutulishga muvaffaq bo'ldi. Bu davlatlar G'arb kreditlari va investitsiyalarini olishni mo'ljallahgan edi, biroq bu umidlar o'zini oqlamadi. G'arb nafaqat iqtisodiy, balki inson huquqlari, demokratizatsiyalash, siyosiy erkinlashtirish bilan bog'ilq bo'lgan siyosiy islohotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish haqida so'zladiki, bular albatta iqtisodiy o'pirilishdan siyosiy beboshlikka olib kelgan bo'lardi. MDH davlatlari uchun o'tish davri bunday uzoq va qiyin kechganining asosiy sababi shunda edi.

Biroq MDH mamlakatlaridagi iqtisodiy inqirozning boshqa sabablari ham bor edi. Davlat mulkini xususiy lashtirish sanoat korxonalarini yangilashni ta'minlamadi, balki mulklarni taqsimlashga olib keldi.

Nihoyat kommunistik partiya diktaturasining ag'darilishi, uning yakkahokim kuchlari va qatag'on organlarining tugatilishi bilan ayrim davlatlarda hokimiyatni egallagan **millatchilik** kuchiari faollandi. Iqtisodiyot sohasida yomon tayyorgarlikka ega bo'lgan holda o'z faoliyatini millatchilik da'volarini amalga oshirishga bag'ishlashdi va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish o'rniga millatchilik kompaniyalarini o'tkazish va soxta vatanparvarlikni namoyish etish bilan shug'ullandilar.

Ayni paytda MDH davlatlari qiyinchiliklarni yengish uchun katta imkomiyatlarga ega.

1. Bu davlatlarda demokratiya tamoyillariga asoslangan siyosiy barqarorlik qaror topgan. Bu hol barcha siyosiy kuchlarni o'z mamlakatlarini inqiroziy ahvoldan olib chiqish maqsadlarida konstruktiv va amaliy hamkorlik uchun qulay ijtimoly-iqtisodiy muhitmi yaratishga imkon beradi.

2. MDH davlatlari yuqori madaniy va intellektual imkomiyatga ega. Bunda o'z milliy ziyoldari shakllangan va rivojlanishning o'z modelini ishlab chiqish uming qo'lidan keladiki, buni O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. Mazkur davlatlar hozirgi rahbarlarining ko'pchiligi tajribali siyosiy arboblar bo'lib, milliy

cheklanganlik va milliy da'volar qanchalik zararli ekanligini yaxshi tushurishadi.

3. Tahiat bu davlatlarga tabiiy boyliklarni mo'l-ko'i ato etgan. Ularda zamonaviy rivojlangan davlatlarni barpo etish uchun hamma narsa mavjud. Yetarli energiya zaxiralari, zamonaviy infratuzilma, transport va yaxshi darajadagi aloqa tizimi borki, ular eng murakkab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishni ta'minlashi mumkin.

4. MDH davlatlari qulay geopolitik holatga ega. O'rta Osiyo quruqlikda London va Singapur oralig'Idagi yo'lning o'tasida joylashgan. Kelgusida Mashhaddan Zohidongacha (Eron) bo'lgan temir yo'l qurilishi markazlar o'tasidagi to'g'ri aloqami ta'minlaydi va Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo savdo oqimi aynan mana shu yo'lidan o'tadi. U asosiy jahon iqtisodiy yo'llaridan biriga aylamishi mumkin. Kavkazorti respublikalari, Ukraina, Belorus ham yaxshi geosiyosiy imkoniyatlarga ega.

Hozirgi paytda MDH mamlakatlari oldida uch muammo — suveremetmi mustahkamlash, davlatlar o'tasida mintaqaviy integratsiya asosida mustahkam iqtisodiy aloqalarni barpo etish va o'z rivojlanish yo'llarini shakllantirish turibdi. 1998-yilda imzolangan GUAM loyihasi (Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova) transport hamkorligi integratsiyaviy jarayonlarini amalga oshirishdagi yorqm misoldir. O'rta Osiyo respublikalarini Gruziyaning Qora dengiz portlariga, ular orqali esa jahon bozoriga chiqishiga imkon beruvchi **TRASEKA** loyihasi o'zlashtirish hosqichida turibdi.

Qisqacha mazmuni

- XX asr 90-yillari — "yangi demokratiya davri"
- 1985-yil — sobiq SSSRda qayta qurish (M.Gorbachev)
- 1990-yil — Boltiqbo'yи respublikaiarining SSSR tarkibidan chiqishi
- 1990-yil 12-iyun — Rossiya Federatsiyasi mustaqilligining e'lon qilinishi
- 1991-yil 8-dekabr — MDH tashkil topishi
- 1993-yil 12-dekabr — Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasining qabul qilinishi

- 1994-yll 31-avgust — G'arbiy Germaniyadan Rossiya qo'shinlari olib chiqilishining yakunlanishi
- 1999-yil 31-dekabr — B.Yelsinning iste'foga chiqishi
- 2000-yil 26-mart — V.Putinning Rossiya prezidenti etib saylanishi
- 1999—2000-yillar — MDH mamiakatiarining konstruktiv va amaily hamkorlik o'rnatishga intilishlari

Savollar

- ? 1. "Yangi demokratiya davri" asosiy xususiyatlarini sanang.
2. 80-yillarda mustaqil davlatlar shakllanishiga qanday voqealar imkon yaratdi? Bu paytda qanday mustaqil davlat tashkil topdi?
3. Qayta qurish siyosatini e'lon qilgan M.Gorbachev qanday maqsadni ko'zda tutgan edi? Bu siyosat nima uchun inqirozga uchradi?
4. Rossiyada 90-yillarda iqtisodiyotni erkiniashtirish jarayoni qanday oqibatlarga olib keldi?
5. Rossiyaliklar 90-yillarda qanday umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lishdi?
6. B.Yelsinning Rossiya Federatsiyasi prezidenti iavozimidagi faoliyatining yakunlari qanday?
7. Bugungi kunda MDH a'zolari bo'lgan davlatlar qanday muammoiarni hal etishi iozlm?
8. Siz nima deb hisoblaysiz, MDH o'z kelajagiga egami? Fikringizni asoslab bering.

VIII b o b

XX ASR
IKKINCHI YARMIDA
FAN VA MADANIYAT



47-§. FAN VA MADANIYAT ARBOBLARINING INSONPARVARLIK, TARAQQIYOT VA DEMOKRATIYANING QAROR TOPISHIDAGI ROLI

XX asr ikkinchi yarmida insoniyat ma'naviy hayoti yuqori ko'tarinkilikka erishdi. Ikkinci jahon urushi fundamental va amaliy fanlarning rivojlanishiga qudratli turtki berdi. Bu bilan yangi tizimli quro'l-aslahan, qo'shing'larni transportda tashish, elektron aloqa vositalariga ehtiyojni oshirib yubordi.

**Fan-texnika inqilobi va
uning oqibatlari** Fan va texnologiya XX asr ikkinchi yarmida ijtimoiy hayot uzra ustuvorlik qildi.

Yadro quroliga ega bo'lgan texnologiya katta davlatlar o'rtaisdagi mojaroni xavfli darajaga yetkazdi. Biroq texnologiya ayni paytda mo'l-ko'ichilikni ham yaratadi. Texnologiya tibbiyotda, uchinchi dunyoda bolalar tug'ilishi, "portlashi" ni ta'minladi va umr davomiyligini oshirdi, ko'plab xavfli kasallikkardan qutqardi. Texnologiya "yashil inqilob" ko'rinishida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirdi.

Dunyoni hozirgi paytda **uchinchisi sanoat inqilobi** qamrab olganki, u uch jihatdan ulkan global ta'sir ko'rsatmoqda: 1) **fizika fanlari**, unda yadro energiyasidan foy-



Planetalararo "Mir" avtomatik stansiyasi.

dalanish va kosmosni tadqiq etishda katta yutuqlarga erishildi; 2) **biologiya fanlari**, unda genetika va tibbiyotda yirik kashfiyotlar qilindi; 3) **kommunikatsiya va axborotlar** sohasi, unda kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiyalarga beqiyos yo'l ochildi.

Yadro fizikasi yadro texnologiyasini rivojlantirish uchun asos yaratdi. Lazer ta'sirining asosiy tamoyillari A.Eynshteyn tomonidan 1916-yilda bayon etib berilgan edi, biroq hirinchi ishiovchi lazer generatori amerikalik muhandis **Teodor Mayman** tomonidan 1960-yilda yaratildi. Lazer texnikasi fan va texnikaming barcha sohalariga kirib bormoqda.

Kosmosni amaliy tadqiq etish 1957-yilda boshlandi, o'shanda qudratli sovet raketasi kosmik orbitaga yerning birinchi sun'iy yo'ldoshimi ollb chiqdi. 1961-yilda sovet uchuvchisi **Yuriy Gagarin** kosmosga birinchi bor parvoz qildi. 1960-yildan Amerika va sovet olimlari o'rtaasida kosmosni o'zlashtirishda beqiyos musobaqa boshlandi. 1969-yil 20-iyuida amerikaliklar hirinchi bo'lib Oyga qo'ndi. 1970-yilda kosmik orbitaga yuzlab yo'ldoshlar va aloqa stansiyalari, yo'ldosh-josuslar va meteoroligik yo'ldoshlari chiqarildi.

Biologiya farning genetika sohasida inqilobiy kashfiyotlar amalga oshirildi. 50-yillar boshiarida olimlar xromosomalar eng avvalo DNK kislotalaridan iboratligini va aynan DNK genetik axborot tashuvchi ekanligini aniqlashdi. 1953-yilda amerikalik olim Jeyms Vatson va ingлиз олими Frencis Krin Kembrij universitetida birga ishlagan chog'ida ilk bor DNK tuzilishi formulasimi ma'lum qilishdi.

1962-yilda olimlar bu kashfiyot uchun Nobel mukofoti olishdi. Biroq, bu genetika sohasidagi buyuk kashfiyotlarning faqatgina boshianishi edi. 60-yillar o'rtaida genetik kodning ishlashi tizimi ochildi. 90-yillarda esa yangi fan — **gen injeneriyasi** paydo bo'ldi, u bir organizm hujayralarini boshqasiga o'tkazish va irlsiyatiga ta'sir etish, sun'iy urug'lantirishmi amalga oshirishga qodir edi. 1998-yilda ilk bor sun'iy yo'l bllan yaratilgan hayvon paydo bo'ldi.

Genetika muvaffaqiyatlari natijasida yuzaga kelgan yangi tibbiy dori-darmonlar qizamiq, chechak, poliomiyelitni tugatishga yordam berdi. 60 va 70-yillarda buyrak ko'chirib o'tqazildi va sun'iy yurak yaratildi.

Ommaviy madaniyat

Radio va televide niye ommaviy madaniyat (yoki "pop-kultura"ni) yaratdi. Avvalo, Yevropani amerika madaniyati to'ldirib yubordi. G'arb madaniyatini amerikalashtirish qariyb 20 yil: 1945—1965-yilgacha davom etdi. U har narsadan ozod, harakatchan, o'zini erkin tutuvchi, doimo auditoriya bilan aloqada tutuvchi bo'lgani uchun G'arb mamlakatlari aholisi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatdi. Yevropacha gastrolga kelgan buyuk zamonaviy musiqachilar **Dyuk Ellington** va **Lui Armstrong** rahbarligidagi jaz orkestrlari, radio va televide niye orqali butun qit'aga tarqalgan, ularning musiqasi hozirgi zamon ommaviy madaniyatining durdonasiga aylandi. Amerika musiqasi ohangida (40-yillarda — "bugivugi, 50—60-yillarda — rok-n-roll) butun Yevropa, Sharqni ham mustasno etmaganda, raqsga tushdi. Amerika musiqasi Golivud filmlari bilan to'lib-toshgan edi. Ularning hammasi ham san'at nuqtai nazaridan munosib emas edi, biroq ular kinoteatrlar ekranlarini to'ldirib yubordi, Yevropa madaniyatini amerikalashtirish tomoniga mutlaqo burib yubordi.

Amerikalashtirish va ommaviy madaniyat g'arb mamlakatlarining madaniy rivojlanishiga ulkan zarar yetkazdi. Shu zaminda tijorat madaniyati gullab-yashnadi, uning asosiy mazmun-mohiyati tijorat daromad, foyda bo'ldi. Madaniyat bamisolik ikki darajaga bo'lindi. Hali ham klassik (mumtoz) madaniyat — opera, balet, simfonik, klassik musiqa muvaffaqiyat bilan rivojlandi va olqishlarga

sazovor bo'ldi. Uning o'choqlari Parijda — "Grand opera", Milanda — "La Skala", Londonda — "Albert-xoll" mavjud. Biroq bu madaniyat badavlat kishilar uchun to'g'ri kelardi.

Ommaviy madaniyat esa keng omma uchun mo'ljalangan edi. Estrada — o'z xonandalari, raqqosalari, ansamblari bilan oddiy va ohangdor qo'shiqlarni kuylab katta-katta auditoriyalarni o'ziga jalb etdi.



"Bittlz" ansamбли.

Ommaviy madaniyat plastinka, kasseta va kompakt-disklarning ommaviy tiraji tufayli juda keng tarqaldi. Ommaviy madaniyat o‘z yulduzlarini yaratdi. “ABBA” shved va “Bittlz” inglez ansamblari shunday yulduzlaridan edi. Ommaviy madaniyat tomoshabop tadbirlarning ulkan tijorat majmuini yaratdiki, u amerikacha “shoubiznes” atamasi bilan nomlandi.

Yangi falsafa va madaniyat

Fan-texnika inqllohi va uning ijtimoiy oqibatlari Yevropa mamlakatlarida tarixiy hayot-

baxshilikni tikladi va jamiyat madaniyatida o‘z muhrimi qoldirgan bir qator siyosiy aqidalarning paydo bo‘lishiga imkon yaratdi. “**Farovonlik jamiyati**”, “**texnotron jamiyat**”, “**iste’mol jamiyati**” kabi nazariyalar paydo bo‘ldiki, ular jamiyatdagи sotsial munosabatlarning haqlqlы manzarasini bezab ko‘rsatishga intildi, soxta farovonlik va ijtimoiy mojaro eskirgami haqida uqtirdilar. Ularda gap asosan G‘arb mamlakatlari haqida bordi.

Bu adabiyot va san‘atda ularning shakl va mazmumi buzilishida aks etdi. Endi g‘arbcha jamiyat qadriyatlarini tanqid qilib chiqishga jur‘at etmadи — ularni hech kim e’lon ham, reklama ham qilmas edi. To‘g‘ri, 20- va 30-yillar mumtoz adiblari hali tirik edi (J. Steynbek, M. Remark, E. Xeminguey va boshqalar), hiroq ularda ilgarigi keskin tanqidiy kayfiyat jamiyatning axloqiy negizlarini fosh etish to‘liq yo‘q edi. Buyuk Steynbek esa Vyetnamdagi urushni qo‘llab-quvvatladи ham.

30-yillarda G‘arbda Ikkinci jahon urushidan so‘ng ustuvor bo‘lgan falsafa paydo bo‘ldi. Gap **ekzistensializm falsafasi** haqida borayapti. U ijtimoiy hayotning barcha turlariga kirib bordi va favqulodda mashhur bo‘llb ketdiki, bunga asosan fransuz yozuvchisi, faylasufi va publitsisti **Jan Pol Sartr** (1905—1980) sababchi bo‘ldi. G‘arbing qariyb butun ommaviy ongi ekzistensializm falsafasiga asoslandi.

Satr o‘zining “Borliq va yo‘qlik” (1943) asarida shunday yozadiki, odamlar eng avvalo nima uchun yashayotganining mohiyatimi tushunishini xohiashadi, biroq faqat sokin, xudosiz va maqsadsiz dunyoni topishadi, xolos. Shunday qilib, inson mavjudligi “absurd” bo‘lib qoladi. Biroq, boshqa tomondan o‘z hayotining absurdligini (ma’nosizligini) inson erkinlik bilan to‘ldiradi. Hayotda ma’no va mutlaq qoidalar yo‘q ekan,

odamlarda mohiyat yoki tug‘ma xarakteristika yo‘q. Ular— “yo‘qlik”, erkinlikdan foydalangandagina “nimadir”ga aylanishadi. Odamlar bunda qanday xattiharakat qilishni o‘zları tanlashadi. Shunday qilib, “mavjudlik mohiyatdan oldin yuradi”, ya’mi odamlar mohiyatga ega emas ekanlar, ular o‘zlarini har kungi mavjudlikda (ekzistense) qaror toptirmoqlari lozim. Sartrning fikricha, to‘g‘ri odam hayotda faol qatnashuvchi, doimo mashq‘ul kishi bo‘lishi lozim.

Ekzistensializm hir tomondan, tushkunlikka ega bo‘lsa-da, boshqa jihatdan — odamlarni nias’ul va faol yashashga undaydi. G‘arbning ko‘pgina yozuvchilar ekzistensializmning katta ta’siri ostida bo‘lishdi. Umi ommaboplashfirishda fransuz adibi **Albert Kamyu** asarlarining ahamiyati katta bo‘ldi. U bu oqimning AQSHda keng tarqalishiga imkon yaratdi. Yozuvchining “O‘lat” (1947) romanida o‘latning shaharga yopirilib kelishining dahshatli manzarasi tasvirlanadi. Hayotning absurdligi begunoh odamlarning halok bo‘layotgami bilan ta’kidlanadi. Biroq, oxir-oqibatda ular yovuzlikka qarshi kurash boshiashadi.

Ekzistensializm g‘oyalari kino, teatr va san’atning barcha turlariga kirib bordi. Mashhur italyan rejissyori **Federiko Fellini** 1960-yilda “Shirin hayot” filmini qo‘ydi. Bu filmda oliv jamiyat hayoti — mehr-muhabbati, yaqinlariga mehribonligi yo‘q odamlar bir-birlarining yonlarida to‘liq yolg‘izlikda yashashadi, ayni paytda, boshqalarga mehr-oqibatl va madadkor oddiy kishilar hayoti ham ko‘rsatilgan.

Ekzistensializmning asosi bo‘lgan absurd hayot zamonaviy amerika yozuvchilarining asarlarida o‘z aksini topgan. **Kurt Vonnegut** va **Jozef Keller** kitoblarida urushning absurdligi ko‘rsatilganki, ular Vyetnamdagagi urush davrida katta muvaffaqiyatga sabab bo‘ldi. Bu kitoblar amerika yosiliarining butun avlodimi tarhiyalab, ularni urushga qarshi norozilikka chaqirdi, odamlarga hayot yo‘lini ko‘rsatdi. Urushga qarshi norozilik va amaliy ishlarga chaqiriq g‘arbcha fikrlash tarzi demokratizm, liberalizmni rivojlantirish va fundamental inson huquqlarini qaror toptirishga imkon yaratdi.

Falsafiy tafakkurming boshqa muhim yo‘nalishi “**taraqqiyot doktrinasi**” bo‘ldi. Unda XX asr varvarlik va g‘ayriomsomiylikning beshafqat hodisalarining guvohti

bo‘lganligi tan olinadi. Shunday bo‘lsada, bu ta’limot insoniy baxt-saodat va taraqqiyot amalga oshishiga ishonch bildiradi.

Amerikalik faylasuf **Charlz Frenkel** “Taraqqiyot doktrinasi”ning eng yirik maskurachisi va ifodalovchilaridan biri bo‘ldi. Muallif o‘zining “Zamonaviy odamning ishi” (1955) va “Demokratik kelajak” (1962) kitoblarida “odamzod taraqqiyoti”ni “modernizatsiya” (yangilanish) imqilobi, ya’ni moddiy va intellektual taraqqiyot hamda axloqiy imqllob natijasi deb hisoblaydi.

Venger psixologi **Zigmund Freydning** psixoanaliz usuli san’at rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi, inson shaxsi haqidagi tasavvurlarni to‘liq o‘zgartirib yubordi. Olimning tasdiqlashicha, inson psixikasida ko‘plab “yashirin”, “noamiq”, “notimiq” narsalar borki, ularni oddiy yo‘l bilan bdib bo‘lmaydi, san’atkorning vazifasi inson qalhidagi bu ichki alg‘ov-dalg‘ovlikni tasvirlay ola bilishdir.

Tasviriy san’atdagi syurrealizm Nemis fashizmi bilan urush paytida amalgalashishiga oshirilgan ommaviy yovuzliklardan butun dunyo larzaga keldi. Bunday jinoyatlarni amalgalashishiga kishilar oddiy insomiy qiyofaga ega, o‘z bolalarini sevgan, klassik musiqami qadrlagan, vatan va burchga sodiq insonlar bo‘lgan. Bu hol san’atkorlarni kishining tashqi ko‘rimishi aldamchi ko‘rinish va ichki dunyosiga muvofiq kelmasligi haqidagi fikrga olib keldi. Ular real hayotdan qarama-qarshi tomonda bo‘lgan ongosti dunyosini izlashga kirishishdi. Realizm g‘arb tasviriy san’atida yo‘qola bordi, unda **“syurrealizm”** (realizmning teskari tomonidan) ustunlik qila boshiaydi.

San’atdagi ko‘plab oqimlar syurrealizmga tayandi. Abstrakt (mavhum) ekspressionizm katta ta’sirga ega bo‘ldiki, uning taniqli namoyandalari **Jekson Pollok** (1912—1956), **V.V.Kandinskiy** (1866—1944), **Maks Ernest** edi. Ular chiziqlar, geometrik figuralar va hajmlardan tartibga solingan konstruksiyalar yaratishdi, shuningdek, rangli dog‘lar va hajmlarning tartibsiz, ayqash-uyqash to‘vida ijodiy ongsizlik, stixiyalikni ifodalashga intildilar. Syurrealizm asosida kubizm, dadaizm, fovizm, yangi obyektivizm kabi oqimlar rivojlandi.

Kubizmning eng mashhur vakili ispan rassomi **Pablo Picasso** (1881—1973) edi. U tabiat va insonni o‘z ongi-

da qanday tasavvur etsa shunday, ularning estetik yoki realistik tomonlari haqida qayg'urmasdan tasvirladi. Uning suratlari bitmas-tuganmas mazmunga ega bo'lib, ularning ma'nosi hech qachon topilmaydi.

Surrealizmning kubistik yo'nalishdagi boshqa taniqli namoyandası **Mark Shagal** (1899—1985) edi. U Vitebskda tug'ildi. Sankt-Peterburgda o'qidi, biroq uning butun ongli hayoti Parij va AQSHda kechdi. Uning

suratlari chek-chegarasiz tasavvur va yorqin bo'-yoqlari bilan ajralib turadi. Bu suratlar realistik san'at ruhida tarbiyalangan kishilar uchun tushunilishi qiyin. Biroq mazmunan ular rus ertaklari va qadimgi yahudiy rivoyatlarini o'zida namoyon etadi.

Surrealistlar orasida ayniqsa ispan rassomi **Salvador Dali** (1904—1989) ajralib turadi. Mutaxassislarining fikricha, uning asarlarida gallyutsinatsiyalar (yo'q narsalarning ko'rinishi) va shayton vasvasalari ustivorlik qiladi. Bu mavzular uning san'atida asosiy



XX asr odami. Italiany skulptori Alberto Jiakometti.

mazmun bo'ldi va tegishlicha uning tasvirlash shakllari ham reallikdan uzoq edi.

Yangi yo'nalishdagi rassomlar ijodida insonparvarlik, ezgulik, demokratiya, ya'ni umuminsoniy qadriyatlar ustun turdi.

AQSHda madaniyat rivojlanishi

Iqtisodiyot va siyosatda o'z hukmronligini nafaqat o'matishga intildi, balki madaniy hayotda cheklashlar qilishga ham harakat qildi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda davlat xizmatchilari va madaniyat arboblarini "loyallikka tekshirish" faol kompaniyasi boshlandi, zero ularning AQSHdagi ahvolga o'z qarashlari bor edi. Qo'poruvchilik toifasiga kiritilgan yozuvchi yoki

Urush tugagandan so'ng mamlakatda qadratli harbiy kompleks hosil bo'ldiki, u

madaniyat arboblarining asarlari man etish yoki yo'q qilishga duchor etilardi. Bu AQSHning madaniy rivojlahishiga katta zarar yetkazdi.

J.Steynbek romantik samimiyligi bilan ajralib turuvchi yozuvchi bo'lsa-da, urushdan so'ng o'z iste'dodiga muvofiq keluvchi asarlarni yaratmadи. Biroq, u urushdan keyingi 23 yillik bayoti mobaynida oddiy odamlar dunyosidagi ezgulik va go'zallikka bag'ishlangan 22 kitobni e'lon qildi. Ular orasida eng muhimlari 27 marta nashr qllingan "Bizning xavotirlarimiz qishi" (1961) va 39 marta chop etilgan "Charli bilan sayohatlar" (1962) asarlaridir. Agar "Bizning xavotirlarimiz qishi" murakkab axloqiy va psixologik muammolari bo'lgan istehzoll roman bo'lsa, "Charli bilan sayohatlar"da yozuvchi oddiy amerikaliklar hayotiga yana qaytadi. U mamlakat bo'yab o'z sayohatida o'rtacha amerikalikning ongini qamrab olgan jangovar militaristik ruhga duch keladi. Kitob do'konlari yengil-yelpi mavzular, ko'ngilni ozdiradigan, badiiylikdan mahrum bo'lgan romanlar bilan to'lib-toshgan. Asar qahramoni bo'lgan eng yomon narsa, mamlakatda o'z ildizlarini saqlab qolgan irqchilik bo'ldi.

1962-yili Steynbek Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi, uni butun dunyo bildi, faqat Amerika bilmadi. Rasmiy Amerika uni "bir shingil qahr-g'azab" uchun kechlra olmadi va u to 1954-yilgacha o'z mamlakatlda kitob nashr etishga imkon topmadи. Bu vaqtدا u atigi bir necha maqola va hikoyalarini turli gazetalarda e'lon qila oldi, xolos.

Amerika klassik adabiyotining boshqa vakillaridan **E.Xeminguey** "Qo'ng'iroq kimga hong uradi" romani nashr etilgandan so'ng qariyb 10 yil yirik asar yozmadи.

1950-yilda u "Daryo ortidagi daraxtlar soyasida" romanini e'lon qildi, bu asar o'tgan urush haqlidagi xotiralar va urushdan keyimgi dunyo haqidagi o'ylarga bag'ishlandi. Kitobda aks ettirilgan g'oyalar qo'poruvchilik toifasiga mansub deb topildi va muallif dissidentlar qatoriga qo'shildi. Shunda u vatanini tark etishga qaror qildi. U Kuha inqilohi arafasida bu orolga ko'chib o'tdi.

1952-yilda E.Xeminguey o'zining so'nggi yirik asari bo'lgan "Chol va dengiz"ni yozdi. Bu asar inson g'ururi haqida: odam hatto qariganda ham yengib bo'lmasdir va u oxirigacha kurashmog'i lozim. 1954-yilda "Chol va dengiz" romani uchun unga Nobel mukofoti berildi. 1961-yil

E.Xeminguey Kubada o‘z uylta o‘z joniga qasd qildi. Hozirga qadar bu fojia sirini hech kim topmay kelayotir.

Makkartizmga qarshi norozilik sifatida AQSHda “bitniklar” adabiy oqlimi paydo bo‘ldi. Ularning eng ko‘zga ko‘ringani “Yo‘lda” (1957), “Yerostl odamlari” (1958) va “Dharma daydilari” (1959) romanlari muallifi **Jek Keruak** (1922—1969) edi. Ular Amerikaning butun hukmron sinfini qamrab olgan ikkiyuzlamachi manfaatparastlik axloqiga qarshi isyon ko‘tardi. Bu isyon oligarxiya xususiyatiga ega bo‘lib, sekin-asta pasayib bordi. Uning o‘rniga nigilik “xippi” oqimi keldi.

Urushdan keyingi Amerika adabiyotida **radiopyesalar** muhim o‘rim tutdi, ular ommaviy televide miye paydo bo‘lgungacha ko‘plab iste’dodli yozuvchilarni o‘ziga jalb etdi. **Rey Bredberi** — bu yo‘nalishdagi eng yaxshi yozuvchilardan biri. U “Farengeyt bo‘yicha 451”, “Mars xronikalari”, “Qoqio‘tlardan musallas” qissalarini e’lon qildi. “Yaylov” radiopyesasi 1947-yilning 2-yanvarida radio orqali eshittirildi va Amerikaning eng yaxshi radiopyesasi deb e’lon qilindi. Markazi AQSH bo‘lgan fan-texnika inqlobi adabiyotga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu yerda ajoyib ilmiy-fantastik romanlar nashr etildi, ular o‘z davridan o‘zib, kashfiyotlarni oldindan bashorat etdi. Bu kashfiyotlar keyinchalik hayotda ro‘yobga chiqarildi. Fantast yozuvchilar orasida **Ayzek Azimov** (1920-yilda tug‘ilgan) va **Mitchell Uilson** “Chaqmoqlar orasida yasha” (1949-yil) eng ommaboplari bo‘ldi. O‘qigan sohasi bo‘yicha biokimyogar olim bo‘lgan Ayzek Azimov “Koimot” nomli butun bir kitobiar turkumi yaratdi, unda “yulduzli urushiar va kosmosdagi janglar”ni oldindan bashorat qildi.

AQSHda XX asr so‘nggi choragida o‘qishli badiiy adabiyot namunalari ko‘paydi. Bunga sabab — shu davr Amerika turmush tarzidagi tezkor o‘zgarishiarni aks ettiruvchi yozuvchilarning yangi to‘lqini adabiyotga kirib keldi. Ular uslubning soddaligi, hayotga yaqinlik, realizmni olib kirdilar va oddiy insoniy munosabatlarni iliqligini saqladilar. Ular orasida **Kurt Vonnegut**, **Syui Myuller** va **Domenik Dann** alohida o‘rin tutadi.

Angliyadagi madaniyat rivojlanishi Angliya yuqori intellektual madaniyat o‘chog‘i sifatida jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga barcha G‘arbiy Yevropa mamlakatlari orasida eng katta ulush qo‘shti.

XX asrning ikkinchi yarmi Angliya uchun yangi adabiy ko'tarinkilik davri bo'ldi.

Angliya uchun imperiya va mustamlakalarni yo'qotish mustamlakachilik va imperiyachilik da'volarini tugatish va uning ma'naviy kuchiarini oshirishga olib keldi. Ingliz adabiyotining farqlanib turuvchi xususiyati insonparvarlik, erkinlik va demokratlyada bo'ldi. XX asr ikkinchi yarmida bularga yana bir sifat — yangi dunyoni falsafly idrok etishga intilish qo'shildi.

Urushdan keyingi ingliz adabiyotining eng yirik vakiли **Somerset Moem** (1874—1965) edi. Uning ilk romani "Lambetlik Liza" romani Britamiya imperiyasi gullab-yashnagan paytda, eng so'nggisi — "O'tmishga nigoh" romani esa 1962-yilda nashr etildi. U 91 yoshda hayotdan ko'z yumib, butun bir ulkan davrni boshdan kechir-di. Biroq hamma uchun sevimli va doimo o'qiladigan asarlar muallifi bo'lib qoldi. Yozuvchining uslubi liar qanday savodli odam uchun oddiy va juda tushunarli. Uning "Yozuvchiming yon daftari" (1949), "O'n romanchi va ularning romanlari" (1948), "Nuqtai nazar" (1958), "O'tmishga nigoh" (1962) kitobiari va o'nlab boshqa asarlari nafaqat Angliyada, balki butun dunyoda o'z muxlislariga ega bo'ldi. Tanqidiy realizm tarafdori bo'lgan adib ko'p jihatdan ingliz jamiyatni illatlarini chuqur olib bergan J.Golsuorsiga ko'p jihatdan o'xhash edti. S.Moem ingliz jamiyatining tor manfaat-parastlik va o'zini oliy madamiyatli hisoblovchi xudbinligini o'tkir tanqid ostiga oldi.

Grem Grin (1904—1991) urushdan keyingi ingliz adabiyotida alohida o'rinn tutadi. Yozuvchining barcha asarlari dramatik bo'lib, Angliyada ham, dunyoda ham yuz berayotgan siyosiy voqealar bilan yaqimdan bog'liq. "Yuvvosh amerikalik" (1955), "Vyetnam, Gavanadagi bizning kishi" (1958) — Kuba voqealariga, "Komediantlar" (1966) — Gaitidagi murakkab siyosiy kurashga bag'ishiangan. G.Grın o'z siyosiy romanlari syujetlarini deyarli detektiv shakliga kiritadiki, bu hol o'quvchi diqqatini butunlay qamrab oladi.

Angliyada urushdan keyingi davrda **Jeyms Oldrij** (1918-yilda tug'ilgan) kabi iste'dodli va o'ziga xos yozuvchi adabiy maydonga chiqdi. U urush ishtirokchisi bo'lib, inson hayoti qimmatini fashizmga qarshi janglarda bildi. Adibning qahramonlari frontda mardlarcha



"Inson va tabiat" zamonaviy haykaltaroshlik asari. Ingliz haykaltaroshi Genri Mur.

kurashadi. Ular butun dunyo kishilari hayoti va g'ururi uchun kurashadi. J.Oldrij o'z ijodida ingliz adabiyotining insonparvarlik an'analarini namoyon etdi.

J.Oldrij "Diplomat" (1949), "Ovchi" (1950), "Sahro ufqlari qahramonlari" (1954), "U o'lishini xohlamayman" (1957), "So'nggi quvg'inlik" (1961), "Begona zamin farzandi" (1968) kabi romanlar bilan mashhur.

Urushdan keyingi adabiyotda tarixiy mavzuda XX asr ikkinchi yarmi ingliz yozuvchilari orasida **J.Lindsey** eng mashhurlaridan biri bo'ldi. Uning "Ulug' eman, 1549-yil haqida hikoya" (1957) kitobida 1549-yilgi dehqonlar qo'zg'olonining tarixi aniq va badiiy yorqin manzarasi tasvirlanadi. Adibning "To'lqin ko'tarilmoqda" (1953) va "Tanolash soati" (1955) romanlari ingliz ishchilarining hayoti va kurashiga bag'ishlangan.

Ingliz adabiyotida detektiv romanlar alohida o'rinn tutadi. Bu yo'nalishning eng yorqin namoyandalari 85 roman muallifi **Agata Kristi** (1891—1976) va **Jon Pristli** (1894—1984) bo'ldi. Ularning kitoblari o'zining o'tkir syujetlari bilan e'tiborni tortadi, biroq ayni paytda ular-da zamonaviy ingliz byurokratiyasи, jamiyatning oliy tabaqalari axloqini namoyish etuvchi ijtimoiy yo'nalganlik yorqin ifodalab berilgan.

Boshqa yozuvchilar orasidan **Shon O'Keysi** (1884—1964), **Dorris Lessing** (1919—1981), **U.Golding** (1911-yilda tug'ilgan) kabilarni alohida ko'rsatish mumkin.

**Germabiyadagi
adabiyot**

Ikki qismga bo'lingan va tor-mor etilgan Germaniyada adahiyot turli yo'naliishlarda

rivojlandi, biroq ikki muammo, ya'mi fashizmni g'ayriinsomy mascura sifatida qoralash va fosh etish hamda harbiy xavf-xatarga qarshi kurash umumiy bo'lib keldi. Urushdan keyingi Germanianing eng ko'zga ko'ringan yozuvchisi **S.Byoll** (1917-yilda tug'ilgan). Uning ijodida urushga qarshi kurash asosiy mavzu bo'lib keldi. G.Byoll "Adam, sen qayerda eding?" (1951) satirik romanida fashistlar jinoyatlari uchun aybni zo'ravonlikka qarshi norozilik bildirmagan nemis xalqiga ham yuk-ladi.

Yozuvchi "Ertar yillard nomi" (1955) romanida nemis burjuaziyasi xudbinligi va nemis ziyolilarining fashizm bilan sherikchiligi qoralaydi. Biroq yozuvchi individualizmni qoralasa ham qahramonimi yolg'iz qochoq qilib tasvirlaydi. G.Byoll 1974-yilgi Nobel mukofoti laureati.

E.Remark urushdan keyingi davrda jahon adabiyotini yangi buyuk asarlar — "G'alaba arki" (1946), "Yashash vaqt va o'lim vaqt" (1954) va "Qarzga olin-gan hayot" (1956) bilan boyitdi. Bu asarlarning ma'no va mazmumi shaxs va yashashdan maqsaddir. Uming asarlarida qahramonlarning nozik psixologiyasi va ular faoliyatining ijtimoiy mohiyati atroflicha ochib berilgan.

Mamlakatning ikkala qismidagi nemis yozuvchilari va madaniyat arbobiari achchiq tajribadan xulosa chiqarib, butun insomiyat taqdirining bo'linmasligi konsepsiyasini shakllantirib, hammadan ajralgan holda, xud-binona yashashning vaqt o'tganligi g'oyasini uqtirdilar.

GFR adabiyoti rivojlanishiga **Zigfrid Lens** ("Maxfiy iltijo"—1967-yil, "Nemischa dars"—1968-yil), **German Kazak** ("Daryo ortidagi shahar"—1947-yil) kabi tariqli yozuvchilar hissa qo'shdi. **Leongard Frank** (1882—1961) asarlari Germamiyada demokratik kuchiar g'alabasiga ishonch ruhi bilan yo'g'rilgan. U o'zining "Isoming o'quvchilari" (1947) romani va "Chapda, yurak tomon-da" (1952) avtobiografik kitobida yangi Germaniyada shaxsnинг таркиб топishi эволютсиесини ко'rsatadi. Uning qahramonlari yolg'iz kishilarning estetik isyomidan

demokratiya va adolat uchun kurashga birlashish zaruriyatiga bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi.

Germaniyaning sharqiy qismida yangi nemis adabiyoti shakllandi va ulug‘ nemis madaniyati an‘analarini davom ettirdi, biroq u aym paytda fashizm va militarning mafkuraviy ildizlarini tugatish bilan bog‘liq bo‘lgan yangi tendensiyalarni rivojlanitirdi. GDR ma‘naviyayotini rivojlanishining asosiy yo‘nalishini **Bertold Brext** (1898—1956) va **Logannes Bexer** (1891—1958) belgilab berdi. Brext 1947-yilda GDRga nemis teatri va adabiyotini davolash va qayta tiklash vazifasi bilan keldi. U “Berlin ansambl” teatr truppasini tuzdi, unga Ispaniyadagi urush va gillerchilar konslagerlarini ko‘rgan antifashist madaniyat arboblari kirdi. Ular nenis va xorijiy klassika, A.Ostrovskiy, M.Gorkiy, B.Brext, I.Bexer pyesalarimi qo‘yishdi. Teatrning chet el gastrollaridagi ulkan niuvaffaqiyati uni eng yaxsbi zamonaviy teatrlar safiga qo‘shdi.

I.Bexer ijodi 1914-yildayoq boshlanib taniqlib shoir, novator ham edi. Fashizm tor-mor etilgandan so‘ng I.Bexer GDRda yashadi va o‘zini yangi Germaniya tiklamishiga bag‘ishladi.

Shoir o‘zining “Vatanga qaytish” (1946), “Uzoqdagi baxtlar yaqimda yarqiradi” (1951), “Nemis sonetlari” (1952), “Asr o‘rtasidagi qadam” (1958) nomli to‘plamlarida o‘z ona o‘lkasi va xalqiga muhabbat hislarini uyg‘otgan yangi xalq san’ati va adabiyotini yoqlab chiqdi, nigelizni va pessimizmni qoraladi.

Yangi Germaniya qurilishi uchun kurashga antifashist yozuvchilar **Villi Bredel** (1901—1964) va **Anna Zegers** (1900—1983) muhitim hissa qo‘shdi. Ular Germaniyada irqchilik, zo‘ravonlik, msonga nafrat bilan qarash, milliy xudbinllidan ozod bo‘lgan yangi tafakkurni shakllantirish uchun kurashdilar.

1990-yilda GDR yo‘q bo‘ldi, GFR bilan bir davlatga birlashdi, biroq GDR madaniyati arboblari ijodi o‘z rolini o‘ynadi.

Fransiyada madaniyatning rivojlanishi

Urushdan keyingi fransuz adabiyoti vatanparvarlik to‘lqinida voyaga yetdi. Fransuz yozuvchilarining katta qismi Qarshilik Harakatining faol ishtiroychilari bo‘ldi. Ular oldida azobli savol turar edi: Fransiya nega urushning birinchi bosqichida mag‘lubi-

yatga uchradi, nima uchun uning yo'lboshchilari 1940-yil iyunda taslim bo'lishga bordi? Bu milliy obro'-e'tibor va milliy tiklanish uchun berilgan savol edi.

Elza Triole (1896—1970) asarlarida bu savolga eng yorqin javobiar jarangladi. 1945-yilda u Qarshilik Harakati haqidagi "Movutni yirtganlik uchun— jarima ikki yuz frank" nomli hikoyalari to'plamimi e'lon qildi. 1959—1963-yillarda bu mavzu "Neylon asri" ijtimoiy-psixologik romanlar turkumida davom ettirildi.

Yirik fransuz yozuvchisi va shoiri **Lui Aragon** (1897—1982) urushdan keyingi milliy adabiyotning yo'lboshchisi edi. Uning "Ehtirosli hafta" (1958), "Jiddiy halokat" (1965), "Blansh yoki unutilsh" (1967), "Anri Matiss" (1971), "Teatr — roman" (1974) romanlari Fransiyaning oddiy kishilari va ularning yengil bo'limgan hayotiga bag'ishlandi.

Sartqa qarama-qarshi ravishda L.Aragon ijobiy qahramon, ya'ni yovuzlik, xusumatga faol qarama-qarshi turadigan, tushkunlikni rad etuvchi dunyomi takomillashtirish yo'llda kurashuvchi shaxs timsolini shakllantirdi. Uning izdoshlari bu g'oyaviy yo'lni davom ettirishdi va Fransiya uchun yangi tipdag'i adabiyotni yaratishdi, u fransuz xalqining ko'pchilik qismi uchun ijtimoiy-siyosiy murabbiyya aylandi. **Jan Laffit** (1910-yilda tug'ilgan) yozuvchining yaqin safdoshi edi. Uning "Tiriklar kurashadi" (1947), "Biz hali binafsha uchun qaytamiz" (1948), "Roz-Frans" (1950), "Komandir Marso" (1953) kitohlari Qarshilik ishtirokchilari haqida mard, axloqiy sof, vatami va ozodlikka cheksiz sodiq kishilar sifatida hikoya qiladi.

L.Aragon va J.Laffit ijodiyoti ruhiga yaqin bo'lgan **Andre Stil** (1921-yilda tug'ilgan) va **Jan-Pyer Shahrol** (1925-yilda tug'ilgan) E.Zolyadan so'ng mehnatkash qahramonlar, ularning egilmas irodasi haqida kuyladi.

Ijtimoiyadolat, tinchlik uchun kurash mavzusi zamонавији fransuz adabiyotida markaziy mavzulardan biriga aylandi. Mazkur mavzuni ishlab chiqqan va rivojlantirgan yirik yozuvchilar orasida **R.Vayyan**, **A.Vyurmser**, **P.Kurtad**, **P.Gamarra**, **E.Remark** bor edi.

50-yillar o'rtalarida "yangi roman" deb nomlangan oqim paydo bo'ladi. **Roh-Griye**, **Natali Sarrot** va **Mishel Byutorlar** uning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan edi. Ular an'anaviy roman janrini inkor etib, o'z umrini

yashab bo'ldi deyishdi. Ularning asosiy tamoyili san'at "degumanizatsiyasi" bo'lib, imsonni shaxs sifatida tasvirlashdan voz kechish va adabiyotni buyumlarni tasvirlashga aylantirishni taklif etdi. Shu bois bu oqimni ba'zan "shozizm" (ya'mi "buyumlarni tasvirlash") deb atashadi. Mazkur oqim yozuvchilari ekzistensializmga ham, realizmga ham birdek qarshi cbiqishdi. Ularning asarlari naturalizm bilan farqlamib, ko'pincha turii ma'nosizliklarga olib keldi. Ular uchun o'z olamini yo'qlikdan yaratuvchi yozuvchi fantaziysi adabiy ijodning asosi edi.

"Yangi roman" 60-yillarda undan ham "yangi roman" bilan almashdi. U realizmdan yanada uzoqlashib ketdi.

Urushdan so'ng fransuzlar she'riyatining ilg'or vakilalaridan biri **Jak Prever** (1900—1977) sanaladi. U lirik shoир va aym paytda fransuz siyosati hamda davlat arbobiарining axloqsizligi va ijtimoiyadolatsizlikka qarshi jasur kurashchi edi. She'rлarida humor, satira, lirika, ijtimoiy norozilik ohanglari biday kuchli jaranglaydi.

U shuningdek, rejissyor **M. Karmening** "Maroqli drama", "Tumanli sohil bo'yłari", "Kun boshlanadi", "Oqshomgi mijozlar" kabi filmlariga ssenariylar yozgan. Ushbu filmlar fransuz kinematografiyasining oltin fondidan joy olgan.

Urushdan so'ng Fransiya adahiyotida tarixiy romanlar janri rivojlandi. Bu yo'nallshdagi adibiar ichida **Andre Morua** (1885—1967) yetakchi o'rinni egallaydi. U "Jahonning qudratli kishilar" (1948), "O'lik jonlar talvasasi" (1950), "Do'zaxdagи uchrashuv" (1951) — ijtimoiy trilogiyasini, shuningdek, "La'natlangan qirollar" (1955—1960) degan umumiy nomdag'i tarixiy romanlar seriyasini yozdi. Bu asarlarda fransuz qirollari sirlari, fitna, fisqu fasod, makru hiylalari orqali XVII—XVIII asr Fransiya tarixi ko'rsatib berilgan.

1980-yilda e'lon qilingan "Uch Dyuma" va "Adabiy portretlar" asarlari esa A. Moruaga yanada mashhurlik keltirdi. "Adabiy portretlar"da adib Volterdan tortib Anatol Fransgacha bo'lgan 14 nafar ulug' fransuz yozuvchilarining hayot faohyatini tasvirlab bergan.

SSSRda madamiyat Partiya organlarining "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari to'g'risida"gi 1946-yll 14-avgust hamda "Dramatik janrlar repertuari va uni yaxshllash to'g'risida"gi 1946-yil

26-avgust qarorlari sovet madaniyati rivojining partiyaviy-ma'muriy qonunlarini belgilab berdi. Ularning birinchisida "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari "sovet adabiyotiga yot" asarlarni chop etganlikda ayblanadi. **M.Zoshenko** asarlari "tuturuqsiz va tuhmat"dan iborat, **A.Axmatova** she'rlari esa "bema'ni va siyosatga qarshi" deb baholandi.

Har ikki jurnalga "zamonaviy burjua madaniyatiga ta'zim qillish ruhini" targ'ib qiluvchi asariar chop etmoqda, degan ayb qo'yildi. "Leningrad" jurnall yopildi, "Zvezda" jurnali muharriri ishdan bo'shatildi.

Ikkinchi qaror dramatik teatrлarni ayovsiz tanqid qilishga qaratilgan edi.

Yozuvchilar uyushmasi, jurnallar tahririyatlari, nashriyotlardagi "tozalashiar" davom etib asarlarini matbuotda chop etish taqiqiangan yozuvchilarining "qora ro'yxati" tuzib chiqildi.

1947-yilda "G'arbga sig'inish" deb ta'riflangan "kosalpolitizm" bilan keng va uzoq davom etgan kurash kompaniyasi boshiandi. G'arb madaniyati qattiq tanqid qilinib sovetlarning fan, texnika va tarixdagi ustunligi qayta-qayta ta'kidlanar edi. Chet mamlakatlar bilan imkon qadar kam aloqa qilishga undardi. G'arb radiostansiyalari ovozi "bo'g'ib" qo'yildi.

Bu xuddi 1937—1938-yillardagi kahi yangi "jodugarni ovlash" edi. Yangidan qama-qama, ishdan bo'shatishlar davom etaverdi.

Shunday kampaniya orqali totalitar tuzum Sovet Ittifoqida mustahkam g'oyaviy va siyosiy poydevor qu'rish, insonlarning barcha turmush sohalari ustidan nazorat o'matishga urinar edi.

Shunday bo'lsa-da, o'ta qattiq partiyaviy nazorat sharoitida ham yuqori saviyadagi asarlar yaratildi. So'z ustalari urush, lirika, vatanparvarlik, tabiat go'zalligi, insonparvarlik kabi mavzu va muammolarga suyangan holda adably senzura hamda partiya nazoratini chetlab o'tishga harakat qilar edi. Bu davrda milliy respublikalar yozuvchilari katta rol o'ynadi. Ular "sotsialistik realizm" doktrinasiga milliy mazmun kiritdilar. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" tamoyili shu tariqa qaror topdi. Sovet adiblari totalitar rejimni tanqid qilish uchun hajviy asarlardan foydalanishar edi.

1946-yildan 1953-yilgacha bo'lgan davrda sovet

adabiyotida yuksak badiiy asarlar yuzaga keldi. Jumladan, **A.Fadeyevning** “Yosh gvardiya” (1945), **B.Polevoyning** “Chin inson qissasi” (1946), **Y.Kaverinning** “Ikki kapitan” (1944), “Hamrohiar” (1946), **Y.Ajayevning** “Moskvadan olisda” (1946) asarlari o’tkir syujetli psixologik holatlarni, ijtimoiy-axloqiy nizolarni aks ettiradi. To’g’ri, bu asarlarga “partiya rahbarligi”, “Stalinga sodiqlik” aks ettirilgan mazmumidagi baholar berilgan edi. Ammo ulardagi asosiy g’oya — chm insonlar hayoti, xarakterini ko’rsatish edi.

Urushdan so’nggi ilk davrlarda timchlik, muhabbat va insoniylik sovet adabiyotining eng asosiy mavzulari bo’lib qoldi. **Em.Kazakevichning** (1913—1962) “Oderda bahor”, **V.Katayevning** (1897—1986) “Polk o’g’li”, **L.Sobolevaning** (1898—1971) “Dengiz qalbi”, “Yashil nur” kabi asarlari ushbu davr adabiyotining yorqin namunalari bo’lib qoldi.

Sovet adabiyotini g’arb mamlakatlarining modernistik, falsafiy va ijtimoiy ta’limoti chetlab o’tolmadi. “Temir parda” sovet yozuvchilari bilan xorijiy hamkasbiari o’rtasidagi aloqani cheklab qo’ydi. Bu holat yozuvchilar uslubida konservativm va turg’unlikni keltirib chiqardi. Sovet hukumati tomonidan qattiq nazorat ostiga olingan she’riyatga aymiqsa bu katta salbiy ta’sir ko’rsatdi.

Shunday vaziyatda ham sovet poeziyasida yuksak badiiy asarlar paydo bo’ldi (S.Mixalkov, S.Marshak, I.Selvinskiy, A.Tvardovskiy, N.Tixonov, A.Barto, K.Chukovskiy).

Sovet adabiyoti ko’pmillatli edi. Milliy adabiyotlarda yozuvchi va shoirlarning yangi avlodi yuzaga keldi. O’zbekistonda **Oybek** (1904—1968), **G’afur G’ulom** (1903—1966), **Abdulla Qahhor** (1907—1968)lar talanti yorqim namoyon bo’ldi. Tojikistonda **Sadriddin Ayniy** (1878—1954) ajoyib badiiy asarlar yaratdi.

1956-yilda Sovet Ittifoqining madaniy hayotida tub o’zgarishlar ro’y berdi. Madamiy siyosatning qisman libe-rallashuvi, “iliqlik davri” nomini oldi.

Poeziya eng ommaviy janrga aylandi. **R. Rojdestvenskiy**, **A.Voznesenskiy**, **Y.Yevtushenko**, **B.Okudjava**, **Y.Smelyakov**, **B.Slutskiyning** she’rlarimi deyarli butun mamlakat bilar edi. Ular o’z samimiyligi, Vatan, yer va xalqqa misbatan yangicha falsafiy qaraslulari bilan el nazariga tushdi. **B.Axmadullina**, **Y.Morits**, **N.Matveyeva**

kabi shoira ayollar avlodи yuzaga keldi. A.Axmatova va M.Svetayevalar she'rlari yana e'lon qilina boshlandi.

Poeziya milliy respublikalarda ham yuksala bordi. O'zbekistonda milliy g'urur, ona Vatan, ozodlik haqida yangicha asarlar bltgan yosh shoirlar paydo bo'ldi. **Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov, E'tibor Oxunova** milliy taraqqiyotga yangicha nigoh bilan qarab ijod etdilar. Milliy respublikalar shoirlari o'z vatanlari, tarixi bilan g'ururlanish lozimligini ta'kidlashar edi.

Dissidentlar harakati va adabiyoti jadal rivojlanan boshladi. 1958-yilda **B.Pasternak** (1860—1960) xorijda "Doktor Jivago" romanini e'lon qildi. Unda 1917-yil to'ntarishining salhiy oqibatlari to'la-to'kis ochib berildi. 1959-yilda unga Nobel mukofoti berildi, biroq bu mukofotdan voz kechdi.

1963-yilda "Noviy mir" jurnalida **A.Soljenitsin** qalamiga mansub "Ivan Danilovichning bir kuni" nomli hikoyasi e'lon qilindi. Unda surgun qilinganlar lagerlari hayoti bayon qilingan. Sovet xalqlari birinchi bor GULAG haqida bor haqiqatni bilib oldi.

Mamlakatda norasmiy nashriyotlar ("samizdat") paydo bo'llib, ularda taqiqlangan asarlar chop ettilar edi. Aynan shu yerda ilk bor **V.Visotskiyning** sovet kishilarining asl hayotl haqidagi she'rlari bosilib chiqdi. Ular ommaviy nuxsada chop etilib qo'lma-qo'l o'qilar edi.

Dissidentlar harakati siyosatni liberallashtirishga erishgan va xalqqa sovet davlatining tarixi haqidagi bor haqiqatni yetkazishga harakat qilgan butun madaniyat arboblarini birlashtirdi.

Bunday harakat yetakchisi **A.Soljenitsin** edi. Uning "Birinchilar qatorida" (1964), "Saratonga chalingan vujud", "1914-yll, avgust" (1968) nomli kitoblari xorijda e'lon qilindi. Birinchi ikki roman terror va repressiya tizimini fosh etdi. 1970-yilda A.Soljenitsinga Nobel mukofoti berildi. Bu sovet tashviqotini g'azabga keltirib, uni xoinlikda aybladi. Quvg'inlarga qaramay 1973-yilda Soljenitsin G'arbda "GULAG Arxipelagi" asarini e'lon qildi. Unda sovet lagerlariga surgun qilingan mahbuslarning dahshatli hayotl aks ettirildi. Soljenitsinning obro'si jahon miqyosida juda yuqoriligi bois hukumat uni yana qayta lagerga jo'natishtgiga jur'at eta olmadi va 1974-yilda u SSSRdan chiqqarib yuborildi.

1975-yilda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik

bo'yicha hujjatning imzolanishi G'arb va SSSR o'rtasida madaniy aloqalarning rivojlamishi uchun keng yo'l ochib berdi. Bu rasmiy sovet targ'ibotiga ishonchszizlikni yana-da kuchaytirdi. Mamlakatda M.Gorbachev tomonidan boshlab berilgan qayta qurish partiya targ'ibot niashinasining so'nggi vazifasini tugatdi. Sovet Itti-fiqining qulashi kommunistik ideologiyadan butunlay voz kechishga olib keldi.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida madaniyat rivojlanishi

Urushdan keyin milliy-ozodlik harakatining kuchayishi va mustamlakachilik tizimining yo'q bo'lishi Osiyo, Afrika va

Lotin Amerikasi mamlakatlarida madaniy jarayonlarning jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Ayniqsa, Lotin Amerikasida ko'pgima badiiy asarlar yaratildi. Avvaliga ispan va portugal mustamlakachilari-ga, so'ngra amerika monopoliyasi hukmronligiga qarshi kurashdan ruhiangan holda ushbu qit'aning madaniyat arboblari o'z milliy madaniyatlari rivojlamishiga katta hissa qo'shdilar.

Lotin Amerikasi adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri kubalik shoir **Nikolas Gilen** (1902—1989) o'z xalqining qahramonlik qirralarini she'rлari orqali ochib berdi. Uming uslubi xalq folkloriga yaqin bo'lib antifashist va antimilitar mazmunga ega.

Chililik shoir **Pablo Neruda** (1904—1973) o'z asarlarida xalq og'zaki ijodi — afsona va rivoyatlardan keng foydalanim Amerika tabiatining go'zalligini tarannum etdi. P.Nerudani jahonga tanitgan "Umumxalq qo'shiq" nomli poema-epopeyasi hayot va kurash haqida teran falsafiy fikrlarni bayon etadi.

Lotin Amerikasi madaniyati va san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan adiblardan biri braziliyalik yozuvchi **Jorji Amadu** (1912-yilda tug'ilgan) sanaladi. U Lotin Amerikasi xalqlarining og'ir hayoti aks etgan ko'plab roman, hikoya, qissalar yozgan. "Yashirin ozodlik" (1954) romani yozuvchi ijodidagi tub burilish bo'ldi. Asarning asosiy g'oyasi — fashizmga qarshi kurash. "Gabriel" romanida (1958) J.Amadu burjua axloqiga qarshi chiqadi. Bunda Braziliya xarobalarida yashovchi oddiy odamlar — hunarmandlar, baliqchilar, daydilar hayotini ochib bergan.

Osiyoning yangi adabiyotida g'arb adabiyotining

zamonaviy oqimidan farqli ravishda tanqidiy realizm kuchaydi. Osiyo yozuvchilari o‘z mamlakatlaridagi kundalik hayot haqidagi chin haqiqatni hikoya qilishga urindilar.

Xitoyda g‘alaba qozongan inqilob mamlakat madaniyatining keskin rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Konfutsiyan analari va yangi realistik yo‘nalish uyg‘unlashgan xitoylar madaniyatining asoschisi buyuk Lu Sim (1881—1936) edi.

Xitoylik yozuvchilardan **Mao Dun** (1896—1981), **Ba Szin** (“So‘nggi quyosh”, “O‘ychanlik”), dramaturglardan **Lao She**, **Sao Yuya**, **Sa Yanlar** ko‘plab asarlari orqali tamildi. “Madaniy inqilob” Xitoyda mamlakat madaniyatiga ulkan bo‘hron olib keldi. Biroq 80-yillarda xitoylik yozuvchilarining faolligi kuchaydi. Keyingi yillarda qahramonlarning boy ruhiy holatlari aks etgan ko‘plab asarlar yaratildi. Ular qatorida **Chjan Szening** “Og‘ir qanotlar”, **Ke Yunluning** “Tun va kun”, **Li Sun Baoning** “Tog‘lar orasidagi o‘n to‘qqiz mozor” kabi asarlarini sanab o‘tish joiz. Ushbu asarlar ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilin-gan bo‘lib keng jahon jamoatchiligiga zamonaviy Xitoy madamiyatini targ‘ib qilishga yordam berdi.

Mamlakatdagi tamiqli shoirlar qatorida avvalo **Ay Sin**, **Ven Sze**, **Go Syaoguan**, **Xe Szinjilar** nomini qayd etib o‘tish lozim.

XXRda hozirda yiliga 560 dan ortiq nomdagagi badiiy-adabiy jurnallar, 100 ga yaqin roman, o‘n minglab hikoya va qissalar chop etiladi. Davriy adabiyotlar soni 250 milliondan ortiq. Adabiyot Xitoyda ommaviylashib juda ulkan o‘quvchilar auditoriyasini qamrab olgan.

Hindiston mustaqillikka erishgach, mamlakat yozuvchilari yangi muammolarni tadqiq etishni boshiadi. Mamlakat ikki ming yillik traditsiyalarga ega ikki ming-ga yaqin til, ko‘plab din va ko‘p ukladli iqtisodga ega.

Yozuvchilar asosan o‘z asarlarini ikkita muammoga qaratgan: o‘ta kambag‘allik va inson shaxsini xo‘rlovchi tabaqlamanish tizimi. Hindistonning ilg‘or yozuvchilari o‘z asarlarida diniy, tabaqlamanish ijtimoiy nizolarni bartaraf etishga chaqiradi.

Hind tilida ijod qilgan **Yashpal** (1903—1976) o‘zimeng eng yaxshi asarlarini milliy-ozodlik harakati va ijtimoiy adolat uchun kurashga bag‘ishiadi. “Divya” (1945) va “Yolg‘on haqiqat” (1960) asarlari unga katta shuhrat keltirdi. Hind va ingliz tillarida ijod qilluvchi **Xo‘ja Ahmad**

Abbos (1914 yilda tug'ilgan) kino ssenariy muallifi va kinorejissyor sifatida ham mashhur. Uning "Daydi" (1951), "Janob 420" (1955) va "Ganga" (1953) filmlarini butun dunyo biladi. Ingliz tillida ijod qilgan **Mulk Raj Anand** (1905—1997) ruhiy kechinmalarga boy asarlarini o'tmish sarqitlariga qarshi kurashga bag'ishladi.

Turk yozuvchilar — **Nozim Hikmat** va **Aziz Nesin**, arab adibiari — **Yusef es-Sibai**, **Abdurahim al-Xamisi** **Najib Moxruz**, **Taxa Huseyn**, eronlik **Xusrav Shaxani**, **Feridun Tankaboniylar** chuqur milliy ruhiyatga boy asarlar yaratdilarki, ularda o'tkir ijtimoiy muammolar ko'tarildi. Ularning barchasi jamoat va davlat arboblari bo'lib ayni paytda adabiy ijod orqali milliy mustaqillik hamda taraqqiyot uchun kurashganlar.

Afrika ozodlikka erishgach, yozuvchilarini va madamiyat arbobiariining bosh vazifasi "**ruhiy mustamlakadan ozod bo'lish**"ga qaratildi. Bu Afrika xalqlarining butunlay savodsizligi, mahalliy tillarning rivojlanmaganligi tufayli murakkab jarayonga aylandi. Bundan tashqari, o'qimishli afrikaliklarning aksariyati Yevropa mamlakatlarda ta'lim olishgan edi. Shu tufayll ko'pgina afrikalik yozuvchilar ingliz va fransuz tillarida ijod qilishgan (**L. Sengor**, **A. Karume**) va ularning asarlarini keng xalq ommasi o'qiy olmas edi. Inqilobiy ruhda ijod qilgan adibiar (**Agostinyu Neto** — Angola, **Amilkar Kobrol** — Gvineya-Bissau) afrika xalqlarining ma'naviy merosini rivojlantirish yo'llda ma'rifiy konsepsiymni ilgari surdi. Biroq bosma adabiyot ommaviy o'quvchilarga ega bo'lomadi, badiiy asarlarni targ'ib etuvchi eng qulay vosita radio ho'lib qoldi.

Afrika yozuvchilarini ichida ingliz tillida ijod qiluvchi JARlik **Piter Abraxams** (1919-yilda tug'ilgan) dunyoga tanildi. "Momoqaldiroq so'qmog'i bo'ylab" (1948), "Maykl Udamoga supurgi" (1956) va "Tun hukmronligida" (1965) romanlarida u irqchilikni qoralab chiqdi.

1958-yil oktabrda Toshkentda Osiyo va Afrika yozuvchilarining konferensiysi bo'lib o'tdi. Bu voqeа jahon miqyosida san'at, adabiyot va madamiyat sohasida-gi jarayonlar integrallashuvim boshiab berdi. Konferensiyyada g'arb adabiyotining tamqli vakillari ishtirok etib, konferensiyaning asosiy g'oyasini qo'llab-quvvatladilar hamda turli qit'a madamiyat arbobiariining timchilik va ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda birlashish muammolari bo'yicha bahslarda faol ishtirok etdilar.

X U L O S A

Jahon tariximинг иккинчи ming yilligi dunyoviy ahamiyatga ega ikkita muhim voqeа bilan yakunlandi. 2000-yil 6—8-sentabr kunlari Nyu-Yorkda “ming yillik sammiti”, ya’ni butun jahondagi deyarli barcha mamlakatlarning davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvи bo‘lib o‘tdi. Oradan bir hafta o‘tgach, Avstraliyaning Sidney shahrida go‘yoki ushbu “ming yillik sammiti”ni to‘ldirgandek XXVII yozgi Olimpiya o‘yinlarining tatali ochilishi ho‘lib o‘tdi. Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambieyasi xalqaro huquqlarning barcha normalariga rioya etgan holda jahon hamjamiyatining birqalikda harakat qila olish qobiliyatini namoyish etishi lozim edi. Olimpiya o‘yinlari esa sport, madamiyat, san’at, sivilatsiyami, ya’ni imsoniyatmi birlashtira oluvchi asosmi ko‘rsata oldi.

Nyu-Yorkdagi “ming yillik sammiti”da 170 ta davlat vakillari ishtirok etdi. Tarixda birorta bir xalqaro uchrashuv dunyodagi bunchalik ko‘p eng obro‘li kishilarni to‘play olmagandi. BMT tashkil etilgandan so‘ng 45 yil o‘tgach ushbu nufuzli xalqaro tashkilot o‘zining bosh g‘oyasini amalga oshirdi. Birinchi marta bitta joyda tinchlikni mustahkamlash va hamkorlik qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida jiddiy gaplashib olish uchun kelgusi yuz yillikda xavfsizlik va o‘zaro hamkorlikni ta’minlashda faol ishtirok etishni istovchi butun mamlakatlar vakillari to‘plandilar. Bunday istakda 170 ta davlat yig‘ilganligini e’tirof etsak, shuning o‘zi yangi ming yillik boshanishida ko‘p umidlar tug‘diradi. Insomiyat bir qator xatarli muammolarga duch keldi. Shulardan biri xalqaro terrorizm sanaladi. Rossiya shaharlarida uylarning portatlishi, Kolumbiya va Filippinda kishilarning garovga olimishi, Afg‘omistonda tinch aboli ustidan ommaviy terror o‘tkazilishi, Shri-Lankada tinch aholining qirg‘in qilinishi, siyosiy arbobiarning yo‘q qilinishi kabi voqealar

tinchlikka kuchli xavf solinayotganiga ogohiantirishdir. Hozirda terrorizm dunyoviy voqeaga aylandi va jallodlar, zo'rvonlar, talonchilarning uyushgan armiyasiga aylandi. Ular turli usullardan foydalanib butun mamlakatlar va mintaqalar timchligi hamda barqarorligiga xavf solmoqda. Endilikda ular ommaviy qirg'in — kimyoviy va bakteriologik qurollarga ega bo'lishga urinmoqdalar.

2001-yil 11-sentabrda terrorchilar tomonidan Nyu-Yorkdagagi osmono'par bino — Savdo markazi butunlay portlatib yuborildi. AQSHning maxsus xizmat xodimlari katta tajriba va keng tarmoqligiga qaramay uning oldini ololmadi, natijada minglab odamlar olov va bino qulashidan halok bo'ldi. Bu hol terrorizm dunyo miqyosidagi muammoga aylanganligini anglatadi va butun jahon hamjamiyati kuchiarini birlashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov sammitda so'zga chiqib ishtirokchilar e'tiborini butun dunyo xalqlari uchun xavf solayotgan terrorizmga qaratdi. Prezident ta'kidlab o'tdiki, "zamonaviy dahshatli hodisalar" — xalqaro terrorizm va narkobiznesning chatishib ketishi alohida xavf tug'dirmoqda. I.A.Karimov BMT doirasida terrorizm bilan kurash bo'yicha Xalqaro markaz tashkil etish taklifini ilgari surdi.

Hozirgi jahon tarixi jarayoni ikkita asosiy tendensiya bilan izohianadi:

1. AQSH rahbariyati va yetakchi siyosiy arbohlari "bir qutbbi" dunyo, ya'ni butun dunyo ustidan Amerika hukmronligi o'rnatilishi to'g'risida ochiqdan-ochiq gapirmoqda. Amerika iqtisodining mukammal tizimi, o'sib borayotgan barcha texnologik taraqqiyot, axborot oqimini tashkil etishda siyosiy rahbarlik va hukmronlikning uyg'unlashuvi, mamlakatning butun dunyo fami markazi va inson huquqlarini muhofaza qilish timsoliga aylamishi AQSHning dunyo siyosatida yetakchilik qilishini ta'minlamoqda.

Shu bilan birga dunyo siyosatida Kossiya, Xitoy va Hindiston kabi Amerika hukmronligi o'rnatilishi bilan kelishmayotgan davlatlar ham bor. Shumi unutmaslik kerakki, AQSH aynan Osiyoda (Xitoy, Koreya, Vyetnam va Eron) Ikkinchisi jahon urushidan so'ng yirik mag'lubiyatga uchragan.

2. Dunyo siyosatida va xalqaro munosabatlarda madamiy-sivilizatsiya omillarining ta'siri o'sib bormoqda. Sivilizatsiyalar o'rtasida muloqot va o'zaro hamkorlik rivojlanayapti. Hozirgi vaqtda dunyoda xitoy, g'arb, hind, markaziy osiyo, lotin amerikasi va slavyan tarixiy sivilizatsiyalari aniq belgilangan. Ushbu sivilizatsiyalarning totuvligi, bir-birini tushunishi va o'zaro ta'siri asosida yangi sivilizatsiyalar kelajakda g'oyalar urushiga chek qo'yish, strategik, iqtisodiy va siyosiy qaramaqarshilikni tugatish hamda inson omilini xalqaro munosabatlarning bosh mezoni etib belgilashda bir-hirlariga ko'maklashadilar.

Jahon tarixi sanalarda 1945—2002-yillar

1945-yil

iyun — BMT ustavining qabul qilinishi

15-avgust — Yaponiya imperatori Xiroxito Yaponianing so'zsiz taslim bo'lganligi haqida farmon chiqardi

2-sentabr — Yaponianing Ikkinchı jahon urushida so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi aktning imzolanishi

24-oktabr — BMT Nizomining ushbu tashkilot ko'pchilik a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi

29-noyabr — Yugoslaviyaning Federativ Respublika deb e'lon qilinishi

1946-yil

1945-yil 20-noyabr — 1946-yil 1-oktabr — Asosiy harbiy jinojatchilar ustidan Nyurenberg jarayoni

10-yanvar — Londonda BMT Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasi ochildi

11-yanvar — Albaniyaming respublika deb e'lon qilinishi

31-yanvar — Yugoslaviyada federatsiya tarkibida oltita mustaqil respublika tashkil etildi (Serbiya, Chernogoriya, Xorvatiya, Slovakiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya)

1-fevral — Vengriyaning respublika deb e'lon qilinishi

5-mart — Rultonda U.Cherchilning "sovruq urush" boshianishiaga sabab bo'lgan chiqishi

21—22-aprel — GKP va GSDP GSBPga birlashishi

27-aprel — Tokioda II jahon urushi yillardagi asosiy jinoyatchilar ustidan sud jarayoni boshlandi

2-iyun — Italiyaning respublika deb e'lon qilinishi

iyul — Xitoyda fuqarolar urushining boshianishi

15 va 25-iyul — Bikin attolosida atom bombasi sinovlarining o'tkazilishi

15-sentabr — Bolgariyaning respublika deb e'lon qilinishi

13-oktabr — Fransiyada To'rtinchı respublika e'lon qilinishi

22-noyabr — Bolgariyada G.Dimitrov boshchiligidagi Vatan fronti hukumatining tashkil topishi

2-dekabr — Germaniyading Bizonyada okkupatsiya qilingan zonalarini 1947-yil 1-yanvardan qo'shib yuborish haqidagi ingliz-amerika bitimi

11-dekabr — BMTning bolalarga yordam berish jamg'armasi (UNISEF) tashkil topdi

1947-yil

4-yanvar — Birma mustaqilligining e'lon qilinishi va uning Britaniya hamdo'stligidan chiqishi

10-fevral — Parijda II jahon urushidagi g'olib davlatlar o'rtaida va Germaniyaning sobiq ittifoqchilar — Italiya, Ruminiya, Vengriya va Finlandiya bilan tinchlik shartnomasining imzolarishi

12-mart — AQSHda Trumen doktrinasining e'lon qilinishi

29-may — Hindistonda daxlsizlik tabaqalarini tugatish haqida qaror qabul qilindi

5-iyun — AQSH davlat kotibi J.Marshall Garvard universitetida so'zlagan nutqida Amerika iqtisodiy yordami (Marshall rejası) ko'rsatish orqali Yevropani tiklash va rivojlantirish dasturini bayon qildi

15-avgust — Mustaqillikning e'lon qilinishi va Hindistonning bo'linishi (Pokistonning tashkil topishi). J.Neru Hindiston Bosh vaziri lavozimini egalladi

18-sentabr — AQSHda Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB)ning tashkil topishi

1948-yil

20-yanvar — Hindistonda Maxatma Gandini ekstremist-hind suiqasd qilib o'dirdi

20-iyul — Li Sim Man Januhiy Koreya prezidenti etib saylandi

2-may — Amerika davlatlari tashkilotining tashkil topishi

2-aprel — AQSH kongressi tomonidan "Marshall rejası"ning qabul qilinishi

13-aprel — Ruminiya respublikasi o'zining birinchi konstitutsiyasini qabul qildi

16-aprel — "Marshall rejası" doirasida Yevropa iqtisodiy hamkorligi to'g'risidagi bitimining imzolanishi

14-may — Isroil mustaqil davlati tashkil topganligining e'lon qilinishi

15-may — Isroil va arab davlatlari o'rtaida ilk urushiarning boshlanishi. Isroil tomonidan Quddus va Falastinning bir qismi bosib olindi

14-iyun — E.Beneshning iste'foga chiqishi. K.Gotvald Chexoslovakiya prezidenti etib saylandi

24-iyun — G'arbiy Berlinning qamal qilinishi

9-sentabr — KXDRning e'lon qilinishi; Kim Ir Sen bosh vazir etib tayinlandi

2-oktabr — AQSH prezidentlik saylovlarida G.Trumenning g'alabasi

12-noyabr — Tokioda asosiy yapon harbiy jniyoyatchilar ustidan sud jarayoni yakunlandi

10-dekabr — BMT Bosh Assambleyasi Inson huquqlari umumdeklaratasiyasini qabul qildi

30-dekabr — monarxiyaning tugatilishi va Ruminiyaning xalq respublikasi deb e'lon qilinishi

1949-yil

25-yanvar — O'zaro Yordam Iqtisodiy Kengashining tashkil topishi (O'YIK)

4-aprel — Vashingtonda Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Kanada, Daniya, Islandiya, Norvegiya, Portugaliyadan iborat Shimoliy Atlantika pakti (NATO) tashkil topdi

8-may — GFR Konstitutsiyasining qabul qilinishi. GFRning tashkil topishi

18-iyun — Irlandianing Britamiya Hamdo'stligidan chiqishi. Irlandianing respublika deb e'lon qilinishi

20-avgust — Vengriya Xalq respublikasi deb e'lon qilindi

25-sentabr — SSSRda birinchi marta atom bombasi sinab ko'rildi

1-oktabr — XXP e'lon qilindi

7-oktabr — GDR tashkil topdi

1950-yil

26-yanvar — Hindiston Respublikasi e'lon qilindi

25-iyun — KXDR hududiga Janubiy Koreya qo'shinlarining hujumi. Koreyada urush boshlanishi

29-sentabr — GDRning O'YIKga qabul qilinishi

1951-yil

1-sentabr — San Fransiskoda AQSH va Yaponiya o'ttasida Xavfsizlik bo'yicha Timch okean paktining imzolanishi. Mamlakatdan AQSH qo'shinlari olib chiqib ketildi

1952-yil

18-fevral — Gretsiya va Turkiyaning NATOGa qo'shilishi

26-fevral — Buyuk Britaniya atom bombasi yaratganligini e'lon qildi

22-iyul — Polshaning respublika deb e'lon qilinishi

26-iyul — Misr qiroli Farruxning taxtdan voz kechishi

27-sentabr — Ruminiya konstitutsiyasi qabul qilinishi

30-oktabr — Angliyada birinchi bor atom simovi o'tkazildi

4-noyabr — AQSH prezidentlik saylovlarida D.Eyzenxauer g'alabasi

1953-yil

5-mart — I.V.Stalin o'limi

18-iyun — Misrning respublika deb e'lon qilinishi

19-iyun — AQSHda atom bombasini yaratishi sirlarini SSSRga sotganlikda ayblangan er-xotin Julius va Emel Rozenberglar qatl qilindi

9-iyul — SSSR ichki ishiar vaziri Beriya hukumatni egallab olishga urinishda ayblamb qamoqqa olindi; 23-dekabrda otib tashiandi

20-avgust — SSSRda vodorod bombasi sinovi o'tkazildi

1954-yil

19-fevral — Qrim viloyatini Ukraina tarkibiga berish haqida qaror qabul qilindi

2-mart — Qozog'iston hududida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish bosildandi

21-iyul — Jeneva bitimiga muvofiq Vyetnam 17-parallel bo'yicha bo'lindi

8-sentabr — Manilada Janubi-Sharqiy Osiyo (SEATO) muddafaasi to'g'risidagi Shartnoma imzolandi

1955-yil

24-fevral — Kubada F.Batista mamlakat prezidentligiga saylandi

18-aprel — Vengriyada bosh vazir Imre Nad iste'foga chiqdi

9-may — G'arbiy Germaniya NATOGa qabul qilindi

14-may — Yevropadagi sotsialistik mamlakatlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida Shartnoma (Varshava shartnomasi) imzolandi

26-oktabr — Ngo Din Dem rahbarligidagi Vyetnam respublikasining e'lon qilinishi

1956-yil

— N. S. Xrushchev shaxsga sig'inish va uning oqibatlari to'g'risida ma'ruba qildi

23-mart — Pokiston Islom Respublikasi e'lon qilinishi

24-iyun — polkovnik Kamol Abdul Nosir Misr prezidenti etib saylandi

26-iyul — Misr tomonidan Suvaysh kanalining natsionalizatsiya qilinishi

19-oktabr — Diplomatik munosabatlarni tiklash to'g'risida sovet-yapon Deklaratsiyasining imzolamishi

23-oktabr — **4-noyabr** — Vengriyada mavjud rejimga qarshi xalq qo'zg'olomi

30-oktabr — Isroil-Misr urushining boshlanishi

30-oktabr — Vengriyadan sovet qo'shinlarining olib chiqib ketilishi

1957-yil

6-fevral — Isroil qo'shinlari G'azo sektorini BMT qurolli kuchlari nazorati ostiga topshirdi

fevral — repressiya qilingan xalqlarni qisman reabilitatsiya qillish va chechen, qolmoq va qorachoy xalqlari milliy avtonomiyalari tiklamishi

25-mart — Yevropa iqtisodiy kengashi ("Umumiy bozor")ni tashkil etish to'g'risida Rim protokollarining imzolanishi

4-oktabr — SSSR birinchi sun'iy Yer yo'koshini uchirdi

1958-yil

8-yanvar — Fransiyada general Shari de Goll Beshinchi respublika prezidenti deb e'lon qilindi

15-may — Angliyada birinchi marta vodorod bombasi sinab ko'rildi

14-iyul — Iroqdag'i inqilob. Monarxiya qulab respublikaning e'lon qilinishi

28-sentabr — Fransiya Beshinchi respublika konstitutsiyasi qahul qilindi

1959-yil

1-yanvar — Kubada inqilob g'alaba qozondi. Fidel Castro mam-lakat prezidenti etib saylandi

16-iyun — Moskvada Xalq xo'jalik yutuqlari ko'rgazmasi ochildi

1960-yil

1-may — Amerikaming Garri Pauers boshqarayotgan o'ta balandlikda uchuvchi U-2 razvedkachi samolyoti urib tushirildi (19-avgustda Pauers ayg'oqchiligi uchun 10 yil muddatga qamoq jazosiga bukm qilindi)

16-avgust — Kipr mustaqilligi e'lon qilindi

8-noyabr — J.Kennedining AQSH prezidentlik saylovlari dagi g'alabasi

14-noyabr — neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti — OPEK tashkil topdi.

20-dekabr — Janubiy Vietnam (Vetkong)ni ozod qilish Xalq fronti tuzildi

1961-yil

12-aprel — SSSRda Y.Gagarin kosmik kema bilan uchirildi (insonning ilk bor fazoga uchishi)

17-aprel — Fidel Castro dushmanlarining Ploya-Xiron rayoniga hujumi

13-avgust — Sharqiy Germamiya Brandenburg darvozasi orqali o'tiladigan Sharqiy va G'arbiy Berlin o'rtaisdagi erkin o'tish chegarasini yopib qo'ydi

29-sentabr — Suriya Arab Respublikasining e'lon qilinishi

1962-yil

18-mart — Fransiya va Jazoir o'rtaisdagi o't ochishni to'xtatish to'g'risidagi Evian bitimi imzolandi

22-oktabr — 28-oktabr — Karib tangligi

1963-yil

15-oktabr — Konrad Adenauer iste'foga chiqdi

22-noyabr — Dallasda (Texas shtati) AQSH prezidenti Kennedy o'ldirildi

1964-yil

7-yanvar — Buxoro-Ural gaz quvurining birinchi navbati qurilishl yakunlandi

14-may — Misrda Asuan to'g'onining ochilishi

16-oktabr — Xitoyda birinchi bor atom quroli sinab ko'rildi

3-noyabr — AQSHdagi prezidentlik saylovlarida Lindon Jonson g'alabasi

1965-yil

7-fevral — VDR hududining AQSH aviatsiyasi tomonidan ommaviy bombardimon qilishni boshlashi

1966-yil

19-yanvar — Hindiston bosh vaziri lavozimini Indira Gandhi egalladi

9-mart — Fransiya prezidentining NATOdan chiqish to'g'risida arizasi

26-aprel — Toshkentda kuchli zilzila ro'y berdi

9-oktabr — Ernesto Che Gevari Boliviyada vafot etdi

1-dekabr — GFRda "katta koalitsiya" hukumati — XDI/XSI va GSDP tashkil topdi.

1967-yil

21-aprel — Gretsiyadagi harbiy to'ntarish, hukumat tepasiga "qora polkovniklar" kelishi

10-may — Harbiy tribunal Stokgolmida Vyetnamga qarshi operatsiyada AQSHni aybladi

5-iyun — Misr, Iordaniya va Suriyaga qarshi Isroil harbiy agresiyasi boshlandi (olti kunlik urush)

17-iyun — XXRda vodorod bombasining ilk bor sinovi o'tkazildi

1968-yil

21-avgust — Chexoslovakiyaga Varshava shartnomasi tarkibidagi beshta mamlakat qo'shinlari kirib bordi

5-oktabr — Shimoliy Irlandiyada katolik aholisi namoyishi tarqatib yuborildi. "Olster krizi" boshlanishi

5-noyabr — AQSHdagi prezidentlik saylovlarida Richard Nixon g'alaba qozondi

1969-yil

3-fevral — Yosir Arafat Falastin ozodlik tashkiloti raisi etib saylandi

28-aprel — Fransiya prezidenti Sharl de Goll iste'foga chiqdi

15-iyun — Jorj Pompidu Fransiya prezidenti etib saylandi

1-sentabr — Liviya respublika deb e'lon qilindi

1970-yil

29-sentabr — Anvar Sadat Misr prezidenti etib saylandi

9-oktabr — Kombodja Kxmer respublikasi deb e'lon qilindi

24-oktabr — Chili prezidentligiga Salvador Alyende saylandi

31-oktabr — O'zbekistonda katta Andijon kanali qurilishi yakunlandi

7-dekabr — G'arbiy Germaniya va Polsha Oder-Neysa bo'yicha chegaralarni tan olish to'g'risidagi Shartnomani imzoladi

1971-yil

24-mart — Laosdan januhiy Vyetnam qo'shinlarining batamom quvilishi

28-oktabr — Angliyaning "Umumiy bozor"ga kirishi

3—17-dekabr — hind-pokiston urushi. Bangladeshning tashkil topishi

1972-yil

22-yanvar — Bryusseida Angliya, Damiya va Irlandiyaning 1973-yil 1-yanvardan YIIga kirishl to'g'risidagi shartnomasi imzolandi

22-may — Seylonning Shri-Lanka mustaqil respublikasi deb e'lon qilinishi

1973-yil

27-yanvar — AQSH tomonidan Shimoliy Vyetnamga qarshi harbiy operatsiyalarning to'xtatilishi

17-iyul — Afg'onistonda monarxiyaning ag'darilishi va respublika deb e'lon qilinishi

11-sentabr — Chilida general A.Pinochet boshchiligidagi harbiy to'ntarish, Chili prezidenti S.Alyende o'ldirildi

18-oktabr — G'arbiy va Sharqiy Germaniya BMTga qabul qilindi

1974-yil

25-aprel — Portugaliyada fashistlar rejimi ag'darildi

16-may — Broz Tito Yugoslaviya prezidenti etib saylandi

9-avgust — R.Nikson "uostergeyt ishi" sababli iste'foga chiqdi. Vitse-prezident Jerald Ford AQSHning 38-prezidenti etib saylandi

31-avgust — Gretsiyaning NATO tarkibidan chiqishi

1975-yil

17-aprel — Kambodjada Pol Pot boshchiligidagi harbiy to'ntarish amalga oshirildi

1-avgust — Xelsinkida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Kengashning xulosa akti imzolandi

10-noyabr — Angolaning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi. Agostinyu Neto prezident etib saylandi.

14-dekabr — Kombodja Konstitutsiyasining qabul qilinishi va mamlakatning Kampuchiya Demokratik Respublikasi deb qayta nomlanishi

1976-yil

2-iyun — Shimoliy va Januhiy Vyetnamning rasmiy birlashgan kuni

2-iyul — Vyetnam qo'shilishining tugallanishi va VSRning tashkil topishi

4-iyul — AQSH mustaqilligining 200 yilligi

9-sentabr — Mao Szedun o'limi

2-noyabr — Jeyms Karter AQSH prezidenti etib saylandi

1977-yil

30-iyun — SEATOning rasmiy yopilishi

7-oktabr — SSSR yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi

1978-yil

28-aprel — Afg'onistonning respublika deb e'lon qilinishi.
N.M.Tarakiyming davlat rahbari etib saylanishi

1979-yil

7-yanvar — Kampuchiyada "qizil kxmerlar" rejimi ag'darildi.
Pol-Ieng Sari rejimi quladi

4-may — Margaret Tetcher Buyuk Britaniya bosh vaziri etib saylandi

16-iyul — Saddam Husaynning Iraq prezidenti etib saylanishi

16-sentabr — Afg'onistonda X.Amin hokimiyatni egalladi

11-noyabr — Eronda islom inqilobi g'alaba qozondi. Shohlik rejimining ag'dariliishi

27-dekabr — X.Amin rejiminining qulashi, mamlakat rahbari — Babrak Karmal

28-dekabr — Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga olib kirilishi

1980-yil

18-aprel — Rodeziyaning Zimbabve mustaqil respublikasi deb e'lon qilinishi

iyul — Polshada siyosiy inqirozning boshlanishi. "Solidarnost" kasaba uyushmasi tashkil topishi

4-may — YSFR prezidenti B.Tito vafot etdi

4-noyabr — AQSHda prezidentlik saylovlarida Ronald Reygan g'alaba qozondi

sentabr — Eron va Iraq o'rtasida urushning boshianishi (8 yil davom etdi)

1981-yil

1-yanvar — Gretsianing YII a'zoligiga qabul qilinishi

4-mart — O'zbekistonda Navoiy GRES qurilishi yakunlandi

6-oktabr — Misr prezidenti A.Sadat o'ldirildi

14-oktabr — Misr prezidenti etib Husni Muborak saylandi

17-noyabr — Chexoslovakiyada "baxmal inqilobi"ning boshlamishi

1982-yil

28-aprel — Argentina qo'shinlari Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan Folkland orollariga tushirildi

25-aprel — Isroil qo'shinlarining Sınay orollaridan olib chiqilishi yakunlandi

30-may — Italiyaning NATOGa qabul qilinishi

10-noyabr — L.I.Brejnev vafot etdi. Uning vazifasini Y.Andropov egalladi

1984-yil

31-oktabr — Hindiston bosh vaziri Indira Gandining o'ldirilishi. Rajiv Gandhi — yangi bosh vazir

6-noyabr — Ronald Reyan AQSHda prezidentlik saylovlarida g'alaba qozondi

1985-yill

aprel — M.Gorbachev tomonidan SSSRda qayta qurish siyosatining Arnalga tatbiq etilishi

1986-yil

1-yanvar — Ispaniya va Portugaliya YII a'zoligiga qabul qilindi

fevral — SSSRda oshkoralik kampaniyasi boshiandi

26-aprel — Chernobll atom elekrostansiyasidagi portlash

1987-yil

1-iyun — Margaret Tetcher uchinchi marta Angliya bosh vazirligiga saylandi

30-noyabr — Najibulloning Afg'oniston prezidenti etib saylariishi. Mamlakat yangi konstitutsiyasining qabul qilinishi

1988-yil

23-fevral — Armanistonning Tog'li Qorabog' avtonom viloyati da millatlaro to'qnashuvning boshlanishi

15-may — Sovet qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqib ketishi

23-iyun — Elatlararo tartibsizliklarga chek qo'yish uchun Armaniston, Ozarbayjon va Tog'li Qorabog'ga qo'shin kiritildi

4-sentabr — Kosovoda aholini alban separatchilaridan himoya qilish uchun favqulodda holat joriy etilishini himoya qilgan holda serblar va chernogorslar namoyishi o'tkazildi

5-oktabr — Chilidagi plebissit (referendum)da A.Pinochet mag'lubiyatga uchradi

1-oktabr — M.S.Gorbachev SSSR Oliy Sovetl kengashi Raisi etib saylandi

8-noyabr — Jorj Bush AQSHda prezidentlik saylovlarida g'alaba qozondi

2-dekabr — Benazir Bxutto — Pokiston bosh vaziri

1989-yil

7-yanvar — Yaponiya imperatori Xiroxito o'limi. Akixitonning taxtga o'tirishi

15-fevral — Sovet qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqib ketilishining yakunlanishi

25-may — 9-iyul — M.S.Gorbachevning SSSR Prezidenti etib saylanishi

3—15-iyun — Farg'onadagi millatlararo to'qnashuv

19-iyul — general Yaruzelskiyning Polsha prezidentligiga saylanishi

31-oktabr — Turg'ut Ozal Turkiya prezidenti etib saylandi

9-noyabr — Sharqiy va G'arbiy Germaniya o'tasidagi chegaralarning ochilishi e'lon qilindi

23-dekabr — Ruminiyada N.Chaushesku tuzumining ag'darilishi

29-dekabr — Vatslav Gavelning Chexoslovakiya prezidenti etib saylanishi

1990-yil

15-mart — M.Gorbachevning SSSR prezidenti etib saylanishi

29-may — B.N.Yelsinning RSFSR Oliy Soveti raisi etib saylanishi

12-iyun — Rossiya Federatsiyasi davlat suvereniteti haqidagi bayonnomma

27-iyul — Belorussiya davlat suvereniteti haqidagi bayonnomma

3-oktabr — Germaniyaning qayta birlashishi, yagona german davlatining e'lon qilinishi

oktabr — Qozog'iston, Qirg'iziston, Boshqirdiston, Qalmiqiston, Chuvashiston respublikalari davlat mustaqilligi haqida bayonnomma

9—10-oktabr — "Berlin devori"ning qulashi

28-noyabr — Buyuk Britaniya bosh vaziri etib Jon Meyjorning saylanishi

1991-yil

16-yanvar — AQSH va ittifoqdosh qo'shinlarning Quvaytni Iroq bosqinidan ozod etish bo'yicha "sahrodagi bo'ron" operatslyasi boshlanishi

12-iyun — B. N. Yelsin Rossiya Federatsiyasi prezidenti bo'ldi

17-iyun — aholini ro'yxatga olish haqidagi qonunning man etilishi, Januhiy Afrikada aparteidning bekor qilinishi

25-iyun — Jugoslaviya tarkihidan Slovakiya va Xorvatiyaning chiqishi

1-iyul — Varshava shartnomasi tashkilotining rasmiy tugatilishi haqidagi protokolning Pragada imzolamishi

20-avgust — Estoniya mustaqilligining e'lon qilinishi

21-avgust — SSSRda GKCHP isyonining tugatilishi

21-avgust — Latviya mustaqilligining e'lon qilinishi

24-avgust — Ukraina nuustaqilligining e'lon qilinishi

27-avgust — Moldaviya, Gruziya, Armaniston respublikalari nuustaqilligining e'lon qilinishi

31-avgust — O'zbekiston Respublikasi mustaqiliigining e'lon qilinishi

22-sentabr — Armaniston nuustaqilligining e'lon qilinishi

8-dekabr — SSSRning parchalanishi — Belovej bitimining imzolanishi

21-dekabr — MDH (sakkiz respublika) tashkil etilishi haqidagi bitimining imzolanishi

25-dekabr — M.S.Gorbachev SSSR Prezidenti vakolatlarini o'zidan soqit qildi

1992-yil

1-fevral — Rossiya Federatsiyasi va AQSHning "sovuv urush" holatini to'xtatish haqidagi bayonoti

2-mart — Bosniyada fuqarolar urushi boshianishi

1993-yil

1-yanvar — Chexiya va Slovakiya mustaqilligining e'lon qilinishi

26-yanvar — Bill Klintonning AQSH prezidenti etib saylanishi

may — Sulaymon Demirelning Turkiya prezidenti etib saylanishi

3-oktabr — Moskvada Oq uyning ishg'ol etilishi

dekabr — JAR yangi Konstitutsiyasi qabul qilinishi. Demokratik davlatning barpo etilishi

1994-yil

10-may — Nelson Mandela Janubiy Afrika prezidenti sifatida qasamyod qabul qildi

31-avgust — G'arbiy Germamiyadan Rossiya qo'shinlari kontingen廷ting chiqarilishi

1994—1996 — Rossiya qo'shinlarining Chechenistonda "Konstitutsiyaviy tartibni o'rnatish bo'yicha" harbiy harakatiari

1995-yil

16-mart — Missisipi shtatida AQSH Konstitutsiyasiga qullikni man etish to'g'risidagi tuzatish ratifikatsiya qilindi

7-may — Jak Shirak Fransiya prezidenti etib saylandi

21-noyabr — Bosniya mojarosini tartibga solish haqidagi shartnomaning imzolanishi

1996-yil

2-aprel — Moskvada ikki mamlakat hamjamiyatini tuzish haqidagi Rossiya-Belorus shartnomasi imzolamishi

1997-yil

— Gonkong yana XXR bududiga kirdi

1998-yil

27-sentabr — Gerdar Shryoderning Germaniya kansleri etib saylanishi

1999-yil

aprel—may — Hindiston va Pokistonda yadro quroli simovi

sentabr — Kosovo hududiga NATO qo'shinining kiritilishi

31-dekabr — B.N.Yelsinning iste'foga chiqishi

2000-yil

26-mart — V.Putinning Rossiya Federatsiyasi prezidenti etib saylanishi

2001-yil

28-iyun — S.Miloshevichni harbiy jinoyatlarda ayblash bo'yicha BMT Xalqaro tribunali jarayonining boshianishi

11-sentabr — Nyu-York va Vashingtonda terroristik hujum; Afg'oniston hududida antiterroristik kompaniya boshianishl

2002-yil

2-dekabr — Yaqin Sharq inqirozini tartibga solish rejasining ("yo'l xaritasi") qabul qilinishi

2003-yil

2-may — AQSH va Buyuk Britaniya koalitsiya kuchlarining Iroq hududini bosib olishi

G.A.HIDOVATOV

JAHON TARIXI

Eng yaqin tarix

II qism (1945—2003-yillar)

*Umumta 'lim maktablarining
11-sinf o'quvchilari uchun darslik*

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi
Toshkent — 2004

Muharrir *Akbar Bahromov, Saidmurod Xo'jayev*

Badiiy muharrir *Mikhail Samoylov*

Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*

Sahifalovchi *Mastura Atcamova*

Musahhihlari: *Yulduz Bizaatova, Sharofat Xurramova*

Bosishga ruxsat etildi 16.04.2004. Bichimi $84 \times 108^1/32$. Ofset bosma. Tayms garniturasi. Shartli bosma tabog'i 21,8. Nashriyot-hisob tabog'i 22,5. Adadi 15000. Buyurtma № 4948. Bahosi 1760 so'm.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi, 700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41

Bahosi 1760 so'm.



Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda ten bo'lib tug'iladilar. Ular oqil va vijdon sohibidirlar va birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur.

*Inson huquqlari to'g'risida
xalqaro bili*

